TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MAXTUMQULI

92

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MAXTUMQULI

92

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.164-1
KBK 84(5Tur)-5
M 32

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Bahodir Karim

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8571-9-3

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

TURKIY XALQLARNING SEVIMLI SHOIRI

Buyuk insonlar tug'ilishda muayyan millatga mansub bo'lsalarda, favqulodda faoliyatlari bilan butun insoniyatga daxldor bo'lishadi. Turkman xalqining benazir shoiri va beqiyos mutafakkiri Maxtumquli Firog'iy ham jahon adabiyoti yuksakligiga ko'tarilib, bashariyat shoiriga aylandi. Zero, teran tafakkur mahsuli bo'lgan badiiy barkamol asarlarining dunyo ilm-u adab ahli tomonidan katta qiziqish bilan o'qib-o'rganilayotgani uning yer yuzida yashayotgan barcha xalqlarga birday sevimli jahoniy miqyosdagi muazzam so'z san'atkori ekanligini ko'rsatadi.

Maxtumquli, barcha turkiy xalqlar qatori, O'zbekistonda ham eng mashhur, eng sevimli, eng ommabop shoirlardan biri hisoblanadi. Shoir she'rlari qo'lyozmalari asrlar davomida xalqimiz orasida keng tarqalgan. Ayniqsa, ma'naviy-axloqiy mavzudagi teran pand-nasihatga yo'g'rilgan ma'nodor she'rlari kirib bormagan o'zbek xonadoni yo'q, Maxtumquli nomini bilmaydigan birorta o'zbek topilmaydi, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Maxtumquli she'rlari o'zining xalqchil ruhi tufayli asrlar davomida xalq baxshilari, xalfalari va hofizlari tomonidan kuylanib, shoirlarga ilhom berib, adabiy davralar va she'riyat kechalari, gap-gashtaklarda o'qilib kelgan. O'zbekning biror to'y-tantanasi yo'qki, u Maxtumquli qo'shiqlarisiz o'tsa! Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul ta'biri bilan aytganda: "Maxtumquli she'riyati o'zbek madaniyatining qonuniy bir bo'lagi, ehtiyoj qismiga allaqachonlar aylanib ulgurgan. Bu she'riyat har bir o'zbek uchun bir ta'lim Akademiyasi". O'zbek olimlari tomonidan Maxtumquli hayoti va ijodining muttasil o'rganilib kelayotgani, yangidan yangi maqola va tadqiqotlar yaratilayotgani, shoir tarjimonlari safi tobora kengayib borayotgani va bugungi kunda ularning soni o'ndan oshgani, shunga muvofiq ravishda, asarlarining rang-barang nashrlari paydo

bo‘layotgani buning yorqin dalilidir. Buyuk so‘z san’atkori tavalludining 290 yilligi munosabati bilan Xivada o‘tkazilgan tantanalarda ishtirok etgan taniqli turkman olimi, professor Annagurban Ashirov Maxtumquli nomi va asarlarining O‘zbekistonda naqadar mashhurligi, xalqimizning unga bo‘lgan qizg‘in muhabbati va beqiyos ehtiromini ko‘rib: “Maxtumquli nafaqat turkmanlarning, balki o‘zbeklarning ham — ikki xalqning shoiri ekan”, — deb lutf etgani bejiz emas. Chindan ham, u allaqachon o‘zbek xalqining ham o‘z shoiriga aylanib ketgan.

Hozirgacha fanda Maxtumqulining 1733-yilda tug‘ilib, 1791-yilda vafot etganligi haqidagi ma’lumot qat’iylashgan edi. Lekin turkman olimlarining keyingi izlanishlari natijasida ulug‘ shoirning tarjimayi holi, ijodiy faoliyati va adabiy merosi bilan bog‘liq ko‘plab nuqtalarga oydinlik kiritilmoqda, yangi talqinlar va qarashlar ilgari surilmoqda. Jumladan, uning tavallud va vafot sanalari qaytadan ko‘rib chiqilib, tug‘ilgan yili 9 yil oldinga, o‘lgan yili esa 16 yil keyinga surildi. Bunga ko‘ra, endi u 1724-yili tug‘ilib, 1807-yili vafot etgan, shunga muvofiq, 58 yil emas, balki 84 yil yashagan bo‘lib chiqadi. Yangi sanaga ko‘ra 2014-yilda Maxtumquli tavalludining 290 yilligi Turkmanistonda xalqaro miqyosda keng tantana qilindi.

Maxtumquli Atrek daryosi bo‘yidagi Hojigovshan qishlog‘ida dunyoga kelgan. Bu haqda shoirning o‘zi:

Bilmaganlar so‘rsa, ayting bu g‘aribning ismini:
Asli go‘rkez, yurti Atrek, oti Maxtumqulidir.

Maxtumquli badiiy so‘zni yuksak qadrlagan va ijodiy qobiliyatga ega ma’rifatli oilaga mansub. Atrek janubidagi viloyatda tug‘ilgan bobosi (voqean, uning ismi ham Maxtumquli bo‘lgan — shoirga bobosining otini berishgan) tirikchilik vajidan turkmanlarning go‘rko‘z qabilasiga ish izlab keladi va urug‘ boshliqlaridan birining qo‘lida yollanib ishlaydi. Ma’lum muddat o‘tib, xo‘jayin uni o‘z jiyaniga uylantirib qo‘yadi va u alohida xo‘jalikning boshlig‘iga aylanadi. Dehqonchilik qilish bilan birga, otga to‘qim tikish, qamchi to‘qish, yugan va ayil yasash orqali daromadini muttasil oshira borib, Maxtumquli Yonachi (to‘qimdo‘z) nomi bilan dovruq

taratadi. Bo‘sh qolgan vaqtlarida u qo‘shiqlar to‘qigan va ulardan biri bizgacha yetib kelgan.[1]

Otasi Davlatmammad ham alohida qobiliyati bilan ajralib turar edi. U boshlang‘ich ma’lumotni ovulda olib, so‘ng Xiva madrasalarida o‘qishini davom ettiradi. Ovulga qaytgach, bolalarni o‘qitish bilan birga, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadi. Agar bobosi uchun she’r to‘qish shunchaki havas bo‘lgan bo‘lsa, otasi haqiqiy shoir bo‘lib yetishadi. U Ozodiy taxallusi bilan ko‘plab qo‘shiq va g‘azallar yaratadi. Uning qariyb 6 ming misradan iborat pand-nasihat mazmunidagi “Vaz’i Ozod” (“Ozod vaz’i”) nomli dostoni saqlanib qolgan. Bu asarlar Ozodiyning forsiy (voqean, u yaxshigina shohnomaxon bo‘lgan) va turkiy adabiyotdan, xususan, Alisher Navoiy ijodidan yetarli darajada xabardorligini ko‘rsatadi.

Onasining ismi O‘razgul edi. Shoirning onasining bevaqt o‘limiga bag‘ishlab yozgan she’r va muxammaslari saqlanib qolgan.

Davlatmammadning oilasi katta bo‘lib, unda “bir necha o‘g‘il-qizlar voyaga yetgan bo‘lsa-da, shoir she’rlarida o‘g‘illardan Abdulla va Mamatsafo, qizlardan esa yolg‘iz Zubaydalarning ismlariga duch kelamiz”.[2]

Maxtumqulining ilk ustozi otasi Davlatmammad hisoblanadi — u dastlabki ma’lumotni aynan uning qo‘lida oladi. Bu haqda uning o‘zi:

Ranj-u zahmat chekib, agar qilsam yod,
Qiblagohim — otam o‘qitgan ustod, —

deb yozadi. Otasining o‘limi munosabati bilan yozgan “Ozodim qani?” nomli she’rida uni elning tili, go‘klangning ulug‘i, shaharning sultoni deb ulug‘laydi. “Haqi-chun” she’rida esa otasiga Ozodiy taxallusini (tushida) Muhammad alayhissalom marhamat qilganini ta’kidlaydi.

---

[1] *Bu haqda qarang: Бертельс Е.* Махтумкули // Махтумкули (Сборник статей о жизни и творчестве поэта). — Ашхабад, 1960. С. 121.

[2] *Аширов А.* Махтумқули-Фироғий (Сўнгсўз) // *Махтумқули* . Асарлар. (Туркман тилидан Эргаш Очилов таржимаси). — Тошкент: “Akademnashr”, 2013, 507-бет.

Duo aylab kecharman men ul Ozodiy ustodima, —

deydi "Kuygan jonima" g'azalida yana.

Maxtumquli bolaligidan ovulning qo'y-echkilarini boqib katta bo'lgan. Cho'pon-cho'liqlar davrasida eshitgan xalq qissalari va qo'shiqlari bo'lajak shoir uchun o'ziga xos maktab vazifasini o'tagan. Xuddi shu yillarda uning ko'nglida adabiyotga muhabbat uyg'onadi va she'r mashq qila boshlaydi. Tadqiqotchilar uning 6 yoshidan she'r to'qiy boshlaganini aytishadi.

Oilada xat-savodini chiqargan bo'lajak shoir taxminan olti yoshidan qishloq maktabida — Niyozsolih mulla qo'lida o'qiy boshlaydi. O'tkir zehni va tirishqoqligi bilan o'quvchilar orasida ajralib turgan Maxtumquli Xalachdagi Idris bobo madrasasida tahsilini davom ettiradi. Keyin Buxoroga borib, Ko'kaldosh madrasasida o'qiydi. Bu yerda u tolibi ilmlarga ma'ruza o'qish uchun da'vat etilgan suriyalik turkman Nuri Kozim ibn Bahrom bilan tanishadi. Ular o'rtasidagi yaqinlik tez orada mustahkam do'stlikka aylanadi. Bu yerdagi muhit ikki do'stni qoniqtirmay, birin-ketin madrasani tark etishadi va dunyo bo'ylab sayohatga chiqishadi. Avval Afg'onistonga yo'l olib, keyin Hindistonga o'tishadi. U yerda bir yil-u uch oy yashab, so'ng Kobul orqali Andijon, Marg'ilon, Samarqanddan to Turkistongacha borishadi. Ko'p yurtlarni ko'rib ko'zi ochilgan, aqli to'lishgan Maxtumquli chala qolgan tahsilini nihoyasiga yetkazish uchun Xivadagi Sherg'ozixon madrasasiga joylashadi. Bu yerda ham u o'zining o'tkir zehni va darslarni o'zlashtirishdagi favqulodda qobiliyati bilan barchadan ajralib turar edi[1]. O'z davrining asosiy ilmlarini o'rganib, Abulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Imodiddin Nasimiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab kabi Sharqning buyuk so'z san'atkorlari ijodini o'qib-o'zlashtiradi. Unga, xususan, Yassaviy va Mashrab kuchli ta'sir ko'rsatgan.. Bu ta'sirning yorqin izlarini biz shoirning bu ulug' salaflari yo'lida yozgan qator she'rlarida ko'ramiz.

---

[1] *Bu haqda qarang: Казахбаева С.* Махтумкули в Шергази \\ Махтумкули и духовно-культурные ценности мира. Материалы международной научной конференции. Ашгабат, 2008. С. 381–382.

Turkman xalqi tarixining eng notinch va og'ir davrida yashab o'tgan Maxtumquli oilaviy hayotda ham halovat topmadi. Chovdurxon boshchiligida Afg'onistonga — Ahmadshoh huzuriga vakil qilib jo'natilgan akalari Abdulla va Mamatsafo dushmanlar tomonidan shafqatsiz o'ldiriladi. Bu ayriliq alami shoirning "Chovdurxon", "Chovdurxon uchun", "Abdulla", "Bular kelmadi", "Qurar bo'ldi" kabi o'nlab she'rlarida o'zining yorqin ifodasini topgan.

"Go'zal Sherg'ozi" she'ridan ma'lum bo'lishicha, u Xivada tahsil olayotgan davrida birin-ketin otasi va onasidan judo bo'lgan:

Bag'ringda ilm olib, komil bo'libman,
G'aribman — otamdan yetim qolibman,
Ka'bamdan — onamdan judo bo'libman,
Ketar bo'ldim, xush qol, go'zal Sherg'ozi!

Katta xonadonning butun og'irligi Maxtumquli yelkasiga tushadi. U mudarrislik qilish, ota-bobosidan meros yonachilik kasbini davom ettirish bilan birga, temirchilik va zargarlik hunarlarini ham egallaydi.

Maxtumquli Menglixon degan qizni qizg'in muhabbat bilan sevgan va ular birga bo'lishga o'zaro ahd-u paymon qilishgan, lekin kutilmagan bir hodisa ularni bir-biridan ajratgan. Natijada Menglixon o'ziga nomunosib bir kishiga turmushga chiqib ketgan bo'lsa, Maxtumquli uning dog'-u hasratida kuyib qolgan. Armonga aylangan ishqini yoniq satrlarga muhrlab, sevgilisiga boqiy nazmiy haykal qo'ygan.

Maxtumqulining Menglixonga bo'lgan hassos muhabbati nafaqat Sharq so'z san'ati, balki jahon adabiyotidagi noyob hodisalardan hisoblanadi. Menglixonga bo'lgan yoniq muhabbati Maxtumqulining, ta'bir joiz bo'lsa, butun ijodini yolqinlantirib turadi. Shoirning deyarli barcha she'rlari qat-qatidan xoh bevosita, xoh bilvosita bo'lsin, armonga aylangan muhabbat sadosi eshitilib turadi.

Maxtumqulishunos olim A. Ashirov keltirgan yangi ma'lumotlarga ko'ra, Menglixon — Maxtumqulining birinchi muhabbati emas. U o'zining sevgan qiziga uylangan. Lekin ikki yoshning baxtli turmushi uzoqqa cho'zilmagan. Yigirma yoshida sevgilisini tuproqqa topshirgan shoir keyinchalik Menglixonni uchratib, uni

hassos muhabbat bilan sevib qoladi. Afsuski, ularga birga bo'lish nasib etmaydi. Shoir chuqur qayg'u-hasrat ichida qolib, butun umrini badiiy ijodga bag'ishlaydi. Menglixonga atab ko'plab she'rlar yozish bilan unga o'ziga xos nazmiy haykal qo'yadi.

Maxtumqulidan zurriyod qolmagan.

Maxtumquli shoirning ismi bo'lib, taxallusi esa Firog'iydir. Ma'lumki, u ota-onasidan erta judo bo'ladi. Yosh akalari bedarak ketadi. Sevgan qizining vasli bir umrga armon bo'lib qoladi. Yana qator qarindosh-urug'lari, do'stlaridan ayriladi. Shu tariqa u bir umr yaqinlarining hajr-u firog'ida kuyadi, yo'qotish ustiga yo'qotishlarga duch keladi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, uning o'ziga Firog'iy taxallusini tanlashiga ana shu ko'pdan ko'p judoliklar sabab bo'lgan.

Shoirning o'zi ham qator she'rlarida Firog'iy taxallusini tanlashining sababi boshiga tushgan ko'pdan ko'p ayriliqlar ekanligini izohlab o'tadi. Jumladan, onasi vafotiga bag'ishlab yozgan "Mehribonim, qaydasan?" she'rida:

Ayrilib Ka'bamdan, qo'ydim Firog'iy otimi, —

deb yozsa, "Bu jahon" she'rida:

Men Firog'iy nomini oldim bu kun motam tutib, —

deb izoh beradi.

"Bog' butog'i" she'rida esa:

Jahonni yondirdi o'ting,
Qochar bo'ldi yaqin-yoting,
Maxtumquli, sening oting
Bo'lsin endi, qo'y Firog'iy, —

deb qat'iy ta'kidlaydi.

Ma'lum bo'ladiki, Maxtumqulining Firog'iy taxallusini tanlashiga bu dunyoda boshiga tushgan yaqinlar firog'i turtki bo'lgan. Lekin biz buni faqat shu ma'noda tushunsak, uning ma'no doirasini toraytirib qo'ygan bo'lamiz. Bizningcha, dunyoni foniy, yolg'onchi deb atagan shoir uchun bu olamdagi yo'qotishlar emas, balki Haqdan judolik chinakam firoq edi. Binobarin, bu

taxallusning tasavvufiy ma'nosi ham bo'lib, u aslida ikki olamning sohibi bo'lgan ilohiy mahbuba visolidan judolikni tamsil etadi. Uning tasavvufiy mazmundagi "Ichmayin jomim" she'rida ilohiy ishq mayidan mast bo'lib, hushini yo'qotgani, Haq vasliga ko'ngli tashna-yu ko'zi intizorligi, binobarin, toki boqiy diydordan judo ekan, "Firog'iy deb atang bundan so'ng nomim", — deb fig'on chekishi bejiz emas. Haq vasliga yetish uchun asosiy to'siq dunyo ekanligidan dunyo tanqidi Maxtumquli she'rlarida asosiy o'rin tutadi.

Maxtumquli she'rlarida juda ko'plab joy nomlariga duch kelamiz. Bu uning ko'p sayohat qilganligidan dalolat beradi. Safarga oq fotiha so'rab, otasi bilan savol-javob yo'sinida yozgan bir she'ri ham shoirning sayohatga, dunyoni ko'rishga havasi kuchli bo'lganligini ko'rsatadi ("Ota-o'g'il dardlashuvi"). She'rda "Ko'nglim istar, safar qilsak...", "Sayron etsak necha teng-u to'sh bilan, Magar shunda g'amgin ko'nglim xush bo'lar" kabi misralarni o'qiymiz. Shoir she'rlaridagi "Turkistonda xayolim", "Hindistonda xayolim", "Maxtumquli der: yer yuzini ko'rsam", "Ko'ngil dunyo kezar, jismim yurtdadir", "Zangi boboni ko'rsam", "Ketar bo'lsang yo'l uzoqdir Eron, Turon, Hindistonga" kabi misralar ham uning dunyoni ko'rishga ishtiyog'i baland bo'lganligini ko'rsatadi.

"Maxtumquli yoshligidan sayohatlarda yurib, Kaspiy bo'yidan to Amudaryogacha kezgan. Buxoroda ta'lim olgan, so'ngra Afg'onistonga o'tgan, Hindistonda bir yil-u uch oy turgan, qaytib Farg'ona (Andijon, Marg'ilon)ni ko'rgan, Qozog'istonning Turkiston shahriga borgan. Xorazmga — Xivadagi Sherg'ozi madrasasiga kelib o'qigan, so'ng yana o'z eliga — Atrek daryosi vodiysiga, Dehistonga qaytgan. Shundan so'ng Ozarbayjon, Eron, Turkiyaning sharqiy qismi, Iroqni aylanib kelgan.

Maxtumqulining Astraxanda bo'lganligi ham, u yerda ruslar hayoti bilan tanishganligi ham ajab emas. Hatto Eron bilan Hindiston orasidagi Ummon dengizi bo'ylarida — yo Ummon tuprog'ida (Arabiston yarim oroli bilan Iroq o'rtasida), yo hozirgi Pokiston yerlarida bo'lganligini taxmin qilish mumkin, bunga uning she'rlarida ham shama' bor. Shoir O'rta Sharqdagi barcha turkman qabilalari orasiga kirib ularning ahvolini, ozodlik,

mustaqillik va farovonlik orzularini bildi, shu bilan birga, og‘zaki adabiyotini o‘rgandi”.[1]

Mirzo Kenjabekning taxminicha, bir she’rida “Zangi boboni ko‘rsam” deyishiga ko‘ra, u Toshkentga ham kelgan bo‘lishi kerak.

Muborak Haj safariga borish orzusi borligini bir necha she’rlarida izhor qilgan. Afsuski,

Ka’badir niyatim, hajdir xayolim,
Ixlosim bor haj tavobin etmoqqa, —

deb orzu qilgan Maxtumqulining bu orzusi amalga oshmay, bir umrlik armon bo‘lib qolgan.

Mard yo‘q xizmat etgali, yo‘l yo‘q hajga ketgali,
Shu ikki ish jismim aro jonimning armonidir, —

deb yozadi bu haqda shoirning o‘zi dard-u hasrat bilan.

Maxtumqulining yurt qadri, vatan sog‘inchi, g‘urbat va musofirchilik bilan bog‘liq ko‘plab she’rlari ana shu uzoq yillik safarlari bilan bog‘liqligi shubhasiz.

Maxtumquli hayotini ham, ijodini ham tasavvufdan ayru tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shoirning deyarli barcha she’rlarida diniy-tasavvufiy ruh barq urib turadi. Ko‘plab she’rlari esa sof so‘fiyona mazmunda. Hayotda esa u qator tariqat pirlari tarbiyasini olgan, ularning suhbatida bo‘lgan.

She’rlaridan ma’lum bo‘lishicha, uning ilk piri tasavvuf ahlini do‘st tutgan otasi Davlatmammad edi. Qiblagohidan safarga ijozat so‘rab yozgan o‘zaro savol-javob tarzidagi she’rida “Jilovdori bo‘lsam Yazirxon pirning” desa, “Emasmi?” she’rida “Pirimiz Bekturdi eshon emasmi?” deydi. Uning Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Zangi ota, Pahlavon Mahmud, Amir Kulol, Bahouddin Naqshband kabi bir qator o‘tib ketgan shayxlar bilan ham ma’naviy irtiboti bo‘lgan. Mutasavvif shoirning komil e’tiqodiga ko‘ra:

Ixlos bilan komil pirga qo‘l bergan
Yetar bir manzilga — yetmayin qolmas.

---

[1] *Ҳасанов Ҳ.* Ўрта Осиёлик географ ва сайёҳлар. — Тошкент, 1964, 206–207-бетлар.

Bugina emas. U ko'plab she'rlarida Olloh taoloni, Muhammad alayhissalomni, bir qator payg'ambar va avliyolarni mahbuba sifatida ta'riflab, ularga otashin muhabbatini izhor qiladi. Shoirning "Men Haqqa oshiqman, yo'qdir gumonim", "Bizni yoqqan bu — ilohiy muhabbat", "Ma'rifat yetar jonondan", "Har ashyodan yor sifatin dars oldim" kabi misralari buning yorqin dalilidir. "Makkadan chiqdi bir go'zal", "Mening sohibjamolimni ko'rdingmi", "Ey pari", "Mehribonim keldi", "Yo'lda seni", "Sevaman seni", "Bu ne istak tavallodir" singari she'rlarida Muhammad alayhissalomni madh etsa, "Yusuf, Yusuf deya", "Arab tilli sevgilim" nomli she'rlari Yusuf alayhissalomga bag'ishlangan. U qalandar va darveshlarni ulug'lab ham qator she'rlar yozgan.

Maxtumquli kubraviya tariqati shayxlari bilan ham, xojagon-naqshbandiya silsilasi pirlari bilan ham yaqin aloqada edi. Chunonchi, Saraxsda naqshbandiya namoyandasi Niyozquli xalifaga murid tushishni orzu qilgan bo'lsa, Otaniyoz oxunga ham shogirdlik talabida bo'lgan[1]. Taniqli turkman olimi A. Ashirov esa Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasida tahsil olganligi, Bahouddin Naqshbandga bag'ishlab qator she'rlar yozganligidan kelib chiqib va albatta, ijodining umumiy ruhiga asoslanib, uning naqshbandiya tariqatiga e'tiqod qo'yganligini ta'kidlaydi. Voqean, Maxtumqulining o'zi ham Bahouddin Naqshbandga alohida ixlos qo'ygan bo'lib, hatto o'zining shoirlik ilhomini ham buyuk avliyo bilan bog'laydi:

Bir kecha yotardim, shoh Naqshbandiy
Lutfi ehson aylab bir non keltirdi.

Sho'ro davridayoq ba'zi tadqiqotchilar Maxtumqulining tasavvufga munosabati yuzasidan ayrim mulohazalarni bildirgan edilar. Jumladan, G. Karpov hayotining muayyan davrlarida Maxtumqulining tasavvuf tariqatlari bilan aloqasi bo'lgani, binobarin, ijodida so'fiyona ohanglar mavjudligiga e'tiborni qaratgan. P. Skosirev Maxtumqulining falsafiy she'rlarida shoir yaqin aloqada bo'lgan

[1] *Bu haqda qarang: Карпов Г.* Истоки мировоззрения Махтумкули \\ Махтумкули (Сборник статек о жизни и творчестве поэта). — Ашгабад, 1960. — С. 24.

tasavvuf ilmining ta'siri shundoqqina sezilib turishini ta'kidlagan. A. Mulkamanov esa Maxtumqulining tasavvufdan nihoyatda ta'sirlangani, she'rlarida "fano tuprog'i", "ahli hol", "faqr mulki", "yor", "sohibjamol", "do'st", "zulf" kabi so'fiyona istiloh-tushunchalar ko'p uchrashi, "Satashdim", "Ko'rdingmi?", "O'r sendan", "Namasan?", "Ey do'st", "Oshiq bo'lmisham" she'rlarida so'fiyona ruh kuchliligini qayd etgan.

Albatta, diniy-tasavvufiy mavzudagi she'rlar Maxtumquli ijodida yetakchi o'rin tutadi. Afsuski, sho'ro mafkurasi shoirning islomiy ma'rifat va tasavvuf haqiqatlari ufurib turgan asarlari mutolaasidan bizni bebahra qilgan edi. Shuning uchun uning asosan shu mavzudagi she'rlarini tanlab tarjima qilgan taniqli shoir va zahmatkash mutarjim Mirzo Kenjabek o'z tarjimalariga yozgan so'zboshisida: "Maxtumquli Firog'iy XVIII asr ma'rifiy she'riyatining buyuk darg'alaridan bo'lib, butun turkiy xalqlar uchun tushunarli va sevimli shoir, ma'rifatli siymo, orif oshiq, sohibi hikmat bo'lgan valiy zotdir. Uning insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan she'riyatida pok islomiy ma'rifat ruhi gurkirab, yashnab turadi", — degan fikrni bildiradi.

Bizgacha Maxtumqulining 700 dan ziyod she'rlari va "Quruq kalla", "Oq it", "Mahsharnoma", "Va'z", "Ko'kkina kaptar","Qora yer", "Zaburjon", "Marv — shohi jahon", "Juhut o'g'lon" kabi o'nga yaqin kichik hajmdagi dostonlari yetib kelgan. Ularning bir qismi qo'lyozmalar orqali saqlanib qolgan bo'lsa, bir qismi xalq og'zidan yozib olingan. Lekin bu yakuniy xulosa emas. Hali shoirning ko'plab yangi she'rlari va ularning turli variantlari topilishi shubhasiz. Chunki uzoq umr ko'rgan va ilhomi jo'sh urganda badiha tarzida ham she'rlar to'qib ketavergan shoirning adabiy merosi bundan ko'p bo'lgani tabiiy. Ularning bir qismi davr taloto'plarida yo'qolgan.

Yozgan kitoblarim selga oldirib,
Ortidan ko'zlarim giryon ayladi, —

kabi alamli misralari shundan guvohlik beradi.

Ma'lumki, "Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi" (Navoiy) Ahmad Yassaviy islom ma'rifati va tasavvuf haqiqatini hikmat tili

bilan bayon qilib, turkiy xalqlar ma'naviy tafakkuri taraqqiyotida buyuk rol o'ynagan edi. Ta'bir joiz bo'lsa, Maxtumquli xuddi shu vazifani turkman xalqi orasida haddi a'losida ado etdi. U o'zining islom ta'limoti va shariat talablari nazmiy talqin qilingan she'rlari bilan o'z xalqini Haq yo'liga da'vat etgan bo'lsa, tasavvuf asoslari tushuntirilgan ijod namunalari bilan tariqatga muhabbat uyg'otdi. Uning nafaqat diniy-tasavvufiy mavzudagi she'rlari, balki biror asari islomiy ruh va so'fiyona mazmundan xoli emas deyish mumkin.

Turkman xalqining tarixi, buguni va ertasi, urf-odatlari, an'analari, davrining muhim siyosiy-ijtimoiy hodisalari, shoirning dard-u hasratlari bu she'rlarning asosiy mavzusi hisoblanadi. Bu she'rlarda shoir o'z xalqini sevgan, uning dard-u hasratlari bilan yongan, istiqboli uchun qayg'urgan fidoyi vatanparvar sifatida namoyon bo'ladi. Vatan va xalq mavzusi — Maxtumquli she'riyatining o'q ildizini tashkil etadi. Qator she'rlarida tarqoq turkman urug'larini birlashishga, ular o'rtasidagi o'zaro nizolarni bartaraf etishga da'vat qiladi.

Maxtumquli butun hayoti, ijodi — bor-u yo'g'ini xalqiga baxsh etgan, har bir hujayrasi vatan ishqida yonib o'tgan edi. O'zining sodiq va fidoyi farzandini bugun jonajon eli ham boshiga ko'tarib turibdi. U faqat turkmanning emas, balki barcha turkiy xalqlarning mushtarak shoiriga aylandi desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Albatta, Maxtumquli ijodi ko'plab chashmalardan suv ichgan: ular — Qur'oni karim va unga yozilgan tafsirlar, Hadisi sharif va diniy adabiyotlar, tasavvuf falsafasi va she'riyati, Sharq mumtoz so'z san'ati va xalq og'zaki ijodi. Shuning uchun shoir ijodida islomiy mavzularni ham, so'fiyona ruhni ham, xalqona ohanglarni ham, mumtoz adabiyot ta'sirini ham ko'ramiz — ular o'zaro omuxta bo'lib, Maxtumquli asarlarining yuksak badiiyati, ta'sirchanligi va umrboqiyligini ta'minlagan. Lekin pand-nasihat orif shoir she'riyatining bosh yo'nalishini tashkil etadi. Uning u yoki bu darajada hayotiy hikmat, falsafiy fikr-mushohada, xalqona o'gitdan xoli she'ri yo'q deyish mumkin — bir misrada bo'lsa ham, biror ishora orqali bo'lsa ham ma'nili bir fikrni qistirib ketadi. I. Haqqulovning yozishicha, turkiy "she'riyat Maxtumquli siymosida

o‘zining eng qadimiy g‘oyaviy-badiiy an’analarini davom ettirib, rivojlantirib, olamda donolik va donishmandlik nurlarini sochdi. “Hibat ul-haqoyiq”, “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy pandnomalaridagi ohanglar Maxtumquli tajribalarida yangilanib, hayot va real voqelik bilan chuqur munosabatini topgan yo‘nalishlarda umr kechirmoqqa boshlagan edi”.

Sharq tarixi, madaniyati va adabiyotini yaxshi bilgan Maxtumquli talmeh san’ati vositasida ko‘plab tarixiy va afsonaviy shaxslar, an’anaviy obrazlar va adabiy qahramonlarni tilga oladi. Ular — payg‘ambarlar, choryorlar, sahobalar, pir-u avliyolar, olimu adiblar, mashhur oshiq-ma’shuqlar, xalq qissa va dostonlari, adabiy asarlar qahramonlari. Shoir she’riyatida anqo, humo, qaqnus, simurg‘, samandar, parvona kabi Sharq adabiyotida mashhur timsollar ham faol qo‘llanadi. Tasavvufiy istiloh va obrazlarga ham ko‘p duch kelamiz. She’rlarida forsiy-arabiy so‘z va iboralarning ko‘p uchrashi ham an’ana ta’siri, albatta.

Ma’lumki, Sharq she’riyati — an’analar she’riyati. Bu she’riyatda barcha yangiliklar va badiiy kashfiyotlar an’ana doirasidan chiqmagan holda amalga oshirilgan. Har bir shoir mavjud an’analarni davom ettirgan holda unga o‘ziga xos yangilik qo‘shadi, rivojlantiradi. Shu tariqa, har bir shoir ijodi Sharq she’riyati otlig‘ muhtasham binoga bir g‘isht o‘laroq qo‘shilib kelaveradi. Maxtumquli ham an’anaviy mavzularni qoliplashgan vaznlarga solib, ko‘plab g‘azallar, muxammaslar, musaddaslar, musabbalar yaratdi. Lekin u turkiy xalqlar talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, asosan, barmoq vaznida qalam tebratdi. Chunki turkiy xalqlarga aruzdan ko‘ra barmoq vazni yaqin. Maxtumquli she’rlarida an’anaviylikdan xalqonalik kuchliligi shundan. Uning ko‘p she’rlari xalq qo‘shiqlari uslubi va ohangida. U mavzuni kitobdan emas, balki hayotdan oldi, an’anaviy she’riyatni real hayotga yaqinlashtirdi.

Sharq buyuk so‘z san’atkorlarining Maxtumquliga ta’sirining yorqin izlarini biz mavzu mushtarakligida, mazmun hamohangligida ko‘ramiz. Lekin san’atkor shoir sifatida u har bir mavzuga o‘ziga xos yondashadi, har bir mazmunni o‘z qarashlari bilan boyitadi, har bir fikrni rivojlantirib, uning o‘ziga xos yangi bir qirrasini ochadi.

Maxtumquli asarlari — XVIII asr turkman hayotining yaxlit ko'zgusidir. Shoir yashagan davr bilan bog'liq biror narsa-hodisa yo'qki, bu ko'zguda aks etmagan bo'lsa!

Ayni paytda, uning she'rlarida o'z turmushi bilan bog'liq biror-bir hodisa u yoki bu darajada ifodasini topmay qolmagan. Holbuki, ko'pchilik mumtoz shoirlarning asarlarida shaxsiy hayoti bilan bog'liq biror ishora ham topilmagani holda Maxtumquli asarlari asosida uning batafsil tarjimayi holini tiklash mumkin va shunday bo'ldi ham.

Buyuk fizik olim Nyuton: "Men agar ulug'lardan ko'ra uzoqroqni ko'ra olgan ekanman, buning sababi men ularning yelkasida turgan edim", — deb lutf etgan edi. Maxtumquli ham o'zigacha yaratilgan Sharq adabiyotining barcha yutuqlarini o'z ijodida mujassamlantirib, ularni rivojlantirgani, betakror asarlari bilan boyitgani uchun o'zi ham buyuk so'z san'atkorlari safidan munosib o'rin egalladi va o'zidan keyingi adabiyotga kuchli ta'sir ko'rsatib, asarlari asrlar davomida ijod ahli uchun o'ziga xos mahorat maktabi bo'lib kelmoqda va shunday bo'lib qoladi.

Maxtumquli asarlarining asrlar davomida sevib o'qib va eshitib kelinayotganining o'zi ulardagi ma'no-mazmunning teran va serqirraligidagina emas, balki ana shu ma'no-mazmunning go'zal va ta'sirchan bir shaklda ifodalangani, ya'ni badiiy yuksakligida ham ekanligi shubhasiz. Bu esa shoirning beqiyos mahoratga ega zabardast so'z san'atkori ekanligidan dalolat beradi.

Shoir ham zargarga o'xshaydi: she'r uzugiga so'z ko'zini qo'yadi. Bu toifaning so'z zargari deb ta'riflanishi bejiz emas. Zero, shoirlik mahorati aynan go'zal, ma'nodor, ta'sirchan, ohorli, o'tkir so'zlarni nozik did bilan topib, she'rda ustalik bilan qo'llashda namoyon bo'ladi. Mav'iza she'rlarida nishonga tegadigan so'zlarni qanday mahorat bilan topib ishlatgan bo'lsa, tashbeh, tazod, mubolag'a, talmeh, tanosib, irsoli masal, takror, tashxis, intoq, istiora kabi badiiy san'atlardan ham haddi a'losida foydalanadi. Jumladan, dunyoning sobit-u insonning o'tkinchiligini daryo va ko'pik timsolida mana bunday betakror tashbeh vositasida ifodalaydi:

Dunyo bir daryodir, odam hubobdir,
Hubob suvda boqiy qolmas, azizlar.

Chindan ham, dunyo oldida inson daryo yuzidagi ko'pikka o'xshaydi: daryo oqaveradi, ko'pik paydo bo'lib yo'qolaveradi. Xuddi shunday dunyo turaveradi, odamlar kelib ketaveradi.

Maxtumquli o'z fikrlarini hamisha ko'rinib turgan oddiy narsa-hodisalar asosida sodda ifodalasa-da, ulardan kelib chiqadigan mazmun chuqur, xulosa asosli bo'ladi. Boshqacha aytganda, oddiy misralarga olamshumul haqiqatlarni jo etadi. Bunday soddalik uzoq yillik tajribalar va donishmandlik mahsuli ekanligi shubhasiz.

Quyidagi satrlarda esa san'atlar silsilasini ko'ramiz:

Suvda oppoq g'ozni ko'rib,
Suv shivirlar qamish bilan.

Bu yerda suvdagi go'zal g'ozni ko'rib hatto suv bilan qamish ham muhokamaga tushganlarida mubolag'a, suv bilan qamishning jonlantirilishida tashxis, ularga nutq ato etilishida intoq san'atlarini ko'ramiz.

Boshqa bir she'rida esa "Baxtim qorasi rang berar ko'mirga" deb mubolag'ani haddi a'losiga yetkazadi. Ya'niki mening baxtim shunchalik qoraki, hatto ko'mir ham undan rang oladi deyish bilan o'z baxtsizligini mubolag'ali yo'sinda ifodalaydi.

Baland tog'lar erib, suv bo'ldi bir-bir,
Ul bechora toshlar yig'lar holimga, —

deydi yana bir she'rida. Bu yerda mubolag'a san'ati intoq bilan omuxtalashib ketgan: tog'larning erishi mubolaga bo'lsa, toshlarning yig'lashi intokdir.

Bunday mubolagali tasvirlarni shoir she'rlarida ko'p uchratamiz. Chunonchi, birida yuragimdagi o'tdan falak tug'yonga tushib, yulduzlar yondi desa, boshqasida ohim uchqunidan o'tlar faryod aylab Arshga chiqdi deydi.

Maxtumquli tazod — narsa-hodisalarni bir-biriga zid qo'yib tasvirlash san'atidan ham o'z she'rlarining ta'sirchanligini oshirish uchun mahorat bilan foydalanadi. Jumladan:

Filni yo'lga solgan odam,
Seni qurtlar yeyasidir.

Ya'ni bu dunyoda o'zidan bir necha baravar ulkan jondor bo'lmish filga hukmini o'tkazgan, uni o'ziga bo'ysundirgan odam o'lganidan keyin qabrda hayotda nazariga ilmagani, ezg'ilab tashlagani qurtlarga yem bo'ladi deb yozadi achchiq haqiqatni obrazli tarzda ifodalab.

Quyidagi misralarda esa oqil bilan johilni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, bu ikki toifa tabiatidagi tafovutlarni ochib beradi:

Yo'ldosh bo'lsang oqil bilan,
Xizmat qilar ko'ngil bilan.
Ishing tushsa johil bilan,
Tog'-u toshga otar-ketar.

Tom ma'nodagi xalq shoiri bo'lgan Maxtumquli o'z she'rlarida maqol-matallar, qanotli so'zlar, obrazli iboralar kabi xalq donoligi namunalaridan "ko'b va xo'b" foydalanadi. Misol uchun, bir o'rinda "Bo'ladigan bola boshidan ma'lum" degan maqoldan istifoda etadi:

Yaxshilikni umid etma yomondan,
Bo'lar bola yosh chog'idan bilinar.

Boshqa bir o'rinda o'z fikrlarining tasdig'i uchun "Quymoqqa qil tushgan bo'lsa, qustirmasdan qo'ymaydi" degan maqolni qistirib ketadi:

Harom ishdan qochar pirlar,
Tulki sarqitidan she'rlar,
Qustirmasdan qo'ymas derlar,
Quymoq yesang qil bilan-yey!

Shoir xalq maqollari va qanotli so'zlarini goh to'g'ridan-to'g'ri she'rlariga olib kirsa, goh "derlar", "deydilarkim" kabi kirish so'zlari bilan birga keltiradi, gohida esa biroz o'zgartirib qo'llaydi. Chunonchi:

Bobolar qilgan bu naqlni bayon:
"Sukut saqlamoq ham aqldan nishon".

Shoir she'rlarida eng ko'p uchraydigan san'atlardan biri bu — talmeh. U payg'ambarlar, avliyolar, choryorlar, sahobalar, tariqat pirlari, folklor va yozma adabiyot asarlari qahramonlari, shoirlar yoki ular bilan bog'liq voqea-hodisalarga ishora qilish orqali so'zlarini dalillashni xush ko'radi.

Maxtumquli asarlarining asrlar davomida sevib o'qib va eshitib kelinayotganining o'zi ulardagi ma'no-mazmunning teran va serqirraligidagina emas, balki ana shu ma'no-mazmunning go'zal va ta'sirchan bir shaklda ifodalangani, ya'ni badiiy yuksakligida ham ekanligi shubhasiz. Bu esa shoirning beqiyos mahoratga ega zabardast so'z san'atkori ekanligidan dalolat beradi.

Pand-nasihat — Maxtumquli ijodining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Shoir adabiy merosining salmoqli qismi ham aynan pand-nasihat mavzusidagi asarlardan iborat. Shuning uchun ham u didaktik shoir sifatida mashhur. Uning, xususan, "Yoqqancha bo'lmas", "Fosh etar seni", "Ko'ring", "Muruvvat yaxshi", "Yiroq ayla o'zingni", "Mol yaxshi", "Moliga yetmas", "So'zi o'tar joningdan", "Suhbat yaxshidir", "Yor aylar", "Qadrin na bilsin?", "So'ziga yetmas", "Bosh tikar", "Tushiga yetmas", "Muhtoj aylama", "Yeldim de", "Ayrilsa", "Ayrilmas", "Toshni sindirar", "Molga qaramas", "Tuz ham bo'lmasa". "Qo'lda bori bo'lmasa", "Yot bo'lar" kabi bir necha o'nlab shaklan go'zal, mazmunan teran badiiy yuksak she'rlari Sharq pandnoma adabiyotining durdonalari qatoridan o'rin olgan.

Maxtumquli she'rlarida xalqona falsafa kuchli, pand-nasihat yetakchi — u ko'rgan-kechirganlarini qalamga olib, ular yuzasidan xulosalar chiqaradi. Bu fikrlarning hikmat kabi jaranglashi shundan:

Qanoat qil, izzatda tut o'zingni,
Tama bilan sarg'aytirma yuzingni,
Har nomardga hayf aylama so'zingni,
So'zingning binosin yiqqancha bo'lmas.

Shoir mavzuni hayotdan olganidek, uning ifodasi uchun xizmat qiladigan timsol-u tashbehlarni ham kundalik turmushdan, yon atrofdan qidiradi va hech kim e'tibor bermaydigan narsalar vositasi-

da o‘z fikrini obrazli aks ettirib, go‘zal va ta’sirchan hikmat yaratadi. Chunonchi, quyidagi to‘rtlikda ko‘ngli qora kimsani ko‘mirga o‘xshatadi: ko‘mirga yaqinlashsang, qorasi yuqqanidek, ichi qora bilan yursang, kasofati uradi:

Ko‘ngli qora bilan bo‘lmanglar ulfat,
Yuqar undan turli-tuman kasofat,
Ko‘mirga har qancha aylasang izzat,
Manglayga qorasi yuqqancha bo‘lmas.

Bir umr xalq ichida yashagani, xalq dard-u tashvishi bilan nafas olgani, hayotning butun baland-pastini ko‘rgani, achchiq-chuchugini totgani, inson fe’lining turfa turlanish-tuslanishlarini kuzatgani, kishilarning o‘zaro munosabatlariga guvoh bo‘lgani, odam bolasi tabiatiga xos fazilat va illatlarni yaxshi o‘rgangani, qisqasi, turmush qozonida qaynab pishgani uchun ham shoirning fikrlari nihoyatda hayotiy, so‘zlari favqulodda sodda va samimiy, tashbehlari ohorli va tabiiy — u barchaning xayolida aylanib yurgan, tilining uchida turgan gaplarni ular kutganidan ham to‘g‘ri, aniq, lo‘nda, keskin, go‘zal va ta’sirchan bir yo‘sinda ayta olganligi uchun kattayu kichikning birday e’tirofiga sazovor bo‘lib, barcha toifa va tabaqaning sevimli shoiri bo‘lib kelmoqda. Asrlar kechsa, zamonlar almashsa-da o‘z ahamiyatini sira yo‘qotmay, bil’aks dolzarblik kasb etib kelayotgani bu hikmatlarning nafaqat mazmunan teran, badiiy barkamol, ayni paytda hayotga hamnafas ekanligi bilan ham izohlanadi. Chindan ham, to kishilik jamiyati mavjud bo‘lib, insonga xos tuyg‘u-kechinmalar, orzu-intilishlar, fazilat-u illatlar yashar ekan, mutafakkir adibning mana bu qayroqi fikrlari ham yashashda davom etib, bani bashar ma’naviyatiga xizmat qilaveradi:

Iqboling uyg‘onsa, davlat yor bo‘lsa,
Tog‘ga tishing ursang, toshni sindirar.
Toleying ters kelsa, baxting sho‘r bo‘lsa,
Hatto yumshoq holva tishni sindirar.

* * *

Yaxshilar yonida yurgil sen o‘zing,
Dur bo‘lsin doimo so‘zlagan so‘zing,

Olimga yondashsang, ochilar ko'zing,
Johilga yondashsang, ko'rdek bo'larsan.

Maxtumquli xalq maqol-matallari, hikmatli so'zlari, obrazli iboralarini juda yaxshi biladi va mahorat bilan ularni she'rlari qatiga singdirib yuboradi. Ayni paytda, o'zi ham sodda, ixcham, lo'nda, teran hikmatlar yaratadiki, ular nafaqat turkman, balki barcha turkiy xalqlarning hikmatli so'zlari xazinasidan joy olgan:

Odam bor, har qancha yedirsang ozdir,
Odam borki, yegan noniga yetmas.

* * *

Yomon til oldida zaharli ilon —
Chaqsa-da, bir chivin chaqqancha bo'lmas.

* * *

So'z yarasidan qochaver,
Tig' yarasi bitar-ketar.

* * *

To'qson xil osh-ovqat bo'lsa qoshingda,
Lazzat yo'q, ichida tuz ham bo'lmasa.

Maxtumquli qator hikmatlarida xalq boshidan o'tgan, dilidan kechgan, lekin tiliga kelmagan fikrlarni juda topib aytadi. Aytaylik, odam bolasi ko'pincha qo'l yetmas orzular og'ushida yashaydi. Oldidagi naqdini qo'yib, uzoqdagi nasiyani ko'zlaydi. Aslida hayotga sin solib boqsa, odamlar turmushini kuzatsa, oddiygina insoniy baxt ham hammaga nasib etavermasligiga ishonch hosil qiladi. Buni shoir sodda va oddiy tarzda quyidagicha ifodalaydi:

Yaxshi ayol, yaxshi o'g'il, qiz, qardosh –
Bu davlat har kimning qo'liga yetmas.

Xalqning solih va nobop farzand haqidagi qarashlarini esa mana bunday she'rga soladi:

Yaxshi farzand senga rahmat keltirar,
La'nat olgan farzand bo'ldi-bo'lmadi.

Xalq tarixi, adabiyoti va hayotini chuqur bilgan bu donishmand inson teran fikrlarini xalqona sodda va lo'nda bir tarzda she'riy misralarga tizadi. Bu she'rlar xalq donoligining yorqin namunasidir. Maxtumquli asarlarining umrboqiyligini ta'minlagan eng asosiy omil xuddi shu.

Maxtumquli she'rlarida yaxshi va yomon, mard va nomard, halol va harom, urush va tinchlik, do'st va dushman, ittifoq va adovat, oqil va johil, ma'rifat va jaholat, savob va gunoh, duo va qarg'ish, yoshlik va keksalik, shodlik va qayg'u, saxiylik va baxillik, botir va qo'rqoq, nafs va ruh, aql va ko'ngil, havas va hasad, odil va zolim, haqiqat va yolg'on kabi o'zaro zid tushunchalar ko'p uchraydi. Bir-biriga qarama-qarshi qo'yish orqali u bu tushunchalar orasidagi tafovutni yorqin ochib beradi, birining ulug'ligi-yu ikkinchisining tubanligiga e'tiborni tortadi, biridan yuz o'girishu ikkinchisiga yuz burishga da'vat etadi:

Yaxshi kunlar ko'p bo'lsa ham go'yo oz,
Yomon kunlar oz bo'lsa ham o'tmas hech.

* * *

Yigitlik bo'stondir, keksalik — xazon.

* * *

Erta oshkor bugun yashirin sirlar.

Shoir, xususan, kishilarni ikki toifaga — mard va nomardga ajratadi: uning nazarida mard — barcha insoniy fazilatlar sohibi, nomard — hamma yomon illatlar tajassumi. Shunga muvofiq, mardni ko'plab she'rlarida ulug'lagani holda, nomardni keskin qoralaydi — ikkisini ikki qutbga qo'yib tasvirlaydi:

Yuz nomard joyini bosmas bir mardning,
Chekar tashvishini mard el-u yurtning,
Qilgan qilig'ini ko'ring nomardning:
Jangmi deya qochar tuman uchrasa.

Bu yerda mard so'zi botir, dovyurak; tanti, oliyjanob; vatanparvar, millat fidoyisi; chin inson, nomard esa pastkash, yaramas; qo'rqoq,

xoin; xudbin ma'nolarida kelgan bo'lsa, quyidagi misralarda mard saxiy, qo'li ochiq, mehmondo'st, bag'rikeng, nomard xasis, pastkash, birovga ravosi yo'q kishilarning timsoli bo'lib kelgan:

Mard kutar mehmonni ochiq yuz bilan,
Nomard qochib qolar mehmon uchrasa.

Ko'rinadiki, mard va nomardni bir-biriga qiyoslash bilan shoir bani bashar tabiatidagi fazilatlarni ulug'lab, illatlarni qoralaydi.

Maxtumqulining ko'pgina hikmatlari hadislar asosida yaratilgan. Aytaylik:

Yolg'onchi — Xudoning dushmani derlar,
Ammo o'z o'rnida yolg'on yaxshidir, —

misralarining dunyoga kelishiga: "Odamlarni murosaga keltirish uchun ularga yaxshi gaplarni tashigan yolg'onchi hisoblanmaydi" va shu mazmundagi hadislar turtki bergani shubhasiz.

Kimningki badbaxtlik tabiatida,
Butun olam ojiz tarbiyatida, —

misralari esa: "Birov tog'ni o'rnidan boshqa joyga ko'chiribdi, deb eshitsalaring, unga ishonaveringlar, ammo biror kishining xulqi o'zgaribdi, deb eshitsalaring, ishonmanglar, chunki u albatta tug'ma fe'liga qaytur", degan hadisdan ilhomlanib yaratilgan deyish mumkin. Chunki azaldan qismat qilingan tug'ma tabiatni o'zgartirib bo'lmaydi. Albatta, inson o'z fe'lidagi tabiatidagi bema'ni orzu-o'ylari, yovuz intilishlari, nojo'ya xatti-harakatlarini jilovlab, ayb-u qusurlarini hammadan yashirib yurishi mumkin, lekin baribir bir kuni u o'zining asl mohiyatini namoyon qiladi. Alisher Navoiy ham o'zining mashhur qit'asida zuvalasiga insoniylik urug'i qo'shib qorilmagan kimsalarni har qancha tarbiyat qilma, baribir odam bo'lmaydi degan fikrni bildirgan edi:

Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsun debon
Chekma mehnatkim, latif bo'lmas kasofat olami —
Kim, kuchuk birla xo'tukka necha qilsang tarbiyat,
It bo'lar, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.

Darhaqiqat, odam bolasi tarbiya tufayli ilm-u hunar egallashi, ba'zi yaxshi fazilatlarga ega bo'lishi mumkin, lekin uning tabiatidagi yovuzlik, kin, hasad, baxillik, g'arazgo'ylik, tuhmatchilik, yolg'onchilik kabi tug'ma illatlarni dunyoning jami donishmandlari bir bo'lib tarbiyalasalar ham yo'qotolmaydilar.

Quyidagi misralarda ham u yoki bu hadis ta'sirini ko'ramiz:

Jahd qismatdan ko'p keltirmas.

* * *

Halolga hisob bor, haromga azob.

* * *

Halol luqma nur bag'ishlar ko'zlarga.

* * *

Qo'ldan kelar yaxshi ishing bo'lmasa,
Ko'ngil ichra yaxshi niyat yaxshidir.

Maxtumqulining xalqona uslub va sodda tildagi she'rlari o'zbeklarga ham tushunarli bo'lganligidan ularni tarjima qilishga ehtiyoj sezilmagan, hatto 1960-yili nashr etilgan "O'zbek adabiyoti" majmuasining to'rtinchi jildi ikkinchi kitobida ham Maxtumquli she'rlari asl nusxasida berilgan.

Maxtumquli she'rlarining o'zbekcha tarjimasi birinchi marta taniqli adib va tarjimashunos olim Jumaniyoz Sharipov tomonidan amalga oshirildi. U tarjima qilgan shoirning 314 ta she'ri 1958-yili "Tanlangan asarlar" nomi bilan bosilib chiqdi. Kitobga atoqli sharqshunos Ye.E. Bertels tomonidan yozilgan so'zboshi va professor G.O. Choriyev qalamiga mansub "Maxtumquli" nomli ijodiy portret xarakteridagi kattagina maqola ham ilova qilingan. Shoir she'rlariga benihoyat tashna o'zbek o'quvchilari talab va ehtiyojlarini hisobga olib, bu tarjimalar 1960- va 1963-yillarda biroz qisqartirilgan holda katta adadlarda qayta nashr etildi. "Maxtumquli she'riyatidan" deb nomlangan shoir she'rlarini o'z ichiga olgan to'plam esa 1976-yili 150 ming nusxada bosildi va tez orada tarqalib ketdi.

Mustaqillik yillarida Maxtumquli she'rlarining yangi tarjimalari paydo bo'ldi. Iste'dodli shoir va tarjimon Muzaffar Ahmad ulug' turkman shoirining 70 ga yaqin she'rini tarjima qilib, 1995-yili "Saylanma" nomi bilan nashr ettirdi. Toshhovuzlik maktab o'qituvchisi Olim To'rayev qardosh xalq so'z san'atkorining 45 ta yangi she'rini o'zbekchalashtirib, "Yor, jamoling ko'rgali" nomi ostida e'lon qildi (1999). Taniqli shoir va mohir mutarjim Mirzo Kenjabek esa buyuk so'z san'atkorining 170 ta, asosan ilgari hukmron mafkura yo'l qo'ymagan diniy tasavvufiy mazmundagi she'rlarini ilk bor o'zbekchalashtirib chop qildirdi (2004). Bu kitob ham "Saylanma" deb atalib, undan mutarjimning "Maxtumquli — valiy shoir" degan kirish maqolasi ham o'rin olgan. 2008-yili Abdumo'min Jumayev va Jumanazar Zulpiyevlar shoirning 233 ta she'ri tarjimasini amalga oshirdilar.

Biz Maxtumquli she'rlarining J. Sharipov, J. Jabborov, M. Kenjabek va M. Ahmadlar tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan eng yaxshi tarjimalarini saralab, shu bilan birga, o'zimiz ham shoirning 45 ta she'rini tarjima qilib, 2007-yili "Dunyo o'tib boradir" nomi bilan "Sharq mumtoz she'riyati durdonalari" ruknida e'lon qilgan edik. Keyin o'z tarjimalarimizni davom ettirib, Maxtumqulining 150 ta she'rdan iborat "Ustozingdan ayrilma" to'plamini chop ettirdik (2012). Shuningdek, mutafakkir shoirning odob-axloq yo'nalishidagi pand-nasihatga yo'g'rilgan she'r va misralari asosida ilk marta uning "Hikmatlar" to'plamini e'lon qildik (2013). Shoirning 290 yillik yubileyi munosabati bilan esa uning "Asarlar" to'plamini nashrdan chiqardik (2013). Maxtumqulining hozirgacha ma'lum 700 atrofidagi she'rini tarjima qilib, "Bulbul nolasi" (Toshkent: "Hilol-nashr", 2014) nomi bilan chop etish orqali esa shoir merosini deyarli to'laligicha o'zbek o'quvchilariga yetkazdik. Shoirning eng sara she'rlari asosidagi "Elingga baxsh ayla" nomli saylanma she'rlar to'plamini nashr ettirdik (2017).

Yana bir adabiyot muxlisi Muhammad Azim Maxtumqulining 100 dan ziyod she'rini tarjima qilib, "Bodi saboni ko'rsam" nomi bilan e'lon qildi (Buxoro, 2013). Muhammad Pirriyev ham o'z tarjimalari asosida shoirning alohida kitobini nashr ettirdi (2017). Bundan tashqari, turli nashrlarda Jumaniyoz Jabborov, Muhammad

Ali, Oxunjon Safarov, Nosir Muhammad, Muhammad Pirriyev va Abdunabi Hamro kabi shoirlarning ham Maxtumquli she'rlaridan qilgan tarjimalari e'lon qilingan. Maxtumquli hayoti va ijodi o'zbek olimlarining ham hamisha diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, xorazmlik taniqli adabiyotshunos olim Hamdam Abdullayev "Maxtumquli va o'zbek adabiyoti" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini 1968-yili Ashxobodda — turkman olimlari huzurida muvaffaqiyatli himoya qilgan. U o'z tadqiqotida Maxtumquli va Xorazm adabiy muhiti, shoir asarlarining Xorazm folkloriga ta'siri hamda she'rlarining xalq baxshilari, xalfalari va hofizlari tomonidan kuylanishi masalalarini tekshirgan.

Qoraqalpog'istonlik Karimboy Quramboyev butun umr o'zbek-turkman adabiy aloqalari va Maxtumquli ijodini o'rganib keladi. Bu izlanishlari asosida u "O'zbek-turkman adabiy aloqalari" (1978) nomli salmoqli monografiyasi hamda "Maxtumquli she'riyati O'zbekistonda" (1984) degan risolasini e'lon qildi. Risola buyuk turkman shoirining hayoti va ijodi, adabiy aloqa va o'zaro ta'sir, Maxtumquli she'riyatining xalqchil asoslari va o'zbekcha tarjimalari tahlili masalalariga bag'ishlangan. Yaqinda zahmatkash olim Maxtumquli bilan bog'liq barcha izlanishlari natijalarini bir yerga jamlab, "Maxtumquli — ilhom chashmasi" nomli salmoqli kitobini o'zbek o'quvchilari e'tiboriga havola etdi (2012).

Bundan tashqari, Vohid Zohidov, Vohid Abdullayev, Natan Mallayev, Rahmonqul Orzibekov, Baxtiyor Nazarov, Qobil Tohirov, Rahmatulla Inog'omovlar shoir ijodini o'zbek-turkman adabiy aloqalari nuqtayi nazaridan o'rgangan bo'lsalar, G'aybulla Salomov, Masharif Saparov, Rahmatulla Barakayev va M. Taylaqovalar shoir asarlarining o'zbekcha tarjimalari yuzasidan tekshirishlar olib bordilar. Oxunjon Sobirov, Mamatqul Jo'rayevlar Maxtumquli va o'zbek folklori munosabatlarini tadqiq etgan bo'lsalar, Ibrohim Haqqul Maxtumquli she'riyatining mavzu ko'lami va obrazlar olamini tahlil qiladi, Ahmad Yassaviyning shoir ijodiga ta'sirining ayrim nuqtalarini ko'rsatib o'tadi. Geograf olim Hamidulla Hasanov esa Maxtumquli sayohat qilgan joylar bilan qiziqib, uning qayerlarda bo'lganini aniqlashga intiladi. U shoir asarlarida 70 dan ortiq joy nomlari uchrashini sanab ko'rsatadi.

Jumaniyoz Sharipov, Asqad Muxtor, Sodirxon Erkinov, Salohiddin Mamajonov, Suyima G'aniyeva, Najmiddin Komilov, Bahodir Karimov kabilarning maqolalari asosan umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lib, ular o'zbek o'quvchilarini ulug' turkman shoirining hayoti va ijodi, faoliyati, asarlarining asosiy g'oyalari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan. S. Shukrullayeva O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Maxtumquli asarlari qo'lyozmalarini tadqiq etadi. Biz ham Maxtumquli hayoti va ijodining O'zbekistonda o'rganilishi va shoir asarlarining o'zbekcha tarjimalari bo'yicha bir qator maqolalar e'lon qildik. Atoqli turkman shoirining hayoti va ijodi haqida ilmiy-ommabop usulda hikoya qiluvchi "Maxtumquli" risolamiz ham o'zbek o'quvchilari qo'liga yetib bordi (2015).

Qoraqalpog'istonlik iste'dodli olima Feruza Sapayeva "Maxtumquli she'rlarining o'zbekcha tarjimalari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi (2018).

Maxtumquliga bag'ishlab Shayxzoda, Mirtemir, Jumaniyoz Sharipov, Abdulla Oripov kabi ko'plab shoirlar qator she'rlar yozishgan, xorazmlik dramaturg Qurbonboy Matrizayev 4 parda, sakkiz ko'rinishli "Maxtumquli" musiqali dramasini yaratgan. Shoirning murakkab hayot yo'li va ijodidan hikoya qiluvchi bu drama 1967-yildan buyon Xorazm viloyati teatrida qo'yilib kelmoqda. Dramadagi 8 ko'rinishdan 5 tasi Maxtumqulining bevosita Xivadagi hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Keyinchalik muallif mazkur drama asosida "Maxtumquli" romanini yaratdi (2010).

Ma'lum bo'ladiki, o'zbek baxshi va xalfalari, hofiz va bastakorlari, shoir va olimlari, tarjimon va noshirlari O'zbekistonda Maxtumquli hayoti va ijodini o'rganish, asarlarini tarjima qilish va o'quvchilarga yetkazish, pand-u hikmat bilan sug'orilgan chuqur ma'noli she'rlarini kuyga solish va kuylash, xalq ichida keng targ'ib va tashviq qilish borasida katta ishlarni amalga oshirdilarki, K. Quramboyev ta'biri bilan aytganda, "O'zbekistonda ham maxtumqulishunoslik maktabi vujudga keldi", deb aytish mumkin.

Ergash Ochilov,
filologiya fanlari nomzodi

ELINGGA BAXSH AYLA

Qo'lingga olibsan dunyo ziynatin,
Elingga baxsh aylab o'tgil, Firog'iy.
Pinhon qilma yaxshi-yomon, bor-yo'g'ing,
Elingga baxsh aylab o'tgil, Firog'iy.

Har tomondan qo'shni ellar zor boqsin,
Jayhun suvga to'lib, Gurgonga oqsin,
G'aflat uyqusidan eling uyg'onsin,
Elingga baxsh aylab o'tgil, Firog'iy.

Nachora, nomardlar xato ayladi,
Muruvvat qilsalar, sano ayladi,
Valiylar jam bo'lib, duo ayladi,
Elingga baxsh aylab o'tgil, Firog'iy.

Ko'z tikma hech qachon baxil moliga,
O'zingni mansub qil mardlar yo'liga,
Nayza berma, nomard olmas qo'liga,
Elingga baxsh aylab o'tgil, Firog'iy.

Ko'zingdan yosh to'kib, aylama armon,
Vatanni tark etib, bo'lma sargardon,
May ichib, bazm qurib, qil jonni qurbon,
Elingga baxsh aylab o'tgil, Firog'iy.

So'zing soch, ekansan shoiri zamon,
Lutf ayla elingga, tutmagil pinhon,
Dur kabi so'zingga to'lsin bu jahon,
Elingga baxsh aylab o'tgil, Firog'iy.

Hamisha o‘zingni tut xush-u xandon,
Turk-u Fors-u Bulg‘or bo‘lsinlar hayron,
Gullarga g‘arq bo‘lsin sarvi xiromon,
Elingga baxsh aylab o‘tgil, Firog‘iy.

Diltang bo‘lma bir ish tushsa boshingga,
Kengash uzoq-yaqin qarindoshingga,
Dilxoh istab Firdavs kelar qoshingga,
Elingga baxsh aylab o‘tgil, Firog‘iy.

Tiling qilsin doim xush so‘zni izhor,
Maqoming ulug‘, yo‘q ko‘nglingda ozor,
“Vaz-zuho”ni aytib, qurarsan bozor,
Elingga baxsh aylab o‘tgil, Firog‘iy.

Marhabo, oldingda munaqqash samo,
Qo‘lingdadir kavsar suvi doimo,
Xalqing uchun yoz she’r, doston bebaho,
Elingga baxsh aylab o‘tgil, Firog‘iy.

Donoman deb, miskinlarni unutma,
Afzalman deb, nomardlarni do‘st tutma,
Erk orzulab, go‘zal dostoning sotma,
Elingga baxsh aylab o‘tgil, Firog‘iy.

Dushman hujum qilib qolsa elingga,
Mardlik kamarini bog‘la belingga,
El ishidek ish yo‘q — tukkil dilingga,
Elingga baxsh aylab o‘tgil, Firog‘iy.

Elingni ulug‘la jahonda har on,
Boshingga ko‘tarib, fido ayla jon,
Barcha ishlarini aylagil doston,
Elingga baxsh aylab o‘tgil, Firog‘iy.

Bog‘ing ichra o‘sgan Eram niholi,
To‘lin oyday yuzi jannat misoli,

Zulf qora, "Val-layl"[1] qoshi hiloli,
Elingga baxsh aylab o'tgil, Firog'iy.

Maxtumquli, endi qarib qolibsan,
Yaxshilarga har dam hamroh bo'libsan,
Ulug' insonlardan duo olibsan,
Elingga baxsh aylab o'tgil, Firog'iy.

BO'YLARINGGA

Yursang, yorim, quvonaman
Sarviqomat[2] bo'ylaringga.
Guldan libos yarashibdi
Ajab rohat bo'ylaringga.

Men — bulbulga aylab ozor,
Olding shirin jonim nisor[3],
Zulayxodan[4] qolgan zunnor[5]
Bo'lsin hojat bo'ylaringga.

Ko'rsam yuzing, yo'q armonim,
Sensiz xazon bo'lsin jonim,
Iqbolim, dinim-iymonim,
Qilsam hurmat bo'ylaringga.

---

[1] **Val-layl** — Qur'oni karimning 92-surasi: "Kechaga qasam".

[2] **Sarviqomat** — qaddi-basti raso, qomati kelishgan, sarvday tik va baland bo'yli. **Sarv** — qishin-yozin ko'm-ko'k bo'lib yashnab turadigan ignabargli go'zal va xushqomat daraxt. Mumtoz adabiyotda ma'shuqaning kelishgan zebo qaddi-qomatini sarvga nisbat beradilar.

[3] **Nisor** — 1) sochish; 2) fido qilish.

[4] **Zulayxo** — Yusuf alayhissalomning ma'shuqasi. Sharqda mashhur "Yusuf va Zulayxo" qissa va dostonlarining qahramoni.

[5] **Zunnor** — nasroniy dinidagilar beliga bog'laydigan chilvir. Islom mamlakatlarida g'ayrimusulmonlar ham zunnor bog'lab yurishgan. Tasavvufda zunnor — haqiqiy mahbuba xizmati va toatiga bel bog'lash.

Ishqing bilan men dod aylab,
O'rganibman — odat aylab,
Umrim bo'yi faryod aylab,
Kirsam lahad, bo'ylaringga.

Ko'rgan oshiq fido bo'lar,
El-yurtidan judo bo'lar,
Maxtumquli gado bo'lar
Din-karomat bo'ylaringga.

YOQQANCHA BO'LMAS

Har nokasga aytma dard-u so'zingni,
Hasrat o'ti jisming yoqqancha bo'lmas.
G'ussa bilan dona-dona ko'zingdan
Nadomat yoshini to'kkancha bo'lmas.

Qanoat qil, izzatda tut o'zingni,
Tama bilan sarg'aytirma yuzingni,
Har nomardga hayf aylama so'zingni,
So'zingning binosin yiqqancha bo'lmas.

Mag'rur bo'lib yurma umring guliga,
Sovrilarsan bir kun xazon yeliga,
Yuz yil yashab, tushsang ajal qo'liga,
O'ngingdan chapingga boqqancha bo'lmas.

Sulaymondan[1] ortiq bo'lsa shavkating,
Falakni titroqqa solsa haybating,
Ko'ksingda jo'sh ursa kuching, g'ayrating,
Ajal nog'orasin qoqqancha bo'lmas.

---

[1] **Sulaymon** — shon-shavkatli podshoh va payg'ambar. Uning mol-mulki had-hisobsiz bo'lgan. Unga Xudoning sirli va muqaddas ismi — Ismi A'zam ma'lum bo'lgan va bu ism uning sehrli uzugiga naqsh qilingan. Bu uzun vositasida u nafaqat odamlar, balki hayvonlar, qushlar, barcha ins-u jinslarga, tabiat hodisalariga ham hukmini o'tkaza olgan.

Ko‘ngli qora bilan bo‘lmanglar ulfat,
Yuqar undan turli-tuman kasofat,
Ko‘mirga har qancha aylasang izzat,
Manglayga qorasi yuqqancha bo‘lmas.

Maxtumquli sira topmadi omon,
Yomon til qilichdan, boltadan yomon,
Yomon til oldida zaharli ilon —
Chaqsa-da, bir chivin chaqqancha bo‘lmas.

AYRILMA

Mast bo‘lib yurguncha musofir yurtda,
Unib-o‘sgan o‘z yurtingdan ayrilma.
Mag‘rur kaklik kabi nafs degan dardda
Domga tushib, qanotingdan ayrilma.

Tavakkal et — xalqqa siring berib bor,
Sabrli bo‘l, besabrlik ham bekor,
Har qayerga borsang, nasibangdir yor,
Boy bo‘lay deb, izzatingdan ayrilma!

Nomardlar ham yaramaslar, nochorlar,
Tuzing ichib, ishing bo‘lsa qocharlar,
Siringni fosh etib, aybing ocharlar,
Qadring bilgan ulfatingdan ayrilma!

Gadolarning ko‘ngli shohlikni tilar,
Nodon ko‘ngli yolg‘on so‘zni rost bilar,
Beqadrlar dushmaningga do‘st bo‘lar,
Ta’lim bergan ustodingdan ayrilma!

Birov qashshoq bo‘lib, birov boy bo‘lar,
Har kishining baxti-iqboli kular,
Boshga nima kelsa, tilingdan kelar,
Maxtumquli, xalq yodidan ayrilma!

YOR AYLAR

Aqling bo‘lsa, yaxshilarga hamdam bo‘l,
Ahmoq o‘zin nodon bilan yor aylar.
Chin oshiqlar nozli yorning jamolin
Bir ko‘rsam deb, kecha-kunduz zor aylar.

Qancha sirim bo‘lsa, aytarman marda,
Karvon yota bilmas yalanglik yerda,
Ulug‘ nomuslarda yaramas darda,
Nomard uyda oson ishdan or aylar.

Nomardning dastidan qolibman darda,
Ko‘nglim tinchin topmas bir pinhon yerda,
Moli ko‘p deb, mehmon bo‘lma nomardga,
Mard kambag‘al bo‘lsa hamki, bor aylar.

Nomard o‘z uyida mardga so‘z aytar,
Haq unga kor etmas, tanobin tortar,
Mard yigit mol topsa, himmati ortar,
Nomardga pul tushsa, ko‘nglin tor aylar.

Maxtumquli, endi o‘zingni kuzat,
Savobing ko‘paytir, yomoning tuzat,
Ma’rakada oz so‘zlashni qil odat,
Ko‘p so‘z seni el ichida xor aylar[1].

FOSH ETAR SENI

Dil sirini aytma har bir nomardga,
Siring elga yoyib, fosh etar seni.
Makkor o‘g‘ri bilan bo‘lma hamqishloq,
Molingdan ayirib, och etar seni.

[1] Bu she’r Ma’rufiyga ham nisbat beriladi.

Ezma odam bilan o'tirib-turma,
Sira nomard bilan so'z-suhbat qurma,
Qadrdon do'stingdan yuzing o'girma,
Borsang, boshi uzra toj etar seni!

Bir mard yigit nozaninga yor bo'lsa,
Jamolini bir ko'rishga zor bo'lsa,
Orada yaramas raqib bor bo'lsa,
Yaxshi do'sting bilan o'ch etar seni.

So'fiylar[1] behuda aytmas sanoni[2],
Sahar tursang kechgay barcha gunohni,
Aytma g'iybat so'zni, qilma zinoni,
Jahannam o'tiga duch etar seni.

Maxtumquli, elga yoyding nasihat:
Yomon bilan sira bo'lmagil ulfat!
Xudo bersa esli-hushli bir farzand,
Qarigan chog'ingda yosh etar seni.

MUHTOJ AYLAMA

Qodir Jabbor[3], sendan tilagim ko'pdir,
Sen meni nomardga muhtoj aylama.
Xazinangdan bergin mening rizqimni,
Bandangni bandangga muhtoj aylama.

Adashtirma to'g'ri yo'lim egriga,
Egrini teng qilma sira to'g'riga,
Kishi moli nasib etmas o'g'riga,
Halolni haromga muhtoj aylama.

---

[1] **So'fiy** — tariqatga kirib, dunyodan ko'ngil uzgan, riyozat bosqichlarini bosib o'tib, Haqqa intilayotgan kishi.

[2] **Sano** — madh, vasf, ta'rif.

[3] **Jabbor** — Olloh taoloning go'zal ismlaridan biri: bandalari ishini isloh qiluvchi.

Nomard ko'prigidan o'lsam kechmasman,
Karvon bo'lsam, halol ishdan qochmasman,
Qo'lidan bir kosa sharob ichmasman,
O'ng qo'lim chap qo'lga muhtoj aylama.

Sendan yaxshi niyat — tilagim ko'pdir,
Achchiq so'zlar dildan chiqqan bir o'qdir,
Jigarning jigarga bahosi yo'qdir,
Akani ukaga muhtoj aylama.

Maxtumquli, berar tilaging Rahmon[1],
Tilar bo'lsang, tila o'zingga iymon,
Ikki ko'zim nurin teng saqla har on,
O'ng ko'zim chap ko'zga muhtoj aylama.

KO'RING

Har yigitning aslin bilan desangiz,
Davrada o'tirib-turishin ko'ring.
Birov bilan oshna bo'lay desangiz,
Avval o'z ahdida turishin ko'ring.

Uzoq yo'lga borib-kelar bo'lsangiz,
Mardlik qilichini solar bo'lsangiz,
Bir bedovni[2] saylab olar bo'lsangiz,
Ko'ksi, umurtqasi, sag'risin[3] ko'ring.

Bir pul tushsa bir iflosning qo'liga,
Ko'ksin ochib yurar qishning yeliga,
Xaridor bo'lsangiz qizga, kelinga,
Xulq-atvor, o'tirib-turishin ko'ring.

---

[1] **Rahmon** — Olloh taoloning go'zal ismlaridan biri: juda mehribon.

[2] **Bedov** — chopqir ot.

[3] **Sag'ri** — ot orqa oyog'ining ustki qismi.

Mard yigitning ot-yarog'i shay bo'lsa,
Yetishar har yerda hayda-hay bo'lsa,
O'zi Hotam bo'lib, yana boy bo'lsa,
To'rt tarafdan mehmon kelishin ko'ring.

Birovlarni qilding mol-dunyoga yor,
Birovlarni qilding bir chaqaga zor,
Yaxshi-yomon — barcha odamning qator
Navbat bilan o'tib borishin ko'ring.

Haq taolo bezor zakotsiz[1] boydan,
Siz ham qoching zinhor u kelgan joydan,
Mard har ish tushsa ko'rar Xudodan,
Nomardning hamrohdan ko'rishin ko'ring.

Nomard yurar mudom o'limdan qochib,
Uyiga kelganda zahrini sochib,
Mard yigit mehmonga ko'ksini ochib,
Nomardning uyidan qochishin ko'ring.

Zolimlar unutar zikri Ollohni,
Arzon olib, qimmat sotar g'allani,
Noinsof sudxo'rlar halol tillani
Harom foydasiga berishin ko'ring.

Mal'un shayton sira toat ettirmas,
Haromdan qaytarmas, halol yuttirmas,
Namozdan chalg'itar, ro'za tuttirmas,
La'nati shaytonning talashin ko'ring!

Mard yigitning ishi suhbat — soz bo'lar,
Ko'ngli qish bo'lmayin, doim yoz bo'lar,
Yaxshining ko'nglida kina oz bo'lar,
Yomonning har kuni urushin ko'ring.

[1] **Zakot** — islom dinida muhtojlar foydasi uchun har yili nisobga etgan molning qirqdan bir ulushi miqdorida beriladigan sadaqa.

Tug‘ishgandan uzoq -- bag‘ritosh bo‘lib,
Qadrsiz yot bilan qarindosh bo‘lib,
Maxtumquli, buzuqlarga bosh bo‘lib,
Xo‘janing, saidning yurishin ko‘ring.

JUDO ETMASIN

Do‘stlar, hech bandani yaratgan Olloh,
Aql-u idrokidan judo etmasin.
Bergan aqlin olib, na’uzubilloh[1],
Mol-u mulk-u taxtin toroj etmasin.

Yurolmagan unib-o‘sgan elida,
Intizordir ayriliqning yo‘lida,
Asir bo‘lib bir zolimning qo‘lida,
Egam hech bandani muhtoj etmasin.

Vatandan ayrilgan yig‘laydi bo‘zlab,
Beg‘am o‘tgan shirin damlardan so‘zlab,
Oh chekadi qaytish yo‘lini ko‘zlab,
G‘ariblikka hech kimni duch etmasin.

Hech kim g‘am chekmasin bo‘lib musofir,
Uzoqlardan yurtga termilib haqir,
Yurak-bag‘ri xasta, yuzida yo‘q nur,
Ojiz, notavon, noiloj etmasin.

Maxtumquli, Xudo tavfiq[2] berganda,
Sahar turib, yolg‘iz yo‘llar yurganda,
Tariqatning haq yo‘liga kirganda,
Shum shayton o‘ziga yo‘ldosh etmasin.

---

[1] **Na’uzubilloh** — Xudo saqlasin.

[2] **Tavfiq** — madad, ko‘mak.

MOL YAXSHI

Odam bo'lib, odam qadrin bilmasa,
Undan ko'ra o'tlab yurgan mol yaxshi.
So'zlaganda so'z ma'nisin bilmasa,
Undan ko'ra so'zlamagan lol yaxshi.

Haq asrasin qahr-u gunoh, xatardan,
Minnatli osh achchiq bo'lar zahardan,
Ey azizlar, bir bozorsiz shahardan,
Ming martaba gavjum bo'lgan cho'l yaxshi!

Har kimning o'ziga Misrdir joyi,
Yodidan chiqmaydi bayrami, to'yi,
Dunyoda bo'lmas sog' odamdan boyi,
Oqshom yotib, erta shukrin qil yaxshi.

Behuda jigaring ezib bo'zlama,
Ishq o'tiga yurak-bag'ring tuzlama,
Bir yerga borganda bejo so'zlama,
So'z so'zlasang, o'z o'rniga sol yaxshi.

Bir ko'hna saroydir asli bu jahon,
Avvali aysh-ishrat, so'nggi pushaymon,
Bu dunyoda hamma besh kunlik mehmon,
Bir-biringning qadrin yana bil yaxshi.

Bir bevafo yorga kulib boqqandan,
Shirin jonni ishq o'tiga yoqqandan,
Yot ellarda musofirlik chekkandan,
Ursa, so'ksa, xo'rlasa-da, el yaxshi.

Maxtumquli, sen so'zlagin har bobdan,
Dunyoga suyanma, chirikdir tubdan,
Boshi-oxiri yo'q ming quruq gapdan,
Bir shuvillab o'tadigan yel yaxshi.

YOT BO‘LAR

Muhammad[1] ummati molsiz bo‘lmasin,
Molsiz bo‘lsa, qavm-u qardosh yot bo‘lar.
Qochar aka-ukang, qolmas hurmating,
Quvonar dushmaning, do‘sting mot bo‘lar.

Faqir oyoqyalang, belbog‘i — pechak,
Ma’rakada o‘rni poygak bo‘lajak,
Faqirlar ot minib chopsa, u — eshak,
Badavlatlar eshak minsa, ot bo‘lar.

Bir tilak tilasang, hojating bitmas,
Do‘sting ixlos bilan marhamat etmas,
Ma’rakada aytgan so‘zing joy tutmas,
Tinglamaslar — so‘zing quruq bod[2] bo‘lar.

Kurash — obro‘, urush keltirar shuhrat,
Birovni kamsitgan odammas minba’d,
Yetar bir mo‘minni aylamoq g‘iybat,
G‘iybatchining ajri do‘zax — o‘t[3] bo‘lar.

Maxtumquli, shukur ayla Xudoga,
O‘lim barobardir shoh-u gadoga,
Sabrsiz qul tez yo‘liqar baloga,
Sabrli qul bora-bora shod bo‘lar.

---

[1] **Muhammad** — Muhammad alayhissalom.

[2] **Bod** — el, shamol.

[3] **O‘t** — bu yerda: do‘zax, jahannam ma’nosida.

MAXTUMQULI VA DURDI SHOIR[1]

AYTISHUVI

Maxtumquli:
— U nimadir, yashil-qizil o‘sadi?
U nimadir, oyog‘i yo‘q kezadi?
U nimadir, yetti daryo suzadi?
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar bor!

Durdi shoir:
— U ekindir, yashil-qizil o‘sadi,
U ilondir, oyog‘i yo‘q kezadi,
U baliqdir, yetti daryo suzadi,
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir!

Maxtumquli:
— U nimadir, yoqasi bor, yoni yo‘q?
U nimadir, qanoti bor, qoni yo‘q?
U nimadir, odam yutar, joni yo‘q?
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar bor!

Durdi shoir:
— U kafandir, yoqasi bor, yoni yo‘q,
Kapalakdir, qanoti bor, qoni yo‘q,
Qora yerdir, odam yutar, joni yo‘q,
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir!

Maxtumquli:
— U nimadir, darvozasiz qal’adir?
U nimadir, derazasiz binodir?
U nimadir, bir-biridan oladir?
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!

[1] **Durdi** — mashhur turkman shoiri, Maxtumqulining zamondoshi va do‘sti.

Durdi shoir:
— U ko'ngildir, darvozasiz qal'adir,
U qabrdir, derazasiz binodir,
U oy-kundir, bir-biridan oladir,
Bizdan salom bo'lsin, javob shundaydir!

Maxtumquli:
— U nimadir, yemadilar, to'ydilar?
U nimadir, qiyomatga qo'ydilar?
U kim edi, tovonidan so'ydilar?
Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Durdi shoir:
— U diydordir, yemadilar, to'ydilar,
U namozdir qiyomatga qo'ydilar,
Nasimiyni[1] tovonidan so'ydilar,
Bizdan salom bo'lsin, javob shundaydir!

Maxtumquli:
— U nimadir, yetti o'lka kezadi?
U nimadir, belin bir ne ezadi?
U nimadir, odam kabi sezadi?
Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

Durdi shoir:
— U cho'pondir, yetti o'lka kezadi,
U qo'y-qo'zi, belin tayoq ezadi,
Bedov otlar odam kabi sezadi,
Bizdan salom bo'lsin, javob shundaydir!

Maxtumquli:
— U kimlardir, tuproq kabi surinmas?
U nimadir, odamlarga ko'rinmas?
U nimadir, biror to'nga o'ranmas?
Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

[1] Ulug' ozarbayjon shoiri Imodiddin Nasimiy (1370–1417). Misr sultoni Muayyaddin dahriylikda ayblab, tiriklay terisini shildirgan.

Durdi shoir:

— Eranlardir[1], xor-zor bo'lib surinmas,
U balodir, kelsa ko'zga ko'rinmas,
Yolg'on suhbat biror to'nga o'ranmas,
Bizdan salom bo'lsin, javob shundaydir!

TURKMANNING

Jayhun[2] bilan Xazar[3] bahri orasi,
Cho'l ustidan esar yeli turkmanning.
Gul-g'unchasi qaro ko'zim qorasi,
Qora[4] tog'dan enar seli turkmanning.

Haq siylamish — bordir uning soyasi,
Yoyilar cho'lida nori[5], moyasi[6],
Rang-barang gul ochar qir-u qoyasi,
G'arq bo'lmish rayhonga cho'li turkmanning.

Qizil-yashil bo'lib chiqar parisi,
Har yoqqa taralar mushk-anbar isi,
Bek, to'ra, oqsoqol, yurtning egasi,
Ko'z quvnatar go'zal eli turkmanning.

Otasi marddir, u mardning zuryodi,
Mag'rurdir, chunki Go'ro'g'li avlodi,
Dala-qirda o'qqa tutsa sayyodi[7],
Ola bilmas, yo'lbars o'g'li turkmanning.

---

[1] **Eran** — valiy, Ollohning do'sti.

[2] **Jayhun** — Amudaryo.

[3] **Xazar** — Kaspiy dengizi.

[4] Qadim turkiy tilda "qora" so'zining baland, yuksak; katta, ulkan ma'nolari ham bor.

[5] **Nor** — erkak tuya.

[6] **Moya** — urg'ochi tuya.

[7] **Sayyod** — ovchi.

Ko‘ngillar, yuraklar bir bo‘la boshlar,
Uyushsa, eriydi tuproqlar, toshlar,
Bir sufrada[1] tayyor qilinsa oshlar,
Yuksaladi baxt-iqboli turkmanning.

Ko‘ngil havolanar otga chiqqanda,
Tog‘ la’lga[2] aylanar qiyo boqqanda,
Bol keltirar daryo to‘lib oqqanda,
To‘g‘on qolmas kelsa seli turkmanning.

G‘aflatda qolmas, jang kuni xor bo‘lmas,
Qarg‘ish-u nafratga giriftor bo‘lmas,
Bulbuldan ayrilib, so‘lib, zor bo‘lmas,
Doim anbar sochar guli turkmanning.

Qavmlar qardoshi, urug‘lar yori,
Toleyi ters emas, yog‘ar Haq nuri,
Mardlar otga minsa, borar jang sari,
Yov ustiga eltar yo‘li turkmanning.

Sarxush bo‘lib chiqar, bag‘ri dog‘lanmas,
Toshlarni sindirar, yo‘li bog‘lanmas,
Ko‘zim yotga tushmas, dil yiroqlanmas,
So‘zlar Maxtumquli — tili turkmanning!

BOG‘LAR, HEY!

Qismat tortsa — ketsam uzoq yo‘llara,
Baxtim qo‘ymas, ketar yo‘lim bog‘lar, hey!
Hayron Majnun bo‘lib chiqsam cho‘llara,
Borib maskan tutsam sizni, tog‘lar, hey!

O‘yin bilgan yigitlikning damindan,
Yetib keldim komillik qadamindan,

[1] **Sufra** — dasturxon.

[2] **La’l** — qizil rangli yaltiroq qimmatbaho tosh.

Ko‘nglim larzon bo‘ldi dunyo g‘amindan,
Tutdi ko‘ksim parcha-parcha dog‘lar, hey!

Qayta-qayta yigitlikning royindan,
Yetib keldim komillikning poyindan,
Botdi boshim — chiqa bilmam loyindan,
Yodga tushar u kun kezgan chog‘lar, hey!

Bolalikda to‘rt tarafga otishgan,
Nodonlikda hamma ishga qotishgan,
Ojiz qolib, qarilikka yetishgan,
Dard atanib, o‘z-o‘zindan yig‘lar, hey!

Ma’ni topgan Maxtumquli so‘zindan,
Fikr aylab, qon yosh to‘kar ko‘zindan,
Hamma narsa isloh topar O‘zindan,
Yo Rab[1], yiqilmasmi ulug‘ tog‘lar, hey!

BU DARDNI

Sayr ayladim, kezdim ishqning tog‘ida,
Ne balodir, kim chekadi bu dardni.
Ishq tog‘in ossalar ko‘kning bo‘yniga,
Ko‘k titrabon cheka bilmas bu dardni.

Ishq asar etmasa, yonmas chiroqlar,
Ishq kelganda bo‘ri ingrar, qurt yig‘lar,
Egilar haybatli, qudratli tog‘lar,
Toshlar erib, cheka bilmas bu dardni.

Kim ko‘targan ishqning yukin mardona,
Falak ko‘rdi — qo‘rqib tushdi gardona,
Zamin junbish aylab, keldi larzona,
Cho‘l, vodiylar cheka bilmas bu dardni.

[1] **Yo Rab** — ey Xudo.

Jannat qochib chiqmish Arshning[1] uyiga,
Do'zax qo'rqib tushmish yerning tagiga,
Qochdi daryo, odam oldi bo'yniga,
To'rt yuz yillab cheka bilmas bu dardni.

Maxtumquli, cheksang dardni, tugundan,
Osiy[2] bo'lib, hech nolima bu kundan,
Bu o'lmoq-ayrilmoq qolibdir undan,
Odam Ato meros qo'ymish bu dardni.

FIG'ON QOLMAGAY

Bulbul egallagan havoli bog'lar,
Bulbul sendan ketar, fig'on qolmagay.
Qorli-yu yomg'irli, tumanli tog'lar,
Sellar sendan ketar, tuman qolmagay.

Inson yaratilmish: kim ulug', kim xor,
Kim esli, kim telba — turfa fe'l-atvor,
Yigitlik go'yoki yashnagan bahor,
Bahor sendan ketar, zamon qolmagay.

Kelganga peshvoz chiq bo'lsa majoling,
Yaxshi tutavergil niyat-u fe'ling,
Dunyo davronida ochiq tut qo'ling,
Davr sendan ketar, davron qolmagay.

To'polon, gap-u so'z — dunyoda shu hol,
Kim: "Ber, ho, ber!" — deydi, kim der: "Ol, ho, ol!"
Yigitlar, bu dunyo shunga bir misol,
Chaqmoqdan, bulutdan nishon qolmagay.

---

[1] **Arsh** — buyuk taxt. U xuddi olam ustidagi qubbaga o'xshash bo'lib, uni farishtalar ko'tarib turadi.

[2] **Osiy** — gunohkor, itoatsiz, isyon qiluvchi. U kufr yoki shirkka ketmagan bo'lsa, har qancha katta-kichik gunohlariga qaramay mo'min-musulmon hisoblanadi va chin dildan tavba qilsa, gunohlari kechiriladi.

Bir manzilki bu, uch kun yeb-ichganda,
O‘rnashib, shaxt bilan beling yechganda,
Uzanging tortarlar to‘rt kun kechganda,
Besh kundan ortiqcha mehmon qolmagay.

Bir kuni yer senga ochadi quchoq,
Bu nargis ko‘zlarga to‘ladi tuproq,
O‘zingga ishonma, ey barq urgan bog‘,
Gullaring so‘lar-u sayron[1] qolmagay.

Maxtumquli aytar orif do‘stiga,
Ajal tushmay qolar kimning qasdiga?!
Falak bir kun tiqar yerning ostiga,
Til ketar, so‘zlashga imkon qolmagay.

TOSHNI SINDIRAR

Iqboling uyg‘onsa, davlat yor bo‘lsa,
Toqqa tishing ursang, toshni sindirar.
Toleying ters kelsa, baxting sho‘r bo‘lsa,
Hatto yumshoq holva tishni sindirar.

Ajalingdan qo‘rqib, kirsang ummonga,
Qo‘rquvdan ne foyda ketajak jonga,
Bir kun kuning bitib, to‘lsa paymona[2],
Ko‘knori somoni boshni sindirar.

So‘zlariga quloq solgil bilganning,
Oxiri hech yerga yetmas yolg‘onning,
Umri uzun bo‘lar olqish olganning,
Qarg‘ish ko‘kartirmas, yoshni sindirar.

---

[1] **Sayron** — 1) sayr, sayohat, yurish; 2) sayr joyi, sayrgoh.

[2] **Paymona** — umrning so‘ngiga yetishi.

Oqilning so‘zidan ko‘ngil suyunar,
Ahmoqning ishidan zehning koyinar,
Benomus keng yerda oqil ko‘rinar,
Tor davrada aql-u hushni sindirar.

Firog‘iy, nodonni ko‘rib sahroda,
Aql so‘rma, ko‘p kezdi deb dunyoda,
Tor yerda liq kosa bergan asnoda,
Oshni yeyolmay idishni sindirar.

QARILIKDIR, AZIZLAR

Yigitlik quvvati ketdi belingdan,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.
Davosi yo‘q uning o‘limdan boshqa,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.

Dunyoda qancha dard bo‘lsa, bor davo,
Qarilik dardiga davo yo‘q ammo,
Tutib bo‘lmas uchsa dil qushin aslo,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.

Bir nima yey desa, tishlari o‘tmas,
Sal uzoq narsaga ko‘z nuri yetmas,
O‘g‘il-qiz so‘ziga hech quloq tutmas,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.

Yetmishni qoralab qolganda yoshi,
Qaltirab, bir yerda turmaydi boshi,
Non chaynay olmaydi, tolqondir oshi,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.

Gapirsang eshitmas, quloq kar bo‘lar,
O‘tirib-turishi dardisar bo‘lar,
Suyaklar sirqirab, darbadar bo‘lar,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.

Og‘ziga qarasang, bir tishi bo‘lmas,
Yostiq, to‘shak bilan hech ishi bo‘lmas,
Yonida qadrdon teng-to‘shi bo‘lmas,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.

O‘g‘il-qiz, kelinga bo‘lmas keraging,
So‘zingni eshitmas, qilmas ko‘maging,
Yirtiq, kir-chir bo‘lar kiyim, to‘shaging,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.

Ketib barcha qadr bilgan teng-to‘shing,
Sog‘lik qolmay, ming dard bo‘lar yo‘ldoshing,
Borgan sari tez-tez urar dil qushing,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.

Qolgan-qutgan bo‘lsa, unga berarlar,
Issiq-iliq bo‘lmas, shuni ye derlar,
So‘zlayman desa, og‘ziga urarlar,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.

Tanda quvvat qolmas, yuzingda ko‘rk ham,
O‘tirib-turish ham azobdir har dam,
Icholmaysan hatto oshing xotirjam,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.

Qarimang, der Maxtumquli, u qadar,
Yetmish-u saksonning o‘rtasi yetar,
O‘z bolalari ham turtkilab o‘tar,
Eng yomon dard qarilikdir, azizlar.

YURGING KELADI!

Go‘zal bordir — go‘zallardan ziyoda,
Uning xizmatida turging keladi!
Odobli, ikromli, muloyim juda,
To o‘lguncha birga yurging keladi!

Go‘zal bordir — olma yonoq, sarv qad,
Zulmat tunlaringni yoritar abad,
So‘zlagan so‘zlari misli asal, qand,
Yonog‘idan bo‘sa olging keladi!

Go‘zal bordir — har kun uni ko‘rsayding,
Shu go‘zalning qora zulfing o‘rsayding,
Butun xazinangni to‘kib bersayding,
Uning savdosida bo‘lging keladi!

Go‘zal bordir — bit bosgandir sochini,
Toza tutmas sira o‘choq boshini,
Hurmat qilar na qari, na yoshini,
Uning xizmatidan qochging keladi!

Go‘zal bordir — oq qog‘ozday bilagi,
Joni bilan payvastadir yuragi,
Shunday go‘zal mard yigitning tilagi,
Nima so‘rasa ham berging keladi!

Maxtumquli, sinov kerak go‘zalga,
Nima qismat bo‘lsa, tortar azalga,
Dunyo molin sarf et yaxshi go‘zalga,
Yomonning yonidan qochging keladi!

GULI BO‘LMASA

Har kim suluvman der, bo‘lmas e’tibor,
Sunbul sochi, qilday beli bo‘lmasa.
Yuragi ot kallasidek botirlar
Xotinchamas, ot-yarog‘i bo‘lmasa.

Nimalarni ko‘rmas bu shum ko‘ngillar,
Xazon ursa, so‘lar ochilgan gullar,
Bog‘ ichra sayrashgan shaydo bulbullar
To‘rg‘aychamas, qo‘nar guli bo‘lmasa.

So‘zlasang, har yonga yetar bu tillar,
Shuvillaydi essa orqadan yellar,
Yashilbosh so‘nalar, g‘ozlar g‘aqillar,
Holi xarob suzar ko‘li bo‘lmasa.

Bir kuni keladi oxirzamona,
Isrofil surini chalar har yona,
Qirg‘iy ko‘rgan qushlar olmas ovini,
Qush qanoti, yung, quyrug‘i bo‘lmasa.

Qushlar ucha bilmas quyruq-qanotsiz,
Oshiq yorga yetmas dod-u faryodsiz,
Bir bedov xonazod bo‘lar siyoqsiz,
Quyrug‘i, kokili, yoli bo‘lmasa.

Oxirzamon bo‘lsa, shayxdan fe’l qochar,
Kalomning yuzidan xat qolmay o‘char,
Daladagi suvsiz ariqqa o‘xshar,
Har kimning saxovat — xayri bo‘lmasa.

Do‘st bo‘lma, qadringni bilmas yaramas,
Do‘st bo‘lsang bo‘l topib chin insonni, bas,
Bir yog‘mas bulutga o‘xshaydi, xullas,
Har kishining himmat — xayri bo‘lmasa.

Maxtumquli, bilding, shunday zamondir,
Hozir nafi bo‘lsa, so‘nggi ziyondir,
Mard yigitning ichi to‘la armondir
Qora ko‘z, xipcha bel yori bo‘lmasa.

MOLGA QARAMAS

Avvalo mol yaxshi, moldan bosh yaxshi,
Bosh davlatin topgan molga qaramas.
Asrandidan uzoq qarindosh yaxshi,
Nodon o‘g‘il otasiga qaramas.

Otda oyoq bo‘lsa, boshqa sin[1] bo‘lmas,
G‘ayratli er ishi hech qiyin bo‘lmas,
Xunasada jang kuni bir un bo‘lmas,
Yerga qarar, o‘q-u yoyga qaramas.

Olomonni oldga sardori boshlar,
Mard yigitlar urar nayza, qilichlar,
Birov odam yiqib, birov ot ushlar,
Obro‘ topilsa, u poyga[2] qaramas.

Mard do‘stdan kechadi odam och qolsa,
Yor-yordan ayrilar uzoqda bo‘lsa,
Yaxshi erga yomon xotin duch kelsa,
Tashlar ketar — hovli-joyga qaramas.

Ko‘hna dunyo yaramasning uyidir,
Kimki sudxo‘r[3] bo‘lsa, do‘zax joyidir,
Oltin-kumush ko‘zlarining moyidir,
Mard yigitlar buzuq joyga qaramas.

Dunyo ko‘rki nozaninlar, ne jonlar,
Nodonga yo‘liqdi asil jononlar,
Erdan qolgan, eri o‘lgan juvonlar
Mard yigitni ko‘zlar, boyga qaramas.

Maxtumquli g‘arib ko‘nglin boy bilib,
Qanoat mulkin o‘ziga joy bilib,
Har kim o‘z yorini to‘lin oy bilib,
Oyin ko‘zlar, o‘zga oyga qaramas.

---

[1] **Sin** — sinash, tekshirish.

[2] **Poyga** — oyoqqa.

[3] **Sudxo‘r** — pul qarz berib, foizi, foydasi hisobiga boylik orttiruvchi kishi.

TUZ HAM BO‘LMASA

To‘qson xil osh-ovqat bo‘lsa qoshingda,
Lazzat yo‘q, ichida tuz ham bo‘lmasa.
Bilmaysan, nima ish bordir boshingda,
Mushkil ishdir boshda ko‘z ham bo‘lmasa.

Oyoq bor yurmoqqa, qo‘l bor olmoqqa,
Qani banda, sog‘lik shukrin qilmoqqa?!
Quloq bordir eshitganni bilmoqqa,
Kim tuzatar tilda so‘z ham bo‘lmasa?

Yo‘q yerdan jon berib, yetkazdi nonni,
Ko‘ngil bo‘stoniga bitdi iymonni,
Agar banda bo‘lsang, tani Rahmonni,
Kelib senga yuzma-yuz ham bo‘lmasa.

Qismatni haq bilgan demas rizqni kam,
Qizg‘anmas so‘zini so‘z bilgan odam,
Ko‘ngil mavj urmaydi, so‘zlamas til ham,
Dilda ishq o‘tidan iz ham bo‘lmasa.

Agar Haqning o‘zi qilmasa isloh,
Yer yuzida ortar yildan yil gunoh,
Dunyo so‘zi tuzsiz taomdir go‘yo,
So‘z ichida kelin-qiz ham bo‘lmasa.

Ko‘zingni yum, qo‘yib tishingga tishni,
Bahorga yetganda, unutma qishni,
Tavakkal[1] et, Haqqa topshir har ishni,
Sabr bilan bitar tez ham bo‘lmasa.

Maxtumquli, botsam xayolga bir zum,
Ming bir tomoshani ko‘radi ko‘zim,
Ayb aylamang tinglab mening bu so‘zim,
Odamlar so‘zidek soz ham bo‘lmasa.

[1] **Tavakkal** — tariqat maqomi. Komil e’tiqod va to‘la ishonch bilan o‘zini Yaratganning ixtiyoriga topshirib, dunyo, tirikchilik va nafs tashvishidan butunlay forig‘ bo‘lish.

MOLIGA YETMAS

Boylar bordir g'ariblarga rahm aylar,
Boylar bordir, dunyo moliga yetmas.
Go'zal bordir, dunyo molin sarf etsang,
Go'zal bordir, yegan noniga yetmas.

Dunyoda baxilning yuzini ko'rma,
Adashib osh bilan noningni berma,
Qul deya yigitning aslini so'rma,
Xo'jasi bor, balki, quliga yetmas.

Dunyo molin bersang, egasi sotmas,
Shoh istasa, uning tilagi bitmas,
Bedov bor, mol-dunyo o'rnini tutmas,
Bedov bor, solingan juliga yetmas.

Mardga bedov bo'lar jang chog'i yo'ldosh,
Yot bilan borishsang, bo'lar qarindosh,
Yaxshi ayol, yaxshi o'g'il, qiz, qardosh –
Bu davlat har kimning qo'liga yetmas.

Maxtumquli, bu dunyoning ishrati,
Yemak, ichmak, minmak, quchmak, suhbati,
Birovlar bir umr qilar toatni,
Birovning sajda joy oldiga yetmas[1].

PORA-PORADIR

Ey do'stlar, charx-u falakning dastidan
Mening bu yuragim pora-poradir.
Irib borar tanim Ayyub[2] tanidek,
Kishi bilmas — bir bedavo yoradir.

---

[1] Bu she'r Ma'rufiyga ham nisbat beriladi.

[2] **Ayyub** — Ayyub payg'ambar. U zot serfarzand va boy-badavlat bo'lgan. Lekin birin-ketin boshiga falokat tushadi: mol-dunyosidan ajraladi — qanoat qiladi; yetti o'g'il-u yetti qizidan judo bo'ladi — sabr aylaydi; sog'lig'i qo'lidan ketadi — shikoyat etmaydi.

Bu sabr-u qanoatining ajri sifatida Olloh taolo uning barcha yo'qotishlarini qaytarib beradi. Ayyub — mumtoz she'riyatda sabr-qanoat timsoli bo'lib keladi.

Kecha-kunduz ishim ohu voh, fig‘on,
Termilib yig‘layman ko‘z tashlab har yon,
Duch kelib, soya der: “G‘arq bo‘ldim chunon,
Erlar — pirlar sizdan madad-choradir.

G‘arib agar yot ellarda yurajak,
Ko‘zlarida qonli yosh mavj urajak,
Oshiq agar ma’shug‘ini ko‘rajak,
Gul-gul ochilar, gar ko‘ngli poradir.

Urug‘ soch, o‘rarsan, kelding bu joya,
Umringni o‘tkazma behuda, zoe’,
Nazar aylasangiz ushbu dunyoya,
Kelgan ketar, turmas, ko‘hna saro(y)dir.

Maxtumquli qilmish jigarin biryon[1],
Dili qonga to‘lmish, ko‘zlari giryon[2],
Shunday ojiz qolmish, yolvorib har yon,
Hech kim rahm etmadi — baxtim qoradir.

BO‘LARSAN

Yuksak tog‘, yuksakligingga ishonma,
Otashda erigan zardek bo‘larsan.
Azim daryo, haybatingga quvonma,
Bir kun kelib qurib, yerdek bo‘larsan.

Tog‘larning arsloni, qoplon, palangi[3],
Oxiri teng bo‘lar fil-pashsha jangi,
Majma’ ul-bahraynning[4], Nilning nahangi[5],
Tushovlangan eshak — xardek[6] bo‘larsan.

[1] **Biryon** — qovrilgan; o‘rtangan.
[2] **Giryon** — yig‘lovchi, yig‘lab turgan.
[3] **Palang** — yo‘lbars.
[4] **Majma’ ul-bahrayn** — ikki dengizning qo‘shilgan joyi.
[5] **Nahang** — katta baliq, akula.
[6] **Xar** — eshak.

Qiyomatdan so‘zlay, tutgil quloqda:
Tovon bor nohaq urilgan tayoqda,
Zolimlar xor bo‘lar, qolar oyoqda,
G‘arib, sen yig‘lama, sherdek bo‘larsan!

Yaxshi bedov mingan, go‘zal yor quchgan,
Birga eltibdimi baqoga ko‘chgan?
Haqiqiy nomarddir iymonsiz kechgan,
Iymon bilan borsang, erdek bo‘larsan.

Yaxshilar yonida yurgil sen o‘zing,
Dur bo‘lsin doimo so‘zlagan so‘zing,
Olimga yondashsang, ochilar ko‘zing,
Johilga yondashsang, ko‘rdek bo‘larsan.

Luqmon[1] kabi dardlar darmonin bilsang,
Sulaymondek devlarni amringga solsang,
Iskandardek[2] yerning yuzini olsang,
Bir kun yakson bo‘lib, yerdek bo‘larsan.

Maxtumquli, o‘ylab qo‘ygin toshingni,
Joyin bilib sarf et non-u oshingni,
Komil topsang, tik yo‘lida boshingni,
Er yonida yursang, erdek bo‘larsan.

---

[1] **Luqmon** — kayoniy shoh Kayqubod davrida yashab o‘tgan mashhur tabib va donishmand. Rivoyatlarga ko‘ra, Luqmoni hakim ming yosh umr ko‘rgan bo‘lib, Olloh u zotga narsalar va voqea-hodisalarning mohiyatiga etish va eng to‘g‘ri hukm chiqarish qobiliyatini ato etgan.

[2] **Iskandar** — Sharqda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur makedoniyalik sarkarda va davlat arbobi Aleksandr Makedonskiy (miloddan avvalgi — 356–323).

DARDLI DILBAR

Dardli dilbar, tillashaylik, kel beri,
Tullikdir mening-da bag'rim tilgonim.
Izlagayman men ham senday bir yorni,
Seni tilashimda yo'qdir yolg'onim.

Kengash solsam, begona-yu tanishlar
Deydilar: "Yog' bilan asal kelishar".
Tong gunohim uchun qilsam nolishlar,
Avval bir yor bo'lar yodga solganim.

Bilganga o'xshaysan qimmat durga sen,
Tanimasga tegib, tushma yerga sen,
Men bilan bo'larsan balki birga sen,
Sen kabi yorsiz mening o'lganim.

Har dilbarkim, ko'ngil uyin yoritar.
Yotgan baxtini Yaratgan yuritar,
Qarg'ishim toshlarni mumday eritar,
Nihol kabi yashnar duo qilganim.

Go'zal husning ko'k kundan kam emas,
Gul, meva hidlagan hech to'ydim demas,
Maxtumquli bosh bermasa tinchimas,
Ey mehrimni berib, nazar solgonim!

DARD BO'LDI

Ko'ngil berdim bir bevafo mahbubga,
Tashlab ketdi, dog'i jonga dard bo'ldi.
Dedim: "Qaramayman endi ul xo'bga"[1],
Lekin yo'lda tushib ko'zim to'rt bo'ldi.

[1] **Xo'b** — 1) yaxshi; 2) go'zal.

Manman bo‘lib, etdim ishimni zoe,
Iqbolim otini botirdim loya,
Yo bir mardga duch et, yoki Xudoya,
Banda ishi old bosmadi, ort bo‘ldi.

Tuyg‘unim ko‘rdi-yu, qochdi sayyoddan,
Bag‘rim g‘amdan to‘ldi, yuragim o‘tdan,
Qo‘rqaman: yor bizni chiqarar yoddan,
Boshqa joyda maskan tutdi, yurt bo‘ldi.

So‘nam[1] qo‘lga kirmay, soldim bozimni[2],
Lochin quvdi, qarg‘a oldi g‘ozimni,
Shuncha faqirlikka urdim o‘zimni,
Tulki bo‘lib kezdim, otim qurt[3] bo‘ldi.

Maxtumquli, yuragimda dard turar,
Kim ko‘ribdi: qo‘y ichida qurt yurar,
Ey azizlar, mard yigitdan mard tug‘ar,
Nomarddan kim chiqib, ayting, mard bo‘ldi?

DILBARNING

Sayr chog‘i ko‘zim tushdi, qardoshlar,
Do‘zaxdek gurkirar nori[4] dilbarning.
Yuz uzra kamondek qayrilmish qoshlar,
Ko‘rgan-u ko‘rmagan zori dilbarning.

Buncha go‘zal bo‘lmas odam bolasi,
Qulog‘in tindirmas oshiq nolasi,
Husnini bir ko‘rgan hayron qolasi,
Barq urar yuzida nuri dilbarning.

---

[1] **So‘na** — 1) o‘rdak; 2) go‘zal.

[2] **Boz** — lochin.

[3] **Qurt** — bo‘ri.

[4] **Nor** — anor; majozan: ko‘ks, siyna; o‘t, olov.

Quyoshni xijolat qilar jamoli,
Hech qanday ta'rifga sig'mas kamoli,
Munaqqash[1] sifatli, qimmatbaholi,
Qiyosidir jannat huri dilbarning.

Dilkash suhbat qurdim yonda go'zal do'st,
Yor menga may tutdi, ko'nglim ketdi sust,
Hamla etdi menga qilib yuz ming qasd,
Chaqdi meni ilon — mori dilbarning.

Qoshida qildirar suhbati sozni,
Chaqiring, tinglangiz shu dilnavozni,
Osiy qulim debon kelar ovozi,
Parda bilan bizning sori dilbarning.

Ul dam ruxsat berdi — kirdim bog'iga,
Ko'p o'tmay uchradim hijron dog'iga,
Yel tegsa, yoyilar gul yonog'iga
Shu qora zulfining tori dilbarning.

Isrofil[2] sur chalsa yolg'on jahona,
Jon qolar na yaxshi va na yomona,
Bir nafasda qo'par[3] oxirzamona,
Agar kelar bo'lsa qahri dilbarning.

Hijron o'ti yoqar kecha-kunduzi,
Es-hushimni olgan yorning gul yuzi,
Na urug', na aymoq — u yolg'iz o'zi,
Yo'q biror raqib-u yori dilbarning.

Uni sevgan boqiy umr topar — o'lmas,
Undan boshqa hech kim jahonda qolmas,
Yeyishi, ichishi, qarori bo'lmas,
Manzili, makoni, dari[4] dilbarning.

---

[1] **Munaqqash** — naqshlangan, ziynatlangan.

[2] **Isrofil** — qiyomat kelganidan darak berib, sur chaladigan farishta.

[3] **Qo'pmoq** — qo'zg'almoq.

[4] **Dar** — eshik.

Oshiqlar yosh to'kar ko'zidan giryon,
Qush kabi charx urar, aylanar har yon,
Maxtumquli, jonim yo'lida qurbon,
Istasa, jonimning bori dilbarning!

TEPA NIMA, TUZ NIMA?

Arabiy arg'umoq yetsa yoshiga,
Farq aylamas tepa nima, tuz nima?
Kuchga to'lgan mard yigitning qoshida
Oltmish nima, yetmish nima, yuz nima?

Nomard o'g'li qo'rqib qochar maydondan,
Odamdek ko'rinar yog'och har yondan,
Ajratolmas xavfli yerda dushmandan
Ko'rqoq kishi tuman nima, to'z[1] nima?

Sipoh[2] bo'lib, minar otin bilmagan,
Orif[3] bo'lib, o'z izzatin bilmagan,
Majlis ichra so'z lazzatin bilmagan,
Hech vaqt bilmas suhbat nima, so'z nima?

Qarg'a hech vaqt bo'lmas lochin sonida,
Teng kelolmas sira kurash onida,
Och qarchig'ay, olg'ir lochin yonida,
Mingta bo'lsin, o'rdak nima, g'oz nima?

Maxtumquli, so'z qaynaydi tilingdan,
Nomardlarga yo'l berma o'ng-so'lingdan,
Kelarmi-kelmasmi bir ish qo'lingdan,
Tildan uchgan bu jur'atli so'z nima?

---

[1] **To'z** — gard, to'zon, chang.

[2] **Sipoh** *(i y)* — jangchi; harbiy, askar.

[3] **Orif** — ma'rifat sohibi, Ollohni tanigan kishi, komil inson. Ollohning zoti, sifatlari va ismlarini mushohada etadigan zavqiy va vajdiy ilmlar egasi bo'lgan zot.

IZLAMAYIN BO‘LARMI?

Bir kaklik oldirsa jo‘ja bolasin,
Sayray-sayray ko‘zlamayin bo‘larmi?
Bir bulbul yo‘qotsa qizil lolasin,
Hasratidan so‘zlamayin bo‘larmi?

Eshak xo‘tigini yo‘qotgani chog‘
To‘rt yonga termilar jigar-bag‘ri dog‘,
Oqmoya qo‘lidan ketsa bo‘taloq,
Bag‘rin ezib, bo‘zlamayin bo‘larmi?

Bola sasin tinglar osib qulog‘in,
To‘ka-to‘ka ko‘z yoshining bulog‘in,
Oq jayron oldirsa qo‘lda ulog‘in,
Ma’ray-ma’ray izlamayin bo‘larmi?

Oqsoqning qo‘lidan olsang yog‘ochin,
Yomon holga tushar, topmas ilojin,
Bir kuchli dushmanga tushsa megajin,
Jujug‘ini gizlamayin[1] bo‘larmi?

Ayriliqni odam o‘g‘li naylasin,
Kim qolur ko‘rmayin ajal hiylasin,
Maxtumquli, hayvon bilsa bolasin,
Inson bag‘rin tuzlamayin bo‘larmi?

DARIG‘ TUTMAS OSHINI

Xudo nazar qilgan bir jo‘mard yigit
Odamlardan darig‘ tutmas[2] oshini.
Nomusli, g‘ayratli, orli mard yigit
Jang kunida qurbon etar boshini.

[1] **Gizlamoq** — izlamoq, axtarmoq, qidirmoq.
[2] **Darig‘ tutmaslik** — ayamaslik, qizg‘anmaslik.

Bir toifa yurar mol-u davlat-la,
Bir toifa yurar quruq savlat-la,
Odamzotni bilib bo'lmas suhbat-la,
Sinamay bilmaydi kishi kishini.

Yigitning obro'si yaxshi ayoldir,
Yaxshi ayol nokaslarga uvoldir,
Yigitga qalloblik ayni zavoldir,
Har yon sanqir, bilmas qilar ishini.

Maxtumquli, aytgin yorning sifatin,
Eng toza daftarga bitgil siyratin[1],
Do'zaxning timsoli bir yomon xotin,
Har kimga duch kelsa, olar hushini.

MAYDON UCHRASA

Bedov o'lsa, maydon qolar armonli,
Haq ishqida ot sol maydon uchrasa.
Yigit o'lsa, zamon qolar davronli,
Vaqtingni xush o'tkaz davron uchrasa.

Yigit borki, so'zi diling og'ritar,
Yigit borki, dami toshni eritar,
Uzoq joyda yolg'iz qolsa qaritar,
Mard yigitning oti chaman[2] uchrasa.

Omadi yurishmas ko'ngilni xushlab,
"Oh!" — der xotiniga labini tishlab,
Taniga yoyilar zaharga o'xshab,
Yigit qarir ayol yomon uchrasa.

Yuz nomard joyini bosmas bir mardning
Chekar tashvishini mard el-u yurtning.

---

[1] **Siyrat** — ichki olam; ruhiyat; yurish-turish, axloq.

[2] **Chaman** — yalqov ot.

Qilgan qilig'ini ko'ring nomardning:
Jangmi deya qochar tuman uchrasa.

Maxtumquli, o'git bergil so'z bilan,
Eshitgan ko'rganga yetmas ko'z bilan,
Mard kutar mehmonni ochiq yuz bilan,
Nomard qochib qolar mehmon uchrasa.

JONIGA YETMAS

Ey azizlar, agar qo'rqoq yigitning,
Ming yomon so'z aytsang, joniga yetmas.
Zinhor tushmang nomardlarning qo'liga,
O'ldirsang-da, nohaq qoniga yetmas.

So'z bilmasang, bilgan so'zing aytmasang,
So'z so'rasang, ma'nosiga yetmasang,
Yoy tortganda, tikka qarab otmasang,
Ul o'qing nishonning yoniga tegmas.

Maxtumquli, so'zing bilganga so'zdir,
Bilmagan odamga quruq ovozdir,
Odam bor, har qancha yedirsang ozdir,
Odam borki, yegan noniga yetmas.

UZOQ TUTGIL O'ZINGNI

Devona dil, muhabbatsiz kishiga
Yaqin borma, uzoq tutgil o'zingni,
Sevganni sev, sevgan bilan tutin do'st,
Sevmagandan uzoq tutgil o'zingni.

Nomardni qo'y — undan ishing bitmaydi,
U hech qachon mard qadriga yetmaydi,
Biror siring aytsang, pinhon etmaydi,
Sirdosh bo'lma, uzoq tutgil o'zingni.

Muttahamga zar bersang ham xos bo'lmas,
Xudodan qo'rqmaydi, shundan rost bo'lmas,
Bo'yning egib, arzing aytsang, do'st bo'lmas,
Sarxush bo'lma, uzoq tutgil o'zingni.

Maxtumquli aytar: davo et dardga,
Jonim qurbon bo'lsin har komil mardga,
Og'zi kulgan, dila nopok nomardga,
Qardosh bo'lma, uzoq tutgil o'zingni.

AYRILDIM

Bulbulman, oh-u zor chekib,
Go'zal gulzordan ayrildim.
Ko'zimdan qonli yosh to'kib,
Sevar nigordan ayrildim.

Yor surma qo'ysa yarashar,
Ta'rifin keltirsam agar:
Og'zi g'uncha, labi shakar,
Qorasoch yordan ayrildim.

Shirin jonda yo'qdir toqat,
Jabri uning jonga rohat,
Qoshlari fitnayi ofat,
Ko'zi xumordan ayrildim.

Ayrildim g'uncha gulimdan,
Qora sochli sunbulimdan,
Xush ovozli bulbulimdan,
Shirin guftordan[1] ayrildim.

Telba ko'nglimning armoni,
Barcha go'zallar sultoni,

[1] **Guftor** — so'z, nutq. **Shiringuftor** — shirin so'zli.

Sakkiz jannatning bo‘stoni,
Bog‘-u bahordan ayrildim.

Ellarining dong‘i doston,
Zilol suv-u yaylovga kon,
Go‘klang yurtlik bir Menglixon –
Otlik dildordan ayrildim.

Maxtumquli mast-u hayron,
Ta’rifiga bitdim doston,
Manzilgohi bog‘-u bo‘ston,
Olma-anordan ayrildim.

OSHIQ BO‘LMISHAM

Ey yoronlar[1], bir yuzi gul oya oshiq bo‘lmisham,
Barchaning maqsudi — gul ra’noya oshiq bo‘lmisham,
Bulbulam bog‘ ichra — bir g‘avg‘oya oshiq bo‘lmisham,
O‘zi g‘oyib, zulflari yaldoya[2] oshiq bo‘lmisham,
Manzilim bog‘ ichradir, sahroya oshiq bo‘lmisham.

Qay kuni keltirdi charx meni fano tuprog‘ina[3],
Tushdi sayrim doimo Makka-Madina tog‘ina,
Bulbul o‘ldim, sayradim, kirdim Eramning bog‘ina[4],
Mubtalo o‘ldim u kun g‘am ahlining tuzog‘ina,
Yuz balo, kulfat-la bir savdoya oshiq bo‘lmisham.

Ko‘nglim ichra yor g‘amidir — manzilim sahroda, hay,
G‘am-alam bo‘ldi libos — aylanmisham Farhoda, hay,
Soldi ishqing, dilrabo, jon-u jigarim o‘da[5], hay,

---

[1] **Yoronlar** — do‘stlar.

[2] **Yaldo** — qishning eng uzun, eng qorong‘i kechasi, majozan: qora.

[3] **Fanotuprog‘i** — o‘tkinchi dunyo.

[4] **Erambog‘i** — afsonaviy go‘zal bog‘. Yamandagi Od qavmining hukmdori Shaddod yer yuzida jannat yaratish da’vosi bilan uni bunyod etgan emish.

[5] **O‘da** — o‘tga.

Vodarig‘o[1], kechdi umrim zoye — berdim boda[2], hay,
Ohi ko‘p, afg‘oni[3] ko‘p bir ko‘ya[4] oshiq bo‘lmisham.

Bilmadim: ne bahr-u bardir[5], ne muazzam[6] tog‘dir-yey,
Oldi ko‘nglim, ketdi aqlim, tan mudom nosog‘dir-yey[7],
O‘xshashi yo‘qdir uning hech — qumri, bulbul, zog‘dir-yey,
Sochining har tori yuz ming mard uchun tuzog‘dir-yey,
Qaddi-qomati baland, zeboya oshiq bo‘lmisham.

Do‘st havoyi vaslini men muncha chandon istaram,
Domi zulfing qasdina o‘zimni zindon istaram,
Dema g‘amdan bir zamon ko‘nglimni xandon istaram,
Bir g‘arib oshiq manam, yor, sani sandan istaram,
Kecha-yu kunduz, biling, hu-hoya[8] oshiq bo‘lmisham.

Qolmisham hayron bo‘lib, o‘zga madorim yo‘q mening,
Oldi jonim ishqing o‘ti — ixtiyorim yo‘q mening,
Tanda jon parvoz etar, ayro turorim yo‘q mening,
Kelsa — aqlimni olar, ketsa — qarorim yo‘q mening,
G‘amzasi — o‘q, qoshlari ul yoya[9] oshiq bo‘lmisham.

Aytadir Maxtumquli: man unda kona uchradim,
Sayr etib bordim falakni — lomakona[10] uchradim,
Meni rasvo aylagan ishqi yagona uchradim,

---

[1] **Vodarig‘** — hay, attang, ming afsus.

[2] **Boda** — bodga, shamolga.

[3] **Afg‘on** — fig‘onlar, faryodlar, nolalar.

[4] **Ko‘y** — bu yerda: dard, savdo ma’nosida.

[5] **Bahr-u bar** — quruqlik va suv, ya’ni butun dunyo.

[6] **Muazzam** — ulkan, ulug‘vor.

[7] **Nosog‘** — xasta, bemor.

[8] **Hu-hoy** — naqshbandiya tariqatida Xudoni zikr etish iborasi: g‘aybiy mohiyatga ishora.

[9] **Yoya** — yoyga.

[10] **Lomakon** — makonsiz. Tasavvufda vahdat olami bo‘lib, u zuhur etadigan joy irfon sohiblarining sof ko‘ngillaridir.

Yetmish ikki shahr aro ming bir do'kona uchradim,
Shuncha sargardon safil-u[1] zoya[2] oshiq bo'lmisham.

KO'ZIM TUSHDI

Shukur, alhamdulilloh[3],
Jonona ko'zim tushdi.
Mayxonada[4] may[5] ichdim,
Mastona[6] ko'zim tushdi.

Ey zulf-u sochi anbar,
Mehrobki, yuzing minbar,
Ey la'li labi gavhar,
Ummona ko'zim tushdi.

Ey ko'zlaring olar jon,
Kel, dardimga qil darmon,
Ko'nglimda qo'yma armon,
Iymona ko'zim tushdi.

Ey jodu-jayron ko'zli,
Ey shahd-u shakar so'zli,
Ey shams-u[7] qamar[8] yuzli,
Tobona[9] ko'zim tushdi.

---

[1] **Safil** — juda yomon, nochor, abgor.

[2] **Zoya** — zoye, ya'ni bekor, behuda.

[3] **Alhamdulilloh** — Ollohga shukr.

[4] **Mayxona** — tasavvufda shavq-u zavq-u ilohiy fayzga kon komil orifning botini. Ilohiy olam ma'nosida ham keladi.

[5] **May** — tasavvuf adabiyotida ilohiy tajalli timsoli, ishq va irfon ramzi bo'lib keladi. Shunga muvofiq mastlik ilohiy ma'rifatdan huzurlanishni, ma'naviy zavq daryosiga g'arq bo'lishni bildiradi.

[6] **Mastona** — mastlarcha, mastlar kabi; majozan: aqlni oladigan darajada go'zal, chiroyli, xumor.

[7] **Shams** — quyosh, oftob.

[8] **Qamar** — oy.

[9] **Tobon** — porloq, nurli.

Orzuda kezar ellar,
Xizmatga kelar qullar,
Toza ochilgan gullar,
Bo‘stona ko‘zim tushdi.

Har sochlari bir sunbul,
Go‘yoki manam bulbul,
Ey jannat aro bir gul,
Rizvona[1] ko‘zim tushdi.

Bu dardima sen darmon,
Ko‘yingda bo‘ldim nolon[2],
Maxtumquli der: ey jon,
Jonona ko‘zim tushdi.

BO‘LDIM ENDI

Ishq otashiga tushdim, parvona[3] bo‘ldim endi,
Shavqing o‘tida kuydim, biryona bo‘ldim endi,
Jismim kabob bo‘ldi, giryona bo‘ldim endi,
Ganj[4] istaganlar kelsin, vayrona bo‘ldim endi,
Ayrildim g‘animlardan[5], begona bo‘ldim endi.

Chiqordim boshdan endi dunyo havasin mutloq,
Qay yerga oyoq bosding, ko‘zing och: o‘zingga boq,
Kul bo‘lib, yelga sovril, ul otashda joning yoq,
Lozim bo‘ldim o‘qimoq analhaqu minalhaq[6],
May ichib mayxonadan, mastona bo‘ldim endi.

---

[1] **Rizvon** — jannat; sakkiz jannatning biri; jannat eshik og‘asi.

[2] **Nolon** — nola qiluvchi, fig‘on qiluvchi.

[3] **Parvona** — kechasi sham yoki chiroq atrofida aylanib, o‘zini unga uradigan hasharot.

[4] **Ganj** — 1) boylik, xazina; 2) oltin-kumush.

[5] **G‘anim** — dushman, raqib.

[6] **Analhaqu minalhaq** — yolg‘iz O‘zi haqdir.

Dunyo mendan quvonmas, men ham bahra olmasman,
Ichim yonar, dardim ko'p, xushvaqt bo'lib kulmasman,
Qimmatbaho olamni olti pulga olmasman,
Do'st qaysi, dushman qaysi — farqin sira bilmasman,
Hech kimsa bilmas holim, ayona bo'ldim endi.

Bir maqoma duch keldim: fikr unda fikra botdi,
Jon unda jonsiz bo'ldi — hushidan ketib yotdi,
Jismim yo'lda yo'q bo'ldi, ko'ngil o'zin unutdi,
Ishq qo'shin yig'ib kelib, aql mulkin to'zitdi,
Oldirdim-u aqlimni, devona[1] bo'ldim endi.

Maxtumquli, har zamon, ne qilay, bo'lmay giryon,
Botdim fikr bahriga, chiqa olmasman bir yon,
Jussa — xarob, tan — turob[2], ko'nglimning shahri — vayron,
Jon, jism, til, aqldan ayrilib, qoldim uryon[3],
Ish keldi — boshga tushdi, mardona bo'ldim endi.

HAYRONDADIR, HAYRONDA

Oshiqlar Haq ishqinda
Hayrondadir, hayronda.
Ko'zlar ayol izinda
Giryondadir, giryonda.

Qildi unga Haq rahmat,
Nuri tajalliy[4] qudrat,
Xirqa[5] kiygan Xoja Ahmad
Sayramdadir, Sayramda.

---

[1] **Devona** — ishqqa oshig'-u hayron-u sargashta bo'lgan va sulukka mansub kishi. Oshiqning mag'lubiyati devonalik deyiladi.

[2] **Turob** — tuproq, yer.

[3] **Uryon** — yalang'och.

[4] **Tajalli** *(y)* — ko'rinish, jilvalanish. Haq zoti va siftalarining hamisha, hamma joyda, har xil darajada namoyon bo'lishi, ya'ni o'zini-o'zi ayon etishi. G'aybdan keladigan va qalbda namoyon bo'ladigan ilohiy nur va sirlar.

[5] **Xirqa** — janda. Shayx-u muridlar kiyadigan maxsus kiyim.

Zikrida daraxt, giyoh,
Qushlar tilida sano,
Darveshlar Haqqa shaydo,
Davrondadir, davronda.

Ey oshiq, bo'lma g'ofil,
Majnun bo'l, xalqqa tanil,
Xalil[1] o'g'li Ismoil[2]
Qurbondadir, qurbonda.

Tur[3] tog'ida turganlar,
Necha g'oyib eranlar,
Jamolingni ko'rganlar
Farmondadir, farmonda.

To'ldirib bu ma'voni,
So'zlar ikki dunyoni,
Hamma ishning bayoni
Qur'ondadir, Qur'onda.

Maxtumquli, och tillar,
Bandalik et oy-yillar,
Qullikni qo'ygan qullar
Armondadir, armonda.

KO'NGIL

Bilmasam hech — qaysi dardning mubtalosidir ko'ngil?
Yo Rab, ul bir bevafoning mahliyosidir ko'ngil!

---

[1] **Xalil** — Ibrohim payg'ambar.

[2] **Ismoil** — payg'ambar. Otasi Ibrohim alayhissalom uni Olloh yo'lida qurbonlik qilmoqchi bo'lganida parvardigori olam uning o'rniga jannatdagi qo'chqor indirib, shuni so'yishni buyuradi.

[3] **Tur** — Arabistondagi Muso alayhissalom Olloh taolo bilan gaplashgan tog'.

Ishq — tubsiz bir dengiz, hijron bir o't — poyoni yo'q,
Ishqqa mayl etgan bu o'tlarning adosidir, ko'ngil.

Bilmagan otmish o'zin ishq o'tiga parvonadek,
Endi bilmas chorasinkim, ne qilosidir ko'ngil?

Boq: Masih[1] ham bemajol, Luqmon bu yerda gung-u lol,
Ishq o'tining bu mahal ne ish davosidir, ko'ngil?!

Gar muhabbat dardidir devona jonning ofati,
Ushbu g'amning ahli dil[2] doim egosidir, ko'ngil.

Necha mahrum benavolar[3] topdilar undan navo[4],
Menga man etgan uni baxtim qarosidir, ko'ngil.

Yig'labon, Maxtumquli, dargohiga arz aylagil,
Ne uchun, ko'p yig'lagan bir kun kulosidir, ko'ngil.

JON CHIQAR

Gar topsa holimdan xabar, quruq yog'ochdan qon chiqar,
Kimga bir uchqun bu o'tdan yetsa, tanidan jon chiqar.

Qorun[5] qilib molin ado, etmoq tilar yuz jon fido,
Kun sham'idan bo'lib judo, nurin qo'yib, pinhon chiqar.

---

[1] **Masih** — Iso payg'ambar. Uning qo'li tekkan — silagan o'likka jon kirar ekan. Shuning uchun ham ul zot al-Masih — silovchi deb ulug'langan. Nafasi oshiqqa jon bag'ishlaydigan ma'shuqaga ham Masih sifatini berishadi.

[2] **Ahli dil** — ma'rifat ahli, oriflar, donishmandlar.

[3] **Benavo** — bebahra; bedard, bexabar.

[4] **Navo** — bu yerda: bahra, nasiba.

[5] **Qorun** — Muso alayhissalom davrida yashagan, had-hisobsiz boyligini xayrli ishlarga sarflamay, xasislikda nom chiqargan shaxs. Bu takabbur kimsani oxir-oqibat butun mol-dunyosi bilan birga yer yutgan. U Sharq adabiyotida harislik va xasislik timsoli hisoblanadi.

Maskan tutib bir go'shani[1], qilsam xayol ganj-u kumush,
Vayrona har bir go'shadan yuz ganji bepoyon chiqar.

Ko'nglimga kelgan naqshlar ko'zlarga paydo bo'lsa gar,
Qo'shilsa ko'p nodon agar, komil bo'lib, mardon[2] chiqar.

Hech bilmagan zer-u zabar[3] gar topsa jazbamdan[4] asar,
"Be"dan, "alif"dan[5] bexabar har damda bir Qur'on chiqar.

Jabr etdi Jamshid[6] joniga kim, kirdi ma'dan koniga,
Yuz yil o'qib, poyoniga na Zol-u[7] na Luqmon chiqar.

Maxtumquli, oz ayla so'z, qolgay bari tog'-u dengiz,
Tuproqqa to'lsa ushbu ko'z, Haqdan yana farmon chiqar.

NAVRO'ZDAN SENI

Bo'lmadi vasling nasib, gar istadim kuzdan seni,
Deding: "O'tsin qish, toparman nurli Navro'zdan seni!"
Sayladim, sevdim, so'nam, men bir bo'lak qizdan seni,
Nega beling quchmadim topib dala-tuzdan seni,
Istagum Haqdan: qovushtirgay menga tezdan seni!

Haq qoshinda so'zim o'tmas: men kabi ovora yo'q,
El-u yurt rahm aylamaslar: men kabi bechora yo'q,
Yuragim yuz poradir, garchi tanimda yora yo'q,
Sen — g'aribsan, men — faqirman, senda, menda chora yo'q,
Sevgilim, taqdiri Haq qilmish judo bizdan seni.

---

[1] **Go'sha** — chekka joy, xilvat.

[2] **Mardon** — mardlar.

[3] **Zer-u zabar** — arab alifbosidagi fatha ("a") va kasra ("i") belgilari.

[4] **Jazb** *(Jazba)* — tortish, jalb qilish.

[5] **Be, alif** — arab alifbosining ikkinchi va birinchi harflari.

[6] **Jamshid** — qadimgi Eronning afsonaviy podshohi.

[7] **Zol** — Rustamning otasi. "Shohnoma" dostonlari qahramoni.

Sevganimsan — kunda bir dam yodingga olsang mani,
Kunda yuz qatla tilarman yordan — Haqdan sani,
Bir ko'rishda o'tga solding men — beparvo bandani,
Haq ko'tarsa oradan, shoyad, raqib — sharmandani,
Ayla afv, bizdan agar injitsalar[1] so'zdan seni.

Bog'ingga kirsam sahar, bulbul bo'lib qilsam o'yin,
Qolsa g'aflatda raqib, bir dam solishsak qo'l, bo'yin,
Haqdan o'zga chora yo'qdir, ne qilay men, naylayin,
Xipcha bel, shirin zabon, kaklik qadamsan, g'oz bo'yin,
Saqlasin Olloh panohida yomon ko'zdan seni!

Ko'rga-yu dushman vafong,
do'sting chekar jabr-u jafong,
Yorga dildorlik bo'larmi, ko'rmayin zavq-u safong?
O'lchasa, Bolqon[2] berolmaydi senga loyiq bahong,
Aytadir Maxtumquli: yolg'on qaroring, yo'q vafong,
Bevafolar ko'p sovutmishlar, so'nam, bizdan seni.

UYALADI-YA

Menglixonim tishlab yengin,
Bizdan ham uyaladi-ya.
Goh taranib, noz-la yurib,
Bizdan ham uyaladi-ya.

Oshiq, quloq solgil so'zga:
Qora zulf yarashar yuzga,
Surma qo'yib qora ko'zga,
Bizdan ham uyaladi-ya.

Kiyinibdi qizil-yashil,
Xayolini bilish mushkul,

[1] **Injitmoq** — ranjitmoq, xafa qilmoq.

[2] **Bolqon** — Turkmanistondagi viloyat.

Ko‘z uzolmas yovmut, axal[1],
Bizdan ham uyaladi-ya.

Baxtim kulmas — yuray desam,
Yo‘qdir molim — beray desam,
Och yuzingni, ko‘ray desam,
O‘grilib, uyaladi-ya.

Ko‘rishaylik, Menglixonim,
Yurak-bag‘rim, shirin jonim,
Firog‘iy der: din, iymonim,
Qochadi, uyaladi-ya.

KARAM ISTARMAN

Avval-boshdan, qodir Olloh,
Sendan bir karam istarman.
Bodom qovoq, olma yonoq,
Bir zebo sanam istarman.

Tangri bermasa netasan?
Bosh olib qayga ketasan?
Nozlari bag‘ring o‘rtasa,
Qoshlari qalam istarman.

O‘z qadr-u qimmatin bilgan,
Erga dildan xizmat qilgan,
Qovoq uymay, yuzi kulgan,
So‘zlari malham istarman.

Yigirma yosh o‘tdi ravon,
Shod bo‘lmadim sendan, jahon,
Tili shirin, labi xandon,
Bir qo‘yni Eram[2] istarman.

---

[1] **Yovmut, axal** — turkman urug‘lari.

[2] Bu yerda quchog‘i Bog‘i Eramday deyilmoqchi.

Firog‘iy, keldim jahona,
Bir yor ber aqlli, dono,
Uchradim tengsiz nodona,
Qadr bilar odam istarman.

ELNI KO‘ZLAR

Elidan ayro tushgan
Oh urar, elni ko‘zlar.
Yo‘lidan ayro tushgan
Jahd etar, yo‘lni ko‘zlar.

Ko‘kda falak charx urar,
Yerda xalq sarson yurar,
Bu dunyo bir firibgar,
Ko‘z ochgan molni ko‘zlar.

Kimga meros taxt-u toj,
Kimlar gado-yu muhtoj,
Kimlar azal yalang‘och,
Kim ipak qolni[1] ko‘zlar.

Kim non topmas yeyishga,
Kim joy topmas qo‘yishga,
Kim to‘n topmas kiyishga,
Kim ipak, sholni ko‘zlar.

Bu dunyo bir tepadir,
Kim qolib, kim ketadir,
Har kim bir ish etadir,
Har kim bir holni ko‘zlar.

Umr oz, vaqt bemiqdor,
To‘rt faslga bosh bahor,

[1] **Qol** — gilam, qolin.

Ko‘kda uchgan g‘ozning, ko‘r,
Ko‘zlari ko‘lni ko‘zlar.

Maxtumquli, xush aylab,
Kezgil ko‘zing yosh aylab,
Telba ko‘ngil jo‘sh aylab,
Yuz ming xayolni ko‘zlar.

OTCHA BO‘LMAS

Eshak ishi eshakka xos,
Ming maqtasang, otcha bo‘lmas.
Tagi pastga amal tegsa,
Asli toza zotcha bo‘lmas.

Foniy dunyoga inonmang,
Oltin-kumushga quvonmang,
Kuyov deb ko‘p kuyib-yonmang,
Bir tuqqan zuryodcha bo‘lmas.

Ko‘p yo‘llarni ko‘rsa ko‘zing,
Har hikmatdan ogoh o‘zing:
Bir nodonga aytgan so‘zing
Esib o‘tgan bodcha bo‘lmas.

Boshing yostiqqa yetganda,
Sabr-u qaror qolmas sanda,
Kuchdan, quvvatdan ketganda,
O‘g‘il-qizing yotcha bo‘lmas.

Maxtumquli, ajab chog‘lar,
Birov kulib, birov yig‘lar,
Turli mevaga kon bog‘lar
Sovrilar, jannatcha bo‘lmas.

O‘YINCHI DUNYO

O‘yinchidir bu dunyo,
O‘yinin qildi-ketdi.
Chuv tushirib nechani,
Yo‘ldosh deb oldi-ketdi.

Aql, fikr et, har qachon
Yuz qo‘ngan bor, yuz ko‘chgan,
Taxti osmonda uchgan
Sulaymon o‘ldi-ketdi.

Yo muruvvatli shohim,
Umidim, qiblagohim,
Shuncha yig‘ib Ibrohim,
Nimani oldi-ketdi?

Jigarin dog‘lay-dog‘lay,
Zunnorin bog‘lay-bog‘lay,
Ba’zilar yig‘lay-yig‘lay,
Ba’zilar kuldi-ketdi.

Kimlar gulga aylanmish,
Guldan kulga aylanmish,
Kimlar gilga aylanmish,
Kimlar-chi, so‘ldi-ketdi.

Bir kun go‘rda yotarsan,
Mangu makon toparsan,
Behuda mol yig‘arsan,
Yiqqaning qoldi-ketdi.

Ahmoqlik bilan o‘lim,
Bilmadim aytgan so‘zim,
Maxtumquli der: ko‘zim
Qon yoshga to‘ldi-ketdi.

HAR YONA

Yolg'izlikdan yomon ish yo'q,
Ko'z solib boqsam har yona.
Yo Olloh, menga bir yor ber,
Ko'p mashaqqat yetdi jona.

Bir yor bergil epli-shudli,
Ko'ksi baland, ko'ngli o'tli,
Tilli, aqlli ham didli,
Yuzlari oydan nishona.

Qadr bilgandan ajratma,
Beqadrga yo'ldosh etma,
Til bilmas ila duch etma,
Sodda til bo'lsin — turkona.

Haqning karami kengdir — ko'r,
Duo qilib, tilaging so'r:
"Har ne berar bo'lsang tez ber,
Ishonch yo'q chunki bu jona!"

Bo'yi uzun, past bo'lmasin,
Haddan ziyod mast bo'lmasin,
Aqlsiz, nokas bo'lmasin,
Soddadil bo'lsin — turkona.

Yaxshi ayol qo'lga kelmas,
Nodon yaxshi qadrin bilmas,
Yori yo'qqa mador bo'lmas,
Aylansang-da Sulaymona.

Darveshlarga[1] yo'lsizlikni,
Yigitlarga molsizlikni,

[1] **Darvesh** — tasavvuf istilohotida izlovchi, istovchi ma'nosini ifodalab, so'fiy, faqir, oshiq, orif, sohibdil, sohibasror, sohibnazar kabi o'zini Haqqa bag'ishlagan kishilarning timsoli bo'lib keladi.

Ilohi, ayolsizlikni
Ko'rsatma hech musulmona!

Maxtumquli, yonsam, pishsam,
Inonmaslar, o'tga tushsam,
Havasim bor: bir qiz quchsam,
Ochib dil suyuk jonona.

YOR KERAKDIR

Manman degan mard yigitga
Bir munosib yor kerakdir.
Arabiy arg'umoq bilan
Olmos zulfiqor[1] kerakdir.

Yigit o'lar yurt ustinda,
Jonin berar or ustinda,
Mard yigitlar el ustinda,
Nomus bilan or kerakdir.

Besh kun umr zavqin tuygani,
Sufra yozib, non qo'ygani,
Shuhrating elga yoygani,
Qo'lda davlat yor kerakdir.

Makka borgan bo'lar hoji,
Ayriliq — o'limdan achchiq,
Mard yigitning din — qilichi,
Oshiqqa diydor kerakdir.

Orttirar charx oh-u zoring,
Olar qo'ldan ixtiyoring,
Maxtumquli, sevar yoring
Qora zulfi tor[2] kerakdir.

---

[1] **Zulfiqor** — Muhammad alayhissalomning vafotidan keyin Aliga o'tgan dudama o'tkir qilichi.

[2] **Zulfitor** — sochi o'rim-o'rim.

ICHMAYIN JOMIM

To‘zmayman, to‘ymayman, turmayman, ey yor,
Shu soqiy[1] qo‘lidan ichmayin jomim[2].
Jomga may quyganing ko‘rmasin ag‘yor[3],
Kelmayin hushimga, bilmayin komim[4].

G‘avvos bo‘libman-u, suzibman ko‘lni,
Hamroh topibman-u, tutibman yo‘lni,
Shavqing sharobidan bo‘libman dalli[5],
Bilmam, qanday kechar tongim-u shomim?

To nafas tandadir, tanda jon bordir,
Dil senga moyildir, ko‘z intizordir,
Chekkanim fig‘ondir, qilganim zordir,
Toki bu dard ila kechar ayyomim[6].

Ko‘zlaring jalloddir, tillaring ayyor,
G‘amzang bemor aylar, yuzing beqaror,
Mansurday[7] baloga bo‘lsam giriftor,
Senga olib borgum bu jismi xomim.

Maxtumquli, g‘aflat ichra ko‘p yotdim,
Tavba aylab, iymon ta’mini totdim,

---

[1] Soqiy deganda so‘fiylar Ollohni, Muhammad alayhissalomni, ma’shuqani, pir yoki komil insonni nazarda tutadilar. Soqiy davraga may ulashgan kabi, ular ham odamlar qalbiga ilohiy fayz bag‘ishlaydilar, haqiqiy ishq o‘tini soladilar, g‘ayb ma’rifatidan bahramand etadilar.

[2] **Jom** — qadah, may piyolasi. Jom va uning ma’nodoshlari tasavvufda ma’rifat ziyosiga limma-lim ko‘ngil ma’nosida keladi. Ilohiy tajalliy aks etgan moddiy dunyo, borliq ham ko‘zda tutiladi.

[3] **Ag‘yor** — raqiblar, dushmanlar, begonalar.

[4] **Kom** — bu yerda: orzu, istak, maqsad.

[5] **Dalli** — telba, devona.

[6] **Ayyom** — kunlar, vaqt, davr, zamon.

[7] **Mansur** — mashhur so‘fiy Mansur Halloj (858–922). “Analhaq” — “Men — Haqman” degani uchun dorga osilgan.

O‘zimni unutdim, hushim yo‘qotdim,
Firog‘iy deb atang bundan so‘ng nomim.

OLDI-ORTI BILINMAS

Yovmut, go‘klang nizo chiqib o‘zidan,
Qo‘shin tortdi — oldi-orti bilinmas.
Mo‘r-malaxday[1] chiqdi Dashti Dahondan
Yurgan yo‘li, qo‘ngan yurti bilinmas.

Qarg‘a solsa, tuyg‘un[2] bilan tepishar,
Haybatidan tog‘-u toshlar qapishar,
O‘lik turib, tiriklarga yopishar,
Sher, tulki, bo‘risi — qurti bilinmas.

Bor uch ming nayzaboz — sara navkaridan,
To‘rt ming fildori bor qal’a yiqardan,
Taka, solir[3] to‘ssa yo‘l yuqoridan,
Dushmanning nomardi, mardi bilinmas.

Ahli sunnat[4] nomus etib kelarlar,
Qal’ang buzib, bog‘ing barbod qilarlar,
Dov chekib, Isfahon shahrin olarlar,
Bu kentlarning uchi, to‘rti bilinmas.

Maxtumquli, Aliniki bu maydon,
Ne ish qilar, ko‘ring, bu Umar, Usmon,
Ot damidan to‘ldi zamin-u osmon,
Xurosonning xoki, gardi bilinmas.

---

[1] **Mo‘r-malax** — chumoli va chigirtka; qurt-qumursqa; majozan: behad-behisob, chek-chegarasiz.

[2] **Tuyg‘un** — qirg‘iy yoki qarchig‘ayning erkagi.

[3] **Taka, solir** — turkman urug‘lari.

[4] **Ahlisunnat** — sunniylar.

TO‘KAR BO‘LDIK YOSHIMIZ

Qo‘ldan chiqish istar davlat humoyim[1],
Duo qilib, to‘kar bo‘ldik yoshimiz.
Orzum ijobat et, go‘zal Ollohim,
Sharmsor bo‘ldi-ketdi qizilboshimiz[2].

Xizr[3] kezgan cho‘lda el xurram bo‘lsin,
Yurtimiz binosi mustahkam bo‘lsin,
Topgan-tutganimiz birga, jam bo‘lsin,
Bir sufrada ado bo‘lsin oshimiz.

Darveshlar namozga borsin xotirjam,
Yigitlar suhbat-u sozga bo‘lsin jam,
Elimiz bahoga yetishsin xurram,
Uch oy to‘lib, tamom bo‘lsin qishimiz.

Turkmanlar bir bo‘lib, bog‘lasa belni,
Quritar Qulzumni[4], daryoyi Nilni,
Taka, yovmut, go‘klang, yazir, olili[5] —
Bir davlatga birlashsaydik beshimiz.

Maxtumquli der: jon tirikligida,
Mo‘minni qo‘yma kofir xo‘rligiga,
Rivoj ber yovmut-go‘klang birligiga,
U Kamolxon afg‘on bo‘lsin boshimiz!

---

[1] **Humoy** — kimning boshiga soyasi tushsa, o‘sha kishi baxtli bo‘ladi, deb e’tiqod qilinadigan afsonaviy davlat qushi.

[2] **Qizilbosh** — 1501-yili Eronda hokimiyatni qo‘lga olgan safaviylarga yordam bergan qizil kuloxli turkiy qavm. Keyinchalik umuman eronliklar shu nom bilan yuritilgan.

[3] **Xizr** — zulmat qa’ridan obi hayot — tiriklik suvini izlab topgan va undan ichib, abadiy hayotga noil bo‘lgan payg‘ambar. U odamlarni mushkul ahvoldan qutqaradigan, ularga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadigan xaloskor va oshiqlar homiysi hisoblanadi.

[4] **Qulzum** — 1) dengiz; 2) Qizil dengiz.

[5] **Taka, yovmut, go‘klang, yazir, olili** — turkman urug‘lari.

BOSH USTIGA

Nomard kimdir? Bilar bo'lsang,
Ne desang, der: "Bosh ustiga!"
Agar sinab ko'rar bo'lsang,
Hech topilmas ish ustida.

Mo'ylov tovlab, har yon tortar,
Haybati yo'lbarsdan ortar,
Ko'kday gurlab, tomoq yirtar,
Tayyor bo'lgan osh ustida.

Osh uzra misli qahramon,
Eshak kabi hangrar har on,
Tulki sherday solar suron
Harom o'lgan losh ustida.

Cho'l-dashtda loshing qoldirma,
Bu ham mayli, sir bildirma,
Lof urib, og'zing to'ldirma,
Jang non emas tish ustida.

Desalar: "Otlan, ho, otlan!"
Mard yigit misoli sirtlon,
Jang kuni g'ayratga chulg'an,
La'nat qo'yma rish[1] ustida.

Insofni qo'ldan berma, bas,
Mard hech odamlikdan chiqmas,
Bu so'zim hayvonga yoqmas,
Odam saqlar go'sh[2] ustida.

Maxtumquli, kurash bo'lar,
Yigitning siri fosh bo'lar,
Yo bosh berar, yo bosh olar
Mard yigit yo'ldosh ustida.

---

[1] **Rish** — mo'ylov.

[2] **Go'sh** — quloq.

BEVAFO DUNYO

To'rt ming to'rt yuz yashab, Luqmon hakimning
Boshi qora yerga botdi, azizlar.
Ulkan ot, og'ir gurzili Rustamning[1]
Ajal yoqasidan tutdi, azizlar.

Yusufning[2] orzusi Ya'qub[3] yoninda,
Sevgani bag'rida, dardi joninda,
Kimning qadri bordir charx ayvoninda –
Yusufni qul deya sotdi, azizlar.

Dunyoga hukm etgan Iskandar sulton,
Ajalning dardiga topmadi darmon,
Taxtin yel ko'targan shonli Sulaymon –
Dunyoda qolmadi — o'tdi, azizlar.

Uch yuz o'n uch elchi — qolmadi biri,
Qani Osaf[4] — Sulaymonning vaziri?
Qani ul haq Rasul[5], Haqning o'z sheri?[6]
Barchasin qora yer yutdi, azizlar.

---

[1] **Rustami Doston** — O'rta va Yaqin Sharq xalqlari og'zaki ijodida va mifologiyasida shakllangan qadimiy obraz. U pahlavonlik, xaloskorlik va jo'mardlik timsolidir. Turkiy xalqlar eposida Rustam turk xalqlari himoyachisi sifatida gavdalansa, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sida Eron yurtining himoyachisi tarzida talqin etiladi. Rustami Doston "Shohnoma"ning eng asosiy va mukammal ishlangan obrazlaridan bo'lib, shu asar orqali bu obraz yanada keng shuhrat qozondi.

[2] **Yusuf** — Yusuf alayhissalom. Diniy-tasavvufiy adabiyotlarda aytilishicha, Olloh taolo husnni yuz hissa qilgan. To'qson to'qqiz qismini Momo Havoga berib, bir qismini butun dunyo ahliga ravo ko'rgan. Shu bir ulushni yana o'nga bo'lib, to'qqiz qismini Yusuf alayhissalomga va bir qismini bani basharga bergan.

[3] **Ya'qub** — Ya'qub payg'ambar. U sevimli jigarbandi Yusuf alayhissalomdan ajralgach, yo'l bo'yida bir uy tiklab, o'g'lining yo'liga ko'z tutib yig'layverganidan ko'r bo'lib qoladi.

[4] **Osaf** — Sulaymon payg'ambarning donishmand vaziri.

[5] Bu yerda Muhammad alayhissalom ko'zda tutilmoqda.

[6] **Haqning sheri** — Hazrat Ali. U Asadulloh — Ollohning sheri deb ulug'langan. Haydar (sher) ham uning laqabi hisoblanadi.

Maxtumquli aytar: o‘tirmang g‘ofil,
G‘am tog‘in yuklamang — jon misoli qil,
Umrni hasratda aylamang zoyil,
Bir damlik davrondir — o‘tdi, azizlar.

GUL BO‘LGIL

Bir bechora elning begi bo‘lguncha
Davlatmandning eshigida qul bo‘lgil.
Tagi past bek xizmatida qolguncha
Asl bekning soyasida kul bo‘lgil.

Yomonni qo‘y, yaxshilarga qo‘ling ber,
Qoraqush ham o‘z bolasin go‘zal der,
Bo‘rilarga qarg‘ish azaliy taqdir,
Sen qo‘y kabi har tarafga el bo‘lgil.

Sulaymonsan — chumoliga sol quloq[1],
So‘zin tingla, javobini ber har chog‘,
Hokim bo‘lsang, quyoshday el ko‘ksin yoq,
Oqarda — suv yo esarda — yel bo‘lgil.

Ishlamasdan tama qilish — xom xayol,
O‘zni maqtash ahmoqlikdir bilib ol,
Har bozordan olay desang agar mol,
Yaxshilarning cho‘ntagida pul bo‘lgil.

Hisobi bor, Maxtumquli, har damning,
O‘z rizq-nasibasi har bir odamning,
Quruq gap-so‘zini qo‘ygil olamning,
Yaxshi-yomon — barchasiga til bo‘lgil.

[1] Bu yerda Sulaymon va chumoli haqidagi rivoyatga ishora qilinmoqda.

UCHDIM, AZIZLAR

Bir juma kechasi ko'rdim tushimda,
Qanot qoqib, ko'kka uchdim, azizlar.
Parvoz aylab, kezib chiqdim dunyoni,
Bir go'zal manzilga tushdim, azizlar.

Kahkashon[1] jamoli tortar xayollar,
Ming turli mevalar, ko'rkam nihollar,
Limonlar, olmalar, ham po'rtaxollar[2],
Farovon boqqa duch keldim, azizlar.

Ochilmishdir unda rang-barang gullar,
Nola-fig'on chekar oshiq bulbullar,
Hovuzi marmardan, kavsardek[3] suvlar,
Hayratdan hush uchdi, shoshdim, azizlar.

Ul zulmat bog' ichra ko'rdim bir chaman,
Komil zotlar to'la ajib anjuman,
O'tirardi davra qurishib chiltan[4],
Salom berib, qo'lin quchdim, azizlar.

Barcha bir og'izdan alik oldilar,
O'tir deya imo qilib qoldilar,
Davra qurib, jomga sharob soldilar,
Navbat yetgach, qo'lim ochdim, azizlar.

Bilmadim, ko'pmi yo menga oz berdi,
O'zga olam, boshqa bir ovoz berdi,
Ishq ko'nglimni oldi, tilga so'z berdi,
Ishq mayidan qonib ichdim, azizlar.

---

[1] **Kahkashon** — yulduzli osmonda ko'rinadigan oq yo'l, somon yo'li.

[2] **Po'rtaxol** — apelsin.

[3] **Kavsar** — jannatdagi hovuz, buloq. Uning suvi asaldan shirin, qor va sutdan oq bo'lib, ichgan kishi abadulabad tashnalik nimaligini bilmaydi.

[4] **Chiltan** — qirq kishi, qirqta ruh. Diniy tasavvurlarga ko'ra, g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan, ko'zga ko'rinmaydigan, bir-biridan ajralmaydigan afsonaviy qirq ruh.

Maxtumquli, hushyor bo‘ldim, uyg‘ondim,
Uyg‘ondim-u o‘tga tutashdim, yondim,
Ma’no bozorida bichiqchi bo‘ldim,
Shirin g‘azal to‘nin bichdim, azizlar.

HOLIMGA MENING

Karam ayla, yo Rab, qudratli Subhon[1],
G‘arib, g‘amgin kechgan holimga mening.
O‘zim ajablanib, bo‘ldim pushaymon
G‘aflat bilan o‘tgan umrimga mening.

Mahshar[2] kuni menga bo‘lmasang dalda,
Yo Rab, qanday bo‘lar ishim u holda?
Iymon durin olib borganim yo‘lda
Qaroqchi qo‘ymagil yo‘limga mening.

Din qilichin uray desam, zo‘rim yo‘q,
Muhtojni qo‘llashga qo‘lda zarim yo‘q,
Huzuringdan o‘zga borar yerim yo‘q,
Bir tasalli bergil ko‘nglimga mening.

Teng-to‘shlar istasa boshga oltin toj,
Faqirlik mulkidan bergil menga boj,
Ilohim, aylama nomardga muhtoj,
Tilagim: duch etma zolimga meni(ng).

Ojiz qulman — sendan o‘zga kimim bor?
O‘z bergan joningga jabr etma, Jabbor,
Maxtumquli aytar: karamli G‘affor[3],
Boqma qilmishimga, fe’limga mening.

---

[1] **Subhon** — Olloh taoloning sifatlaridan biri: pok, beayb.

[2] **Mahshar** — qiyomat kunida barcha o‘lganlar tirilib, so‘roq uchun to‘planadigan joy.

[3] **G‘affor** — Olloh taoloning go‘zal ismlaridan biri: bandalarning ayb-u nuqsonlarini fosh qilmay, yashirib turuvchi, kechiruvchi.

ZAMONIDIR

Kimda bo'lmasa or-nomus,
Bu kun uning zamonidir.
Yig'sin Qorun kabi molni,
Xazina bo'sh — davronidir.

Oh, ne qilay, baxtim qora,
Yurak-bag'rim bo'ldi pora,
Arzim ayting sevar yora,
Bu dardimning darmonidir.

Sovidi qizg'in bozorim,
Ortdi kun-kundan ozorim,
O'tmas bo'ldi hech nazarim,
Oldinda tog' tumanidir.

Yolg'iz farzand — yuzing ko'rib,
Kelibman Xivadan yurib,
Sahro ichida ot surib,
Keldim — Haqning farmonidir.

Maxtumquli, darding ayon,
Barini xush qilding bayon,
Tilingni tiy, bordir ziyon,
Aql uning hayronidir.

QOLDI

Yoshlik o'tdi zavq-u aysh-ishrat bilan,
Bahor kelib kechdi, bizdan tash[1] qoldi.
Keksalik yetishdi ming kulfat bilan,
Mezon o'tdi, xazon keldi, qish qoldi.

[1] **Tash** — tashqari; majozan: ortda, olisda.

Umrim o‘tib ketdi hoy-u huy bilan,
Xudoga bandalik aylamadim man,
Zoye o‘tdi yoshlik zamoni zotan,
Na tanda quvvat, na dilda jo‘sh qoldi.

Umrimning shod kuni qolmadi hisob,
Oh-nolamga birov qilmaydi javob,
Hijron o‘ti jismim ayladi kabob,
Yuraklar qon bo‘lib, ko‘zda yosh qoldi.

Har bir boshga solar bu falak hijron,
So‘ldi guli urib jismimni xazon,
Uyi talandi-yu, o‘g‘irlandi kon,
Unda na bir aql, na bir hush qoldi.

Soldi hijron boshga yuz ming
g‘am-kulfat,
Tong ottirish azob—tun uzoq g‘oyat,
Dard-u g‘ussa bilan yashash—mashaqqat,
Na jonda farog‘at, na bir aysh qoldi.

Ko‘p ozor yetkazdi jonimga hijron,
G‘am-azobdan rangim bo‘ldi za’faron[1],
Soch-soqol oqarib, jismim notavon,
Na yuzda quvonch,
na ko‘ngil xush qoldi.

Maxtumquli so‘zi quruq chol bo‘ldi,
Shum ayriliq bilan aqlim lol bo‘ldi,
Bilmadim, ne savdo, nechuk hol bo‘ldi,
Jon tandan ayrildi, quruq losh[2] bo‘ldi.

[1] **Za’faron** — sarg‘ish tus beruvchi xushbo‘y o‘simlik; majozan: sariq rang.
[2] **Losh** — jonsiz gavda, murda; o‘laksa.

MUBTALO QILDI

Ey azizlar, falak jabri,
Jonimni mubtalo qildi.
Ayirdi nuridiydamdan,
Yuragimni yaro qildi.

O‘tdi xushvaqt-xurram vaqtim,
Qulab tushdi tilla taxtim.
Yangi o‘sgan bir daraxtim,
Xazon yeli fano qildi.

Shum ajalga bo‘lmas chora,
Jabridan qoldim bu zora,
Yuragimni qildi yara,
Zaif jismim ado qildi.

Endi bir dam qarorim yo‘q,
Bu manzilda turarim yo‘q,
Bu so‘zdan hech xabarim yo‘q,
Xabarsiz benavo qildi.

Yonib parvonadek har dam,
Yuragimni bosib yuz g‘am,
Qaddim xam, ko‘zlarimda nam,
Bu jonimga jafo qildi.

G‘amidan o‘rtanib so‘zon[1],
Chekarman nola-yu afg‘on,
Firog‘ida ko‘zim giryon,
Ko‘zim yoshin ravon qildi.

Ochilgan bog‘-u bo‘stonim,
Xazon urdi gulistonim,
Yiqildi taxti ayvonim,
Bu jonimga jafo qildi.

[1] **So‘zon** — yolqinli, kuygan, yonib turgan.

Maxtumquli qildi faryod,
Mening ahvolima, hayhot!
Falakning dastidan ming dod,
Mening baxtim qaro qildi[1].

KETIB BORADIR

Do'stlar, bu dunyoga yo'qdir e'tibor,
Birov kelib, birov ketib boradir.
Birov to'kin yashar, birov xor-u zor,
Qora yer barchani yutib boradir.

Birov keksa bo'lsa, birovlar yoshdir,
Birov boy-u birov kambag'al — ochdir,
Mahsharga yo'l olgan bir ulug' ko'chdir,
Ortimizdan ajal yetib boradir.

Falak bir baqqoldir, dunyo bir bozor,
Birov to'g'ri yo'lda, birovlar ozar,
Birovlar Ollohdan qo'rqmasdan yashar,
Birov Haq amrini tutib boradir.

Birovlar baxshidir, birov mulladir,
Birovning tilida zikri Ollohdir,
Barchasidan Olloh yodi a'lodir,
Birov shayton so'zin bitib boradir.

Maxtumquli, umid etmoq Xudodan,
Yolvorish — gadodan,
yorlaqash — shohdan,
Haqdan o'zga najot yo'qdir dunyoda,
Birov bedor, birov yotib boradir.

[1] Bu she'r qo'lyozmada "Menglibeka" nomi bilan keladi.

O‘TIB BORADIR

Dunyoga e’timod[1] etmang, yoronlar,
Kimga kelib, kimdan ketib boradir.
Iskandardek davr-u davron surganlar
Navbat bilan bir-bir o‘tib boradir.

Birovni boy etar, birovni gadoy,
Ne qilsa erki bor, ul qodir Xudoy,
Birovning boshiga qo‘ndirib Humoy,
Birov g‘am sharobin yutib boradir.

Birovga beribdi g‘am-qayg‘u, kulfat,
Birov bir nafas ham ko‘rmadi rohat,
Birovga qilibdi nomardni ulfat,
Uning umri “Oh!” deb o‘tib boradir.

Birovning ko‘nglida ko‘pdir armoni,
G‘am-u g‘ussa bilan chiqadi joni,
Yaxshiga duch etar mudom yomonni,
Dunyodan noiloj o‘tib boradir.

Kimlar faryod chekar maqsadin topmay,
Kimlar oh uradi og‘zini yopmay,
Bir yobi[2] bayroqni oladi chopmay,
Bir bedov bosh egib qaytib boradir.

Dunyo uchun chekma qayg‘u-andisha,
Sabr et balosiga, kelgan har isha,
Qayg‘u chekib, yig‘lab yurma hamisha,
Ajal qo‘li yoqang tutib boradir.

Maxtumquli so‘zin bari nasihat,
Xudoga qul bo‘ling, Rasulga ummat,

[1] **E’timod** — ishonch, tayanch, suyanch.

[2] **Yobi** — xo‘jalikda ishlatiladigan ishchi ot.

Bilsangiz, bu dunyo bosh-oyoq hasrat,
Hasrat bilan bir-bir ketib boradir.

BIR KUN

Bunda menman degan odam,
Ajal zahrin ichar bir kun.
Yetib davri, tugansa dam,
Yer qo'ynini quchar bir kun.

Nomusi bilan orini,
Sevgili, nozli yorini,
Yiqqanlarining borini
Tuproq aro sochar bir kun.

Kiyib muncha shohi-ipak,
Kibr-u havo kimga kerak?
Oqil, senga g'addor falak
Kafan to'nin bichar bir kun.

Kimga vafo qildi jahon?
Baqosiz, angla, bu makon,
Bu saroyga tushgan karvon
Besh kundan so'ng ko'char bir kun.

Go'rga kirarsan yalang'och,
Ulushing bo'z—ikki quloch,
Ustingdan qurt-ilonlar och,
Har taraf yo'l ochar bir kun.

Tin olmay kecha-kunduzi,
Qilmishlaring ajab o'zi,
Maxtumquli, baxt yulduzi,
Gumon yo'qdir, o'char bir kun.

HISOR TOG‘INDADIR

Hisor tog‘i buyuk bo‘lar,
Usti to‘la kiyik bo‘lar,
Merganlarga suyuk bo‘lar,
Borsang, Hisor tog‘indadir.

Hisorning bordir to‘rasi,
Ko‘rganning ketar havasi,
Qiz-kelinlarning sarasi,
Kezsang, Hisor tog‘indadir.

Tog‘ bo‘lar yerning sultoni,
Ko‘ksida qurmish do‘konin,
Uch yuz oltmish pir makoni,
Ko‘rsang, Hisor tog‘indadir.

Chorvadorlar maskan tutar,
Ilonlar tovlanib yotar,
Darasida meva bitar,
Tersang, Hisor tog‘indadir.

Yo‘lbarslar bo‘kirib chiqqan,
Jayronlari qiyo boqqan,
Kamarlari dilni yoqqan,
Yursang, Hisor tog‘indadir.

Maxtumquli der bu tog‘ni
Yuvadi hasrat-u dog‘ni,
Havas etib go‘zal chog‘ni
Sursang, Hisor tog‘indadir.

BIR NON KELTIRDI

Bir kecha yotardim, shoh Naqshbandiy,[1]
Karam aylab, menga bir non keltirdi.
O'ng qo'lida qizil sharob, chapida,
Pishgan go'shtni, ol deb o'g'lon, keltirdi.

Uyg'ondim uyqudan, qoldim tushimdan,
Hayron qoldim devonaning[2] ishindan,
Sharobini ichib, ketdim hushimdan,
Ko'zimdan yosh o'rniga qon keltirdi.

Jon bo'g'zimga keldi qaynab-jo'shmoqdan,
Yuragim mavj urdi to'lib-toshmoqdan,
Bir ishorat bo'ldi bu uchrashmoqdan,
Fahm etmadim, jonga armon keltirdi.

Anglamadim, ishqqa bo'ldim xaridor,
Bilmadim, istadim dilbardan diydor,
Ishq dardiga tushdim, qoldim giriftor,
Bu dardga, qani, kim darmon keltirdi?

Maxtumquli, turdim tavob etmoqqa,
Tilim aylanmadi javob etmoqqa,
Ishq ahlining holin xarob etmoqqa,
Aqlim olib, mast-u hayron keltirdi.

QOLIBMAN

Yoshlik jo'shqinligi ketdi boshimdan,
Endi undan xoli bo'lib qolibman.
Bir g'amga duch kelib, ketdim hushimdan,
Bu dard bilan to'la bo'lib qolibman.

---

[1] **Shoh Naqshband** — mashhur avliyo, naqshbandiya tariqati asoschisi Bahouddin Naqshband (1318–1389).

[2] **Devona** — ishqqa oshig'-u hayron-u sargashta bo'lgan va sulukka mansub kishi. Oshiqning mag'lubiyati ham devonalik deyiladi.

Boshimda yuz havas, ko‘nglim jo‘shqinda,
Men telba girdobga tushib toshqinda,
Najd[1] tog‘ida kezgan Majnun ishqinda,
Yonib-kuygan Layli bo‘lib qolibman.

Qish yetdi—yigitlik faslin bitirdim,
Komillik kemasin qumga botirdim,
Og‘ir o‘yga botdim, aqlim yitirdim,
El ichinda dalli bo‘lib qolibman.

Bu dunyoni ko‘chib borgan ko‘ch bildim,
Ishini yomon-u o‘zin puch bildim,
Boshin o‘yin ko‘rdim, so‘ngin hech bildim,
O‘lmay turib o‘lik bo‘lib qolibman.

Maxtumquli, fosh aylagil so‘zingni,
Charx tuproqqa to‘ldirmasdan ko‘zingni,
Shu vaqtgacha yosh bilarding o‘zingni,
Endi yoshi ulug‘ bo‘lib qolibman.

AYLADING MENI

Ey Xudoyo, qudratingdan,
Yo‘qdan bor aylading meni.
Teng-to‘shlardan judo qilib,
G‘amga yor aylading meni.

Menga tole ravo etmay,
Tilaklarim bajo etmay,
Dunyo ilmin ato etmay,
Molga zor aylading meni.

Ayrildim ota-onamdan,
Jigarlarimdan, og‘amdan,

[1] **Najd** — Iroq va Hijoz o‘rtasidagi tog‘.

Ayro tushib o‘z o‘lkamdan,
Musofir aylading meni.

Maxtumquli fig‘on aylar,
Ko‘zda yoshin ravon aylar,
Haqqa nola chunon aylar:
Buncha xor aylading meni?!

KULOHLI KELDI

Bir kecha yotardim, shunday tush ko‘rdim:
Bir guruh boshida kulohli[1] keldi.
Seskanib uyg‘ondim, o‘rnimdan turdim,
Qo‘llarida tilla asoli keldi.

Bir guruh valiylar takbirlar[2] aylab,
Qizil, yashil kiyib, asbobin shaylab,
Orasidan oldim birini saylab,
Lablari shakardan mazali keldi.

Bir pari sollanib sayrga chiqmish,
G‘amza bilan qalam qoshini qoqmish.
Ishqining o‘tiga jonimni yoqmish,
Boshida tilladan jig‘ali[3] keldi.

Jafolar chekibdi yor diyorinda,
Bog‘da bitgan olma ham anorinda,
Maxtumquli, bir parining zorinda,
Barchasining tili sanoli keldi.

---

[1] **Kuloh** — bosh kiyimi, qalpoq; majozan: toj.

[2] **Takbir** — islom an’anasida Ollohni ulug‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan Ollohu akbar — Olloh buyukdir iborasini talaffuz etish.

[3] **Jig‘a** — bosh kiyimga taqiladigan, ulkan va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynat buyum.

OLGAN YAXSHIDIR

Odam o‘g‘li, bu dunyodan o‘tguncha
Noming chiqib, obro‘ olgan yaxshidir.
Bo‘ktargining[1] soyasida yotguncha
Burgut changalida qolgan yaxshidir.

Benamoz qo‘lidan taom ichmanglar,
Dil xushlamas yerda og‘iz ochmanglar,
Nomard ko‘prigidan aslo kechmanglar,
Daryoda g‘arq bo‘lib o‘lgan yaxshidir.

Qatorning ko‘rkidir moyalar, norlar,
Elimning quvvati mardona erlar,
Yolg‘onchi—Xudoning dushmani derlar,
Ammo o‘z o‘rnida yolg‘on yaxshidir.

Maxtumquli deydi: so‘zim tog‘ oshmas,
Nomard odam yo‘ldoshiga qarashmas,
Motam bo‘lgan joyda kulmoq yarashmas,
To‘y-u tomoshada kulgan yaxshidir.

YOSHIM MENING

Ey azizlar, bu jahonda fisq-fujur ishim mening,
Dam-badam hasrat bilan ko‘zdan oqar yoshim mening,
Kimki chin dildan bo‘lar bu yo‘lda yo‘ldoshim mening,
Yo‘lida qurbon bo‘lar jonim bilan boshim mening.

Yuz g‘am-u hasrat bilan rangim mening so‘lmish butun,
Hoy-havas deb oqibat berahnamo bo‘lmish butun,
Nafs o‘tida o‘rtanib, ko‘nglim yana o‘lmish butun,
To‘lmish-yey kibr-u hasad bilan ich-u toshim mening.

---

[1] **Bo‘ktargi** — qarchig‘aysimonlar oilasiga mansub ko‘chmanchi yirtqich qush.

Yo‘qdir armonim sira o‘tsam agar iymon bilan,
Ayrilib yordan, g‘am-u hasratdaman hijron bilan,
Kecha-yu kunduz ishim quvvat topar isyon bilan,
Behuda o‘tmoqda, afsus, umrim-u yoshim mening.

Xascha ko‘rinmas mening ko‘zimga aslo bu jahon,
Zoyil aylab es-hushingni, telba aylar har zamon,
Ko‘p harorat ichra qolgay jism-u jon aylab fig‘on,
Telba-yu rasvo bo‘libman qolmay es-hushim mening.

Xor-u zor Maxtumquli o‘zni gunohga g‘arq etib,
Yig‘lamaydi barcha, ammo, oqibatni dark etib[1],
Uchsa to joning qafasdan bu jahonni tark etib,
Marhamat etmasmi, yo Rab, ul shahanshohim mening?!

HOLIM MENING

Ey azizlar, so‘rmagaydir bir kishi holim mening,
Bo‘lmadi qaddim alifdek[2] evrilib dolim[3] mening,
Bu jahonda o‘tdi armon ichra oy-yilim mening,
Ne qilay, ey do‘stlarim, qonim to‘kar zolim mening,
Bilmagayman, qaysi yerda ochilar yo‘lim mening?!.

O‘tdi umrim, do‘stlar, dunyosiga moyil bo‘lib,
El-u yurtdan ayrilib, yurdim gado—soyil[4] bo‘lib,
Haqqa toat qilmadim yoshlik sabab johil bo‘lib,
Harna bergan kuniga shukr ayladim, qoyil bo‘lib,
Ey Xudoyo, og‘ir ayla unda a’molim[5] mening!

---

[1] **Dark etmoq** — bilmoq, sezmoq, anglamoq, fahm etmoq.

[2] **Alif** — arab alifbosining birinchi harfi: “a”. To‘g‘riligi jihatidan ma’shuqaning tik, kelishgan, qaddi-qomatiga nisbat beriladi.

[3] **Dol** — arab alifbosidagi “d” harfi; majozan: yorning sochi, kokili, gajak.

[4] **Soyil** — so‘rovchi, istovchi; tilanchi, gado.

[5] **A’mol** — amallar, ishlar, qilmishlar.

Banda yoshlik kibri bois xor bo'larmish, bilmadim,
El-u yurt, teng-to'shlariga zor bo'larmish, bilmadim,
Keng deb o'ylardim jahonni, tor bo'larmish bilmadim,
Kim bu eldan ayrilar, bemor bo'larmish, bilmading,
Ayting-ayting, aylasin yod teng-u to'sh, elim mening!

Kecha-kunduz oh urib, chekdim magar afg'on-u zor,
Istadim, kezdim jahonni, topmadim sodiq nigor,
Dunyo bir ilonparidir — zulfin aylab tor-tor,
"Beri kel!" — der qahr etib, termilib har yon qarar,
Do'stlar, men ne qilay, bo'lsa shunga maylim mening?!.

O'rtanur Maxtumquli tushganda yodga ellarim,
Misli bir daryochadir, ko'zimdan oqqan sellarim,
Do'stlarim, bir yilga teng go'yo menga har kunlarim,
Dilda toqat qolmadi, so'ylaydi yolg'iz tillarim,
Lutf etib, rahm aylasin shafqatli sultonim mening!

DO'STLARIM

Voh, meni ranj-u alam abgor qildi, do'stlarim,
Otgali g'am o'qini tayyor qildi, do'stlarim,
Bizni dard-u g'ussadan bemor qildi, do'stlarim,
El-u yurt-u teng-u to'shga zor qildi, do'stlarim,
Shum falak ayro solib, nochor qildi, do'stlarim.

Ayriliq to'lqini ichra qolmisham bu joyda men,
O'rtanib hajr o'tida tun-u kun oh-u voyda men,
Bir sitamgar dastidan har lahza hoy-u hoyda men,
Yilda bir ko'zim tushar chekib azob har oyda men,
Nozli yorning makr-u jabri xor qildi, do'stlarim.

Bir nafas rahm aylamas oshufta[1] holimga mening,
Xo'rligim kelgay o'zimning o'z zavolimga mening,

[1] **Oshufta** — oshiq, shaydo, giriftor.

Ne qilay, ishqim tushibdi ushbu zolimga mening,
Dard-u g'amdan o'zgasi kelmas xayolimga mening,
Zulfini gohi ilon, goh dor qildi, do'stlarim.

Ey ko'ngil, kel, shukr ayla, bo'lma ko'p zor-u zabun[1],
Bo'laver mardona, ko'nglim, bil, o'tar sendan bu kun,
Qayna, jo'sh ur, ey ko'ngil, bazmimda yayra, yech tugun,
Chekkaning bas dard-u g'ussa, endi kel rohat uchun,
Ishq sargardonligi ovora qildi, do'stlarim.

So'zlabon, Maxtumquli, muncha fig'on chekmoq nadir,
Yig'labon ikki ko'zingdan qonli yosh to'kmoq nadir,
Jon zaminiga g'am-u dard tuxmini ekmoq nadir,
Dunyoda rasvo bo'lib, ko'ksingni chok etmoq nadir,
Ishqi savdosiga giriftor qildi, do'stlarim.

LARZONADIR

Ey azizlar, go'zal umrim
O'tgan sari larzonadir.
Kundan-kunga ortib dardim,
Darmon istab parvonadir.

Oshiq yonsa ul yor uchun,
Ilon tutuvchi mor[2] uchun,
Yigitlar nomus-or uchun,
Otga minar — mardonadir.

Ajoyib davronlar surgan,
Yaxshi-yomon — barin ko'rgan,
Bizlar bilan hamroh yurgan,
Oqsoqollar, boq, donodir.

[1] **Zabun** — 1) ojiz, bechora., xor; 2) mag'lub.

[2] **Mor** — ilon, ajdar.

Maxtumquli, ellik yoshing,
G‘am-u qayg‘udir sirdoshing,
G‘ofil bo‘lma, ko‘tar boshing,
Qarilik bir bahonadir.

XOR QILDI

Ey do‘stlarim, telba dunyo
Yaxshi kunlarim xor qildi.
Ikki yuzli, lo‘li dunyo
Meni shodlikka zor qildi.

Avval kerak yor yigitga,
Do‘st yo‘q, ko‘ngli tor yigitga,
Asli yolg‘iz er yigitga
Zolim falak ozor qildi.

Kishim yo‘q — tinglasa dardim,
Yo‘lbars tulki bo‘ldi — ko‘rdim,
Xarob bo‘ldi go‘zal yurtim,
Qizilbosh tor-u mor qildi.

Qo‘ldan ketgandir dostonim,
Go‘yo tandan chiqdi jonim,
Ko‘zi yoshli Mengli xonim
So‘nmas o‘tga duchor qildi.

Otsiz qoldi kuchli polvon,
Shunday bo‘ldi, naylay, zamon,
Taklif etib o‘zin juvon
Dilga ilonim yor qildi.

Maxtumquli, tiy tilingni,
Bukarlar alif belingni,
Ozorga qo‘yma elingni,
Barchasi e’tibor qildi.

BU KUN

Tug‘di osmonning Zuhrosi[1],
Chin oshiqqa davron bu kun.
Ochildi zamin lolasi,
Dunyo gul-u rayhon bu kun.

Har bo‘stonda shaydo bulbul,
Jilvalanib tovlanar gul,
Oshiq bo‘lsang, quloqqa il:
Ma’shuq senga qurbon bu kun.

Tili shirin — shakariston,
Olam — jahon gul-guliston,
Qo‘yning ichra bitgan bo‘ston,
Mard yigitlar bog‘bon bu kun.

Gulshan ichra kirar bo‘lsang,
Guldastalar terar bo‘lsang,
Mendan xabar so‘rar bo‘lsang,
To‘ti kabi zabon[2] bu kun.

Tog‘lar boshin tuman bosgan,
Qoyalarda gullar o‘sgan,
Nomardlarning yo‘lin to‘sgan,
Odil shohdan farmon bu kun.

Olqish bo‘lsin el mardiga,
Qorar yovni o‘z gardiga,
Chin oshiqning g‘am-dardiga
Firog‘iydan darmon bu kun.

---

[1] **Zuhra** — Venera sayyorasi: uni falak cholg‘uvchi deydilar hamda go‘zallik, musiqa-yu raqs va shodlig-u xursandchilik timsoli hisoblaydilar.

[2] **Zabon** — til.

DUNYO, DASTINGDAN

O‘t olib tutashdi bu g‘arib ko‘nglim,
Betoqat termilib, dunyo, dastingdan!
Yetti qat zaminni titratar ohim,
Betoqat termilib, dunyo, dastingdan!

Ranj-azobdan, dunyo, aqlim hayrondir,
Yuragimda yongan ishq-u hijrondir,
Men degan erlarning ishi armondir,
Betoqat termilib, dunyo dastingdan!

Bir lo‘li xotinsan — yo‘qdir qaroring,
Bilib bo‘lmas, bormi bir sevar yoring?
Bilsang, gado qildi shohni ozoring,
Betoqat termilib, dunyo, dastingdan!

Qani, qirq xazina tilla jam etgan?
Qani, yorni izlab, yurtidan ketgan?
Qani, gullar bahor chamanda bitgan?
Betoqat termilib, dunyo, dastingdan!

Firog‘iy, so‘zingdan motamda ellar,
Lol bo‘ldi so‘zlamay, ko‘r, asal tillar,
Qora ko‘z, kulgan yuz, ingichka bellar,
Betoqat termilib, dunyo, dastingdan!

QORA KO‘ZLARING

Sabab bo‘ldi yongan jonga,
Jalloddir qora ko‘zlaring.
Yetkazmas najot — darmonga,
Jalloddir qora ko‘zlaring.

Parim, yakka-yolg‘iz yurma,
Yomonlarning yuzin ko‘rma,

Qora qoshga surib surma,
Ofatdir qora ko'zlaring.

Jallod ko'zlar, omon-omon,
Dunyo yuzin qilding tuman,
Oshiq ahlidan olar jon,
Rohatdir qora ko'zlaring.

Maxtumquli, yor armoni
O'rtar inson-u g'ilmonni[1],
Musulmonning din-iymoni,
Ummatdir qora ko'zlaring.

AYT

Ey sabo[2], arzimni qahri qattiq ul tuqqonga ayt,
Bir umr zor aylagan ul ko'zi to'la qonga ayt,
Shum falakning dastidan jon ketganin jononga ayt,
Ayrilib g'am chekkan ul baxti qora jonga ayt,
Bu jahonda topgani dard oshig'i hayronga ayt.

Ne bo'libdir, ne sababdir, ko'rmagayman yuzini,
Qora qonlarga bo'yab o'ltirmish ikki ko'zini,
Mol-u dunyo ne kerak eshitmasam gar so'zini,
Qoldirib g'ofil, qayerda aylading band o'zini,
Borgil-u dardim bayonini Hakim Luqmonga ayt.

Yot etib bizni o'zingdan, bog'lading tillarni, hey,
Bukding ota-onadan aylab judo bellarni, hey,
Hajriga berding taraqqiy to'xtatib yellarni, hey,
Axtarib joy topmadim to'kmoq uchun sellarni, hey,
Sabr-u oromini jonning ul buyuk ummonga ayt.

[1] **G'ilmon** — 1) g'ulomlar, xizmatkorlar; 2) jannatdagi xizmatkor bola.

[2] **Sabo** — Sharq tomondan esadigan tonggi yoqimli va salqin shamol. Tasavvufda u Olloh taoloning rahmoniy nafasiga nisbat berilib, xayrga bois bo'lishi aytiladi. Sabo oshiqning oh-u nolasini Ollohga, o'z navbatida, Ollohning xabarini oshiqqa yetkazadi.

Qildilar Ka'bamni vayron, endi yo'q yo'l qochgani,
Yo'q kaliti qo'lda jon shahri eshigin ochgani,
Ham qanotim uzdilar, yo'q endi maylim uchgani,
Ham talon bo'ldi xazinam, qolmadi mol sochgani,
Tangligin holim tuganmas boyligi do'konga ayt.

Haqqa arzim: aylasin ozod faqir qardoshini,
Mavj urib turgan dengiz deysan bu ko'zlar yoshini,
Qo'ydi oldinga falak shum ayriliqning oshini,
Yig'lamay netsin Firog'iy topmasa sirdoshini,
Ikki dunyo davlati orzuli ul iymonga ayt.

BILMADIM

Bir mard izlab o'z elimdan chiqibman,
Ey do'stlar, mard inson qaysi, bilmadim.
G'urbatda ayrilib, loyga cho'kibman,
Suvga kirib, ummon qaysi, bilmadim.

Qanotsiz uchibman lochin qush bo'lib,
Endi beqadrman qora tosh bo'lib,
Kitob ochib, necha dinga duch bo'lib,
Islom qaysi, Qur'on qaysi, bilmadim.

Bir qafas ichraman — ocha bilmasman,
Qanotsizman — ko'kka ucha bilmasman,
Toqatsizman — yurtdan ko'cha bilmasman,
Jafo qaysi, davron qaysi, bilmadim.

Meni majruh etdi falakning o'qi,
Oyoqosti bo'ldim bo'g'ishib yoqa,
Sahar chog'ida bir mehrobga boqa,
Namoz qaysi, azon qaysi, bilmadim.

Qoplon deb, bo'riga uchrabman nodon,
Chekimga tushibdi o'tkinchi jahon,

Bo‘libman bedavo bir dardga nishon,
Luqmon qaysi, darmon qaysi, bilmadim.

Yuragimda qolar bo‘ldi armonim,
Iso, Mahdiy[1], Luqmon bilmas darmonim,
Maxtumqul der: ey do‘st — qadrdonim,
Kalom[2] qaysi, doston qaysi, bilmadim.

MAJNUNI BORDIR

Kuysa umrim ishq o‘tida, yuzida Majnuni bordir,
Yuzlari qilsa-da xanda, ko‘zlarida qoni bordir.

Pashsha bilan filni tutib, boq, bu falak qilar o‘yin,
Pashsha deya berma ozor, pashshaning-da joni bordir.

Ketsa davlat tanti eldan, aylanar nomardga mardi,
Nomardga til, mardga kulgi, bir beqadr xoni bordir.

Har go‘zalda bir qusur bor, pinhon u ko‘ngil ichra,
Sutga sinchiklab tikilsang, sut ichida qoni bordir.

Lab qo‘yib lab uzra ham bir zarra totin bilmading sen,
Yor labida, bilsang, ammo, mangu ishq nishoni bordir.

Yo‘l yo‘qotib tong saharda bir eshikka gar yetishsang,
Bog‘i ichida shajar[3] otlig‘ bir arg‘uvoni[4] bordir.

Odam o‘g‘li, ishq aro Majnun kabi kuysang unutma,
Do‘zax o‘tidan-da battar o‘ti beomon bordir.

---

[1] **Mahdiy** — islomda zamona oxir bo‘lganda yerga qaytib kelib adolat o‘rnatadi, deb tasavvur etiladigan imom.

[2] **Kalom** — so‘z.

[3] **Shajar** — daraxt, nihol.

[4] **Arg‘uvon** — gullari nihoyatda qizil bo‘ladigan daraxt; majozan: qizil rang.

Solsa falak qaysi yo'lga yuravergil, qaytma ortga,
Chunki falakning qo'lida bir ulug' farmoni, bordir.

Bu vatanni tark etibon yurmagil, Maxtumquli hech,
Hur-pari, g'ilmon-u inson, nechaki jonini bordir.

IZLARMAN

Yurtim — Atrek[1], elim — go'klang,
Men bir sevar yor izlarman.
Jon shahriga tushdi talon,
Madadkor bir pir izlarman.

Ayrildim ota-onamdan,
Ko'zim quvonchi — vatandan,
Jon bermoq oson hijrondan,
Xarid ko'p, bozor izlarman.

Mamatsafodir[2] qardoshim,
Mulla Matom — saboqdoshim,
Abdulla[3] kelsa bahsdoshim,
Payg'ambar nazar izlarman.

Yuragimda ko'pdir fig'on,
Ko'zdan buloqlab oqdi qon,
Sirdosh emas falak, davron,
Quchsam deb, mozor izlarman.

Sanggi tog' — quvonchim mening,
Kezibman bag'ringda sening,
Ovchiman ovlab jayroning,
Qora ajdahor izlarman.

---

[1] **Atrek** — Turkmanistondagi daryo.

[2] **Mamatsafo** — Maxtumqulining akasi. Dushmanlarga qarshi olib borilgan janglarning birida dom-daraksiz ketgan.

[3] **Abdulla** — Maxtumqulining akasi.

Maxtumquli, bu qiyomat,
Soldi boshimga ko‘p ofat,
Turkman elim, ey odamzod,
Ozod el, guzor izlarman.

BO‘LMAS, AZIZLAR

Bir nafas shod bo‘lib, g‘animat yuring,
Dunyoning vafosi bo‘lmas, azizlar!
Ajal changalidan qutulgan yo‘qdir,
Jonli Zotdan jon qutulmas, azizlar!

Dunyo azal hiylagardir, qallobdir,
Charxi chanbar[1] o‘yinchidir, kazzobdir,
Dunyo bir daryodir, odam hubobdir[2],
Hubob suvda boqiy qolmas, azizlar!

Mushkul safar bo‘lar o‘lim safari,
Dahshati ko‘p bo‘lar, ko‘pdir xatari,
Qaytmaydi chopari, kelmas xabari,
Bu safarga ketgan qolmas, azizlar!

Dunyo yolg‘onchidir, hirs-u havasdir,
Yolg‘onchiga dil bog‘lamoq abasdir[3],
Haromidir, haromzoda, nokasdir,
Bir ahd-u paymonda turmas, azizlar!

Maxtumquli, dunyo foniydir, foniy,
Hasrat manzilidir, o‘limning koni,
Bu bozorda mato odamning joni,
Undan boshqa mato bo‘lmas, azizlar!

---

[1] **Charxi chanbar** — aylanuvchi falak.

[2] **Hubob** — ko‘pik.

[3] **Abas** — behuda, befoyda.

YELDIM DE

Dunyo ko'rmay, tutqun bo'lsang bir chetda,
Uchqur otdek dunyo bo'ylab yeldim de.
Chin-Mochinda[1], Rumda, Hindda, Habashda[2]
Bo'lgan barcha hunarlarni bildim de.

Och bo'lsang ham borma elga tilanib,
"Ko'shkdaman[3]", — de, —
boshim ko'kka ulanib",
Bir soya topmasang sahroda yonib,
Eram bog'i ichra soya topdim de.

Osh ko'rganda shosha-pisha qo'l urma,
Och bo'lsang ham xalqqa uni bildirma,
Hotam kabi boringni soch, sir berma,
Yosh o'lsang ham, Nuh yoshiga yetdim de.

Muhtojliging Haqdan o'zga bilmasa,
Kifoyadir kishi ochdan o'lmasa,
Hindi kabi usti-boshing bo'lmasa,
Egnimga shoh libosini soldim de.

Suvga, yelga hukmi o'tgan Sulaymon,
Boq, ulardan na nom qoldi, na nishon,
Tashna qolib, joying bo'lsa biyobon,
Daryo ichra men Iskandar bo'ldim de.

Yo'ldosh bo'lsa senga tilsiz chumoli,
Ilon bilan yotsang joy topmay xoli,
Yuz ming mardni olib, kulib iqbolim,
Qorun xazinasin qo'lga oldim de.

---

[1] **Chin-Mochin** — Xitoy va unga qo'shni davlatlar.

[2] **Habash** — Efiopiya.

[3] **Ko'shk** — qasr, hashamatli bino.

Maxtumquli, cheksang jafo-jabr, bil,
Xudoga xush kelar, shukur-sabr, bil,
Qilcha jonga qizil tanni qabr bil,
Qizil tiling so'zlar ekan, o'ldim de.

JONI BO'LMASA

Odam o'g'li quruq tuproq —
Tan ichra joni bo'lmasa.
Yuksak tog'ning qimmati yo'q,
Seli, tumani bo'lmasa.

Sano aytib qushlar uchar,
Inson esa sharob ichar,
Baxti kulmas, davlat qochar
Elning azoni bo'lmasa.

Er yigitda bo'lsa g'ayrat,
Bosh egadi unga qudrat,
Bodom qovoq, go'zal siyrat,
Hayfdir kamoni bo'lmasa.

Har bir yigit uyida xon
Nomard — xotin, emas inson,
Pirlar-u so'filar nodon
Qo'lda Qur'oni bo'lmasa.

Uzoqdir bir yurgan yo'llar,
Ajab doston yozgan qo'llar,
Foyda bermas yuzda xollar
Majnunnishoni bo'lmasa.

Firog'iy go'yo yasharar,
Majnundek Najd toqqa oshar,
Ulug' ellar to'zar, agar
Mard erdan xoni bo'lmasa.

BILINAR

Har sochi uzunni xotin demanglar,
Xotin fe'l-u siyog'idan bilinar.
Gard qo'ndirmas bolasiga, o'ziga,
Qoshi, ko'zi, qovog'idan bilinar.

Ba'zi bir xotinlar aqlsiz, ahmoq,
Har so'zi erining jonini yoqmoq,
Na hojat erining yuziga boqmoq,
Bir hayvondir —
qilig'idan bilinar.

Yomon xotin manglay sochi to'p bo'lar,
Gapirganda yomon so'zi ko'p bo'lar,
Eshik oldi tizzagacha cho'p bo'lar,
Ham kul bosgan o'chog'idan bilinar.

Ta'rifini aytsa yaxshi jononning
Qadrini bil doim yaxshi insonning,
Tayindir kelganga osh bilan noning,
Dasturxoni, sochig'idan bilinar.

Yaxshi xotin kular erning yuziga,
Ming jon qurbon uning har bir so'ziga,
Oro berar ham uyi, ham o'ziga,
Qozonidan, tovog'idan bilinar.

Maxtumquli,
qo'lingni tort haromdan,
Iymoningga nuqson yetar ziyondan,
Yaxshilikni umid etma yomondan,
Bo'lar bola yosh chog'idan bilinar.

GURGONNING[1]

O‘ngida baland tog‘, boshida tuman,
Dengizdan esadi yeli Gurgonning.
Bulut o‘ynab, to‘lsa yomg‘irga soyi,
Oqar loyqalanib seli Gurgonning.

To‘qaylari bordir changal-qamishli,
Go‘zallari bordir oltin-kumushli,
Qo‘y-qo‘chqor, ot-yilqi, qora govmishli,
Alqor[2], sigir bo‘lar moli Gurgonning.

Qatorlashib yurar nor-u moyalar,
Ularga savdogar ahli egalar,
Qad chekib, viqor-la turgan qoyalar —
O‘ng-u orti, sog‘-u so‘li Gurgonning.

Beklari bor — belbog‘ bog‘lar beliga,
Yo‘rg‘a minib, lochin olar qo‘liga,
Jayronlar to‘sh urar dengiz yeliga,
Yashnar kiyiklari, cho‘li Gurgonning.

Maxtumquli eldan-elga oralar
Hijron tig‘i bilan bag‘rim poralar,
Qo‘lin silkib ohu ko‘zli parilar,
Inar kechuvidan dali Gurgonning.

SO‘ZI O‘TAR JONINGDAN

Tengsiz bilan teng aylasang o‘zingni,
Dard bo‘libon so‘zi o‘tar joningdan.
Yiroq bo‘lma qadring bilgan qardoshdan,
Har ish qilsang, ul quvonar yoningdan.

[1] **Gurgon** — 1) Turkmanistondagi daryo; 2) Xuroson, Kaspiy dengizi, Elburs tog‘lari va Turkmaniston o‘rtasida joylashgan shahar.

[2] **Alqor** — tog‘ qo‘yi.

Jahlga minib, g‘olib etma shaytonni,
Kibr etib, unutmagin Rahmonni,
Aqling tanib yaxshi bilan yomonni,
Har bir so‘zga to‘lib-toshma qoningdan.

Sabr etsang, Olloh yetar dodingga,
Jang-u jadal loyiq emas otingga,
Yomon so‘zim olma aslo yodingga,
Tikon bo‘lib turtib chiqar to‘ningdan.

Bo‘lgan barcha ishlar Haqning ishidir,
Unga tan bermagan ahmoq kishidir,
Bir yomon so‘z jonga ilon nishidir,
Chaqsa, zahri oson chiqmas taningdan.

Maxtumquli, yolg‘onchidir bu jahon,
Mastda aql bo‘lmas, kofirda iymon,
Joyin topsa, chumoliday past dushman
Arslon bo‘lib, judo qilar shoningdan.

HIJRON

Vatan, tongdan turib seni o‘ylarman,
Bog‘-u o‘tloqlaring eslab yig‘larman,
Xo‘shlashib, bu miskin jonim dog‘larman,
Murod-maqsadimga yetkazmas hijron.

Firog‘iy, Vatan deb qon to‘kar ko‘zim,
Doim qarab turar hijronga yuzim,
Do‘st-u yorsiz g‘amda qoldim bir o‘zim,
Barchadan ayirmish bu zolim hijron.

GO‘ZAL “SHERG‘OZI”

Makon tutib, uch yil ichdim tuzingni,
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”!
O‘tkazdim qish, bahor ham Navro‘zingni,
Ketar bo‘ldim xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”!

Bizga Olloh amri — farz emish bilim,
Senda ta’lim oldi, ochildi dilim,
Umid bilan qarar yo‘l Go‘rkez elim,
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”!

Endi ajratarman oq-u qorani,
Haq-nohaq, do‘st-raqib, yaqin-yoronni,
O‘qib, ma’nosiga yetdim Qur’onning,
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”!

Aqlimning kosasi to‘ldi, qaynadi,
Yurak to‘lqin urib, ko‘ksim o‘ynadi,
----------[1]
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”!

Ko‘nglimda tuyg‘ular tinmay urar jo‘sh,
Qaynar, g‘azablanar, topmas osoyish,
Qilmas ta’lim olgan seni faromush,
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”!

Paymona to‘lmay, kelsak sabr yetmasdan,
Pinhon zohir qilmas aql ketmasdan,
Uchqur otga minib, sayr etmasdan,
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”!

Sahro aro g‘avvos kabi suzarman,
Hasrat nima bilmay, beg‘am kezarman,
Og‘zimdagi bolni tilda ezarman,
Ketar bo‘ldim xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”!

[1] Asliyatda bu misra yo‘q.

Bag‘ringda ilm olib, komil bo‘libman,
G‘aribman — otamdan yetim qolibman,
Ka’bamdan — onamdan judo bo‘libman,
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”!

Qutbda soy ko‘zlab, kamonga tushdim,
Yomg‘irda ummondek qaynadim-jo‘shdim,
Xush qol, bu kun Jayhun daryodan oshdim,
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”!

Maxtumquli unutib g‘am-qayg‘usin,
Olqishlar piri-yu mulla-so‘fisin,
Unutmasman abad tilla eshigin,
Ketar bo‘ldim, xush qol, go‘zal “Sherg‘ozi”!

SEL BILAN-EY

Baland tog‘larning boshida
Bulut o‘ynar sel bilan-ey.
Mard yigitga to‘y-u bayram
Har ish kelsa, el bilan-ey.

Til bilganlar gung bo‘libdir,
Oltin-kumush zang bo‘libdir,
Pashsha qachon teng bo‘libdir
Uchrashganda fil bilan-ey.

O‘tloqqa chopar buzoqlar,
Sigirlar oldinga chog‘lar,
Tanilar xos arg‘umoqlar
Eski, yirtiq jul[1] bilan-ey.

Harom ishdan qochar pirlar,
Tulki sarqitidan sherlar,

[1] **Jul** — yopinchiq, ot yopig‘i.

Qustirmasdan qo‘ymas derlar,
Quymoq yesang qil bilan-ey.

Haq bandasi Haqqa chopar,
Yomon o‘z fe’lidan topar,
Maxtumquli aybin yopar,
Osh, qilich-u til bilan-ey.

ISH BO‘LMAS

Kel, ko‘nglim, sidq bilan yolvor Ollohga,
Yaratgandan yashirin hech ish bo‘lmas.
Rizq taqsim qilingan shoh-u gadoga,
Qalam[1] yozganidan ortiq hech bo‘lmas.

Kim yelib-yugurar tun-u kun yotmay,
Kim yashaydi ranju mashaqqat tortmay,
Taqdirda bitgani hech qachon ortmay,
Chopgan ortiq bo‘lib, yotgan bo‘sh bo‘lmas.

Bir mard yigit yolg‘on dunyoga kelsa,
O‘tkir qilich, non-u dasturxon bo‘lsa,
Obro‘-e’tibor-u ham iymon bo‘lsa,
Yetmish, sakson, yuzdan ortiq yosh bo‘lmas.

Birovlar badavlat, birovlar g‘arib,
Birovlar xayr-ehson, zakotin berib,
Birovlar bir umr non deb yugurib,
Birovlarda yostiq, to‘shak, osh bo‘lmas.

Maxtumquli, shu kuningga shukr qil,
Ollohning qudratin ko‘rib, fikr qil,
Rizq uchun g‘am yema, Haqqa zikr qil,
Taqdirdan o‘zgasi senga duch bo‘lmas.

[1] **Qalam** — 1) aqli avval; 2) mufassal ilm.

OBOD QOLSIN

Sahar tur, Xudoga yolvor,
Islom uying obod qolsin.
Yomonni qo'y, yaxshilik qil,
Shayton ishi barbod qolsin.

Yaxshi so'zga quloq solgil,
Sahar vaqti bedor bo'lgil,
Yaxshilardan duo olgil,
Umring ortib,
ziyod qolsin.

Odamzod ko'zdan ketguncha,
Yoddan chiqar qon qotguncha,
Qasr-u uy bunyod etguncha,
Haqdan tila, avlod qolsin.

Yomon xotin — jonga ofat,
Dunyo moli navbat-navbat,
Yigitga o'g'il chin davlat,
Mol qolguncha zuryod qolsin.

Yigitning ko'rki ot-yarog',
Har bir ishga jur'at kerak.
Nobop o'g'ildan yaxshiroq,
Firog'iy, yaxshi ot qolsin.

AYRILSA

Qora toshli, boshi tuman bu tog'lar
Tuproq bo'lar qora toshdan ayrilsa.
Sel yog'ib, buralib oqar buloqlar,
Chilla tugab, qorlar qishdan ayrilsa.

Dunyoda bir g‘avg‘o uzoqdan bo‘lar,
Ko‘z xonasi qonli yoshlarga to‘lar,
Qur’on ko‘rmay kezgan pirlar och qolar,
El unutib, salla — pechdan ayrilsa.

Ko‘p aytaman: dunyo qoldi yomonga,
Shafqat aylamaslar hech musulmonga,
Lochin qanot yozib, chiqar osmonga,
Harom o‘lgan sassiq loshdan ayrilsa.

Xoin hurmat qilmas el-u yurtini,
Ortga o‘tar ko‘rsa yigit mardini,
Odam o‘g‘li ayta olmas dardini,
Yurak yonib, ko‘zda yoshdan ayrilsa.

Nomard xotinbozning holi ko‘p yomon,
Mardni ko‘rsa yig‘lar, ko‘zi to‘la qon,
Do‘sti nochor qolsa, mard dili vayron,
Nomard do‘st istamas, oshdan ayrilsa.

Yurt yukin ko‘tarar mardi maydonlar,
Nomard qochib qolar, boqing, yoronlar,
Mol deb dunyo kezar baxil, nodonlar,
G‘amga botar go‘zal tushdan ayrilsa.

Nomard xotinday gap — turmas so‘zida,
Nodon vazirning yo‘q erki o‘zida,
Yor ko‘rksiz nur o‘ynasa-da yuzida,
Qora soch, qora ko‘z, qoshdan ayrilsa.

Savdogarlar mudom yo‘lga bel bog‘lar,
Nodondan qutulsa, el dilin chog‘lar,
Maxtumquli, Haqni yodlab, qon yig‘lar
Shoh-gadolar aql-u hushdin ayrilsa.

O‘TAR BU DUNYO

Xush qolinglar endi yor-u do‘stlarim,
Quvonmang, hammadan o‘tar bu dunyo.
Chora topmadilar o‘tgan valiylar,
Barchaning boshiga yetar bu dunyo.

Birovni shoh etar — berar ko‘p rivoj,
Birovlar yig‘laydi bir pulga muhtoj,
Birov chora topmay o‘tar noiloj,
Har boshga yuz alam qo‘yar bu dunyo.

Nazar qilsa, pora aylar toshlarni,
Birovlarga zahar etar oshlarni,
Bir nechalar olib aziz boshlarni,
Musofir yurtlarga eltar bu dunyo.

Nuridan yaratdi Isoni Jabbor,
Haqqi bordir nima qilsa Bir-u bor[1],
Bir g‘aribman, sendan o‘zga kimim bor,
Meni g‘am-hasratga solar bu dunyo.

Hazrati Odamni[2] aylading hayron,
Judo bo‘lib Momo Havo-da giryon,
Xudoga arz etda Hazrati Luqmon,
Tilagim: duch etma nomardga, dunyo.

Iskandar qani-yu qani Sulaymon,
Qani Suhrob[3], Barzu[4], Rustami doston,

---

[1] **Bir-u bor** — yagona, doimiy, mavjud; Tangri.

[2] **Hazrat Odam** — Odam alayhissalom.

[3] **Suhrob** — mashhur afsonaviy qahramon Rustami Dostonning o‘g‘li. Suhrob otasini izlab borayotib, o‘z nomini yashirgan Rustam bilan yakkama-yakka jang qiladi va ota xanjaridan nobud bo‘ladi. Suhrob obrazi mumtoz adabiyotda eng ezgu orzular ro‘yobga chiqmay bevaqt xazon bo‘lish ramzi bo‘lib qolgan.

[4] **Barzu** — Bahrom Go‘rning laqabi. **Bahrom Go‘r** — sosoniylar sulolasiga mansub shoh Varaxran V (421–438). U go‘r — qulon oviga o‘ch bo‘lgani uchun bahrom Go‘r deb atalgan.

Oqibat joylari bo‘ldi qabriston,
Turlanib-tuslangan lo‘li bu dunyo.

Maxtumquli,
ko‘nglingda ko‘p kulfat bor,
Qismatning domiga bo‘ldik giriftor,
Yaratgan, xor etma, bo‘lgil giriftor,
Yo‘qsa ishim armon etar bu dunyo.

NORI DILBARNING

Ko‘ngil shahriga o‘t soldi,
Voh, naylay, nori dilbarning.
Qurshadi tuman tegramni,
Kelgandir qahri dilbarning.

Odam nasli emas magar,
Hur-u g‘ilmon boshin egar,
Xandon aylab, bizga tegar,
Qo‘rqaman, mori dilbarning.

Gavhar, yoqut yor bo‘yninda,
Falak ojizdir o‘yninda,
Yetishibdi yor qo‘ynida,
Pinhondir nori dilbarning.

Oshiqlarning u otashi,
Oqibdir Majnunning yoshi,
Kanizagi-yu sirdoshi
Jannatning huri dilbarning.

Tirnar bag‘ring eski yara,
Xaridori sen bechora,
Maxtumquli — baxti qora,
Nomusi, ori dilbarning.

BELGA MEHMONDIR

Ey inson, umringga bo‘lmagin moyil,
Yigitlik tizza-yu belga mehmondir.
Yana Haq yo‘lida yurmagil g‘ofil,
Bosgan qadamlaring yo‘lga mehmondir.

Makoning shu zamin, tuproq — qucharsan,
Bir karvonsan — diyoringga ko‘charsan,
Mavsum guli so‘lar, qurir, o‘charsan,
Ovozing ham tinar, tilga mehmondir.

Birov Haq yo‘lida, birov soz bilan,
Birov xumor bilan, birov boz bilan,
G‘ag‘illashib yurgan xush ovoz bilan,
Yashilbosh so‘nalar ko‘lga mehmondir.

Ko‘ring, do‘stlar, bu so‘zimda yolg‘on yo‘q,
Bir g‘aribman — nasihatim olgan yo‘q,
Maxtumquli, mening dardim bilgan yo‘q,
Dardimning darmoni tilga mehmondir.

O‘ZINGDAN

Zahmat chekib, dunyo yiqqan baxil boy,
Xayr aylasang, avval boshla o‘zingdan.
Yig‘ib, zakot bermaslarning holi voy,
Mahshar qorni to‘lar do‘zax ko‘zindan[1].

Mahrum qolding gar shaytonga yo‘l bersang,
Shayton bo‘ynin uzding, pirga qo‘l bersang,
Ixlos bilan Olloh uchun mol bersang,
Cheksiz savob bo‘lib borar izingdan.

[1] **Ko‘z** — bu yerda: cho‘g‘.

Avlodingga shon-shuhratli kun uchun,
Yigit ishratni tark aylar tan uchun,
Halol-harom mol yig‘ar xotin uchun,
O‘lsang, bir naf bormi o‘g‘il-qizingdan?

Birovlar bor — xayr izlab, shar(r)[1] topar,
Birovlar qumni titkilab zar topar,
Birov yomonlikdan yaxshi bar[2] topar,
Birov xayr ko‘rmas bergan tuzindan.

Yigit o‘lsa, xotin qolsa, er topdi,
O‘g‘il-qiz qo‘lida moling yer topdi,
Zakotsiz mol mahshar kuni mor topdi,
Yiroq tushding Yaratganning ko‘zindan.

Tiriklikda o‘zi bersa qo‘lidan,
Xabar topib Yaratganning yo‘lidan,
Savob topar ehson bersa molidan,
Ul ham yaxshi — yod etsalar izindan.

Sog‘ligingda qo‘ling tutmasa ehson,
Qo‘lingni tutmaydi el ham begumon,
Maxtumquli aytar: ranj chekib har on,
Qiyomat qorasi ketmas ko‘zingdan.

SO‘LGAN KABIDIR

Saxiylar shod bo‘lar mehmon kelganda,
Yoshlik yarashadi o‘ynab-kulganda,
Odamzodning yoshi sakson bo‘lganda,
Ko‘rsangiz, qizil gul so‘lgan kabidir.

[1] **Shar** *(r)* — yomonliq, gunoh ish.

[2] **Bar** — meva, samara, natija.

Ba'zi bir odamlar yig'ar tangani,
O'ziga teng ko'rmas o'zga bandani,
Nomusli mard yigit olsa yangani,
Akasi abadiy o'lgan kabidir.

Ba'zi birovlar bor — darveshlar boshi,
Badani oppog'-u malladir tashi,
Saharlar oh chekar, ko'zida yoshi,
Do'zax-u jannatni bilgan kabidir.

Maxtumquli o'qib, kitobin ochsa,
Qirq chiltan yig'ilib, sharobin ichsa,
Mol topgan mard yigit zuryodsiz kechsa,
Mol-mulkini o'g'ri urgan kabidir.

SUYMOQ BILAN-EY

Ishqing o'ti borgan sari kuchayar,
So'nmas sira, jonim, suymoq bilan-ey!
Darding yangilanar, avjiga chiqar,
Ketmas meni tashlab quvmoq bilan-ey!

Tagi pastda aql bo'lmas, dard bo'lmas,
Ming tulkida bir bo'richa jahd bo'lmas,
Nomard kimsa butun umr mard bo'lmas,
Ming ta'rif-u tavsif qilmoq bilan-ey!

Yaxshi yigit qadrin o'z eli bilmas,
Boshiga ish tushsa, yoniga kelmas,
Har qancha bo'zlasang, dardi kam bo'lmas,
Dod etib: "Yo, elim!" demoq bilan-ey!

Baliqchilar aytar: "Soldan unum yo'q",
Mehmon ko'rsa, nomard deydi: "Uyim yo'q",
Odam bolasiga moldan to'yim yo'q,
Yaxshi kiyib, yaxshi yemoq bilan-ey!

Ayting, do‘stlar, bu yer qachon to‘yarmish?
Yomon yomonligini qachon qo‘yarmish,
Odam o‘g‘li faqat shunda tinarmish —
Omonat jonini bermoq bilan-ey!

Dunyo shunday makkor, ustasi farang,
Qo‘lsiz tutib, ipsiz osadi, qarang,
Firog‘iy, tiling tiy, holing bo‘lar tang
Ikki gaz[1] oq kafan kiymoq bilan-ey!

KECHIB BORAR

Ey azizlar, go‘zal umrim
Yakun topib, kechib borar.
Chorasizman, dil to‘la dard,
Ko‘zin yumib, uchib borar.

Istadim sevar qardoshni,
Falak yiroq otdi toshni,
To‘lqin urib ko‘zim yoshi,
Juda haddan oshib borar.

Dardimga yo‘q haddu hisob,
Tabib so‘rmas — holim xarob,
Qo‘l siltab ko‘kdagi mohtob[2]
Botmoq uchun shoshib borar.

G‘am-kulfat tushdi boshimga,
Zolimlar keldi qoshimga,
Zaharlar qo‘shib oshimga,
Tegram nokas bosib borar.

[1] **Gaz** — 0,71 metrga teng uzunlik o‘lchovi.

[2] **Mohtob** — porlab turgan oy, to‘lin oy.

Yulduzlar boshini egib,
Falak charxiga davr tegib,
Jigarimni kabob etib,
Yuragim ham pishib borar.

Na quvvat qoldi, na g‘ayrat,
Boshimga tushdi ko‘p ofat,
Tiklaganim ul imorat
Vayron bo‘lib, to‘zib borar.

Dunyoning ko‘p g‘am-tashvishi,
Og‘ir qarzdorlik ishi,
Foniy jahon qirg‘iy qushi,
Zaharini sochib borar.

Rohatga yetkizmay dunyo,
Tutganni qutqazmay dunyo,
Dumini tutqizmay dunyo,
Boq: qush kabi uchib borar.

Ayamaydi beg-u xonni,
Tog‘ni, darani, tumanni,
Firib bilan olib jonni,
Boq: bu falak qochib borar.

Uch-to‘rt kun gasht aylayin men,
Mardni yo‘ldosh saylayin men,
Maxtumquli, naylayin men,
Azroil yopishib borar.

SIN BILAN

Go‘zal olsang, oriflarga quloq sol,
Siyratin so‘zlarlar yaxshi sin bilan.
Nomardga aylanma tushsang uzoqqa,
Ne ish qilsin pichoq quruq qin bilan?!

Nomard tengin ko'rsa, quvnar, yukinar,
To'g'ri yo'lda yurib, har kun o'kinar,
Mardlar jang bongini ursa so'kinar,
Yuzma-yuz kelmagan chunki qon bilan.

Nomardlarni qo'llar muttaham zamon,
Mard qo'liga tushsa, qo'ymaydi omon,
Baxil o'zin tutar misoli osmon,
Haromdan yig'ilgan tilla-kon bilan.

Qidirilmas yitmay yaxshi mol hech on,
Mard jangdan ko'ksini qiladi qalqon,
Fuqaro hattoki sanalmas inson,
G'arib kezar quruq nom-u son bilan.

Jang bo'lar hamisha nomus-or uchun,
Jang tumani bosib, yorishsa zamin,
Yig'lar yorsiz qolib ma'shuqa tun-kun,
Yashaydi ko'zda yosh, dilda qon bilan.

Mard avlod nomusin asrar har ishda,
Uzilmas do'stlik deb atalgan rishta,
Shahidlar qon bilan kirsa bihishtga,
Jo'mardlar boradi osh-u non bilan.

Qasr-u saroy qursang, yetib davlatga,
Bilarlar ne sabab bu hashamatga,
G'arib bo'lsang, aybing ochar albatta,
Do'st bo'lib yashasang ulug' xon bilan.

Qani, ayting menga:
kim yigit zo'ri?
Bir dam suhbatlashsang, ko'pdir ozori,
Judolik — falakning ishi, shiori,
Jang qilganda ul omonat jon bilan.

Insonning qismati azaldan hijron,
Bobolar qilgan bu naqlni bayon:
"Sukut saqlamoq ham aqldan nishon",
Firog'iy der: hamroh bo'lsang din bilan.

ANORI BO'LMASA

Bog'bon bog'ni nima qilsin,
Bog'da anori bo'lmasa.
Otadan o'g'il tug'masin
Nomus-u ori bo'lmasa.

Bulbulga to'qay bog' bo'lmas,
Yolg'izga tepa dog' bo'lmas,
Bedov yobidan xo'p bo'lmas
Magar raftori[1] bo'lmasa.

Sharbat ichsang, bol bo'ladi,
Har bir kuni yil bo'ladi,
Guldek rangi kul bo'ladi,
Go'zalning yori bo'lmasa.

Maxtumquli, nihon derlar,
Jon sevgisi jahon derlar,
Ul yigitni hayvon derlar,
Shirin guftori bo'lmasa.

MARDCHA BO'LMAS

Uyatsiz odamdan nomard yaxshidir,
Xavf etib, ma'raka-to'ylarga bormas.
Tish — panoh, til esa og'iz naqshidir,
Lab va quloq hech til o'rnini bosmas.

[1] **Raftor** — 1) yurish; 2) xatti-harakat; 3) xulq-atvor.

Oqil oz so‘zlaydi — qo‘rqar tilidan,
Nomard ayb izlaydi tuqqan elidan,
Bulbul judo bo‘lar bahor gulidan,
Gulni orzu qilar, asalga qo‘nmas.

Boq: falak odamni maysaday o‘rar,
Go‘yoki aylagan xarjini yig‘ar,
Mard yigitlar otar, qilichin urar,
Ming nomard yig‘ilsa, bir mardcha bo‘lmas!

Falak savdotalab — jonga xaridor,
Charx chappa aylanar, olam beqaror,
Maxtumquli, yuragimda bir o‘t bor,
Hech bir dilda buning kabi o‘t yonmas.

SAVOB UCHUN KUYMANAVER

Oting banda bo‘lsa, odam,
Ollohingdan iymanaver.
O‘tar davron, kutmas bu dam,
Yotma g‘ofil, uyg‘onaver.

Dunyo misli tubsiz g‘ordir,
Umr esa bir tutam bordir,
Yoshlik qayimas bir bahordir,
Yaxshi nom top, siylanaver.

Ko‘char jahon xalqi turib,
Yurmaslar shod xandon urib,
Sen ham chog‘lan ishing ko‘rib,
Borgan yerga tayanaver.

Agar mendan so‘z so‘rarsan,
Nobop ishlarni qilarsan,
Ol pandim, ne ish ko‘rarsan,
Har bir ishda bir sinayver.

Bu dunyo misli bir tushdir,
Tashvishi ko‘p, vaqti kechdir,
Yoshlig-u qarilik hechdir,
Qarimay vaqting tuyaver.

Bu so‘zlar mendan nishona,
E’tibor tilasang jonga,
Jahon ichra musulmonga
Xush so‘zni yaxshi sanayver.

Maxtumquli, naqd yeganing,
G·umon ammo chaynaganing,
Gunohdan qutqar jon-taning,
Savob uchun kuymanaver.

QIYMAS KO‘ZIM

Nozli yor beg‘am yotgandir,
Uyg‘otgani qiymas ko‘zim.
Ko‘zga go‘yo xas botgandir,
Loldir tilim, chiqmas so‘zim.

Och ko‘zlarim — ko‘rsam qani,
Xizmatida tursam qani,
Tashna labdan so‘rsam qani,
Qarorim yo‘q, yonar yuzim.

Firog‘iy der: qolib pinhon,
Surmay o‘ldim, do‘stlar, davron,
Tug‘yon urib jismimda jon,
Chiqsam, deydi, yorga lozim.

QISH BO‘LAR

Sizga nasihatim shudir yigitlar:
Yomon xotin yaxshi erga qish bo‘lar.
Asabing egovlab, ishing oh etar,
Kunduzgi xayoling kechda tush bo‘lar.

Bir yumush buyursang, yuzi tirishar,
Eshikma-eshik u gap tashib yashar,
Ot to‘rva to‘qisa — qirq kunga cho‘zar,
Xurjun boshlar — olti oylik ish bo‘lar.

Manglayi bir qarich, bo‘lsin ot yuzli,
Tovus ko‘rinishli, o‘tolg‘-u ko‘zli,
Muloqotli, shirin tilli, xush so‘zli,
Ul parilar qay yigitga duch bo‘lar?

Bedovda bedov bor — olarlar zarga,
Bedov bor — arzimas jul-u egarga,
Bedov bor — eshakcha tushmas nazarga,
Chin bedov yigitga uzoq yosh bo‘lar.

Maxtumquli aytar: har so‘zim ibrat,
Nasihatim ulug‘ el uchun hikmat,
Shunqor, lochin qilar ov chog‘i xizmat,
Qarg‘a, hakka bor-yo‘g‘i bir qush bo‘lar.

GUL YUZLI YOR O‘YNASHAR

Borib kirsam sevar yorning bog‘iga,
Osmon bilan gul yuzli yor o‘ynashar,
Kezib yursam tuman bosgan tog‘ida,
Hamla qilib, qo‘sh ajdahor o‘ynashar.

Jon suvidek ikki oh-u guzarda,
Men sho‘rlikni o‘rtar har bir nazarda,

Ishq savdosi rivoj topgan bozorda,
Sotuvchi bilan xaridor o'ynashar.

Kirdim boqqa xarj etib bor molimni,
Boqdim gulga armon tirnab dilimni,
Gullar bulbul bilan qoqishib imni,
Anjir bilan olma, anor o'ynashar.

Yaxshi so'zlar joy oladi til ichra,
Biror narsa tura bilmas sel ichra,
Er yigiti ko'p barqaror el ichra
Ahillikda nomus-u or o'ynashar.

Falak bilan hijron hamla etishib,
Nomard yurmas mardlar bilan qotishib,
Maxtumquli Mengli bilan topishib,
Besh kun bizning bilan gul yor o'ynashar.

MENGLI YORIMDAN

Falak qildi meni rasvo judo aylab nigorimdan,
Ne ish qilsam xabar topgayman-yey ul Mengli yorimdan?!

Zaminni larzaga soldi qilib ins-jinslar parvoz,
Falak tug'yonga tushdi, yondi yulduzlar sharorimdan[1].

Makon tutmish ko'ngil taxtida ko'pdan bir sitamgar shoh,
Na o'zi, na tabib olgay xabar bu holi zorimdan.

Nazar solmas sira dardi agar boshdan o'tib ketdi,
Kuyib kul bo'ldi jismim, yondi jonim ham qarorimdan.

Jahon qirg'iy kabi bermas olib tojimni boshimdan,
Urar xandon, uyalmas ko'zda yoshim — shashqatorimdan.

[1] **Sharor** — o't, uchqun, alanga.

Yo‘limni qancha berkitmay,
ochar u har kuni qirq bor,
Ichibdi olibon kavsar suvini ixtiyorimdan.

Kiyib o‘tli libosini kuyar Maxtumquli har kun,
Jahon o‘t ichra qolmasmi bu tizginsiz sharorimdan?!

LOSHDAN AYRILSA

Ey do‘stlar, dunyoga kelding-kelmading,
Bu shirin jon aziz loshdan ayrilsa,
Yolg‘onchida besh kun kezding-kezmading,
Bir kuni bu boshing hushdan ayrilsa.

Qarilik bir qishdir, ko‘ngling uyg‘onmas,
Yurak jo‘shib, ishqing otashi yonmas,
Bel bukilib, ikki tizzang tayanmas,
Quvvatdan, madordan, kuchdan ayrilsa.

Yer-ko‘kcha farq qilar odam odamdan,
Kimning so‘zi zahar, bol tomar kimdan,
Turli-tuman yuz ming har bir taomdan
Lazzat ketar og‘iz tishdan ayrilsa.

Ne hojating bo‘lsa, tilagil Haqdan,
Qudrati cheksizdir — bor etar yo‘qdan,
Mard yigit past bo‘lar xasdan, tuproqdan,
Faqir bo‘lib, moldan — boshdan ayrilsa.

Bevafoga ko‘ngil berma, uzaver,
Gunohdan qoch, savob ishni tizaver,
Maxtumquli, uch-to‘rt kun mast kezaver,
Zavq ketar yigirma beshdan ayrilsa.

GULGA O‘XSHAR

Ey azizlar, yaxshi yorning
Qo‘yni jannat, gulga o‘xshar.
Dur sochilar so‘zlaganda,
Tillari bulbulga o‘xshar.

Ishq o‘ti yondirdi bizni,
So‘ramanglar mendan so‘zni,
Yorning go‘zal qizil yuzi
Go‘yo oy-u kunga o‘xshar.

Ko‘p kuydirdi meni firoq,
Yetay desam, yo‘lim yiroq,
Qalam qoshli, bodomqovoq,
Sochlari sunbulga[1] o‘xshar.

Sochini tarab jonona,
Meni qildi ko‘p devona,
Go‘yo u — sham, men — parvona,
Yondim, tanim kulga o‘xshar.

Kuygan yo‘q dunyoda mencha,
Diydor ko‘rmoq yo‘q to‘yguncha,
Tishlari — dur, og‘zi — g‘uncha,
Beli nozik — qilga o‘xshar.

Ko‘zi — nargis[2], bo‘yi — shamshod[3],
Kipriklari misli po‘lat,

---

[1] **Sunbul** — ingichka bargli, gullari halqa-halqa, qo‘ng‘iroqsimon va xushbo‘y o‘simlik. Ma’shuqaning sochi halqa-halqaligi va muattar hid taratishi jihatidan sunbulga nisbat beriladi.

[2] **Nargis** — bo‘tako‘z; majozan: ma’shuqaning ko‘zi. Tasavvufda amal orqali qo‘lga kiritiladigan ilmning natijasidan shod-u xurramlik sifatida tushuniladi.

[3] **Shamshod** — kichik va xushbo‘y gulli, hamisha ko‘m-ko‘k yashnab turadigan xushqomat va chiroyli daraxt.

Paripaykar[1], sarvi ozod[2],
Dasta-dasta gulga o'xshar.

Ko'ksida uzra qo'sh anori,
Oq yuzida jo'ra[3] xoli,
Lablaridan oqqan boli
Shahd[4] ila shakkarga o'xshar.

Baland ko'p kibr-u havosi,
Rang-barang kiygan libosi,
Qo'liga qo'ygan hinosi
Xuddi qizil qonga o'xshar.

Maxtumquli, bo'lding xarob,
Topolmading yorni so'rab,
O'tirishing yo'lga qarab,
Yo'l topmagan ko'rga o'xshar.

FALAKNING

Bu foniy dunyodir, yo'q sobit ashyo,
Gar bo'lsa, sovurar qo'li falakning.
Ko'plar yig'ar yelib-yugurib dunyo,
Jonga bir jafodir moli falakning.

Ming tulki bir bo'richa hech vaqt bo'lmas,
Mardlar doim sarxush — jonda dard bo'lmas,
Nodon zoti der: vatanim yurt bo'lmas,
Men g'amgin-u hayron — loli falakning.

Qur'on ochib, elga kalom so'zlagan,
Kalom bois o'z niyatin ko'zlagan,

[1] **Paripaykar** — pari jussali, go'zal, chiroyli.
[2] **Sarvi ozod** — tik va baland sarv.
[3] **Jo'ra** — bu yerda: qo'sha.
[4] **Shahd** — bol, asal.

Haqqa g‘alat aytib, g‘alat izlagan,
Johillarda ul kalomi falakning.

Kimlar davralarda, kim o‘tda pishar,
Daraxt baland bo‘lsa, soyasi tushar,
Bir yo‘li uyiga barcha yetishar,
Shunday emish azal yo‘li falakning.

Ko‘plar yig‘lar — to‘la gunohga yo‘li,
Ko‘plar fikr aylar — turfa xayoli,
Jonga yara solsa, bo‘lmas dalili,
Kimga go‘zal husn-jamoli falakning.

Ko‘p yengiltak tul ko‘zingga go‘yo hur,
Egasiga hurar yomon it qurg‘ur,
Falak zahar-zaqqum berishda mashhur,
Zahar-zaqqum qand-u boli falakning.

Ko‘plar bir ilinjda har taraf yo‘rtar,
Tulki qachon bo‘ri ko‘ksini yirtar?
Mard dilida mudom nomus-or ortar,
Mard insoni betimsoli falakning.

Kimlar xato so‘zlar:
yomg‘ir yog‘masmish,
Kimlar der go‘yo marddan
mard tug‘masmish,
Majnun ummon ichra endi oqmasmish,
Tomosha aylanglar solin falakning.

Firog‘iy, aylanar falak gardishi,
Odamga yarashmas har qilgan ishi,
Kundan-kun boshimda ortar tashvishi,
Hayhot, ozibdimi fe’li falakning?!.

BAHOSIDA BILINAR

Qarg'a o'zin afzal sanar lochindan,
Har biri ov asnosida bilinar,
Eshak aytar: "Kam emasman bedovdan",
Qimmatida — bahosida bilinar.

Odam ko'zi to'ymas dunyodan zinhor,
Lof bilan topmaydi kishi e'tibor,
Har kimda bo'ladi turfa fe'l-atvor,
Fe'l-u so'zi qiyosida bilinar.

Nimalar tushmaydi odam boshiga,
Munosib bo'lmasa teng-u to'shiga,
Yigitni bilasan boqib ishiga,
Farqi osh-non — atosida bilinar.

Maxtumquli aytar: mazlum nolasi,
Olamda topilmas uning qiyosi,
Mazlumni qaqshatgan zolim bolasi
Qabrda tortgan jazosida bilinar.

O'TAR-KETAR

Ko'nglim, past tutgil o'zingni,
Foniy dunyo o'tar-ketar.
Pulsirotdan to'g'ri kishi
Juda oson o'tar-ketar.

Yaxshi so'z bilsang, ochaver,
Bilmasang, hushdan kechaver,
So'z yarasidan qochaver,
Tig' yarasi bitar-ketar.

Asli yot deb chekma jafo,
Tagi pastda yo'qdir vafo,

Har kishi bo'lsa besafo,
Obro'sini to'kar-ketar.

Yo'ldosh bo'lsang oqil bilan,
Xizmat qilar ko'ngil bilan,
Ishing tushsa johil bilan,
Tog'-u toshga otar-ketar.

Maxtumkuli, borsang bundan,
Xayr-u shar(r) so'rarlar sendan,
Shirin jon ayrilsa tandan,
Qum-tuproqqa botar-ketar.

KULGAN BORMI?

Ey azizlar, musulmonlar,
Yig'lamayin kulgan bormi?
Yolg'onchi — foniy dunyoda,
Ketib qaytib kelgan bormi?

Falak, kimlarni shod etding?
Kimni g'amdan ozod etding?
Bir nechalarni mot etding,
Sendan rozi bo'lgan bormi?

Kim vafo urug'in ekar,
Kim ajal zahrini chekar,
Kimni g'amdan ozod etar,
Sarg'aymasdan so'lgan bormi?

Bildim bu dunyo chog'ligin,
G'am-g'aflatda uyg'oqligin,
Xasta bo'lmasdan sog'ligin,
G'animatin bilgan bormi?

Dunyo ikki qirg‘oqdir:
Biri qora, biri oqdir.
Manzil ikki, yo‘l yiroqdir,
Uning fikrin qilgan bormi?

Maxtumquli, kelgan kechar,
Bu manzilda qo‘ngan ko‘char,
Yigitlik chirog‘i o‘char,
Bu so‘zimda yolg‘on bormi?!

BERMA FALAKKA

Charx o‘yini ma’lum butun jahonga,
Mening ixtiyorim berma falakka.
Ko‘ngil qushi uchib ketsa har yonga,
Muhtoj etma uni, yetkaz tilakka.

Faqir sodda bo‘lar, kosib so‘zamol,
Yetti ayyor bo‘lsa, biri xomxayol,
Boy manman, yolg‘onchi, ezma bo‘lar chol,
Chalib bo‘lmas sutni solib chelakka.

Birovga bosh bo‘lmoq ko‘p qiyin bo‘lar,
Ipak o‘g‘il-qizga zeb uchun bo‘lar,
Tul ko‘ziga kari nozanin bo‘lar,
Yana ko‘z tashlaydi ko‘rga, cho‘loqqa.

Teskari aylangan charxi falakdir,
Inson farzandining joni halakdir,
Yetmish ikki millat bo‘lak-bo‘lakdir,
Bu bo‘lakdin qo‘shma boshqa bo‘lakka.

Yo‘l ustida o‘lsam, yelga otsalar,
Roziman ustimdan bosib o‘tsalar,
Maxtumquli deya otim tutsalar,
Ko‘z ochilar shu so‘z kirsa quloqqa.

BORMI, AZIZLAR?

Ishq yo‘lin havas aylab,
Kelgan bormi, azizlar?
Dardimni bayon etsam,
Bilgan bormi, azizlar?

Bo‘libman mast-u shaydo,
Ming amal-u yuz savdo,
Olamda menday rasvo,
Bo‘lgan bormi, azizlar?

Ich-u tashim dard, tug‘yon,
Etarman nola-fig‘on,
Men kabi mast-u hayron,
Qolgan bormi, azizlar?

Foniy dunyoda yayrab,
Kezarsan kulib o‘ynab,
Ishq qozonida qaynab,
O‘lgan bormi, azizlar?

Ishq duch kelsa bir mardga,
Aylanar tuproq, gardga,
Men kabi o‘zni dardga,
Solgan bormi, azizlar?

Tob etolmay zulmga,
Yetdi holim o‘limga,
Yig‘lamasdan holimga,
Kulgan bormi, azizlar?

Maxtumquli, jon cheksa,
Rahm etmaslar yosh to‘ksa,
Ishqing yo‘lida yo‘qsa,
Tolon bormi, azizlar?

YIG‘LARMAN

Ey azizlar, umrimdan
Kechdi deya yig‘larman.
Ketdi aqlim — o‘rnidan
Ko‘chdi deya yig‘larman.

Ketgan qaytmas yo‘lidan,
Yomon kechmas fe’lidan,
Diyonat xalq qo‘lidan
Uchdi deya yig‘larman.

Hozir bizning zamonda
Yomon so‘zlar zabonda,
Zulm-zo‘rlik jahonda
Oshdi deya yig‘larman.

Yaramas, nobakorlar
Yuz til bilan aldarlar,
Qani, necha dildorlar.
Kechdi deya yig‘larman.

Necha sodda teng-to‘shlar,
Shayton yo‘liga boshlar,
Yuz o‘girib qardoshlar
Qochdi deya yig‘larman.

Ko‘ring falak o‘yinin,
Uzar olamning bo‘ynin,
Ne jononlar yer qo‘ynin
Quchdi deya yig‘larman.

Maxtumquli der mardga:
Dunyo — to‘siq, tan — parda,
Bir boshim sonsiz dardga
Tushdi deya yig‘larman.

DAVLATI — MOLI BO'LMASA

Mard yigitning oti chiqmas,
Davlati -- moli bo'lmasa.
Andishasi ish bitirmas,
Maydonda doli bo'lmasa.

Bo'lmasa yigit zuryodi,
O'lsa eslanmaydi oti,
Yonmaydi ko'ksida o'ti
Boshda xayoli bo'lmasa.

Olmas qushlar ovga chopmas,
Hunarsiz o'z aybin yopmas,
Ma'rakada joyin topmas,
Aqli — kamoli bo'lmasa.

Qo'nmoq go'zal yurtga yaxshi,
Gilam to'shak to'rda yaxshi,
Ul yigitlar go'rda yaxshi,
Boshi g'avg'oli bo'lmasa.

Maxtumquli, bo'lsa boshli
Uyalmas qilichli, oshli,
Tuzi o'tkir, yovi kuchli,
Do'sti vafoli bo'lmasa.

YOLG'IZNING

Og'alar, dunyoning poyoni bo'lmas,
Boshiga ish tushsa, tuqqani kelmas,
To'y-u ma'rakada hech ko'ngli kulmas,
Armon bilan kechar yili yolg'izning.

Ko‘zga ko‘rinmaydi yolg‘izning ishi,
Qo‘lida mol bo‘lmas, ko‘nglida xushi,
Bir kuni yostiqqa yetganda boshi,
Ko‘zida qonli yoshi to‘la yolg‘izning.

Yolg‘iz-yetim qayg‘u-g‘amdan qutulmas,
To‘y-u davralarda nomi tutilmas,
Uning uchun sira tashvish etilmas,
Qayg‘u-yu kulfatdir holi yolg‘izning.

Boyning o‘limi ham elga dostondir,
G‘arib o‘lsa, uning izi vayrondir,
Bu ishlarga aql-u hushing hayrondir,
Ko‘miladi shunday yo‘li yolg‘izning.

Maxtumquli, yolg‘on-yashiq so‘zlama,
Qusring bo‘la turib, xayr ko‘zlama,
Dardlash, bir chekkada yolg‘iz bo‘zlama,
El-u xalqdir do‘st-u yori yolg‘izning.

BEVAFOLARGA

Ko‘ngil berma sira bevafolarga,
Vafo ko‘rgan bormi bevafolardan?
Solma o‘zing behuda jafolarga,
Kim foyda topibdi bu jafolardan?

Ishq ovozasini eshit yiroqdan,
Ishq yo‘liga kirma qo‘rqsang firoqdan,
Ishq ichra topmasang chora, u choqda,
Bor, xabar ol ko‘rgan mubtalolardan.

Har so‘zim hikmatdir — quloq sol zinhor:
Quliman — kim yaxshi so‘zga xaridor,
Qirq o‘ynashli xotin yaxshidir ming bor
Munofiq erlardan — bevafolardan!

Kimga nasib etsa sharoban tahur[1],
Ko'ngli ko'zguday[2] sof, shaffof misli nur,
Dunyo yetti boshli yovuz ilon, ko'r,
Qochganlar qutulmas bu balolardan.

Yotma, Maxtumquli, ayshingni suyib,
Muncha yotajaksan kafaning kiyib,
Hojatin toparmi, xo'jasin qo'yib,
Umid etgan kishi qul — gadolardan?!

ER YONIDA BILINAR

Yaxshilikni past bilmas,
Er yonida bilinar.
Ko'rar ko'zning qimmati
Ko'r yonida bilinar.

Telba ko'ngil tayanchi,
Yo'q dunyoning ishonchi,
Sog' quloqning quvonchi
Kar yonida bilinar.

Agar cholsan, agar yosh,
Elga siring qilma fosh,
Sir saqlagan mahaktosh[3]
Zar yonida bilinar.

---

[1] **Sharoban tahur** — jannatda mo'minlarga ulashiladigan sharob. Bu sharobdan ichganlar Olloh taoloning diydoriga musharraf bo'lar ekanlar.

[2] **Ko'zgu** — ilohiy mazhar bo'lgan komil inson qalbi. Chunki oyina deganda, Ollohning zoti, sifatlari, ismlariga ishora qilinadiki, ularning barchasi komil inson qalbida aks etadi.

[3] **Mahaktosh** — oltin-kumushga surtilib, ularning asil yo soxtaligini aniqlaydigan tosh; sinov toshi.

Ushbu dunyodan murod —
Ot-u ayol-u zuryod,
Arvanadagi[1] quvvat
Nor yonida bilinar.

Bo'lsam qayg'udan xalos,
Qishim bahorga qiyos,
Maxtumquli, sidq-ixlos,
Yor yonida bilinar.

JONON BO'LARMI?

Telba ko'nglim, bir nasihat aylayin,
Jon chekmayin turib jonon bo'larmi?
Joyini topib so'z ayta olmagan,
Kishi hech zamonda inson bo'larmi?

Banda bo'lib, Haq amrini tutmagan,
Gavhar olib, bozorida sotmagan,
Ota-bobosidan beklik o'tmagan,
El qadrini bilgan sulton bo'larmi?

Odam bordir odamlarni bezdirgan,
Shayton bo'lib, to'g'ri yo'ldan ozdirgan,
Xotindek g'iybatda umrin to'zdirgan,
Kishining ko'nglida iymon bo'larmi?

Maxtumquli aytar: so'zlarim ko'pdir,
Agar xato qilsam, hech aybi yo'qdir,
Kitob ko'rgan kishi ma'nidan to'qdir,
Ma'rifatli qalbda shayton bo'larmi?

[1] **Arvana** — asil zotli tuya.

NOMUS-ORI KERAKDIR

Menman degan mard yigitning, azizlar,
Eng avvalo sevar yori kerakdir.
Undan keyin o'g'il-qizi bo'lsa xo'b,
Yana ot-u zulfiqori kerakdir.

Mushukdan sher chiqmas, go'har[1] nor bo'lmas,
Har tosh gavhar bo'lmas, misdan zar bo'lmas,
Erman degan har yaramas er bo'lmas,
G'ayrati, nomusi, ori kerakdir.

Dastur bo'lar yo'l o'rganish ustoddan,
Er murodga yetar jahd-u g'ayratdan,
Yigit bordir farqi yo'qdir avratdan[2],
Bilol[3] bo'lsa, xush guftori kerakdir.

FOSH BO'LMASSAN

Kel, ko'nglim, senga maslahat,
So'zlamayin fosh bo'lmassan.
Foniydir bu yolg'on dunyo,
Unda bir kun xush bo'lmassan.

Avval guldek dil xushlarsan,
So'ngra so'lib, ko'z yoshlarsan,
Ham tashlarsan, ham tishlarsan,
Bizdan uzoq hech bo'lmassan.

---

[1] **Go'har** — tuyaning bir turi.

[2] **Avrat** — inson tanasining yashirilishi kerak bo'lgan joylari. Bu so'zning xotin, ayol ma'nosi ham mavjud. Bu yerda shu ma'noda qo'llanayapti.

[3] **Bilol** — Abu Abdullo Bilol ibn Raboh al-Habashiy (vafoti 641) — islom tarixidagi ilk muazzin. Baland, shirali, ta'sirli ovozga ega bo'lgan. Asli habash, Makkada islomni birinchi bo'lib qabul qilgan qullardan. Bir necha yil Muhammad alayhissalomga muazzinlik qilgan.

Haq amri shudir, netarsan,
Sarobga o'xshab ketarsan,
Nima uchrasa yutarsan,
Bir dam bizdan bo'sh bo'lmassan.

Avval do'stday kuldirasan,
O'z ortingdan yeldirasan,
Bir kun xo'rlab o'ldirarsan,
Boqiy qarindosh bo'lmassan.

Maxtumquli, holingni bil.
Bu yurtda bir senmi oqil?
Haqqa bur yuzing, tavba qil,
Bundan keyin yosh bo'lmassan.

POYONI BO'LMAS

Ey dil, dunyodan kech, aylama havas,
Foniydir, hech kimga poyoni bo'lmas.
Jon qushi bulbul-u taning bir qafas,
Bir kun uchar — boqiy davroni bo'lmas.

Bir nechani shohlik bilan shod etdi,
Olam ichra shahriyor[1] deb ot etdi,
Ajalning dastidan bir kun dod etdi,
Ketdilar barisi — yurgoni bo'lmas.

Ins-u jinsga hukm etgan Sulaymon,
Iskandar-u Jamshid ham Anushervon[2],
Qani Haq habibi — ul faxri jahon?..[3]
O'tdi bari — sira gumoni bo'lmas.

[1] **Shahriyor** — buyuk shoh.

[2] **Anushervon** *(No'shiravon)* — odilligi bilan nom chiqargan sosoniylar sulolasidan bo'lgan Eron shohi. U Sharq xalqlari orasida adolat timsoliga aylanib ketgan.

[3] Bu yerda Muhammad alayhissalom ko'zda tutilmoqda. U zot Haq habibi — Ollohning do'sti va olamning faxri hisoblanadi.

Qoldi na Dorobing[1], na Shahriyoring[2],
Qani Gulchehradek[3] oq yuzli yoring,
Qani Shohsuvoring[4], oltin hisoring[5],
Hech birining nom-u nishoni bo'lmas.

Necha mursal kechdi, necha ming nabiy,
Necha ulug' kechdi, necha ming sabiy[6],
Hosil bo'lib hech birining matlabi
Foniy ichra boqiy qolgoni bo'lmas.

Kimni boy qildi-yu, kimni faqir, xor,
Faqirni ayladi boy qo'liga zor,
Ajal yeli essa, iloj yo'q zinhor,
Ketgusidir — yaxshi-yomoni bo'lmas.

Necha ming boy yig'ib mol-u dunyoni,
La'lu javohirdan bo'lib makoni,
Qoldi ortdan qasr-u ko'shk-u ayvoni,
Ketgan qaytmas — buning imkoni bo'lmas.

Ketadi dunyoga kelgan har inson,
G'ofilligi bois aldanar nodon,
Bor yiqqan-terganing qoladi, inon,
Olib ketgan mardi maydoni yo'qdir.

Qomati sarv kabi nozikbadanlar,
Olma yonoq, g'uncha dudoq sanamlar,
Kumush iyak, gul yuz, qoshi qalamlar,
Olamda xurram-u xandoni bo'lmas.

---

[1] **Dorob** — 1) kayoniylar sulolasining sakkizinchi hukmdori; 2) "Shahriyori olam" asarining bosh qahramoni.

[2] **Shahriyor** — Xisravi Parvez va Shirinning o'g'li.

[3] **Gulchehra** — "Shahriyor" dostoni bosh qahramoni Shahriyorning onasi.

[4] **Shohsuvor** — bahodir, mahoratli va hashamatli suvoriy. Bu yerda "Shahriyor" dostoni qahramonlaridan biri.

[5] **Hisor** — qal'a; qo'rg'on devori.

[6] **Sabiy** — bola, go'dak.

Do‘stlar, vafosi yo‘q foniy dunyoning,
O‘lguncha tark etma xayr-u ehsoning,
Ketgandan so‘ng yo‘qdir kelmoq imkoning,
Inon, bu so‘zlarning yolg‘oni bo‘lmas!

Oqil shudir, mayl etmasa dunyoga,
Sidq ila sig‘insa Qodir Ollohga,
Maxtumquli, bir surati zeboga –
Boqmagil, ularning poyoni bo‘lmas.

BO‘LA-BO‘LA KETARSAN

Qora qonlar yutib, hasratlar chekib,
Molga mashg‘ul bo‘la-bo‘la ketarsan.
Labing qimirlatib, yuraging yoqib,
O‘ylaysanki, birga ola ketarsan.

Muncha azob o‘g‘il-qiz, xotin uchun,
Muncha ishrat tuproq bo‘lar tan uchun,
So‘ngsiz pushaymonni, ikki kun uchun,
O‘z ustingga ola-ola ketarsan.

Bo‘lma qunduz, silovsiningga mag‘rur,
Ajal egar taning bo‘lsa-da temir,
Qilcha jonga qisqa umringda, axir,
Muncha xizmat qila-qila ketarsan.

Molini istama hech baxil boyning,
El kezib, to‘ymaydi ko‘zi gadoyning,
Mo‘min bo‘lsang, qulligin qil Xudoyning,
Besh vaqt yodga sola-sola ketarsan.

Maxtumquli, o‘zingdan bo‘l boxabar,
Qayon borma, ajal yoqangdan tutar,
G‘amxona deb otang dunyodan o‘tar,
Senmi bundan kula-kula ketarsan?

NEGA YOTIBSAN?

Ey o'lkasi obod, mulkiga mag'rur,
Mulkning baqosi yo'q, nega yotibsan?
Ey iqboli bedor, davlati masrur,
Davlat vafosi yo'q, nega yotibsan?

Jon ipi omonat bir qil misoldir,
Nafsing pashsha bo'lsa,
mol xuddi boldir,
Dunyo bir seldir-u umring-chi soldir,
Ishonch — asosi yo'q, nega yotibsan?

Ulug' bir maqomdir Haq uchun toat,
Uyatga qo'yadi seni bu holat,
O'g'il, qiz, mol, xotin misoli ofat
Joningning balosi, nega yotibsan?

Falak toshlarini senga otibdi,
Zamin ajdarhosi rizqing yutibdi,
Ajal tez o'rog'in qo'lda tutibdi,
Bo'lib beparvosi, nega yotibsan?

Maxtumquli, ishim oh-u zoridir,
Bir komil insonning xaridoridir,
Dunyo oxiratning ekinzoridir,
Sen ekish asnosi nega yotibsan?!

YETARSAN

Kelgan kechar, qo'ngan ko'char, odamzod,
Yurgin, sen ham bir manzilga yetarsan.
Yaxshidir dunyoda qolsa yaxshi ot,
Bu dunyoga kelgan bo'lsang, o'tarsan.
Asling kimdir — yodga ol, g'ofil inson,

Ajal poylab yurar izingdan har on,
Kelgan kechsa, ekkan ko'tarsa xirmon,
O'rta yerda sen ne ishlar etarsan?

Jabr etma, qiynamagin bu joning,
Qo'lga kirmas kalavasi jahonning,
Ehtiyot bo'l, qadam qo'ygan zamoning,
Dunyo — botqoq, bo'g'zinggacha botarsan.

Ilhom keldi, haddan o'tdi, so'z oshdi,
Bu yo'llardan to'g'ri yurgan tuz oshdi,
Umringdan to har kecha-kunduz oshdi,
Har tongiga bir kuningni sotarsan.

Oltin-kumush, shohi-ipak bo'lar dom,
Oxiratning yo'lin to'sarlar mudom,
Bu bozorni qizdirding, charx, tong-u shom,
Chunki ma'lum — bu savdoda yutarsan?!

Umring o'tar, tushib kibr-u havoga,
Qiyomatda qolsa abad jazoga,
Ishonma hech bu omonat dunyoga,
Bor, bor deya yo'q bo'larsan, yitarsan.

Maxtumquli, boshingda yuz o'y bordir,
O'zga manzil, o'zga makon, joy bordir,
Qabr otlig' tor, to'shaksiz uy bordir,
Ul uy ichra to qiyomat yotarsan.

SHOHLAR QOLMASLAR

G'am chekma, g'arib odam,
Beklar, shohlar qolmaslar.
Azim-azim shaharlar,
Oq o'tovlar qolmaslar.
Qolsa so'zdan shirin til,

Jon javhardir, tan bir kul,
Ming bir maqomli bulbul,
Buyuk tog‘lar qolmaslar.

Yetibdi shunga aqlim,
Yiqilar yetti iqlim,
Yer bo‘lar tilim-tilim,
Erir — tog‘lar qolmaslar.

Haqdan yetishsa farmon,
Ne chora bor, ne darmon,
Osmon, quyosh, oy larzon,
Ham yulduzlar qolmaslar.

Na yer qolar, na yurtlar,
Na turk qolar, na kurdlar,
Na qush qolar, na qurtlar,
Parrandalar qolmaslar.

Na gard qolar, na gardon[1],
Na mard qolar, na mardon,
Fil-u pashsha, karkidon,
Darrandalar[2] qolmaslar.

Maxtumquli, yosh surgan,
Og‘ir zamonlar ko‘rgan,
Lim-lim to‘lib mavj urgan
Shu daryolar qolmaslar.

---

[1] **Gardon** — bu yerda: aylanuvchi falak.

[2] **Darranda** — yirtqich, vahshiy hayvon.

O‘LMASDAN BURUN

Sog‘liging qadrini bilgil xasta bo‘lmasdan burun,
Xastalik shukrini qilgil toki o‘lmasdan burun,
Bo‘z yer qadrini bilgil suvga to‘lmasdan burun,
Kemada hushyor o‘tir girdob kelmasdan burun,
Yoshliging qadrini bilgil katta bo‘lmasdan burun.

Ulg‘ayib, ko‘nglingdadir yolg‘onchi dunyo sevgisi,
Ko‘z go‘zallarga qarab, seni gunohga qo‘ygusi,
Tarqatib g‘iybat tiling, yolg‘on-u loflar degusi,
Xotiring aylar parishon uylanishning qayg‘usi,
Ne ajab xushhol eding o‘zingni bilmasdan burun.

Haq mudom yodingda to ishlar yomon holda ekan,
Eslamas Haqni sira inson xush ahvolda ekan,
Behuda o‘tkazma umring, fursating qo‘lda ekan,
So‘ldirar essa xazon yeli seni gulday ekan,
Gulni yodingdan chiqarma toki so‘lmasdan burun.

To‘lishib aqling, kezarsan ko‘p el-u bo‘stonni sen,
Istading etmoq tasarruf bosh-oyoq Eronni sen,
Yemading bir dam xotirjam Tangri bergan nonni sen,
Bilmasang yaxshi bilib ol: bu jahon mehmoni sen,
Bog‘la yukni toki karvon yo‘lni olmasdan burun.

Qolmamish bu ko‘hna dunyo Rustam ila Zoliga,
Bo‘lma mag‘rur ikki kunlik oziq-ovqat, molingga,
Almashar Haq orifi dunyo ipagin sholiga[1],
Tur sahar, Maxtumquli, yig‘la bugun o‘z holingga,
To qiyomat kunida terlab, uyalmasdan burun.

[1] **Shol** — jundan to‘qilgan mato, shunday matodan tikilgan kiyim.

YETMAYIN QOLMAS

Ixlos bilan komil pirga qo'l bergan
Yetar bir manzilga — yetmayin qolmas.
Daryolarda suzgan, cho'llarda yurgan
Dam hisobin tugal etmayin qolmas.

Toki kelding bu yolg'onchi jahonga,
Oyoq ostigamas, boqding osmonga,
Falak bozorida yeganing nonga,
Odam o'g'li umrin yetmayin qolmas.

Hamdardim yo'q borib sirim ocharga,
Dardim olib, dil o'tin o'chirarga,
Dunyo bir manzildir kelib-kecharga,
Bu manzilga kelgan ketmayin qolmas.

Charx tomosha qilar osmonga chiqib,
Odamzod mol uchun yuragin yoqib,
Dunyo ajdarhosi o'tli dam chekib,
Jumla jondor tuxmin yutmayin qolmas.

Maxtumquli, bu dunyoning davlatin
Kelgan ko'rar — chekar o'lim zahmatin,
Mudom yuritarlar ajal sharbatin,
Bu sharbatdan hech kim totmayin qolmas.

O'TAJAKSAN

Odam o'g'li, o'zing bilmay,
Qadam-qadam o'tajaksan.
Haq amrini bajo qilmay,
Nafs xohishin tutajaksan.

Istarsan alamni olsang,
Qorundek ganj ichra qolsang,

Halol, harom — nima topsang,
Ko'zing yumib yutajaksan.

Qaydan kelding —
bildingmi hech?
Unutding Haqni erta-kech,
Ko'nglingga kelsa nima ish,
O'ylamay jahd etajaksan.

Asling nima — etgil nazar,
Tutgan ishingdan qil hazar,
Ajal senga yetsa agar,
Qani, ayt-chi, netajaksan?

Dunyo ishqni qattiq tutma,
Ishingni ko'r, bekor yotma,
Maxtumquli, hech unutma,
Ketajaksan, ketajaksan!

TISH KETSA

Taom lazzatsiz bo'lar
Gar og'zingdan tish ketsa.
Johil uchun yaxshidir
Mol o'rniga bosh ketsa.

Shayton yo'lin berk aylar,
Qora yuzing oq aylar,
Ming gunohing yo'q aylar,
Sahar ko'zdan yosh ketsa.

Pilta yo'qmi chiroqqa,
Nur socholmas yiroqqa,
Elin solar oyoqqa,
Oyoq qolib, bosh ketsa.

Yurma pastga zor bo‘lib,
Yotgan soz bemor bo‘lib,
Xush yaxshiga yor bo‘lib,
Bir yomondan tash ketsa.

Duch kelmaganlar g‘amga,
Shukr etmaslar bu damga,
Hurmat-obro‘ odamga,
Yaxshi kelib, xush ketsa.

Yomon til yo‘l yitirar,
Yaxshi rahmat ketirar,
Erga qayg‘u orttirar,
Qirqdan oshib, yosh ketsa.

Firog‘iy, dunyo bir tush,
Bilsang, tushning tagi bo‘sh,
Jahonda eng yomon ish,
Quruq kelib, bo‘sh ketsa.

HIJRON QAYSI, BILMADIM

Falak menga g‘am sharobin tutarkan,
Visol qaysi, hijron qaysi bilmadim.
Haq ishiga men tan berib o‘tarkan,
Orzu qaysi, armon qaysi, bilmadim.

Banda bo‘lsang, ko‘zla Haqning rizosin,
Jabr aylasa, chekavergil jazosin,
Ajal otsa qazo o‘qi — balosin,
O‘qi qaysi, kamon qaysi, bilmadim.

Bir suratman, boqmang, bu kun o‘zimga,
Orif bo‘lsang, quloq solgil so‘zimga,
Dunyo tubi yo‘q ko‘rinar ko‘zimga,
Davr qaysi, davron qaysi, bilmadim.

Qisqa umrim ko‘p savdoga sotibman,
O‘zim bilmay ul daryoga otibman,
Ne ummondir, ne girdobdir botibman,
Zamin qaysi, zamon qaysi, bilmadim.

Har kim kirsa ul girdobga, ummonga,
Boshin olib chiqa bilmas bir yonga,
Qadam qo‘ydim ul sahroga — maydonga,
Jon qaysidir, jahon qaysi, bilmadim.

Men dunyoni osmondagi rang bildim,
Avval qattiq ko‘ngil qo‘ydim, so‘ng bildim,
Endi uning bor-u yo‘g‘in teng bildim,
Foyda qaysi, ziyon qaysi, bilmadim.

Maxtumquli, yo‘lning oldi, orti bor,
Chekar yukin, har kishining mardi bor,
Yuragimda ishqning pinhon dardi bor,
Dard qaysidir, darmon qaysi bilmadim.

FE’LI BANDANING

Ey azizlar, harom ishga urmas qo‘l,
Agar yaxshi bo‘lsa fe’li bandaning.
Nopoklig-u yomonlikka bermas yo‘l,
Haqqa to‘g‘ri bo‘lsa yo‘li bandaning.

Umrin guli ajal yelidan so‘lar,
Dunyoda topgani yo‘qotish bo‘lar,
Jahannam o‘tidan bo‘yni qutular,
Haqni yod aylasa tili bandaning.

Go‘rga olib ketmas dunyo molidan,
Yuzi qora, javob kelmas tilidan,
Qiyomat kunida nolir qo‘lidan,
Zakotsiz yig‘ilgan moli bandaning.

Nafs o‘yinda ko‘ngil dunyo ko‘yinda,
Yo‘l yiroqdir, yuk og‘irdir bo‘yinda,
Oyog‘i talabda, qo‘li o‘yinda,
Ajal og‘zidadir beli bandaning.

Maxtumquli, kimki ishni pok etmas,
Oxiratning azobidan xavf etmas,
Zaif tani o‘t zarbiga tob etmas,
Yo Rab, qanday bo‘lar holi bandaning?!.

TOSHLAR BILAN

Ko‘ngil der: xalqdan uzilib,
Kezsam tog‘lar, toshlar bilan.
Gunohlarim esga olib,
Yuzim yuvsam yoshlar bilan.

Barcha bir ish bilan mashg‘ul,
Ko‘rib andishada ko‘ngil,
Tog‘ etagin tutib manzil,
O‘ltirsam og‘ochlar[1] bilan.

Qari dunyo quradi dom,
Inson xayol surar mudom,
Gap-so‘z, kurash bo‘lmas tamom,
Har kim yuz taloshlar bilan.

Duch kelishmas zabardastlar –
Ollohning ishqida mastlar,
Ko‘ngil parvoz etar, do‘stlar,
Tinmas yuz ilojlar bilan.

Ko‘p o‘ylar surib o‘tirdim,
Bilmadim, ne ish bitirdim,

[1] **Og‘och** — daraxt.

Gumroh bo'lib, yo'l yitirdim,
Topishdim beboshlar bilan.

Bekor qo'yma umr taxtin,
Uyg'ot uxlab yotgan baxtni,
Duo qilib sahar vaqti,
Nolish qilsam qushlar bilan.

Maxtumquli, tavfiq olsam,
Bir mard topib, xizmat qilsam,
Ko'ngil aytar: yo'ldosh bo'lsam
Oh urgan darveshlar bilan.

UCHOLMAYMAN, NAYLAYIN

Ko'nglim istar kezsam jumla olamni,
Qanotim yo'q, ucholmayman, naylayin.
O'qiyman Qur'on — ilohiy kalomni,
Ma'nosini uqolmayman, naylayin.

Ko'plar unda g'avvos[1] bo'lib suzarlar,
Menga oshkor, eldan pinhon kezarlar,
Shokosada qizil sharob ezarlar,
Qo'l uzatib, icholmayman, naylayin.

Uy tashidan may hidini no'sh qildim[2],
Ketdi aqlim, o'zim bilmay jo'sh qildim[3],
Sarmast[4] bo'lib, berk eshikka duch keldim,
Ruxsat bo'lmay ocholmayman, naylayin.

Yo'l yo'qotdim: tog' qaysi-yu tush qaysi,
Uqmas ko'nglim: ma'no qaysi, so'z qaysi,

[1] **G'avvos** — suzuvchi.
[2] **No'sh qilmoq** — ichmoq.
[3] **Jo'sh qilmoq** — g'alayon qilmoq, tug'yonga tushmoq.
[4] **Sarmast** — mast, sarxush.

Fahmim yetmas: yo‘l qaysi-yu iz qaysi,
Umid uzib, qocholmayman, naylayin.

Maxtumquli, bu dunyoning hammasin,
Yig‘ib-terib, yelga berdim nomusin,
Fikr daryosiga aqlim kemasin
Botirmishman, kecholmayman, naylayin.

JO‘SHGA YETDING

Bir kun otang ishq o‘ynab,
Pushtidan jo‘shga yetding.
Suvdan qonga aylanib,
Et bo‘lding — loshga yetding.

Hukm ayladi ul Xudoy,
To‘qqiz soat, to‘qqiz oy,
Barcha a’zo jobajoy,
Tanni ulashga yetding.

Berdi quloq, og‘iz, til,
Berdi ishq uchun ko‘ngil,
Berdi jon, yana aql,
Berdi ko‘z, qoshga yetding.

O‘sib — qo‘shilding elga,
Yurib — yetishding yo‘lga,
So‘zlading — tushding tilga,
Non yeding, oshga yetding.

Yettingda maktab ko‘rding,
O‘qiding, yo‘lga kirding,
Qiz bilan o‘yin qurding,
To o‘n to‘rt yoshga yetding.

Haq berganin yeb-ichding,
Har yo‘lga bir bosh qo‘shding,
Sevganingga yetishding,
Ishrat-u ayshga yetding.

Yigirma yoshga kelding,
Yigit bo‘lib yetilding,
Ot minding, qilich olding,
Jangga — kurashga yetding.

O‘ttizingda qoshingdan,
Tuman ketmas boshingdan,
Yigitlikning jo‘shingdan,
Sayr-u kezishga yetding.

Surding, dunyoni surding,
Oxir vafosin ko‘rding,
Qirq yoshga qadam urding,
Komilsan — hushga yetding.

Bir meva bermay bog‘ing,
Xazon urdi butog‘ing,
Ellikda sochda oqing,
Uyal, bir yoshga yetding.

Oltmishga yoshing yetdi,
Tashvishga boshing botdi,
Xurram kunlaring o‘tdi,
Bahor yo‘q, qishga yetding.

Haq deb qolding yetmishda,
Quvvating yo‘q hech ishda,
Qarilikda tashvishda,
So‘yla, ne ishga yetding.

Sakson ko‘rsatsa jamol,
Qanday kechar unda hol?
Umringga yetib zavol,
O‘roqsiz xo‘sha[1] yetding.

To‘qsonda yanglishar so‘z,
Qora ko‘rinar oq — bo‘z[2],
Qaqshar suyak, tinar ko‘z,
Yuz ming andeshga[3] yetding.

Maxtumquli, o‘tirding,
Umring yelga sovurding,
Haq deb ne ish bitirding,
Magar yuz yoshga yetding.

BIR-BIRIGA BEZANIB

Ey azizlar, mol-u dunyo havasi,
Ko‘rinmoqdir bir-biriga bezanib,
Yigit g‘urur, qiz karashma egasi,
Pahlavonlar maydon ko‘zlar yasanib.

Ajal o‘qin terib qo‘ymish kamonga,
Bilib bo‘lmas — qachon qasd qilar jonga,
Nega parvoying yo‘q yolg‘on jahonga,
Umring o‘z-o‘zidan ketmas uzanib.

Dunyo vujud uchun bir temir qafas,
Ajal sheri na’ra urar har nafas,
G‘aflat uyqusida seni qilib mast,
Qazo qilich tutib yurar kezinib.

---

[1] **Xo‘sha** — boshoq.

[2] **Bo‘z** — bu yerda: oq.

[3] **Andesh** — andisha.

Uyalmading Haqdan, oqardi soching,
Til g'iybatdan qolmas, haromdan tishing,
Xilvatda qilaver oxirat ishin,
G'ofil odam, yotaverma vaysanib.

Barcha odam ko'rar hisobli damni,
Taqdirning, ajalning yo'qdir malhami,
Maxtumquli, qolmas kamligi, kami,
Har kim bora bilsa iymon qozonib.

KETAR

Odam o'g'li, falak sening,
Bir kun to'ning bichar-ketar.
Senga urar xanjarini,
Jallod qoning sochar-ketar.

Kezma dunyoga mayl etib,
Behuda yerda sayl etib,
Avval qo'nganlarning o'tib,
Ko'z ochguncha kechar-ketar.

O'lsang seni kiming yodlar,
Kishnab qolar bedov otlar,
Uni mingan mard yigitlar
Qora tuproq quchar-ketar.

Dunyoning so'nggi barboddir,
Benamozning joyi o'tdir,
O'lim bir achchiq sharbatdir,
Har kim undan ichar-ketar.

Ko'ngil aytadir: o'lmasang,
Qabr ichra tanho qolmasang,
Tangriga to'g'ri bo'lmasang,
Iymon sendan kechar-ketar.

Maxtumquli, bu qanday joy?
Ajoyib bir karvonsaroy,
Lo‘li xotindir bu dunyo,
Bir kun seni quchar-ketar.

HAQ MANZIL ETDI JONGA

Yo‘q yerdan surat aylab,
Haq manzil etdi jonga
O‘tirding to‘qqiz oylab,
Kelguningcha jahonga.

Ochib doya quchog‘in,
Yozdi qo‘l-u oyog‘in,
Tutdi mehr bulog‘in,
G‘arib ota-yu ona.

Nafsing orom ettirmas,
Dunyo qochar — yettirmas,
Umring etak tuttirmas,
Bu hiylagar zamona.

Ishqim o‘ti urib jo‘sh,
Qoldirmadi aql-u hush,
So‘z bor: haddan oshar ish,
Ketsang bundan u yona.

Necha muddat yayrarman,
Bu jahonni naylarman,
Ayb aylamang, so‘ylarman,
Har so‘z kelsa zabona.

Maxtumquli, yo Jabbor,
O‘zing bo‘lgil madadkor,
Ko‘hna ishqqa yangi yor,
Dardim qilding bahona.

BIR SOAT BILAN

Umr besh kun, manzili uch,
Davroning bir soat bilan.
Yurar karvon, bog‘lanar ko‘ch,
Yotibsan farog‘at bilan.

Sen dema birov qo‘l kerar,
Oqillar bunda ish ko‘rar,
Johil fursat izlab yurar
Ishrat istab rohat bilan.

Nafs — kofir, shaytondir shum,
Ishlar qilar aylab hujum,
Qolarsan bir kuni mahrum,
Yurmoq xush qanoat bilan.

Jonni qiyna, nafsga ber hay,
Oxiratni o‘yla jinday,
Payg‘ambarga salovat ayt,
Umid qil shafoat bilan.

Banda bo‘lsang, odamzod bo‘l,
Jabbor demabdi: “Jallod bo‘l”,
Savob yig‘ib, bor, ozod bo‘l,
Uyalma xijolat bilan.

Odam o‘g‘li o‘zin bilmas,
Nafsidan o‘zga ish qilmas,
Rizqing zarra ortiq kelmas
Kezsang yuz xayolat bilan.

Maxtumquli der: ey yoron,
Xalq tutgan ishga men hayron,
Kechar fursat, o‘tar davron,
Mashg‘ul bo‘ling toat bilan.

EL BO‘LMAS

Har nokas deb jon chekmaging abasdir,
Himmati past senga sira el bo‘lmas.
Bo‘ston sayri har kishiga havasdir,
Har maysadan, har rayhondan gul bo‘lmas.

Xunasaning bo‘lmas sira ko‘ngli sof,
Mardning ishin ko‘rib, aylarmiz insof,
Belgisi: ko‘nglini tutgani shaffof,
Mard odam hech nomard bilan el bo‘lmas.

Boshingga kelganni bandadan bilma,
Agar odam bo‘lsang, behuda yelma,
Yaxshilarga ergash, ortidan qolma,
Bu yo‘lda sira tog‘ bilan cho‘l bo‘lmas.

G‘iybat bilan yuzing terisin shilma,
Shayton bilan nafsni sira do‘st bilma,
Ersan, Haq zikrini bir dam tark qilma,
Haq zikrini aytgan odam, bil, o‘lmas.

Maxtumquli, tushni qil yaxshi ta’bir,
Rozi bo‘l chekingga ne yozsa taqdir,
Odam bo‘lsang, qilma taqdirni tahrir,
Kishiga bu yo‘ldan yaxshi yo‘l bo‘lmas.

YO‘LDOSHING QOLAR

G‘ofil odam, ketar bo‘lsang,
Karamli yo‘ldoshing qolar.
Jallod kelib jon olganda,
Yig‘lashib qardoshing qolar.

Tanda mehmon aziz joning,
Qozongil nuri iymoning,
Supra yoyib, qo'ygil noning,
Bu dunyoda oshing qolar.

Jallod xanjarin solganda,
Azroil joning olganda,
Munkar va Nakir kelganda,
Boshda aql-u hushing qolar.

Ko'ngil qo'yma ko'p dunyoga,
Yo'ldan ozib, tushma chohga,
Umid etma bevafoga,
Tuproq xursand — loshing qolar.

Nomahram ko'rgan ko'zlaring,
Shu g'iybat etgan so'zlaring,
Bo'zlashar o'g'il-qizlaring,
Go'rga kirib, go'shing qolar.

Borsang iymoningni olib,
Ikki gaz bo'zga o'ralib,
Qora tuproqqa belanib,
Yer ostida boshing qolar.

Ajal keldi, navbat yetdi,
Kim ham bu dunyoni tutdi,
Maxtumquli, umring o'tdi,
Dod etib, sirdoshing qolar.

KETMADING, DUNYO

Bir aybing bor sening, aytsam yuzingga,
Hech kim bilan birga ketmading, dunyo!
Avval kelganlarga muhabbat qo'yib,
Keyingilarga mehr etmading, dunyo!

O‘zing ayt, xo‘sh, kimni barqaror etding,
Qancha mard erlarni xor-u zor etding,
Sulaymon taxtini tor-u mor etding,
Yusufni qul deya sottirding, dunyo!

Ne qilding sultonni, o‘ldirding xonni,
Shoh Kaykovusni-yu[1] Rustam-u Zolni,
Devlarga hukm etgan Sulaymon qani?
Ular bilan yo‘lga ketmading, dunyo!

Yigit maydon ichra boshin tik tutar,
Yigitga o‘q bilan yoylar otilar,
Bobo Umar qochdi, balki qutular,
Uni quva-quva sen tutding, dunyo!

Maxtumquli, sendan qo‘rqar yuragim,
Haq oldida qabul bo‘lsin tilagim,
Hasan, Husayn[2] Arsh-u Kursi keragim,
Karbaloda shahid sen etding, dunyo!

CHIQA BILMASSAN

Bu dunyoning g‘avg‘osiga bosh urma,
Ul g‘avg‘oga kirsang, chiqa bilmassan.
Shayton uy qurish uchun tosh urma,
Mahkam bo‘lgandan so‘ng yiqa bilmassan.

Qorningni to‘ldirma harom ne’matdan,
Tilingni saqla har turli g‘iybatdan,
Haq saqlasin mo‘minlarni tuhmatdan,
Bu og‘ir gunohni cheka bilmassan.

---

[1] **Kaykovus** — Erondagi kayoniylar sulolasining ikkinchi hukmdori, Kayqubodning o‘gli.

[2] **Hasan, Husayn** — Hazrat Alining o‘g‘illari, Muhammad alayhissalomning nabiralari. Xalifalik uchun kurashda Imom Husayn Iroq yaqinidagi Karbalo sahrosida umaviylar sulolasiga mansub xalifa Yazid qo‘lida shahid bo‘lgan.

Darveshlarni aziz tut, hech xor etma,
Mazlumlarni yig'latibon zor etma,
Yetimlarning molin olib, zo'r etma,
Qorning o'tdan to'lar, to'ka bilmassan.

Ishq daryosi jo'shib kelar saqqodan[1],
Ko'nglingni asragil yolg'on vaqodan,
Ajal kelib bir kun tutar yoqadan,
O'ngingga, chapingga boqa bilmassan.

Maxtumquli, fikr et: boqiy bir Xudo,
Oxirat ozig'in ayla muhayyo,
Toat et, hozirla o'zingga mos joy,
Rasulning yuziga boqa bilmassan.

ETAR

Do'stlar, bel bog'lamang ko'hna dunyoga,
Bu dunyo hiylagar — makr-u ol[2] etar.
O'zingni tashlab u daryo tubiga,
Olar joning,
so'zlar tiling lol etar.

Yaxshi so'zla bir musofir duch kelsa,
Xursand bo'lar so'zing unga xush kelsa,
Mard yigitga yomon xotin duch kelsa,
Sochiga erta oq solar, chol etar.

Komilning so'zidan jon bo'lar toza,
Beg'amning surati o'xshar to'ng'izga,
Bu dunyo aylanmish bir chirik xasga,
Ko'ring, odamzodni, ne xayol etar!

[1] **Saqqo** — suv tashuvchi, suv quyuvchi.
[2] **Ol** — makr, hiyla, firib.

Yigit bor, gaplashsang, cho'lning hayvoni,
Yigit bor, gaplashsang, jonning darmoni,
Yaxshi er-xotindan tuqqan kayvoni
O'ziga el xizmatini yo'l etar.

Nopisand ish chiqmas undan hech so'zda
Yaqin, begonani bilar bir ko'zda,
Ikki yov urishib qolgani kezda,
Yarashtirib, zahar og'zin bol etar.

Maxtumquli aytar, dunyoning ishi,
So'zning ma'nosiga yetmas har kishi,
Har kishining o'lsa tuqqan qardoshi,
Falak uning alif qaddin dol etar.

KECHAR, AZIZLAR

Sahar vaqti yotmang, tilak chog'idir,
Umr yeldek kelib kechar, azizlar.
Ajal — soqiy yurar qo'lida jomi,
Ul maydan xaloyiq ichar, azizlar.

Umr kelib kechar, besh kun davrondir,
Besh vaqt namoz Haqdan bizga farmondir,
Jon qushi bu tanda besh kun mehmondir,
Parvoz etib, bir kun uchar, azizlar.

Odamning aslini so'rsangiz loydir,
Yuz ming yil yashasang, oxiri voydir,
Bu dunyo, bilsangiz, ko'hna saroydir,
Xaloyiq karvondir, kechar, azizlar.

Hamisha Haq yodi bo'lsin so'rog'ing,
Safar etmoq kerak, tutgil yarog'ing,
Dunyoda har qancha yonsa chirog'ing,
Ajal yeli tegib, o'char, azizlar.

Bu dunyo, bilsangiz, hoy-u havasdir,
Oqibat o'larsiz, barcha abasdir,
Mo'min uchun dunyo misli qafasdir,
Qora yer barchani quchar, azizlar.

Sen ko'z yumgandan
so'ng qolgan zuryodlar,
O'g'il-qizing, barcha qilar hayhotlar,
Bo'yingga mos kafan bichar hayyotlar[1],
Oxirat uyini ochar, azizlar.

Firog'iy, haqiqat bilgil o'larni,
Chunki ko'rgan yo'qdir o'lmay qolarni,
Ollohning haqiqat sevar qullari
Dunyoning ko'rganda qochar, azizlar.

JON QOLMAGAY

Ey azizlar, musulmonlar,
Omonatdir, jon qolmagay.
Sog'likka yo'qdir hech ishonch,
Misoli mehmon qolmagay.

Birovlar uyg'onar ertan,
Birov bosh ko'tarmas yerdan,
Shaydo ko'ngil go'zallardan
Tish ketar, zabon qolmagay.

Baland tog'dan haybat ketar,
Yerlardan barakat ketar,
Rum[2] shahridan quvvat ketar,
Ustada do'kon qolmagay.

[1] **Hayyot** — bichiqchi.
[2] **Rum** — Onado'li.

Azroil yo‘l ochar bir kun,
Jon sharbatdan ichar bir kun,
Erdan davron kechar bir kun,
Ot o‘lar, maydon qolmagay.

Haqdan sira uzma ko‘ngil,
Shariatni suyanch deb bil,
Odam o‘g‘li, qolma g‘ofil,
Ko‘ch ketar, karvon qolmagay.

Benamoz, uchrarsan g‘amga,
Unda doding yetar kimga?
Bunda zo‘r bersang chilimga,
Jismingda iymon qolmagay.

Maxtumquli, budir iqror,
Haq yo‘lida turar chin er,
Kimning ortida o‘g‘li bor,
Kimdandir nishon qolmagay.

ALIF QADDING DOL BO‘LAR

Odam o‘g‘li, bu dunyoda kezarsan,
Bir kun sening alif qadding dol bo‘lar.
G‘ofil qolma, to‘g‘ri yo‘ldan ozarsan,
Bulbul kabi sayroq tiling lol bo‘lar.

Oxirzamon kelib, fitnalar tursa,
Zolimlar yomonlik majlisin qursa,
Pora ilinjida shohlar dam ursa,
Faqirlarga kunlik rizq mahol bo‘lar.

Yaxshi-yomon izzat etar boylarni,
Benavolar qilar oh-u voylarni,
Birov makon tutsa uzoq joylarni,
Hasrat bilan har bir kuni yil bo‘lar.

Har kimki shariat yo'lin bilmasa,
Olimlar so'zini ko'zga ilmasa,
Kishi qirq yoshda ham tavba qilmasa,
Uning ishi makr-u hiyla, ol bo'lar.

Kim uzoqqa tushsa yurtdan, vatandan,
Xabar so'rar har bir yo'ldan o'tgandan,
Termilib tilaydi hojat yetgandan,
Hojati bitmasa, bemajol bo'lar.

Kel, ey do'stim, chekma qayg'u-g'amni sen,
Ko'zingdan oqizma yoshni — namni sen,
Bu dunyoda g'animat bil damni sen,
G'am dastidan yigit kishi chol bo'lar.

Maxtumquli, nasihatlar tuzarsan,
Xaloyiqning yurak-bag'rin ezarsan,
Lekin o'zing to'g'ri yo'ldan ozarsan,
Rustam bo'lgan, bir kun piri Zol bo'lar.

DUNYODIR BU

Ey azizlar, musulmonlar,
Kelib-kechar dunyodir bu.
Qurbi yetgan mard yigitlar
To'kib-sochar dunyodir bu.

Hech kim topmas mangu o'rin,
Sog'likda to'kib-soch borin,
Shuncha yig'ib, netdi Qorun?!
Tashlab qochar dunyodir bu.

Yeysan mudom dunyo deb g'am,
O'lsang-da bir kun, ey odam,
Qattiq deb par to'shakni ham,
Yerni quchar dunyodir bu.

Zulm yog‘ar boshlaringga,
Zahar qo‘shar oshlaringga,
Har bir qilgan ishlaringga
Hisob so‘rar dunyodir bu.

Maxtumquli, o‘qib Qur’on,
Xudodan tilagil iymon,
Har yigit ketsa benishon,
Izi o‘char dunyodir bu.

G‘AM BILAN

Jannat bog‘larida xush-xurram kezar,
Dunyoda hamxona bo‘lgan g‘am bilan.
Na xalq bilan birga, na yolg‘iz yurar,
Darveshning ishi shu bu olam bilan.

Kimningki badbaxtlik tabiatida,
Butun olam ojiz tarbiyatida,
Kimning dardi tug‘ma, himoyatida
Afsun[1] o‘qib, ora kelmas em bilan.

Ilohiy dargohga kim xolis banda,
Muhabbati dilda, dardi jon, tanda,
Kim Olloh zikrini qilmasa kanda,
Ko‘ngli bo‘linmaydi bo‘lsa jam bilan.

Haq do‘sti kamaymas, ko‘hna jahondir,
Lekin jahon ichra do‘sti pinhondir,
Do‘st bo‘lganga bu ikki ish nishondir:
Yurak ishqdan to‘la, diyda nam bilan.

Davlating qushini qochirma qo‘ldan,
Yaxshilik istama befahm go‘ldan,

[1] **Afsun** — sehr, jodu, jodugarlik.

Uzilma til bilgan do'sti oqildan,
Saqlar obro'yingni u bir im bilan.

Do'stday ko'rinsa-da birga oningda,
Bir it bilib, tayoq saqla yoningda,
Bir kun bir dard o'tin yoqar joningda,
Hayotda topishib yursang shum bilan.

Firog'iy o'lgandir, sezmas essa yil,
Oy soya solsa-yu, kun nur sochsa mo'l,
Ilyos suv keltirsa[1], Xizr bersa qo'l,
Tirilmas puflasa Iso dam bilan.

CHOG'DIR BU CHOG'LAR

Sahar vaqti g'ofil yotmang, yoronlar,
Dargohlar ochilar chog'dir bu chog'lar.
Rahmatga yetishar bu vaqt eranlar,
Haq nuri sochilar chog'dir bu chog'lar.

Osiy bo'lma, qilaverma ko'p gunoh,
O'zni tani, kibrni etma hamroh,
Tavba qilib, O'zidan tila panoh,
Gunohlar kechilar chog'dir bu chog'lar.

Haq seni saqlasin hijron yelidan,
Adashmagil yo'lchilarning yo'lidan,
Muhabbat qadahi do'stning qo'lidan,
Hozir bo'l, ichilar chog'dir bu chog'lar.

Dunyoda yashasang ming yil aysh surib,
Tuproq bo'lar taning bir kuni irib,
Yo'qlik maydonida anjuman qurib,
Menlikdan qochilar chog'dir bu chog'lar.

[1] **Ilyos** — Ilyos alayhissalom. Bani Isroilda qurg'oqchilik boshlanganida uning iltijosi bilan ko'kda bulut paydo bo'lib yomg'ir yog'adi.

Maxtumquli, dunyo izidan ketding,
Yoshlik qilib, unda ko‘p o‘yin etding,
Endi o‘ttiz yoshlik manzilga yetding,
Ko‘z yoshi sochilar chog‘dir bu chog‘lar.

HAVASIDIR

Ey odamzod, fikri-zikring
Yolg‘on dunyo havasidir.
Hozir-ku sen shunga mastsan,
Bir kun dardga qo‘yasidir.

Bir kun yerga kirar boshing,
Unutar qavm-u qardoshing,
Namoz-u ro‘zang yo‘ldoshing,
Tilda zikr-u sanosidir.

Poylasharlar o‘ngda, so‘lda,
Shayton yo‘l to‘sar bu yo‘lda,
Najot uyi, dilga dalda
Shariatning qal’asidir.

Bu jahonning sarmoyasi,
Rizq sababi, Haq soyasi,
Yer tirgagi, ko‘k poyasi,
Darveshlarning duosidir.

Kechar umr, o‘tar bu dam,
Ne yurarsan qadam-qadam,
Filni yo‘lga solgan odam,
Seni qurtlar yeyasidir.

Tog‘lar bordir, toshlar bordir,
Yozlar bordir, qishlar bordir,
Yomon, og‘ir ishlar bordir,
Boshga tushgan ko‘rasidir.

Maxtumquli, ishq maydondir,
Bu maydonga kirgan jondir,
Joning ham tanda mehmondir,
Bergan bir kun olasidir.

NIMASAN?

Seni sira ko'rmaganman, dildorim,
Qumrimisan, bulbulmisan, nimasan?
G'amgin ko'nglim xayolingda aldarman,
Bog' ichra qizil gulmisan, nimasan?

Qaroqchimi, yo sayyidmi, xo'jami,
Yo soqiymi, yo sharobmi, kosami,
Yo yilmisan, yo kunduzmi, kechami,
Yo oymisan, yo kunmisan, nimasan?

Yo mushkmisan[1], yo anqigan anbarmi[2],
Aytolmayman,
yo charxmisan, chanbarmi[3],
Yo daryomi, yo mavjmi, yo gavharmi,
Girdobmisan, to'lqinmisan, nimasan?

Oltinmisan, kumushmisan, zarmisan,
Yo Arshmisan, yo Kursimi, yermisan,
Yo yoqutmi, yo marjonmi, durmisan,
Chirog'misan, shu'lamisan, nimasan?

[1] **Mushk** — ohulardan bir turining kindigida hosil bo'ladigan qora rangli xushbo'y modda. Mushk beradigan ohular faqat Xo'tan, Xitoy va Hindistonda yashaydi.

[2] **Anbar** — ko'proq Hind va Tinch ummonlaridagi anbar balig'i (kashalot) ning oshqozon yoki ichagida hosil bo'ladigan mumsimon kulrang va xushbo'y modda.

[3] **Chanbar** — doira, halqa, aylana. Bu yerda: charx gardishi ma'nosida.

Maxtumquli, kech nomus-u oringdan,
Qo'l tort bu behuda kor-u boringdan[1],
Jahon ichra jilva qilgan yoringdan[2]
G'ofilsan — mast, shaydomisan, nimasan?!

KO'RDINGMI?

Nur kabi tovlanar qorong'i tunda,
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?
Bahor ayyomida, qiyomat kunda
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Anqo[3] kab "Huv!"
deb ko'kka uchgan qush,
Tun bo'yi zikr etar, kunduzi behush,
Ustida rido-yu[4] xirqa kiygan xush,
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Falak qon ayladi bag'rim firoqda,
Hamisha kezarman yor deb so'rokda,
Ka'ba atrofida, Shomda[5], Iroqda
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Haramda, Qipchoqda, Chin-u Mochinda,
Zamoyil o'rnida, Arshning ichinda,
Iqlim tegrasinda, falak burchinda
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

---

[1] **Korubor** — ishlar, mashg'ulliklar.

[2] Bu yerda ilohiy nurning dunyodagi barcha narsada namoyon bo'lishi — tajalli etishi ko'zda tutilmoqda.

[3] **Anqo** — Qof tog'ida yashaydigan afsonaviy qushning nomi; majozan: topilmas, nodir, yagona.

[4] **Rido** — ust kiyim, yopinchiq.

[5] **Shom** — Suriya.

Oshiqlar ohida, Qulzum bahrida,
Qubbat ul-islomda[1], Jayhun nahrida[2],
Sidra[3] sahrosida, Iso shahrida[4],
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Ali da'vo bilan chiqqan nafasi,
Qofdan Ka'baga yetdi Hazrat[5] sasi,
Ey Ahmad Yassaviy,
iqlim egasi,
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?[6]

Maskan tutmish yuksak togning burjida,
Alining mulkida, Iso o'rnida,
Yerning ortida-yu ko'kning qo'ynida,
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

Maxtumquli chekar yorning g'amini,
Kezib topa bilmas ro'yi zaminni[7],
Ey Jabroil otlig' Haqning amini[8],
Mening sohibjamolimni ko'rdingmi?

[1] **Qubbatul-islom** — islom gumbazi, qubbasi, toji. Buxoro, Balx kabi qator mashhur shaharlar shunday ulug'langan.

[2] **Nahr** — daryo.

[3] **Sidra** — yettinchi osmondagi daraxt.

[4] **Iso shahri** — Quddus.

[5] **Hazrat** — bu yerda: Muhammad alayhissalom.

[6] Mazkur she'r Muhammad alayhissalomga bag'ishlangan. Ma'lumki, Muhammad alayhissalom Arslonbob orqali Ahmad Yassaviyga Jabroyil alayhissalom jannatdan keltirgan xurmoni yetkazgan. Bu yerda shunga ishora qilinmoqda.

[7] **Ro'yi zamin** — Yer yuzi.

[8] **Amin** — saqlovchi, asrovchi. Jabroyil alayhissalomning laqabi.

BEKLAR

Mard bilan nomardning jangi teng kelmas,
Nomardlar urushda ziyondir, beklar,
Nomard mard yigitning qadrini bilmas,
Nomardning har ishi vayrondir, beklar.

Komil mard yigitlar haqingni yemas,
Dunyo molin bersang, nomardlar to'ymas,
Nomard maslahatga, kengashga ko'nmas,
Nomardning har ishi ayondir, beklar.

Bir otada yetti avlod bo'yi bor,
Bir nodonning yuz xayollik o'yi bor,
Mard yigitlar qayga borsa, uyi bor,
Nomardning o'z uyi zindondir, beklar.

Davlat boshga qo'nsa, do'st-yoring ko'rmas,
Qazo kelsa, bag'rin yerdan ko'tarmas,
Haqdan deya sira imon keltirmas,
Maxtumquli, shunday zamondir, beklar.

YELMISH BU DUNYO

Yo'qlik diyoridan borliq shahriga
Uch yuz oltmish kunlik yo'lmish bu dunyo.
Yurib-yurib bir chetiga yetishdim,
Ko'rsam mendan burun to'lmish bu dunyo.

Men o'zimni bu majlisga yetirdim,
Jahon tomoshasin ko'zga ketirdim,
Quloq solib, bir go'shada o'tirdim,
"Ber-ho-ber"mish, "Ol-ha-ol"mish bu dunyo.

Uning sifatini so'ylasam bir-bir,
Aytib berolmayman to'liq baribir,

Usti falak, osti yetti qavat yer,
Undan quyi tushsam, yelmish bu dunyo.

Aytar Maxtumquli: yor bo‘lsa Xudoy,
Uning birligiga sen qilgin parvo,
Tug‘ilgan kuning — to‘y, o‘lgan kun — aza,
Bosh-oyoq jang-u janjalmish bu dunyo[1].

NE FOYDA?

Karbalo dashtida quyosh qizdirsa,
Yoqqan yomg‘ir, oqqan seldan ne foyda?
Bulbul qafas ichra yosh to‘kib tursa,
Bog‘larda ochilgan guldan ne foyda?

Orif bo‘lsang, quloq bergil o‘gitga,
Bir yaproq chiqarmi qurigan tutga?
Faqir bo‘lib qolgan molsiz yigitga,
Xayrsiz boylarda puldan ne foyda?

Otning eng yaxshisi arg‘umoq bo‘lar,
Ko‘pkari chopilar, bayroqlar olar,
Toblanmagan otlar to‘zonda qolar,
Ustiga solingan juldan ne foyda?

Qulon[2], kiyik — ul Qorunga mol bo‘lsa,
Bahodirlar kuni Rustam, Zol bo‘lsa,
Qudrat bilan bir o‘tloqlik ko‘l bo‘lsa,
Mustahkam solingan yo‘ldan ne foyda?

Faqir — miskin bilan bir yerga ketsang,
Yodidan chiqarmas marhamat etsang,
Maxtumquli aytar: jahondan o‘tsang,
O‘g‘il-qiz, kelindan, moldan ne foyda?

[1] Bu she’r Zunubiyga ham nisbat beriladi.

[2] **Qulon** — yovvoyi eshak.

DARD YIG‘LAR

Ey azizlar, musulmonlar,
Yuragimda bir dard yig‘lar.
Bir boy o‘g‘lining qo‘lida
Shatranj[1] zorlanib, nard[2] yig‘lar.

Kelib-ketma bundan nomard,
Aqling shoshar, bo‘larsan mot,
Baland tog‘da yoqarlar o‘t,
Quruq yonar-u ho‘l yig‘lar.

Qiz ko‘rdim turkman ko‘chinda,
Mushku anbarlar sochinda,
Yaylovda, yilqi ichinda
Bo‘z qulun-u toylar yig‘lar.

Maxtumquli, so‘zim haqdir,
Haq so‘zga tan bergan yo‘qdir,
Mard yigitda o‘g‘il yo‘qdir —
O‘choq qolib, uylar yig‘lar.

YO‘LI YAXSHIDIR

Odamzod dunyoga bo‘larsan moyil,
Bilsang, oxiratning yo‘li yaxshidir.
Oqil bo‘lsang, oxirat deb g‘am yegil,
Ahmoqqa dunyoning moli yaxshidir.

Omonat jon chiqsa, ayrilar tandan,
Do‘stlik, fidoyilik yetmas hech kimdan,
Kufr, g‘iybat, yolg‘on so‘zlar odamdan
Odamlarning gungu loli yaxshidir.

---

[1] **Shatranj** — shaxmat.

[2] **Nard** — narda o‘yini.

Ey g‘ofil, ogoh bo‘l aqli yetgandan,
Qo‘ymay bunda, chiqardilar vatandan,
Tirikman deb g‘aflat ichra yotgandan,
Iymon birla yotgan o‘lik yaxshidir.

Haq haqida qursa mo‘minlar suhbat,
So‘zidan sochilar ilm-u ma’rifat,
Yomonlarni sira qilmaydi g‘iybat,
Mo‘minlarning shirin tili yaxshidir.

Haq yo‘lida ko‘zdan yosh to‘k har sahar,
Kufr-u manmanlikdan kechsang yarashar,
Shirin so‘zlab, ko‘ngling ayla munavvar,
Arining zahridan boli yaxshidir.

AMAL YOR BO‘LUR

Qo‘rqoqdan tug‘ilar yuraksiz o‘g‘il,
Mard nomarddan emas, marddan tug‘ilur.
Yigit ustozidan o‘rganib hunar,
Duosini olsa, ishi xayr bo‘lur.

Arabiy arg‘umoq maydonni ko‘zlar,
Yigit jasur bo‘lsa, urushdan so‘zlar,
Yov terisin shilar ot solgan kezlar,
Yarog‘i o‘q-u yoy ham shamshir bo‘lur.

Odobli bo‘l, tavozeni qil odat,
Har ikkisi bo‘lar umringga ziynat,
Ota-onangga et tun-u kun xizmat,
Duo olgan uzoq yashab, pir[1] bo‘lur.

Bo‘ri bo‘lmas tulki bilan shaqaldan,
Meva bo‘lmas eksang har xil niholdan,
Taqdirga ishonib, qolma amaldan,
Qiyomatda senga amal yor bo‘lur.

[1] **Pir** — qari, keksa.

Shohlik aylab, sursin besh yuz yil davron,
Ozgina aylansa bu charxi gardon[1],
Qasrin kishi qilsa misoli rizvon[2],
Ne foyda, egasi bir kun yer bo'lur[3].

DARDI DILIM SO'RMAGAN

Hamdard bo'lib, dardi dilim so'rmagan.
Ne bilsin bir ko'rib ketsa tashimdan.
Komil bo'lib, jon qulog'in bermagan
Anglay bilmas o'tgan ishni boshimdan.

Bilolmasman, nima bo'lar oqibat,
Bosh qo'shmadim bo'sh ishlarga ko'p fursat,
Yaratganni qilmasman hech malomat,
Yaxshi-yomon, har ne yoqsa boshimdan.

Ey haqorat bilan boqqan bizlarga,
Majoz[4] bilib, munkir bo'lma so'zlarga,
Halol luqma nur bag'ishlar ko'zlarga,
Xulosa qilaver non-u oshimdan.

Nafsni aldashga arpa noni bas,
Hech qachon tamani qilmagil havas,
Ko'ngil "Huv!" deb, ko'zlar ko'kni har nafas,
Xalos bo'lsam, deydi, usti-boshimdan.

Maxtumquli, dushman ko'nglini olib,
Ishim qilmaslikdir qahrini g'olib,
Ketdi yigitlikning bahori qolib,
Qutulmoq yo'q qarilikning qishindan.

---

[1] **Charxi gardon** — aylanuvchi falak.

[2] **Rizvon** — jannat, bihisht.

[3] She'rning oxiri yo'q.

[4] **Majoz** — o'zining tub ma'nosida ishlatilmay, biror munosabat va o'xshatish orqali boshqa ma'noda ishlatilgan so'z.

ELDAN UYALMOQ

Oshig'i azalman, bilsang, men senga,
Na adab qoldi, na eldan uyalmoq.
Iltifot etmading sira sen menga,
Aylamas bu ishni bir qora qalpoq.

Mendaylar ishqingda ko'pdir sen yorning,
Kunduz giriftoring, kechalar zoring,
Umrim xoki poying[1], jonim nisoring,
Bo'lsaydi vaslingga bir chora qilmoq.

Gar notavon bo'lsam, songa kirarman,
Cho'p-ustuxon bo'lsam, qonga kirarman,
O'lik inson bo'lsam, jonga kirarman,
Bo'lsaydi bazm ichra bir yodga solmoq.

Ohim uchqunidan un solib o'tlar,
Arshga qadar chiqdi aylabon dodlar,
Eridi tog'-toshlar, bo'ldi barbodlar,
Muyassar bo'larmi asliday bo'lmoq?!

Bandangman, gar desang:
"Berayinmi non?"
Berganing olaman, muhtojman har on,
Visol zavqi uchun so'rar bo'lsang jon,
Firog'iyga loyiq jon berib olmoq.

NE QILAY?

Ahli hol[2] bo'lsam, degayman, o'zga holni ne qilay?
Bu tuzalmas dard-u jismi bemajolni ne qilay?
Avvali zavq, oxiri hasratli molni ne qilay?

---

[1] **Xoki poy** — oyoq osti tuprog'i.

[2] **Hol ahli** — so'fiylar, oriflar.

Oqibat bo‘lsa o‘lim, bu bo‘sh xayolni ne qilay?
Bo‘lmisham zavq ahli[1], asbobi[2] malolni ne qilay?

Tushdi ishqing otashiga, qilcha jonim kuydi yor,
Xas kabi jismimni o‘tdan o‘tga solmoqda ne bor?
Boshda dardim behisobdir, g‘amda ko‘nglim beqaror,
Bu jahonda shu uchun xilvatni qildim ixtiyor,
Ixtiyorim bo‘lmasa, jang-u jadalni ne qilay?

Oy jamoling zavqidan ko‘nglimda o‘t, ey sarvinoz,
Ko‘p uzun vasl etagi — iqbol qo‘li yetmas biroz,
Yo‘l yirog‘-u xavfli, og‘ir ishq yuki, oz kuch-da boz,
Boshga tushgan ushbu mushkulga o‘zingsan chorasoz[3],
Iltifoting endi qil — o‘tgan mahalni ne qilay?

Har zamon, Maxtumquli, xalq ichra kezma lof etib,
Saqla g‘iybatdan tiling, yurgil mudom insof etib,
Botma ko‘p ayb-u gunohga, yur Xudodan xavf etib,
Xush libosi so‘filikning, kiy ichingni sof etib,
Bo‘lsa gar nopok ichim, bu eski sholni[4] ne qilay?

QARORSIZ ERDAN

Ko‘rgan sari ko‘ngil sovur
Sabrsiz-qarorsiz erdan.
Sadoqatli it yaxshidir
Uyatsiz-iqrorsiz erdan.

Aylanarkan davron, davr,
Yuz ko‘yga evrilar taqdir,

---

[1] **Ahlizavq** — ishq va iste’dod sohiblari.

[2] **Asbob** — bu yerda: 1) jihoz, anjom, kerakli narsalar; 2) iloj, vosita; 3) zeb-u ziynat.

[3] **Chorasoz** — chora topuvchi, madadkorlik qiluvchi.

[4] **Eski shol** — bu yerda: so‘fiylik xirqasi, jandasi.

Borgan sari do‘sti sovir
Qarib qolgan borsiz[1] erdan.

It zaring minnatin chekmas,
Befahmga so‘zim yoqmas,
Ko‘ngling istagan ish chiqmas
Non dushmani — korsiz erdan.

Har ko‘z saharda bedordir,
Yaratgandan ulush bordir,
Haq, payg‘ambar, xalq bezordir
So‘zi e’tiborsiz erdan.

Maxtumquli ma’ni sochar,
Har kim so‘z lazzatin ichar,
Bora-bora ko‘ngil kechar
Nomusi yo‘q, orsiz erdan.

SUHBAT YAXSHIDIR

Odam bo‘lsang, quloq solgil o‘gitga,
Olimlar oldida suhbat yaxshidir.
Otarmon-choparmon abjir yigitga,
O‘rni kelganida shafqat yaxshidir.

Hamroh bo‘lma sira yaramas bilan,
Najas bossang, burning to‘lar is bilan,
Gavhardan yasasang uzuk mis bilan,
Qimmati kamaymas, hurmat yaxshidir.

Zinhor qasd aylama yeydigan nonga,
Ko‘ngling xayrga bog‘la, sidqing — iymonga,
Ozor berma aslo bir musulmonga,
O‘g‘ri erdan bir to‘g‘ri it yaxshidir!

[1] **Borsiz** — mevasiz, hosilsiz.

Koshki odam bu dunyoga kelmasa,
Keldimi, davr-davron sursa — o'lmasa,
Qo'ldan kelar yaxshi ishing bo'lmasa,
Ko'ngil ichra yaxshi niyat yaxshidir.

Maxtumquli, qanday kechmasin ro'zg'or,
Haqqa shukr et, borma nomardga zinhor,
Yo'q davlatdan yaxshi bo'lsa bir hunar,
Ming hunardan zarra davlat yaxshidir.

NE BILSIN?

Umid uz o'zini bilmas odamdan,
Farosatsiz om-u xosni[1] ne bilsin?
Xayr kutma ichkilikboz beg'amdan,
Mayxo'r pok bilan iflosni ne bilsin?

Yomonga yaxshi so'z yoqmas — tashlanar,
Oqilning qasdiga johil kuchlanar,
It ovqatin yerga to'ksang xushlanar,
Tuproqni, tovoqni, tosni ne bilsin?

Butparast[2] qilsa ming ro'za-yu namoz,
Jannatga tushmaydi topib u e'zoz,
Momaqaldiroqdan taralgan ovoz
Karga ta'sir etmas — sasni ne bilsin?

Tingla so'zim — nor zarbini nor bilar,
Tillani mahaktosh aniqlar, bilar,
Ey azizlar, er yigitni er bilar,
Nomard yaxshi-yu nokasni ne bilsin?

Maxtumquli aytar: barcha so'zim haq,
Ammo bu haq so'zga tan bergan mard yo'q,

[1] **Om-u xos** — barcha, hamma; yuqori tabaqadagilar va oddiy odamlar.
[2] **Butparast** — butga sajda qiluvchi.

Ko‘zi bor aytmasa bu qora, bu oq,
Ko‘r bechora kumush, misni ne bilsin?

QO‘LDA BORI BO‘LMASA

Zamona shundaydir — ko‘zga ilmaslar
Har yigitning qo‘lda bori bo‘lmasa.
Tillaga teng so‘zin bir pul bilmaslar
Har kishining e’tibori bo‘lmasa.

Tan bir tor qafasdir, jon bir vahshiydir,
Tilga kelgan so‘zlar ko‘ngil naqshidir,
O‘tli, suvli do‘zax undan yaxshidir,
Har shaharning bir bozori bo‘lmasa.

Bekzodalar qoldi cho‘pon qahriga,
Tan qachon chidaydi ilon zahriga
Aylanar xaroba Lutning[1] shahriga
Har o‘lkaning hukmdori bo‘lmasa.

Johillarga to‘lib-toshgan bu jahon,
Bilmas bir balodir, bilgan misli jon,
Ul yigitlar odam tilli bir hayvon
So‘z uqmasa, ham iqrori bo‘lmasa.

Yigitga yo‘qchilik yomon balodir,
Teng-to‘shidan chetga chiqib qoladir,
Yomon qiliq do‘stni dushman qiladir,
Qurib ketsin, el darkori bo‘lmasa.

Har kimga ham Haq yaxshi yor bermagan,
So‘zi ohdir, ichini g‘am qamragan,

[1] **Lut** — payg‘ambar. Axloqi buzuq Sadum aholisi uning pand-nasihatlariga quloq solmay, o‘zini shahardan haydab chiqarmoqchi bo‘ladilar. Lut alayhissalom oilasi va iymonli kishilar hamrohligida shaharni tark etishi bilan shahar ostin-ustun qilinib, qavm ustiga sopol tosh yog‘dirilgan.

Yuz yil yashab, besh kun umr ko'rmagan
Har kimning munosib yori bo'lmasa!

Maxtumquli, Haqqa topshir o'zingni,
Har nomardga sarg'aytirma yuzingni,
Iltimosim tark ayla bu so'zingni,
So'z ne kerak, xaridori bo'lmasa?!

EHSON QAYSI, BILINMAS

Dardim ko'pdir diyorimdan, davrimdan,
Savob qaysi, ehson qaysi bilinmas.
Zolimlarning jafosidan, javridan,
Islom qaysi, iymon qaysi bilinmas.

Suhbatlarda Haq so'zini so'ylar yo'q,
Majlislarda bir nasihat aylar yo'q,
Halol qaysi, harom qaysi — farqlar yo'q,
Foyda qaysi, ziyon qaysi bilinmas.

Odamlarda intilish yo'q, ibrat yo'q,
Boylarda xayr-saxovat yo'q, himmat yo'q,
Xotinlarda hayo, qizda uyat yo'q,
Adab qaysi, arkon[1] qaysi bilinmas.

Kishining moliga ko'zin oldirar,
Hasad etib, ko'nglin kinga to'ldirar,
Bir-birini nohaq yerda o'ldirar,
Najot qaysi, omon qaysi bilinmas.

Maxtumquli, jon mehmondir, jism losh[2],
Yaxshining do'sti ko'p, yomon beqardosh,
Bu zamonda bosh oyoqdir, oyoq bosh,
Yaxshi qaysi, yomon qaysi bilinmas.

---

[1] **Arkon** — ikrom, odob.

[2] **Losh** — jonsiz gavda, murda.

TO‘KA BOSHLADI

Ko‘mildi daryolar, yiqildi tog‘lar,
Yetimlar ko‘z yoshin to‘ka boshladi.
Fohishadan bo‘lgan haromxo‘r beklar
Yurtni bir chetidan yiqa boshladi.

Jamoatsiz azon quruq bir sasdir,
Mullalar ilmi chin ilm emasdir,
Qozilarning ishi choy bilan nondir,
Bir buzuq nishona chiqa boshladi.

Eshonlari har eshikda topilar,
Mullalarga bo‘hton-tuhmat yopilar,
Avliyoman deya jo‘gi[1] so‘filar,
Qichqirib, falakka boqa boshladi.

Qiz-u juvonlari chiqar maydonga,
Sochlarini yozib tashlar har yonga,
Zinodan to‘ldirib pulni hamyonga,
Yasanib, zeb-ziynat taqa boshladi.

Sudxo‘rning dunyoda pul yig‘moq dardi,
Boylarning mollari zakotsiz erdi,
Tavba deng, ko‘zlarim bir yomon ko‘rdi,
Bir-birin begunoh yoqa boshladi.

Maxtumquli, boshga bog‘lab sallalar,
Och bo‘riday yo‘rtib necha mullalar,
Haloldan, haromdan yig‘ib g‘allalar,
Nima topsa, tinmay tiqa boshladi.

[1] **Jo‘gi** — lo‘li.

MURUVVAT YAXSHI

Odamzodga sira aytmang achchiq so‘z,
Faqir-u miskinga muruvvat yaxshi.
Baxilga yondashmang, kulib solmang ko‘z,
Hojat bitirmoqqa kifoyat yaxshi.

Yetimni ko‘rganda kulib tursin yuz,
Qo‘ldan kelsa, bering unga taom-tuz,
Bir g‘amgin uchrasa, bo‘ling shirinso‘z,
Beva-bechoraga himoyat yaxshi.

Yigit uldir — so‘zga aylasa amal,
Qo‘ldan kelmas ishga etmasa jadal,
Ollohning amriga qilmagin badal[1],
Bekka — ehson, shohga — adolat yaxshi.

G‘ariblik bir dardki, odam o‘ldirmas,
Valekin hayotda bir dam kuldirmas,
Bo‘riga aybini it ham bildirmas,
Albatta, dushmanga siyosat yaxshi.

Maxtumquli, shukr, shirin til berdi,
Nihollar ko‘karib, meva, gul berdi,
Go‘ro‘g‘li Rayhonga nega yolbordi,
Kimki sulh so‘rasa, diyonat yaxshi.

IKKI BO‘LSA AYOLI

Har kishining ikki bo‘lsa ayoli,
Kecha-kunduz ishi jang-janjal bo‘lar.
Har birining bordir yuz ming xayoli,
Yeb-ichgani zahar, badahvol[2] bo‘lar.

---

[1] **Badal** — evaz, biror narsaning o‘rniga, evaziga beriladigan haq yoki narsa, narsaning qiymatiga teng keladigan boshqa biror narsa.

[2] **Badahvol** — ahvoli yomon.

Birin sevib, birin aylasa nochor,
Elga rasvo bo‘lib, o‘z aybin ochar,
Aql-u hushi uchib, baridan kechar,
Teng tutmasa yorin, bekamol bo‘lar.

Goh tillari sayrar misoli bulbul,
Tomoshaga chiqar qo‘ni-qo‘shni, el,
Goho yerni mushtlar, goh yoqada qo‘l,
Erini ko‘rganda soqov — lol bo‘lar.

Achchiq qilib kelmas bo‘lma yoniga,
So‘z aytmasa har birining sha’niga,
Bunday er qo‘shilmas odam soniga,
Ikki xotin, bir er — uch ayol bo‘lar.

Maxtumquli, hech kim bilmas botinni,
Uylansangiz, qarab oling zotini,
Xudo ko‘rsatmasin yomon xotinni,
Odam o‘zin bilmay xomxayol bo‘lar.

OY-KUNINGIZ BOTMOQQA

Oltmish-u yetmishga yetgan so‘fiylar,
Oz qolibdir oy-kuningiz botmoqqa.
Cho‘l-darada it ko‘rmagan tulkilar
Xayol qilar yotgan sherni otmoqqa.

Qarg‘a deydi: “Menday lochin yo‘qdir, chin”,
Ming qarg‘a yig‘ilsa, bo‘lmas bir lochin!
Kaltakesak qarg‘ab quyoshni, keyin
Dam uradi ajdarhoni yutmoqqa.

Bir kiyikka yuz bo‘rsiq[1] ham yetolmas,
Shervachchani to‘qson tulki tutolmas,

[1] **Bo‘rsiq** — suvsarlar oilasiga mansub yirtqich.

Kaltakesak zoti ilon yutolmas,
Aql shart bularni anglab yetmoqqa.

Tavbani etmaslar yetmishda ham yot,
Aysh-u zino bilan yashaydilar shod,
Kofirlar ayladi Ka'bani barbod,
Munkir ketdi yog'ochlarin sotmoqqa.

Ko'ring bu zamonni: falak gardishi —
Mudom zulm aylamoq faqirga ishi,
Haq yo'lida to'g'ri yurgan darveshni
Qo'ymadilar o'z holiga yotmoqqa.

Yurak ayro tushdi sabr-u qarordan,
Yomon ishdir kek saqlasa er erdan,
Men bezor bo'libman bunday diyordan,
Roziman boshimni olib ketmoqqa.

Maxtumquli aytar: yomon ahvolim,
G'iybat qilar barcha, tersdir iqbolim,
Ka'badir niyatim, hajdir xayolim,
Ixlosim bor haj tavobin etmoqqa.

QOCHA BOSHLADI

Endi bildim ozganini zamonning,
Yomonlar yaxshidan qocha boshladi.
Tagi past kimsalar aslzodani
Mensimasdan to'rga ko'cha boshladi.

Bekor bo'ldi ko'pning qilgan namozi,
Olloh hech biridan bo'lmadi rozi,
Payg'ambar o'rnida o'tirgan qozi
Pora uchun qo'lin ocha boshladi.

Shohlarda qolmadi adl-u adolat,
Mufti bir pul uchun topar rivoyat[1],
Bu ishlarda belgi berar qiyomat,
Zolimlar tavbasiz o'ta boshladi.

Da'vogarlar turar sarg'aytirib yuz,
To'rasin topganning ranglari qirmiz,
Mazlum badaniga zolim solib iz,
Qamchisidan qonlar socha boshladi.

Mujtahid[2] so'ziga amal bo'lmadi,
Munofiqlar Yaratganni bilmadi,
So'fiylar piridan[3] ta'lim olmadi,
Dunyo uchun dindan kecha boshladi.

Bir to'da so'fiylar so'fiyman deydi,
So'ramay zolimlar taomin yeydi,
"Bizni yaxshi kishi desinlar", — deydi,
Har eshikda halqa qura boshladi.

Qartayib qolishdi biz ko'rgan yoshlar,
Oyoqqa aylandi biz ko'rgan boshlar,
Bemahal yuk bog'lab endi qardoshlar,
Oxirat yurtiga kecha boshladi.

Oqil kishi g'amda yuragin ezib,
Dardining darmonin so'roqlab kezib,
Zamonaning aynib ketganin sezib,
Fanodan baqoga ko'cha boshladi.

---

[1] **Rivoyat** — bu yerda: biror masala yuzasidan shariat qonunlari asosida chiqarilgan hukm, xulosa.

[2] **Mujtahid** — 1) intiluvchi, jiddu jahd qiluvchi; 2) Qur'on hukmi, hadis va ijmo' (aksariyat faqihlar fikri) asosida aqliy muhokama orqali mushkil diniy masalalarni hal qiluvchi; 3) diniy ilmlarda mujtahid darajasiga yetishgan olim.

[3] **Pir** — tariqat yo'lida muridga rahbarlik qiladigan ustoz.

Ne asl beklarning navbati o'tdi,
Gap tashuvchi haromiga so'z yetdi,
Dunyoda kim qolib, murodga yetdi?
Muhabbat chirog'i o'cha boshladi.

Qozi zoti bir javobda turmadi,
Kechalar uxlamay kitob ko'rmadi,
Shariat yo'lidan to'g'ri yurmadi,
Nafs uchun iymonsiz o'ta boshladi.

Maxtumquli aytar mudom yo'l tani,
Besh kun sinamoqqa yubordi sani,
Sendan burun o'tgan jononlar qani?
Har kim navbatida o'ta boshladi.

SOLAR QUSHIN ANGLAMAS

Tagi pastga beklik yetsa nogahon,
Ovlar ovin, solar qushin anglamas.
Shafqatsiz beklarga gar tegsa davron,
Fuqaroning ko'zda yoshin anglamas.

Bilgan to'g'ri yo'lga boshlar chin bilan,
Oqil yigit so'z boshlamas "men" bilan,
Nomard doim kengashar xotin bilan,
Mard xotin yo'l ko'rsatishin anglamas.

Marddan hojat so'rsang, deydi: "Xo'p bo'lar!"
Bir ehsondan yetmish balo daf bo'lar,
Qo'rqoqning kengashi uyda ko'p bo'lar,
Dushman ko'rsa, qilar ishin anglamas.

Haq yo'lida kimki xayr-ehson qilar,
Qiyomatda bir o'rniga o'n kelar,
Nomard dushman ko'rsa, qo'rquvdan o'lar,
Mard yigitlar to'rt-u beshin anglamas.

Maxtumquli bek yonida til boshlar,
Qilichi, g'ayrati bo'lgan el boshlar,
Mardning o'g'li yig'in ko'rsa, yo'l boshlar,
Nomard o'g'li teng-u to'shin anglamas.

OT YONIDA BILINAR

Eshak o'zin kam sanamas bedovdan,
Uning farqi ot yonida bilinar.
Bedov desang, barcha bedov bo'lmas teng,
Chin bedov jang maydonida bilinar.

Yoshligingda bilmas eding, bek eding,
Yomonga yoqmaydi so'zing, o'giting,
Orif bo'lsang, aslin so'rma yigitning,
Odobida, ikromida bilinar.

Bu jahondan to'ymas ko'zing — ser[1] bo'lmas,
Har tulkidan yo'lbars bo'lmas, sher bo'lmas,
Yigit desang, barcha yigit bir bo'lmas,
Mard yigitlar mehmonida bilinar.

Davlat qo'nsa mard yigitning boshiga,
Himoyatli eli kerak qoshida.
Yigit o'zin ma'lum etar ishida,
Qilichida, zabonida bilinar.

Maxtumquli, mazlumlarning ko'z yoshi,
Tog'larni yondirib, eritar toshni,
Mazlumga zulm etgan zolimning ishi
Mahsharda Haq devonida[2] bilinar.

[1] **Ser** — to'q.

[2] **Devon** — 1) hisob-kitob daftari; 2) mahkama.

YURGULIK BO‘LDI

Ey azizlar, musulmonlar
Zulm ichra yurgulik bo‘ldi.
Necha zahmat chekkan jonlar
Jafolar ko‘rgulik bo‘ldi.

Malomat ko‘p, gar keng jahon,
Orada kuydi shirin jon,
Ustimizda shafqatsiz xon,
Zulm tig‘in urgulik bo‘ldi.

Aynigan go‘klang xonlari,
Ko‘p ko‘rar bizning hollarni,
Qo‘ymay oldi bor mollarni,
Ko‘z tikib turgulik bo‘ldi.

Maxtumquli, ayama jon,
Bel bog‘la, kiy g‘azabdan to‘n,
Haddan oshdi bu zolim xon,
Oxir to‘r qurgulik bo‘ldi.

NUQSONGA KELGAY

Musulmonlar yovlashsa bir-biriga,
Davlat qaytib, dinlar nuqsonga kelgay.
Zulm aylab, bir-birin olsa asirga,
Falak bu ishlardan pushmonga kelgay.

Bir-birini qirish emas erlikdan,
Bu ish shaytondandir, balki ko‘rlikdan,
Adovat ayirar elni birlikdan,
Davlat qaytib, navbat dushmanga kelgay.

Ibratli ishlardan qoldi faqat nom,
Yomonlikning qo‘li balanddir mudom,

Jaholat kuchaydi, shariat badnom,
Zamon ixtiyori shaytonga kelgay.

Tingla, makon tutgan kishi cho'llarda,
Muruvvat kamaysa ulug' ellarda,
Xalqqa qahatchilik tushib yillarda,
Xastalik ko'payib, qasd jonga kelgay.

Musulmonsan, xabar olgin zuloldan[1],
Qochaver haromdan, izla haloldan,
Toshi og'ir-u yuk kam bo'lsa, bu holdan
Barakasi o'chib, osmonga kelgay.

Bir oqil so'zimni tinglagay balki,
Maqsadim nasihat aylamoq xalqqa,
Qozisi insofsiz, begi past o'lka
Yomg'ir yog'may, zamin fig'onga kelgay.

Gunoh ko'paytirish — shaytonning ishi,
Qahrin ichga yutish — Rahmonning ishi,
Ko'paysa har elning sarkori[2] — boshi,
Nizomi buzilib, vayronga kelgay.

Xudoyimning o'zi faqirga panoh,
Ul kimdir — bo'lmagay tilida sano?!
Qaysi mamlakatda ko'paysa zino,
Zamin junbush aylab, larzonga kelgay.

Maxtumquli, tushsam so'zim sochmoqqa,
Anglamaslar, yuz tutarlar qochmoqqa,
Har el odat etsa sharob ichmoqqa,
Unda balo-qazo darmonga kelgay.

[1] **Zulol** — pok va halol ichkilik; majozan: jannatdagi Kavsar chashmasining suvi.

[2] **Sarkor** — ishboshi, boshqaruvchi, nazoratchi.

YAXSHIDIR

Savdogarlik qilib bozor kezgandan,
Olsang nasihatim, qimmat, yaxshidir,
Hotam kabi har kun oltin bergandan,
Ko'ngildan qilingan himmat yaxshidir.

Bir mard yaxshi qo'rqoqlarning yuzidan,
Jang vaqtidan otar dushman ko'zidan,
Har kim qaytar bo'lsa aytgan so'zidan,
Dinga munkir bo'lgan Yazid yaxshidir.

Xayr ishni tark etib, bad[1] ish ko'zlardan,
Do'stdan sir yashirib, qusur izlardan,
Xudoni unutib, yolg'on so'zlardan,
Jim o'tirishni qil odat yaxshidir.

Qodir Egam jismimizni bor etgan,
Beaqldir Haq ishidan or etgan,
Bemahal solingan buzuq ko'prikdan,
Do'zax ustidagi Sirot yaxshidir.

Besh farzni ado qil, mo'minman desang,
Oxiratni o'ylab, g'amini yesang,
Tiriklikda xayr qozonar esang,
Qabr ichra joying rohat, yaxshidir.

So'z ma'nosi chiqar bir yaxshi joydan,
Bexabarlar uzoq tushar Xudoydan,
Besh farzni bilmagan bexabar boydan,
Ersiz, pirsiz lo'li avrat yaxshidir.

Maxtumquli, ko'rding yaxshi-yomonni,
Yolg'onchining bo'lmas onti, iymoni,
Bir oq uyga[2] borsang, olmas mehmonni,
Har kimning o'z eli — ummat yaxshidir.

---

[1] **Bad** — yomon.

[2] **Oq uy** — o'tov, chodir.

OTI KERAK

Mard yigit istasa shuhrat,
Avval bedov oti kerak.
Kelganda qarshi chiqmoqqa
Yaxshi muhabbati kerak.

Mard kerak chekmoq uchun jon,
Ot kerak chiqmoqqa maydon,
Supra yoyib, to'kmoqqa non,
Ko'ngilning himmati kerak.

Umid uzgil xom xayoldan,
Senga foyda yo'qdir moldan,
Turmushing kechsa haloldan,
Oriflar suhbati kerak.

Yursang bandalik qilmoqqa,
Payg'ambar yo'lin bilmoqqa,
Darveshlar ko'nglin olmoqqa,
Qo'lida davlati kerak.

Maxtumquli, bir gadodir,
Barchaga panoh Xudoydir,
Agar miskin, agar boydir,
Kelganga xizmati kerak.

RAFTORIDIR

Yigitning ko'nglini olgan
Otning ko'rki, raftoridir.
Elga, ulusga[1] xush kelgan
Osh, qilich, er guftoridir.

[1] **Ulus** — el, xalq.

Ortingga boq, oldni ko‘zla,
Qahring yashir, xush so‘z izla,
So‘zlay bilsang yaxshi so‘zla,
Xalq yomonning bezoridir.

Dunyo sobit, umr qolmas,
Ajal kelsa, chora bo‘lmas,
Ne yuzlanar — odam bilmas,
Barcha ish Haqning koridir[1].

O‘tar davron, bermas fursat,
Jom tutganga qil muruvvat,
Bunda zolim sursa navbat,
Erta Haq g‘arib yoridir.

Men o‘zimcha so‘z demayman,
Rizq uchun hech g‘am yemayman,
Dunyoda bor ishdan yomon
Bir mo‘minning ozoridir.

Anglamas hech duch kelmasa,
Sirlasharga yor bo‘lmasa,
El-yurtda qadr qolmasa,
So‘z ham ko‘p dardga doridir.

Maxtumquli, sen dam-badam,
Oxirat sari ur qadam,
Yaxshi-yomon barcha odam
Ajalning giriftoridir.

ZO‘R BO‘LAR

Elga o‘zin yaxshilikda tanitgan
Duo olib, darajasi zo‘r bo‘lar.
Yomon bo‘lib, yaxshilikni unutgan
Nazardan qolar-u itdan xor bo‘lar.

[1] **Kor** — ish.

G‘amgin bo‘lar murodiga yetmagan,
Gunohkordir Haq amrini tutmagan,
O‘z rizqiga hech qanoat etmagan,
Kishi oshiga ko‘z tikar, zor bo‘lar.

Har kim yomonlasa teng-u to‘shini,
Mushkul etar o‘zi oson ishini,
Kim yo‘qotsa aqli bilan hushini,
Qilar ishin bilmas, sharmisor bo‘lar.

Zehni o‘tmas bo‘lar boshdan yangilgan[1],
Noiloj qoladi qo‘li tang‘ilgan,
Kurashda yiqilgan, jangda yengilgan,
Ichi to‘la nomus bilan or bo‘lar.

Mardlik, jasorati kam qahri ozning,
Shiddati past bo‘lar motamda sozning,
Uyiga borsangiz bir beniyozning[2],
Kayfiyati tushib, ko‘ngli tor bo‘lar.

Kim baloni sotib olsa boshiga,
Raqib hasad etib, bormas qoshiga,
Kim kirishib qo‘ldan kelmas ishiga,
Uddasidan chiqa bila, er bo‘lar.

Bir kun tavba qilmas adashgan, ozgan,
Qaynamas o‘t yoqqan bilan bo‘sh qozon,
Qayerda bo‘lmasin har fe’li yomon
Yomon oqibatga sazovor bo‘lar.

Hayotim gulini uribdi xazon,
Nazarin past tutar eldan qarz inson,
Badbaxt-u gunohkor, qismati yomon
To‘qnash kelsa, bir yomonga yor bo‘lar.

[1] **Yangilmoq** — yanglishmoq, adashmoq.

[2] **Beniyoz** — bu yerda: o‘ziga to‘q davlatmand.

Old-u ortda ko‘rsang birov g‘ulomin[1],
Undan ayamagin Tangri salomin,
Kim o‘qib, unutsa Haqning kalomin,
Qiyomatda ikki ko‘zi ko‘r bo‘lar.

Holi mushkul bo‘lar kuyib-yonganning,
Iymoni zaifdir harom yeganning,
Qasddan ro‘za, namozini qo‘yganning
O‘zi kofir, yotgan joyi tor bo‘lar.

Maxtumquli, so‘zla har ne bilganing,
Armondir aytilmay qolgan o‘laning,
Sayqallab elga tut dilga kelganin,
Sendan avlodlarga so‘z yodgor bo‘lar.

BOSH BO‘LMANG

Nasihat aylayin, tinglang yigitlar,
Xotinlar boshlagan to‘yga bosh bo‘lmang.
Ming nasihat aytsang, birisin olmas,
Og‘zi bir bo‘lmagan uyga bosh bo‘lmang.

Xalfana aylamang, yovlashib yurmang,
Halol savdo qiling, molidan urmang,
Halim bo‘ling, qattiq so‘zni xush ko‘rmang,
El, odamlar bilan g‘illu[2] g‘ash bo‘lmang.

Otang bo‘lsa, sira bo‘lmagil kafil,
Qadimiy maqol bu: “Kafillar safil”,
Men aytayin, tinglamasang, o‘zing bil,
Kuni bitib qolganlarga bosh bo‘lmang.

Nasihat tinglasang, erning erisan,
Nasihat olmasang, ko‘pning birisan,

[1] **G‘ulom** — qul, banda, xizmatkor, chokar.

[2] **G‘il** *(l)* — kek, adovat.

Solig‘ini o‘zing to‘lab yurasan,
Og‘zi ola qavmlarga bosh bo‘lmang.

To‘g‘ri yurgan, to‘g‘ri kezgan to‘q bo‘lar,
Bevaqt yurganga malomat ko‘p bo‘lar,
Umring bo‘yi yiqqan moling yo‘q bo‘lar,
Harom sevar yigitlarga bosh bo‘lmang.

Yomon bilan sira birga yurmanglar,
O‘ynab-kulib, birga bir joy bormanglar,
Bir kuni qasd etar, g‘ofil turmanglar,
Quda bo‘lib, balolarga duch bo‘lmang.

Maxtumquli, ko‘p savdoli boshing bor,
Umring uzun, yuzdan ziyod yoshing bor.
O‘zingni bil, o‘zgaga ne ishing bor,
G‘ofil yurib,
Haq yodidan tash bo‘lmang.

SEVAMAN SENI

Ey Habib[1], Haq rasulisan,
Chin jondan sevaman seni.
Darveshlar Qadr[2] kechasin
Sevgandek sevaman seni.

Sayr aylab bu jahonni,
Kezsan bosh-oyoq Eronni,
Xuddi Ibrohim Sorani[3]
Sevgandek sevaman seni.

[1] **Habib** — do‘st; sevimli. Muhammad alayhissalomning laqabi.

[2] **Qadr** — ramazon oyining 26-dan 27-ga o‘tar kechasi. Qur’oni karim shu kechada nozil qilingan. Bu kechada qilinadigan duo-yu iltijo tezda ijobat bo‘lar emish.

[3] **Sora** — Ibrohim alayhissalomning xotini.

Ya'qub yurt etdi Kan'onni[1],
O'g'lidir Misr sultoni,
Xuddi Yusuf Zulayxoni
Sevgandek sevaman seni.

Bu dunyoni tutdi oti,
Ulardir ishqning bunyodi,
Majnun Layli parizodni
Sevgandek sevaman seni.

Qazsa-da tog'ni urinib,
Topolmadi bir-birini,
Oshiq Farhod ul Shirinni
Sevgandek sevaman seni.

Asir etib dunyo moli,
Bo'lmadi ishqim kamoli,
Sayfulmuluk Mohjamolni[2]
Sevgandek sevaman seni.

Izlab muhabbat nishonin,
Kezib chiqdim har go'shani,
Yamanda Varqa Gulshohni[3]
Sevgandek sevaman seni.

Ketdi qo'ldan ixtiyori,
Qolmadi nomus-u ori,
Oshiq Navro'z Gul Farxorni[4]
Sevgandek sevaman seni.

Bir kun yo'liqdilar Xizra,
Yetdilar niyoz-u nazra,

---

[1] **Kan'on** — 1) Livanning miloddan avvalgi nomi; 2) Ya'qub payg'ambar hukmronlik qilgan mamlakat.

[2] "Qissai Sayfulmuluk" dostoni qahramonlari.

[3] "Varqa va Gulshoh" dostoni qahramonlari.

[4] "Gul va Navro'z" dostoni qahramonlari. Farxor — Gulning vatani.

Bir-birini Vomiq-Uzro
Sevgandek sevaman seni.

Kezdilar Rum dasht-tuzini,
Uzdilar Haqning qarzini,
Arizda Qanbar Orzuni[1]
Sevgandek sevaman seni.

Olmadi ular dunyoni,
Qolmadi yor-u yoroni,
Misoli Tohir Zuhrani
Sevgandek sevaman seni.

Bu dunyo qo'yibdir kimni,
Xush tuting besh kunlik damni,
Oshiq G'arib Shohsanamni
Sevgandek sevaman seni.

Maxtumquli, dunyo foniy,
O'tibdi Rustamlar, qani?
Oy-u kun, yer-u osmonni
Sevgandek sevaman seni.

YORNING YAXSHISIN

Qovunning yaxshisin shaqal yer bo'lsa,
Nomardga duch etding yorning yaxshisin.
Xudoyo, mol-davlat baxsh etar bo'lsa,
Podshohlarga berding zarning yaxshisin.

Benomusni darddan omon aylading,
Borar yerin majlis-makon aylading,
Turna, g'oz maskanin ummon aylading,
Hindiga baxsh aylab yerning yaxshisin.

[1] "Orzu-Qambar" nomli o'rta asrlarda yaratilgan romantik doston qahramonlari.

Aql shoshib, ko'ngil qalqar har bobda,
Asl gavharni band etding mahtobda,
Bedovni — forsda-yu tilni — arabda,
Ato etding uchqur norning yaxshisin.

Parilar o'ynagan ajab chog'larda,
Gul-u bulbul asir Eram bog'larda,
Viqor to'kib turgan toshli tog'larda
Makon aylab qo'yding qorning yaxshisin.

Shohlar yig'lar — ko'nglin g'amga esh etding,
Aqlin olding, ko'r aylading, losh etding,
Maxtumquli der, ne ajab ish etding,
Yomonga duch aylab erning yaxshisin.

FONIY JAHON KERAKMAS

Falak, menga mol berarsan, ul ganj-u kon kerakmas,
Go'zal yorimni ko'rmasam, foniy jahon kerakmas.

Boqqa kirib, naylayin, men anqigan anbarini,
Bulbulim asir qilibsan, go'zal rayhon kerakmas.

El-u yurtim xor-u zordir, kelsin davlat lashkaring,
Bizga din taklif etarsan, ajab, Qur'on kerakmas.

Bizning elning shoh-gadosi, falak, senga yuk bo'lar,
Har kim o'ziga sultondir, xon-u sulton kerakmas.

Bu zaminga titroq solib, ko'kni junbish aylading,
Oxirzamon sari yurding, mohitobon kerakmas.

El-u yurt boshdan-oyoq zavq-u safo aylar bu kun,
Kelmagin sen ham qo'shib bosh,
bizga mehmon kerakmas.

O‘zga narsa istamasmiz — umrimizni qil ziyod,
Bu ajoyib chog‘larimda ajal — paymon kerakmas.

Bino qilib bizlarni sen, charx ustida joylading,
Yaxshi charxning aylanishi, ammo sarson kerakmas.

Doim umrim o‘tkazayin bergan bahor faslingda,
Erk istagay gul-u bulbul — bizga xazon kerakmas.

Bu majlisning atrofidan nomardlarni uzoq qil,
Mard mast-u nomard xotin — bizga mokiyon kerakmas.

Baxsh etibsan har kishiga yaxshi-yomon bir gulni,
Ul gullardan o‘zga bizga sohibjonon kerakmas.

— Maxtumquli, sen so‘zlagil, — deydi mardlar majlisi, —
Sen baxshisan bu majlisda, o‘zga doston kerakmas!

KELGAN-DA BORDIR

Kunda u dunyoga ketsa yuz minglar,
Shuncha bu dunyoga kelgan-da bordir.
Yuz ming ahmoq bo‘lib ozsa yo‘lidan,
Yuz ming o‘zin yo‘lga solgan-da bordir.

Yuz ming darvesh ko‘ksin dog‘lab o‘tirar,
Riyozatda[1] belin bog‘lab o‘tirar,
Necha yerda ko‘rsang, yig‘lab o‘tirar,
Necha yerda beg‘am kulgan-da bordir.

Kezib chiqsang bu dunyoning to‘rt burchin,
Qorishgandir halol, harom, arvoh, jin,
Necha yuz ming ketar Haq yo‘lidan chin,
Necha yuz ming gumroh bo‘lgan-da bordir.

[1] **Riyozat** — tariqatga kirgan solihning kamolot kasb etish va Haqqa yetish yo‘lida chekadigan mashaqqatlari, ranj-u iztiroblari.

Aynigan zamonlar, fahmi yo‘q erlar,
Xaridor topilsa, sochardim durlar,
Qani u Sulaymon, Rustamlar, sherlar,
Demang, pisib qochib qolgan-da bordir.

Maxtumquli, dilga qayg‘u keltirma,
Bu bir ish vaqtidir, o‘zing yitirma,
So‘zim anglamaslar deb jim o‘tirma,
Jahon kengdir, chandon bilgan-da bordir.

KOR BILAN

G‘ofil odam, g‘or og‘zida yotibsan,
O‘tdi umring mayda-chuyda kor bilan.
Dunyo — ilon, sen yastanib yotibsan,
Tinch yotarmi kishi ajdahor bilan?!

Iymonli bo‘l, insofingni yutmagil,
Ko‘ra-bila o‘zing o‘tga otmagil,
Bedor yasha, g‘aflat bosib yotmagil,
Azob ichra yotajaksan go‘r bilan.

Qayon ketma, borar yering go‘r bo‘lar,
Savob to‘pla, go‘ring to‘la nur bo‘lar,
Yaxshi bo‘lsang, joying jannat, hur bo‘lar,
Yomon bo‘lsang, kuydirarlar nor bilan.

Ko‘zing yumsang, sendan ayrilar moling,
O‘lsang, eslamaydi tiriklar holing,
Yaxshi-yomon etgan barcha a’moling[1]
Qiyomatda kutib olar bor[2] bilan.

---

[1] **A‘mol** — amallar, ishlar, qilmishlar.

[2] **Bor** — bu yerda: meva, hosil.

Asli kofir musulmonga qotishmas,
Chin mo'minlar harom ishga botishmas,
Yo'li unmas, bir manzilga yetishmas,
Rahnamo deb, yo'lga kirgan ko'r bilan.

Umrga aldanma, o'tganga kuyunma,
Molingga quvonma, mulkka suyanma,
Bunda gunoh qilib, unda uyalma,
Hisob kuni xayring olib bor bila.

Maxtumquli, to'g'ri so'zga tan bergil,
Savob asli shudir — topsang, non bergil,
Ko'ngling topgan do'sting uchun jon bergil,
Ishing nima seni demas yor bilan.

BADNOM BO'LUR

Gar amirning, gar vazirning aqli qisqa, xom bo'lur,
Ul amirning nomi oxir el aro badnom bo'lur.

Oqil-u sohibkamolning ra'yi birlan tutgan ish,
Boshlagay ishni uzoqdan, intilishi kom bo'lur.

Istasang sarrishtasini[1] bu jahonning sarbasar[2],
Qo'l ochar, qahring yutar, fozili ayyom bo'lur.

Aylanib arbobga cho'pon, bo'lmish arboblar amir,
Bo'lmasa shohda itoat, eli-da nokom[3] bo'lur.

Deng salom Maxtumqulidan zulmi oshgan beklara,
Oy to'lar, yulduz o'char, rasvoyi xos-u om bo'lar.

---

[1] **Sarrishta** — 1) kalavaning boshi, ipning uchi; 2) daftar hisobi, ishning asosi; 3) biror masalani hal qilish yo'li; 4) oqibat, saranjom.

[2] **Sarbasar** — boshdan oyoq, butunlay.

[3] **Nokom** — maqsadga yetmagan, bebahra, nochor, mahrum, ma'yus.

OLAMA BELGILIDIR

Do‘stlar-o, do‘stim mening jondan shirin suygulidir,
Jon kabi pinhon jahonda, olama belgilidir.

Bosh bilan borsam men unga, bo‘lsa xurram ko‘chasi,
Tutsam ul yerda vatan, ul yerki, yorning yo‘lidir.

Deydi yor: “Men oshig‘im qatl etgum o‘z qo‘lim bilan”.
Undan avval xasta jonni g‘am aro qilgulidir.

Bo‘lsalar band o‘zga oshiq ahli zulfi toriga,
Men g‘aribning bandi ham oyog‘iy-u ham qo‘lidir.

O‘zgalar-la bazm etib, yor aylasa ko‘nglini xush,
Majlis ichra yod etib, deng: “Ul g‘arib qayg‘ulidir”.

Navbahor kelgay, o‘tar vaqt, g‘aflat ichra ko‘zlarim,
Ochayin desam ochilmas — ne og‘ir uyqulidir?!

Bilmaganlar so‘rsa, ayting bu g‘aribning ismini:
Asli go‘rkez, yurti Atrek, oti Maxtumqulidir.

YUZ JON, EY DO‘ST

Ko‘zimga sensiz aslo ko‘rinmas jahon, ey do‘st,
Ne jahon, balki tanda gar bo‘lsa yuz jon, ey do‘st.

Do‘stlaringga bu ishlar bevafolik emasmi?
Jonga jabring orttirding ochgancha zabon, ey do‘st.

Kimki ko‘rib yuzingni, bersa ko‘ngil sen yorga,
Jon bermay qutulmoqqa yo‘q unga imkon, ey do‘st.

Vaslingni umid etgan uzmish qo‘lini jondan,
Ko‘zing misoli jallod, qoshingdir kamon, ey do‘st.

Mazlumlarga lutf ayla — shudir hayot yo'rig'i,
Shavqing o'ti kuchayar etguncha omon, ey do'st!

Umidvor oshiqlarning vasl umidin o'ldirding,
Oshiqlarga jabr bundan bo'larmi yomon, ey do'st?!

Maxtumquli bir banda, men — oshig'-u sen — ma'shuq,
Agar desang "Ko'rgim yo'q...", borayin qayon, ey do'st?!

KETDI YO'Q JOYGA

Mol-mulkingga mag'rur bo'lma sira ham,
Ey, yo'q joydan kelgan ketdi yo'q joyga.
Bo'lar-bo'lmas ishlar uchun yema g'am,
Ko'plar kelib, botib qolmish bu loyga.

Ko'p aylanib-evrilmishdir bu yurtlar,
Ko'p dillarni o'rtab, yoqdi bu dardlar,
Yuz o'girdi bundan bir necha mardlar,
Bir nechalar bol deb, qoldi baloga.

Ey sen aqli tiyrak yigit, qani, kel,
Bir necha so'zim bor — jondan quloq sol,
Qayda darvesh ko'rsang, borib duo ol,
Darveshdan sevimli yo'qdir Xudoga!

Jahannamda yonar, bil, zakotsiz boy,
Darveshga ta'n etgan — shaytoni Xudoy,
Darvesh yerda daryo, yo falakda oy,
To'ng'iz daryo bulg'ar, it hurar oyga.

Uyqu joyi emas odamga dunyo,
Bir so'zim bor, kimki quloq solsa to,
Maxtumquli deydi: asrasin Xudo,
Yangi kelganlarni ko'hna saroyga!

OTAMNING

Oltmish beshda, Navro‘zda, baliq yili,
Ajal turib, yo‘lin to‘sdi otamning.
Bu dunyoning ishi shu asli-azal,
Umrining ipini kesdi otamning.

Mol-davlatga sira ko‘ngil qo‘ymadi,
Dunyoning aysh-ishratini suymadi,
Eski sholdan ortiq kiyim kiymadi,
Oxirat edi o‘y — qasdi otamning.

Derdi: “Dunyo foniy, umri boqiy yo‘q”,
Kunduz ro‘za tutar, tunlar uyqu yo‘q,
Munkir bilmas, muxlislarning shaki yo‘q,
Payg‘ambar edi hamdasti[1] otamning.

Bilmay gapirmayman taxminni chandon,
Maqsadiga yetar intilgan chindan,
Yarmisi malakdan, yarmisi jindan,
Do‘st-hamrohsiz bo‘lmas usti otamning.

Avliyo der: uch yuz eran uchrashdi,
Chiltanda otamga nazari tushdi,
Ulug‘ bo‘lib haftanlarga[2] qorishdi,
Abdollardir chin payvasti[3] otamning.

Olam ichra odam qolmas, ot[4] kezar,
Bu sirlardan jahon xalqi yot kezar,
Joni jannat ichra, ko‘kda shod kezar,
Yerda xushvaqt yotar jismi otamning.

---

[1] **Hamdast** — qo‘ldosh, madadkor.

[2] **Haftan** — yetti tan, ya’ni yetti kishi. Yetti kishidan iborat avliyolar guruhi.

[3] **Payvast** — payvand, yaqin, do‘st.

[4] **Ot** — bu yerda: insonning ezgu nomi ma’nosida.

Maxtumquli, pinhon siring bor ichda,
Komil topsang, xizmatin qil sarishta,
Qiyomatda beg'am kirar bihishtga,
Kimki chindan bo'lsa do'sti otamning.

YURAGING QON ICHINDA

Ko'ngil, ne ish bitirding, kelding jahon ichinda,
Qolding dunyo g'aminda, yuraging qon ichinda,
Obod deya qo'lingni cho'zding vayron ichinda,
Bu tuproq tan qolmagay javhari jon ichinda,
Tuproq bo'lib Rustam ham qoldi yakson ichinda,
Sen ularning qoshida yo'q hatto son ichinda.

Mol-dunyo deb choparsan to bo'g'zing ichra dam bor,
Dam bo'g'zingdan
chiqquncha boshingda ming bir g'am bor,
G'am ostida yotibsan — na dori, na malham bor,
Och ko'zing to'ldirishga bir hovuchgina qum bor,
Ey odamzod, jahonda sendan-da g'ofil kim bor,
Qushga, qurtga nazar sol — jumla farmon ichinda.

Ey do'stlar, u dunyoga borgan bor-u kelgan yo'q,
O'lik-tirik holidan yod-u xabar bilgan yo'q,
Charxi falak dastidan yig'lagan bor, kulgan yo'q,
O'ylab ko'ring, azizlar, eskilardan qolgan yo'k,
Bu dunyoning vafosi yo'qdir desam, yolg'on yo'q,
Dunyoga bel bog'lagan qoldi ziyon ichinda.

Yo Iloho, sen saqla qaroqchidan yo'llarda,
O'ngu so'lda choparlar yo'ling to'sib cho'llarda,
Ko'ngil dunyo ishqida, harom so'zlar tillarda,
Men bir ojiz bandaman, eng ojizi qullardan,
Ko'p gunohlar qildim men shu ozgina yillarda,
Uyat ichra qo'ymagin yaxshi-yomon ichinda.

Maxtumquli, fohisha dunyo aldar bezanib,
Ko‘ngling oldirma unga yoqish uchun tuzanib,
Sen rohatda yotibsan qo‘l-oyog‘ing uzanib,
O‘q-yoy bilan ortingda ajal yurar kezinib,
Mahshar kuni boraver iymoningni qozonib,
Quruq kelding, bo‘sh ketma oxirzamon ichinda.

TO‘LIB O‘TDI

Dunyo yasanib, boshima soya solib o‘tdi,
So‘z navbatida kosayi davron to‘lib o‘tdi,
U mag‘rib-u[1] mashriqni[2] tamoman olib o‘tdi,
Bir nag‘magari necha navolar cholib o‘tdi,
Majnunni ko‘ring, choki giribon[3] bo‘lib o‘tdi,
Laylini ko‘ring, g‘unchai xandon bo‘lib o‘tdi.

Bir nechalaring oshiga gar og‘u qotildi,
Taqdiri azalda uni shu xilda yozildi,
Mansur “Analhaq” dedi-yu, dorga osildi,
Mag‘rib qizining taqdiri Kan’onga qo‘shildi[4],
Yusufni ko‘ring, qul dedilar, qayda sotildi,
Oxirda, ko‘ring, Misrda sulton bo‘lib o‘tdi.

Dunyoyi falokat qo‘lidan dod ila bedod,
Aldar kishini jilva qilib misli parizod,
Fir’avn-u Yazid[5] o‘tdi, qani Namrud-u[6] Shaddod,
Xusrav o‘qidi necha g‘azal, bir necha abyot[7],

---

[1] **Mag‘rib** — g‘arb, kunbotar.

[2] **Mashriq** — sharq, kunchiqar.

[3] **Chokigiribon** — yoqasi chok.

[4] Bu yerda “Yusuf va Zulayxo” qissasiga ishora qilingan.

[5] **Yazid** — ummaviylar xalifasi (680–683), Muoviya ibn Abu Sufyonning o‘g‘li.

[6] **Namrud** — Ibrohim alayhissalomni o‘tga tashlagan zolim shoh.

[7] **Abyot** — baytlar.

Shirinni deya chekdi jafo oshig'i Farhod,
Tog'lar yuzini lola-yu rayhon qilib o'tdi.

Men g'amzadaning ko'kka chiqib bo'g'zidan ohi,
Rangimni somon qildi u husn ahlini shohi,
Jon o'lkasini buzdi u zolimni sipohi,
Sharhini qalam yozdi mukammal o'sha mohi,
Zebo bo'yiga kiygizibon xil'at[1] shohi,
Ba'zini ko'ring, holi parishon bo'lib o'tdi.

Hayf o'tdi umr, bolaligim — fasli guliston,
Hay-hay bu ne toqat edi, to'ti shakariston,
No'shiravon-u Hotami Toy, Rustami doston,
Go'zal parilar maskani bu shahri shabiston[2],
Ofat qari odamlar uchun qahri zimiston[3],
Bir ish ila har kimsa pushaymon bo'lib o'tdi.

Maxtumquli,
do'st tutma bu dunyoni, u — yolg'on,
Hozir kulasan, erta ishing oh-u pushaymon,
Oldingda sirot ko'prigi xavfi, yana mezon[4],
Sen etma jahon nafsingga hech aqlingni hayron,
Oxirda ajal qo'ymadi, ko'p yashadi Luqmon,
Ko'p bandalar uy-mulkini vayron qilib o'tdi.

BIR NECHA MISOL

Suhbatini olib Xizr-u Ilyosning,
Ko'nglim ichra keldi bir necha misol.

---

[1] **Xil'at** — ust kiyim, yopinchiq.

[2] **Shabiston** — tungi yotoqxona; xilvatxona, bazmgoh.

[3] **Zimiston** — qish.

[4] **Mezon** — tarozi. Bu yerda qiyomatda odamlarning savob-gunohi hisob-qilinadigan kun nazarda tutilmoqda.

Qo‘l ko‘tardim, turdim nazr-u niyozga,
Dedim: “Ruxsat bo‘lsa, qilayin savol”.

Dedim: “Mohiyati nima dunyoning?”
Dedi: “Yotsang — tush-u uyg‘onsang xayol”.

Dedim: “Yo Rab, dunyo nimaga o‘xshar?”
Dedi: “Qari xotin, yuzida yuz xol”.

Dedim: “Mol-u dunyo sevgisi nima?”
Dedi: “Bosh og‘rig‘-u oxiri zavol”.

Dedim: “Dunyo uchun bahs-u jang nedur?”
“Quruq baqir-chaqir, behuda janjal”.

Dedim: “Zamon ahli nima bilan band?”
“O‘g‘il-qiz g‘ami-yu yana yig‘moq mol”.

Dedim: “Bu sevgidan, moldan nima naf?”
“Yig‘mog‘i qayg‘u-yu ketmog‘i malol”.

Dedim: “Zamon ahli qaysi qavmdan?”
Dedi: “Bo‘ri-yu it, mushug-u shaqal”.

Dedim: “Qachongacha nafsim bo‘lar rom?”
“Ta’zirin yeguncha cho‘zilar bu hol”.

Dedim: “Banda jahdi berarmi foyda?”
“Haq qo‘llamasa naf bermog‘i mahol”.

Dedim: “Uylanganning holi ne bo‘lar?”
“Boshi aysh-u so‘ngi kulfat, bilib ol”.

Maxtumquli so‘zi durdir bilganga,
Aql-u hushing bo‘lsa, unga quloq sol.

DUSHMANDIR-DUSHMAN

Dunyo bir dushmandir, odamzod g‘ofil,
Moli-yu avlodi dushmandir-dushman.
O‘n sakkiz ming derlar jumla olamni,
Gunoh-u fasodi dushmandir-dushman.

Qul-u cho‘ring, moling, oting-eshaging,
Ot-yarog‘, asbobing, to‘ning, to‘shaging,
Xotin, bola-chaqa bo‘lmas tirgaging,
Dunyoning bor zoti dushmandir-dushman.

Birodarlar, boshim qurbon etsalar,
Jo‘mardlar och bo‘lib, ko‘zdan yitsalar,
Mol-u holsiz quruq otin tutsalar,
Yigitga shu oti dushmandir-dushman.

Dunyo bir saroydir, soz bilan suhbat,
Navkarga — kuch-quvvat, shohlarga — shavkat,
Boylarning boshiga bir kelsa davlat,
Keldi umrbode, dushmandir-dushman.

Ot qarisa, qolar to‘ydan, bayroqdan,
Bo‘ri tishdan qolar, burgut tirnoqdan,
Boylar past ko‘rinar qul, cho‘ridan ham,
Bandi-yu ozodi dushmandir-dushman.

Qora ko‘z bolalar bag‘ring butog‘i,
Joningga balodir xastasi, sog‘i,
Yigitlik gulshani ochilgan chog‘i,
Tegsa xazon bodi dushmandir-dushman.

Maxtumquli, haqiqatdan tuz so‘zing,
Sen bu ko‘zim deysan, ko‘nmas u ko‘zing,
Mosivoni[1] tashlab, qo‘ygil majozing,
Bir Haqdan o‘zgasi dushmandir-dushman.

[1] **Mosivo** — butunlay mahrum bo‘lgan, judo bo‘lgan, ayrilgan.

KO‘NGIL JO‘SHINDADIR

Ko‘ngil bir badan shohidir,
Har so‘z ko‘ngil jo‘shindadir.
Yetti iqlimning taxtida
Har biri bir ishindadir.

Tog‘larning chiqib-enishi,
Ko‘plarning ko‘chib-qo‘nishi,
Dunyoning og‘ib-do‘nishi[1],
Falakning gardishindadir.

Bu dunyoda bormi qolgan?
Menga chindir, sizga yolg‘on,
Bir oq-u bir qora ilon
Har kishining boshindadir.

Atrofi zumurrad toshli,
Norli, karkidon qardoshli,
Oltin taxtli, olmos tojli,
Ulug‘ beklar tashindadir.

Aylanar, kechar davronlar,
Nurar qurilgan ayvonlar,
Kunduz yorga oshna jonlar
Kecha yotsa tushindadir.

Uch hissasi dalli daryo,
Bir hissa yerda ming g‘avg‘o,
Kim bilarki, ko‘hna dunyo,
Yo Rab, necha yoshindadir?!

Maxtumquli qilar xayol:
Charx — yoy, ajal — o‘qqa misol,
Dunyo bir bevafo ayol,
Odamzodning qoshindadir.

---

[1] **Do‘nmoq** — aylanmoq, o‘zgarmoq, qaytmoq.

BIZ SARI

Qulzumni qulochlab, qirq yo‘l kecharman,
Agar moyil bo‘lsa ul yor biz sari.
Oyoq qolib, qanot bog‘lab ucharman
Dilbar desa: “Ey oshiq, yur biz sari!”

Qirq yil ta’zim qilib, qulluqda tursam,
Olti kuncha ko‘rmay oltmish yil yursam,
Shunday bo‘lsaki, bir ko‘rib jon bersam,
Yuzini ko‘rsatsa dildor biz sari.

Na munosib yuzim bordir tutarga,
Na borar yer bor bosh olib ketarga,
Umidim bor — qo‘ymay balo-batarga,
Eshik ochib, desa: “Kel, bir biz sari!”

Bir zotga duch keldim — qo‘lida sharob,
Joynamozi yeldan, suvdandir mehrob,
Egnida oq rido[1], yuzda ko‘k niqob,
Peshvoz keldi ajib bir er biz sari.

Hamroh bo‘lib, birga yurdim bir zamon,
Mardlar bilan to‘lib turardi maydon,
Bir ayvon ustida chorlab to‘rt yondan,
Dedilarki: “Qo‘lingni ber biz sari”.

“Firog‘iy!” — deb chaqirdilar, eltdilar,
“Qaydayding?” — deb qulog‘imdan tutdilar,
Suyaklarim oltmish pora etdilar,
Dedilar: “Mard bo‘lsang, kel, tur biz sari!”

Firog‘iy, joy emas dunyo turgali,
Besh kun ishrat qilib, davron surgali,
Qarorim yo‘q o‘tirgali, turgali,
Ochib turar og‘zini yer biz sari.

[1] **Rido** — ust kiyim, yopinchiq.

KAJDIR, AZIZLAR

Namozxon darveshlar, davlati boylar,
Falakning gardishi kajdir, azizlar!
Tama aralashgan namoz qabulmas,
Davlatga ishonmang, puchdir, azizlar!

Siqilsa burunlar, sarg'aysa yuzlar,
Qurisa lablar-u bo'lmasa so'zlar,
Ko'karsa tirnoqlar, oqarsa ko'zlar,
Iymondan o'zgasi hechdir, azizlar!

Asling bir hovuch xok, umring bir nafas,
Ishlaring o'zingga munosib emas,
Jasad bir manzil-u tan esa qafas,
Jon bir ko'zi bog'liq qushdir, azizlar!

G'ofil qolmang, kelgan dunyoga o'tar,
Quvonmang, oldda bor bundan ham battar,
Karvonlarning keti uzilmas, magar
Oxiri ko'rinmas ko'chdir, azizlar!

Ajal yoqang tutsa, o'rtanar bag'ir,
Ketgan qaytib kelmas — shu emish taqdir,
Manzillar uzog'-u yuklar ko'p og'ir,
Erta qo'zg'almasa, kechdir, azizlar!

Najot topqung — Haq yo'lida jon bersang,
Hulla[1] bo'lar bir g'aribga to'n bersang,
Soya bo'lar bir muhtojga non bersang,
Bir ochni to'ydirish hajdir, azizlar!

Bu dunyo deganing ikki varaqdir,
Yarmisi-yu qaro-yu yarmisi oqdir,
Bir kecha tush ko'rdim: ertasi yo'qdir,
Dunyoning timsoli tushdir, azizlar!

[1] **Hulla** — nafis matodan tikilgan bezakli kiyim, ipak to'n.

Maxtumquli, bo‘yin sungil bu amra,
Molga mashg‘ul bo‘lib, qolmagil gumroh,
Yuz yillik tadorik besh kunlik umra,
O‘ylab ko‘ring, qanday ishdir, azizlar?!

TO‘KIB BORADIR

G‘am tumani bosib g‘arib ko‘nglimni,
Ko‘z yoshin tutolmay, to‘kib boradir.
Bormi rahm aylagan so‘rab holimni?
Buzuq ko‘nglim uyin yiqib boradir.

Agar o‘t yoqsalar chiroq yog‘idan,
O‘lim ming bor oson do‘st firog‘idan,
Hijron quvdi meni sabr tog‘idan,
Firoq bandi-bandim so‘kib boradir.

Ostin-ustun qildi charx davr-davronim,
G‘am o‘tda kuydirib, qaqshatdi jonim,
Ishq otashi yoqdi — oshdi fig‘onim,
Yuragim bo‘g‘zimdan chiqib boradir.

Nafsimning ortidan yurdim har nafas,
Ko‘nglim qilib mudom yor yuzin havas,
Haqdan tilab orzu-umidim, xullas,
Ko‘zim ul yo‘llarga boqib boradir.

Maxtumquli, to holim bor so‘ylayin,
Do‘stlarga dardimni ayon aylayin,
Ey azizlar, yig‘lamayin naylayin,
Ishq meni yondirib, yoqib boradir!

OT ISTARMAN

Karam ayla, Qodir Olloh,
Dunyoda bir ot istarman.
Toleyim og'ir uyquda,
Bir ochilgan baxt istarman.

Yo'qchilik bir yomon yo'ldir,
Bu faqirning qo'lin to'ldir,
Bir kasb bilan halol rizq ber,
Kimyo[1] degan o't istarman.

Yolg'on dunyoda yurmoqqa,
Davlat ber ishrat surmoqqa,
Yaxshi yashab, kun ko'rmoqqa
Sakson yil fursat istarman.

Hoji Bektosh[2], Abdulqodir[3],
Xoja Ahmad[4], Imom Rizodir,
Faridun[5] bir avliyodir,
Ulardan himmat istarman.

Firog'iy, ishq ichra tushdim,
Daryo kabi qaynab-jo'shdim,
Xor bo'lmasin yetti pushtim,
Barqaror davlat istarman.

---

[1] **Kimyo** — al-kimyo: o'tmishda oddiy ma'danlarni oltin-u kumushga aylantirish yo'llarini izlagan ilm; bu yerda: oltin.

[2] **Hoji Bektosh** — bektoshiya tariqati asoschisi Hoji Bektosh Valiy (1208–1270).

3 **Abdulqodir** — qodiriya tariqati asoschisi Abdulqodir Giloniy (1077–1166). G'avs ul-a'zam (ulug' himoyachi) va piri dastgir (madadkor pir) nomlari bilan ulug'langan.

[4] **Xoja Ahmad** — Ahmad Yassaviy.

[5] **Faridun** *(Afridun)* — qadimgi Eronning peshdodiylar sulolasiga mansub oltinchi hukmdor. U adolat ramzi hisoblanadi.

GIRYON AYLADI

Qayg‘u-g‘amda aziz umrim so‘ldirib,
Shum falak azobim chandon[1] ayladi.
Yozgan kitoblarim selga oldirib,
Ortidan ko‘zlarim giryon ayladi.

G‘ofil qoldik — yov oldi ko‘p kishimiz,
To‘zg‘itdi har yoqqa teng-u to‘shimiz,
Besh yilda bir kitob qilgan ishimiz,
Qizilboshlar olib, vayron ayladi.

Bir nechamiz qo‘li bog‘liq qul bo‘lib,
Nechalar ortidan sarg‘ayib-so‘lib,
Kim qul bahosini berib, kim olib,
Har kimga tegishli baho ayladi.

Shafqatsizligini falak bildirdi,
Yig‘lamoqdan gul yuzlarim so‘ldirdi,
Qo‘lyozma kitobim selga oldirdi,
Dushmanimni Jayhun daryo ayladi.

Nechalar dunyoda qoldi bir o‘zi,
Nechaning qiyilib qoldi rizq-ro‘zi,
Nechan motam ichra kecha-kunduzi,
Tun-kun oh-nadomat ado ayladi.

Kuydirar shum falak jabr-u jafosi,
Yolg‘ondir, ishonmang, ahd-u vafosi,
Maxtumquli, yo‘q bu so‘zning xatosi,
Falak alif qaddim duto[2]ayladi.

---

[1] *Asliyatda:* raygon — muft, tekin. Biz uni “arzon” deb oldik.

[2] **Duto** — ikki bukilgan, egilgan.

YOMG‘IR YOG‘DIR, SULTONIM!

Seningdek Qodirdan tilak tilarman,
Karam aylab, yomg‘ir yog‘dir, Sultonim!
G‘aribman, g‘amginman, nola aylarman,
Karam aylab, yomg‘ir yog‘dir, Sultonim!

Yomg‘ir yog‘dir — bo‘lsin rahmat nishoni,
U — ekin hamkori, yerning darmoni,
Ey yer-u ko‘k, Arsh-u Kursi Subhoni,
Karam aylab, yomg‘ir yog‘dir, Sultonim!

Bulbullar mast bo‘lsin, uyg‘onsin olam,
Qayg‘ular daf bo‘lsin, sovurilsin g‘am,
No‘shirvon davridek el bo‘lsin xurram,
Karam aylab, yomg‘ir yog‘dir, Sultonim!

Rahmating eshigi Arshdan ochilsin,
Nuring butun yer yuziga sochilsin,
Tabiat poklansin, bu olam kulsin,
Karam aylab, yomg‘ir yog‘dir, Sultonim!

Olam taqdir ko‘zlar — Haqning farmoni,
Serob et — qolmasin dunyo armoni,
Sendan bitar dardlilarning darmoni,
Karam aylab, yomg‘ir yog‘dir, Sultonim!

Bechora bandaman — ne bordir manda,
Rahimsan[1], Rahmonsan — karam ko‘p sanda,
Karaming bo‘lmasa, qoldik darmonda,
Karam aylab, yomg‘ir yog‘dir, Sultonim!

Dargohingga urar bosh dardli qullar,
Munojot aylasa, ochilar tillar,
Yomonlik yo‘qolib, yayrasin ellar,
Karam aylab, yomg‘ir yog‘dir, Sultonim!

[1] **Rahim** — Olloh taoloning go‘zal ismlaridan biri: juda rahmli.

Maxtumquli ishqing aylar iroda,
Ishqingga noil et, qo'yma iroda,
Yetkazgil barchani maqsad-muroda,
Karam aylab, yomg'ir yog'dir, Sultonim!

AMIR BO'LADI

Yurtning egasi bo'lmasa,
Arboblar amir bo'ladi.
Uch yil sherga duch kelmasa,
Tulki, shaqal sher bo'ladi.

G'addor falak qoshiq solar,
Kimga berar, kimdan olar,
Hammaga ham navbat kelar,
O'lka tuzoq — to'r bo'ladi[1].

Sher ov qilar har choqda bir,
"Ovimga kim qo'l urar?" — der,
Filning burni ko'kda-yu, ko'r,
Kark[2] ko'rsa, xamir bo'ladi.

Inson yashab, to'ydim demas,
Ajalni hech kutgan emas,
Tulki sarqitin sher yemas,
Gar yesa, zahar bo'ladi.

Dard — yurakda bir o't bo'lar,
So'z — jahonda bir ot bo'lar,
Faqirga do'sti yot bo'lar,
Mol topsa, yot yor bo'ladi.

[1] Bu yerda Olloh jamoli nuriga bardosh berolmay Tur tog'ining yer bilan yakson bo'lganiga ishora qilinmoqda.

[2] **Kark** — karkidon.

Mard jangda naq to‘y ichida,
Och bo‘ridir qo‘y ichida,
Nomard qo‘rqar uy ichida,
Borsang zo‘r, botir bo‘ladi.

Matxtumquli, budir darding:
Egasi bo‘lsin har yurtning,
Ko‘rmasa bo‘ri sher zarbin,
Har murti[1] shamshir bo‘ladi.

YUZ TUTSANG

Duo qilsam, dargohga duch kelarmi,
Sahar turib, Bir-u borga yuz tutsang.
Ey Xudo, chin do‘sti hushvaqt bo‘larmi,
Bir dil bilan yuz hunarga yuz tutsang.

Sahar turib, nola qilsang Xudoga,
Quyoshga yukinib, yolvorsang oyga,
Davlat ilinjida boqsang humoga,
Ganj topay deb, ajdahorga yuz tutsang.

G‘arq bo‘lsang daryoga, duch kelsang dardga,
Tama qilib, yechma yuzingdan parda,
Sira umid qilib borma nomardga,
Ishing tushib, do‘st-u yorga yuz tutsang.

Nomarddan biror ish bita qolmagan,
Itdan birov suyak ola olmagan,
Tulki og‘ziga goh uvoq solmagan,
Yaxshi och bo‘lsa ham sherga yuz tutsang.

Maxtumquli, garchi baxting sho‘r bo‘lar,
Haq bir nazar solsa, davlat yor bo‘lar,
Dard-u g‘aming ketib, ishing zo‘r bo‘lar,
Kamolxon afg‘ondek erga yuz tutsang.

[1] **Murt** — mo‘ylov.

BOSH TIKAR

Ahmoq bilan sirdosh bo‘lsang bir soat,
Pinhon siring saqlay bilmay, fosh etar.
Bir bevafo yorga qo‘ysang muhabbat,
Ming bir g‘am bilan og‘zingdan tish ketar.

Tagi past ko‘tarmas bo‘lsa besh kun mast,
Kaltakesak o‘lik ilondan-da past,
Ayiqdan hech qachon chiqqan emas do‘st,
Qahri kelsa, senga tosh otmay netar?

Bedovni farqlamas har boqqan inson,
Jo‘mardni el tanir, odilni devon,
Otni maydon bilar, himmatni mehmon,
Mard dasturxon yozib, ziyofat etar.

Yigitning orzusi: mahbub, yarog‘, ot,
Uyatga qo‘yadi elni qo‘rqoq zot,
Ovulda jang bo‘lsa, nokaslar, hayhot,
Musht ko‘tarib, mardning boshiga yetar.

Maxtumquli aytar: yigitlar boshi,
Davrada ko‘p bo‘lar uning sirdoshi,
Jangda mardning bo‘lmaydi jon taloshi,
El nomusi uchun mudom bosh tikar.

SO‘ZIGA YETMAS

Bazm nash’asini bilmagan odam,
Fazilat ahlining so‘ziga yetmas.
O‘zi xunuk, xulqi yomon, muttaham
Parizodning etgan noziga yetmas.

Yaramasning so‘zi joningdan o‘tar,
G‘iybat qilib, o‘zi gunohga botar,

Yomonning ziyoni eliga yetar,
Nodonning foydasi o‘ziga yetmas.

Odam borki, shohlar etadi da’vat,
Odam bor, mazlumni qaqshatish odat,
Odam bor, qilmas par to‘shakka toqat,
Odam bor, pok qizning tiziga yetmas.

Qo‘rqoqning bo‘lmaydi nomus-u ori,
Jang chog‘ida qochib qolish shiori,
O‘n minglik qo‘rqoqning safi, qatori,
Mard ahlining olti yuziga yetmas.

Maxtumquli, tugar bir kun davring ham,
Lahad degan uyga qo‘yasan qadam,
So‘z, ma’ni anglamas beaql odam
Donolarning aytgan so‘ziga yetmas.

KO‘RILMAGAN JOYDA

Izzat-hurmat umid etma
Ibrat ko‘rilmagan joyda.
Oqil bo‘lsang, hech so‘z aytma
Navbat berilmagan joyda.

Aqli butunlar unutmas,
Quruq yog‘ochga barg bitmas,
Es-hushi bor maskan tutmas
Xulqi sevilmagan joyda.

Bil, ko‘milgan ariq oqmas,
Hammadan yorug‘lik chiqmas,
It qaramas, mushuk boqmas
Supra yoyilmagan joyda.

Haj aylagan hoji bo‘lur,
Gul ochilsa, bir kun so‘lur,
Xizmat qilsang, bo‘lasan xo‘r
Qadring bilinmagan joyda.

Nomard mol-dunyo deb bo‘zlar,
Faqir osh ustida so‘zlar,
Qilich ushlab, jangni ko‘zlar
Dushman ko‘rilmagan joyda.

Uyda turib botir bo‘lar,
Qo‘rqoq go‘yo mard er bo‘lar,
Tulki, shaqol ham sher bo‘lar
Kurash qurilmagan joyda.

Aql bilan boqsin ko‘zing,
Quloqqa il mardning so‘zin,
Firog‘iy, so‘z ochma o‘zing,
Sendan so‘ralmagan joyda.

XABAR, EY DO‘ST

Bir sahar tushmish edi yodimga diyor, ey do‘st,
Jon qulog‘iga yetdi daf’atan xabar, ey do‘st.

Jon chiqdi parvoz aylab tan mulkining ichidan,
Shavq ila etdi nogoh o‘zini nisor, ey do‘st.

Shavqing seli sindirdi sabrimning kemasini,
Toqat matosin ummon ayladi abgor, ey do‘st!

Yor yuzini ko‘rishga ikki jahon orzumand,
Baxtim xaridoriga quraver bozor, ey do‘st!

Olam ahli g‘arq emish xirmon-xirmon gul ichra,
Men o‘n yil yursam chiqmas qarshimdan bahor, ey do‘st.

Olamni qildi xurram mehr to'la nigohi,
Bir men uning sitam-u qahriga duchor, ey do'st.

Firog'iy, ko'z o'rnidan qon daryosi ravondir,
Qaytar yana o'rniga gar tegsa g'ubor, ey do'st.

GUMON KO'RINAR

Har dam g'animatdir, bilmaysan nega,
Dam chiqsa, kirmog'i gumon ko'rinar.
Bizdan burun kelgan ko'chibdi tongda,
Yo'l uzoq, qorong'i, tuman ko'rinar.

Oqil bo'lsang, ista bu yo'lda bir pir,
Olloh qilib qo'ygan rizqingni taqdir,
Oltin, kumush, olmos, yoqut bilan dur,
Haqdan boshqa barcha ziyon ko'rinar.

Ollohni unutib, aqling yo'qotma,
Har damga ega bo'l, g'aflatda yotma,
Umringni behuda savdoga sotma,
Dunyo o'tkinchidir, ayon ko'rinar.

Xo'ja, sayyidmi,
shoh — so'ramas nasab,
Qiyomat kelganda olarlar hisob,
Haromga azob bor, shubhaga itob,
Bunda yaxshi unda yomon ko'rinar.

Maxtumquli, voqif bo'ldim Qur'ondan,
Hech xabar yo'q avval ketgan karvondan
Erta go'rda yolg'iz yotganing onda
Hamrohing ilon-u chayon ko'rinar.

KO‘CHARSAN

Mag‘rur bo‘lma o‘rnashdim deb bu joyga,
Bebaqodir hayal o‘tmay ko‘charsan.
Qadah aylantirar ajal soqiysi,
O‘lim mayin bir kun sen ham icharsan.

Bu rabotda tinglagan yo‘q, uqqan yo‘q,
Bu egali bozorda bir do‘kon yo‘q,
G‘amxonadir, aniq manzil-makon yo‘q,
Bu makonga kelgan bo‘lsang, kecharsan.

Ayriliq yurakda dard-u dog‘ingdir,
Tangriga qil tavba — yoshlik chog‘ingdir,
Umringga o‘t tushsa, yurak yog‘ingdir,
Yog‘ing tugar, piltang yonar, o‘charsan.

Bugun quyqa kecha bo‘lganlar gulob[1],
Bo‘lar to‘shak tuproq, uy-joying xarob,
Suyaging surma-yu vujuding turob,
To‘ymas, to‘lmas yer qo‘ynini qucharsan.

Bu dunyoda hech tugamas g‘am, tashvish,
Umr vafo qilsa, qirq ham bo‘lar esh,
Ajal — o‘t-u tan — miltiq, jon — o‘q emish,
O‘t tushsa rizq xirmoniga, ko‘charsan.

Yaxshi soat, ajib fursat, xush ayyom,
Umr oz-u aql qisqa, ishing xom,
Jon bir qush-u dunyo — don-u falak — dom,
Qachon undan qutularsan, qocharsan?!

Maxtumquli tinmay so‘zlar har nafas,
Dardi yo‘qlar dardi borni tinglamas,
Ahmoq so‘zdan nash’a qilmas, anglamas,
Orif bo‘lsang, so‘z ma’nisin ocharsan.

[1] **Gulob** — 1) gul suvi, atirgul yaproqlaridan olinadigan xushbo‘y ichimlik; 2) ko‘z yoshi.

QALANDAR BILAN

Ko‘rganga yaxshiman, bilganga dilkash,
Devona hamdamim qalandar bilan.
Chekkanim nola-yu yurak g‘amdan g‘ash,
Taomim otashdir samandar[1] bilan.

Jigarim kabobdir, gar o‘zim xandon,
Yuragim to‘la g‘am, ko‘zim to‘kar qon,
Tilim qush tili-yu suratim inson,
Mudom hamroh bo‘lib chamandar[2] bilan.

Charx o‘ch bo‘lib, zamon ichganmish qasam,
Davlatim bo‘yniga band soldi olam,
Baxtim eshigini berkitib mahkam
Sirti temir, ichi kulandar[3] bilan.

Ey Haq, hojatim ber, ayla tadbirim,
Maqsadim toshiga tegar shamshirim,
Bu ojiz bandangni qo‘lla, Qodirim,
Xo‘ja Xizr, Iso payg‘ambar bilan.

Maxtumquli der: yer yuzini ko‘rsang,
O‘lasan har qancha mol yig‘ib yursang,
Uch yuz ellik olti yil davron sursang,
Faylaqus[4] o‘g‘li shoh Iskandar bilan.

---

[1] **Samandar** — afsonaga ko‘ra, olov ichida tug‘ilib, olov ichida yashaydigan, rangi ham olovrang jonivor.

[2] **Chamandar** — chaman ot, yalqov ot.

[3] **Kulandar** — eshik ochilmasligi uchun uning orqasiga tirab qo‘yiladigan kunda.

[4] **Faylaqus** — mashhur jahongir Iskandar Zulqarnayn — Aleksandr Makedonskiyning otasi Filipp II (miloddan avvalgi 382–336-yillar) ning sharqona nomi.

KO‘ZGA MEHMONDIR

Qora toshda qora qilni ko‘rgan ko‘z,
Bu ayb ko‘rar nigoh ko‘zga mehmondir.
Kelgan osh deb kelmas, burishtirma yuz,
Nonga muhtoj emas, so‘zga mehmondir.

Og‘irdir zamonlar, uzoqdir yo‘llar,
So‘rashsa yigitlar, so‘zlashsa tillar,
Bahorda ochilgan rang-barang gullar,
Bir fasl biz bilan sizga mehmondir.

Ne ulug‘ hunarlar, ne sirli ishlar,
Ne bahavo bog‘lar, baland og‘ochlar,
Oltmish xilli, yetmish turli yemishlar,
Daraxtdan ayrilar, kuzga mehmondir.

Yigitning bo‘lmasa yarog‘i, oti,
Ishtiyog‘i qolmas, so‘nar g‘ayrati,
Qariyversang ketar belning quvvati,
Yigitlikning kuchi tizga mehmondir.

Bu dunyo zohiran qilar tabassum,
Asli kasbi jabr-u jafo-yu zulm,
Har uzun umrning oxiri o‘lim,
Esiz jonlar tanda bizga mehmondir.

Haqni yodga oling, Haqdan qo‘rqing-a,
Shayton yo‘ldan urar, qo‘ymas erkingga,
Go‘zal malak, mag‘rur bo‘lma ko‘rkingga,
Keksayarsan, husning yuzga mehmondir.

Maxtumquli, o‘git bordir so‘zimda,
O‘lim yodimdadir, qo‘rquv ko‘zimda,
Qancha yashamasin yerning yuzinda,
Odam besh kun dunyomizga mehmondir.

IQBOL BO‘LMADI

Ko‘p yigitlar kelib, ketdi jahondan,
Ko‘ngli tilagandek iqbol bo‘lmadi.
Ters aylanar g‘addor falak dastidan,
Tong shod bo‘lgan kechga borib kulmadi.

Har kun kafan bichar bichiqchi ajal,
Bu ovchi tinimni bilmas hech mahal,
Odamlar tushar bu to‘rga galma-gal,
Bugun ko‘rganlaring erta qolmadi.

Tingla — haqiqatdir shoirning so‘zi:
Tomoshaxonadir bu dunyo o‘zi,
Vaqt yetib, odamning yumilsa ko‘zi,
Go‘yo bu dunyoga keldi-kelmadi.

Osmono‘par qasr qurdirgan Horun[1],
Qani, dunyoni to‘rt bo‘lgan Faridun?
Qirq uyni oltindan to‘ldirgan Qorun,
Ko‘zi qumdan to‘ldi, puldan to‘lmadi.

Maxtumquli hayron — har yon termilar,
Bu ne mo‘jiza suv o‘tga evrilar?!
Yaxshi farzand senga rahmat keltirar,
La’nat olgan farzand bo‘ldi-bo‘lmadi.

DAVRON TOPILMAS

Mendan duo olgan ko‘karar guldek,
Gul faslidek go‘zal davron topilmas.
Qahrimning otashi kuydirar kuldek,
Kul o‘rnida qayta bo‘ston topilmas.

---

[1] **Horun** — abbosiylar sulolasiga mansub Xalifa Horun ar-Rashid (hukmronlik yillari (786–809).

Ko‘ngil musofirdir, jasad yurtdadir,
Jonim tug‘yondadir, yurak darddadir,
Fikrim bir komil pir, ko‘zim marddadir,
Baxtim chopib, bir mard inson topilmas.

Ko‘ngil bog‘la go‘zal Olloh ko‘yiga
Qul bo‘lma hech mol-u davlat o‘yiga,
Odamzot mehmondir dunyo uyiga,
Bir kun bu uy ichra mehmon topilmas.

G‘aflat ichra g‘ofil yotma, turaver,
Nima bersang, qo‘ling bilan beraver,
Tiriklikda o‘lim ishin ko‘raver,
Bir kun jasad ichra bu jon topilmas.

Ko‘ngil olayin deb qarasam har yon,
Jang-u janjal, ta’na ko‘rib, yonar jon,
Nasihat aytilmas, o‘qilmas Qur’on,
Jonga yoqar odob-arkon topilmas.

Dargohga arzim ko‘p, nolishim behad,
Toleyim zabun-u yo‘q tanda quvvat,
Qochganim — jamoat, istagim — xilvat,
Menga biror pinhon makon topilmas.

Maxtumquli, jon taqdirga tan berdi,
Kim o‘zini asray olsa, naf ko‘rdi,
Johil kishi sira anglamas dardni,
Johillik dardiga darmon topilmas.

KO‘NGIL YOTMAS HECH

Olloh yodi bilan tirik bo‘lsa dil,
Ko‘z yumilgan bilan ko‘ngil yotmas hech.
Ko‘ngil bo‘stonida iymon toza gul,
Bir ochilsa turar, so‘lib yitmas hech.

Bor ne'matdan afzal sog'lik mazasi,
Bor qulluqdan yaxshi Haqning rizosi,
Agar to'g'ri kelsa ajal qazosi,
Ming yolvorsang, ko'ngil quloq tutmas hech.

Yigitlar, so'zimga bir quloq osing,
Bu dunyodan do'stlik tamasin kesing,
Nimaga ko'p bo'lsa ishqing, havasing,
Yotsang-tursang xayolingdan ketmas hech.

Odamzod, dunyoga kelding ketmoqqa,
Go'rdir sening borar joying yotmoqqa,
Istarsan jahonni qo'lda tutmoqqa,
Magar bu ishlarga aqling yetmas hech?

Ey dunyoda mag'rur kezgan etib noz,
Bir bandaman, so'zim qisqa qilay, oz,
Dunyo bozorida falak qimorboz,
Hech yo'l bilan inson uni yutmas hech.

Osh-u suvdan agar topar tan lazzat
Shirin so'zdan topar mudom jon lazzat,
Jon uyidan uqmasa xush nasihat,
Qora toshga tekkan suvdek o'tmas hech.

Maxtumquli, yoshlik bahorga qiyos,
Tani sog'ning ishi mudom suhbat-soz,
Yaxshi kunlar ko'p bo'lsa ham, go'yo oz,
Yomon kunlar oz bo'lsa ham, o'tmas hech.

BOQA-BOQA KETARSAN

Foniydan boqiyga ko'ch-ho-ko'ch bo'lsa,
Termilibon boqa-boqa ketarsan.
Ajal mayin tutib, ich-ho-ich bo'lsa,
Jon achchig'in cheka-cheka ketarsan.

O‘g‘il-qizing yig‘lab qolar bag‘ri qon,
Xotining soch yozib, tortar oh-fig‘on,
Yiqqan-terganlaring bo‘ladi talon,
Qo‘ling yuvib, chiqa-chiqa ketarsan.

Mol uchun ranjitib tug‘ishganlarni,
Sotib-sovurganing oz bilding zarni,
Halol-harom moling poylasharlar bari,
Sen azobin cheka-cheka ketarsan.

U dunyoga borsang bir kun, ey qardosh,
Nimalarni ko‘rmas bu shum, badbaxt bosh,
Yiqqan savoblarnig bo‘ladi yo‘ldosh,
Yo‘qsa, go‘rga yolg‘iz-yakka ketarsan.

Odamzod, bo‘lma hech Xudodan g‘ofil,
Qazo qo‘ymish ajal otlig‘ yasovul,
Oxirat urug‘in, gar bo‘lsang oqil,
Bu dunyoda eka-eka ketarsan.

Jahonda ko‘rsatar mo‘jiz ishlarni,
Qanoti ko‘tarar ko‘kka qushlarni,
Yoshlik kuchi sindiradi toshlarni,
Qirqdan oshsang, cho‘ka-cho‘ka ketarsan.

Maxtumquli, tushding ishq guzariga,
Koshki tushsang bir sirdosh nazariga,
Ishing yurishmadi so‘z bozorida,
Xaridorsiz to‘ka-to‘ka ketarsan.

KELMASMI?

Falak, sening bu shukuhli gardishing
Biz sari hech aylanmasmi, kelmasmi?
Mardni terib, yerga tiqishdir ishing,
Zamin insof aylamasmi, to‘lmasmi?

Dunyo, bir xil aylanadi gardishing,
Qizil qondan qirmiz bo'libdi tishing,
Bo'ri-yu echki do'stligiday ishing,
G'amgin shod bo'lmasmi, baxtsiz kulmasmi?

O'roqsiz o'rarsan, tig'siz kesarsan,
Musht urmay ezarsan, ipsiz osarsan,
Qo'l-oyoqsiz bildirmasdan bosarsan,
Yiqqan bosib yotar, qayta qolmasmi?

Falak o'ynar, yutar urushsang, suysang,
Gavdangni ko'tarib, qanoting yoysang,
O'lim zulmin odam bo'yniga qo'ysang,
Qo'rquvidan sarg'aymasmi, so'lmasmi?

Maxtumquli, har sahardan, sabodan,
Xoli bo'lma munojotdan, duodan,
Butparastlar butdan[1] olsa murodin,
Haqdan hojat tilaganlar olmasmi?!

YIG'LARLAR

Sog'-salomat, xush, mast bo'lib kezgan jon,
To'rt baloning birisidan yig'larlar.
Yo sovuqdan yo issiqdan qurir qon,
Boshing uzra tabiblar egilarlar.

Rizq vakili kelar rizqing yo'q etib,
Jismingni quritib, yo'ling berk etib,
Ajal farishtasi bo'g'zingdan tutib,
El-u yurting o'zga yurtga chog'larlar.

O'ksiklaring sochin yozar bosh egib,
Yor-do'stlaring yig'lasharlar yosh to'kib,

[1] **But** — 1) sanam; 2) mahbuba.

Ma'rakangda qatnasharlar osh berib,
Qo'nsa ko'chmas tinch manzilga bog'larlar.

Xabar kelar: "Falon kishi o'tdi" deb,
"Chirog'i so'ndi" deb, "Kuni bitdi" deb,
"Bu dunyodan u dunyoga ketdi" deb,
"Olloh rahmat etsin!" — deya tarqarlar.

Kishi bormi, falak bag'rin ezmagan,
Tanini qiymalab, ko'nglin buzmagan,
Maxtumquli, tog', daryolar to'zmagan,
Bu udumdir — ayrilganga yig'larlar.

YOT YAXSHI

Yaxshi kunda xush-u xursand kezmoqqa,
Bordi-keldi qilishmoqqa yot yaxshi.
Boshingga ish tushsa, janjal chiqqanda,
Tuqqan yaxshi, qardosh yaxshi, zot yaxshi.

Halol yasha — oxiratdan vahm et,
Kambag'alni xafa qilma, rahm et,
Oshiq der: oz-ko'p sirini fahm et,
Oqil bo'lsang, so'zga quloq tut yaxshi.

Xonadon ustuni — o'g'il zurriyot,
Yaxshi xotin jism-u joningga quvvat,
Uch narsa bo'lsa bas yigitga faqat:
Xotin yaxshi, yarog' yaxshi, ot yaxshi!

Mullalar gar oxiratdan so'ylarlar,
Munkir bo'lma, Haq nasihat aylarlar,
Kim biladi oxiratda naylarlar?!
Yaxshi yeb-ich, minib, quchib o't yaxshi!

Tangri keng aylasa banda ko'nglini,
Rizq og'ziga kirar tutsa qo'lini,
Davlat kelar bo'lsa, topar yo'lini,
Kelar bo'lsa-ketar bo'lsa, yot yaxshi.

Naf olmagan kishi so'zdan, o'gitdan,
Afzal joyi bo'lmas quruq sambitdan[1],
Tengin bilmas, ma'ni uqmas yigitdan,
Katalakda xomush yotgan it yaxshi.

Maxtumquli, do'stdan siring yashirma,
Bevafodir — nomahramga dil berma,
Xalq ichida bo'lar-bo'lmas gapirma,
So'zlar bo'lsang, ma'nisiga yet yaxshi.

OR BILAN

Ey temir tirnoqli talonchi dunyo,
Ishing yo'qdir nomus bilan, or bilan.
Jabr-u jafosi ko'p, yolg'onchi dunyo,
Qo'ymaysan yayrashga yorni yor bilan.

Muhabbati jo'shib, yor bir kel desa,
Har ne tilagingni mendan ol desa,
Bir kun turding, bir kecha ham qol desa,
Boshim qadam qilib boray zor bilan!

Esgan sari olar avj dunyo yeli,
Qasd etsa, quritar hattoki Nilni[2],
Bir kunda qo'zg'atib, mast etar filni,
Mahv[3] ham etar pashsha urgan par bilan.

---

[1] **Sambit** — tolning bir turi, sambittol.

[2] **Nil** — Misrdagi katta daryo.

[3] **Mahv** — yo'qolish, yo'qotish.

Zamin uzra yuksak tog‘lar chekarsan,
Tomoshabin bo‘lib, unga chiqarsan,
Har neni bir sabab bilan yiqarsan,
Jilg‘ani sel bilan, tog‘ni qor bilan.

Termilib dod etsa, quloq tutmassan,
Yig‘lab yosh to‘kkanga shafqat etmassan,
Jon matosin olsang, qayta sotmassan,
Qayta olib bo‘lmas oltin, zar bilan.

Layli deb qancha jabr etding Majnunga,
Qonin to‘kding insof aylamay unga,
Har kun qirq ot bezab berding Qorunga,
Iso o‘tdi eshak minib xor bilan.

Maxtumquli aytar: ishing talondir,
Bu navbat ko‘plardan o‘tib kelgandir,
Senga ishonch yo‘qdir, so‘zing yolg‘ondir,
Bir do‘st qo‘ymay, yakson etding yer bilan.

NE ISH KELAR BOSHIMIZGA?

Ey azizlar, bilib bo‘lmas,
Ne ish kelar boshimizga.
Bu bevafo falak mudom,
Og‘u qo‘shar oshimizga.

Ajal kelar, og‘zin ochar,
Nozik beling zamin quchar,
Kulib kelgan yig‘lab kechar,
Rahm etmas ko‘z yoshimizga.

Orqa qilmang baxt, iqbolga,
Aylanar yuz ming xayolga,
Ishonch yo‘q boylig-u molga,
Dunyo o‘xshar tushimizga.

Falak bizga egri boqib,
Qo'l uzatib, afsun o'qib,
Qoq o'rtaga donni to'kib,
Tuzoq qurmish tashimizga.

Maxtumquli, borsang bundan,
So'rar gunoh-savob sendan,
Shirin jon ayrilsa tandan,
Tuproq xursand loshimizga.

KECHIB BORADIR

Bu dunyo foniydir, bilmas vafoni,
Bu dunyoga kelgan kechib boradir.
Kim qo'sh qo'llab tutar mol-u dunyoni,
Tutganning qo'llarin ochib boradir.

Solar shirin-shirin hisobga dunyo,
Qo'yar achchiq-achchiq azobga dunyo,
Tutdirmas — o'xshaydi sarobga dunyo,
Tutqizgandek bo'lib qochib boradir.

Zamonlar almashar, falak aylanar,
Nechalar ko'charlar, nechalar qo'nar,
Nechaning chirog'i yangidan yonar,
Nechaning chirog'i o'chib boradir.

Kimlar Haqdan qo'rqib, rang-ro'yi so'lib,
Kimlar dunyo quvar yugurib-yelib,
Kimlar yuz hasratda, kimlardir kulib,
Kimlar ko'zda yoshin sochib boradir.

Kim amaldaligida tushmas ayvondan,
Kim bechoraligidan noliydi jondan,
Kimlar harom ko'rsa, qochar har yondan,
Kimlar aroq, sharob ichib boradir.

Kim dunyoda aysh-u ishratda yayrab,
Kim halolni qo'yib, haromni saylab,
Kim farqiga bormay, bor ishni aylab,
Ko'zi bog'liq qushday uchib boradir.

Tushib bo'lmas makkor falak oldiga,
Lablaring tamshanar dunyo moliga,
Bir kun o'rog'ini olib qo'liga,
Ho'l-u quruq demay o'rib boradir.

Ikki kun xush bo'lsa, uch kuni voymish,
Bu qanday manzilmish, bu qanday joymish,
Bu dunyo go'yo bir karvonsaroymish,
Kelgan yukin qo'yib, kechib boradir.

Maxtumquli aytar: tikanmi, gulmi,
Yoshlik yo keksalik, xo'jami, qulmi,
Yalinish behuda — boymi, yo'qsilmi,
Barchasi yer qo'ynin quchib boradir.

ODAMZOD

Yotsa-tursa xayolidan ketmaydi,
Biror ishga moyil bo'lsa odamzod.
G'ariblikning g'ami ta'sir etmaydi,
Ayol ko'yida qul bo'lsa odamzod.

Gunohdan qo'rqmagan yuzi qoradir,
Qiyomatda uning ajri jazodir,
Bu dunyo mulkida sultondir, shohdir,
Qismatiga moyil bo'lsa odamzod.

Yetmasa so'z ma'nisiga har inson,
Bu bir dardki, topilmaydi hech darmon,
Qiyomatda butun ishi pushaymon,
Haq ishidan g'ofil bo'lsa odamzod.

Har ish o‘ng keladi yor bo‘lsa omad,
Dunyo qo‘lga kirar chekmay mashaqqat,
Yoshlikdagi ishlar qilar xijolat,
Qirqdan oshib, oqil bo‘lsa odamzod.

Fahm et jahonning ruhi-ravishin,
Barqaror deb bilma dunyo turishin,
Maxtumquli yaxshi ko‘rardi ishin,
Qirqdan so‘ng yosh, dardli bo‘lsa odamzod.

QORA RANG BO‘LAR

Ezib yong‘oq po‘sti, lola gulini,
Suvin sochga sursang, qora rang bo‘lar.
Gunohdan ko‘ngilni, g‘iybatdan tilni
Saqlamasang, qalb ko‘zgusi zang bo‘lar.

Har kishining ishi bo‘lsa yomonlik,
U ikki dunyoda topmas omonlik,
Dushmanni do‘st qilar shirinzabonlik,
Fe’ling yomon bo‘lsa, ishing jang bo‘lar.

Yigitning bo‘lmasa ahdga vafosi,
U olam ahlining bo‘lar rasvosi,
Qay dilda bo‘lmasa iymon ziyosi,
U dil qora toshga hamohang bo‘lar.

Bani bashar[1] ovoradir, gunohkor,
Tushunganga birgina so‘z qilar kor,
Bilmasmiz Haq lutfiga kim sazovor,
Ko‘p duo olganning ishi o‘ng bo‘lar.

Maxtumquli, so‘zim ozu sharhi ko‘p,
Bilmasga hech, bilganlarga narxi ko‘p,

[1] **Bani bashar** — inson avlodi, insoniyat.

Yerning yerdan, erning erdan farqi ko‘p,
Garchi barcha so‘zlashganda teng bo‘lar.

BARBOD KO‘RINAR

Azizlar, foniy dunyoning
Oxiri barbod ko‘rinar.
Aldab tutar jon qushini,
Shum falak sayyod ko‘rinar.

Aldoviga uchma aslo,
Ildizing qirqar har asno,
Oqibatsiz lo‘li dunyo
Borgan sari yot ko‘rinar.

Ko‘rasan ne bo‘lsa qismat,
Tashvishing bitmas hech fursat,
O‘g‘ilsizning ishi hasrat,
Chunki beavlod ko‘rinar.

Kimning kulsa baxt-iqboli,
Kun sayin ortar kamoli,
Yaxshining yomon ayoli,
Joniga jallod ko‘rinar.

Yaxshi yorning bag‘ri rohat,
Ko‘ngil yayrar misli jannat,
Go‘zal ko‘rmaganga har vaqt,
Xunuk parizod ko‘rinar.

Dudog‘ida shakar-qandi,
Hajri uning tuzoq — bandi,
Qora qarg‘aning farzandi,
Go‘zal, xushsurat ko‘rinar.

Xush tuyalar saf — qatori,
Saf ichra sevimli nori,
Mingan eshagi nochorning
Qozig‘ida ot ko‘rinar.

Jang chog‘i kerak ustodlar,
Sher yurakli, bo‘ri zotlar,
Dushman ko‘rganda nomardlar
Bir zaif avrat ko‘rinar.

Firog‘iy noumid emas,
Haq lutfini qilar havas,
Rozi etsa so‘nggi nafas,
Iymoni murod ko‘rinar.

TO‘N KERAK

Sen shundaysan, odamzod,
Tug‘ildingmi, to‘n kerak.
Oq sut emib ulg‘aygach,
Yig‘lab deysan: non kerak.

Otangni shod qilmoqqa,
Onang mehrin olmoqqa,
Yettingda din bilmoqqa,
O‘qirga Qur’on kerak.

Saylagaysan dilbanding,
To‘lishar beling, banding,
O‘n beshda orzumanding
Qiz kerak, juvon kerak.

Juvon topsang quchgali,
Aysh ko‘kida uchgali,
Undan so‘ng yeb-ichgali
Tuganmas osh-non kerak.

Ko‘nglin ranjitib xalqning,
Xushnud etsang o‘z xulqing,
Rum, Farang bo‘lsa mulking,
Hanuz ozdir, kon kerak.

Yotsang to‘shakda bemor,
Foyda bermas mol-u kor,
Zar to‘ksang ham bemiqdor,
Ko‘zga ilmas, jon kerak.

Duodan er ko‘karar,
Yomg‘irdan yer ko‘karar,
Er duo olib yurar,
Yerga yomg‘ir — jon kerak.

Ajal kelar — o‘yda yo‘q,
Ko‘rmak yilda, oyda yo‘q,
Hech kishidan foyda yo‘q,
Bir nuri iymon kerak.

Maxtumquli, so‘ylagan,
Sirni dilga joylagan,
Bir ma’no fahm aylagan
Oqil do‘st-yoron kerak.

OYNING YAXSHISI

Yigirma to‘rt soat, o‘n ikki oyda
Ramazon deydilar oyning yaxshisin.
O‘tkinchi zamonda, yerning yuzida
Shomi sharif[1] derlar joyning yaxshisin.

[1] Islom dinining qudrati va shuhrati yo‘lidagi maqomi uchun 7 shaharga sharif sifati berilgan: Quddusi sharif, Shomi sharif, Buxoroyi sharif, Mozori sharif va boshqalar.

Qudrating cheksiz, ey yaratgan Rahmon,
Qudrating oldida bandalar hayron,
Yo Rab, aqlim yetmas, ne uchun pinhon
Zulmat ichra qo'yding suvning yaxshisin[1].

Qarg'a yarashmaydi go'zal bog'larga,
Gul shoxida bulbul sayrar chog'larda,
Yerning ostida-yu konli tog'larda
Ajdarho egallar g'orning yaxshisin.

Qo'ling yetsa, Haqqa arz etsang yona,
Aql hayron bo'lar, dalli-devona,
Yurak dardga to'lib tegadi jona,
Shaqal yorib ketsa ovning yaxshisin.

Ishq meni yondirdi, jonim kasaldir,
Dardim boshdan oshib, ishim o'saldir[2],
Bu qadimdan qolib kelgan masaldir,
Tipratikan yeydi qovun yaxshisin.

Bo'ysunadi tilin bilsang vahshiyning,
Haqini yeb ketma sira qo'shnining,
Aqling bo'lsa, obro'si bor kishining
Yomonin yashirib, yoying yaxshisin.

Maxtumquli, odat shudir zamonga,
Yaxshini yig'latar, kular yomonga,
Og'alari Yusuf degan jononga
Ravo ko'rmadilar joyning yaxshisin.

---

[1] *Bu yerda yer osti* — zulmat qa'ridagi obi hayotga ishora qilinmoqda.
[2] **O's a l** — yomon.

JO‘SH KELSA

Dunyoda bir necha ish bordir yomon,
Biri shu: noo‘rin qahring jo‘sh kelsa.
Oshiqqa har kuni bir oxirzamon,
Ayriliq tikani urib nish kelsa.

Do‘sting ushlab turma, nafdan qolmasin,
Dushmaning saqlama, siring bilmasin,
Ochda olging, boyda berging bo‘lmasin,
Ish mushkuldir anglamasga duch kelsa.

Zamin seni halizamon yutarmi?
Oqil bunda shunday beg‘am yotarmi?
Hech bir masxaralik bundan o‘tarmi,
Ketgan quruq ketib, kelgan bo‘sh kelsa?!

O‘n qat uying bo‘lsa temir qal’adan,
Ajal topar — amr bo‘lsa Ollohdan,
Chinakam er yuz o‘girmas balodan,
Haq rizosi bilan boshga tosh kelsa.

Oshiqman deb lof urarlar yolg‘ondan,
Ma’nisini borib so‘ra bilgandan,
El ko‘zicha yuz yil toat qilgandan,
Yaxshidir bir sahar ko‘zdan yosh kelsa.

Boylar yopib eshigini ehsonning,
Do‘zaxda oshirar sonin ilonning,
Piri, so‘fisini ko‘ring zamonning:
Tanlamasdan tiqaverar osh kelsa.

Maxtumquli, so‘zla aqling yetguncha,
Oxirating o‘yla bekor yotguncha,
Do‘zaxdadir to dunyodan o‘tguncha
Yomon xotin yaxshi erga duch kelsa.

KO‘Z BILAN

Kishi bormi, arzim yorga yetkazsin,
Ishq o‘tida kuydim-ketdim so‘z[1] bilan.
Kelib bu otashdan meni qutqazsin,
Yo‘qsa o‘chmas yomg‘ir bilan, muz bilan.

Kelgan ketdi, meros bo‘lib yurt qo‘ydi,
Oshnalikni nomard boshlab, mard qo‘ydi,
Yordan dilda dog‘ ustiga dard qo‘ydi,
Dard ustiga murch sepibdi tuz bilan.

Ma’shuqa yo‘l bermas, qo‘l bermas topsam,
Iqbolim uyg‘onmas, baxt kulmas bir dam,
Yurak qaror topmas, tinchimas dil ham,
Yor jamolin ko‘rmaguncha ko‘z bilan.

Bir dardga uchrabman, hech kimsa bilmas,
Iso ojiz, Luqmon chorasin qilmas,
Kelsa turmas, gardi boshdan sovrilmas,
Lahza sayin dardim oshar so‘z bilan.

Ming hirs bilan mol-u dunyo yig‘arsan,
Bir pul deb yuz ko‘ngil uyin yiqarsan,
Dunyo — daryo-yu tan — sol, sen oqarsan,
Qachongacha teng ketarsan tuz[2] bilan?

Bu dunyodan bir xas eltdi qaysi zot?!
Avvali — g‘am-qayg‘u, oxiri — barbod,
Bo‘lajaging shudir sening, odamzod,
Yo‘q bo‘larsan tuproq bilan, to‘z[3] bilan.

Maxtumquli, ne manzildir — turarsan,
Yurt kimniki — og‘ir o‘ylar surarsan?
Qismat bo‘lsa, qarich yerga kirarsan,
Nasib etsa, besh-olti gaz bo‘z bilan.

---

[1] **So‘z** — kuydirish, o‘rtash: otash, alanga.

[2] **Tuz** — bu yerda: tekis yer, tekislik.

[3] **To‘z** — gard, g‘ubor, chang.

MEHROB QAYSI BILMADIM

Abdol menga baqo mayin quyganda,
Masjid qaysi, mehrob qaysi bilmadim.
Ul otashda jonim erib kuyganda,
Obod qaysi, xarob qaysi bilmadim.

Bir yonishga tob bermadim, yo'q bo'ldim,
Tuproq bo'ldim, o't bo'ldim, yallig' bo'ldim,
Tashdan pishdim, ichdan kuydim, cho'g' bo'ldim,
Olov qaysi, kabob qaysi bilmadim.

Safar qildim bir makonsiz makonga,
Sayrga chiqdim bir maydonsiz maydonga,
Hayron qoldim bir jahonsiz jahonga,
Uy qaysi, eshik — bob[1] qaysi bilmadim.

Nafs qul qildi, o'zim dedim, xor bo'ldim,
Ahl ishin to'g'ri sanab, ters bildim[2],
Har ashyodan yor sifatin dars oldim,
Qur'on qaysi, kitob qaysi bilmadim.

Maxtumquli ul makonda maks[3] etdi,
Shayxlar turdi, yigitlarday raqs etdi,
Har ashyoda yor jamoli[4] aks etdi,
Suv qaysi-yu sharob[5] qaysi bilmadim.

---

[1] **Bob** — eshik.

[2] Ilohiy mahbubaga aql bilan yetib bo'lmaydi, uni faqat ko'ngil bilan dark etish mumkin. Shuning uchun bu yerda shoir aqlning ishi to'g'ri bo'lsa ham, uning aksini qildim demoqda.

[3] **Maks** — to'xtash, turib qolish.

[4] **Jamol** — oshiqning kuchli rag'bat va talabiga ko'ra ma'shuqaning o'z jamolini namoyon etishi; ilohiy tajalli.

[5] **Sharob** — ishqning g'alabasi. U komil insonlar nasibasi bo'lib, tariqat nihoyasida muyassar bo'ladi. Muhabbat mastligi va Haq jazbasiga ham ishora qiladilar. Ishq-u zavq-u mastlikni sharobga tashbeh etadilar.

KEZMOQCHI BO‘LDIM

Ishq daryosi to‘ldi, toshdi, qaynadi,
Rosa xuruj aylab, qizmoqchi[1] bo‘ldim.
Ko‘ngil taxti mavji ustida o‘ynadi,
Unda g‘avvos bo‘lib, suzmoqchi bo‘ldim.

Tush ko‘rib yotardim, seskanib turdim,
Ishq bir mushkul ishdir, o‘qidim, ko‘rdim,
Shavqing shirin bilib, bu yo‘lga kirdim,
Endi chora yo‘qdir, to‘zmoqchi bo‘ldim.

Yorning bo‘yi keldi, o‘zi-chi pinhon,
Umid qo‘lin yozib, bag‘ishladi jon,
Ishqim yangilandi, kuchaydi hijron,
Ul qozonda qaynab, qizmoqchi bo‘ldim.

Yo‘lda ko‘rib qoldim ko‘zi joduni,
Isindim yondirib ishqning o‘tini,
Ko‘ngil ko‘zgusiga yorning otini
Suratkashlik qilib, chizmoqchi bo‘ldim.

Xalos bo‘lib bu xayol, bu fikrdan,
Nafs-u havo, kin-u g‘urur, kibrdan,
Ishq dastidan hech ne qolmay faqirda,
Shirin jondan umid uzmoqchi bo‘ldim.

Qona-qona ichdim do‘stning zahrini,
Zahrin shifo bilsam, qo‘ymas mehrini,
Jism ichra qo‘r to‘kkan ko‘ngil shahrini,
Ishqqa navkar bo‘lib, buzmoqchi bo‘ldim.

Maxtumquli, bu diyorga, manzilga,
Kirgan qaytib chiqolmaydi sohilga,
Do‘stlar, chora bormi bu dardi dilga,
Qiynalib, o‘rtanib kezmoqchi bo‘ldim.

[1] **Qizmoqchi** — qizimoqchi, yonmoqchi.

YIG‘LAB KECHAR HOLIMGA

Keng ko‘ksimni g‘am bosib o‘z-o‘zidan,
Bosh ham kelsa, yig‘lab kechar holimga.
Bag‘ir yoshin ko‘ngil to‘kar ko‘zidan,
Qosh ham kelsa, yig‘lab kechar holimga.

Keksalikka yetar yigit chog‘lari,
Gado aylar toj egasi beklarni,
Qo‘rg‘oshinday eritadi tog‘larni,
Tosh ham kelsa, yig‘lab kechar holimga.

Olam ichra bir oh ursa kuygan dil,
Inson ado, qolmas baliqdan to fil,
Mushukka aylanar sher, bo‘ri-da, bil,
Qush ham kelsa, yig‘lab kechar holimga.

Pushaymonman barcha kirdikorimdan,
Bezor bo‘ldim butun yo‘g‘-u borimdan,
Hamroh bo‘lgan uxlolmaydi zorimdan,
Tash[1] ham kelsa, yig‘lab kechar holimga.

Bizni yoqqan bu — ilohiy muhabbat,
Bizga shu o‘chmas o‘t bo‘libdi qismat,
Bahorda bulbulga bermayman navbat,
Qish ham kelsa, yig‘lab kechar holimga.

Kim bexabar ishq dard-u tug‘yonidan,
Bu so‘z o‘tmas yaqinidan — yonidan,
Oshiq bo‘lgan umid uzar jonidan,
Losh ham kelsa, yig‘lab kechar holimga.

Fahm aylagan Maxtumquli so‘zini,
Dardi oshib, yosh to‘ldirar ko‘zini,
Shod kulganlar tuta bilmas o‘zini,
Xush ham kelsa, yig‘lab kechar holimga.

[1] **Tash** — bu yerda: yot, begona.

BULAR KELMADI

Ko‘chini ko‘tarib ketdi Abdulla,
Hamma ketgan keldi, bular kelmadi.
Mamatsafo ketdi ko‘mak bermakka,
Uzatganlar keldi, bular kelmadi.

Yotmas onasidan go‘daklar bo‘lak,
Yo Rab, bilgan bormi bulardan darak?!
Oylar, yillar o‘tdi aylanib falak,
Oylar, yillar keldi, bular kelmadi.

Sog‘aydi hasratdan zahar yutganlar,
Olib keldi pul qo‘y haydab ketganlar,
Hoji bo‘lib, Ka’ba tavof etganlar
Olti oyda keldi, bular kelmadi.

Yaqin-yiroq yo‘lga borib kelganlar,
Bormikan ularni ko‘rib-bilganlar,
Hindistonda savdogarlik qilganlar,
Molin sotib keldi, bular kelmadi.

Selga yo‘liqdi yo uchirdi bo‘ron,
Birin yurti bilan ayladi vayron,
Birisining yori izida hayron,
Ko‘zlari yo‘ldadir, bular kelmadi.

Yiqilganning tani yerda qolmasmi?
Borgan kelmasmi, yig‘lagan kulmasmi?
O‘tgandan-ketgandan so‘rsang bilmasmi?
Bedaraklar keldi, bular kelmadi.

Maxtumquli, dardi qo‘ymas yotmoqqa,
Yo‘lin bilmas so‘rab-so‘rab ketmoqqa,
Yerdan javob chiqmas xabar kutmoqqa,
Ko‘rgan-bilgan bormi, bular kelmadi.

BO‘LDIM GIRYONA

Yozig‘im[1] yod etib, yuzim xok etib,
Sahar nolish bilan bo‘ldim giryona.
Ko‘zimdan yosh to‘kib, ko‘ksim chok etib,
Telbadek o‘zimni urdim har yona.

Ko‘nglimni tindirdim jumla jahondan,
Nafaqat jahondan, qo‘l tortdim jondan,
Xizrdan, Masihdan, Shohimardondan[2]
Himmat istab, ko‘zim tikdim osmona.

Somon yo‘li[3] ko‘kni tark etib, shu on,
Uch erga nazarim tushdi nogahon,
Biri oq, ikkisi ko‘k kiygan, ayon,
Ko‘zim ko‘rdi, tilim kelmas farmona.

Biri kelib, qo‘lin ko‘ksimga urdi,
Biri bir tig‘ bilan yuragim yordi,
Labimga lab bosib, biri dam urdi,
Dedilar: “Arzing ayt Shohimardona!”

Bular shunday degach, ochildi tilim,
Ishq mayini ichib, qondi bu dilim,
Dedim: “yetti savol — mening mushkulim,
Agar ruxsat bo‘lsa, kelsin zabona”.

Ikkisi uzun bo‘y, biri past qomat,
Dedilar: “So‘rayver, bu ayni fursat”.
“So‘zing bo‘lsa so‘ra, — dedilar, — ruxsat,
Dildagi so‘zingni keltir bayona”.

---

[1] **Yozig‘** — ayb, gunoh.

[2] **Shohimardon** — Hazrat Alining ismlaridan biri: mardlar shohi.

[3] **Somon yo‘li** — havo ochiq tunda ko‘zga yorug‘ yo‘l kabi ko‘rinadigan yulduzlar turkumi.

"Nima ko'kdan og'ir, ne yerdan ortiq?
Daryodan boy nima, ne toshdan qattiq?
Nima o'tdan battar, ne muzdan sovuq?
Zahardan achchiqroq nima bu jona?"

Derlar: "Nohaq tuhmat og'ir osmondan,
Shirin so'z hamisha ortiq jahondan,
Munofiqning ko'ngli qattiq sandondan[1],
O'xshaydi qanoat ahli ummona.

Zolim shoh kuydirar olovdan battar,
Bir ne so'rsa, baxil muzdan-da o'tar,
Faqirga jabr achchiq zahardan aksar,
O'gitdir bu so'zlar, bizdan nishona".

Ular shunday degach, o'rnimdan turdim,
Yugurgancha etagiga qo'l urdim,
Mast bo'ldim, bo'shashdim, aqlim yitirdim,
Bir og'iz so'z topmay, qoldim hayrona.

Dedilar: "Uch kishi bo'ldik ustoding,
Doston bo'lsin mudom olamda oting,
Maxtumquli, payti, ista muroding..."
Bu sirni ochar ahmoq yo devona.

QADRIN NA BILSIN

Tegirmonchi tutsa lochinni agar,
Patlarini yular, qadrin na bilsin!
Cho'ponning qo'liga tushsa bir gavhar,
Chaqmoq toshi qilar, qadrin na bilsin!

Faqirga munosib sabr-u qanoat,
Boylarga yarashar xayr-u saxovat,

[1] **Sandon** — temirchilikda ishlatiladigan temir to'nka.

Eshakfurushlarga tushsa asl ot,
Ayil, to‘qim solar, qadrin na bilsin!

Komil bo‘lmas ul sharbatdan totmagan,
Zavq aylamas so‘z asliga yetmagan,
Telba Majnun ishqi asar etmagan,
Parizod Laylining qadrin na bilsin?

Farog‘at qadrini bilmas hormagan,
Beklik qilolmaydi pora bermagan,
Cho‘lda ochlik azobini ko‘rmagan
Uyda issiq nonning qadrin na bilsin!

O‘tgandan so‘ng odam anglar davlatin,
Bilmas davlat bilan o‘tgan navbatin,
Kishi chekmay bemorlikning zahmatin,
Bu go‘zal sog‘liqning qadrin na bilsin!

Ipni qattiq bog‘lab, langar solmagan,
Girdobga g‘arq bo‘lar hazir bo‘lmagan,
Kemasi sayozda botib qolmagan,
Quruq qora yerning qadrin na bilsin!

Ayriliq o‘tida yonib pishmagan,
Zolimlar dastidan o‘lka oshmagan,
Vatandan ayrilib, g‘arib tushmagan,
O‘z yurtida elning qadrin na bilsin!

Yigit emas o‘z so‘zida turmasa,
Ulov qadrin bilmas kishi hormasa,
O‘rdak bilan g‘ozlar cho‘lni ko‘rmasa,
Yashnab turgan ko‘lning qadrin ne bilsin!

Maxtumquli aytar yor-u hamdamga,
Keling, do‘stlar, shukr aylang bu damga,
Aslida so‘z fahmin bilmas odamga,
Ming ma’ni so‘ylasang, qadrin na bilsin!

TOPMASSAN

Aql bilan qancha ishni etma jam,
Charx bir kun to‘zg‘itar, hisob topmassan.
Savob to‘pla sog‘lik chog‘ingda, odam,
Yer ostiga kirsang, savob topmassan.

Har ish baho olar kelsa qiyomat,
Sen ham yaxshilardan olaver ibrat,
Ey odam o‘g‘li to bor ekan fursat,
Olimlar kamaysa, odob topmassan.

Yigirmada bo‘lmas yigitning g‘ami,
Tog‘ni yiqib, toshni eritar dami,
Bir kuni o‘tadi yoshlik mavsumi,
Yig‘lab-yig‘lab kelsang, javob topmassan.

Yigit bo‘lsang, kezgil yaxshi ot bilan,
Bedov minib, sayr et parizod bilan,
Hayotingni o‘tkaz jamoat bilan,
Masjidi yiqilsa, mehrob topmasan.

Maxtumquli aytar: ajab jo‘sh etdi,
Mardlar suhbatiga bir kun duch etdi,
Bir kosa qizil may tutdi, no‘sh etdi,
Har kun kosa to‘la sharob topmassan.

KETUVCHI BO‘LMA

Kel, ey ko‘nglim, senga nasihat aylay,
Vatanni tark etib ketuvchi bo‘lma,
O‘zingdan tuban bir o‘zga nomardning
Xizmatida qulluq etuvchi bo‘lsa.

Bir asilzoda top etgali xizmat,
Ajdodida bo‘lsin buyuk shon-shavkat,

Och, yalang‘och qolsa sovrilib davlat,
Yonidan hech qachon ketuvchi bo‘lma.

Oqmasdan qolmagay bir oqqan ariq,
Bir tanda odam goh semiz, goh oriq,
Bir yuzi qoradir, bir yuzi yorug‘,
Qora deb qattiq so‘z aytuvchi bo‘lma.

Yaxshilardan sira chiqmas yomonlik,
Asli yomon bo‘lsa, bo‘lmas omonlik,
Asliga tortadir chopqir, chamanlik,
Chopqirni chamanga sotuvchi bo‘lma.

Bir nasihat beray, pandimni olsang:
O‘rningni bil qayda o‘tirsang-tursang,
Aytilmasdan turib bir yerga borsang,
Kishi oshin tuzin totuvchi bo‘lma.

Aytilgan joyga bor, o‘tir-da, turma,
Aytilmagan yerda ko‘rinma, borma,
Benomus kimsadek suykalib yurma,
Buyrilmagan ishni etuvchi bo‘lma.

Agar sen ham bo‘lsang yumshoq, muloyim,
Sen muloyim bo‘lsang, quling bo‘layin,
Qulog‘imga bergan panding olayin,
Birovga qattiq so‘z aytuvchi bo‘lma.

Ko‘kdan nam tushmasa, yer ham ko‘karmas,
Ming qayg‘u yig‘ilsa, bir ish bitirmas,
Mard yigit ko‘ngliga qayg‘u keltirmas,
Nomard o‘g‘li kabi qayg‘uchi bo‘lma.

Mard o‘g‘li yoyadi elga dasturxon,
To‘g‘ri so‘z ustida berar shirin jon,
Umri o‘tib, demas bir og‘iz yolg‘on,
Jahd aylab, yolg‘on so‘z aytuvchi bo‘lma.

Toshbag‘irning ko‘ngli sira bo‘sh bo‘lmas,
Qancha urinmasin, ta’bi xush bo‘lmas,
Ikki yaxshi bir-biriga duch bo‘lmas,
Yaxshini yomonga chatuvchi bo‘lma.

Tavakkal nor bo‘lsa, andisha — moya,
Ko‘nglingni yuborma har qaysi joya,
Barchaning ishonchi qodir Olloya,
Haqdan o‘zgaga suyanch topuvchi bo‘lma.

Otar bo‘lsang, o‘q ur nafsing ko‘ziga,
Qara, chin ko‘z bilan Qur’on yuziga,
Aldanib kirmagil shayton so‘ziga,
Ollohning amrini qo‘yguvchi bo‘lma.

Yengil bo‘lsin desang agar og‘irlar,
Bir yo‘lga kirgil, to kuysin bag‘irlar,
Ko‘zingga ko‘rinsa gung-u sag‘irlar,
Ularning holiga kuluvchi bo‘lma.

Yoshligingdan ayla toat-ibodat,
Hazil bilma, haqiqatdir qiyomat,
Dunyodan kech, qilma aysh-u maishat,
Fano[1] yo‘liga kir, qaytuvchi bo‘lma.

Urug‘ga ishonma, erta urmoq bor[2],
Hisob-u noma-yu o‘lchov, so‘roq bor,
Yolg‘onchiga do‘zax ichra kuymoq bor,
Bilib yolg‘on so‘zni aytuvchi bo‘lma...

Gar topsang dunyoda mulki Iskandar,
Qorunning moli ham bo‘lsa muyassar,

[1] **Fano** — tasavvufda bandaning Haqda fano bo‘lishi, ya’ni bashariy xususiyatlarning ilohiy sifatlar ichra mahv bo‘lishi.

[2] Bu yerda “urug‘” (nasl, nasab) va “urmoq” so‘zi vositasida so‘z o‘yini qilinmoqda, ya’ni u dunyoda nasl-nasabga qarab o‘tirilmay, qilmishiga yarasha jazo berilaveradi.

Oqibat bo‘larsan yerga barobar,
Ich-ichdan manmanlik etuvchi bo‘lma.

Bo‘lsang hamki harchand sohibi mansab,
So‘zin tingla, buzma ko‘nglini qiynab,
Yo jim o‘tir, yoki topib gapir gap,
Qo‘ldan kelmas ishni etuvchi bo‘lma.

Tong otsa, so‘filar aytadi azon,
O‘zgarmaydi sira qismatda yozgan,
Yigitlik bo‘stondir, keksalik — xazon,
Zikrdan o‘zga so‘z aytuvchi bo‘lma.

Aytarlar: “Yirtiq to‘n ko‘rsa, it qopar”,
“Fe’li yomon banda Xudodan topar”,
Oqibat bir kuni qilarsan safar,
Tor ko‘ngillik kasbin tutuvchi bo‘lma.

Kitob ochib o‘qiganni mulla der,
Ko‘karadi yomg‘ir suvi bilan yer,
Ko‘karadi olqish, duo bilan er,
Mazlumga jafolar etuvchi bo‘lma.

Izzat qilgan bilan kishi boy bo‘lmas,
Har qancha intilsa, mol-mulk shay bo‘lmas,
Jahonni qaqshatib, ko‘ngli joy bo‘lmas,
Jannatday joyingdan ketuvchi bo‘lma.

Bir kuni keladi qarilik — ofat,
Yigitning belidan ketadi quvvat,
Ey g‘ofil, har damni bilgil g‘animat,
O‘likdek cho‘zilib yotuvchi bo‘lma.

It bolasi yo‘ldan tozi deb ozar,
Haq kechirar, banda ahdini buzar,
Arg‘umoq bolasi tobora o‘zar,
Ey banda, ahdingni buzguvchi bo‘lma.

Davlatli o‘g‘illar yoshda bosh bo‘lar,
Boylar yashagani sari yosh bo‘lar,
Shafqatsiz zolimning bag‘ri tosh bo‘lar,
Borar yerga kesak otuvchi bo‘lma.

Mard yigit farzandi bir kun bek bo‘lar,
Qamchining zarbidan yomon nek[1] bo‘lar,
Tajribasiz er yosh boladek bo‘lar,
Bo‘lar-bo‘lmas so‘zni aytuvchi bo‘lma.

Mo‘minning kinasi — doka ro‘moli
Qurigancha bo‘lar emish misoli,
Ko‘nglingni kinadan aylagil xoli,
Kofirdek kek-kina tutuvchi bo‘lma.

Ey ko‘ngil, kelaqol, Haqni topaylik,
Nafsimiz otini minib chopaylik,
Aytarlar: “Haq emish mehr-u vafolik,
Shu so‘zingdan sira qaytuvchi bo‘lma.

Haq emish bandaga yaqindan-yaqin,
Kim Haq rizosini topmoq bo‘lsa chin,
Jo-bajo keltirsin bandalik haqin,
Xojaning amrini qo‘yuvchi bo‘lma.

Men dedim bir necha pand-u nasihat,
Uqmaganga ular quruq so‘z faqat,
Quruq so‘z deb bilma, bil o‘git, hikmat,
Yolg‘onchi so‘zlarni aytuvchi bo‘lma.

Maqsadim — qil bu so‘zlarga e’tibor,
Har elda bir komil maslahatchi bor,
Anglamay so‘zlama: “Tomda quloq bor”,
Ich siring kishiga aytuvchi bo‘lma.

[1] **Nek** — yaxshi.

Maxtumqulining ko‘p ko‘nglida armon,
Topilar oqibat dardiga darmon,
Yetishar bir kuni Tangridan farmon,
Tun-u kun g‘aflatda yotuvchi bo‘lma.

SEL QOLMAS

Oltmish boshli, ola qorli tog‘lardan
Tuman ko‘char, yomg‘ir kechar, sel qolmas.
Shaydo bulbul maskan tutgan bog‘lardan
Xazon uchar, yaproq tushar, gul qolmas.

Har kim ichar bu sharobdan, bu jomdan,
Yurak yonib, har so‘z kelar zabondan,
Kelgan ketar bu yolg‘onchi jahondan,
Xo‘ja, sayyid, bek, podsho-yu qul qolmas.

Jonga tegsa keksalikning zahari,
Vayron bo‘lar ko‘ngil — vujud shahari,
Qo‘ldan ketsa yigitlikning bahori,
Quvvat qochar, tiz egilar, bel qolmas.

Bir nomardning ko‘p minnatli oshidan,
Qo‘l uzatmay, qaytavergin qoshidan,
Elsiz qolgan baland tog‘lar boshidan
Daraxt qurir, so‘qmoq yitar, yo‘l qolmas.

Maxtumquli, bu jahonda kim bo‘lar,
Ul makonga ketgan kelmas, gum[1] bo‘lar,
Ko‘rar ko‘zing, go‘zal taning qum bo‘lar,
Og‘iz ketar, tishlar tushar, til qolmas.

[1] **Gum** — yo‘qolish, mahv bo‘lish.

SHAYLAMAYINMI?

Umrga ishonch yo‘q, jonga turim yo‘q,
Oxirat ozig‘in shaylamayinmi?
Bandaman — borarga o‘zga yerim yo‘q,
Istagim o‘zidan aylamayinmi?

Haq siriga yetib bo‘lmas — arz etsam,
Yo‘lim ochsa, Do‘stning iziga yetsam,
Yuklab nafs otiga riyozat ketsam,
Ixlos bilan haydab, haylamayinmi?

Yo‘qlikka cho‘ktirib menlikning[1] tog‘in,
Ko‘z yoshdan sug‘orsam yo‘qlikning bog‘in,
Kibr, g‘urur, riyo, hasad matohin –
Bo‘lib, o‘g‘rilarni poylamayinmi?

Tavfiq suvi yuvib jasadim novin[2],
Himmat bilan o‘tsam ibodat zovin,
Ruhim qushin chog‘lab, nafsimning ovin
Fikr o‘rmonidan ovlamayinmi?

Maxtumquli, ne bor yemak-ichmakdan,
Jon jasaddan ketar, et ham suyakdan,
Ko‘z ko‘rmakdan qolar, til ham demakdan,
Til qimirlar ekan so‘ylamayinmi?

SO‘ZLARIM

Yondi jonim, naylayin, ul yora tushdi ko‘zlarim,
Bol edi, zaqqum-zaharga aylanibdi so‘zlarim.

Qora kunni soldi boshga aylanib charxi falak,
Yomg‘ir-u seli bilan, boq, qish bo‘libdi yozlarim.

---

[1] **Menlik** — manmanlik, kibr-u g‘urur.

[2] **Nov** — tarnov, oxur.

O‘tdi bizdan davlati — bechora bir miskin manam,
Der Firog‘iy: uchdi lochin, bo‘ldi tutqun g‘ozlarim.

VAYRON AYLADI

G‘arib ko‘nglimning binosin,
Boq, falak vayron ayladi.
Oldirib qo‘ldan nomusin,
Qalbimda armon ayladi.

Haqdan bizga davlat kelsa,
Yoshli ko‘zlar o‘ynab-kulsa,
G‘ariblar yurt qadrin bilsa,
Yurakda hijron ayladi.

Mard yigit bo‘lsin qardoshing,
Bo‘lmasa tinch bo‘lmas boshing,
Topib aybingni sirdoshing,
El-yurtga ayon ayladi.

Ot kerak yigit zo‘riga,
Yo‘qsa kun tug‘ar bo‘riga,
Go‘zal yurtlarni beega —
Joyini maydon ayladi.

Firog‘iyning shoshmish aqli,
Qariganning shumi naqli,
O‘kirishgan sahar vaqti,
Yo‘lbarslar sayron ayladi.

TUSHIBSAN

Kel, ko‘ngil, ko‘zlagil olam-jahonni,
Ayt-chi, nega buncha jo‘sha tushibsan?
Bu dunyoda yolg‘iz senmi til-jag‘li,
Siring doston aylab, fosha tushibsan?

Gar ta'na qilsalar sen nomuroda,
"Sening biror kishing yo'qmi dunyoda?
Yo shunchami ishqing kuchli, ziyoda,
Hadding bilmay osha-osha tushibsan?"

Qadam qo'ysam sahrolarga, cho'llarga,
Dil yonib, so'z oqib kelar tillarga,
Ellar senga hayron, sen ham ellarga,
Yo aqling oldirib, shosha tushibsan?

Baqo yo'qdir suhbatingga, sozingga,
Ishonch yo'qdir qishing, bahor, yozingga,
Sen bu dardni yovutmasding o'zingga,
Ul so'nmas otashga necha tushibsan?

Maxtumquli, barcha yo'lga bosh urding,
Ko'plar bilan kezding, o'tirding, turding,
Dunyoda ne rohat etding, ne ko'rding?
Endi sen o'ttiz to'rt yosha tushibsan.

OY BO'LDI

Yuzi oyday to'lgan yor,
Quyosh bo'ldi, oy bo'ldi.
Falak bo'lib narvonim,
Ko'k zinapoya bo'ldi.

Bir kun bo'ldi ko'ngil chog',
Dilda g'am-u g'ussa yo'q,
Har kiprigi misli o'q,
Qoshi esa yoy bo'ldi.

Oshiqni solding o'tga,
Qo'yding-ketding uyatga,
Tush chog'i berding va'da,
Shom kirdi, soya bo'ldi.

Jon qolmadi bu tanda,
Yonarman oh urganda,
Ko‘z yumib-ochsam banda,
Har bir kunim oy bo‘ldi.

Ming g‘amim bor, bir boshim,
Tark etdim el, qardoshim,
Yig‘lamoqdan ko‘z yoshim
Mavj urgan bir soy bo‘ldi.

Yorning ko‘ngli chog‘ bo‘ldi,
Oshiq dili dog‘ bo‘ldi,
Suyanganim tog‘ bo‘ldi,
To‘shagim qoya bo‘ldi.

Istarman kunda-kunda,
Yig‘larman tunda-tunda,
Har zulfingga bir banda
Asir hoynahoy bo‘ldi.

Egildi dol butoqlar,
Bulbulsiz qoldi bog‘lar,
Oqar suvdan bu chog‘lar
Sahrolar daryo bo‘ldi.

Xastaga bo‘lmas darmon,
Muhtojga bermaslar non,
Boylar faqir, notavon,
Kambag‘allar boy bo‘ldi.

Maxtumquli, jahonda,
Halab[1], Qaysar[2] tomonda,
Yor ko‘yida armonda
Umrimiz zoye bo‘ldi.

[1] **Halab** — Suriyadagi shahar.

[2] **Qaysar** — Turkiyadagi shahar: Qaysari.

YUZINGDAN

Oy kabi yuzingni ko‘rdim,
Nur yog‘ilar, yor, yuzingdan.
Majnun kabi dalli erdim
Qadim navoli sozingdan.

Sur men bilan davr-u davron,
Raqib ko‘nglin ayla vayron,
Kez men bilan bog‘-u bo‘ston,
Bahordek go‘zal yozingdan.

Aysh-ishratli chog‘ ichinda,
Ohu kabi tog‘ ichinda,
Bulbul kabi bog‘ ichinda,
So‘z ochmayin ovozingdan.

Maxtumquli, sen qul bo‘lding,
Qul bo‘lganing endi bilding,
Oxir ulushingni olding,
Nasiba qosh-u ko‘zingdan.

TO‘G‘RISI

Eshit pari, oshiq bo‘ldim
Men senga boshdan, to‘g‘risi.
Ko‘rmay turib moyil bo‘ldim
Ko‘z bilan qoshdan, to‘g‘risi.

Butun olam shohi sensan,
Yetti falak mohi[1] sensan,
Ko‘nglimning hamrohi sensan,
Ko‘z to‘ldi yoshdan, to‘g‘risi.

[1] **Moh** — oy.

Yuzing Zulayxoning[1] ko‘rki,
Aylanar falakning charxi,
Bilinmas odamning farqi
Sin bilan tashdan, to‘g‘risi.

Qiz olinar qalin bilan,
Odam so‘lar zulm bilan,
Bu — qismatdir, o‘lim bilan
Tinar tashvishdan, to‘g‘risi.

Tillar yaxshi-yomon sochar,
Har kishidan davron kechar,
Nomard yigit aybin ochar
Sezdirib ichdan, to‘g‘risi.

Kunduzi kun, tunda mohtob,
Daryoning sohili — Lubob[2],
Ichar bo‘lsa har kim sharob,
Ajrarmish hushdan, to‘g‘risi.

Kin, janjaldan balo kelar,
Yaxshi-yomon bari bilar,
Birov yig‘lab, birov kular,
Kun chiqar choshdan[3], to‘g‘risi.

Qoplon kezar to‘qay ichra,
Qurtlar yashaydi loy ichra,
Bechora bo‘lsa boy ichra,
Oqarlar sochdan, to‘g‘risi.

Firog‘iy, gar hamroh bo‘lsang,
Nochorlarning ko‘nglin olsang,
Yaxshi bilan o‘ynab-kulsang,
Ayirmas hushdan, to‘g‘risi.

[1] **Zulayxo** — Misr azizining xotini. Yusufning sevgilisi.

[2] **Lubob** — Chorjo‘y viloyatining qadimiy nomi. Lug‘aviy ma’nosi: suv (daryo) sohili.

[3] **Chosh** — choshtgoh, kun ancha ko‘tarilib qolgan vaqt.

KO‘KDAN INMAS, AZIZLAR

Falakka yuksaldi havolab ko‘ngil,
Endi sira ko‘kdan inmas, azizlar.
Bir xayolga qattiq bo‘libdi mashg‘ul,
Undan kechishga hech ko‘nmas, azizlar.

Totib ko‘rmish muhabbatning qandini,
Tinglamaydi zohidlarning pandini,
Chiqdi makonidan, uzdi bandini,
Aylanib joyiga qo‘nmas azizlar.

Ishq ishini anglab, dilin xush etgan,
Ayrilarmi oshiq[1] bo‘lib, jo‘sh etgan,
Yor qo‘lidan musaffo may no‘sh etgan,
Labi[2] tegsa, ichib qonmas, azizlar!

Bir xat bordir Fotimaning[3] sochida,
Qiyomatda o‘qirlar xalq qoshida,
Bir o‘t bordir oshiqlarning ichida,
Biz bilgan o‘t kabi yonmas, azizlar.

Firog‘iy, ishq oshiqqa qanot aylar,
Ishq ishi shu: yaqinlarni yot aylar,
Qalovsiz yondirar, yelsiz o‘t aylar,
Har qancha urinsa, so‘nmas, azizlar.

---

[1] **Oshiq** — ilohiy jamol va kamolga oshufta bo‘lib, tamomi jiddu jahd bilan Haq taoloni izlovchi kishi.

[2] **Lab** — so‘fiylar istilohotida ma’naviyat olamidan anbiyoga malaklar vositasida, anbiyoga esa ilhom orqali nozil bo‘ladigan kalom. Pirning ilohiy ma’rifatga kon so‘zi va uning mazmuni ham ko‘zda tutiladi.

[3] **Fotima** — Muhammad alayhissalomning qizi, Hazrat Alining xotini.

YO OLLOH

Jon tug‘yonga keldi, yondim, yorildim,
Bag‘ishlasang netar yorni, yo Olloh!
Behisob sevib, besabab ayrildim,
Bag‘ishlasang netar yorni, yo Olloh!

So‘zlashardim, sirlashardim yor bilan,
Yuragida yor xayoli bor bilan,
Endi esa ayirdilar zo‘r bilan,
Bag‘ishlasang netar yorni, yo Olloh!

Yor yodi-la yashash na xush jahonda!
Yor yodidan ishqim kuchayar jonda,
Meni g‘amda qo‘yma, uni armonda,
Bag‘ishlasang netar yorni, yo Olloh!

Sidqidildan yor meni der, men yorni,
Qon bo‘ldi jigari, bitdi qarori,
U unda oh chekar, men bunda zori,
Bag‘ishlasang netar yorni, yo Olloh!

Ko‘p edi pinhona shirin so‘zimiz,
Bo‘lgan ishga hayron qoldik o‘zimiz,
Intizor boqishdan to‘ymas ko‘zimiz,
Bag‘ishlasang netar yorni, yo Olloh!

Qo‘lim senga yetmas arz etay desam,
Vasliga, imkon yo‘q hech, yetay desam,
Dilbar dardi qo‘ymas tinch yotay desam,
Bag‘ishlasang netar yorni, yo Olloh!

Maxtumquli, bu bir ko‘p ko‘hna jahon
Sevmoq-sevilmoqlik dasturi zamon,
Gunohim ko‘p bo‘lsa, lutfingga yo‘q son,
Bag‘ishlasang netar yorni, yo Olloh!

YONDIRAR

Har zamonda bir o‘y chulg‘ab boshimni,
Xayol dili osoyishni yondirar.
Yurak ilhomlanib, aqlim bo‘lib jam,
Fikr band etar, g‘am hushni yondirar.

Darveshlar oh ursa ayni saharda,
Belbog‘in bo‘yniga solsa agarda,
Duoyibad qilsa Haq suygan banda,
Falakni titratar, Arshni yondirar.

Ahmoq o‘zin oqil bilan teng aylar,
Avval ishni qilib, fikr so‘ng aylar,
Zehningni koyitib, joning tang aylar,
Aytganingni qilmay, boshni yondirar.

Haq suyibdi Ali degan valisin,
Qadimiy urf hurmat etish ulusin,
Yetmish ikki xalq ko‘mar o‘ligin,
Itparast millatni, loshni yondirar.

Maxtumquliga Haq tutsa piyola,
Piyola bo‘shatib, ketsa xayola,
Oshiqlar yurakdan etsa oh-nola,
Tog‘im qovjiratib, toshni yondirar.

G‘IYBATCHI

Mahsharda shikoyat etar tilingdan,
Rasvoliging shudir sening, g‘iybatchi!
Umring yelga berma, ozma yo‘lingdan,
Ranjitma hech yurt-u eling, g‘iybatchi!

Bulutdek gumburlab, yashindek gurlar,
Gohi muzdan taxtlar, otashdan yerlar,

Xachirdek chayonlar, bug'rodek[1] morlar,
Badaningdan so'rar qoning, g'iybatchi!

Holing ko'rgan hayron bo'lib yig'larlar,
Seni Sijjin[2] degan joyda bog'larlar,
Tiling tutib, temir bilan dog'larlar,
Qora bo'lar unda kuning, g'iybatchi!

Yomon so'z ayirar yaxshi do'stingdan,
Gunohlaring yuki bosar ustingdan,
Jahannam ichinda tamug'[3] ostindan,
Falaklarga chiqar uning, g'iybatchi!

Malaklar ko'tarib gurzi urarlar,
Vujudingdan suvdek oqar zaharlar,
Vishillab turadi yoningda morlar,
Badaningdan so'rar qoning, g'iybatchi!

Qutulmassan do'zax o'tidan bir dam,
Taningga yoyilar ilon zahri ham,
Bu azobdan nola qilib, chekib g'am,
Falaklarga chiqar uning, g'iybatchi!

Senga o'rin tayinlarlar bir joyda,
Kuning kechar kecha-kunduz oh-voyda,
Azobingni orttirarlar har oyda,
Kashandadir qadrdoning, g'iybatchi!

Yuzi qora bo'lib Haqqa mahsharda,
Savobingdan ajrab, bo'lib badarg'a,
Iymonsiz taningni tiqsa saqarga[4],
Nolir shunda sendan joning, g'iybatchi!

[1] **Bug'ro** — ikki o'rkachli tuya.

[2] **Sijjin** — do'zaxdagi bir vodiy.

[3] **Tamug'** — do'zax.

[4] **Saqar** — do'zaxdagi bir vodiy.

Maxtumquli aytar elning ko'zindan
Tushibon xor bo'lsang, ko'rgil o'zingdan,
Tilingni tiymasang harom so'zingdan,
Barbod bo'lar tamom dining, g'iybatchi!

KASHANDA

Haq seni ra'yingga qo'ymish jahonda,
Qila bilganing qil bunda, kashanda!
Hisob so'raganda yaxshi-yomondan,
Javobing ne bo'lar unda, kashanda?

Quvvatingni so'rib, kuching oz etar,
Kayfi boshga urib, hushdan ozdirar,
Suyaging sirqirar, eting qizdirar,
Bir nishona budir senda, kashanda!

Qo'lingni tort bunday bo'lmag'ur ishdan,
Puling kuyar, iching yonar chekishdan,
Erta qoning to'ldirarlar otashdan,
Zaxmi[1] chiqmas, qolar jonda, kashanda.

Ikki dunyo yaxshilik yo'q egriga,
Odam bo'lsang, qadam qo'ygil to'g'riga,
Benamozga, g'iybatchiga, o'g'riga
Hamroh bo'lar yomon kunda kashanda.

Maxtumquli, Olloh jondan yaqindir,
Chilim bir sho'r suvdir, tan bir zamindir,
Iymon bir qush bo'lsa, jisming bir indir,
Qush yasholmas badbo'y inda, kashanda.

[1] **Zaxm** — yara, jarohat.

EY NOSKASH

Go‘yo bu dunyoga kelding-kelmading,
Kul yig‘ishdir mudom ishing, ey noskash.
Shariat yo‘lidan xabar olmading,
Qolar do‘zax ichra loshing, ey noskash.

Tamaki deb har eshikka yo‘rtarsan,
Topsang tuyib, bir otimin otarsan,
Burun qoqib, yon-beringga surtarsan,
Harom bo‘lar ust-u boshing, ey noskash.

Namozga turganda ustingga oqar,
Buning uchun ming yil do‘zaxda yoqar,
Vayl[1] degan joyda tutuning chiqar,
Qabul bo‘lmas ko‘zda yoshing, ey noskash.

Yaxshi-yomon ishing haq der u har chog‘,
Qalampirdan yasab olar nosqovoq,
Mudom yurar ust-u boshi kir-chir, dog‘,
Sendan kechar teng-u to‘shing, ey noskash.

Ko‘zingni chaqnatib, mehring qondirar,
Xumor qilsa, iymoningni yondirar,
Taom yesang, tovog‘ingni to‘ldirar,
Murdor bo‘lar ichgan oshing, ey noskash.

Har odamni ko‘rsang, pisib qocharsan,
Burningni tortolmay, og‘iz ocharsan,
Kayfi tutsa, o‘g‘il-qizdan kecharsan,
Hayron bo‘lar qo‘ni-qo‘shning, ey noskash.

Qirqqa kirganingda boshingga chiqar,
Shu shirin joningni do‘zaxda yoqar,
O‘t qilib noskading, burningga tiqar,
Kasridan to‘kilar tishing, ey noskash.

[1] **Vayl** — do‘zaxdagi bir vodiy.

Maxtumquli, o‘lgandan so‘ng bilarlar,
Janoza o‘qimay, burning tilarlar,
Saqar degan joyga seni solarlar,
O‘t bo‘ladi ich-u tashing, ey noskash.

NELAR KO‘RINAR?

Sayr etaylik bu jahonda,
Jahonda nelar ko‘rinar?
Iskandar, Jamshid soldirgan
Buyuk binolar ko‘rinar.

To‘qaylari sher, qoplonli,
Bog‘, gulzor, yashil bo‘stonli,
Kun tushmagan o‘t-o‘lanli,
Suvli daralar ko‘rinar.

Yaratgan bor etdi yo‘qdan,
Tog‘lar umr ko‘rar ko‘pdan,
So‘rsang xabar berar Nuhdan,
Qadimiy ovlar ko‘rinar.

Dunyo mudom dil tig‘lagan,
Na shod qoldi, na yig‘lagan,
Qor-yomg‘irlar, muz bog‘lagan
Kamarli tog‘lar ko‘rinar.

Boshidan hech tuman ketmas,
Davrlar o‘tib, yerga botmas,
Qarib qolmas, o‘lmas, yitmas,
Qo‘rg‘onli tog‘lar ko‘rinar.

Na kulba qolar, na chetan,
Sanamlar sayr etib o‘tgan,
To‘ti, bulbul maskan tutgan
Xushhavo bog‘lar ko‘rinar.

Maxtumquli, kim bor o‘lmas?
Ajal to‘ymas, tuproq to‘lmas,
Osmon tushmas, yer ters bo‘lmas,
Kun yurar, oylar ko‘rinar.

TUSHIGA YETMAS

Yo‘qchilikda kimlar surgan davr-davron.
Yotib, ko‘rgan yaxshi tushiga yetmas.
Kim ming hasrat bilan topar quruq non,
Bir lazzatli taom tishiga yetmas.

So‘rar bo‘lsang, ko‘ksim ichra o‘tlar bor,
Yuz tumandan afzal so‘zlarim qator,
Yomg‘irsiz, giyohsiz o‘tdi ko‘p bahor,
Xush-u xursand o‘tgan qishiga yetmas.

Kigiz qalpoq kiyib necha donolar,
Sidqidildan so‘rsang, sochar ma’nolar,
Salla o‘rasa-da, ahmoq mullalar
Ilm-u ma’rifatning qoshiga yetmas.

Nodonga har qancha so‘zlasang oyat,
Payg‘ambar hadisin etsang rivoyat,
Achinib ming bir so‘z qilsang hikoyat,
Hatto qulog‘ining tashiga yetmas.

Ranjitsa o‘g‘il-qiz ona-otasin,
Tavba qilmay, Haq kechirmas xatosin,
Davron kelsa, bilmas ne yo‘l tutosin,
Bu ishlar har kimning boshiga yetmas.

Nechalar mol topmay, ahvoli nochor,
Nechalar sarxushdir bo‘lib dunyo yor,
Nechalar bemahal o‘limga duchor,
Nechalar bor surgan yoshiga yetmas.

Maxtumquli, toat qilsam-da har dam,
Xatolarim ko‘p deb, ko‘nglim to‘la g‘am,
Odam bor, har qancha yedirsang ham kam,
Odam bordir, yegan oshiga yetmas.

TO‘NLI KO‘RINAR

Boqmaydilar faqir tomon,
Ko‘zga zar to‘nli ko‘rinar.
So‘z fahm etmas ahmoq-nodon,
O‘ziga tilli ko‘rinar.

Boshga yetmaguncha qurtlar,
Qasd aylamang, kerak yurtlar,
Taniladi jangda mardlar,
El ichra molli ko‘rinar.

Fikr et boshga ish tushgan on,
Foyda bermas so‘ng pushaymon,
Mardga jang-u otga maydon,
To‘yda zar, sholli ko‘rinar.

Joni sog‘ning so‘zlar tili,
Mol sochadi saxiy qo‘li,
Har bir kishiga o‘z aqli,
Yetuk, kamolli ko‘rinar.

Qadimdan qolgan yaxshilik,
Yaxshi bo‘lar yaxshi qiliq,
Yaxshilik bo‘lsa ham kichik,
Mardga sevimli ko‘rinar.

Kel, aqling to‘lgandir endi,
Yurak payvandi, jon bandi,
Har kishining o‘z farzandi,
Go‘zal, jamolli ko‘rinar.

Maxtumquli, boyliging so‘z,
So‘zdan senga kim yot, kim o‘z,
Hunaring yo‘q, so‘z rizq-u ro‘z.
So‘zdan dovruqli ko‘rinar.

TO‘N TOPILMASA

To‘q talashar go‘zal kiyim kiymoqqa,
Shol ham yomon emas, to‘n topilmasa.
Och tirishar qattiq nonni yemoqqa,
Mushkul pishirishga un topilmasa.

Hosil umidi bor ekin ekkanga,
Bu ishlar ma’lumdir zahmat chekkanga,
Yalang oyoq qo‘yib bo‘lmas tikanga,
Naylasin kiyishga ko‘n[1] topilmasa.

Ishning oxirini o‘ylamas nodon,
Guldan tarvuz unib chiqmas qachon,
Uzun majlislarga chidamas cho‘pon,
Nima qilsin ko‘ngli jam topilmasa.

Yigitlikda barcha ishratda yayrar,
Xayoliga kelmas tashvish-u o‘ylar,
Tishsizlar non topsa, chorasin aylar,
Mushkuldir yeyishga non topilmasa.

Maxtumquli sevmas jadalni, jangni,
Oxirat yo‘lini tutdi ko‘p tengi,
Dunyoda ish bormi, bo‘lmasa so‘ngi,
Mashaqqatdir tanda jon topilmasa.

[1] **Ko‘n** — bu yerda: oyoq kiyimi, kovush ma’nosida.

GO‘KLANG

Cho‘lga chiqar bo‘lsa, o‘xshar
Kiyikka, qulonga go‘klang.
Jang qilganda aylanar
Naq och arslonga go‘klang.

El-u yurting sobitdir, bas,
Balo boqmas, yomon yoqmas,
Ollohning amridir, chiqmas —
Bu so‘zim yolg‘onga, go‘klang.

Ilhom berdi Olloh menga,
Sendan nazar yetdi yana,
Yo‘q bo‘lar qasd etgan senga,
Qaytib to‘l Gurgonga, go‘klang!

So‘zni tilimga Haq solar,
Aytilgan bir pasda bo‘lar,
Yomonlik aylagan kelar
“Qutqar!” — deb omonga, go‘klang.

Xuruj aylab tursa har on,
Nishopurga yetar farmon,
Evrilar bu davr-u davron,
Ahli musulmonga, go‘klang.

Ot oyog‘i aro yakson —
Xarob bo‘ladi Xuroson,
Iroq ketsa, Mozandaron[1]
Kelarlar farmonga, go‘klang.

Dining yashnar Haq nuridek,
Kuching ortar Rum zo‘ridek,
Olisharsan och bo‘ridek,
Mashq etib maydonda, go‘klang!

[1] **Mozandaron** — Kaspiy dengizi janubidagi Erondagi viloyatlardan biri.

Zo‘r ber sipohing kurashga,
Qudrating bundan-da oshar,
Qilich urib qizilboshga,
To‘larsan Eronga, go‘klang!

Ulug‘ dargohga yuz surtib,
Istayman — davlating ortib,
Firog‘iy der: qo‘shin tortib,
Borarsan Tehronga, go‘klang!

KO‘RILSIN ENDI

Qo‘rqa-qo‘rqa tuban ahvolga tushdik,
Taqdir nima bo‘lsa, ko‘rilsin endi!
Fikr qozonida qaynadik, pishdik,
Tegma, u jo‘sh urib to‘kilsin endi!

Avval-boshda Jabbor bor etdi yo‘qdan,
Ba’zilarni nurdan, ko‘pni tuproqdan,
Xabar keldi, do‘stlar, yaqin-yiroqdan,
Yovga bo‘ri o‘yin qurilsin endi!

O‘tirmasin kampir, yoshlar tul bo‘lib,
Qolmanglar, turkmanlar, elga til bo‘lib,
Dushman zoti musulmonga qul bo‘lib,
Oldi Sanggi toqqa surilsin endi!

O‘zingiz ko‘rdingiz — ko‘plar gadodir,
Kechalar adashdi, necha fidodir,
Ey azizlar, madadkor bir Xudodir,
Ali zulfiqori sug‘rilsin endi!

Nohaq to‘kilmasin qizil qonimiz,
Dushmanga qolmasin butun nonimiz,
Esda tuting — omonatdir jonimiz,
Haqqa zarur bo‘lsa, berilsin endi!

Ustimizdan dushman hukm surgandir,
Musulmonlar jabr-u jafo ko‘rgandir,
O‘g‘il-qizi har yerda xor yurgandir,
Barchasi ul joydan suprilsin endi!

Firog‘iy yuz tutar turkman eliga,
Dushman qo‘l urmasin qizil guliga,
Do‘stlar, bizni oxiratning seliga
G‘arq etmangki, dushman qirilsin endi!

O‘G‘LIM — OZODIM

Ozodiy:
— Siringni fosh aylama, saqlama pinhon,
Ammoki, so‘zimdan chiqmagil, o‘g‘lim!
Yuz o‘y kelib-kechar boshimdan har kun,
Ranjitib, dil uyin yiqmagil, o‘g‘lim!

Maxtumquli:
— Uyalardim — sirim aylamasdim fosh,
Fosh qilishim istar bo‘lsang, Ozodim!
Yuz o‘y kelib kechar har kun bu boshga,
Ko‘ngil tilar safar qilsak, Ozodim!

Ozodiy:
— O‘zga jafo qilma, chorla Rahmonni,
Orzu qilma xonni, bekni, sultonni,
Bas bizga avvalo Xudo bergani,
Xayolingni bo‘lma, ketmagil, o‘g‘lim!

Maxtumquli:
— Ketgimiz yo‘q olti bilan, besh bilan,
Dunyo kezsak necha teng-u to‘sh bilan,
Balki shunda g‘amgin ko‘nglim xush bo‘lar,
Dil bir yerda qaror topmas, Ozodim!

Ozodiy:
— Tajribang yo‘q, yoshsan, keta bilmassan,
Yo‘lning azobini cheka bilmassan,
Har qanday ishni ham eta bilmassan,
Ketish havasini etmagil, o‘g‘lim!

Maxtumquli:
— Kishi to so‘zlamay siri fosh bo‘lmas,
Oq-u qorani tanigan yosh bo‘lmas,
Hozir yubormasang, ko‘nglim xush bo‘lmas,
Ra’yimni qaytarma, yo‘l ber, Ozodim!

Ozodiy:
— Bizni tashlab, safar etma ixtiyor,
Bu yo‘l behudadir, bir ketishing bor,
Qo‘y, ketma, deb sendan ko‘p qilarman zor,
Ranj-u harakatga botmagil, o‘g‘lim!

Maxtumquli:
— Ko‘nglimni band etmish islom havasi,
Pul-u boylik mudom xalqning tamasi,
Qo‘y, ko‘nglimni buzma, zoring nimasi,
Bu safar ishi, oq yo‘l ber, Ozodim!

Ozodiy:
— Qur’onni o‘qib yur, yaxshi kalomdir,
Yov zolim bo‘lsa ham, dining islomdir,
Yo‘llarda qaroqchi, o‘g‘ri, haromdir,
O‘lgungmi, qolgungmi, ketmagil o‘g‘lim!

Maxtumquli:
— Sinayin, ko‘rayin bu kun iqbolim,
Vaqt qulay, yaxshidir sog‘ligim, holim,
Jonimga qasd etib, yetsa ajalim,
Shu yerda bo‘lsa ham topar, Ozodim!

Ozodiy:
— Qayga borishni muncha qasd etarsan?
Qanday ishki, o'zing bunday tutarsan?
Qani, ayt, kim bilan o'zi ketarsan?
Oh urib, har yoqqa boqmagil, o'g'lim!

Maxtumquli:
— Jilovdori[1] bo'lgum Yazirxon pirning,
Ko'ngil qushi qanot qoqar faqirning,
Bugun yetti kunki, "Alhamd" o'qirman,
Ko'nglimni shod ayla, yo'l ber, Ozodim!

Ozodiy:
— Ozodiy der: birga safo suraylik,
Yo'qsa yuboraylik, sinab ko'raylik,
"Omin" — deb tur, bir fotiha beraylik,
Haq yo'ldoshing bo'lsin, mayli, bor, o'g'lim!

Maxtumquli:
— Maxtumquli aytar: qolibman ko'pdan,
Ko'ngil qushi qanot qoqar yiroqdan,
Omonligim tila har yerda Haqdan,
Duo qilib, Haqqa yolvor, Ozodim!

QOLMAS-O

Ko'rsam, ey dilbar, jamoling, ixtiyorim qolmas-o,
Ko'rmasam gar bir nafas, sabr-u qarorim qolmas-o,
Vasling orzusiga bir dam e'tiborim qolmas-o,
Bo'lmasa vasling umidi,
hech madorim qolmas-o.

[1] **Jilovdor** — xizmatkor; otlarga qaraydigan xizmatkor. Bu yerda: murid; hamroh ma'nosida.

Gar inoyat bo'lmasa sendan, ochilmas yo'limiz,
Doimo tutqun bo'lib, bo'lmas kushod iqbolimiz,
Jabr ila bemor bo'lib, oshufta bo'lgay holimiz,
Rahm etib sen so'rmasang, bir o'zga yorim qolmas-o.

Hasrat ichra qolmisham ojiz bo'libon bunda man,
Farq etolmasman o'zim: ayvonda yo vayrondaman,
Hech kishi bilmas bu dardim, bo'lmisham darmondaman,
O'ylagum: o'lmasdan avval tanda jonim qolmas-o.

Bayt ul-ahzonmanki[1], shod kelgan kishi g'amnok[2] bo'lur,
To hayotman — sen uchun har lahza ko'ksim chok bo'lur,
Suratim esdan chiqar-u ustuxonim[3] xok bo'lur,
To qiyomatga qadar nolish-u zorim qolmas-o!

Garchi bu Maxtumqulidir moyili nafs-u havo,
Birliging haqqi, ilohim, hojatim aylar ravo,
Bo'lmasa sendan ijobat har murod-u muddao,
Kun kabi ma'lum: biror-bir g'amgusorim[4] qolmas-o.

BAXTIM QORADIR

Bu ne balo, bu ne hasrat, ne g'avg'o,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.
Nolishim ijobat aylamas Xudo,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

---

[1] **Baytul-hazan** *(Baytul-ahzon)* — g'am uyi, qayg'u kulbasi, hasratxona. Bu tushuncha Ya'qub payg'ambar hayoti bilan bog'liq bo'lib, sevimli jigarbandi Yusufdan ajralgach, u yo'l bo'yida bir uy tiklab, uning yo'liga ko'z tikib, kecha-kunduz yig'lay-yig'lay ko'r bo'lib qoladi. Bu uy bayt ul-ahzon nomi bilan mashhur. Mumtoz adabiyotda so'ngsiz dard-u g'amda, chorasiz ahvolda qolgan kishining uyini, hayotini, dunyoni bayt ul-ahzonga nisbat berish bir an'ana tusini olgan.

[2] **G'amnok** — g'amgin, qayg'uli.

[3] **Ustuxon** — suyak.

[4] **G'amgusor** — g'amni ketkazuvchi, ko'ngil ochuvchi, mehribon, g'amxo'r.

Falak topishgandir ola ko‘z[1] bilan,
Dardimni tinglamas desam so‘z bilan,
Elimni duch qildi tog‘-u tuz bilan,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

Go‘ro‘g‘lidek g‘ayratimdan ayrildim,
Qaridim-u quvvatimdan ayrildim,
Ikki farzand — zuryodimdan ayrildim,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

Tun-u kun bilmayman nedir farog‘at,
Yuragim notinchdir, ko‘ngil betoqat,
Ka’bam, qiblam, qardosh[2] bo‘ldilar vafot,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

Charx qo‘lidagi ov qochib qutulmas,
Odamzodning tortgan yoyi otilmas,
Yolg‘iz erning sira oti tutilmas,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

Teng-to‘sh ketdi tutib bir ish boshini,
Men uzoqda to‘kib hijron yoshini,
G‘am tutdi ixlos-u murod qoshini,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

Shum falak har kuni menga tosh otar,
Yolg‘iz qolgan kishi kimga suyanar?
Yomonlar ko‘zimga aziz ko‘rinar,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

Sarbonim[3] adashdi, tarqadi molim,
Orzularim savil, tersdir iqbolim,
Qaridim — oltmishda qolmay majolim,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

---

[1] **Ola ko‘z** — bu yerda: yaramas, muttaham ma’nosida.

[2] Bu yerda shoirning otasi, onasi va akalari ko‘zda tutilmoqda.

[3] **Sarbon** — tuya boquvchi, cho‘pon.

Hush ketdi, g‘am-qayg‘u oldi ixtiyor,
Saroy vayron, karvon jo‘nadi, men zor,
Menglixonim ishqin unutdim zinhor,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

Bu dunyo ko‘plarga bepoyon bo‘ldi,
G‘arib qo‘lin yozsa, pushaymon bo‘ldi,
Nomardlar mard bo‘ldi, elga xon bo‘ldi,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

Oh, naylay, o‘tkazdim yigitlik chog‘im,
Daraxti quridi, bo‘sh qoldi bog‘im,
Tumani tarqadi, eridi tog‘im,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

Maxtumquli, yig‘lab qolmas qarorim,
Bo‘sh qoldi do‘konim, tarqadi borim,
Oyoq osti bo‘ldi nomusim, orim,
Hech kim rahm aylamas, baxtim qoradir.

UYG‘ONMAS

Ey do‘stlar, uyquli baxtim
Kecha-kunduzi uyg‘onmas.
Mevasin to‘kkan daraxtim
Na bahor, yozi uyg‘onmas.

Ey azizlar, musulmonlar,
O‘tdi qancha pok jononlar,
Loy ichida yotgan jonlar –
Ko‘llarim g‘ozi uyg‘onmas.

So‘libon bog‘larning guli,
Esmaydi Xazarning yeli,
Zaqqum bo‘ldi arab tili,
Hindi ovozi uyg‘onmas.

Teng-u to‘shim, do‘st-qadrdon,
Falak bag‘rim tildi yomon,
Maxtumquli, foniy jahon
Yeyar-ichar — jondan qonmas.

SO‘LIBDI FIG‘ON BILAN

Umrim-yey, gul umrim-yey,
So‘libdi fig‘on bilan.
Gulxan ustiga tushib,
Kuyibdi tan-jon bilan.

Umrim-yey, qora ko‘zim,
Kimga kerakdir so‘zim,
Go‘klang ichra bir o‘zim,
Qolibman armon bilan.

Umrim, gulshan bahorim,
Tushmay ajib nazarim,
Maxtumquli, ozorim,
Ketdi tan-u jon bilan.

ARMONIM QOLDI

Zubayda[1], ojizam, tingla,
Ko‘nglimda armonim qoldi.
Ko‘zlarimdan oqizdim qon,
Zaminga boq — qonim qoldi.

Bulbulman, chekmisham zorni,
Tugadi ishqning bozori,
Urildi hijron xanjari,
Yig‘lab Menglixonim qoldi.

[1] **Zubayda** — Maxtumqulining singlisi.

O‘tgan kunlarim tush bo‘lib,
Kezdim elimdan uyalib,
Qarang, jasadim bo‘sh qolib,
Lahad ichra jonim qoldi.

Kundan-kunga dardim ortib,
Yurmadim dunyoda yo‘rtib,
Zahmat chekib, ozor tortib,
Yozganim — dostonim qoldi.

Zolim falak, makkor falak,
Ko‘p jonlarni qilding halak,
Lola, zamin, osmon, falak,
Voh, mohitobonim qoldi.

Maxtumquli, qora yuzing,
Tinglamaslar zoring, so‘zing,
Zubaydam, yoshlasang ko‘zing,
Xaridsiz do‘konim qoldi.

BILMAGAN ERDAN

Ko‘ngil sira bo‘larmi shod,
Bir ko‘ngil olmagan erdan.
Yaxshilikni umid etmang,
Yomonlik bilmagan erdan.

Birov elga beklik etar,
Bir jam bilan yo‘lga ketar,
Rahnamolik yiroq ketar,
Yomon so‘z chekmagan erdan.

Yaxshi er el aybin ochmas,
Ko‘ra-bila harom ichmas,
Yaratgan gunohin kechmas,
Ko‘z yoshin to‘kmagan erdan.

To‘xtamas, aylanar davron,
Narxlar o‘sar, o‘tar zamon,
Davlatlar mahv bo‘lar oson
Bir og‘za boqmagan erdan.

Jang maydoni — mardlar uchun,
Bo‘riga bermas sher ovin,
Rasul bezor jang bo‘lgan kun
Yo‘ldoshga boqmagan erdan.

O‘z-o‘zidan aqli yetmas,
Donolarning so‘zin tutmas,
Qashshoqlik yo‘q bo‘lib ketmas
O‘n ish tark etmagan erdan.

Maxtumquli, yongin, o‘chgil,
Yo jim o‘tir, yo dur sochgil,
Bir dumi yo‘q itdir, qochgil —
Nasihat yoqmagan erdan!

FATTOH

Eron, Turon endi qo‘ling ostida,
Surgin endi bu davronni sen, Fattoh!
Jumla turkman o‘ynar cho‘ling ustida,
To‘kma, bilgin, nohaq qonni sen, Fattoh!

Bugun shohsan, erta gado bo‘larsan,
El-u yurtdan, dindan judo bo‘larsan,
Bir kun joning chiqib, fido bo‘larsan,
O‘zga olib ko‘p gunohni sen, Fattoh!

Ko‘zim yetar, bilsang, boshim olarsan,
Yo band urib, meni chohga solarsan,
So‘zim haq: sen ko‘p gunohga qolarsan,
Bu olishing bilan jonni sen, Fattoh!

Sen turkmanning elin, gulin so‘ldirding,
Go‘zal yurtim qonlar bilan to‘ldirding,
Shahid bo‘lganlarning boshin qoldirding,
Unutib taxti ravonni sen, Fattoh!

Xalq qasosda yonar, ahvoling yomon,
O‘ldirar yo zindon qilar begumon,
Taxting qular, dema qolarman omon,
Chunki zahar qilding nonni sen, Fattoh!

Farmoningdan talon tushdi ellarga,
Ko‘zlar to‘ldi sen tufayli sellarga,
Qirq darra buyurib nozik bellarga,
Daryo etding ko‘zda qonni sen, Fattoh!

Ayirding ota-yu ona, qardoshdan,
Qo‘llar-u oyoqlar, soqol-u sochdan,
Tishdan-u tildan-u aqldan, hushdan,
Zindon etding bu jahonni sen, Fattoh!

Ayirding, qon qaqshab qoldi yorimiz,
Falaklarga yetdi tortgan zorimiz,
Odamlar osig‘liq turar dorimiz,
Qassobday so‘yding insonni sen, Fattoh!

Firog‘iy, dard to‘kib, dard-da yonadi,
Zolim Fattoh qonlar ichib qonmadi,
Tirikman-u lekin o‘lik sanadi,
Yo‘qsa o‘ldir, bu dostonni ol, Fattoh!

DAVRON KELMADI

Nodonlikdan tushdim falak to‘riga,
Ko‘p kutdim, men kutgan davron kelmadi.
Chidamasman endi hijron zo‘riga,
Ko‘p kutdim, men kutgan davron kelmadi.

Qirqqa kirdim — sabr kosam to‘ldi-ku,
Oh-zor qilib, undan ko‘nglim qoldi-ku,
Niyat menga yomon hamroh bo‘ldi-ku,
Ko‘p kutdim, men kutgan davron kelmadi.

Elga bir qora balo oraladi,
Og‘zin ochib, tili bilan yaladi,
Itday ko‘rgan har odamni taladi,
Ko‘p kutdim, men kutgan davron kelmadi.

Bechoraga son yo‘q, ma’raka ko‘rmas,
Faqirni Haq sevar, lekin mol bermas,
Ot minib chiqsa-da, tushovli, yurmas,
Ko‘p kutdim, men kutgan davron kelmadi.

Baxilning niyati yomon — mol yig‘ar,
Yeyolmaydi, har dam rizqini qirqar,
Moli harom bo‘lar, o‘zini yiqar,
Ko‘p kutdim, men kutgan davron kelmadi.

Haq so‘zini deydi mullalar xato,
Yolg‘on so‘z ustiga yopdilar mato,
Toshni eritdilar qasamdan hatto,
Ko‘p kutdim, men kutgan davron kelmadi.

Pirlar ishi riyo — juvon sevadir,
So‘fi benomusni olib yuradir,
Uyalmasdan: “Buni Olloh aytgan” der,
Ko‘p kutdim, men kutgan davron kelmadi.

Maxtumquli, tili o‘tli, o‘t sochar,
Munofiq, nokasning aybini ochar,
Olloh qanot bersa, Hindiston uchar,
Ko‘p kutdim, men kutgan davron kelmadi.

YUTIB BORADIR

Kimlar der: bu dunyo yolg‘onchi, foniy,
Quvgan armondadir, o‘tib boradir.
Kimlar qo‘lda tutib bu keng jahonni,
Halol, harom — barin yutib boradir.

Mardlarning ishlari nomardga bog‘liq,
Sherlarning tulkidan yuragi dog‘lik,
Pir bo‘lib, sallani o‘rab it o‘g‘li,
Harom nafsin oldda tutib boradir.

Benomus bek bo‘ldi, pok yo‘ldan ozdi,
Dunyo qiyofasin Azozil buzdi,
Yomonlik ko‘payib, mamlakat to‘zdi,
Tuqqan, do‘st bir-birin shilib boradir.

Qaytarmaslar nima kelsa og‘izga,
Vatan sevgisidan zeb berib so‘zga,
Pir, oxun, sultonni keltiring ko‘zga,
Bo‘riday tutding deb yo‘rtib boradir.

Maxtumquli, zamin saroy misoli,
Inson topar-to‘plar xuddi chumoli,
Jannat ichra do‘zaxga bo‘lib molik,
Chaqirgandek bo‘lib yetib boradir.

JAFODAN O‘ZGA

Bormi borishga yering boshqa Xudodan o‘zga?
Bormaganing bormidir yuzi qarodan o‘zga?

Falak ostida kezib, jahonda jonlar chekib,
Bormi bir talab senga jabr-u jafodan o‘zga?

Goh haq-u goho nohaq yursang ko‘zdan yosh to‘kib,
Hosiling nedir sening ayb-u gunohdan o‘zga?

Yeb-ichib, yorni quchib, yotsang farog‘at ichra,
Toqating qani sening ro‘yi[1] riyodan o‘zga?

Ko‘z — go‘zalda, nafs — yemakda, til esa g‘iybat bilan,
Shoning soxta, boshda yo‘q kibr-u havodan o‘zga?

Avvalo anglamadim, so‘ng yetmadim ma’nosiga,
Bu baloda yo‘q kishi men benavodan o‘zga.

Fikr et, Maxtumquli, dunyoga boq ne ko‘rinur:
So‘nggi yo‘q aldov-u ko‘p favti[2] fanodan o‘zga!

TONG OTMASDAN BURUN

Odam o‘g‘li, yetma g‘ofil,
Uyg‘on tong otmasdan burun.
Yigitlikda toat qilgil,
Qarilik yetmasdan burun.

Qarilik toat qildirmas,
Ishing behuda, bildirmas,
Falak yig‘latar, kuldirmas,
Sur davron o‘tmasdan burun.

O‘ch — qasosdan bo‘lgin xoli,
Og‘ritma do‘st-u yor dilin,
Bir kun kelib ajal qo‘li,
Yoqangdan tutmasdan burun.

Yaqinlaring yig‘lab qolar,
Yeng, yoqasiz to‘nga solar,

[1] **Ro‘y** — yuz.
[2] **Favt** — o‘lim, vafot etish.

Bir kun omonatin olar
Sen tavba etmasdan burun.

Bu dunyoga kelgan kechar,
Xaloyiq ul maydan ichar,
Bir ajdarho og‘zin ochar,
Vahm ayla yutmasdan burun.

Mashg‘ulsan dunyo o‘yniga,
Kirarsan yerning qo‘yniga,
Ajal bandaning bo‘yniga,
Qaytaver minmasdan burun.

Ajal barchani adolar,
Qolmaslar shoh-u gadolar,
Harom yemang rahnamolar
Yuz qaro bo‘lmasdan burun.

Saqla g‘iybatdan tilingni,
O‘t-la bog‘larlar qo‘lingni,
Ochilgan toza gulingni
Olloh so‘ldirmasdan burun.

Birovga etma xiyonat,
Har jon Ollohga omonat,
Bu so‘zda bor hadis, oyat,
Fahm ayla o‘lmasdan burun.

Sahar tur, Tangriga yig‘la,
Haq deya yuraging dog‘la,
Tavba kamarini bog‘la
Qirqingga kelmasdan burun.

Maxtumquli, to‘g‘ri so‘yla,
Umring kelib-kechar, o‘yla,
Yoshi ulug‘larni siyla
Bosh go‘rga kirmasdan burun.

TUZATMAK BILAN

Yetmish yoshli do‘stim, qo‘lga olma yoy,
Mo‘ljalga tegmas ming jahd etmak bilan.
Quvonma kesakdan qurilsa bino,
Kesak bino bo‘lmas tuzatmak bilan.

Odamzoddan chiqar odamlik isi,
Muttahamning tezda chiqadi misi,
Mo‘minni ranjitar yaramas kishi,
Mudom da’vo qilar tuz-namak bilan.

Uzoq yo‘lga bir badbaxtni bosh etma,
Haq amriga bo‘ysun, diling tash etma,
Ahmoqqa dil ochib, siring fosh etma,
G‘alvirda suv turmas bog‘lamak bilan.

Do‘st tutma odamning qari ko‘sasin,
Borin yo‘q deb, bo‘sh ko‘rsatar kisasin,
Xudoyim bo‘sh etsa aqling kosasin,
Ne naf zohiridan bezatmak bilan.

Maxtumquli, avval o‘zingni tuzat,
O‘zingni sen o‘zgalarga qil ibrat,
Oz ye-yu oz uxla, oz so‘zla faqat,
Ne bor ma’nisiz so‘z uzaytmak bilan.

KETMASMISH

Ellar, hey, Majnun tog‘ining
Boshidan tuman ketmasmish.
Shubha domida qolganning
Ko‘nglidan gumon ketmasmish.

Bo‘ri do‘st bo‘lmas hech vaqtda,
Umid etma har nomarddan,

To o‘lguncha mard yigitdan
Nayza, o‘q, kamon ketmasmish.

G‘ofil odam o‘g‘li, bilmas,
O‘limini yodga solmas,
Mol-u mulking vafo qilmas,
Yoningdan iymon ketmasmish.

Qiyomat yaqin kelganda,
Yer-u ko‘kni suv olganda,
Ollohdan o‘zga o‘lganda,
O‘n sakkiz makon ketmasmish.

Yer bilan ko‘kdan quvvatli,
Shul Azroildan haybatli,
Besh kishining xarish[1] otli
Oldidan ilon ketmasmish.

Oshiqlar tarki jon etsin,
Ko‘zda yoshin ravon etsin,
Mard yigitlar ehson etsin,
Ehson benishon ketmasmish.

Maxtumquli, qolmish dardga,
Ishing tushmasin nomardga,
Qiyomat kuni jo‘mardga
Do‘zaxdan ziyon yetmasmish.

O‘TIB BORADIR

Bu foniy jahonga ko‘ngil berganlar
Ishin xato aylab, o‘tib boradir.
Qur’on ochib, taqdirini ko‘rganlar
Iqbolni bir pulga sotib boradir.

[1] **Xarish** — do‘zaxdagi yirtqich ilon.

Jafosi ko‘p foniy bu yolg‘on jahon,
Mard ko‘nglida tutar bo‘ldi u makon,
Iso anglab, Luqmon qilmas dard ehson,
Ko‘z yumib, yonidan o‘tib boradir.

Kimlar bu dunyoga erkiga yetmish,
Kimlar ko‘kka uchib, kim loyga botmish,
Kimlar molini har yoqqa uzatmish,
Kim dunyo hirsini tutib boradir.

G‘avg‘odan chiqmadi ko‘plarning boshi,
Kim kuydirdi ota, do‘st-u qardoshni,
Kimlar har qadamda tayyorlab oshni,
Kimlar och holida yotib boradir.

Kimlar toj-u taxtda farmon yuritib,
Kim chopar chamanni qo‘lga kiritib,
Kimlar otasini, elni xor etib,
Gunohlar chohiga botib boradir.

Kimlarning diliga cho‘kar oh-zori,
Kimlarning bog‘ida bitmish anori,
Kimlarning bag‘rini yondirib nori,
Tikanlar bag‘riga botib boradir.

Kimlarning yurishib doim davroni,
Kimlar o‘zin bilmay yig‘ar dunyoni,
Kimlarning hamisha do‘zax makoni,
Kimlar jannat sari yetib boradir.

Kimlar yor bo‘ladi go‘zal jononga,
Kimlar xotin istab, o‘t solar jonga
Kimlar ko‘z tutgancha xazina — konga,
Din-u iymonini yutib boradir.

Kimlarga bermaydi u ko‘rar ko‘zni,
Kimlar qo‘yolmaydi joyiga so‘zni,

Kimlarning juda ham go‘zaldir yuzi,
Kim esa yuzini yopib boradir.

Kimlarning yetibdi umrin zavoli,
Kimni asir etmish go‘zal xayoli,
Kimlar butun umr totmagan bolni,
Kimlar zahr-u zaqqum yutib boradir.

Kimlar haqni aytsa, notinchlik qo‘par,
Kimlar uchib yurar, kimlardir qo‘nar,
Kimlarning uyida farzandlar unar,
Kimlardir befarzand o‘tib boradir.

Kimlarga baxt o‘zini yor etmishdir,
Kim ko‘zlagan niyatiga yetmishdir,
Kimlar Haqni chorlab, yig‘lab yotmishdir,
Kimlar bu dunyoda yo‘rtib boradir.

Kim jonini yoqar mol-u dunyo deb,
Kimlar ketmish vatanini tark etib,
Kimlar elni, din-iymonni unutib,
Kimlar uni qattiq tutib boradir.

Maxtumquli, kimdir cho‘llarda cho‘pon,
Kimdir zolim bo‘lib, beradi farmon,
Kimlar bu dunyodan aylab ko‘p armon,
Kimlar xandon bo‘lib o‘tib boradir.

OT QOLMADI

Zolim falakning qo‘lidan
Oshiqlarda ot qolmadi.
Qora yerning shum fe’lidan
Uzoq umr, zot qolmadi.

Ko‘pdir falak g‘am-tashvishi,
Jonga balo har bir ishi,
Tarqadi mardlar kengashi,
Ulug‘ jamoat qolmadi.

Charx boshga ne kunlar soldi,
Dil yog‘i, ko‘z nurin oldi,
Butun elat “olim” bo‘ldi,
Bizda nasihat qolmadi.

Falak, aylama bahona,
Zulm etding gado-yu xonga,
Ochiq ko‘ngil yo‘q mehmonga,
Keksaga hurmat qolmadi.

Tog‘da turib qoldi sellar,
Ketdi hushni, egik bellar,
Maxtumquli aytar: ellar,
Ortimda zuryod qolmadi.

OZ AYLADING

Naylay, falak, makkor falak,
Shod kunlarim oz aylading.
Qilib nohaq jonlar halak,
Dard ustiga tuz aylading.

Yemirding baland tog‘larni,
G‘am qilding go‘zal chog‘larni,
Osmon uzra sen zog‘larni
Ummonlarga g‘oz aylading.

Sulton qilib navkarini,
Erkin qo‘yib ajdarini,
Urib ajal xanjarini,
Qayta boshdan noz aylading.

Nuhni sen g‘avvos aylabon,
Suzdirding ixlos aylabon,
Meni g‘amga xos aylabon,
Kelib unda soz aylading.

Gumroh kirsa haq yo‘liga,
Dil yetsa sevgan guliga,
Yig‘lagan Maxtumquliga
Xanda qilib, boz aylading[1].

TO‘ZIDI

Charx zulmi bilan, ey do‘st-u qardoshim,
Bozorimdan asil mollar to‘zidi.
Falak g‘azab qilib, aylanib boshim,
Ko‘nglimdagi bor xayollar to‘zidi.

Yurarman elda shunchaki son bo‘lib,
Qadr-qimmatim qolmay, darddan qon bo‘lib,
Bir badbaxt, sharobxo‘r elga xon bo‘lib,
Jabr qildi, go‘zal ellar to‘zidi.

G‘aflat uyqusiga asirdir ko‘zlar,
El-u yurtdan xijil beqadr so‘zlar,
Qishda Navro‘z keldi, qish bo‘ldi yozlar,
Dehistondan kelgan yellar to‘zidi.

Maxtumquli, yuragimda dard qoldi,
Dard ustidan falak nazarin soldi.
Baxtim yotib, ko‘ngil g‘amga g‘arq bo‘ldi,
Uning bilan barcha sollar to‘zidi.

[1] **Boz aylading** — o‘yin qilding.

BALO BO‘LDI

Mardlar bevaqt o‘lim topib,
Falak boshga balo bo‘ldi.
Otadan zuryodni olib,
Falak boshga balo bo‘ldi.

O‘t bo‘ldi bu yolg‘on jahon,
Ko‘ngil ne xayolda — gumon,
Qo‘ymadi birini omon,
Falak boshga balo bo‘ldi.

Qorunni fe’ldan ayirdi,
Nuhni, boq, soldan ayirdi,
Bulbulni guldan ayirdi,
Falak boshga balo bo‘ldi.

Ajal omonat qasdinda,
Firog‘iy oyoq ostinda,
Bu yolg‘on jahon ustinda,
Falak boshga balo bo‘ldi.

SURDI-DA BORDI

Falak qo‘lin cho‘zdi dunyo moliga,
Egasiz ayladi, surdi-da bordi.
Yaxshi-yomon tushar bo‘lsa yo‘liga,
Ayamay borini urdi-da bordi.

Toqqa tishin urib, toshin qo‘porib,
Daryoning suvini yutib yuborib,
Otga minib, ins-u jinslarni ko‘rib,
Bir boshdan barini qirdi-da bordi.

Mahv etdi ko‘plarning xush suratini,
Sallaga o‘ratib iflos zotini,

Bo‘ri berib butun suruv dodini,
Tish urib, barini yordi-da bordi.

Maxtumquli to‘kib qonli yoshlarni,
Zahar qilib ko‘ngil istar oshlarni,
Shahid qildi qancha go‘zal boshlarni,
O‘ylamay tuproqqa qordi-da bordi.

BORADIR

Falak bu jahonga to‘rin yozibdir,
Ins-u jins demayin yorib boradir.
Nokaslarni yig‘ib, lashkar tuzibdir,
Tog‘-adirda barin surib boradir.

Qochib qutulmassan — quvib yetarlar,
Oyoqdan chalib, yoqangdan tutarlar,
Ikki gaz tuproqqa loshing otarlar,
Taning qora yerga kirib boradir.

Bu qanday zamondir, nedir xayoli,
Jon shahriga solar mudom u yo‘lin,
Odamzod botirib loyga iqbolin,
Ustidan to‘qmoqlab urib boradir.

Maxtumquli, ko‘zi bog‘liq, chekib g‘am,
Lahad ichra charx urarmish xor har dam,
Qo‘ymay bu dunyoning bir burchini ham,
Barchani bu falak so‘rib boradir.

OLAR BO‘LDING

Falak, falak, naylay, falak,
Ko‘zda nurim olar bo‘lding.
Ko‘p jonlarni aylab halak,
Zindoningga solar bo‘lding.

Falak, falak, qiyo boqib,
Jon olarsan xanjar suqib,
Ko‘p jonlarni o‘tga yoqib,
Yolg‘iz o‘zing qolar bo‘lding.

Falak, bo‘ring ekan zolim,
Vayron qildi go‘zal elim,
Ziyod aylab dardi dilim,
G‘azab aylab kelar bo‘lding.

Maxtumquli, asir qushing
Zindondan ko‘tarmas boshin,
Falak mahv etdi qardoshin,
Qahr aylab kelar bo‘lding.

TUMAN QOLMAGAY

Boshin tuman tutgan bu baland tog‘lar —
Qartayib, boshida tuman qolmagay.
Bulbullar sayragan xushhavo bog‘lar —
Xazon urib, sarvi rayhon qolmagay.

Ulug‘ jamoatlar, ulug‘ kengashlar,
Hamfikr sirdoshlar, nochor[1], qardoshlar,
G‘am taxtida kengash qurgan tashvishlar,
Taxt sinar-u hukm-u farmon qolmagay.

Loyqalanib oqqan ne ajab sellar,
Tegrangda charx urib aylangan yellar,
Aql o‘tmas, so‘zga kelmas bu tillar,
Charx dastidan go‘zal suxan[2] qolmagay.

Qani u Iskandar — dunyoni olgan,
Rustami Zol o‘tdi — qilichin solgan,

[1] **Nochor** — bu so‘z turkman tilida ayol, xotin ma’nosida ham qo‘llanadi.
[2] **Suxan** — so‘z, nutq.

Aliga ota bas kelolmay qolgan
Mardlar vafot etdi, polvon qolmagay.

Ajaldan hech kishi qutulgan emas,
Qorunni-da yutdi shu qora yer, bas,
Ulug‘ Sulaymondan qolmadi nafas,
Daryolar quridi, ummon qolmagay.

O‘tganni sanadim, aqlim shoshibdir,
Hisobim tugadi, haddan oshibdir,
Maxtumquli oy-u kunin yashabdir,
Sohibqiron, go‘zal iymon qolmagay.

KELIB TUSHDI

Tirik dushmanim, naylayin,
Ko‘hna falak kelib tushdi.
Dardimning barin so‘ylayin,
Qo‘rquvdan ko‘nglim uvushdi.

Ayirdi ko‘zda nurimdan,
Bog‘da olma-anorimdan,
Menglixon otli yorimdan,
Yurak yondi, qaynab pishdi.

Chiqmas bo‘ldi suhbat-sozim,
Eshitsa Olloh ovozim,
Ko‘rinmas bo‘ldi yulduzim,
Oyim botdi, kunim o‘chdi.

Zahardir berilgan oshlar,
Bor, qara, ketdi qardoshlar,
Tarqab har tomon sirdoshlar,
Eron, Turon, Afg‘on oshdi.

Yot bo'ldi islomning yo'li,
Hech kimsaning yo'q xayoli,
Holdan toygan Maxtumquli,
Bas aylagil, aqling shoshdi.

YETISHSA

Ey Xudoyo, bizga bir tavfiq bersang,
Ko'ksimizga ishqdan bir dog' yetishsa.
Tilimga sidq bilan tavba yuborsang,
Saharda ko'zlarim uyg'oq yetishsa.

Sahar turib ishqing kitobin ochsam,
O'qib-o'qib ma'no durlarin sochsam,
Chiltan-la jam bo'lib, bir qadah ichsam,
Mayxonadan to'la ayog'[1] yetishsa.

Bir pir etagini tutsam, yig'lasam,
Jism-u jonim ishq o'tiga dog'lasam,
Sidqi dildan Haqqa ko'ngil bog'lasam,
Mahsharda zoyirdan[2] bir soq[3] yetishsa.

Yaxshilar izidan yursam men faqat,
Tark etmasam farz-u[4] vojib[5] ham sunnat,
Eranlar yo'lida tortib mashaqqat,
"Shifo ber, Rasul!" — deb sado yetishsa.

---

[1] **Ayog'** *(Ayoq)* — qadah, jom, kosa.

[2] **Zoyir** — ziyoratchi; hoji.

[3] **Soq** — bu yerda: yordam, madad ma'nosida.

[4] **Farz** — shariatda hamma musulmonlar bajarishi qat'iy buyurilgan amallar. U farzi ayn — barcha bajarishi shart va farzi kifoya — bir guruh bajarsa, boshqalar zimmasidan soqit bo'ladigan ishlarga bo'linadi.

[5] **Vojib** — islomda bajarilishi zarur bo'lgan amal turi. Zaruriylik nuqtayi nazaridan vojib farzdan keyin, sunnat talablaridan oldin turadi.

Ilmi hol, ilmi qol[1] — barin jam etsam,
Hamisha shariat[2] yo'lidan ketsam,
Shaytoniy nafs — dunyo hirsin tark etsam,
Sharoban tahuran buloq yetishsa.

Necha yillar yurdim hoy-u havasda,
Barcha qilgan ishim to'g'ri emas-da,
Dunyoga g'arq bo'lib, qoldim qafasda,
To'ti kabi tarki tuzoq yetishsa.

Qodir Egam bu g'amlardan qutqarib,
Xatarli joylardan omon o'tkarib,
Fazli bilan barcha ishim bitkarib,
Hur-u g'ilmon ichra farog'[3] yetishsa.

Isrofil sur chalib, xalqlar tirilsa,
Olam ahli arosatga[4] surilsa,
Shafoatxoh[5] Rasul bir nido qilsa,
Maxtumquli deya so'roq yetishsa.

KELAR

Elga davlat kelar bo'lsa,
Baxshi bilan har on kelar.
Eldan davlat ketar bo'lsa,
Mulla bilan to'zon kelar.

---

[1] **Ilmi qol** — til bilan ifodalasa bo'ladigan ilmlar, ya'ni zohiriy ilmlar. Shariat ilmi ham shunga kiradi.

[2] **Shariat** — Olloh joriy qilgan amaliy hukmlar majmuasi, islom qonunchiligi, fiqh.

[3] **Farog'** — 1) tinchlik, xotirjamlik; 2) rohat, xursandchilik; 3) yorug'lik.

[4] **Arosat** *(A'rof)* — jannat bilan do'zax o'rtasidagi balandlik joy — devor to'siq. Islom aqidagisiga ko'ra, qiyomat kuni jannatga ham, do'zaxga ham tushmay o'rtada qoladigan odamlar Arasotda turadilar.

[5] **Shafoatxoh** — shafoat qiluvchi. Ma'lumki, Muhammad alayhissalomga qiyomat kunida bandalarini shafoat qilish huquqi berilgan. Bu yerda shunga ishora qilinmoqda.

Kim o‘zin mard deb ishonsa,
Boshin yoring ahddan tonsa,
El ichra ishq o‘ti yonsa,
Avval ishqda kuygan kelar.

It bo‘ladi kuchuk har chog‘,
To‘ng‘iz botar ko‘rsa botqoq,
Suv chiqadi qazsang buloq,
Izlab uni qazgan kelar.

Hijron dog‘i uzoq ketsa,
O‘ldirar kim bo‘ri tutsa,
Maxtumquli nomin aytsa,
Avval doston yozgan kelar.

DO‘KON KO‘RINAR

Odam o‘g‘li, sayl qilsang,
Dunyoda do‘kon ko‘rinar.
Bu foniyga nazar solsang,
Yuho bir jahon ko‘rinar.

Iskandarga tuzoq qurgan,
Sulaymonga arzga borgan,
Qorun-u Horunni urgan,
Bu falak polvon ko‘rinar.

Jabr ko‘rib yongan jonlar,
Topmagan chora-darmonlar,
Dunyoda ko‘pdir ummonlar,
To‘rt nafar ummon ko‘rinar.

Qor bilan qoplangan boshi,
Yer sari oqqan ko‘z yoshi,
Chiroyli ko‘ringan tashi,
Tog‘larda tuman ko‘rinar.

Chin-Mochin taxtin qurgan,
Eron-u Afg‘onni so‘rgan,
Hindiston, Xo‘tanga borgan
Otaniyoz xon ko‘rinar.

Tog‘ boshidan o‘tar bo‘lsang,
Unda manzil tutib qolsang,
O‘sha joydan nazar solsang,
Ulug‘ Dehiston ko‘rinar.

Parda tortib yuzlarimga,
Pardoz berib so‘zlarimga,
Maxtumquli, ko‘zlarimga
Yolg‘iz Menglixon ko‘rinar.

ELINGNI

Kel, ko‘ngil, men senga o‘git berayin:
Yiroq tutma ko‘rar ko‘zing — elingni!
Qimmatini bilib, joyida so‘zla,
Cho‘zaverma har nokasga tilingni.

Duo aylab, so‘zlab yasha xush kalom,
Elning katta-kichigin qil ehtirom,
Belbog‘ingni mahkam bog‘lab yur mudom,
Kerak bo‘lar — yaxshi saqla belingni.

Chaqirilmas joyda ko‘rinma, borma,
Qo‘ldan kelsa, so‘fi yuzini ko‘rma,
Fikr-u zikring dunyo moliga berma,
Qorunga o‘xshatma aslo fe’lingni!

So‘ziga javob ber kim etsa so‘roq,
Nomardga duch kelsang, o‘zing tut yiroq,
Bir miskin termilib, yig‘lagani chog‘,
Baho qo‘yma, tekin bergin molingni.

Qo‘rqma nomardlarning ko‘p deb sonidan,
Qora ko‘rsa, bari kechar jonidan,
Yo‘lin topsang, o‘tma sira yonidan,
Baxillardan uzoq tutgil yo‘lingni.

Aqllilar ko‘p-u aql ishlatgan oq,
Hushingdan ayirar — may ichmagan soz,
Mard ko‘nglida mudom bahor bilan yoz,
Quturgan daryoga solma solingni.

Maxtumquli, aql boshimdan uchdi,
Iqbolim yotdi-yu, davlatim qochdi,
Pir, qozilar pora so‘rab qo‘l ochdi,
Harom qilsang-qil-u, berma pulingni!

MARD YIGITLAR

Otilgan o‘q qaytmas hech ham,
Mard nomardni demas odam,
Qo‘lin chopsang, chiqarmas dam,
Chin mardona, mard yigitlar.

Maxtumquli, yo‘q xayolim,
Berarga yo‘q qo‘lda molim,
Ellikdaman, yo‘q majolim,
Hasrat bilan, mard yigitlar.

NAYLAYIN

Xaridim tugamay bozorim tarqab,
Do‘konim egasiz qoldi, naylayin.
Binosi buzildi, qaroqchi o‘rab,
Barchasini bosib oldi, naylayin.

Mardlar nomard bo'ldi, nomard mard bo'ldi,
Sher pashsha, pashsha sher bo'lar vaqt bo'ldi,
Yurtlar vayron bo'ldi, zindon yurt bo'ldi,
Shum falak lashkarin soldi, naylayin.

Oshiqlardan o'tdi ishqing havasi,
Tortildi, yozildi do'zax pardasi,
Tog'dan oshib qizilboshning o'rdasi[1],
Go'zal elim vayron qildi, naylayin.

Ayirdi yorni yor, mardni elidan,
Daryoni suvidan, tog'ni selidan,
Bog' sarvidan, bulbul esa gulidan,
Qonlar yig'lab, judo bo'ldi, naylayin.

Mahrum qildi go'zal ko'rking hunarin,
Ota-onang oldi ko'ngil qarorin,
Har kun ochdi qul-cho'rining bozorin,
Nomusim bozorga soldi, naylayin.

Maxtumquli qo'li bog'liq, parishon,
Go'zal dostonimdan qo'ymadi nishon,
Zindonda o'tirdi barcha pir, eshon,
Nazarim karvondan yuldi, naylayin.

YOSHLAR ICHINDA

Tog'lar qarib qolsa, daryolar selsiz,
"Ey Xudoyim!" — derlar yoshlar ichinda.
Og'iz ichra tushsa bir barmoq tilsiz,
Nima chora qilsin tishlar ichinda?

Qari kuchdan qolar, yoshlarda yo'q hush,
Ovchi ovdan qolar, lochin topmas qush,

[1] **O'rda** — qarorgoh, qo'shin.

Shohda aql bo‘lmas, ahmoqlarda bosh,
Ko‘p xayol qilarlar tushlar ichinda.

So‘fidir to‘qqiz so‘z bilgan, ishoning,
Joyi ma’lum emas — qayda makoni?
Kelishgan qomati — ko‘rki juvonning,
Qoraqush manzili loshlar ichinda.

To‘qaylar hech qachon qoplonsiz bo‘lmas,
Hindi joni chiqsa, filidan qolmas,
Qozoq echki suyar, qo‘y, buqa olmas,
Makoni bo‘larmish ko‘chlar ichinda.

Maxtumquli, asra uzun tilingni,
O‘rningni bil, mahkam bog‘la belingni,
Ko‘p qo‘zg‘atma bahor chog‘i yelingni,
Yel makoni bo‘lar qishlar ichinda.

ZAMON BO‘LMADI

Kim g‘am chekdi, kim yig‘ladi, kim kuldi,
Ishratli bir go‘zal zamon bo‘lmadi.
Kimning baxti uyg‘oq, kimniki yotdi,
Hech kimga safoli davron bo‘lmadi.

Kimning soli uyg‘un ummonda oqdi,
Kim shikoyat etdi, kim xonga boqdi,
Kim Go‘ro‘g‘li nomin o‘ziga taqdi,
Nomusli, uquvli polvon qolmadi.

Ko‘r bo‘ldi mullalar, yopildi yo‘llar,
Titrashar — Qur’onga yetmaydi qo‘llar,
Rustam Zol bo‘libdi ozgan ayollar,
Eriga vafodor juvon qolmadi.

O‘zni chetga oldi kimning aqli bor,
G‘aribning qismati tuganmas ozor,
Qo‘lin bog‘lab, olib bordilar bozor,
El ichida holin so‘rgan bo‘lmadi.

Maxtumquli, chetga olgil o‘zingni,
Aniq bil, o‘yarlar ikki ko‘zingni,
Tinglamaslar — zoye qilma so‘zingni,
Endi sendan xabar olgan bo‘lmadi.

EL KECHAR

Ey azizlar, foniy jahon ichinda,
Yaxshi-yomon unar-o‘sar, el kechar.
Xush so‘zlagan og‘iz — xandon ichinda
Bir kun tishdan nishon qolmas, til kechar.

Biz kezgan maydonlar, ajoyib joylar,
Naqshinkor binoli ulug‘ saroylar,
Davr aylanib, kelib-ketar kun-oylar,
Yaxshi-yomon, Navro‘z, kuz-qish — yil kechar.

Bu dunyoda ishing oh-u fig‘ondir,
Bugun borsan, ertang ammo gumondir,
Xas uzra qurilgan foniy jahondir,
Yoshlarni qaritib, umr — yil kechar.

Falak oh-u vohing nazarga ilmas,
Bu dardingga Luqmon ham davo qilmas,
Yaxshi-yomon, shoh-u gadoni bilmas,
Qora ko‘z, qalam qosh, xipcha bel kechar.

Birov tutib, qo‘lga oldi jahonni,
Ko‘r, band etib qo‘ydi u Sulaymonni,
Bog‘ni xazon urar, so‘lar rayhoni,
Bulbul tutqun bo‘lib, sarv-u gul kechar.

Falak, sen ham bergil bir lahza omon,
Biz nodon qullarga bag‘ishla davron,
Maxtumquli, hormay aylagil doston,
Bir kun hush ayrilib sendan, til kechar.

SO‘Z MA’NISIN BILMAGUNCHA

Dono so‘zga kular nodon
So‘z ma’nosin bilmaguncha.
Tog‘ boshida turar tuman
Xazardan yel kelmaguncha.

Aqli bor kishi may ichmas,
Yaxshi eldan odam ko‘chmas,
Yaratgan gunohin kechmas,
Qo‘lga Qur’on olmaguncha.

Orif haq so‘zini so‘zlar,
Nomard fasod toshin ko‘zlar,
Cho‘lga chiqib tuya bo‘zlar,
Bo‘ta[1] ko‘zga ilmaguncha.

Tog‘ boshidan qori ketmas,
Nomard el yumushin etmas,
Yigitning armoni bitmas,
Jonon tanlab olmaguncha.

Keksa o‘zin yoshday chog‘lar,
Behuda yuragin dog‘lar,
Er yigitlar mudom yig‘lar
Mardga hamroh bo‘lmaguncha.

Umr soli loyga botar,
Kundan-kunga dardi ortar,

[1] **Bo‘ta** — tuyaning bir yoshgacha bo‘lgan bolasi, bo‘taloq.

Orli er dilin g‘am o‘rtar
Orin joyga solmaguncha.

Hech ne bunda boqiy qolmas,
Falak do‘stlik nima bilmas,
Yosh bolaning qadri bo‘lmas,
Bir dam o‘ynab-kulmaguncha.

Go‘zalga el xaridordir,
Yozgani Parvardigordir,
Mard yigitlar beqarordir,
Qo‘yni yorga to‘lmaguncha.

Ko‘zlar necha yomon ko‘rar,
Tillar yaxshi-yomon so‘rar,
Ovchi zoti toqqa yurar,
To qartayib qolmaguncha.

Nomim ketdi eldan-elga,
Naqsh etarlar tildan-tilga,
Maxtumquli, qo‘ngil gulga,
Xazon urib so‘lmaguncha.

TAKABBURLIK AYLAR

Bir yuraksiz yigit elda,
Qarang, takabburlik aylar.
Mard erlar yetti yot elda,
Boshdan og‘zibirlik aylar.

Bedavo dard bo‘ldi yo‘ldosh,
Aql-u hushdan ayrildi bosh,
Karvon xatarga kelsa duch,
Sardor mo‘tabarlik aylar.

Odam kezar yoz-u qishda,
Umr qisqarar qarg‘ishdan,
O‘yin qilib bizning qoshda,
Falak firibgarlik aylar.

Bizning bog‘da bitar bodom,
Uzar asta falak qadam,
Mol qadrini bilgan odam,
Turmushin but, nurlik aylar.

Falak aylanar olmay tin,
Hayronligi dunyoning chin,
Ikki tilli lo‘li xotin,
Sir ochsang, ayyorlik aylar.

Yuray desang, yo‘l ko‘p uzoq,
Ezma obro‘ to‘kar har choq,
Yaratganda Tangri mutloq,
Har kimga bir qiliq aylar.

Falak istar qilsa o‘yin,
Ko‘zingdan qon oqsa har kun,
Odamini telba majnun,
Beva — dili dog‘lik aylar.

Tilda yurar ajib naql:
“Sen o‘lasan, bo‘lma baxil”,
Baxti kulsa, nomard o‘g‘il
Yurt ichida shohlik aylar.

Ming xayol charx urar boshda,
Bir berk eshik turar qoshda,
Ey Maxtumquli, bu yoshda
Endi soqol oqlik qilar.

YO‘LINI BILMAS

Agar hindi judo bo‘lsa filidan,
O‘tgan kunin, borar yo‘lini bilmas.
Qorun ayro tushsa tug‘ma fe’lidan,
Ko‘zi to‘ymas, dunyo molini bilmas.

Agar cho‘loq yolg‘iz, tayoqsiz qolsa,
Yo‘l topolmaydi ko‘r hamrohsiz bo‘lsa,
Mard qahr etib, toqqa tishini solsa,
Qora tosh-u tullak, selini bilmas.

Aja! mudom poylab yotadi yo‘lni,
Duch kelgan unutar oyog‘-u qo‘lni,
Shundan yonib-kuyar bu odam o‘g‘li,
Shayton ham, valiy ham fe’lini bilmas.

Oshiq ojiz ma’shuq bag‘ri tosh kelsa,
Yurak yonib,
so‘qir ko‘zdan yosh kelsa,
Mard yonganda Jamshid unga duch kelsa,
Iskandar-u Rustam,
Zolini bilmas.

Baxting yotsa, har ikki ko‘z yumilar,
Yaxshi deya yurgan yo‘ling yopilar,
Mard ko‘nglida biror sabab topilar,
Solar qilich — o‘ng-u so‘lini bilmas.

Maxtumquli, tilga keltirdim doston,
Umrim o‘tdi g‘am-u hasratda har on,
Orzumonga yetdi arz-u hol, fig‘on,
O‘tar-ketar, oy-u yilini bilmas.

DARD NADIR

Aql, ko'z, iqbol-u iymon — to'rtovi,
Ayro tushsa, darmon nadir, dard nadir!
Er yigitning bo'lmas yuzda niqobi,
Baxti yotsa, nomard nadir, mard nadir!

Yaxshi bir dard yetsa, yig'lar yomonga,
Nomard qora ko'rsa, kelar omonga,
Nasib etib, minsa chopqir chamanga,
Farq aylamas oldi nadir, ort nadir!

Nomard shoshar ko'rgan elga bosh bo'lsa,
Aybin ochar o'z elidan tash bo'lsa.
Sarxush yurgan mard yigitga duch bo'lsa,
Qilich solar — uchi nadir, to'rt nadir!

Ayting, Rustami Zol solgan bilan ot,
Shuncha kuchi etdi ne ishni ziyod?
Yo'lbars g'azablanib, aylasa bedod,
Qoplon nadir unga, bo'ri — qurt nadir!

Firog'iy, aylanar falakning charxi,
Senga ayon uning qilmishi narxi,
Nomardning yonida yo'q elning farqi,
O'zini der, makon nadir, yurt nadir!

JAHON O'RTANAR

Jannat yerdan chiqsa osmon ustiga,
Nuri bilan jumla jahon o'rtanar.
Pashsha sho'rlik tushsa filning ostiga,
Ucholmasdan urib javlon o'rtanar.

Mushuk sichqon qo'lida tutqun bo'lsa,
Zang gavharga, yoqut zangga evrilsa,

Tiriklar jon bermay, o‘lik tirilsa,
Haqqa ming yolvorib, paymon o‘rtanar.

Nomard otga yetib, mard eshak minsa,
Tog‘lar ko‘kka chiqib, ko‘k yerga insa,
Fotima bo‘yin bursa, ahdi sinsa,
Sohibqiron ham musulmon o‘rtanar.

Munofiq ont ichib, ahdida tursa,
Ko‘r ko‘zi ochilib, gung so‘zga kirsa,
Yel xavf solib, tog‘-u zaminni yorsa,
Taxti sinib, ul Sulaymon o‘rtanar.

Maxtumquli, ko‘ksim to‘la yaradan,
Rahm aylab, emin qilsin Yaratgan,
Nomard qo‘rqar tunda ko‘rsa qoradan,
Oshda botir, boq, dasturxon o‘rtanar.

KERAKDIR

Agar mard yigitning ochiqdir ko‘ngli,
Bordi-keldi qilish, suhbat kerakdir.
Agar bo‘lsang bir mamlakat podshohi,
Avval-boshdan bir saodat kerakdir.

Ko‘plar kuyib-pishar mol-u dunyo deb,
Ko‘plar yosh to‘kadi ich-etini yeb,
Xazinada yotar zar-kumush to‘lib,
Shoh taxtiga la’l, zabarjad kerakdir.

O‘zingni o‘zing bil — boqqil holingga,
Ketar bo‘lsang, to‘g‘ri yurgil yo‘lingga,
Dushmaning ham tushar bo‘lsa qo‘lingga,
Avval-boshda bir muruvvat kerakdir.

Falak, bo'lmas sira do'st-u qardoshing,
Yaramaslar doim sening sirdoshing,
Odam o'g'li, foniy dunyo yo'ldoshing,
Yuzi kulgan qaddi-qomat kerakdir.

G'am-u tashvish emish tiriklik tarzi,
Odamzodni qiynar uzilmas qarzi,
Bechora yigitning bordir bir arzi,
Haqdan madad ham himoyat kerakdir.

Falak o'zin otmish dunyo tashiga,
Ajal matosini o'rab boshiga,
Haq siylasa kimni yigit yoshida,
El-u yurtdan ul ibodat kerakdir.

Arab tili shirin emish boldan ham,
Tishdan kechdi Uvaysi Rasul deb ul dam[1],
Yerning ostida-yu jannatda — ko'rkam,
Tirguzmoqqa obi hayot kerakdir.

Kuydirdim behuda o'tga ko'p jonlar,
Falaklar aylanib, o'tdi davronlar,
Hukmini yuritgan xonlar, sultonlar,
El-u xalqqa bir adolat kerakdir.

Topsam boshim qurbon bo'lsin mardlarga,
Luqmon chora topsin kelgan dardlarga,
Maxtumquli aytar: tanti mardlarga
Yaratgandan iymon — himmat kerakdir.

---

[1] Rivoyatlarga ko'ra, Uhud jangida Muhammad alayhissalomning ikki tishi singanini eshitgan Uvays Qaraniy payg'ambarga bo'lgan kuchli ixlos — e'tiqodi tufayli o'zining barcha tishlarini sindirib tashlagan ekan.

TUMAN KETMAS

Baland tog‘larning boshidan,
Qishin-yozin tuman ketmas.
Sinalmaydi er tashidan,
Qancha paypaslama, aytmas.

Biri ko‘char, biri qo‘nsa,
Harom aylar el quvonsa,
Oshiq ko‘zida o‘t yonsa,
Haqqa yolvorib dod etmas.

Bu dunyoda o‘tinchim bor,
Ikki ko‘zimdir intizor,
Mard yigit bo‘lsa xor-u zor,
O‘zi tutgan yo‘ldan qaytmas.

Falak tutsa inson damin,
Luqmon topmas uning emin,
Olgan jonin qora zamin,
Qayta xaridorga sotmas.

Mast yigit sig‘mas to‘niga,
Iflosni tortar yoniga,
Nomardlar o‘z juvoniga,
O‘ylamang, hech erlik etmas.

Tilim uzun, qoldim g‘amda,
Aql-u hushim ham barham-da,
Xavotiri bo‘lgan damda,
Yurak yutib, nomard yotmas.

Maxtumquli, jafo ko‘rgan,
Jafo bilan yiroq yurgan,
Yaratganga va’da bergan,
O‘lguncha uni unutmas.

YONGAN BORMI?

Jahongashta devonalar,
Mening kabi yongan bormi?
Ishq oshig‘i, parvonalar,
Ul otashdan qongan bormi?

Hech bir eshikdan o‘tmagan,
Hech bir maqsadga yetmagan,
Aql bilan fikr etmagan,
Olam ichra nodon bormi?

Tong shamoli yelar bo‘ldi,
Har joyda bir qolar bo‘ldi,
Qiya nazar solar bo‘ldi,
Adolatli sulton bormi?

Armoni yo‘qdir jahondan,
Eranlar, ayting zabondan,
Bo‘y sotib olgan yomondan,
Undan mangu tingan bormi?

Aylar bo‘lding qamishdan soz,
Boshim qarzdan bo‘lmas xalos,
Qirg‘iydan qushlarga biroz,
Jahon ichra omon bormi?

Baliq, so‘yla, suv suzarsan,
Dashtdan qo‘lingni uzarsan,
Barcha suvlarni kezarsan,
Bir safoli makon bormi?

Falakda ixtiyor bo‘lmas,
Aylanib madadga kelmas,
Boqiy xaridi tugalmas,
Bozorlarda do‘kon bormi?

Tili shirin — asal, bolli,
To‘lin oyday husn-jamolli,
Yuzlarida hindi xolli,
Munosib bir jonon bormi?

Tongda degayman pinhonda,
O‘chmas o‘tni qo‘ydi jonda,
Kezibsan foniy jahonda,
Izlayman —
Menglixon bormi?

Sayr etar bo‘lding qoshida,
Kamarida, quyoshida,
Ul mo‘ysafid tog‘ boshida,
Yomg‘ir bilan tuman bormi?

Oyog‘in loyga botirgan,
Bir gulxan uzra o‘tirgan,
Falakni ko‘tarib urgan,
Dunyoda bir inson bormi?

Sayr etarsan kun-oylarni,
Ne ajoyib saroylarni,
Ko‘rarsan qancha joylarni,
Ul joylarda Qur’on bormi?

Bir go‘zal sarvning bo‘yida,
Ayni ramazon oyida,
Dunyoning sudxo‘r joyida,
Otash bilan zindon bormi?

Xush xulqi ayon so‘zida,
Hikoyat bordir ko‘zida,
Menglixonning gul yuzida,
Bizga qarshi kamon bormi?

Maxtumquli, so‘zlading oz,
Dardi diling bo‘ldi bayoz[1],
Ko‘l ichra makon tutar g‘oz,
Bizlar uchun vatan bormi?

BU ZAMONDA

Tiliga ne kelsa, oqil
Aytar bo‘ldi bu zamonda.
Falak makkor bo‘ldi, boqqil,
Talon solib bu jahonga.

Asir bo‘lmish ko‘rgan ko‘zlar,
Qora tortmish go‘zal yuzlar,
Ajab, asal-shakar so‘zlar,
Asir bo‘lmish bu zabonga.

Kim ko‘ribdir dunyo tubin,
Qaysi joyda, qaysi uyin,
Ichar bo‘ldim ishqing mayin,
Och ko‘z bilan qona-qona.

Qafas ichra asirdir jon,
Til aylanmas, og‘iz hayron,
Bu yolg‘onchi foniy jahon
Qo‘ymas najotga — omonga.

Tog‘ boshining tumani bor,
Har bog‘ning bir bog‘boni bor,
Odamning yori joni bor,
Ko‘zim tushmas ul jonona.

Aql sandig‘in ochganlar,
Foniy jahonga sochganlar,

[1] **Bayoz** — she’riy to‘plam.

Qo‘ngani bor, ko‘p ko‘chganlar,
Tarqashibdi ko‘chib-qo‘na.

Yaxshi erda yomonlik bor,
Yo‘qsa unga el xaridor,
So‘zni tingla, Parvardigor,
Yetkaz meni Menglixonga!

Umr — uzun, og‘irdir yo‘l,
Xon ishlasa, og‘ritar bel,
Yaxshi so‘zga xaridor el,
Yararmish gado, sultonga.

Tog‘ ustidan ko‘char toshi,
Har kimning bor o‘z sirdoshi,
Kim yolg‘iz yo‘q qarindoshi,
Ko‘zi tushmas bir tuqqanga.

Maxtumquli, so‘zing haqdir,
Haq so‘zga tan bergan yo‘qdir,
Ketar bo‘lsang yo‘l uzoqdir,
Eron, Turon, Hindistonga.

TUYSA

Nomard “g‘ofil qolar”, uyidan chiqmas,
G‘am-tashvishga tushar “jang” sasin tuysa.
Xudo urgan banda jononga boqmas,
Yoqa tutar yor — “jonon” sasin tuysa.

Ko‘pchilik qishini Navro‘z aylagay,
Zog‘ni tutib ko‘lda boq, g‘oz aylagay,
Falak osmon qolib, parvoz aylagay,
Qonxo‘r kulib boqar “jon” sasin tuysa.

Bu falak har kimga solar g'am-tashvish,
Tunda go'zallarni qilar mast, sarxush,
Ko'ring, bu zaminga tomoshadir ish,
Lahad qaza boshlar "qon" sasin tuysa.

Orif bo'lgan aytib o'tdi naqllar,
Hushlar uchib, zaiflashdi aqllar,
Go'rdan chiqib kelar bo'ldi baxillar,
Foniy jahon ichra "kon" sasin tuysa.

Derlar: "Eshak Dajjol jahonga kelar",
Ne ajab naqldir, uni kim bilar?
Mislar yig'lar, tilla-gavharlar kular,
Tuproq ichra yotib, "zang" sasin tuysa.

Orif bo'lar dunyo sirini ochgan,
Izlab yurar cho'lda mollari qochgan,
Xudo urib, qo'ldan baxt qushi uchgan,
Oh urib yig'laydi "xon" sasin tuysa.

Falak ters aylamish iqbol gardishin,
Bir-biridan judo qilar qardoshin,
Tuproq bo'lgan tog'lar ko'tarar boshin,
Ko'zini yoshlar tosh — "sang" sasin tuysa.

Horib-tolar g'am uyida yiqilgan,
Yangaga uylangan — o'tda yoqilgan,
Tizzadan kuch ketib, beli bukilgan,
Haqqa yuz yolvorar "lang" sasin tuysa.

Maxtumquli, xato chiqdi bu follar,
Dard haddidan oshib, zabundir hollar,
Tuni bilan sanqir tulki, shaqallar,
Fil bechora mudrar "tun" sasin tuysa.

KEZA BOSHLADI

Kimlarning tuproqdan chiqib iqboli,
Dunyoni sayr etib, keza boshladi.
Kimlarning to'zgancha bor yiqqan moli,
Bo'ridan qo'ylar to'za boshladi.

Mullalar xato der aytgan so'zimni,
Qora surtib qoraytirmish yuzimni,
Har bir ishi o'yib go'yo ko'zimni,
Qur'onga hadislar yoza boshladi.

Nomardlar qo'rqadi — yo'q shijoati,
Jang payti eshakka aylanar oti,
Kimlar qilar bo'lsa yaxshi niyatni,
Muftilar niyatin buza boshladi.

Qabul qilmas bo'libdilar azonim,
Hisobdor[1] oldida qurib mezonim,
Oshiqlarni yoqar o'tli fig'onim,
Barchasi termilib, qiza boshladi.

Odamlarning yarmi bo'libdi sudxo'r,
Qoralik bosibdi yuragimni, ko'r,
Mullami, muftimi — barchasi bir go'r,
Zakot deb el ichra kezab oshladi.

Qattiq yopishibdi dunyoni tutgan,
Baxil bo'libdi shu zaminda bitgan,
Doston aylar bo'ldi har qo'li yetgan,
Qissalarni qator tuza boshladi.

Nomarddirman shu oqimda oqmasam,
Oshiqmasman dunyoga o't yoqmasam,
O'larman g'aflat chohidan chiqmasam,
Kelganlar borisi o'za boshladi.

[1] **Hisobdor** — hisobchi.

Nasihatdan tilim uyar xirmonlar,
Ne qilay, anglamas zorim hayvonlar,
Bu dunyoga kelgan oqil insonlar
O‘z oyoq ostini qaza boshladi.

Falak tushibdimi mening qasdimga,
Lashkar yuboribdi baland-pastimga,
Maxtumquli aytar: mening ustimga
Alam lashkarini cho‘za boshladi.

KETIB BORADIR

O‘ynab-kulsang teng-to‘sh bilan bir zamon,
Falak darhol burnin suqib boradir.
Qo‘lda ajal o‘qin o‘ynab bu jahon,
Ko‘z yumib, har taraf otib boradir.

Charx solgan yaraning yo‘kdir chorasi,
Zor yig‘latar yallig‘lanib yarasi,
Yaxshi-yomon — navbat bilan barisi
Foniydan boqiyga o‘tib boradir.

Tinch yurgani qo‘ymas bu falak bir on,
Na qutqarar, qilar na bandi zindon,
Xalos bo‘lmas qochib bir yoqqa inson,
Yuzin ters o‘girib, tutib boradir.

Falak charchamaydi topib bahona,
O‘t yoqmasdan azob berar jahonga,
Og‘zingga bir luqma solganing onda,
Bildirmay zaharin qotib boradir.

Odam qoni rang beribdi tishiga,
Barcha dushman bo‘ldi charx gardishiga,
Qarang bu falakning qilgan ishiga,
Yaxshini yomonga chatib boradir.

Yuzingga aytolmay, kezar uyalib,
Mudom ta'qib etar ortingdan yelib,
Jon matosin bizdan tekinga olib,
Bir qarich zaminga sotib boradir.

Tark etdim boshdagi o'y-u xayolim,
Bir dam urib, yoqdi do'konim, molim,
Falak zarbi bukib qo'ymish iqbolim,
Qarilardek loyga botib boradir.

Haq so'ziga ishonmasdim men doim,
Hijronga to'ldirib karvonsaroyim,
G'aflat bilan o'tib har kunim, oyim,
Umrim yuzin baqo tutib boradir.

Bu so'zlarni dedi ul xayr ul-bashar[1],
Bu falak do'zaxdan kuchliroq yoqar,
Odamlarni qo'zg'ab qo'yib, hiylagar,
O'zi rohat qilib yotib boradir.

Bu dunyoda yo'qdir sabr-u qarorim,
So'nggini anglashga yetmas madorim,
Maxtumquli aytar, bu umri zorim,
Qo'llarimdan chiqib, ketib boradir.

BOSH YAXSHI

Oyoq-qo'lsiz qolib, bo'lgandan mayib,
Bir o'q tegib, uchib ketsa bosh yaxshi.
Bekorlikdan g'am uyida sarg'ayib –
Yotgandan boshingga tushsa ish yaxshi.

Boshdan kechib, soldik xonning qal'asin,
Eshitdik oh-u zor, miskin nolasin,

[1] **Xayr ul-bashar** — insonlarning eng yaxshisi: Muhammad alayhissalom.

Qo‘lda tutib bo‘lmas ohu bolasin,
Hamroh qilmoq uchun to‘tiqush yaxshi.

Naql bordir: “Qanor chiqmas teridan”,
Odamzod yaxshidir g‘ilmon, paridan,
Ko‘p ishlarni boshga solgan qaridan,
So‘zlashmoqqa, ish qilmoqqa yosh yaxshi.

Ulov bordir uzoq yo‘lni kechishga,
Sharob yaxshi sarxush bo‘lib ichishga,
Xotirjam sayr etib, ko‘ngil ochishga,
Tong saharda ko‘rilgan bir tush yaxshi.

Eshakning ko‘ngli xush ko‘p bo‘lsa somon,
Qish kelsa, tog‘larni qoplaydi tuman,
Karlik ham, ko‘rlik ham, gunglik ham yomon,
Osh yeyishga barchasidan tish yaxshi.

Siz ilm-u amalni so‘rang orifdan,
Xiva xoni suv ichadi Lubobdan,
Lazzatsiz luqmadan, aroq-sharobdan,
Ko‘ngil istab yeyilgan bir osh yaxshi.

Firog‘iy — dunyoda qolgan mayibdir,
Uch yuz oltmish eran — bari g‘oyibdir,
Mard yigitga yolg‘izlik-da aybdir,
Mard qardoshi uchdan, to‘rtdan besh yaxshi.

TO OLGUNCHA KO‘ZINI

Oshiq otash ko‘rsa, urar otash ichra o‘zini,
Gul yuziga qilar nazar to olguncha ko‘zini.

Bu muhabbat zulmi bilan xor-u zordir ko‘p jonlar,
Ma’shug‘iga duch kelganda topmas aytar so‘zini.

Bu foniy jahonga boqing, aziz qilmish ishqni u,
Tutunsiz qilibdi yolg'iz ishq o'tining o'zini.

Oshiq ko'rsa ma'shug'ini yilning xazon faslida,
O'zin kuzga otar qo'yib bahorini o'zining.

Ko'l bo'yida ko'rar bo'lsa kaklik bilan tovusni,
Hech birini ko'zga ilmay, axtarar o'z g'ozini.

Simob[1] kabi titrasa jon, yoshi oqsa misli sel,
O'z dardini unutib u, tortar yorning nozini.

Sohibjamol bo'lmasa ham agar uning ma'shug'i,
Boshqa go'zal jononlarga o'girmaydi yuzini.

Judo bo'lsa go'zalidan, kechar foniy jahondan,
Unutib din-iymon, Arshga yetkazar ovozini.

Azob bilan go'zal yorga yilda bir bor qovushsa,
Ko'rsatsa-da u ming o'yin, ko'zga surtar izini.

Gullar ichra bir guli bor — o'zga savsan[2] izlamas,
Shu gul uchun o'tga urar har qayda u o'zini.

Agar ul yor qilsa o'yin parilarga qo'shilib,
Dil ichidan ovoz berar qo'shib unga sozini.

Maxtumquli, bu ne so'zdir, sen hech oshiq emassan,
Sen qayerda eshitgansan Majnunning niyozini?![3]

[1] **Simob** — kumushrang kimyoviy element.

[2] **Savsan** — gulsapsar.

[3] **Niyoz** — 1) hojat, ehtiyoj; 2) mayl, xohish; 3) iltijo, zor-u tavallo.

INSON DUCH KELSA

Ko‘ngil ochilar, jam bo‘lar
O‘zaro inson duch kelsa.
Hush ketar, aql kam bo‘lar
Til bilmas hayvon duch kelsa.

Urushda mard boshdan kechar,
Nomard aql-hushdan kechar,
Bedov sakrab, loshdan kechar,
Yobi qochar qon duch kelsa.

Mardning suyangani Olloh,
Qo‘rqoq mudom boshga balo,
Mard go‘yo bir temir qal’a,
Har yerda dushman duch kelsa.

Firog‘iy, bag‘ring poradir,
Ko‘ksing dog‘, diling yaradir,
Munkirning yuzi qoradir,
Mahsharda mezon duch kelsa.

YOR BO‘LMAGIL

Kel, ko‘nglim, nasihat aylay,
Betayinga hech yor bo‘lma.
Duch kelganni yorim deya,
Ko‘yida zor, bemor bo‘lma.

Maslahat ber teng-u to‘shga,
Bir kun o‘lim kelar boshga,
Bechora, yolg‘iz kishiga
Sitam aylama — zo‘r bo‘lma.

Tilaging Ollohga yetsa,
Dargohida qabul etsa,

O‘z kuchingdan kuning o‘tsa,
Birov qoshida xor bo‘lma.

Lashkar maydonga tushganda,
Nomardning hushi uchganda,
Dushman bilan uchrashganda,
Do‘stni tashlab qochar bo‘lma.

Maxtumquli, emas yolg‘on.
Qolmay o‘tar bunda kelgan,
Yo‘ldan ozgan nodon bilan,
Teng bo‘lma, do‘st-u yor bo‘lma.

BUNYOD BILAN

Odamdan dunyoda qolsa bir nishon,
O‘chmas oti uning shul bunyod bilan.
Xarob bo‘lmay qolmas saroy-u makon,
Nima foyda unga quruq ot bilan.

O‘lim xayolidan bo‘lma hech g‘ofil,
O‘ylar uni doim kim bo‘lsa oqil,
Omonat dunyoga qo‘ymagil ko‘ngil,
Ajal yiqar bir puflasa bod bilan.

Umring bo‘lsin besh yuz yildan ziyoda,
Uzangingda dushman yursin piyoda,
Gulsapsardek o‘zing ham bo‘l ozoda,
Safar qilgung bir kun yog‘och ot bilan.

Bir kun qabring ko‘rib, nafrat qilarsan,
Dunyoning ayshini nega tilarsan?
Falak o‘yinini bir kun bilarsan,
Qarindosh etganda seni yot bilan.

Oqil kishi qo‘ymas Tangrini yoddan,
Parvosi yo‘q sira hazin-u shoddan,
Maxtumquli,
bir kun ketgung dunyodan,
Afsus-u nadomat, oh-faryod bilan.

YO‘LDOSH BO‘LGAN

Yaxshi so‘zi jonga yoqar
Yaxshi bilan yo‘ldosh bo‘lgan.
Qochib qutulmoqchi bo‘lar
Yomon qo‘shniga duch bo‘lgan.

Dunyoning so‘nggi yetmoqdir,
Maqsad bunda ish etmoqdir,
Qismati g‘ussa yutmoqdir,
Yomon bilan qardosh bo‘lgan.

Yomon so‘z dilga dog‘ solar,
Yaxshini olam orzular,
Yoddan chiqmas, ko‘rmoq tilar
Birovdan ko‘ngli xush bo‘lgan.

Har kimdaki hunar yo‘qdir,
Dushmaniga xatar yo‘qdir,
Yaxshilik etsa yer yo‘qdir,
Bu zamonda yuvosh bo‘lgan.

Maxtumquli o‘git aytar,
Tushungan quloqda tutar,
O‘zini sharmisor etar,
Buzilgan elga bosh bo‘lgan.

LOLA KELTIRMISH

Osmondan nur yog‘sa, munavvar bo‘lar,
Zamin yashil kiyib, lola keltirmish.
Xudoning amriga bo‘ysunmas juvon
O‘ynashidan harom bola keltirmish.

Avval oqqan yerdan oqarmish ariq,
Manmanlik qilganning tanobi chirik,
Marddan oshna tutsang, obro‘yga sherik,
Nomard oshnasiga hiyla keltirmish.

Har kim bu dunyoda kezar bir xilda,
Yurgin ota-bobo yurigan yo‘lga,
Baytal toychog‘ini boshlaydi cho‘lga,
Eshak kurrasini kulga keltirmish.

Har kim o‘z otiga muhr yozdirar,
Yozilgan taqdirni kim ham buzdirar?
Ikkining siylovi birni ozdirar,
Tayoq bir telbani yo‘lga keltirmish.

Maxtumquli, gar to‘ydirsang bir ochni,
Albatta topasan shu yerda hajni,
Noshud mardlik qilsa, aytib ming vajni,
Har davrada yuz yo‘l tilga keltirmish.

FOSH BO‘LMASIN

Ey azizlar, musulmonlar,
Dalli ko‘ngil jo‘sh bo‘lmasin!
Mard yigitga, qadrdonlar,
Yomon xotin duch bo‘lmasin!

Har kim olsa Haqdan rahmat,
Qayg‘u ketar, qolmas kulfat,

Bosh bo‘lmasa, turmas davlat,
Hech o‘lka bebosh bo‘lmasin!

Haq madad bersin islomga,
Kim intilib shuhrat, nomga,
Botsa gunoh-u haromga,
Uzoq umr hech bo‘lmasin.

Har kishining o‘z ko‘ngli bor,
Miyasiga aql-u hush yor,
Ikkita do‘st aro zinhor,
Yomon, mushkul ish bo‘lmasin.

Har kishining o‘z zuryodi,
Jon xushi — ko‘ngil quvvati,
Ortsin saxiyning davlati,
Nomardlarda osh bo‘lmasin.

Ishq yetsa odamga agar,
Uyqu qochar, ko‘ngil yonar,
Ikki sevishgan muqarrar,
Bir-biridan tash bo‘lmasin.

Aytganimda men o‘gitlar,
Mard kishilar aqlin butlar,
Bir ish tushganda yigitlar,
Ish bilmagan yosh bo‘lmasin!

El ichra o‘zin ulug‘lar,
Til tumani boshdan oqar,
Mard yigitga kasri tegar,
Nomardlar yo‘ldosh bo‘lmasin!

So‘zla, hey, oshig‘im, so‘zla,
Kel, qiyomat ishin ko‘zla,
Maxtumquli, siring gizla,
Har nomardga fosh bo‘lmasin!

MA'NI BILMAS YOSHINDA

Ey azizlar, odamzod
Ma'ni bilmas yoshinda.
Beg'am bo'lar dunyodan
To'rtinda yo beshinda.

Beshinda bekdir, bilmaas,
Dunyoni ko'zga ilmas,
Zarra qayg'usi bo'lmas,
Sho'xliklar og'ushinda.

Qachonki o'n yosh kelar,
Yigitlikdan hush kelar,
Yeyish-ichish xush kelar,
O'y ko'p bo'lar boshinda.

O'n beshda er misoli,
O'zgaradi xayoli,
Urib yoshlik shamoli,
Qiz ko'rinar tushinda.

Yigitlik o'ti yonar,
Bolaligidan tonar,
Har kun bir ishqqa qonar,
Ul yigirma yoshinda.

Ko'zing oldirsang molga,
Uchrarsan xom xayolga,
Erishasan kamolga,
O'ttizga yetishganda.

Nodon qolgan kam bo'lar,
Ne unga malham bo'lar,
Qirqda aql jam bo'lar,
Odamzodning boshinda.

Ellikda hayotinda
Qari bo‘lar otin-da,
O‘lim bo‘lar yodinda
Xato bo‘lar ishinda.

Tushibman savdoga deb,
Savdoli g‘avg‘oga deb,
Kechdi umrim zoye deb,
Oh urar oltmishinda.

Yetmishda tan qoqlanar,
Jon jasadda saqlanar,
G‘am taxmonday taxlanar,
Qusur bor har ishinda.

Quvvati yo‘q tutganda,
Rohati yo‘q yotganda,
Yosh saksonga yetganda,
Tanimas uchrashganda.

Chiqmaydi uydan tashga,
Boqmas qavm-u qardoshga,
O‘lik derlar kishiga
Yosh to‘qsondan oshganda.

Maxtumquli himmati,
Qolmas qadr-qimmati,
Payg‘ambarning ummati
Hech bo‘lar yuz yoshinda.

JON ISTAR

Huvillab yotar g‘ofil tan,
Mardona biror jon istar.
Yurak-bag‘rim qilib pora,
Osuda bir zamon istar.

Layliga yetmadi Majnun,
Ko‘zidan qon to‘kar har kun,
Tog‘da chekib jabr dilxun,
Go‘zal mohitobon istar.

Shirinni orzulab Farhod,
Chekmish ishqida jabr-bedod,
Ko‘yida boshin tikib shod,
Dam kelguncha davron istar.

Vomiq Uzroning ishqida,
Orom topmadi ko‘shkida,
Yosh o‘rniga qon ashkida
Sel bo‘libdi, maydon istar.

Zulayxo ko‘rib Yusufni,
Ortdi ishqi — yo‘q hisobi,
Yuzidan olib hijobni[1],
Qora zulfi xamdan istar.

Firog‘iy so‘zlar dardini,
Tulkilar otmish qurtini,
Sevibdir turkman yurtini,
Ega bo‘lgan bir xon istar.

MARD BO‘LMAS

Mard yigit mard erdan tug‘ar,
Nomard hech qachon mard bo‘lmas.
Bo‘ri ko‘zida o‘t yonar,
Tulki, shaqalda shaxt bo‘lmas.

[1] **Hijob** — niqob, parda.

So‘zlagil bilganing tildan,
Bulbul ayri tushsa guldan,
Eshit odam, tuqqan eldan
O‘zga mehribon yurt bo‘lmas.

Bu olam ajoyib bo‘lsa,
Dunyo yuzi nurdan to‘lsa,
Tangri azal rahm qilsa,
Bu tan-u jonda dard bo‘lmas.

Maxtumquli, aql-u hushing,
Oqdi ko‘zdan qonli yoshing,
Ellik bo‘ldi g‘amli boshing,
Bundan ziyod faryod bo‘lmas.

BIZGA RAVONA

Qismat tortib, biz ham tushsak yo‘llarga,
Ayting, ellar bo‘lsin bizga ravona.
Nuh qo‘llasa, kirar bo‘lsak sellarga,
Duo qiling, nazar etib ummona!

Keksa tog‘lar boshin egib o‘tirsa,
Sabo kelib, arzim yorga yetkirsa,
Ortga qaytib, yor javobin keltirsa,
Men sevib ismini yozsam dostona!

Qarilikdan ko‘nglim loyga botibdir,
Falak aldab, iqbolimni sotibdir,
Ko‘zin yumib, ellik o‘qin otibdir,
Kelib joyin topib kirmish bu jona.

Majnun manam Menglining ishq o‘tinda,
Yonsam-kuysam yo‘qman uning yodinda,
Farhod-Shirin, Tohir-Zuhra otinda,
Ta’lim olib, bo‘ldim men ham parvona.

Hindi xollar yuzda dona-donadir,
Zor ayladi, chekkanim oh-noladir,
Ayriliqdan jigar pora-poradir,
Ovozasi to'lib uning Erona.

Maxtumquli, unutmagil elingni,
Ko'p ham uzun qilaverma tilingni,
Yo'l yuraman desang, bog'la belingni,
Savdogarlar ketdi Mozandaronga.

HINDISTONDA XAYOLIM

Haq yo'lida qurbondir
Jonim, davlatim, molim.
Ko'ngil yo'lga ravondir —
Hindistonda xayolim.

Yig'lab, ko'zim yosh etdim,
Ko'ngil ichra naqsh etdim,
El-yurtimga baxsh etdim,
Til ichra asal-bolim.

Yurdim odam sonida,
Majburiyat yonida,
Bir qardoshsiz foniyda,
Qanday kechar ahvolim?

Shod bo'lsin deb go'zal oy,
Tuhfa ayladim saroy,
Yuzim bekitdim hatto,
Qo'lga olib ro'molim.

Yurdim jafo uyinda,
Yondim ishqing ko'yinda,
Qoldi yerning tayinda,
Azal berilgan fe'lim.

Jonimni o‘tga soldim,
Otash ichida qoldim,
Ishqdan yarador bo‘ldim,
Luqmon so‘ramas holim.

El ko‘ziga ilibman,
Ilganimni bilibman,
Yor qoshiga kelibman,
Nima bo‘lar dalilim?

Foniy jahon ichinda,
O‘qman kamon ichinda,
Telba ummon ichinda,
G‘arq bo‘lmish eski solim.

Bir pariga xaridor,
Bu jonim unga nisor,
Dedim yorga: “Arzim bor...”
Unutmishman savolim.

Mengli jonga o‘t solar,
O‘ti jismimda qolar,
Maxtumquli, uyalar,
Mening sohibjamolim.

NOGAHON FIROQ

Qo‘ldan olding qarorimni,
Kelib sen nogahon, firoq.
Olding-ku Mengli yorimni,
Qo‘yib jonda armon, firoq.

Ko‘zlarim yo‘lingda banda,
Na ixtiyor qoldi manda,
Qattiq olib kelgan kundan,
Boshga solding fig‘on, firoq.

Arzimni tinglamas shohim,
Botdi osmondagi mohim,
Tog‘larni yondirib ohim,
Barin qildi vayron, firoq.

Qolmas mening boshim omon,
Ko‘rgan jabrni qilsam bayon,
Kunda kelib Iso, Luqmon,
Topmas dardga darmon, firoq.

Zulfiqor ketdi qo‘limdan,
Ayirding bir yolg‘iz solimdan,
El xabar olmas holimdan,
Otding barin Eron, firoq.

O‘qsiz qoldi qo‘lda yoyim,
Botdi mening kunim, oyim,
Madad bermasang, Xudoyim,
Qilar meni qurbon firoq.

Maxtumquli qon yig‘lagay,
Bag‘rini o‘tga dog‘lagay,
Ul Mengli yorni chog‘lagay,
Har kun chekar afg‘on, firoq.

TAVBA AYLADI

Kofirlar — boqmagan ko‘zda yoshima,
Dinga kirib, Haqqa tavba ayladi.
O‘z tilimdan g‘avg‘o soldim boshima,
Elu yurt holimga tavba ayladi.

Davrlar aylanar, charx fano bo‘lar,
Nechalar qutular, nechalar qolar,
Dardim ko‘rib kelin-qizlar uyalar,
Ins-u jins holimga tavba ayladi.

Maxtumquli, falak etdi bilganin,
Qo'ltig'iga qisdi mehmon kelganin,
Benomuslar kelgan o'ynab-kulgani,
Mardlar bu holimga tavba ayladi.

BOSHIMDAN

Hamdard bo'lib, dil dardini so'rmayin,
Ne bilsin bir ko'rib ketgan tashimdan.
Komil bo'lib, jon qulog'in bermayin,
Anglay olmas o'tgan ishni boshimdan.

Bilolmayman, qanday bo'lar oqibat,
G'iybatlarga qo'shilmadim ko'p fursat,
Yaratgandan roziman benihoyat,
Yaxshi-yomon — har ne kelsa boshimdan.

Ey haqorat bilan boqqan bizlarga,
Majoz bilib, munkir bo'lma so'zlarga,
Halol luqma nur bag'ishlar ko'zlarga,
O'zing ishon ko'rib non-u oshimdan.

Qanoat aylagin bir arpa nonga,
Sira tama bilan boqma insonga,
Ko'ngil parvoz qilmoq bo'lar osmonga,
Kechib salla, etik ham kovushimdan.

Maxtumquli chekib dushmanning zahrin,
Ishim ichga yutish yomonning qahrin,
O'tkazibman yigitlikning bahorin,
Qutulmoq yo'q qarilikning qishindan.

GO‘ZALSAN

Kun xanjari ko‘kdan yerga inganda,
Kunga qarshi tuqqan oyi, go‘zalsan!
Usta Ja’far ishi, silovsin to‘ni,
Isfahondan chiqqan yoyi, go‘zalsan!

Sochbog‘ing uchining tuguni kumush,
Ustidan band tushsa, qiyindir yechish,
Og‘zing obi hayot[1] ham Zamzam[2] emish,
Mangulik chashmasin loyi, go‘zalsan!

Qizil desam — qizil, ol[3] desam — olsan,
Hindistonda — shakar, Bulg‘orda — bolsan,
Ishq bilan ochilgan bir toza gulsan,
Yusuf-Zulayxoning tengi, go‘zalsan!

Kimki komil bo‘lsa, uni pir derlar,
“Dardli banda darmonini ber!” — derlar,
“Qovunning yaxshisin shaqal yer”, — derlar,
Baxti kulgan erning cheki, go‘zalsan!

Ovozang Chin-Mochin, tog‘lar oshgusi,
Seni ko‘rganlarning aqli shoshgusi,
Hindistonning qizil rangli shishasi,
Eng asil chilimning nayi, go‘zalsan!

Firog‘iy eldan sir aylasa pinhon,
Tishini ushating so‘zlasa yolg‘on,
Avval-u oxirda ko‘zlasa davron,
Bechoradir xoki poying, go‘zalsan!

---

[1] **Obi hayot** — tasavvufda sa’y-harakat bilan erishib bo‘lmaydigan, Olloh tomonidan o‘zi xohlagan bandalariga beriladigan laduniy (ilohiy) ilm ma’nosida keladi.

[2] **Zamzam** — Ka’ba yonidagi muqaddas buloq.

[3] **Ol** — qizil, to‘q qizil.

BU ISHNI

Banda, yomon ishga botirlik etma,
Oldingga qo'yarlar ul kun bu ishni.
Nafsing deb, shaytonning yo'lidan ketma,
Uyatga qo'yar deb bilgin bu ishni.

Nafsing der: "Surib qol, bu bir huzurdir!"
Joning der: "Hoy, to'xta, Tangri hozirdir!"
Sen ko'rmasang-da, u senga nozirdir[1],
Uyal, nomus ayla, qo'ygin bu ishni.

Bir yo'lda gunoh bor, bir yo'lda savob,
Arosatda sendan istarlar javob,
Halolga hisob bor, haromga azob,
Bu — haqiqat, yodga solgin bu ishni.

Umring o'tib borgan bahor bir soat,
Netar, bu bahorda aylasang toat,
Savobga shodlik bor, gunohga uyat,
Bo'yningga olmagin, kelgin, bu ishni.

Boshing ko'kka, ko'ksing yelga ko'tarma,
Ko'nglingga qo'rquvni jilla keltirma,
Dilingda yo'q so'zni tilga keltirma,
Ixlos qulog'iga ilgin bu ishni.

Musofirsan, muqim[2] ishni qurarsan,
Bebaqo dunyoda qancha turarsan?
Bunda ne ish qilsang, unda ko'rarsan,
Yaxshidir-yomondir, ul kun bu ishni.

Shayton der: "Yaxshi ish — yo'ldan oza qol!"
Rahmon der: "Nafsingdan umid uza qol!"

---

[1] **Nozir** — nazorat qiluvchi, qarab turuvchi.

[2] **Muqim** — turg'un, sokin, sobit.

Maxtumquli, tur, qo'lingni cho'qqa sol,
Agar chiday olsang, qilgin bu ishni.

ELLARDAN AYLANDI

Do'stlar, falak bergan davlat,
Bizning ellardan aylandi.
Yaxshi go'zal, yaxshi ziynat,
Qora tuproqqa bulg'andi.

Berdim falakning bojini,
Yurar yo'li xirojini,
Yor yashirib ko'z-qoshini,
Noz bilan go'zal to'lg'ondi.

Tog' bag'rida ko'k yaylovlar,
Uylar atrofida g'ovlar,
Do'stlar, boqing, zilol suvlar,
Falak boqdi-yu, bulg'andi.

Qochar bo'ldi falak pisib,
Toqqa quvdi bizni qisib,
Nozli yorim asta bosib,
Layli, Shirindek sollandi[1].

Yellar yeladi ummondan,
Tog' boshi xoli tumandan,
Tildan — shakar, bolga kondan,
Ba'zilarning mehri qondi.

Qilsam jonim yor qurboni,
Usiz ne qilay jahonni?
Mard oshiqning shirin joni,
Ishqning otashida yondi.

[1] **Sollanmoq** — noz bilan o'zini ikki yoqqa tashlab yurish.

Bir humoni qo'lga olsak,
Ayirarlar hamroh bo'lsak,
Najd tog'i tomon yo'l solsak,
Bizlarga Majnun qarg'andi.

Hamroh bo'ldim g'aflat bilan,
Yurdim fisq-u fasod bilan,
Naylay, doim kulfat bilan,
Mardona suratim sindi.

Chekar bo'ldim qayg'u-hasrat,
Boshimdan ketmadi furqat,
Orif ahli etib vafot,
Dunyo tashvishidan tindi.

Dunyo hijron to'nin yopib,
Falak o'tar bo'ldi tepib,
Ba'zilar mol deya chopib,
Harom-xarish mol yig'indi.

Parvardigor qilmas nazar,
Falak erkin qurar bozor,
Nomus uchun qarigan er,
Egildi, hassa tayandi.

Ortdi bu jonning ozori,
Yetmas ko'nglining qarori,
Maxtumquli, yor ajdari,
Afsun qilib, ko'p tovlandi.

BOLLAR MASKANI

Ey dilbarim, jamolingdir qop-qora xollar maskani,
Tilingdan qand-shakar ezgan og'zingdir bollar maskani.

Oro berib chiqdi dilbar tovus misoli talpinib,
To'lin oy ham xijil bo'lar — yorimda yillar maskani.

Tong shamoli keza olmas tog'-u dasht uzra sayr etib,
U ne qilsin, asir bo'ldi, dilbarda yellar maskani.

Arab tili beqadr bo'ldi — xaridori yo'qdir uning,
Oshkor etsam nihon sirni, dilbarda tillar maskani.

Ey sarv qomatli pari, hijron seni-da o'rtadi,
Arzing agarda so'zlasang, yorda kokillar maskani.

Ey Firog'iy, ko'rsatib yo'l, o'zing unda adashibsan,
Kezar bo'lding, arzingni ayt, dilbarda yo'llar maskani.

YIG'LAR HOLIMGA

Lochinsiz sahroda qolgan jasadman,
Meni ko'rib, loshlar yig'lar holimga.
Dunyo qadrim bilmas nodon maxluqman,
Hushi uchib, boshlar yig'lar holimga.

Men xor bo'ldim butun jahonda yurib,
G'ofil qoldim g'am uyida sarg'arib,
Ucholmasdan turmilaman men g'arib,
Ko'kda kezgan qushlar yig'lar holimga.

Quvvatdan qolibman — endi yoshmasman,
Chunki avvalgidek qaynab-toshmasman,
O't uzra tushsam-da, kuyib pishmasman,
Kabob bo'lib, sixlar yig'lar holimga.

Betoqat yuragim larzon bo'ldi-yey,
Oh ursam, tutuni tuman bo'ldi-yey,
Ko'zdan oqqan yoshim ummon bo'ldi-yey,
Tomchi-tomchi yoshlar yig'lar holimga.

Nolamdan tog‘larda paydo bo‘ldi dur,
Bulutlar tarqadi, yog‘di mo‘l yomg‘ir,
Baland tog‘lar erib, suv bo‘ldi bir-bir,
Ul bechora toshlar yig‘lar holimga.

Maxtumquli, aql eshigi mahkam,
Dard bo‘libdi elning yopingani ham,
Mashhur pir-u eshon, so‘fisi bu dam
Telpak kiymish, salla yig‘lar holimga.

YIL BILAN

Boshingga kelgandir qarilik qushi,
Hech ayrilmas oylar bilan, yil bilan.
To‘kildi og‘izdan Haq bergan tishi,
Yo‘qdir hushim shirin so‘zli til bilan.

Ko‘zlarimga yorug‘ jahon zindondir,
Kecha-kunduz qonli yoshim ravondir,
Yuragim betoqat, dilda armondir,
Xohishim yo‘q, do‘stlar, qizil gul bilan.

Ketdi mendan yigitlikning g‘ayrati,
Qaridi, ayrildi quyruqdan oti,
Falak soldi boshga bitmas ofatni,
Tizzada quvvat yo‘q, egik bel bilan.

Aylandi tegramda falak gardishi,
Yotsam-tursam boshda dunyoning ishi,
Dod aylab chekaman nuqul koyishni,
Umrim o‘tib borar oltmish yil bilan.

Qo‘ldan chiqardim ham qushim, ham ovim,
Burnin yelga tutib o‘tdi ulovim,
Nor, moya yoyilgan o‘tli yaylovim,
Go‘yoki tush bo‘ldi, ketdi cho‘l bilan.

Firog‘iy der: dunyoga yo‘q havasim,
Yolg‘iz islom bo‘lib qoldi ixlosim,
Zor yig‘lasam, eshitmaslar ovozim,
Hafsalam qolmadi go‘zal el bilan.

KO‘NGILDIR VAYRON

Dedim: “Yuzi tobona”. Dedi: “O‘xshar”. Menglixon.
Dedim: “Qo‘yding armona”. Dedi: “Ko‘ngildir vayron”.
Dedim: “O‘larman endi”. Dedi: “Qolarsan omon”.
Dedim: “Kipriklaring o‘q”. Dedi: “Qoshlarim kamon”.
Dedim: “Ne libos kiymish?”. Dedi: “Zarli to‘n, jonon”.

Dedim: “Yuzda xollar bor”. Dedi: “Yuzda gullar, hey!”
Dedim: “Qumri tillidir”. Dedi: “Boldir tillar, hey!”
Dedim: “Kel, bir xabar ol”. Dedi: “ Bilar ellar, hey!”
Dedimki: “U ne sarvdir?”. Dedi: “Xipcha bellar, hey!”
Dedim: “Tovus qayerdan?”. Dedi: “Yurti Hindiston”.

Dedim: “Kechang qorong‘i”. Dedi: “Uyquda oyim”.
Dedim: “Kimlar yasovul?”[1] Dedi: “Kiprigim — yoyim”.
Dedim: “Qayda makoning? ” Dedi: “Lomakon — joyim”.
Dedim: “Zarafshonmidir?”[2] Dedi: “Kavsardir choyim”.
Dedim: “Tut undan menga”. Dedi: “Jon ayla qurbon”.

Dedim: “Ne tutun?” Dedi: “Bu qora ajdahorlar”.
Dedim: “Qo‘rqaman undan”. Dedi: “El-u yurt zorlar”.
Dedim: “So‘z asli nima?” Dedi: “So‘rar, tuyarlar”.
Dedim: “Sirni fosh etding”. Dedi: “Aytmish ayyorlar”.
Dedim: “O‘lim bor senga”. Dedi: “Senga ham farmon”.

Dedim: “Ey Maxtumquli!” Dedi: “Ko‘zlar yosh bo‘lar”.
Dedim: “Ul ne yigitdir?” Dedi: “Sizga bosh bo‘lar”.

[1] **Yasovul** — soqchi, posbon, qorovul.

[2] **Zarafshon** — zar sochuvchi.

Dedim: "Yaqindir Ka'ba". Dedi: "Eski tosh bo'lar".
Dedim: "Yaxshi zamondir". Dedi: "Bu ham tush bo'lar".
Dedim: "Endi ketarman". Dedi: "Ketsang, bor omon!"

OZODIM QANI?

Falak, izlar edim, sen duchor bo'lding,
Ko'zimning nuroni[1] — Ozodim qani?!
Yuragim sug'urib, itlarga berding,
Shahrimning sultoni — Ozodim qani?!

Imomsiz qoldi-ku masjid-mehrobim,
Tug'ilmadi shu'la sochib mohtobim[2],
Holim yomon — sel tutibdir atrofim,
Ko'nglimning ummoni — Ozodim qani?!

Shakar edi, zahar bo'ldi so'zlarim,
Za'farondek[3] sarg'ayibdi yuzlarim,
Quvvat ketdi, xira tortdi ko'zlarim,
Minbarim azoni — Ozodim qani?!

To'rt faslim o't bo'ldi — tog'lar eridi,
Tiriklar uchdilar, o'lik yuridi,
Ketganlar Haqqa bosh urdi, so'radi,
Elimning zaboni — Ozodim qani?!

Tuproqlar sel bo'ldi, sellar qum bo'ldi,
Xumlar jom bo'ldilar, jomlar xum bo'ldi,
Orzu-havas motam, kunim g'am bo'ldi,
Dilimning oromi — Ozodim qani?!

---

[1] **Nuroni** — nuri, yorug'ligi.

[2] **Mohtob** — 1) oy, oydin; 2) oyday go'zal mahbuba.

[3] **Za'faron** — sarg'ish tus beruvchi xushbo'y o'simlik; majozan: sariq rang.

O‘liklar tirilib, arzga bordilar,
Yurib, birgina so‘z Haqdan so‘rdilar,
Ko‘p yolvorib, “Qo‘yvor!” — debon turdilar,
Qo‘sh dunyo davroni — Ozodim qani?!

Kofirlar bo‘libdi yig‘lab musulmon,
Haqqa yolvoribdi Xizr, Sulaymon,
Ko‘tarilib, ko‘kka bug‘ bo‘lib ummon,
Go‘klangning polvoni — Ozodim qani?!

Armonim yo‘q, charx, sen bilan jang qilsam,
Yo yiqsang, yiqilsam, yo boshing olsam,
Itlarga osh qilib, bozorga solsam,
Bog‘imning rayhoni — Ozodim qani?!

Eshitgan quloqning bari kar bo‘ldi,
Tog‘lar erib oqdi, toshlar yer bo‘ldi,
Mullalar Qur’onsiz, pirlar ko‘r bo‘ldi,
Sohibi Qur’onim — Ozodim qani?!

Yer yuzini qora tuman aylading,
Ayt-chi, falak, kimni omon aylading?!
Firog‘iyni, boq, beiymon aylading,
Nomusim, iymonim — Ozodim qani?!

OMONGA KELAR

Mard bo‘layin desang, mardga hamroh bo‘l,
Nomard mardni ko‘rsa, omonga kelar.
Zor qilayin desang, ohga quloq sol,
Boy qush uzoq uchmas, vayronga kelar.

Rustam, Zol emasmi, dunyoni olgan,
Mard bo‘lib, mardona urushlar qilgan,
Do‘st emasmi sevar hamrohi bo‘lgan,
Benomus yigitlar gumonga kelar.

Maqol bordir: "Tan og'risa, jon sezar",
Kim ko'ribdi uchgan qushdan fe'l o'zar?
Bola ochgan kuni uyasin qazar,
So'ngra dum o'ynatib, maydonga kelar.

Ot olsang, chopqir ol, olma chamanni,
Ko'nglingda qo'ymas u zarra gumonni,
Hamroh qilma ichi qora, yomonni,
Siringni fosh aylab, devonga kelar.

Xonga hamroh bo'lma, fe'ling ozmasa,
Shoh qizini olma, Xudo yozmasa,
Yur mudom to birov yo'ling buzmasa,
Egri yo'ldan ketsang, yomonga kelar.

Mudom miskin bo'lsin sening sirdoshing,
Miskindir dildoshing ham qarindoshing,
Og'ir kunga qolsa bu ojiz boshing,
O'tda birga yonar, darmonga kelar.

Qozilar yaramas, uzundir tili,
Bir laqqi shoshirar katta bir elni,
Oqsoqol boylarning ozganda fe'li,
Maslahat olmoqqa Qorunga kelar.

Mast-u sarxush bo'lib kunim o'tkazsam,
Xonga arzim aytib, qo'lim yetkazsam,
Maqsadimga yetib, dardim ketkazsam,
G'amda qolgan ko'nglim davronga kelar.

Bu oqsoch tog'larning tumani ketmas,
Shuni aniq biling: nomardlar o'tmas,
Mard yigitning qo'li davlatga yetmas,
Qayta boshdan xayol armonga kelar.

Maxtumquli, bu ne xayol, ne fe'ldir,
Bu ne nasihatdir, ne uzun tildir,

Ko‘ngil bir ochilgan qirmizi guldir,
Bugun shoddir, erta fig‘onga kelar.

EL KO‘ZLAR

G‘ariblikda g‘am mayiga g‘arq bo‘lgan,
Uyquli ko‘zlarim go‘zal el ko‘zlar.
Oh-zor qilib, uzoq qafasda qolgan,
Ozod bo‘lgan bulbul, qizil gul ko‘zlar.

Go‘zal elim, sen deb bosarman yo‘llar,
Ko‘zim xira tortdi, nochordir hollar,
Sohildagi abgor egasiz sollar,
Yosh to‘kib yotgancha ummon, sel ko‘zlar.

O‘tli libos kiygan ko‘ngli sochar nur,
Toj-u taxt, saroylar shohsiz qolgandir,
Yor deb sarson kezar oshiqlar faqir,
Sarv qad, qora ko‘z, xipcha bel ko‘zlar.

Qarorsiz ko‘ngillar, noiloj jonlar,
Nohaq oqsa shahid insondan qonlar,
Parvonalar bo‘lib shod-u xandonlar,
Bahor faslida gul uzra yel ko‘zlar.

Tilsiz og‘izlar, istarasiz yuzlar,
Qora qosh, o‘q kiprik, ul qora ko‘zlar,
Behuda gurunglar, ma’nisiz so‘zlar,
Xilvatdan chiqar-u gung-u lol ko‘zlar.

Ahmoq shohlar, erksiz vazir, ul qullar,
Nozik bel, sarv qad, oq, uzun qo‘llar,
Ko‘ngil naqshi tushda ko‘rgan xayollar,
Tilla, gavhar, xazina-yu mol ko‘zlar.

Maxtumquli, bizday miskin ham boylar,
O‘qsiz kamon, ipsiz tortilgan yoylar,
Aylangan davrlar, kunlar-u oylar,
Falak evriladi, yangi yil ko‘zlar.

QULOG‘IN TUTMAS

El-u yurtim, yaqin do‘st-u qardoshim,
Qancha zor aylamay, qulog‘in tutmas.
Ummon bo‘ldi ko‘zdan to‘kilgan yoshim,
Ummon ichra sollar sira tinch yotmas.

Eskib, xarob bo‘ldi ul yangi sollar,
So‘qmoqlar yo‘qoldi, ko‘mildi yo‘llar,
Luqmonidan davo topolgan qullar,
Toki hayot ekan, uni unutmas.

Had-hisobsiz bizga yetgan firoqlar,
Osmondan zaminga tushdi Buroqlar,
Maqol bordir: “Toshga otilsa o‘qlar,
Toshga kirar, sira ortiga qaytmas”.

Duo qilsam, jabr-u jafom ko‘p aksar,
Ilm o‘rgatgan ustod — otam muqarrar,
Odam bor, bir so‘zing olamga yoyar,
Odam bor, hatto soyasiga aytmas.

Nechalarning gul bosibdi[1] ko‘ziga,
Nechalarning qora tutmish yuziga,
Nechalarning parvo qilmas so‘ziga,
Nechaning yomon so‘z joniga botmas.

Bu falak zolimdir, qamchisi qo‘lda,
Nechaning loshini tarqatar yo‘lda,

[1] **Gul bosmoq** — ko‘r qilmoq.

Nechalar yashaydi hatto yuz yil-da,
Nechalarning umri bir oyga yetmas.

Baxtdir ko'rib tursa Xudo bergan ko'z,
So'zlasang rost so'zni so'zlagin har kez,
Yashamas el ichra uzoq yolg'on so'z,
Yomon niyati qilgan uzoqqa ketmas.

Es-hushi bo'lmaydi, deydilar, ochning,
Qadri bo'lmas el ichra yalang'ochning,
Gul baldog'i bo'lsa har bir og'ochning,
Haq ravo ko'rmasa, sunbuli bitmas.

Ketar bo'ldim yigitlikda yor bilan,
Har yoqqa chopibman dili zor bilan,
Nola qilib, so'rar bo'lsang zar bilan,
Tillani ne qilsin, falak jon sotmas.

Maxtumquli aytar: yondi bu jonlar,
Kampir bo'ldi,
men ko'rgan yosh jononlar,
Yo'lga kirmas, lo'li bo'lgan xotinlar,
Elni boshqarishni hech udda etmas.

HUSHDAN AYRILDI

Aqli borlar o'tinch aylab so'zimdan,
Fe'lin yelga berdi, hushdan ayrildi.
Ayollar ko'tardi parda yuzindan,
Otga chiqdi, uyda ishdan ayrildi.

Ne ajoyib kunlar, o'tgan davronlar,
Ne go'zal xaridor, bozor — do'konlar,
Ne turgan ovchilar, to'tizabonlar,
Qoraqush, lochinlar loshdan ayrildi.

Baxt yotib, bo'sh qoldi boshlar muqarrar,
Ko'k titroqqa tushdi, tebrandi yerlar,
Ko'r bo'ldi mullalar, zabardast pirlar,
Qorilar Qur'ondan, pechdan[1] ayrildi.

Vayron bo'ldi qancha toj-u taxt, ko'shklar,
So'nib kul bag'riga ko'mildi cho'g'lar,
Yor deya sargardon faqir oshiqlar
Xipcha bel, qora ko'z, qoshdan ayrildi.

Tildan judo tushdi ajoyib so'zlar,
Xoldan xoli bo'ldi ne go'zal yuzlar,
Kiprikdan, qoboqdan ayrilgan ko'zlar,
Faryod urib, qonli yoshdan ayrildi.

Ko'zim yoshi oqdi Qulzum, Nil bo'lib,
Faqir bo'lib, qoldim elga til bo'lib[2],
Chilla chog'i qorlar oqdi sel bo'lib,
Qora tog'lar qora toshdan ayrildi.

Ketar bo'ldi ellar bunda xor qolib,
Mardlar o'lib ketdi, yig'lab yor qolib,
Maxtumquli zuryodidan zor qolib,
Aql-hushdan, soqol-sochdan ayrildi.

BOSHIMIZGA

Shum falak girdobi soldi ko'p xayollar boshimizga,
Voh, agar sohilga chiqsak, to'r qurar u toshimizga.

Bosh olib ketsam-u eldan, tutsam o'zga yerda vatan,
Kelgay ul fasli bahorda, yomg'ir yog'ar qishimizga.

---

[1] **Pech** — salla ma'nosida.

[2] **Elga til bo'lib** — el og'ziga tushib, elga doston bo'lib.

Amriga bo'ysunib uning, ko'ch tutar ko'nglim qo'shini,
Bir vakil yo'llaydi kunda arz etibon qoshimizga.

Qomat-u yuzini ko'rsam, yo'q qarorim, naylayin men,
Kunduzi gar nolish etsam, tunda kirar tushimizga.

Yor qo'lida jon berib, yetdim shahidlik rutbasiga[1],
Bir nafas bermay farog'at qo'ndi qushlar loshimizga.

Shum falakning rahim yo'q, aylar judo do'st-u yaqindan,
Qancha davron o'tdi, tushmas ko'zimiz qardoshimizga.

Ko'zlarim yo'liga tikib, boqsam etib arz-u niyoz,
Qattiq emish qalbi toshdan, boqmagay nolishimizga.

Bu Firog'iy keksa mulla, o'tdi yoshlik pallasi-yey,
Kunda yuz bor nomin etsam, foyda yo'q ko'z yoshimizga.

ABDULLA

To'qqiz yil o'tdi sen ketgandan buyon,
Qayda qolib ketding, og'am Abdulla?
Qaytib kelmasmi hech bir ketgan inson,
Qayda qolib ketding, og'am Abdulla?

Tog'ga arzim aytib, kutdim xabaring,
Tili tutilibdi — demas ozoring,
Ota-yu onasiz nedir qaroring,
Qayda qolib ketding, og'am Abdulla?

Qo'rquvdan nima naf ketajak jona,
Umr oxirladi, to'ldi paymona,
Yoki sen tushdingmi tubsiz ummona,
Qayda qolib ketding, og'am Abdulla?

[1] **Rutba** — maqom, martaba, daraja.

Ustimizga hijron o'ti sepildi,
Quvvatim ketdi-yu, tizzam egildi,
Qon yig'lab, otamning beli bukildi,
Qayda qolib ketding, og'am Abdulla?

Yuzim tutdim jondorlarning boriga,
O'zim loyiq bildim hijron doriga,
Chidolmayman uydagilar zoriga,
Qayda qolib ketding, og'am Abdulla?

Elda-yurtda yo'qdir mening qarorim,
Dard ustiga ortdi yana ozorim,
Yot bo'ldi vataning, uying, ro'zg'oring,
Qayda qolib ketding, og'am Abdulla?

Quloq tutarman aytilgan so'zlarga,
Hijron bilan azob berding bizlarga,
O'tda yonib, kunim qoldi bo'zlarga,
Qayda qolib ketding, og'am Abdulla?

Kulib o'ynamadik birga shod bo'lib,
Boshdan ketding bizdan tamom yot bo'lib,
Maxtumquli zor yig'lagay mot bo'lib,
Qayda qolib ketding, og'am Abdulla?

OXIRZAMONA

Ko'nglim aytar, do'stlar, aylayin bayon,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?
Dunyo uchun shariatni tashlabon,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Mullalar ilmiga etmadi amal,
Shariat ishiga aylamay jadal,
Fe'limiz buzilib, ko'paydi kasal,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Muftilar mol olib, hukm-fatvo berar,
Nohaq pulni olar, haqni kuydirar,
Fe'llari buzilib, fasod ko'payar,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Amaldorlar faqirlardan pul olar,
Bermasa bo'yniga qil arqon solar,
Gunohlar ko'payar, shariat qolar,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Eshonlari riyo aylar namozin,
G'aflatda o'tkazar qish bilan yozin,
Yolg'on so'zlab, eldan olar niyozin,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

So'filar nafs uchun malla to'n kiyib,
Shubhali taomni halol deb yeyib,
Shayton fe'li bilan karomat deyib,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Shayx bo'lganlar nazr[1] ustida urishib,
Pul deb xotin, farzand bilan so'kishib,
Avliyo uyida mundoq bo'lishib,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Xo'jalar maqtashar asl-u zotini,
Qiyom Isomiddin[2] qo'yib otini,
Falon kishi xo'ja deb avlodini,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Oqsoqol bo'lganlar to'g'ri so'zlamas,
Pora olar, lekin haqni ko'zlamas,
Da'vo tinglab, adolatni izlamas,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

---

[1] **Nazr** — Xudo yo'lida biror narsani bag'ishlash, berish; sadaqa, xayr.

[2] **Isomiddin** — quyi tabaqadan bo'lsa-da, saroydagi ulkan xizmatlari uchun ulug' darajaga erishgan Isom No'mon ibn Munzir.

Boylarda qolmadi xayr-u saxovat,
Dunyo deb kezarlar bilmay farog‘at,
Faqirlar boylardan ko‘rmas muruvvat,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

O‘g‘li xushro‘y bo‘lsa, etarmishlar shod,
Go‘yoki davlati bo‘lgandir ziyod,
Kun-kundan jahonda ko‘paydi fasod,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Qiz-juvonda yo‘qdir hayodan asar,
Yigitlar qiz bilan o‘ynashib kezar,
Kundan-kun yomon ish ko‘paydi battar,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Zamona ishlari yomon bo‘libdi,
Jahon ichra fasod ishlar to‘libdi,
Fe’limiz aynibon, ranglar so‘libdi,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Boylar zakot bermay, bo‘libdi sudxo‘r,
El ichida ko‘payibdi baxil, ko‘r,
Umr o‘tib, g‘aflatga bo‘libmiz mag‘rur,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Gunohlar ko‘payib, kamaydi savob,
Qo‘rqarman, bu jahon bo‘lgay deb xarob,
Kasb etib, sotarlar arog‘-u sharob,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

Maxtumquli, muncha qilmoq hikoyat,
Shoyad, oqillarga bo‘lgay kifoyat,
Dunyoning ishiga yo‘qdir nihoyat,
Bilmadim, yaqinmi oxirzamona?

TO‘N BO‘LSA

Tan yopmoqqa ko‘ylak istar yalang‘och,
Ko‘ylakli der: oh, ustidan to‘n bo‘lsa!
Besh pul ber, deb Haqdan tilar qorni och,
Beshin topsa, orzu qilar — o‘n bo‘lsa!

Ul yigitki, cheka-cheka hasratni,
Safarga chiqishga bo‘lsa davlati,
Baxti chopib, topib yarog‘-u otni,
Yana der: tekin-u to‘kin non bo‘lsa!

Ko‘p non topib, agar bo‘lsa ko‘ngli shod,
Bir chiroyli mahbub istar, ham avlod,
Bu davlatga agar yetsa odamzod,
Ko‘ngli istar: buyuk elga xon bo‘lsa!

Xon bo‘lsa, mol-dunyodan talay bo‘lsa,
Hech o‘lmasa, har narsasi shay bo‘lsa,
Ham bermasa, ham chirimas boy bo‘lsa,
Yaxshi oti ham dunyoga shon bo‘lsa!

Maxtumquli, ko‘rib dushman ta’nasin,
Marddir,
kim shod tutsa g‘amdan siynasin,
Yer yuzi to‘ldirmas ko‘zing xonasin,
Qorundek necha xazina kon bo‘lsa!

SHOL TOPSA

Yaratganga ixlos qilgan chin inson
Ipak havas etmas agar shol topsa.
Dunyo moli, ishi uchun sargardon
Ko‘ngil shod bo‘lar ortiqcha mol topsa.

Yo‘l yo‘ldoshi yo‘ldoshiga suyanar,
Xavfli joyda yotgan tez-tez uyg‘onar,
Qaroqchilar karvon ko‘rsa quvonar,
Kema topmaganlar suvda sol topsa.

Yetarlar har yerda so‘zim toqiga,
Keksa armon qilar yigit chog‘iga,
Berar eshakmunchoq yoki aqiqqa
Bechora cho‘ponlar yoqut, la’l topsa.

Jon xavfidan bo‘lar es-hushi hayron,
Ilon kishmir[1] ko‘rsa, o‘tolg‘u tayron[2],
Sher qoraqush ko‘rsa, fil ham karkidon,
Daraxtga qurt tushsa, qovun xol topsa.

Umidsiz qolmaydi so‘ragan marddan,
Tilama, bitmaydi ishing nomarddan,
O‘lsa-da ayrilmas parvona o‘tdan,
Simob qizil topsa, pashsha bol topsa.

Ey tarbiyat istar kishi tan uchun,
Aysh tilagan o‘g‘il-qiz, xotin uchun,
Oq pulni saqlarlar qora kun uchun,
Xush kezarlar qizil, yashil, ol topsa.

Maxtumquli, yuz ming ko‘ylar, ko‘chalar,
Aytadilar: “Zamon bizdan kechalar”,
Haq, nohaqdan boylik yig‘ib nechalar,
Sarf etarga joyin topmas, mol topsa.

---

[1] **Kishmir** — uzun oyoqli, dumaloq boshli beshiktebratarga o‘xshash yirtqich hayvon.

[2] **Tayron** — uchadigan.

KETAR

Ko‘p nomardga mol berding, tuban dunyo,
Ko‘zi ko‘kda, g‘ami yo‘q, ish zo‘r ketar.
Qani aqling? O‘tga tushib yon, dunyo!
Ne mardlar bor, muhtojlikda xor ketar.

Qisqa umring o‘tsa turli ishratda,
So‘ng shirin jon qolar uzoq hasratda,
Ahmoqlar bu yerda qolar g‘aflatda,
Oqil kishi o‘z g‘amini yer ketar.

Na to‘g‘ri kelganga mehringni berding,
Na kelmaganga bir tuhfa yubording,
Hech farqi yo‘q senga mardu nomardning,
Arslon o‘tar, tulki kechar, sher ketar.

Foyda tilab kelgan dunyo shahridan,
Jonin berib, tushib qolar qahridan,
Dunyo — ilon, bu ilonning zahridan
Tuk tushar, qanot qirilar, par ketar.

Dunyo — xotin, o‘ynashi ko‘p, eri bir,
Bir o‘pishda qoning so‘rib, eting yer,
O‘lgandan so‘ng shoh-u gado bari bir,
Barcha bir manzilga, ya’ni go‘r ketar.

Odam o‘g‘li yolg‘onchining yolg‘onin
Chin bilibdi ko‘rib nozli kulganin,
G‘am chekma, ey dunyo, har kim olgani –
Qarz molingdir, berib baribir ketar.

Firog‘iy der: kuchli bilan talashmang,
Savob turib, gunohga aralashmang,
Yaxshi-yomon so‘zim ko‘pdir, kulishmang,
Chunki har kim bilganini der ketar.

BUNDA, CHILIMKASH

Haq senga so‘z demas yolg‘on jahonda,
Bilganing qilaver bunda, chilimkash!
Mahsharda — tarozi qurilgan onda,
Javobing ne bo‘lar unda, chilimkash!

Jafolar, hasratlar bo‘lar taqdiring,
Eshakdek hangraysan, torayar yering,
Og‘zingdan kelar qop-qora qon, yiring,
Bir nishona shudir senda, chilimkash!

Malaklar maydonda ushlab, saqlarlar,
Do‘zax o‘rtasiga eltib bog‘larlar,
A’zoyi badaning rosa dog‘larlar,
Ko‘p qolarsan qora kunda, chilimkash!

Sirot ko‘prigidan otarlar seni,
Zulmatga solarlar, yoparlar seni,
Zanjir, kunda bilan saqlarlar seni,
Ranj-u hasrat-u fig‘onda, chilimkash!

Badaningdan zaharli suv to‘karlar,
Suyagingni bo‘g‘im-bo‘g‘im so‘karlar,
Bug‘ro kabi o‘rgimchaklar chaqarlar,
Zaxmi chiqmas, qolar jonda, chilimkash!

Bu dunyoda bo‘lsa har kimsa — yomon,
U dunyoda dodlab, so‘raydi omon,
Namozni tark etgan, g‘iybatchi inson,
Yo‘ldoshingdir og‘ir kunda, chilimkash!

Maxtumkuli, do‘zax sari boshlarlar,
Ilonlar aylanib kelib tishlarlar,
Eltarlar, jahannam ichra tashlarlar,
O‘rtanib, oh urar unda, chilimkash...

DUR SOCHGANDEK

Yomon yaxshiga yor bo‘lsa,
Zahar-zaqqum ichgandekdir.
Agar najot topa bilsa,
Zahar o‘ti o‘lgandekdir.

Soqolidan qo‘rqmas odam,
Tushdan cho‘chir ammo har dam,
Zamonga boqsam, bosib g‘am,
Ishidan dil kechgandekdir.

Tagi pastning baxti yurmoq,
Uysiz qo‘liga mol kirmoq,
Ahmoqqa siringni bermoq
O‘z aybingni ochgandekdir.

O‘tdi umring, dunyo sayling,
Haq yo‘liga bog‘la beling,
Og‘zi ola bo‘lgan elning,
Boq, davlati qochgandekdir.

Sirini dilda gizlagan,
Dono ish so‘ngin ko‘zlagan,
Gap topib, yaxshi so‘zlagan
Misoli dur sochgandekdir.

Insondan ketsa e’tibor,
Qocharlar undan do‘st-u yor,
Ilm-hunarli, omadli er
Mol-u pulni quchgandekdir.

Maxtumquli, illatli ko‘z,
Xarob bo‘ladi tegsa tuz,
Ma’rakada nojo‘ya so‘z
Oshga pashsha tushgandekdir.

OTGA O‘XSHAR

Ovul chetidagi tepa
Egarlangan otga o‘xshar.
Nodon kishilar zar bilan
Bitilgan bad xatga o‘xshar.

Bu dunyo bir tubsiz daryo,
G‘arq etar, bo‘lma beparvo,
Mag‘rur bo‘lma, foniy dunyo,
Hammaga navbatga o‘xshar.

Qardoshi yo‘qqa quvvat yo‘q,
O‘g‘ilsizlarga davlat yo‘q,
Xotinsizga aysh-ishrat yo‘q,
Xush kuni hasratga o‘xshar.

Yomon yaxshi bo‘lmas hech on,
Asli yaxshi bo‘lmas yomon,
Davlat bo‘lmas senga jahon,
O‘g‘il chin davlatga o‘xshar.

Murch bilan tuz yangi yorga,
Zahar qo‘shadir ro‘zg‘orga,
Yomon xotin yaxshi erga,
Tuganmas tuhmatga o‘xshar.

Yotgan joyi ilon qo‘yni,
Osilgani itning bo‘yni,
Past erning yaxshi xotini
Duri beqimmatga o‘xshar.

Firog‘iy, benasib hardam,
Bir men g‘amgin, barcha xurram,
So‘z ma’nisin bilmas odam
Xuddi dumsiz itga o‘xshar.

TOG‘ SANAR

Tog‘lar yerning mixidir,
Tepa o‘zin tog‘ sanar.
Qarg‘a o‘zin bulbul der,
Chorloq[1] o‘zin zog‘ sanar.

Kamtar bo‘lsang, kamol bor,
Manmanlikka zavol bor,
Har boshda bir xayol bor,
Qul naslin ulug‘ sanar.

Kuchidan, quvvatidan,
Dunyoning navbatidan,
Bir kishi izzatidan
Badasl[2] o‘zin bek sanar.

Men narsa bilmas nodon,
Bir kamtarin qul har on,
Sirka der:
“Men — bol, ishon!”
Neft o‘zini yog‘ sanar.

Xabar olsang birovdan,
O‘zin kam demas devdan,
Eshak mudom bedovdan
O‘zini ortiq sanar.

Dard chekkanlar dard bilar,
Nomard o‘zin mard bilar,
Tulki o‘zin qurt bilar,
Shaqal it yanglig‘[3] sanar.

---

[1] **Chorloq** — baliqchi qush, chag‘alay.

[2] **Badasl** — tagi past.

[3] **Yanglig‘** — kabi, singari, o‘xshash.

Maxtumquli har bir qul,
Qulligiga rozi ul,
Ahmoq o'zim der oqil,
Tentak o'zin sog' sanar.

YARASHMAS

Yaxshi xulqli bek o'g'li nonushtasin
Sigir og'ilida qilmoq yarashmas.
Qo'shin tartibi-yu xalq taqdirini
Cho'ponning o'g'liga ilmoq yarashmas.

Agarda istasang so'z indallosin,
Tinglasang, aytayin dil muddaosin:
Oriflar qoshida dunyo ma'nosin,
Ovoralik aylab, bilmoq yarashmas.

Yaxshidan yomon ish chiqishi qiziq,
Bermabdimi aql-u Xudosi tavfiq?
Ko'lda qisqichbaqa, suvda quyon yo'q,
Ochlar o'lkasiga to'lmoq yarashmas.

Har so'zim bir durdir qadrin bilganga,
Duo qilish muruvvatdir o'lganga,
Ucharda, qocharda qarg'a, qulonga,
Yetti yuz yashamay o'lmoq yarashmas.

Har kimning ne qadar bo'lsa ixlosi,
Shu qadar ochiq Haq dargohi xosi,
Bir yerda jam bo'lsa dunyo daryosi,
Sahroning qumiga to'lmoq yarashmas.

Qimmatbaho durga yetmaydi har qo'l,
Osh berib, do'st orttir, ot min — tani yo'l,
Rum taxtiga Habash xoni, ogoh bo'l,
Ka'ba masjidiga qalmoq yarashmas.

Maxtumquli, kuydi bag'rim o't bo'lib,
Dunyoga kelganlar ketar mot bo'lib,
O'zni bilmay, o'yin qilib, shod bo'lib,
Ta'ziyaxonada kulmoq yarashmas.

BOSHIDAN MA'LUM

Yaxshining qadrin el bilmas,
Yaxshilar tashidan ma'lum.
Xudo nazar qilgan kishi
Bo'lajak boshidan ma'lum.

Uyda yotib etma gunoh,
Qo'l-oyog'ing bo'lar guvoh,
Xalqqa — pinhon, Haqqa — ogoh,
Asl odam ishidan ma'lum.

Bu dunyoda moldir ko'rking,
Har narsaga yetar erking,
Uyida lof urar har kim,
Botir urushidan ma'lum.

Hinoni qo'ysang, rang bo'lar,
Zarni xor qilsang, sang[1] bo'lar,
Hamma bedovlar teng bo'lar,
Bedov chopishidan ma'lum.

Xo'ja, sayyid sharofatli,
Faqirlarga saxovatli,
Xushtabassum, muloqotli,
Har kim teng-to'shidan ma'lum.

Maxtumquli, shavqing kuni
Yaxshidir islomning dini,
Ha, yana go'zalning sini
Ko'z bilan qoshidan ma'lum.

[1] **Sang** — tosh.

PAYDO QILAR

Kimyoni tuproqqa sochsang,
Tuproqdan zar paydo qilar.
Har narsani yerga sepsang,
Undan gavhar paydo qilar.

Yaxshi-yomon bo'lmas ma'lum,
Har kim bilganiga olim,
Bunda hukm sursa zolim,
Gunoh ishlar paydo qilar.

Yaxshi yigit yo'l yitirmas,
Jahd qismatdan ko'p keltirmas,
Ming qayg'u bir ish bitirmas,
Tavakkal — er, paydo qilar.

Ochiq bo'lsa qo'l-u ko'ngil,
Ko'rgan senga bo'ladi qul,
Orttirar dushman yomon fe'l,
Yaxshilik yor paydo qilar.

Maxtumquli so'zlar so'zda,
G'ayrat — o'tda, hayo — ko'zda,
Yildan yilga yurtimizda
Zulm ortib, zo'r paydo qilar.

KEL, KO'NGIL

Kel, ko'ngil, yorga ketaylik,
Hamroh bo'lsang yor bilan-yey!
Boshlarni qadam etaylik
Yor yo'lida zor bilan-yey!

Osmon ko'rki oy muqarrar,
Dunyo ko'rki kumushu zar,

Jasad — tuprog‘-u jon — javhar,
Olib bo‘lmas zar bilan-yey!

Shunqorning pari yetilar,
Juda uzoqqa otilar,
Yigitning oti tutilar
Do‘st-u yaqinlar bilan-yey!

Quvonmagil suratiga,
Minarsan qahr otiga,
Duch kelsang yomon xotinga
Umr o‘tar ozor bilan-yey!

Baxil boyda xayr bo‘lmas,
Mard so‘ziga quloq solmas,
Arvananing[1] yuki qolmas,
Yo‘lga tushsang nor bilan-yey!

G‘animat jigar diydori,
Darmon qadami g‘ubori,
Yomon odam dilozori —
Bir so‘zi teng nor bilan-yey!

Nokasning yonida turma,
Baxilning yuzini ko‘rma,
Kar bilan hech suhbat qurma,
Yo‘lma chiqma ko‘r bilan-yey!

Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lma,
Dushman bilan sirdosh bo‘lma,
Osh yesang, tovoqdosh bo‘lma
Iflos, haromxo‘r bilan-yey!

Yomon hech nasihat olmas,
Yaxshi so‘zga quloq solmas,

[1] **Arvana** — nasli toza tuya.

So‘zing hech qovusha qolmas,
Nokas, dilozor bilan-yey!

Elingdan ketsang ovora,
Shunda bo‘larsan bechora,
Qo‘shni bo‘lsang haromxo‘rga,
Sitam aylar zo‘r bilan-yey!

Pandim ol, ey ahmoq kishi,
To botmasin ta’na tishi,
Ko‘tarmasa davlat qushi,
Uchib bo‘lmas par bilan-yey!

Yaxshiga o‘zing yor ayla,
Atrofida bozor ayla,
Bordi-keldi shior ayla,
Kurash tushma sher bilan-yey!

Maxtumquli, yaqin-yotlar,
G‘amginlar-u ko‘ngil shodlar,
Dunyodagi barcha zotlar,
Yakson bo‘lar yer bilan-yey!

MARD BILAN-EY!

Chin erlarda qolmas armon
Kurash tushsa mard bilan-ey!
Hijron baxtim qildi vayron,
Elim bilan, yurt bilan-ey!

Falak gullarni yosh yular,
Bulbulning qarorin olar,
Qoya yig‘lab shunda qolar
Oqmasa sel shaxt bilan-ey!

Ajal qo‘lidan qutqarmas,
Hamrohim deb, er ko‘tarmas,
Yo‘lbarsga ziyon yetkarmas
Yuz ming shaqal qurt bilan-ey!

Falak boshim qildi bandi,
Uzildi tole payvandi,
Ishqim so‘ndi, baxtim sindi,
Maxtumquli, dard bilan-ey!

YOR BO‘LDI

Ey do‘stlar, har bitta odam
Bir kasb-hunarga yor bo‘ldi.
Qorun kabi mol aylab jam,
Barchasi dilozor bo‘ldi.

Harom yig‘ar bo‘ldi boylar,
Botdi kun-u go‘zal oylar,
Bizning bu ishratli joylar,
Qul, cho‘riga bozor bo‘ldi.

Tog‘larda band bo‘ldi sellar,
Esmay qoldi kelgan yellar,
Gurgan, go‘klang — go‘zal ellar,
Yov dastidan guzar bo‘ldi.

Tilla taxt sari eshiklar,
Zamonlar o‘tib bekilar,
Eshon, mulla-yu so‘filar,
Elat uchun ozor bo‘ldi.

Darmonsiz qolgandir dardlar,
Vayron bo‘ldi ko‘shk-u yurtlar,
Bizning oti chiqqan mardlar,
Zindon ichra nochor bo‘ldi.

Yurgan bo‘lmadi savobga,
O‘g‘ri aylandi qassobga,
Sahar chog‘i esgan sabo
Endi o‘tday yoqar bo‘ldi.

Naylay, kundan-kunga yomon,
El-yurtimni tutdi tuman,
Mardlar mingan chopqir chaman,
Eshakday bemador bo‘ldi.

Ko‘rganini aytar tillar,
O‘ylab hukm etar oqillar,
Bo‘yin egib ko‘p mard dillar
Nomardga giriftor bo‘ldi.

Buzildi qiz-u juvonlar,
Nomard bo‘ldi mard insonlar,
El ichida shohlar, xonlar
Yovuz bir ajdahor bo‘ldi.

Ishonch yo‘q biror jononga,
G‘arq bo‘libdi dunyo qonga,
Nomardlar o‘xshab Majnunga,
Lo‘li Layliday yor bo‘ldi.

Bir so‘z dedim, bilsang, hali,
Tayoq yedim shu mahali,
Keldi nodon so‘fi gali —
Salla o‘rab, u pir bo‘ldi.

Yaxshilar ustidan hatlab,
Pulin tugatganda dodlab,
Behuda Tangrini yodlab,
Nomard jonin berar bo‘ldi.

Es-hushdan ayrildi boshlar,
Daryo bo‘ldi oqqan yoshlar,

Aqlli so‘zlab beboshlar
Oqil bo‘ldi, hushyor bo‘ldi.

Yurar bo‘ldi barcha bekor,
Aldab mol yig‘ar boy — makkor,
Faqirlarni shilib oshkor,
Baxil zoti sudxo‘r bo‘ldi.

Erimoqda tog‘lar toshi,
Nomard bo‘ldi mard qardoshi,
Maxtumqulining ko‘z yoshi
Misoli bir Xazar bo‘ldi.

EL BILAN-EY!

Tog‘, daralar larzon urar
Afsun etib sel bilan-ey!
Adashganlar g‘or qidirar
Ayro tushib yo‘l bilan-ey!

Sir saqlamas nomard hech on,
Yashirolmas so‘zni nodon,
Birga tortishar mard inson
Har ish kelsa el bilan-ey!

Yordam bersang, yoddan ketmas,
Yaxshi do‘st do‘stin unutmas,
Yig‘lamoqdan bir ish bitmas,
G‘aming ketmas fol bilan-ey!

O‘lguncha kezaver sarxush,
Nomardga siring etma fosh,
Eldan pinhon qilsang har ish,
Oshkor bo‘lar til bilan-ey!

Dunyo molin yig‘ar boylar,
O‘q yog‘dirar eski yoylar,
Vayron bo‘lar yuksak joylar,
Yomg‘ir bilan, yel bilan-ey!

Daryolarni jo‘shdirar yel,
Bir-birovdan ayirar til,
Qanot qoqib sayrar bulbul,
Suhbat aylar gul bilan-ey!

Chumchuq degan ekmas tariq,
Sunbullaring bo‘lar pari,
Hujum aylar barcha ari,
Yaqin kelsang bol bilan-ey!

Qorun kezdi ko‘p mol olib,
Jahd ayladi jod-u qilib,
Maxtumquli Majnun bo‘lib,
Ketsam kerak cho‘l bilan-ey!

UNUTAR YO‘LINI

Luqmon eshitsa, azizlar, dardimning bu holini,
Tark etar yurtin tamoman, ham unutar yo‘lini.

Yig‘lagayman kecha-kunduz “Huv!” —
deya oh-zor chekib,
Nolishim eshitsa, Qorun ham unutar fe’lini.

Qora tog‘lar qatra-qatra yosh to‘kibon holima,
Hosil etib ulug‘ ummon yuzdirar Nuh solini.

Keldi lashkar tug‘ bilan — jon shahriga soldi talon,
Bilmadim, ta’min etarmi bu vatan iqbolini?

Ayting ul yorimga mening zindon ichra qolganim,
Sochidan arqon eshib,
qilsin xalos men qulini.

Bo'ldi doston oting olam ahliga, Maxtumquli,
Kim unutsa seni,
sen ham berma, yashir molingni.

TUTA BOSHLADI

Sulaymon taxtiga ega bo'lganlar
Taxtin lomakonda tuta boshladi.
El ichida polvon bo'lib qolganlar
Uydan chiqmay, mudom yota boshladi.

Nomard yurar molga o'zin yor aylab,
Mehmon kutolmaydi borin bor aylab,
Mard yigitning ko'ngli doim zor aylab,
Boq, iqboli loyga bota boshladi.

Ne ajoyib kunlar, o'tgan davronlar,
Barisi yot bo'ldi, aylandi qonlar,
Otga minib, buzuq lo'li juvonlar,
Yigitlar safida o'ta boshladi.

Nazardan tushdi ko'p pirlar, eshonlar,
Chorasiz, ozorda qoldi ko'p jonlar,
Mulla bo'ldi oldin o'tgan nodonlar,
Qul xo'ja qo'shilib keta boshladi.

Tog'lar boshin egdi, to'kdi ko'z yoshin,
Sellar oqib, o'rab oldilar tashin,
Unutdi ko'p ellar sevar qardoshin,
Mol deb, xotinlarni sota boshladi.

Nafsidan qolmadi azon aytganlar,
Hoji bo‘lib Madinadan qaytganlar,
Kuni tug‘ib, insofini yutganlar,
El qo‘lidan molin torta boshladi.

Maxtumquli, xavfim ko‘pdir yonimdan,
Xabar so‘rar ellar yangi to‘nimdan,
.....[1]
Naylayin, qarorim keta boshladi.

KUMUSH BILAN

Mehmon kelsa uzoq joydan,
Kutsang bir mol so‘yish bilan.
Mard yigitlar kechar boshdan,
Jang chog‘ida urush bilan.

Chopqir yetmas uzog‘iga,
Tushdim falak tuzog‘iga,
Mengli qizning uzugiga,
Ko‘zlar qo‘ysam kumush bilan.

Qiz-juvonlar go‘zal yurib,
Ko‘rganda dil ketar erib,
Suvda oppoq g‘ozni ko‘rib,
Suv shivirlar qamish bilan.

Maxtumquli, yor tutmadim,
Bola tagin pok etmadim,
Ro‘zg‘or g‘amiga botmadim,
Mudom ishim yemish bilan.

[1] Bu misra asliyatda yo‘q.

YUZ BO‘LAR

Bo‘lsa o‘zi mard yigit,
Har bir joyda yuz bo‘lar.
Nomardlar, bilsangiz, it,
Har kimga yuz-ko‘z bo‘lar.

Ne gunoh bor Idrisda?
O‘tgan yaxshi haris-da,
Soz bo‘lmagan majlisda
Gurunglashsang soz bo‘lar.

Unutdim baxt nomin ham,
Dunyodan uzdim qadam,
O‘zin eplolmas odam
Har og‘izda so‘z bo‘lar.

Cho‘ng, qudratli bu tog‘lar,
Behisob ov-ovloqlar,
Ko‘lga qo‘nibdi zog‘lar,
Go‘yoki bir g‘oz bo‘lar.

Nomardlardan yomon soz,
Zulmdan ahd-paymon soz,
Ko‘p qizlardan o‘g‘lon soz,
Yaxshi, yomon qiz bo‘lar.

Avval-boshdan bermasa,
Qayg‘u-hasrat ko‘rmasa,
Falak tig‘in urmasa,
Qish faslimiz yoz bo‘lar.

Haq bermasa azalda,
Bu zulmdir amalda,
Go‘zal narsa go‘zal-da —
Qoshin qoqsa, noz bo‘lar.

Har kunga shukr aylasang,
O'limni zikr aylasang,
Dunyoni fikr aylasang,
G'am-tashvishing boz bo'lar.

Bir dardlining yonida,
Bo'lsang odam sonida,
Oshiqlarning jonida
So'nmas o't har kez bo'lar.

Istaganim ko'z ko'rsa,
Ko'nglimdagin til so'rsa,
Yigitning qushi tursa,
Har bir so'zi tuz[1] bo'lar.

Deydilar oxirzamon
Yoquvchi o'tdan yomon,
Ishon, qilmagil gumon,
Bunday tashvish tez bo'lar.

Ayolning bor bahosi,
Vasf etsam har a'zosin,
Bodomqovoq zeboning,
Bo'ylari daroz[2] bo'lar.

Nechalar istar ko'p mol,
Nechalar surar xayol,
Xayolida ehtimol
Osmonda parvoz bo'lar.

Dunyo kezib bearmon,
Topganing bo'ldi armon,
Kim bo'lsa ezma, odon,
Elda qadri oz bo'lar.

[1] **Tuz** — to'g'ri, rost, haqiqat.

[2] **Daroz** — uzun.

Kimlar zar libos kiysa,
Kim zahar-zaqqum yesa,
Yaxshi do‘st bir so‘z desa,
Jon kabi aziz bo‘lar.

Dunyo tashvishga qo‘yar,
Kim yashirar, qizg‘anar,
Kampir o‘zin qiz sanar,
Ammo qo‘yni muz bo‘lar.

Muhammadning ummati,
Bo‘ynidadir sunnati,
Har go‘zalning qimmati
Husni, shubhasiz, bo‘lar.

Dardim qilinsa ehson,
Dillarda bitar bo‘ston,
Yozganim go‘zal doston,
Majnunga niyoz bo‘lar.

Ne ish ko‘rdi ko‘zlarim,
Yoqimsizdir yuzlarim,
Maxtumquli, so‘zlarim,
Sozga solsang soz bo‘lar.

YONDIRDI DARDI MENI

Ishq yuragimda qaynab, yondirdi dardi meni,
Tutunim yelga berib, bulutga qordi meni,
Falak bilagim tovlab, charxiga tortdi meni,
Xaridor ko‘zi bilan kim kelib ko‘rdi meni,
Hijron yomg‘iri yog‘ib, g‘am selga berdi meni.

G‘am seli bilan oqib, ishq o‘lkasiga borib,
Xayol fikrga to‘lib, aqlimni yel uchirib,

Ul hayrat maydonida men g'arib qoldim horib,
Ishq xanjarini tortib, hijron yuragim yorib,
Olamga doston aylab, kunga yoyvordi meni.

Na jasad ichra jon bor, na quvvat qoldi tanda,
Ham sargashta, ham hayron, bu ishga bo'ldim banda,
Na xastaman, na tirik, na bir o'lik kafanda,
G'am hujum aylab ko'kdan, zamin sari inganda,
Falak qo'limdan tutib, to'zonga berdi meni.

Bir ahvolga tushdim, g'am hujum etdi, o'ldirdi,
Bu ishning mohiyatin ishq o'qitib bildirdi,
Holimga rahmi kelib, qo'lim tutib o'ltirdi,
Husni bir jilva[1] qildi, ichim shavqqa[2] to'ldirdi,
So'zlamay, naylay, do'stlar, dilimni yordi meni.

Maxtumquli, bek edim, yor jamoli qul etdi,
Vasl umidin bag'ishlab, yuz tilli bulbul etdi,
Ayriliq o'tga soldi, firoq turdi, yel etdi,
Ishq tilini chiqardi, yoqib-o'rtab, kul etdi,
Hijron elagi elab, yelga sovurdi meni.

HUKMLI

Ko'ngillar ko'shkida xayoling xoni,
Hukmdor avlodi kabi hukmli.
Oshiq chekar nolani,
G'amga solar lolani.
Yerda bashar podshohi
Xudoning xohlagani.
G'amzang qaroqchisi solar talonni
Kipriging o'q, qoshing yoydir chekimli[3].

---

[1] **Jilva** — soliki orif dilida porlab, uni vola-yu shaydo etadigan nur.

[2] **Shavq** — Haq va solik o'rtasidagi yaqinlikning kuchayishi, ishtiyoq va istak g'alabotidan qalbning sururga to'lishi.

[3] **Chekimli** — tortilgan.

Go'zallarning vasfin etsalar kanda,
Olam og'zi butun jam bo'lar sanda.
To jon bordir bu tanda,
Orzularim bor senga.
Oting Rumga yetdi, ovozang ketdi Hindga,
Layli senga kanizak, Zulayxo bo'lsin banda,
Men ham sening dardingdan qolib edim darmonda,
Bog'da bitgan gulchehrasan billur boqimli.

Ishq o'tin sochibsan dala-yu tuzga,
Bu o'tga chidamas insondan o'zga.
Yor shu o'tga qilsa qanoat,
Til keladi har so'zga albat.
Husning quyoshi chiqsa,
o'rin qolmas yulduzga.
Bu olma iyakka, bu kumush yuzga
Qora zulfing suratkashdir to'kimli.

Humoy o'tirishli, lochin turishli,
Kabutar to'piqli, ohu ko'rishli,
Yangi hilol[1] qoshli, marvarid tishli,
Tovusday ziynatli, Dovud tovushli,
Qirg'ovul xiromli, kaklik yurishli,
Tuyg'un nigohli, qarchig'ay boqimli.

Ro'molingni bog'lab, chiqsang sen gulzor,
Husning tasavvuri olamni aldar.
Oshiq aytar: ey dildor,
Husni kunga teng dildor,
Topar hajning savobin
Kim bir g'aribni qo'llar!
Maxtumquli, sendek ko'rmadim dildor,
Jonga xush keluvchi, dilga yoqimli.

[1] **Hilol** — 1) yangi chiqqan oy, uch kunlik oy; 2) ma'shuqaning qayrilma qoshi.

QARIGANIM SARI

Qariganim sari ketdi insofim,
Ey do‘stim, ellikka yetishdi yilim.
Xudoyim, kun-kundan kam bo‘ldi xavfim,
Dam-badamdan ortdi bu yomon fe’lim.

Afsuski, din uchun yo‘qdir bir ishim,
Bahorim tugadi, yetishdi qishim,
Quvvatim kamayib, to‘kildi tishim,
Yigitlik avjida hanuz xayolim.

Ko‘ngil dunyo zarin izlab turibdi,
Ko‘z ham go‘zallarni ko‘zlab turibdi,
Til ham g‘iybat, yolg‘on so‘zlab turibdi,
Shayton bir kofirdir, nafs ham zolim.

Sendan yetishmasa madad, ey Jabbor,
Bu balodan qachon xalos bo‘lish bor?
Havo-yu havasga bo‘ldim giriftor,
Haq qulligiga yo‘q zarra majolim.

Do‘stlar, ishonchim yo‘q sira umrga,
Baxtim qorasi rang berar ko‘mirga,
Toleyim quyoshi qular chuqurga,
Ey zamon, uyg‘ot uxlagan iqbolim!

Xudovando, garchi nafsim yomondir,
Dargohingdan arzim nuri iymondir,
Ayb-u gunohimga na haddu sondir,
Sen o‘zing yorlaqa, ey Zuljalolim!

Maxtumquli, ishq o‘tida biryonman,
El moliga, men holimga giryonman,
Xavf-u umid orasida hayronman,
Yo Rab, qiyomatda ne bo‘lar holim?!

TUMAN PAYDO

Kelsa Navro‘z olamga, rang qilar jahon paydo,
Bulutlar guldirashib, tog‘ qilar tuman paydo,
Ochar og‘iz jonsizlar qilganicha jon paydo,
Qurib yotgan giyohlar ko‘karib ravon paydo,
Hayvonotga etarlar foyda-yu ziyon paydo,
Yer yuzida yoyilib, yurarlar nihon paydo,
Og‘zi yopiq qushlar til qilar begumon paydo.

Cho‘l to‘sib, qisqichbacha suvga eshik ochar lang,
Zamin maysazor bo‘lib, tanidan ayrilar zang,
Qimirlagan mast bo‘lib, go‘yo ichmish aroq, bang[1],
Har ashyoning o‘ziga xos ovozi bor, qarang,
Gulzor ichida bulbul yuz tilda qilar ohang,
Yashilga burkanib yer, gullar ochmish rang-barang,
Tug‘yonga kelib olam, qilarlar fig‘on paydo.

Ohang-u sado bilan jahon yuzi oboddir,
Mast bo‘lma bu ohangga, oqibati barboddir,
Haq ishqida tirik jon, biling, boqiy hayotdir,
Har tandaki ishq bo‘lmas, azaldan u mamotdir[2],
Bahor o‘tguncha yer-ko‘k husni har kun ziyoddir,
Misli bir qiyomatdir, misli bir arosatdir,
Dunyoda bo‘lar har dam jahon ichra jon paydo.

Zarbofga[3] ko‘ngil qo‘yma, baqo yo‘qdir davlatda,
Umringni yelga berma sen bu dor ul-mehnatda[4],
Yetar senga erta-kech nima bo‘lsa qismatda,
Joningga jafo qilib, kezma buncha hasratda,
Savob yaxshi amalda, saxiylik soz niyatda,

---

[1] **Bang** — nasha, qoradori.

[2] **Mamot** — o‘lim.

[3] **Zarbof** — zardan to‘qilgan mato, kimxob; shunday matodan tayyorlangan kiyim.

[4] **Dor ul-mehnat** — kulfat uyi, azob maskani, ya’ni dunyo.

Olam barcha xizmatda, odam yotib g'aflatda,
Hosiling otash bo'lgay, aylasang yomon paydo.

Maxtumquli, yig'larman bu baxti siyohimdan[1],
Qo'rqarman jon ofati — qo'l-oyoq guvohimdan,
Umidim hosil bo'lmas bu umri gumrohimdan,
Jon kuydi tanim ichra bu otashin ohimdan,
Qo'l uzatib tilarman hojatim Ollohimdan,
Bandaman,
umidim ko'p marhamatli shohimdan,
Aylagay arosatda gul kabi iymon paydo.

BOSHI KERAKDIR

Sipoh bo'lib otga chiqqan har yerdan
Aqli ko'pdan kelgan boshi kerakdir.
Bir musulmon qochsa ikki kofirdan,
Boshiga toshbo'ron toshi kerakdir.

Mard shundayki, bo'lsa ko'ngli rahmli,
Ko'kragi keng bo'lsa, o'zi fahmli,
Keng yerda qarg'aday bo'lsin vahmli,
O'z o'rnida hunar, ishi kerakdir.

Qoplondek arillab kirsa maydonga,
Tulkidek ko'rsatsa o'yin har yonga,
Turganda qoyadek turib mardona,
Olar yerdan ot solishi kerakdir.

Yigitning o'y-fikri bo'lsa boshida,
Chiqar bir kun — cho'kib yotmas ichida,
O'rnida hiyla ham mardning ishi-da,
Uni eplashga ham kishi kerakdir.

[1] **Siyoh** — qora.

Ot kerak qochishga, quvsa yetishga,
Yovni qo'rqitishga, tirik tutishga,
Maydonda behisob ish bitirishga
Yigirmami, o'ttiz yoshi kerakdir.

Burgutday kerilib, qanotin qoqar,
Qo'rqoqlar jonidan, o'g'lidan qochar,
Bo'ridek kirib, yovni qo'ydek qirar,
Er yigitning mard yo'ldoshi kerakdir.

Maxtumquli, mard yigitlar shoshilar,
Ko'k tomirdan qirmiz qonlar sochilar,
Ot solganda to'ng'iz kabi otilar,
Ayiq kabi osilishi kerakdir.

CHOVDURXON[1] UCHUN

Ul Ahmad podshohdan xabar olmoqqa
Umid etdi ellar Chovdurxon uchun.
Sog'-salomat borib, qaytib kelmoqqa
Chopmadi iqbollar Chovdurxon uchun.

Yomg'ir ko'rmay, to'ng'ib qoldi bog'-bo'ston,
Bulut ho'llab o'tdi — bu dardga armon,
Zamin zoye bo'ldi, falaklar larzon,
Jannat bo'ldi cho'llar Chovdurxon uchun.

Qazo[2] qahrga mindi — parin sindirsa,
Falak xayol etdi — mehrin indirsa,

[1] **Chovdurxon** — Maxtumqulining zamondoshi va do'sti. Ahmad Durroniy bilan muzokara olib borish uchun Afg'onistonga ketib, o'sha yerda yoki yo'lda o'ldirilgan turkman sarkardasi. Uning o'limiga bag'ishlab, Maxtumquli ko'plab she'rlar yozgan.

[2] **Qazo** — taqdir, qismat. Olloh taoloning hamma narsalarning kelajakda qanday bo'lishini azaldan bilishi.

Daryo qaynab-toshdi — suvdan qondirsa,
To‘lqinlandi ko‘llar Chovdurxon uchun.

Izingda bo‘ldilar el intizoring,
Umid bilan kezdi Annaxol yoring,
Otanazar bo‘ldi chekarga zoring,
Ko‘zlay-ko‘zlay yo‘llar Chovdurxon uchun.

Borsa, ulushi bor sultonda, xonda,
Elni bilmay qoldi, armoni jonda,
Qazodir, qismatdir Yazdda, Kirmonda,
Magar tortdi qonlar Chovdurxon uchun.

Qur’alar gung bo‘ldi, follar shum bo‘ldi,
Yomg‘irlar ofat-u yo‘llar vahm bo‘ldi,
Buloqlar quridi, toshlar mum bo‘ldi,
Go‘yo bo‘ldi tillar Chovdurxon uchun.

So‘yla, Maxtumquli, olam bilsinlar,
Joyi jannatdadir, guvoh bo‘lsinlar,
“Haq rahmat etsin!” — deb duo qilsinlar,
Barcha yurt-u ellar Chovdurxon uchun.

CHOVDURXON

Go‘klang, yovmut yo‘lga chiqib, boqishib,
Umid etdi: kelar omon Chovdurxon!
Mulla, mufti Haqqa duo o‘qishib,
Ko‘tardilar kitob, Qur’on, Chovdurxon!

Qush, qumursqa izlab, tog‘dan kechdilar,
Baliqlar yo‘l deya suvin ichdilar,
Kelin-qizlar qirmiz to‘nlar bichdilar,
Paxtali liboslar ham to‘n, Chovdurxon!

Tog‘lar bosh egdi, tumanga burkandi,
Yellar yela olmay, yerda sudrandi,
Oy, kun botib, ko‘kda Mirrix[1] ko‘rindi,
Bulutlar bo‘ldilar giryon, Chovdurxon!

Molin tashlab keldi cho‘pon-cho‘liqlar,
Qirg‘oqqa chiqdilar suvdan baliqlar,
O‘zlarini tuta olmasdan xalqlar,
Tortdi bari oh-u fig‘on, Chovdurxon!

Savdogarlar uzoq yo‘lni unutdi,
Mol-u matosini ortga uzatdi,
Oylar, kunlar botdi, zorlab tong otdi,
Ins-u jinslar tortib armon, Chovdurxon!

Qaytib keldi Hindistonga borganlar,
Yig‘ladilar mard otingni so‘rganlar,
Kalomulloh ochib, tole ko‘rganlar
Topmadi dardingga darmon, Chovdurxon!

O‘q chiqmadi ovchi tortsa-da kamon,
Chovdurxon, nomingdan titradi jahon,
Faryodingga bor na hisob-u na son,
Tiz cho‘kib yig‘laydi Turon, Chovdurxon!

Maxtumquli, uchdi ul lochin qushim,
Suyanch tog‘im, aziz sirdosh, qardoshim,
Ma’no socha bilmas oqargan boshim,
Qurshab oldi uni tuman, Chovdurxon!

[1] **Mirrix** — Mars (Bahrom) sayyorasi.

ZORLAR ICHINDA

Chovdurxon, ko‘z nurim, dilim suyanchi,
Sen vafot etibsan zorlar ichinda.
Go‘klangda polvonim, elning tayanchi,
Xalqni qo‘yib ketding norlar ichinda.

Kela olmas edi botinib dushman,
Kelganlar ketardi pushaymon bilan,
Qari tog‘dan beri, go‘klang oshmagan,
Bizni qo‘yib ketding morlar ichinda.

Falak sening gul umringni so‘ldirdi,
Xazon ko‘z ochgan g‘unchani yuldirdi,
Qora tog‘lar chidamay ko‘tardi,
Ko‘zim yoshi tuman — qorlar ichinda.

Kimga nasib etdi is’hafon yoying,
So‘zim xato emas: jannatdir joying!
Go‘klang, yovmut — vayron bo‘ldi saroying,
Falak vayron etdi xorlar ichinda.

Maxtumquli, hamdam, oqil sirdoshing,
Tutolmas o‘zini to‘kib ko‘z yoshin,
Tuman tutdi tog‘lar kamarin boshin,
Oy-kunlar botdilar zorlar ichinda.

KECHDI, DEYDILAR

Ey do‘stlar, qayg‘uli doston bitildi,
Bir botir dunyodan kechdi, deydilar.
Oxirzamon bo‘ldi, quyosh tutildi,
Oy-u kundan yog‘du qochdi, deydilar.

Nogahon duch keldi ayriliq dog‘i,
Seydim Tarxon chekar dardi firoqni,
Umrining hosili — yolg‘iz chirog‘i
Xazon yeli tegib o‘chdi, deydilar.

Ketdi Avaz keldi, yana ko‘p zotlar,
Sovidi suhbatlar, g‘am bo‘ldi shodlar,
Qardoshlar, sirdoshlar, yaqinlar, yotlar,
Qora kiyib, qon yig‘lashdi, deydilar.

Bedov otli, bek kamarli, yarog‘li,
Davlati, ziynati moliga bog‘liq,
Mehmoni bir erdir, zotli, o‘toqli,
Bir o‘rdasi qulab tushdi, deydilar.

Yolg‘izlik hasrati boshdan o‘tarmish,
O‘g‘ilsizlik barcha ishdan batarmish,
Zuryodsiz yigitning o‘rni yitarmish,
Yurti yo‘q, karvoni ko‘chdi, deydilar.

Maxtumquli, Turkistonning to‘rasi,
Bir mard yigit — Suyunxonning[1] sarasi,
Yig‘in ko‘rki, yov kunining orasi,
Ushbu qora yerni quchdi, deydilar.

DAVLATALINING

Sunniyga[2] suyanchdir, kofirga ofat,
Solsa tig‘i tezi Davlatalining.
Olamda dostondir, ellarga hujjat,
Suhbat ichra so‘zi Davlatalining.

---

[1] **Suyunxon** — xalq rivoyatlariga ko‘ra, turkmanlarning ilk urug‘ boshlig‘i Solir qozon bo‘ladi. Uning Suyunxon va Esanxon degan o‘g‘illarining nomi turkmanlar orasida qadimdan mashhur. Suyunxonning alp degan laqabi ham bor. Turkmanlarning barchasi o‘zlarini Suyunxon va Esanxonning naslidan hisoblaydilar. O‘z navbatida, Solir qozon Tog‘ xonning naslidan bo‘lib, Tog‘ xon O‘g‘uzxonning o‘g‘lidir. Suyunxon deganda, butun turkmanlar ham tushuniladi.

[2] **Sunniy** — islomdagi sunniy mazhabiga mansub musulmon. Sunniylar Qur’ondan tashqari, sunna(t)ni ham iymon-e’tiqod manbai deb tan oluvchi musulmonlar. **Sunna** — islomda musulmonlar uchun ibrat hisoblangan Muhammad payg‘ambarning so‘zlari, amallari, xatti-harakatlari.

So‘zlari pand bo‘lib qoldi tillarda,
Faqirlar panohi og‘ir kunlarda,
Uzoq o‘lkalarda, yaqin ellarda,
Do‘st-dushmani rozi Davlatalining.

Jahonni ko‘p kezdi umri bo‘lguncha,
Yaratgan yo‘q etib, yerga solguncha,
Yolg‘onchida yayrab, toki o‘lguncha,
Tuganmadi yozi[1] Davlatalining.

Xor bo‘lmas birovni istasa mudom,
Taqdirdan tashqari tilamaydi kom[2],
Burgutday lochinni qilar saranjom[3],
Sher olar shohbozi[4] Davlatalining!

Ulkan urug‘lidir ham buyuk elli,
Ko‘p yig‘ilsa mashhur, olamga belli[5],
Maydonda — qilichli, devonda — tilli,
Baxtdan nurli yuzi Davlatalining!

Tilak etsa, muz toshlarni eritar,
G‘azab etsa, hukmi tog‘lar yuritar,
Oydan dur oladi, quyoshdan gavhar,
Falakda yulduzi Davlatalining.

Sonsiz elga sarkardadir, sultondir,
Jon yerida jallod, balki arslondir,
Manzili masjiddir, o‘rni devondir,
Kechasi, kunduzi Davlatalining.

---

[1] **Yoz** — turkmanchada bahor degani. Lekin ma’noni o‘zgartirmagani uchun qofiya talabi bilan “yoz” so‘zining o‘zini qoldirdik.

[2] **Kom** — 1) og‘iz, tanglay; 2) murod, maqsad, orzu, tilak.

[3] **Saranjom** — 1) bajarilish, tugallanish; 2) oqibat, oxir.

[4] **Shohboz** — lochin.

[5] **Belli** — ma’lum, mashhur.

Orzu-yu maqsadi misoli osmon,
To‘qayda yo‘lbars-u tog‘ ichra qoplon,
Kemada langar, kit uchrasa ummon,
Har yon borsa o‘zi Davlatalining.

Nochorlaring yig‘lasharlar sog‘-so‘lda,
Hech biri bo‘lmadi dardingga dalda,
Bedov bog‘da qoldi, yo‘ldoshi yo‘lda,
Kelmaydi xabari Davlatalining.

Firog‘iyga do‘stsiz umr bo‘ldi armon,
To‘radir tengsiz-u erdir qahramon,
Payg‘ambar suyanchsiz, izsiz Sulaymon,
Shunga o‘xshar izi Davlatalining.

BO‘LMAYDI

Ikki tog‘ning og‘ochining boshini,
Tubi bir bo‘lmasa, chatib bo‘lmaydi.
Tog‘ning viqor to‘kkan ulkan toshini,
Qo‘l bilan ko‘tarib, otib bo‘lmaydi.

Buyuk minar bo‘lmas hech kalta minor,
Yaxshi erga tushsa agar yomon yor,
Boshin kesib, to‘kib qonini zinhor,
Yo o‘ldirib, yoki sotib bo‘lmaydi.

Ko‘r faqirlar ko‘zim deydi ko‘rmasa,
Oqsoqlar oyoqsiz turib yurmasa,
Har kimning istagin Tangri bermasa,
Borib: “Menga ber!” — deb aytib bo‘lmaydi.

Faqirlar mol deydi, boylar zar deydi,
Eshagi bor: “Ot ber, yana nor”, — deydi,
Dunyodan to‘yim yo‘q: “Yana ber!” — deydi,
Ko‘ngil maqsadiga yetib bo‘lmaydi.

Hamma qo'l uzatar foniy jahonga,
Sog'liqda azob ber bu shirin jonga,
Dunyoga dil bergan qolar ziyonga,
Bu dunyodan do'stlik kutib bo'lmaydi.

Tilga tushib qolsa agarda oting,
Sendan g'ashlanadi yaqining, yoting,
O'zingda bo'lmasa istagan zoting,
Birovdan uni ko'z tutib bo'lmaydi.

Maxtumquli, nasihatim bo'lmasa,
Foydasi yo'q birov quloq solmasa,
Yigit ko'ngli suyganini olmasa,
Xotirjam rohatda yotib bo'lmaydi.

DOG'-U HASRATDAN NISHON

Topdi shuhrat xalq ichinda bu jaholatdan nishon,
Qoldi darveshlar tilinda dog'-u hasratdan nishon,
Qolmadi bechoralarga lutf-u shafqatdan nishon,
Boshdan-oyoq to'ldi dunyoga kasofatdan nishon,
Tegdi olam ahliga yuz ming xijolatdan nishon,
Er bilarlar kimda bo'lsa ul qabohatdan nishon,
Yaxshi ishni o'ylamas topgan razolatdan nishon,
Na muruvvatdan asar bor, na adolatdan nishon,
Do'stlarim, hech shubhasiz, keldi qiyomatdan nishon.

Bo'lsa kim bid'atga[1] botir, o'shani er bildilar,
Oxiratni rad etib, yolg'onchini bor bildilar,
Din ishin yomon-u yaxshi ishni bad kor[2] bildilar,
Xoin-u haqlarni xoin ahlini yor bildilar,
Tamani oqlab, qanoat qilsa kim, zor bildilar,
Kim shariat ahli bo'lsa, hajv etib, xor bildilar,

[1] **Bid'at** — din aqidalariga xilof yangilik.

[2] **Badkor** — yomon ish.

Pir bilib munkirni, yolg'onni-chi, iqror bildilar,
Taqvo deb gumrohni-yu taqvoni inkor bildilar,
Do'stlarim, hech shubhasiz, keldi qiyomatdan nishon.

Hurmat ahli bo'ldi har kimning qo'linda sozidir,
Kim kalomni o'qisa, el ichra xor ovozidir,
Darvesh ahli virdiga[1] xilvatda xalq hamrozidir,
To'y, o'yindek, o'rtada qiz-u juvon parvozidir,
Sakrashar qiz-u juvon ustingga go'yo tozidir,
Haq ishidan bexabar xalq ichra ba'zi qozidir,
Tobe unga jinlar-u aslida shayton o'zidir,
Joyi do'zax qa'ridir har kim bu ishga rozidir,
Do'stlarim, hech shubhasiz, keldi qiyomatdan nishon.

Tangri, payg'ambar so'zidan bexabardir pirlar,
Muttahamni qozi deb, zolimni noib[2] derlar,
Har kishi avval kelib ko'rsaki, pora yerlar,
Tuhmat aylab, ayb taqar faqr ahliga bu surlar,
Salla bog'lab boshiga, och bo'ri so'fi-pirlar,
Elga makr-u hiyla aylashga juda mohirlar,
Xoh halol-u xoh harom topsa, tiqarlar, yerlar.
Haq Rasuliga qiyomatda javob ne derlar,
Do'stlarim, hech shubhasiz, keldi qiyomatdan nishon.

To'kaver, Maxtumquli, so'z birla darding har zamon,
Ne uchun zolimga navbat berdi davron — beomon?
Ko'z bilan ko'rgan eshitgandan emish afzal gumon,
Bir-biriga aylabon da'voyi botilni hamon,
Ikki pulga arzimas mol deb berar qo'ldan imon,
Er sanar o'zini qancha ko'p kim ish etsa yomon,
Bu ko'ngil yuz shavq etar nohaq uchun to'kmoqqa qon,
Gar kuchi yetsa, mushuk qoplonga bermaydi omon,
Do'stlarim, hech shubhasiz, keldi qiyomatdan nishon.

---

[1] **Vird** — duo, zikr.

[2] **Noib** — o'rinbosar.

FE'LING SENING

O'g'ri bo'lsang, tinglagil,
bo'lgay nechuk holing sening,
Kishi moliga ketar ko'ngling, ko'zing, fe'ling sening,
Misli shayton hiylasidir makr ila oling sening,
Ushbu yolg'on birla o'tgay oying-u yiling sening,
To'g'ri do'zaxga olib borgusi bu yo'ling sening.

It kabi ingrab qiyomatda yegaysan-ku eting,
Ko'rgisi yo'qdir Muhammadning seningdek ummatin,
Ham u dunyo shafqating bo'lmas, bu dunyo davlating,
Ortadir har lahza-yu har soat ichra kulfating,
Tutgay ilonlar do'zax ichra sog'-u so'ling sening.

Yig'lagaysan yosh emas, ikki ko'zingdan qon ketib,
Shuncha hasratlar chekib, ko'ksing tilib, vayron etib,
Behuda sochsang-da tuproq boshingga giryon etib,
Qilcha naf bermaydi yursang tog' qadar pushmon etib,
Qayta og'zingdan chiqar axlat bo'lib boling sening.

Ul Muhammad qarshisinda ham uyalgaysan u kun,
Istagaysan kelsa-yu o'lim, sen o'lgaysan u kun,
Gurzi ostida — malak zarbida qolgaysan u kun,
Ul xarish otlig' ilonga luqma bo'lgaysan u kun,
Xuddi maymundek bo'lar ul kunda timsoling sening.

Aytadir Maxtumquli: ko'rsang gunohing, ey ko'zim,
Zarra-zarra ko'payar mahshar hisobing, ey ko'zim,
Yuz qaro-yu qisqa til — bo'lmas javobing, ey ko'zim,
Sohibi molga u kun bersang savobing, ey ko'zim,
Ham gunohing bo'yningga qo'ygay —
shudir holing sening.

KO'NGLIM

Uyg'on g'aflat uyqudan ajalsiz o'lgan ko'nglim,
Umid uzib olamdan, Ollohdan tilan ko'nglim,
Tubsiz daryoga tushdi ko'rganga kulgan ko'nglim,
Mard kerak chiqarmoqqa bu botib qolgan ko'nglim,
Jon foniy, jahon foniy — kafanga chulg'an, ko'nglim,
So'z bilan ichi dard-u tug'yonga to'lgan ko'nglim.

Olimlar so'zin tingla, nasihatin ol, ko'tar,
Tur, Haqning dargohiga munojot qil, qo'l ko'tar,
Riyozatning yukini uzun arqon sol, ko'tar,
Bu ish mardning ishidir, mardona tur, kel, ko'tar,
Komil oyog'iga bosh qo'y, dunyodan qo'l ko'tar,
Tavba qil, bir pir xoki poyiga bulan, ko'nglim.

Ishqim bordir Majnundan oltmish hissa ziyoda,
Quvvatim bordir qirq yil dars berishga Farhoda,
Yuragim yoqib o'tga, Xojamga borsam doda,
Karam daryosi jo'shib, yetkazgaymi muroda,
Qolsa ko'ngil topilmas, chiqsa bu jon dunyoda,
Mard kerakdir olmoqqa bu g'arib qolgan ko'nglim.

Sahar turib duo qil, "Omin!" — desin farishta,
Ne bordir g'ofil yotib, behuda o'tirishda,
Mol-dunyo vafo qilmas aylasang ming sarishta,
Abdol jandasin kiyib, sayr et bo'lib darvesh-da,
Yo'qsa qolarsan tanho ovora, g'am-tashvishda,
Aytgan so'zingga fe'ling bo'lmasin yolg'on, ko'nglim.

Maxtumquli, ichdim men g'am mayini ikki tos,
Uchinchisini ichmay jonimdan bo'ldim xalos,
Boshimda sonsiz savdo, ichda vasvas ul-Xannos[1],

[1] **Xannos** — rivoyatga ko'ra, shaytonning o'g'li. O'ldirib ham, kuydirib ham undan qutulolmagan. Odam Ato oxiri uni o'tda pishirib, Momo Havo bilan tanovul qilgan ekan. O'shandan buyon Xannos vositasida shayton odam ko'nglida vasvasa qo'zg'ab yuradi. Majoziy ma'noda esa vasvas ul-Xannos — insonning ichidagi shayton timsoli.

Keling, bir tadbir aylang bu dardga, ayyuhannos[1],
Tiz cho'kibon dam ursa Iso, Xizr ham Ilyos,
Bosh ko'tarmas, tirilmas bu murda bo'lgan ko'nglim.

NIHONA KELDING

Bu naqldir, odamzod, sen bu makona kelding,
Avval otang belidan sizib nihona kelding,
Keying onaga o'tib, bir qatra qona kelding,
Onada surat bo'lib, bu shirin jona kelding,
To'qqiz oyni o'tkazib, enib jahona kelding,
Onang sutini emib, yo'rgakdan to'na kelding.

Yaratgan qudratidan og'iz berdi, tish berdi,
So'zlashga og'iz ichra til bergan ham U erdi,
Ko'ngling ketib har yona, oyog'ing turdi, yurdi,
Bilding yaqin-u yotni, ko'zing dunyoni ko'rdi,
Yetti-sakkiz yoshingda otang mullaga berdi,
O'qib Qur'oni karim, ulg'ayib o'na kelding.

O'n besh yoshga yetganda yigitlikka saylanding,
Qiz-kelinga mayl etib, ko'ngil berding, o'ylanding,
Go'yo borib oq uyning to'rt yog'idan aylanding,
Haqning farmoni bilan oxir bir kun uylanding,
Yigirmaga yetganda yarog' olding, shaylanding,
Bedov minib, o'ynatib, surib maydona kelding.

To o'ttizga yetguncha go'yo bir olg'ir shersan,
Dunyo g'ami boshingda — yugurarsan, yelarsan,
Dunyoga to'ymoq yo'qdir — bo'lguncha bo'lsin dersan,
Ahli musulmon bo'lsang, o'lguncha halol yersan,
Qirqingda tavba aylab, bir pirga qo'l berarsan,
Ko'nglingni Haqqa bog'lab, aziz Subhona kelding.

---

[1] **Ayyuhannos** — ey insonlar!

Ellik yoshga yetganda to‘g‘rilikda bo‘larsan,
Endi bola emassan, makr-u hiyla bilarsan,
Har qancha jafo cheksang, oxir bir kun o‘larsan,
Besh mahal namoz o‘qib, Haqqa shukur qilarsan,
Oltmishda qarilikni o‘zing ham tan olarsan,
Ekkan ekining pishib, o‘roq — xirmona kelding.

Yetmish yoshga kelganda qoning qochar yuzingdan,
Oppoq tishlar to‘kilib, nur kamayar ko‘zingdan,
Kuching qolmay, quvvat ham keta boshlar ko‘zingdan,
Hech bir kishi hayiqmas endi sening so‘zingdan,
Qoralasang saksonni ko‘ngling qolar o‘zingdan,
Ketar bo‘lsang dunyodan, yoqasiz to‘na kelding.

Maxtumquli, azobdir har kim to‘qsondan o‘tsa,
Kam uchrar bunday inson — agar yuz yoshga yetsa,
Hech kim yordam berolmas ajal yoqangdan tutsa,
Agarda iymon berib, yo‘lingni ravon etsa,
Oqibat qismating shu — taning yer ichra yotsa,
Eshig-u tuynugi yo‘q qorong‘i xona kelding.

DUNYO, HEY!

Suv yuzida suzdirarsan kemani,
Bir kun ag‘dararsan solni, dunyo, hey!
Odam o‘g‘li bormas bo‘lsa izingdan,
Bunda deb aldarsan molni, dunyo, hey!

Bilasanmi, qachon tugaydi daming,
Qabr bo‘lar bir kun bosgan qadaming,
Charx aylanar ekan, g‘ofil odamning
Ustidan solarsan yo‘lni, dunyo, hey!

Oroming yo‘q, qaroring yo‘q — tinmassan,
Kecha-kunduz qon icharsan, qonmassan,

Oxiri ne bo‘lar deb o‘ylanmassan,
Aqlini oldirgan dali, dunyo, hey!

Xabarsiz kelarsan, yoqa tutarsan,
Goh yaxshi, goh yomon aylab o‘tarsan,
Oshimizga bir kun zahar qotarsan,
Avval aldab berib bolni, dunyo, hey!

Aylanar — qish kechar, bahor, yoz, kuz ham,
Vaqtida yaxshidir tog‘, dengiz, tuz ham,
Oqibat o‘tarmiz ustingdan biz ham,
Bo‘shab ham qolarsan hali, dunyo, hey!

Eh-hye, sen qancha ko‘p insonni yutding,
Muhammadni — Haq suygan jonni yutding,
Horun, Qorun-u Sulaymonni yutding,
Shu ishing sening belgili, dunyo, hey!

Odam o‘g‘lin solding tuganmas g‘amga,
Yosh-qari — yo‘lingda sargardon hamma,
Urg‘ochi eshakdek kelibsan damga,
Chovlaring g‘am bilan to‘la, dunyo, hey!

Maxtumquli, dunyo sirin tuymassan,
Bugun ko‘rganimiz erta qo‘ymassan,
Qancha vaqtdan buyon yeysan — to‘ymassan,
Yiqilgin, yakson bo‘l lo‘li dunyo, hey!

YEL BILAN

Ko‘z, ko‘ngil, til, aql — qoldi bu to‘rti,
Jon vatan orzulab, turdi yel bilan.
O‘tinchim bor: kel, tark etma bu yurtni,
Ishrat surgin, suhbat qurgin gul bilan.

Bir ajoyib manzil — umiding uzma,
Ko‘nglimni sovutma, vatan deb qizma,
Do‘koning tarqatma, bozoring buzma,
Tan mulkida bir necha kun g‘il bilan.

Mehmon bo‘lding bu dunyoning uyiga,
Ko‘ngil berib, ketma uning ko‘yiga,
Boshing bog‘lab, mashg‘ul etar o‘yinga,
Ketsang bermas, aldab kezar til bilan.

Bunda qul bo‘l, bor, ul jahon seningdir,
Noz-u ne’mat, boy dasturxon seningdir,
Bihisht, Buroq, hur-u rizvon seningdir,
Osiy odam, kelsang to‘g‘ri yo‘l bilan.

Falak qo‘ymas bu kezganing saroyda,
Bo‘ri bilan qo‘y yasholmas bir joyda,
Dunyo to‘la mol-mulkingdan ne foyda,
Chin mol uldir — elga bersang qo‘l bilan.

Ko‘kni bukib, yozsa yerning yuzini,
Bo‘ri yulqib ketolmaydi qo‘zini,
Bahodirlar tuta bilmas o‘zini,
Fil ham tutar bog‘lasalar qil bilan.

Maxtumquli bandalikni bitirsa,
Er ul — Haq amrini bajo ketirsa,
Olloh o‘zi qozi bo‘lib o‘tirsa,
Pashsha turib, da’vo qilar fil bilan.

ZAMONA

Ey azizlar, yig‘larman, keldi, kechdi zamona,
Yaxshi bo‘lib beqadr, qoldi davr yomona,
Yomon oldi jahonni, kelmas tili imona,

Ko‘p faqirlar yig‘lashib, topmay undan omona,
Istashar topsa barham ko‘p o‘tmay bu zamona.

Teng-u to‘sh bir bo‘lmasa, hayotda fayz yo‘q ekan,
O‘z ishingdan ortmading — na do‘st bilding, na dushman,
Ming pushaymonning endi foydasi yo‘q umuman,
Bog‘lanmay na o‘g‘il-qiz, na dunyo mehri bilan,
Ne huzurli kundirki, bo‘lib ketsak devona.

Borma hech xom xayolga — tug‘ilganlar o‘lmaslar,
Dunyoga kelgan o‘tar — biri omon qolmaslar,
Jon kuydirib chaqirsang, to‘g‘ri yo‘lga kelmaslar,
Nima bo‘lsa yutarlar — halol-harom bilmaslar,
Derlar: “Haqdir Muhammad, ishonamiz Qur’ona!”

Davron, nechuk davronsan, g‘arib yig‘lar, el tinmas,
Zulmi ortar zolimning, ko‘ngliga hech rahm inmas,
Jahonni yoqdi-ketdi — yomonning oti so‘nmas,
Muhammad hurmatiga yer yorilmas, ko‘k enmas,
Falak bundan quvonar, bo‘lmas oxirzamona.

G‘ofil qoldim, azizlar, chunki xulqi xushim yo‘q,
Haqdan o‘zga hech yerda panohim yo‘q, pushtim yo‘q,
Tafakkur ummoniga kirdim — yelkan, kishtim[1] yo‘q,
Maxtumquli, men bundan chiqay desam, dashtim yo‘q,
Qo‘l uzatsam, tutar yo‘q, tushdim tubsiz ummona.

YIGIT

Ulg‘aysa ham bir ish qilmas
Yoshlikdan pishmagan yigit.
Davlat kelsa, o‘zin bilmas
Tug‘ilib to‘ymagan yigit.

Yomonga pand bekor ketar,
Yaxshi erga bir so‘z yetar,

[1] **Kishti** — kema.

Astarini chappa etar,
Yangi to‘n kiymagan yigit.

O‘tkir qilich, qalqon, sovut,
O‘ynoqlagan arabiy ot,
Jang kunida chekar uyat,
G‘ayrati bo‘lmagan yigit.

Ulfat bo‘lmas sira cho‘pon,
Olaqarg‘a o‘qqa nishon,
Elga suyanch bo‘lmas, ishon,
Kallasi bo‘lmagan yigit.

Xizmat aylagil joningdan,
Ayama parcha noningdan,
Qon so‘rasa, kech qoningdan,
Bo‘lsa muhtoj mehmon yigit.

Hech kim abadiy qolmagan,
Mol jonga yo‘ldosh bo‘lmagan,
Go‘yo dunyoga kelmagan,
Bir zuryod qolmagan yigit.

Mis ko‘rinar oltin-kumush,
Tulga cho‘ri sevimli, xush,
Pariga qilmas navozish,
Xulqini suymagan yigit.

Mol aylanib ilonga, bas,
So‘rar qoningni har nafas,
Molidan hech zakot bermas,
Ko‘zlari qiymagan yigit.

Maxtumquli, yo‘ldan chiqmas,
Yomonga yaxshi so‘z yoqmas,
Ming so‘z aytsang, biri yuqmas,
Tangrisi quymagan yigit.

BIZNI

Bir tomchi pok suv aylab avval atoda[1] bizni,
Suvrat aylab, jon berding so'ngra anoda[2] bizni,
Xushvaqt qilib kezdirding dor ul-fanoda[3] bizni,
Har ishga moyil etding nafs-u havoda bizni,
Kim bilarki, naylarsan dor ul-baqoda[4] bizni?

Goh dunyo talab aylab, yugurarman, yelarman,
Goh yig'lab o'z holimga, goh shod bo'lib kularman,
Men bir ojiz bandaman, senga arzim qilarman,
Xudoyo, qilma rasvo, marhamating tilarman,
Bu dunyo-yu qiyomat qo'yma uyota bizni.

Osiy bo'lib yurarsan ko'p kula-kula bu dam,
Azob chekib yotarsan yerning ostida u dam,
Yig'labon yakka qolsang, kim senga bo'lar hamdam?
Yer senga shunday deydi: "Eshit, ey g'ofil odam!"
Qo'ymaslar shod yashashga yolg'on dunyoda bizni.

Tutsalar qilko'prikda, toyilsa unda tovon,
So'ralsa savob-gunoh, javobin ayla oson,
Ilohiy sharobingdan umidvor mo'min inson,
Tuproqqa aylanishni istar kofirlar ul on,
Xudoyo, lutf et ul kun — otmagin o'ta bizni!

Haqiqatning yo'lini rahbarsiz kezib bo'lmas,
Jamol istagan oshiq ko'rmayin qizib bo'lmas,
Oshiqlik azobini chekmayin sezib bo'lmas,
Visolga to'yib bo'lmas, hijronga to'zib bo'lmas,
O'rtama ishq o'tida bundan ziyoda bizni!

---

[1] **Ato** — ota.

[2] **Ano** — ona.

[3] **Dor ul-fano** — foniylik uyi, ya'ni bu dunyo.

[4] **Dor ul-baqo** — mangulik uyi, ya'ni u dunyo.

Kel, ko‘ngil, sabr aylagil, bunchalik o‘tga tushma,
Oz bilib, ko‘p gapirib, g‘am chashmasini ichma,
Betob bo‘lib, to‘karman ko‘z yoshim chashma-chashma,
Afv et, boqma men etgan har yaxshi-yomon ishga,
Lutf-u marhamat aylab, yetkaz muroda bizni!

Maxtumquli dunyoning bechora andalibi[1],
Bir parcha g‘am zamoni bo‘lmish uning nasibi,
Yiqilsa chora qilmas unga jahon tabibi,
Har majlis, har suhbatda shod aylang biz g‘aribni,
Ey azizlar, yod eting xayr-u duoda bizni!

NAZAR AYLA

Tan qafasga giriftor, kel, jonga nazar ayla,
Boq ko‘ngil ko‘zgusiga, jononga nazar ayla,
Ibrat ko‘zini ochib, jahonga nazar ayla,
Tutma ikki kemani, bir yonga nazar ayla,
Hech kim mangu yashamas — davronga nazar ayla,
Davroniga ishongan insonga nazar ayla,
Bu qo‘nib-ko‘chib yurgan karvonga nazar ayla.

Bu davron ichra ko‘ngil qushlari aylar parvoz,
Go‘yo sahar qushidir — tunda chiqarar ovoz,
Bog‘ ichra bulbul bo‘lib, qilar nag‘ma ming bir soz,
Tavba qilib Xudoga, dargohiga keldim boz,
Umr oz, zamon cheksiz, na ro‘za bor, na namoz,
G‘aflat uyqusidan tur, qiyomatga o‘xshar yoz,
Olimlar tasbeh aytar, har yonga nazar ayla.

O‘lmayman deb, tushmasin ko‘ngling bu gumon ichra,
Umrga hech ishonch yo‘q o‘tkinchi zamon ichra,
Ajal qo‘ymish otishga o‘qini kamon ichra,
Bandaga ne armondir jon bersa iymon ichra,

[1] **Andalib** — bulbul.

So‘zla — so‘zing yoyilsin bu yaxshi-yomon ichra,
Oz umrda ko‘p ishlar qilibsan jahon ichra,
Mezbon kabi ish tutgan mehmonga nazar ayla.

Oshiqqa xush xilvatda yor bilan yolg‘iz qolsa,
Dil rozin aytib, asta bo‘yniga qo‘lin solsa,
Mahsharda tirilgandek jon-u tan birga bo‘lsa,
Bir-biriga boshidan o‘tganin bayon qilsa,
Tob berilgan ipday bir-birga chirmashib olsa,
Do‘stlar, ne mushkul ishdir qovushsa-yu ayrilsa,
Visolga mag‘rur bo‘lma, hijronga nazar ayla.

Maxtumquli, so‘zlamay turishga qo‘ymas darding,
Yolg‘onchida aylanib, oltmish yonga qo‘l kerding,
Foniy dunyoni boqiy bilib yelding-yugurding,
Do‘stingga berib ozor, dushmanga yuz o‘girding,
Bildingki, vafosi yo‘q, bahosi yo‘q bu yurtning,
O‘ttiz to‘rt yoshga kirding, bu jahonda ne ko‘rding,
Qur’onga quloq qo‘yib, farmonga nazar ayla.

TERS CHIQAR

Haqiqat yo‘liga kirgan darveshlar
Hol[1] ichida Sidra[2] bilan Kurs[3] chiqar.
Pirsiz o‘z holicha yo‘lga kirganni
Shayton yo‘ldan urar, yo‘li ters chiqar.

Arvoh-u jin, qoplon, bo‘ri har vaqt bor,
Qayg‘u bor, g‘am bor, yo‘l uzoqdir, dard bor,
Ushbu yo‘lga kirsang, bir necha shart bor,
Bajarmasang qarshingdan yo‘lbars chiqar.

---

[1] **Hol** — tariqat maqomlarini bosib o‘tish jarayonida solikning pok qalbida porlab, uni ruhiy kamolotga olib boradigan ilohiy fayz.

[2] **Sidra** — diniy rivoyatga ko‘ra, yettinchi osmonda o‘sadigan daraxt.

[3] **Kurs** — Kursi.

Isrofil sur chalsa, yer-ko'k egilsa,
Shayton jangga kirib, tog'lar yiqilsa,
Dajjol[1] yerga inib, qo'shin yig'ilsa,
Boshi Hindda bo'lib, so'nggi Qars[2] chiqar.

Chiltan, abdol ketar, g'oyib qalandar,
Duogo'y yo'q, joy yo'q bekinsang agar,
Qof tog'ining yorig'idan Iskandar –
Dev yo'liga qurgan bandi Gurs chiqar.

Maxtumquli, men hech narsa bilmasman,
Ishlar borki, uddasidan kelmasman,
Ey do'stlar, bu nimadandir, bilmasman,
Xizr deb qo'l bergan kishim xirs[3] chiqar?!

JAM BO'LIB

Tortgan sari ortar dunyoning dardi,
Qachon ko'ngil qaror topar jam bo'lib?!
Qo'y uni, oxirat uchun qil jahdni,
Dunyoni kim tutdi? O'tar gum[4] bo'lib.

Tirnoq bilan tog'lar qazgan Banijon[5],
Suvga, yelga hukmi o'tgan Sulaymon,
Qani u Iskandar, Rustam pahlavon,
Sen dunyoni tutajaksan kim bo'lib?!

Bu zamonda chora topmay, qilsang dod,
Ketar bo'lsang, to'xtatolmas hech bir zot,

---

[1] **Dajjol** — islom diniga ko'ra, qiyomat oldidan paydo bo'ladigan va dindorlarni Xudo ko'rsatgan to'g'ri yo'ldan ozdiradigan bir ko'zli odamsimon maxluq.

[2] **Qars** — Kichik Osiyodagi bir shahar va viloyat.

[3] **Xirs** — ayiq.

[4] **Gum** — yo'qolish mahv bo'lish.

[5] **Banijon** — Odam Atodan oldin 50 ming yil yashab o'tgan jondor.

O‘smirlik, yigitlikda esang shod,
Qariganda qaytib kelar g‘am bo‘lib.

Barcha bilar — qaytar bir kun kelganlar,
Borar joyin ishin ko‘rdi bilganlar,
Betashvish yurganlar, g‘ofil bo‘lganlar,
Afsus chekib, bo‘sh ketdilar kam bo‘lib.

Topa bilsang haqiqatning mardini,
Ko‘zingga to‘tiyo ayla gardini,
Qulzumday gunohning teran dardini
Chin tavba quritar unga em bo‘lib.

Avval o‘zing ixlosingni sozlagin,
Har go‘shadan niyoz o‘qin ko‘zlagin,
Bilganingcha mudom yaxshi so‘zlagin,
Yaxshi so‘z topmasang, o‘tir jim bo‘lib.

Maxtumquli, Haqni mudom zikr ayla,
Yomonga sabr-u yaxshiga shukr ayla,
Mozorlarni kez-da, o‘tir, fikr ayla,
Manman degan erlar yotar qum bo‘lib...

ERINIB TURAR

G‘aflat yostig‘ining ustida boshi,
G‘ofli odam muncha erinib turar.
Tan qafasi ichra vahshiy jon qushi
Har dam qanot qoqib, urinib turar.

Umring o‘tdi-ketdi — qilmading parvo,
Manziling masjid qil, to‘shaging — bo‘yra,
Qilganing kufrdir, etganing riyo,
Qazo yoyi unda qurilib turar.

Yaxshilardan bir nasihat olaver,
Karvon ketdi, yolg'iz qolding, yelaver,
Odam o'g'li, mudom hozir bo'laver,
Nafsi shayton senga surinib turar.

Rang-barang taom yeb, qizil-ko'k kiyib,
Xotirjam yotarsan qo'rquvni qo'yib,
Boshingda o'kirib, panjasin yoyib,
Ajal arsloni kerilib turar.

Uyg'on, Maxtumquli, g'aflatda yotma,
Molga mag'rur bo'lib, hasratga botma,
O'tar dunyo uchun o'zingni sotma,
Bu xatoning tagi ko'rinib turar.

YOD AYLA HAQNI

Teng bo'lar deb o'ylama hech ish badaf'ollik[1] bilan,
Hech qachon teng bo'lmagay bedov, eshak shohlik bilan,
Bo'lma oshno hez-haromi, fitna-rasvolik bilan,
Solma g'avg'oga boshingni moli-dunyolik bilan,
Tur sahar, yod ayla Haqni, yig'la tanholik bilan.

Bordi Tur tog'iga-yu Haq birla so'zlashdi Kalim,
O'tdi ul ham, qoldi dunyo, kechdi ayyom ul-qadim,
Yotsa yer bo'ldi to'shak, yopinchig'i parcha gilim,
Boqdi qo'yini Shuaybning[2] yetti yil Muso — Kalim,
Cho'lda yurdi doimo roz aytishib Xoliq bilan.

Ey oti chopqir yigit, o'zi mard, egnida to'n bebaho,
Bunda jabr etgan kishi unda bo'lar yuzi qaro,

[1] **Badaf'ollik** — badfe'llik, yaramas xulqlik, axloqsizlik.

[2] **Shuayb** — qavmini fasohatli usullar bilan imonga da'vat etgani uchun "payg'ambarlar xatibi" degan nom olgan arab millatiga mansub payg'ambarlardan biri.

Zo‘r bilan olganni ul kun qaytarib olgay Xudo,
Ul valiylar sarvari Sulton Vayisdek avliyo,
To‘shagi, yopinchig‘i bo‘ldi, qara, xoliq[1] bilan.

Ya’qub o‘g‘li ul Yusufni kokilidan tutdilar,
Urdilar, yig‘latdilar, “Bo‘ri yedi”, — deb sotdilar,
Necha yil Ayyub tanini qurtlar yeb yotdilar,
Bog‘lab oyog‘-qo‘lini, Yunusni suvga otdilar,
Necha muddat sabr etib, “Hu!” dedi bir baliq bilan.

Sen nega, Maxtumquli, yomonliging unutmading,
Ba’zida zulm aylading ham ko‘rganing tark etmading,
Ba’zidan so‘fiy bo‘lib, aslo haromdan totmading,
Bilmadim, sen kim bo‘lding — bir tayin ish tutmading,
Na sipohilik bilan bo‘lding, na mullolik bilan.

MEHMONIDIR

Darddir bu jonning ofati, sog‘lik uning sultonidir,
Tan mulkining bosh davlati tinmas o‘tar, mehmonidir.

Nafs aylagay sarkashligin tan taxtining maydonida,
Ruhning azaldan, bilsangiz shul ahdi, shul paymonidir.

Kelgan bu bozorga o‘zin ixlosini pok aylasin,
Qobil esa ixlosli qul mard ichra mard insonidir.

Nafs o‘ldirib, ruh parvarish etganga deng yuz ofarin,
Bozori haqiqat uning, Haq majlisi maydonidir.

Voy holiga nafsin suyib, jon lashkarin kim do‘st tutar,
Yo‘ldosh qiyomatda unga aybini pushaymonidir.

---

[1] **Xoliq** — tuyaning orqasi ishqalanmasligi uchun egar ostidan to‘shaladigan kigiz to‘shama.

Mard yo‘q xizmat etgali, yo‘l yo‘q hajga ketgali,
Shu ikki ish jismim aro jonimning armonidir.

Maxtumquli g‘amgin bo‘lib, shu dard ila endi ketar,
Bu bevafo dunyoda besh kun bir oshiq davronidir.

ZIYON KO‘RSA

Kishi ortiqcha fikr etmas qilar ishin ravon ko‘rsa,
So‘ngin ko‘zlab, sog‘in so‘zlar har ishinda ziyon ko‘rsa.

Xayolidan chiqarmaydi — vujudiga kuchi yetmas,
Agar xilvat aro yolg‘iz ko‘ngil suygan juvon ko‘rsa.

Qanoatli kishilar bor agar och bo‘lsa-da qorni,
Qanot qoqqay qarorsiz qarchig‘ay gar qo‘lda qon ko‘rsa.

Talabgor bo‘lsa mol topgay yigitlar barcha yo‘l birla,
Quvonchi ichiga sig‘mas devona karvon ko‘rsa.

Yuqoridan qarab turgan shu ovchilar, qo‘yib bersa,
Tilar yer ostidan yurmoq yaqin yerda jayron ko‘rsa.

Kurash maydonida jur’at etolmas beyurak nomard,
Sitam, jabrini ko‘p aylar g‘animni notavon ko‘rsa.

Agar ma’shuqa duch kelsa, ko‘ngil, Maxtumquli, naylar,
Yurak yorilguday bo‘lgay ko‘zi ko‘rlar jahon ko‘rsa.

YUTIB TURIBDIR

Bir puch yong‘oq bilan jahon javharin,
Ul ne qimorbozdir, yutib turibdir.
Somonga to‘ldirib kiyim bozorin,
Gavhar bahosida sotib turibdir.

Ne to‘shakdir, bosgan bilan yorilmas,
Ne kemadir, daryo botar, yurimas,
Ne onadir, o‘lmas, yitmas, qarimas,
O‘z bolasin o‘zi yutib turibdir.

Ne chiroqdir, zulumotni yoritar,
Ne ko‘zgudir, oy-u quyosh sharm etar,
Ne soqiydir, piyolasin yuritar,
Bir qo‘li bo‘g‘zingdan tutib turibdir.

Do‘stlar, bir misoldir tilimga kelgan,
Diqqat qilsa, anglar aqlli bo‘lgan,
Dunyoni o‘ramish ulkan bir ilon –
Quyrug‘i boshidan o‘tib turibdir.

Boshi yetib bormish Arshning ustiga,
Oyog‘i kirmishdir yerning ostiga,
Tushib joni-jonsiz — barcha qasdiga,
Tinimsiz og‘ziga otib turibdir.

Ne maxluqdir, na er, na xotin kishi,
Bir ko‘zi oq, birni g‘ilay ko‘rishi,
Rangi qora, ola o‘n ikki boshi,
Yer-u ko‘kni birdek tutib turibdir.

Maxtumquli, mag‘rur bo‘lma bu so‘zga,
Ko‘rinmagan bunday jonivor ko‘zga,
Yetti kaltakesak — bu ne mo‘jiza:
Shu ulkan ilonni yutib turibdir.

XIZMAT QILGAN USTODGA

Ey og‘alar, bir kun ulushin olar
Xizmat qilib yurgan kishi ustodga.
Xudo agar kimni haq yo‘lga solar,
Yetishar, shubhasiz, maqsad-murodga.

Jo‘sharsan — har so‘zni paydo etarsan,
Sayrab, jon bulbulin shaydo etarsan,
Falak bir baqqoldir, savdo etarsan,
Oqibat u yutar ushbu savdoda.

Mast bo‘larsan, yoshlik bois jo‘sharsan,
Bilmassan, har ishga boshing qo‘sharsan,
Bir kun kelib bir zulmatga tusharsan,
Anglamay o‘tadi boshing g‘avg‘oda.

Harom yeding, qonlar to‘kding ellikda,
Nima ish bitirding sakson yillikda,
Yomon yo‘ldan qaytib, bo‘lgin qullikda,
Jannat deya yurgil orzu-tamada.

Ajal — daryo bo‘ylar, boshingdan oshar,
Topolmay bir chora, yo‘l aqling shoshar,
Qirq kun avvalidan yaprog‘ing tushar,
O‘ldi deb aytarlar hatto samo’da[1].

Ikki kotib turar sog‘-u so‘lingda,
Qiyomatda nomang tutar qo‘lingga,
Charxi falak tuzoq qo‘ymish yo‘lingga,
Seni kutib turar o‘xshab sayyodga.

Kimlardan olarsan, kimga berarsan,
Halolni farqlamay, haromni yersan,
Savobing bir pulga almashtirarsan,
Shundan so‘ng tusharsan to‘g‘ri zulmatga.

Qalqon tutganlar-u kiygan sovutlar,
Yer qo‘yniga kirdi minib sovutlar,
Maxtumquli aytar, teng-to‘sh yigitlar,
Qardoshlar, yod eting doim duoda!

[1] **Samo’** — eshitish, tinglash. So‘fiylarning vajd-u holga erishish maqsadida uyushtiradigan zikr majlislari, qo‘shiq va raqs bazmlari.

DUCH KELDIM

Sahar vaqti sayr etib kezarkan,
Ajab manzil, ajab joyga duch keldim.
Yo'l topolmay yo'ldan-yo'lga o'tarkan,
Xo'p makona, xo'p saroyga duch keldim.

Ustasiz ishlangan, ipsiz qotilgan,
Bahosiz sotilgan, qo'lsiz tutilgan,
Qo'l tegmay chekingan, o'qsiz otilgan,
Bir ipsiz qurilgan yoyga duch keldim.

Necha do'stlar bilan sayronda ekan,
Qatordan adashgan karvonda ekan,
Jondan umid uzib, hayronda ekan,
Yulduzdan yo'l yasab, oyga duch keldim.

Ko'nglim ketdi do'stlar ichgan sharbatga,
Ular yuz safoda, men ming hasratda,
Ayrilib nolada, qoldim g'urbatda,
Chashmadan suv istab, choyga duch keldim.

Na tanda quvvat bor, na ichda jon bor,
Bilmayman, bu ishda ne naf, ziyon bor,
Na hisob, na sanoq, na ma'lum son bor,
Kishi bilmas — ne savdoga duch keldim.

Boshga bog'lab devonalik kamandin[1],
Sakratib yetishdim ishqqa samandim[2],
Ul sharobga men yutoqib uzandim,
Tinig'in ichmishlar, loyga duch keldim.

Maxtumquli derlar mening otimni,
Olam qo'lin toblar ko'rsa o'timni,

[1] **Kamand** — halqa, sirtmoq, zanjir, band.
[2] **Samand** — ot, tulpor, arg'umoq.

Ey azizlar, kimga aytay dodimni,
Boshim chiqmas, ne g'avg'oga duch keldim.

SADO BO'LDIM

Men bir mast bulbuldirman — gulimdan judo bo'ldim,
Bargimni xazon urdi, besavt-u sado bo'ldim,
Bir gulchehra ko'yida behuda fido bo'ldim,
Yomon ishga boy, yaxshi ishlarga gado bo'ldim,
Xudodan vasl-u hijron — men bunga rizo bo'ldim,
Barcha bedor, uyquga, men-chi mubtalo bo'ldim.
Dunyoga kelib, uni bilmasdan fano bo'ldim,
Yegani zahr-u zaqqum, kiygani rido bo'ldim,
Kuydim, pishdim, yor-do'stlar, o'rtandim, ado bo'ldim.

Azizlar, yo'ldosh bo'ldim nafsi-havo zolimga,
Kiyikday qochar, bormas nasihatgo'y olimga,
Haqqa bo'ysunmasligin mashhur etdi olamga,
Men nima qilay, do'stlar, chorasiz iqbolimga,
Qo'ymadi o'z holimga, yurarga majolimga,
Na yetishdi quvonchim, na xushvaqtlik molimga,
Bir arpaga arzimas bu jahon xayolimga,
Bilmam, olam ne ko'yda, men hayron o'z holimga,
Kuydim, pishdim, yor-do'stlar, o'rtandim, ado bo'ldim.

Haq amriga bo'shman-u gunoh ishlarga chaqqon,
Bu yo'ldan adashganni boshla hidoyat tomon,
Na darveshman, na mulla, na so'fiyman begumon,
Quloq bersa yaqinlar rost so'zni aylay bayon,
Fikr aylang, kim bordir Haqdan o'zga mehribon,
Bandalik qilmasa yo'q bo'lgani yaxshi inson,
Ko'rmadim bu dunyoda o'zimdan xor, notavon,
Cho'g'i qolmagan kuldan o't chiqmaydi hech qachon,
Kuydim, pishdim, yor-do'stlar, o'rtandim, ado bo'ldim.

Sulaymon o‘z qavmiga gar qilsa yuz siyosat,
Kelsa pari podshohi — Oqtemir-u Jonpo‘lat,
Yuz ming devga bosh bo‘lgan dev to‘rasi Temirbat,
Chivin shohi Turtarus hamrohlik etsa hayhot,
Chumolilar Munzara — shohiga kelsa behad,
Muso qo‘lini ochib, Iso o‘qib yuz oyat,
Xizr duo qilsa-yu Ilyos qilsa munojot,
Mahol bundayin murda jasadga topmoq najot,
Kuydim, pishdim, yor-do‘stlar, o‘rtandim ado bo‘ldim.

Maxtumquli, miskinman, ko‘ngil uyimas ma’mur,
So‘z odamiman, savob kam menda-yu gunoh zo‘r,
O‘zim xalqqa noqobil, toleyim ters, baxtim sho‘r,
Yo‘q munosib amalim xuddi qadam urgan ko‘r,
Agar Egam istasa, bo‘lgay nuran a’lo nur,
O‘q ko‘z ochib-yumguncha uchgandir bo‘lib mahjur,
Yaramas ishlar bilan bo‘ldim jahonda mashhur,
Tegirmonday tinmayman, samandarday otashxo‘r,
Yondim, pishdim, yor-do‘stlar, o‘rtandim, ado bo‘ldim.

KO‘P JON O‘TIBDIR

Nodon ko‘nglim, o‘lim uchun g‘am yema,
Sendan avval kelib, ko‘p jon o‘tibdir.
Yolg‘on dunyo vafo qilibdi kimga,
Qancha yaxshi, qancha yomon o‘tibdir.

Qani Odam Ato, Momo Havosi,
Qani din bobosi — Xalilullosi,
Qani Muso Kalim, mo‘jiz[1] asosi,
Gohi ko‘prik, gohi ilon o‘tibdir.

Iskandar, Sulaymon buyuk shoh bo‘ldi,
Dev, parilar xizmatida yig‘ildi,

[1] **Mo‘jiz** — mo‘jizakor.

Shov-shuv bilan ne devonlar qurildi,
Qancha shohi sohibqiron[1] o'tibdir.

Iso nafasidan tirildi murda,
Agar Yusuf ochsa yuzidan parda,
Ko'rgan hushdan ketib, yotar shu yerda,
Shunday husni mohitobon[2] o'tibdir.

Hazrati haq Rasul me'rojga oshdi,
Osmonlar birma-bir eshigin ochdi,
"Qoba qavsayn"[3] borib, Haqqa qovushdi,
Shu sarvari ikki jahon o'tibdir.

Abu Bakr o'tdi riyozat bilan,
Umar podsho bo'ldi adolat bilan,
Usmon kechdi Qur'on tilovat bilan,
Din qilichin urib, Arslon[4] o'tibdir.

Hasan, Husayn edi din nuri, mohi,
Qani ul Fotima — hurlarning shohi,
Qudrat bilan yoqqan nuri ilohiy,
Shunday mo'jizalar bundan o'tibdir.

Ko'ring, ne jononlar ishqqa ulashdi,
Umrimni xor qilib, yerga bulashdi,
Oh urib, ayriliq dardidan kechdi,
Termila-termila giryon o'tibdir.

Ne go'zallar o'tdi malak misoli,
O'n to'rtlik kunlik to'lgan oyday jamoli,
Ne oshiqlar o'tdi — parishon holi,
Ularning ishqida hayron o'tibdir.

---

[1] **Sohibqiron** — bu yerda: baxtli soatda tug'ilgan, baxtiyor, mas'ud.

[2] **Mohitobon** — to'lin oy; majozan: go'zal.

[3] **Qoba qavsayn** — ikki yoy oralig'i.

[4] **Arslon** — Hazrat Alining laqabi.

Ne o'lkalar qoldi vayron bo'lishib,
El-u xalqi xor-u yakson bo'lishib,
Boyqushlar "huv"lashib, itlar hurishib,
Ne shaqallar qolib, jayron o'tibdir.

Qani hiyla bilan boylik yig'arlar,
Qani uylar to'la kumushlar, zarlar,
Qani sandiq-sandiq la'l-u gavharlar,
Bari qolib, oshkor, nihon o'tibdir.

Ne yaxshilar o'tib, suhbatlar tutdi,
Ne davronlar kelib, xush bo'lib o'tdi,
Umring o'tdi, yoshing yetdi, hol ketdi,
Maxtumquli, sendan davron o'tibdir.

QURILMASDAN BURUN

Jism sozidan nafas tori uzilmasdan burun,
Boshing uzra to ajal bazmi qurilmasdan burun,
Jon libosi o'lim o'qidan so'kilmasdan burun,
Ey ko'ngil, qasringni asosi — tan buzilmasdan burun,
Toki obro'y qo'rasi[1] — tishlar to'kilmasdan burun.

Qil nazar Haq san'atiga — och basirat ko'zini[2],
Kir haqiqat yo'liga, top jazba[3] birlan O'zini,
Istasang Haqqa yaqinlik, qo'yma vasfi, so'zini,
Bilsa kim tavhid[4] sirini, ochdi ma'no yuzini,
Ko'z ochib senga deyin behuda kulmasdan burun.

---

[1] **Qo'ra** — o'choq.

[2] **Basirat ko'zi** — qalb ko'zi.

[3] **Jazb (Jazba)** — tortish, jalb qilish.

[4] **Tavhid (Vahdat)** — Olloh taoloning birligi, yagonaligi. Bu tushunchaga ko'ra borliq yagona bir vujuddan, olamdagi barcha narsalar uning tajalliysi — namoyon bo'lishidan iborat.

Bebaqo tan qolipi — dil bog‘lama, alhol[1], unga,
Bo‘lma mag‘rur foniy olam ichra mulk-u molingga,
Yod etib go‘r-u qiyomat, yig‘la doim holingga,
Kech takabburdan, nazar sol bir dam o‘z ahvolingga,
Och ko‘zing ibrat bilan tuproqqa to‘lmasdan burun.

Boqiy umringni etib sarf, el-u yurt fahmida bo‘l,
Qo‘y oyog‘iga boshing — bechoralar rahmida bo‘l,
Saqla pok tilni-yu xulqing yaxshilash zaxmida[2] bo‘l,
Sidq ila aylab amalni, oxirat vahmida bo‘l,
Ul kuni mezon tarozisi qurilmasdan burun.

Bebaqo foniy jahonni bilma hech boqiy makon,
Sel, shamol, chaqmoq kabi zumda o‘tarsan begumon,
Oxiratni o‘yla, yutmay desang ul mahsharda qon,
Qomating ruku’ga[3] eg, qil sajdalar chekkancha jon,
To ajal to‘fonidan qadding bukilmasdan burun.

Sindirib isyon urug‘in, to‘k nadomat yoshini,
Keltir Ollohga — tutar qimmat u hasrat yoshini,
Joriy ayla doimo ko‘zdan riyozat yoshini,
Ko‘zlaringdan oqizib sho‘ri qiyomat yoshini,
Tavba jomin ayla no‘sh paymona to‘lmasdan burun.

Kechalar, Maxtumquli, yur axtarib bir rahbar,
Qo‘yma yo‘ldoshsiz qadam, manzil uzoqdir, yo‘l xatar,
To‘k jigar qonini yosh o‘rniga ko‘zdan har sahar,
Haq bahori fayzidan sa’y ayla olmoqqa samar,
O‘lim yelidan daraxting bargi so‘lmasdan burun.

---

[1] **Alhol** — hozirda, ayni paytda; endi.

[2] **Zaxm** — bu yerda: zahmat, ranj, mashaqqat ma’nosida.

[3] **Ruku’** — namozda egilib turish.

OMAD

Yo‘lga chiqsang, tanla munosib hamroh,
U namozxon bo‘lsa, omad kelgani.
Agarda hamrohing bo‘lmasa dilxoh[1],
Bir benamoz bo‘lsa, omad ketgani.

Hamroh bo‘lib olim bilan yurganga,
Pand-u o‘gitiga quloq berganga,
Uzun bo‘y, xush soqol, yuzi nuroniy —
Bir zotga duch kelsang, omad kelgani.

Duchor bo‘lsang yuz-ming balo boqqanga,
Ichida fisq-fasod o‘tin yoqqanga,
Rangi sariq, oq ko‘z, qoshin qoqqanga,
Shundayga duch kelsang, omad ketgani.

Duchor bo‘lsang “Yohu!” degan gadoya,
Behuda o‘tkazma umringni zoye,
Biyobonda oppoq soqoli yoya —
Agarda duch kelsang, omad kelgani.

Ot olsang, kulrang ol, yaxshimas oqyol,
Kitobda chaman ham arg‘umoq misol,
O‘rta bo‘yli, qora bilan oqish xol,
Shunday ot uchrasa, omad ketgani.

Nasihat aylasam gar teng-u to‘shga,
Xizr ko‘rgan kirar ko‘p uzun yoshga,
Uzun bo‘yli, qoramag‘iz darveshga —
Agarda duch kelsang, omad kelgani.

Maxtumquli, qilsam barchaga bayon,
Aslida xastalik o‘limdan yomon,
Xunuk, beso‘naqay, ko‘saga, ishon,
Agar duchor bo‘lsang, omad ketgan.

[1] **Dilxoh** — ko‘ngilga yaqin, diltortar.

SARF QILADI OSHINI

Xudo nazar qilgan bir jo‘mard[1] yigit
Odamlarga sarf qiladi oshini.
Nomusli, g‘ayratli, orli mard yigit,
Eli uchun fido etar boshini.

Bir nechalar yurar zarbof to‘n bilan,
Bir nechalar yurar quruq son bilan,
Odamzodni tanib bo‘lmas sin bilan,
Sinamay bilmaydi kishi kishini.

Yigitning obro‘si yaxshi ayoldir,
Yaxshi ayol nokas erga uvoldir,
Faqirlik yigitga ayni zavoldir,
Har yon sanqir — bilmas qilar ishini.

Maxtumquli aytar yorning sifatin,
Yangi daftar olib, solay suratin,
Do‘zax alomati bir yomon xotin,
Kimga duchor bo‘lsa, olar hushini.

KUNLARIM

To‘qqiz oy yotibman onam qornida,
Ko‘z ochib, dunyoga kelgan kunlarim.
Emaklab, o‘ynardim onam qo‘lida,
Sakkiz oyligimda kulgan kunlarim.

Birimda bilmadim yaxshi-yomonni,
Ikkimda tanidim ota-onamni,
Uch yoshimdan berdi tilni, kalomni[2],
To‘rtga kirib, toshlar otgan kunlarim.

[1] **Jo‘mard** — mard, tanti, oliyjanob.

[2] **Kalom** — gap, so‘z.

Beshimni o‘tkazdim bahor, yoz bilan,
Olti yoshda quvalashdim boz[1] bilan,
Yetti yoshdi ishim bo‘lmay qiz bilan,
Sakkizimda tishim tushgan kunlarim.

To‘qqizimda berdim Tangri salomin,
O‘nimda bo‘ynimda Haqning kalomi,
O‘n birimda tutdim davot[2], qalamni,
O‘qib-o‘qib, ma’ni sochgan kunlarim.

O‘n ikkimdan o‘tdim o‘n uch yoshimga,
O‘n to‘rtimda tashvish tushdi boshimga,
O‘n beshimda qizlar kirdi tushimga,
O‘n oltimda qaynab-jo‘shgan kunlarim.

Yigirmamda mast-u sarxush kezardim,
Yigirma beshda yovga o‘q uzardim,
O‘ttizimda otlar minib o‘zardim,
O‘ttiz beshda zo‘r urishgan kunlarim.

Qirqimda quyulib, aqli to‘lganman,
Ellikda qo‘limga tasbeh olganman,
Oltmishimda pirga murid bo‘lganman,
Payg‘ambar yoshin yashagan kunlarim.

Yetmishimda og‘riq kirdi tizimga,
Saksonimda g‘ubor tushdi ko‘zimga,
To‘qsonimda hush qolmadi o‘zimda,
Aql-u hushdan judo bo‘lgan kunlarim.

Yuz yoshga yetkazmay, olarlar joning,
Uzatib qo‘yarlar bichib kafaning,
Maxtumquli, yo‘ldosh bo‘lsin iymoning,
Jon jasaddan ayri tushgan kunlarim.

[1] **Boz** — lochin, qarchig‘ay, qirg‘iy.

[2] **Davot** — siyohdon.

OMON-OMON

Beklar aylashar kengashni,
Nodon falak, omon-omon!
Boshga solarsan tashvishni,
Nodon falak, omon-omon!

Baxt qushi ko'kka yo'l oldi,
Haq siyladi — nazar soldi,
Oy-u kun ko'rib uyaldi,
Nodon falak, omon-omon!

Yaxshilar pandini tutgan,
Falakni manguga otgan,
Zindon ichra g'ofil yotgan,
Nodon falak, omon-omon!

Ko'p sitamlar qilar bo'lding,
Omonatni olar bo'lding,
Sarsonlikka solar bo'lding,
Nodon falak, omon-omon!

Nomardlar yo'lbars bo'libdi,
El-yurt uchun xirs bo'libdi,
Xotin zoti bars[1] bo'libdi,
Nodon falak, omon-omon!

Ko'p chekibman jabr-u jafong,
Yuzin ko'rmamishman safong,
Qo'ling tutdim men mubtalong,
Nodon falak, omon-omon!

Maxtumquli deydi: omon,
Yaqin keldi oxirzamon,
Tog' boshida tuman, hijron,
Nodon falak, omon-omon!

[1] **Bars** — qoplonga o'xshash yirtqich hayvon.

NODON FALAKDAN

Boy o‘g‘liga deydi: “Izim tutarsan”,
Bexabar bo‘libon nodon falakdan.
Ko‘rgan aytar: “Murodingga yetarsan”,
Bilmay kelajagin armon falakdan.

Ey tog‘, mag‘rur bo‘lma toshing, ko‘chkingga,
Ey qiz, ko‘p ishonma husn-u ko‘rkingga,
Odam o‘g‘li, quvonmagil erkingga,
Erta vatan bo‘lar zindon, falakdan.

Umrim soli karvonini jo‘natdi,
Kimlar fe’li aynib, iymon unutdi,
Falakdan mol olib, qayta tarqatdi,
Kimlar gado, kimlar sulton falakdan.

Charx yo‘lini topib, urishi tayin,
Azmidan titraydi osmon-u zamin,
Sulaymon-u Iso, Mahdi-yu Amin –
Bari o‘tdi ko‘rib ziyon falakdan.

Falak tashvishini kimlar bildilar,
Ko‘plar yig‘ladilar, ozlar kuldilar,
Sher bo‘rilar tulki bo‘lib keldilar,
Haq qoshiga tilab omon falakdan.

Biz ko‘rgan u do‘stlar ovora bo‘ldi,
Elga bosh bo‘lganlar bechora bo‘ldi,
Chopqir arab otlar, ko‘r, xora bo‘ldi,
Qadr-qimmati qolmay yomon falakdan.

Duch kelgan bilan u jang, urush qildi,
Notavonga kuchin namoyish qildi,
Baxillar o‘zaro navozish qildi,
Qo‘lga kelarmi deb davron falakdan.

Aql o‘smas, dur yasalmas ustodsiz,
Odam o‘g‘li, o‘tar bo‘lding sen otsiz,
Kelib bunda, qolar bo‘ldi qanotsiz,
Ko‘ring, parvona ham nolon falakdan.

Oyoq ostda, og‘ir jismim ko‘tarib,
Bir duo olmadim ishin bitirib,
Maxtumquli, tilga doston keltirib,
Chekar bo‘ldi oh-u fig‘on falakdan.

FASOD DUNYODIR

Odam o‘g‘li, tingla so‘zim bir zamon,
Jon istab sargardon, fasod dunyodir.
Bir kun yoqa tutar, bilsang, begumon,
Ammoki bir zarur hojat dunyodir.

Kimga nasib etdi ul obi hayot,
Abadiy hayotdan qayg‘usi ziyod,
Jahonni sayr etib yurgan odamzod,
Umrin mudom qilgan la’nat dunyodir.

Qani, qarang, Qorun fe’lin nayladi?
O‘zi o‘tar bo‘ldi, molin nayladi?
Nuh payg‘ambar kema — solin nayladi?
Bahorda chiqqan maysa, o‘t dunyodir.

Iskandar emasmi jahonni olgan?
Dunyoning dastidan kim omon qolgan?
Bu foniy jahonning tashvishi yolg‘on,
Baxillarga ulug‘ izzat dunyodir.

Rustam, Zol ne ishning boshini tutdi?
Charx bilan o‘ynashdi, charx uni yutdi,
Jon matosin eltib, tuproqqa sotdi,
Izidan yig‘latgan ofat dunyodir.

Chin-Mochinni qo‘ydi zulm ostida,
Do‘zax ochar bo‘ldi zamin ustida,
Hindistonni oh-u zorning qasdida
Qo‘yib borgan, ko‘ring, pisand dunyodir.

Qorun o‘tar bo‘ldi o‘zini ko‘zlab,
Yusuf o‘tar bo‘ldi Kalomni so‘zlab,
Odamzodni yerning qa’riga gizlab,
Mangu chiqmas qilgan lahad dunyodir.

G‘avvosni band qildi ummon ichida
Bulbul asir tushdi bo‘ston ichida,
Baliq esa tutqun daryo ichida,
Har kimga bergan bir kulfat dunyodir.

Chopqir tuya minib, har yonga yursam,
Shu ko‘r ko‘zim bilan jahonni ko‘rsam,
Yorim istar bo‘lsa, bosh bilan borsam,
Dashtga tushib urgan sayyod dunyodir.

Maxtumquli aytar, madorim bordir,
Kunlar o‘tar bo‘ldi — oh-zorim bordir,
Chekkanim jafo-yu ishim ozordir,
Bo‘shab qoluvchi oqibat dunyodir.

BOTAR

Bo‘z tumanli baland tog‘lar
Qartayib zaminga botar.
Bulbul makon tutgan bog‘lar
Hijron urib, so‘lib yotar.

Chora yo‘qdir o‘tgan yoshga,
Jabr-u jafo tushar boshga,
Xudo siylab bergan oshga,
G‘addor falak og‘u qotar.

Shoh qo‘lida ganj-oltinlar,
Birov och, yalang‘och tanlar,
Aysh-ishratli ajab kunlar
Bahordek bir zumda o‘tar.

Kimlar ichar bo‘ldi sharob,
Kimlarni ayladi halok,
Jon matosin olib falak,
Bir siqim tuproqqa sotar.

Har bir ishiga eg bo‘yin,
Bo‘sh o‘tkazmas kun-u oyin,
Qarang, falak qilib o‘yin,
Shoh-gadoning barin yutar.

Bahorda yomg‘ir yaxshidir,
Bahor jahonning naqshidir,
Yuzin ko‘rmasang yaxshidir,
Odamlar bir-birdan battar.

Bir kun oxirzamon qo‘psa,
Yer cho‘kadi odam tepsa,
Agar falak urug‘ sepsa,
Biling, undan paymon bitar.

Koshki kelmasa jahonga,
Jabr qildim shirin jonga,
Boq, yaxshilarni yomonga
Zolim falak bo‘ldi chatar.

Yaxshi falak aybin ochsang,
Xor aylaydi o‘chakishsang,
Falakning oldidan qochsang,
Quvmay yetib, shartta bosar.

Sirim tutmish jonda makon,
Ko‘ring, yuzim bo‘ldi alvon,

Dema, qochib bo‘ldim pinhon,
Boqqil, falak qo‘ling tutar.

Yurtdan kechma — kibr aylama,
Yig‘lab turib zikr aylama,
Maxtumquli, fikr aylama,
Fikr kishini qaritar.

XOR-U ZOR BO‘LDING

Odam o‘g‘li, kelib foniy jahonga,
Falakning qo‘lida xor-u zor bo‘lding.
Og‘iz ochib, qo‘l yetkazding zabonga,
Ko‘p gapirib, tilga bir ozor bo‘lding.

Eli ko‘char bo‘lsa, yitar yo‘llari,
Na odamlar kezar, na-da mollari,
Ko‘pdir zolimlarning cho‘ri-qullari,
Ul zolim qo‘lida itdan xor bo‘lding.

Shohlar ojiz qolib, topmas darmonin,
Vatandan ayrilgan izlar makonin,
Nima sabab termilasan, ey jonim,
Qayerdan bu o‘tga giriftor bo‘lding?

Har kim dilini bir orzuga moslar,
Kim Haq der, kimda xomxayol, vosvoslar,
Tog‘ boshidan boqsang, ko‘ngling havaslar,
Dasht ichida qolib, beqaror bo‘lding.

Kim bilmaydi ne g‘avg‘o bor qoshida,
Kunduz xayolida, tunlar tushida,
Odam o‘g‘li, ne kulohdir boshida,
Necha zamon kezib, bexabar bo‘lding.

Ko‘r armonin aytar: “Dunyoni ko‘rsam”,
Oyoqsiz noliydi: “yel kabi yursam”,
Faqir orzu qilar: “Katta to‘y bersam”,
Nomard shohga deydi: “Iskandar bo‘lding!”

Shohlar odil bo‘lmas, tog‘lar tumansiz,
Cho‘llar bo‘risiz-u bog‘lar rayhonsiz,
Kimlar kimxob kiyar, qanchalar to‘nsiz,
Kimlar och, boylikka, sen-chi, yor bo‘lding.

Kimlar zulm qilar, kimlardir osiy,
Kimga murdor bo‘lsa, kimga xush isi,
Xotinlarga yoqar Gurgon havosi,
Mudom shu orzuga talabgor bo‘lding.

Ko‘pchilik suhbatda istar jononni,
Kimlar og‘iz ochmas, tutar zabonni,
Haddan oshiribsan hirsi dunyoni,
Yel ortidan chopib, sen sudxo‘r bo‘lding.

Nechani sevarlar, necha beqimmat,
Necha farq aylamas: ne din, ne ummat,
Necha go‘zal topar farishta surat,
Ey do‘st, sen makkorga sazovor bo‘lding.

Bir foniy degaylar yolg‘on jahona,
O‘limni aylarlar unga bahona,
Necha sarvi o‘xshar bo‘ldi rayhona,
Xazon yetib, savsan, ne murdor bo‘lding.

Necha hasrat ichra dunyo kezolmay,
Necha xato der yerdan ko‘z uzolmay,
Necha yakson bo‘ldi, necha buzilmay,
Necha sohibjamol, ko‘r, makkor bo‘lding.

Kimlar xato topsa, haqni so‘zlamas,
Kimning ko‘zi bog‘liq, dunyo ko‘zlamas,

Kimlar sirin asrar, kimlar gizlamas,
Sening siring dunyoga oshkor bo'lding.

Keksalar der: "Qaytsa yoshlik ahvolim",
Yosh der: "Piri badavlatlik xayolim",
Qanchalik go'zaldir ul ipak sholim,
Nomardlar belida sen zunnor bo'lding.

Ne g'aflat uyqu — eshitilmas sasing,
Yo'lidan yurmaslar hech yaramasning,
Maxtumquli, o'zingcha yo'q nokasning
Xizmatida yurib, xor-u zor bo'lding.

KO'RMISHAM

Hamroh aylab men nomardni, necha zamon yurmisham,
Chidab uning har dardiga, qilgan ishin ko'rmisham.

Bir zamonlar bir gul paydo bo'ldi mening bog'imda,
Nima qilay, men u gulni bir bulbulga bermisham.

Bulbul shod-u xurram bo'ldi u gul bilan topishib,
Aqlim ketib, bunda ne sir borin undan so'rmisham.

Dedi: "Men bir parvona ishq olamiga bosh urgan,
Bu otashning dardi bilan o'zim o'tga urmisham".

Kelib shayton, uzib gulni, gulxan ichra otar bo'ldi,
Kuydirishin unutib, men gulxan ichra kirmisham.

Kuydirib kun qildi butkul jism-u jonimni bu o't,
Tong shamoli esganda osmonga sovrilmisham.

Maxtumquli, ahmoq bo'ldim, nodonligim soz ekan,
Yo'qsa, olam bilan kezib, shu baxtga sevinmisham.

AYRILIB

Ko‘zlarimning nuri ketdi yori jondan ayrilib,
Bo‘ldi vayron taxt-u baxt shohi jahondan ayrilib,
So‘ldi bog‘im gullari anbar-rayhondan ayrilib,
Qildilar jangni raqiblar pahlavondan ayrilib,
Ketdi sabr-u toqatim ul mehribondan ayrildi.

Dodima hech kimsa yetmas — bir gunohkor qul manam,
Oh, baliq suv qadrini bilgay, qadrsiz sel manam,
Joni borlar yer zahar, bir zahri qotil bol manam,
Bulbulidan ayri tushgan baxti qora qul manam,
Ketdi sabr-u toqatim ul mehribondan ayrilib.

Xonadoning yig‘lagaydir nolasi Arshga yetib,
Men faqirni bandi qildi bu falak, ko‘rgil, tutib,
Qildi sharmanda jahonga u meni o‘yin etib,
Yo‘llar hijron eliga shum ajal ahdin sotib,
Ketdi sabr-u toqatim ul mehribondan ayrilib.

O‘ylagandim yaxshi deb, baxtimga u chiqdi yomon,
Tepishim bedov kabi deb, ko‘r, eshak bo‘lmish chaman,
To‘kdi nurini falak og‘u kabi yerga tomon,
Rahm etib holimga, yig‘lar qo‘shilib shahri Yaman,
Ketdi sabr-u toqatim ul mehribondan ayrilib.

Ketdi ko‘zdan aksi yor misli bahorning yomg‘iri,
Fol ochib, baxtimga boqdim, qilmadim men sabrni,
Tavba qildim qora baxtimdan, Xudo, ol umrni,
O‘ylamay ish oxirini o‘tga soldim bag‘irni,
Ketdi sabr-u toqatim ul mehribondan ayrilib.

Tinglamas arzim, Xudoyim, menda do‘stim, chora yo‘q,
Kuydi-yu jon-u jigar, ammo tanimda yora yo‘q,
Shum falakdek odamiyni qilg‘uchi ovora yo‘q,
Der Firog‘iy: dilni hijrondek etuvchi qora yo‘q,
Ketdi sabr-u toqatim ul mehribondan ayrilib.

JON AYLADI

Ey azizlar, yorning ishqi bu dilim qon ayladi,
Kunda yuz bor jon olib, har kunda yuz jon ayladi,
Toj-u taxt-u baxtim-u mulkimni vayron ayladi,
Mahv etib mard ahlini, nomarda davron ayladi,
Qildi otamdan judo — ko'nglimda armon ayladi.

Tillarim lol — qo'l bilan har xil ishora aylaram,
Ham quloqlar bitdi — so'zni anglamay zor qolaram,
Keldi hijron ot solib, gulday ochilmay so'laram,
Kunda yuz ming yolvorib qoshida, toat qilaram,
Ko'zlarimdan oqizib yosh misli ummon ayladi.

Ko'rsa kim holim mening, bo'lgancha giryon yig'lagay,
"Huv" deya tunlarda hatto mohitobon yig'lagay,
Chora topmasdan mening dardimga Luqmon yig'lagay,
Mol-u mulkimdir xarob, ko'rib Sulaymon yig'lagay,
Qayta boshdan shum falak dunyoni zindon ayladi.

Tong yeli ko'rsa agar bechora holimni sahar,
Esmas o'tkinchi jahon qilmishidan aylab hazar,
Biz mudom qish ichra qoldik, yo'q bahordan hech xabar,
Kiyganim bo'ldi kafan, yeb-ichganim zaqqum-zahar,
Shod falak, chunki mening ko'nglimni vayron ayladi.

Ko'rib o'timni do'zax, jannat bo'libdi bu zamon,
Yaxshilar o'rnini har yerda egallabdir yomon,
Bizga yor ellar hamisha orzu aylar begumon,
Hamma yoqda ranj-u kulfat, bu nima la'nat makon,
Haq habibi avliyolar o'zni qurbon ayladi.

Sel olib tegramni butkul qolmisham yolg'iz manam,
Otam Ozodiy o'tib, qolgan emas Ka'bam — onam,
Mot bo'libdir, sayramas, bog' ichra tutqundir so'nam,
Ibrohimdek o't ichinda mardi maydonman manam,
Bizni gulxanga otib, gulxanni rayhon ayladi.

So‘zlarim, Maxtumquli, olamga oshkor qilsangiz,
Bir nasihat aylaram menga quloqni solsangiz,
Ushbudir pandim tafakkur aylab, o‘zga olsangiz,
Qilmangiz bu sirni oshkor bizga yo‘ldosh bo‘lsangiz,
Ul Sulaymon toj kiyib, ushbuni farmon ayladi.

MOL ISTAR

Otlaning, ey mard yigitlar,
Bozorlarimiz mol istar.
Og‘ilda turgan otlarning
Chopqir oyog‘i yo‘l istar.

Nomard do‘st xotin sifatdir,
Ish eplolmas, bir ofatdir,
Daryo-ummonlar rohatdir,
Suzsin deb, oqish sol istar.

Tog‘ boshidan kelar sellar,
Tomosha aylangiz ellar,
Qafasdan chiqqan bulbullar
Xaridor bo‘lib, gul istar.

Uzun bo‘yli, qalam qoshli,
Mushki anbar, ifor sochli,
Shirin tilli, sadaf tishli,
Qo‘sh anor, xipcha bel istar.

Ko‘ngil qo‘shinin jam aylab,
Ul falak bilan jang aylab,
Ari uchsa, hujum aylab,
Boshqaga qo‘nmas, bol istar.

Bir yovuzga bo‘lib dushman,
Sabr bilan toblansa tan,

Mard aylasa tarki vatan,
Haqqa yolvorib, el istar.

Har kun qilsang katta to'yni,
Yechilsa dillar tuguni,
Firog'iyning telba ko'ngli
Qora rangli sunbul istar.

TURKMAN BINOSI

Ko'rganim aslida, bilgin, bu zaminning mixidir,
U hamisha erkindir misoli turkman binosi.

Tarki dunyo aylagay u kelsa raqiblar qoshiga,
Bil, po'latdan bino bo'lgan ushbu turkman qal'asi.

Rustami Zol-u Sulaymon, Jamshid unga gado,
Kunda yuz ming solsa lashkar, tegmagay shoh balosi.

Ta'lim olar tog'lar undan, lashkari saf-saf turar,
Zulfiqorin har urarda ortar erning havasi.

Bir bo'lib go'nglak, taka, yovmut, axal, yozir eli,
Qilsa bir joyga yurishni, ochilar gul-lolasi.

Bor qizilboshlarni qo'ymay otdi tog'ning ortiga,
Kecha-kunduz tinmayin kelar ularning nolasi.

Qo'ysa har yonga qadam, ovchi duchor bo'lma sira,
Bo'lmagay dushmanga aslo bandi turkman bolasi.

Har zamonda to'yi bordir, orifi kelgay mudom,
Mard-u ham bir so'zidir-u, dilda yo'qdir hiylasi.

Aytadir Maxtumquli: yo'qdir ko'nglida hech g'ubor,
Haq nazar qilmish etib lutf, bordir Uning soyasi.

KO‘P BO‘LSA

Aqlsizlar aql istab zorlanar,
Aqlli der: “Aqlim yana ko‘p bo‘lsa!”
Mard yigitlar qilichiga tayanar,
Nomard tuta bilmas qo‘lda cho‘p bo‘lsa.

Orif qadrin bilmas befahm nodonlar,
Tish tushsa, qiynalib qoladi jonlar,
Aqli yo‘q, yengiltak, nodon xotinlar
Ishidan ayrilar elda gap bo‘lsa.

Soni-sanog‘i yo‘q bo‘lgan fidolar,
Har bir kun g‘amida yurgan gadolar,
G‘aznasin to‘ldirgan barqaror shohlar
Kunda bir uylanar kayfi xo‘b bo‘lsa.

Qancha oqdi dunyo sen deya derlar,
Barchasi puch bo‘ldi, g‘amini yerlar,
Yuz o‘girib, gaplashmaydi chin erlar
Bir sababdan yaxshi do‘sti chap bo‘lsa.

Karomatli madrasayi a’zamlar[1] —
Yopildi, yo‘q avvalgi u maqomlar,
Yaxshi saqlanadi turli taomlar,
Toshlardan yasalgan yaxshi qop bo‘lsa.

Nomard qo‘rqar mard yigitning otidan,
Uyida qaltirar mardning bodidan,
Dardli qullar hech chiqarmas yodidan,
Luqmonning qilgan davosi naf bo‘lsa.

Alahsirarmi dard oshmasa bemor,
Aqli bo‘lsa nodon sayrarmi bekor,
Bechora Firog‘iy ingramas zor-zor,
Yuragidan g‘am-g‘ussalar daf bo‘lsa.

[1] **A’zam** — katta, ulkan, ulug‘.

SAFO BO‘LAR[1]

Yaxshiga hamqishloq bo‘lsang,
Ishing zavq-u safo bo‘lar.
Yigitlikda tavba qilsang,
Ko‘p dardingga davo bo‘lar.

Yomon qo‘shni chopar qayta,
Yiqilsang-da tepar qayta,
Sendan ayb topar qayta,
Boshingga bir balo bo‘lar.

Qarang o‘zin maqtaganga,
Rahm etmas tuqqan tuqqanga,
Boshiga salla suqqanga —
Har biri bir mullo bo‘lar.

Ko‘ring nishoni qudratni,
Og‘izdan so‘z bo‘shatganni,
Oxiratning alomati
Betayin rahnamo bo‘lar.

Odam yaxshisi olimdir,
Amal etmasa zolimdir,
Mening ziynatli molimdir
Haqi bir kun ado bo‘lar.

Qo‘rqoqning o‘g‘li har yerda,
O‘zini qo‘yar ko‘p darda,
Ishing tushganda ming darda,
Yomon kunda qal’a bo‘lar.

Qo‘ringlar, nechuk zamona:
Yaxshi qo‘shildi yomona,
Mard yigit minsa chamana,
Vahm ila mubtalo bo‘lar.

[1] Bu she’r Ma’rufiyga ham nisbat beriladi.

Zamona oxir bo‘lganda,
Farq qolmas chinda, yolg‘onda,
Haq qanoatin olganda
Navoli benavo bo‘lar.

Firog‘iy so‘zlar tilidan,
Nomusin bermas qo‘lidan,
Qiyos eting qiz-kelindan,
Yildan-yil behayo bo‘lar.

DALI DUNYO, HEY!

Bir nomardni aylab dunyo sultoni,
Topshirding qo‘liga molni, dunyo, hey!
Iskandarni qilib jahon mardoni,
Oxiri o‘ldirding, lo‘li dunyo, hey!

Oshiqlar oh tortib, ma’shuqqa zordir,
Bir nafas ko‘rmasa, ko‘p beqarordir,
Olibsan jonini, ne chora bordir,
Jismidan ko‘tarib yilni, dunyo, hey!

Ohim Arsh-a’loga yetar, dunyo, hey!
Mo‘minlar ne ko‘rdi, oldi, dunyo, hey!

Sulaymon taxtini qilding vayrona,
Jamshid ham qurboning bo‘ldi hayrona,
Laylini o‘t etib, Qaysni parvona[1],
Qorunni xor qildi fe’li, dunyo, hey!

Simurg‘[2] parin ochib, qanoti yoydi,
Men qanday maxluqman, yorim ne deydi?

---

[1] **Parvona** — mag‘bub yo‘lida ishq-u vafo-yu fidoyilik yuzasidan o‘zini ishqning yoniq shu’lasida kuydirib, halok bo‘ladigan hasharot. Tasavvufda u oshiq va fano timsoli bo‘lib keladi.

[2] **Simurg‘** — afsonaviy katta va bahaybat qush.

Dardim izhor etsam, darmonim qo‘ydi,
Oxiri gung aylab dali dunyo, hey!

Gulday yor sarg‘ayib, so‘ldi, dunyo, hey!
Falak quvib o‘ynar meni, dunyo, hey!

Farhod Shirin bilan davron surmadi,
Sayfulmuluk o‘zgaga dil bermadi,
Oshiq Tohir Zuhra deya turmadi,
Mohimga baxsh etmay gulni, dunyo, hey!

Go‘ro‘g‘lidek kezsam tog‘larning soyin,
Armonim yo‘q ko‘rsam yoz yuzin tayin,
Toparmanmi qora tanimning oyin,
Firog‘iy, oldingmi dali dunyo, hey!

Tog‘larda o‘larman, falak, dunyo, hey!
Maxtumquli aytar: dali dunyo, hey!

ZAR BO‘LMAS

Tagi past g‘amini yeyish behuda,
Mis har qancha yaltirasa, zar bo‘lmas.
Har qancha ranj chekma, tortar asliga,
Har qarg‘a-quzg‘undan kabutar bo‘lmas.

Har sahroda yotgan mayit bo‘larmi?
Karbalodan o‘zga shahid bo‘larmi?
Har sochin o‘stirgan sayyid bo‘larmi?
Har bir xirqa kiygan qalandar bo‘lmas.

Hamzaman deganlar Hamzaga yetmas,
Etagidan turtsa, sirotdan o‘tmas,
Har jomga qaragan Jamshidga yetmas,
Har boshga toj kiygan Iskandar bo‘lmas.

Abu Tolib[1] bo‘lib chiqar sirotga,
Necha dinga kirmas lot-u Manotga[2],
Ko‘nglim istar Arsh ustida hayotga,
Sahro qamishida hech shakar bo‘lmas.

Maxtumquli, tiling saqla omonda,
Sening ne ishing bor yaxshi-yomonda,
Suxanvarman[3] degan ko‘pdir jahonda,
Hech kim shoh Abbosdek[4] suxanvar bo‘lmas.

G‘ARIBLIK[5]

Falak, sendan bir shikoyat aylayin,
Kundan-kun avj olib keldi g‘ariblik.
Endi arzi holim senga aytayin,
Aqlim olib, bag‘rim tildi g‘ariblik.

Birovdan tilagan iltimos bitmas,
Bu ko‘ngil orzusi hech yerga yetmas,
Holingga rahm etib, boylar qo‘l tutmas,
Yo‘lim o‘zga yurtga soldi g‘ariblik.

Boylik qo‘lning kiri — yuvilsa ketar,
G‘arib uchun ochlik o‘limdan battar,
Bor qo‘lin uzatsa, har yoqqa yetar,
G‘am qonini daryo qildi g‘ariblik.

Teng-to‘shni ko‘rganda to‘xtab qolasan,
Ko‘rmasin deb, yo‘lni chapga solasan,
So‘zing el tinglamas, go‘yo “ola”san,
Qatorda quruq son qildi g‘ariblik.

---

[1] **Abu Tolib** — Muhammad payg‘ambarning amakisi, Hazrat Alining otasi.

[2] **Lot-u Manot** — arablar islomdan avval topingan sanamlar.

[3] **Suxanvar** — fasohat va balog‘at sohibi, adib, shoir.

[4] **Abbos** — safaviylar sulolasiga mansub Eron shohi (1587–1628).

[5] Bu she’r Tolibiyga ham nisbat beriladi.

Boylarning eshigi mahkam, bog'lidir,
Och desang ochilmas, band, ilmoqlidir,
Tiling qisqa mudom, diling dog'lidir,
Nomus-u hayoni oldi g'ariblik.

Maxtumquli, ko'ngli g'amli bo'lmagin,
Sira Haq yodidan g'ofil qolmagin,
Past, baxil boylardan umid qilmagil,
Elga kelgan kulfat bo'ldi g'ariblik.

DARD BILAN

Kel, ko'ngil, boshingni arit g'ubordan,
Yolg'iz qolding g'am uyida dard bilan.
Nomard bilan chiqma uzoq safarga,
Hamroh bo'lgin qat'iyatli mard bilan.

Chin erlar shaytonning yo'lidan ketmas,
Munofiqlar Haqning amrini tutmas,
Iymon bilan shayton bir uyda yotmas,
Murosa qilarmi hech qo'y qurt bilan.

Jon shahrida ajal qushlari yayrar,
Ko'nglimning daryosi mavj urib qaynar,
Gavdor[1] o'g'li to'ng'iz bilan it o'ynar,
Bek bolasi shatranj o'ynar nard bilan.

Chin oshiqda bo'lmas nolish nishoni,
Bilki, ahd-u paymon asrar iymonni,
Agar yaqin kelsa oxir zamoni,
Davo ortar, ont icharlar shart bilan.

---

[1] **Gavdor** — shimoliy Erondagi bir qavm — ular musulmon bo'lmaganliklari uchun to'ng'iz go'shti iste'mol qiladilar.

Firog'iy der: yetti iqlim, cho'l qolar,
Na xon qolar, na bek qolar, qul qolar,
Na tog' qolar, na vodi, na el qolar,
Dajjol chiqar tarso, juhud, kurd bilan[1].

MARD QILDING

Ey Yaratgan, arzim bordir oldingda,
Mardni nomard, nomardlarni mard qilding.
Dunyo iqbolini tutib qo'lingda,
Har tulkidan qoplon qilding, qurt qilding.

Kimdir bozor qilib kirdi do'konga,
Kimni keltirmaydi foniy jahonga,
Kimni emin-erkin qo'yib bo'stonga,
Men miskinga tog' ichida yurt qilding.

Kim namoz o'qimas, kim ro'za tutmas,
Kimlar o'ylab chiqar — tunlari yotmas,
Kimning so'zi dilga hech og'ir botmas,
Kimlarning so'zini malolat qilding.

Odam o'g'li yig'lar — yurakda ohi,
Tinglamas yaqini, Qodir Ollohi,
Kimlargadir taqdir qilding do'zaxni,
Kimlarga jannatni muruvvat qilding.

Maxtumquli aytar dard-u holini,
Hech kishi bilmaydi bu ahvolini,
Kimlarningdir tuproq qilib molini,
Kimlarning tuprog'in zabarjad qilding.

[1] Bu she'r Ma'rufiyga ham nisbat beriladi.

OY-U YILLARGA

Ko‘nglim, bu dunyoni sevma, quvonma,
Aldanma hech yaxshi oy-u yillarga.
Oqil bo‘lsang, har bir so‘zga ishonma,
Ishonganlar o‘tar qo‘ldan-qo‘llarga.

Dunyoning yo‘q ekan ahd-u vafosi,
Qani yigitlarning zavq-u safosi,
Kundan-kunga ortar jabr-u jafosi,
Bir kun solar sizni yomon hollarga.

Bir kun duchor bo‘lib davosiz darda,
Jon ayrilib qolar sarg‘ayib murda,
Yo‘liqarsiz bunda, unda, har yerda
Daftarga yozilgan qil-u qollarga[1].

Kelgan ketar — bunda hech kishi qolmas,
Uyoqqa ketganlar hech qachon kelmas,
O‘tganning-ketganning xabarin bilmas,
G‘ariblik yurtiga ketgan ellarga.

Joningni olarlar bo‘g‘zingdan qistab,
Qora tortar bu payt oy bilan oftob,
Ota o‘g‘li, do‘st yoridan so‘z istab,
Termilib boqarsan sog‘-u so‘llarga.

Nasib bo‘lsa, el-u yurting yig‘ilar,
Hijron o‘ti yuragingga dog‘ solar,
O‘g‘il-qiz, do‘st-yoring uzatib qolar,
Ayrilib, atalgan uzun yo‘llarga.

Bir kun jallod ajal kelsa netarsan,
Iloji yo‘q, nochor bo‘lib ketarsan,
Maxtumquli, sen ham afsus etarsan,
..... bellarga[2].

---

[1] **Qil-u qol** — aytishuv, bahs, munozara, tortishuv, janjal.

[2] Bu she’r matni faqat bir qo‘lyozmada kelgani, buning ustiga, siyohi chaplanib ketgani uchun oxirgi misrani o‘qishning iloji bo‘lmagan.

YIG‘LASHMOQ BORDIR

Nodon ko‘nglim, bu ne shod bo‘lib kulmoq,
Qiyomat g‘amidan yig‘lashmoq bordir.
Olam ahlin sevma oqil bo‘lsang, oh,
Bepoyondir, ayro bo‘lishmoq bordir.

Do‘stlar, bir kun esar ajalning yeli,
Xazon urib, so‘lar umringning guli,
Aziz jonga o‘lim urar changalni,
Aylanib-aylanib ko‘chishmoq bordir.

Yer yutar bir kun bu qaddi dolingni,
Haqdan o‘zga hech kim bilmas holingni,
Yugurib-yelib to‘plagan molingni,
Bir-bir hisob etib, berishmoq bordir.

Boqiy yurtga el kuzatar doimo,
Yetti qadamdan so‘ng qolasan tanho,
Rabbing, nabing, dining so‘rar shu asno,
Toqat etib, javob olishmoq bordir.

Manmanlikdir odamzodning xayoli,
Erta ma’lum bo‘lar barchaning holi,
Taroziga qo‘yilganda a’moli,
Savob-gunoh ajrim qilishmoq bordir.

Qachonki qiyomat fursati kelar,
Ins-u jins-u barcha jondor tirilar,
Qul, xoja, fil, pashsha barobar bo‘lar,
Shoh oldida hisob olishmoq bordir.

Do‘stlar, bordir sirot degan bir ko‘prik,
Ming yillik yo‘l bo‘lar boshdan-oyoq tik,
Qilichdan tez, qildan ingichkadir lek,
Ming yil tushib, ming yil chiqishmoq bordir.

Maxtumquli, shu xavflardan o'tdingmi?
Iymon topib, murodingga yetdingmi?
Yoki jannat ichra makon tutdingmi?
Titrab-qaqshab, hayron bo'lishmoq bordir.

BO'LMASDAN BURUN

Ey ko'ngil, bedor bo'l bemor bo'lmasdan burun,
Bu aziz joning to'shakda xor bo'lmasdan burun,
Ko'zlaringga keng bu olam tor bo'lmasdan burun,
Jon ajalning dastidan abgor bo'lmasdan burun,
Jismi ozoding lahadda zor bo'lmasdan burun.

Qoldirib yolg'iz tanangni qabr ichiga ul zamon,
Qavm-u qardoshing bari qaytib kelib cheksa fig'on,
Ne o'tarin sendan ammo bilmagay hech kim ayon,
Bas, bu dam qil fikrini — ul uy senga bo'lmay makon,
Undagi holat senga duchor bo'lmasdan burun.

Bir o'zingdan o'zga bilmas undagi ahvolingi,
Barchadan qo'ling yuvib ketgandagi u holingi,
Kim bilar ikki farishta birla qil-u qolingi,
Aylagay qolganlaring toroj mulki molingi,
Qil tafakkur shunday ish izhor bo'lmasdan burun.

Ne qilarsan qabr ichinda bo'lsang otashga duchor,
Kelsalar ozoda jismingni yemoqqa mo'r-u mor[1],
Qilmasin, desang, ular poymol seni, zor-u nizor[2],
Yaxshilikni ayla hamroh to qo'lingda ixtiyor,
To qaro tuproq aro nochor bo'lmasdan burun.

Bir nafas andisha qil, boshingda savdo ko'pdir,
Mahshar bozori ichra sho'r-u g'avg'o ko'pdir,

[1] **Mo'r-u mor** — chumoli-yu ilon.

[2] **Nizor** — ozg'in, sust, zaif.

Tushgali jannatga kimlarda muammo ko‘pdir,
Qilmishin qilsa hisob, sharmanda, rasvo ko‘pdir,
Yig‘la bul kun holating dushvor[1] bo‘lmasdan burun.

Qon to‘kib ko‘zdan, qiyomat qo‘rquvini yod et,
Tur sahar, eslab Xudoni, uyquni barbod et,
Oxirat ma’vosini ehson bilan obod et,
Gar qo‘lingdan kelsa, bir g‘amgin ko‘ngilni shod et,
To qiyomatda diling afgor[2] bo‘lmasdan burun.

Yig‘labon tonglarda rihlat[3] etgali tayyor bo‘l,
Qoch yomonlardan hamisha, yaxshilarga yor bo‘l,
Foniy[4] aylab o‘zligingni[5], voqifi asror[6] bo‘l,
G‘aflat uyqusidan och ko‘zni, mudom hushyor bo‘l,
Ko‘zlaring mahshar kuni xunbor bo‘lmasdan burun.

Ixtiyoringni olib, shayton bilan nafs-u havo,
Ikkisi boshingga soldi hech tuganmas mojaro,
Aylamassan bir nafas andishayi ro‘zi jazo,
Qolgusi har qancha do‘st tutgan bilan dor ul-fano,
Xayr qil Sohib unga ag‘yor[7] bo‘lmasdan burun.

Nogahon yetsa ajal, bermas senga bir dam omon,
Bu shirin jon achchig‘idan aylagaysan oh-fig‘on,
Mol-u mulk joningga oro kirmas ul dam begumon,
To hayoting ichra hosil qil rizoyi ul makon,
Har zamon faryod-u otash yor bo‘lmasdan burun.

---

[1] **Dushvor** — qiyin, og‘ir, mushkul.

[2] **Afgor** — majruh, g‘amgin.

[3] **Rihlat** — ko‘chish, o‘lish.

[4] **Foniy** — yo‘qolish, mahv bo‘lish. Tasavvufda moddiy boqliqliklardan butkul qutulib, faqat Xudo yodi bilan yashash, Xudodan o‘zgaga ehtiyojsizlik.

[5] **O‘zlik** — insonning nafs va dunyo bilan bog‘liqligi. Ular har lahza kishiga o‘zligini eslatib, uni Xudo yo‘lidan chalg‘itadi.

[6] **Asror** — sirlar.

[7] **Ag‘yor** — begonalar, raqiblar, dushmanlar.

Qil tafakkurkim, sening xesh-u taboring[1] qaydadir,
Har bir ish ichra sening hamroz-u[2] yoring qaydadir,
Sirlasharga sen bilan joni nisoring qaydadir,
Barchasi bo'lgan o'limdan dilfigoring[3] qaydadir,
O'yla senga shu kabi kirdor[4] bo'lmasdan burun.

Boshqalardek bo'lma, oxirat ishini soz qil,
Istabon ahli safoni[5] o'zingga hamroz qil,
Ahli dilga[6] ergashib, hirs-u havoni oz qil,
Ahli dunyodan baland ayla o'zing, mumtoz[7] qil,
G'am yuki to senga bemiqdor bo'lmasdan burun.

Kech yomon fe'lingdan-u doim pushaymon aylagil,
Ham qiyomatni etib yod, ko'zni giryon aylagil,
Chok etib yoqangni, o'tli oh-u afg'on aylagil,
E'tiboringga munosib xayr-u ehson aylagil,
Qilganing mahshar aro izhor bo'lmasdan burun.

Bormi isyon-u gunoh ahlida mendek, yo Iloh?!
Doimo olamda qilgan ishlarim barcha gunoh,
Men gunohlar dengizida g'arq-u holim yomon, oh,
Ikki olamda biroq bildim seni pusht-u panoh,
Rahm et jon toki g'arqi nor bo'lmasdan burun.

Voh, meni qilmish nihoyatda jaholat jomi mast,
To oyog'imga havoyi nafs solibdi band-u bast[8],
Bir but oldida qadimni aylabon sajdaga past,
Qutqarib undan meni, qilgil O'zingga payvast,
Belda belbog' o'rnida zunnor bo'lmasdan burun.

---

[1] **Xesh-u tabor** — qavm-u qarindosh, yaqin kishilar.

[2] **Hamroz** — sirdosh.

[3] **Dilfigor (Dilafgor)** — dili xasta, ko'ngli vayron.

[4] **Kirdor** — ish, amal, odat.

[5] **Ahli safo** — ko'ngli sof, pokiza kishilar, ilohiy olamdan bahra oluvchilar.

[6] **Ahli dil** — ma'rifat ahli, oriflar.

[7] **Mumtoz** — 1) tanlangan, saralangan; 2) sarbaland.

[8] **Band-u bast** — bog'lash va zanjir solish.

Lutf etib, bergil,
Xudoyo, yaxshilar ichra vatan,
To tuzay bir dam ular birla muborak anjuman,
Qilsalar qutlug‘ nafas mendan ketarmi mouman[1],
Nafs bo‘yniga mudom tushsin shikan[2] uzra shikan,
Hamnafas toki menga kuffor bo‘lmasdan burun.

Topmadim aslo haqiqat lazzatidan choshni[3],
Qo‘shmadim hech bir kasofat ahli birlan boshni,
Tog‘i hasratdan olib, ko‘ksimga urmay toshni,
El bilan jang-u jadal qilgum yengib bardoshni,
Ber madad mendan unga ozor bo‘lmasdan burun.

Qildilar nafs-u havo behad menga makr-u firib,
Kim nazar qilsam o‘zimga, tushmish ahvolim ajib,
Ayla do‘stingdan shafoatni menga, yo Rab, nasib,
Qil duo, Maxtumquli, etsin duongni mustajib[4]
Erta qilgan ishlarim oshkor bo‘lmasdan burun.

OSH TOPMASSAN

Tug‘ilsang och xonadonda,
Yeyish uchun osh topmassan.
Moling sochsang har tomonga,
Taningni ko‘zdan yopmassan.

Dedim achib jon-u jigar,
Charchadim ko‘p so‘zlab magar,
Go‘ro‘g‘lidek ot sakratar —
Bo‘lsang-da, har dam qo‘pmassan.

---

[1] **Mouman** — manmanlik, kibr-u g‘urur.

[2] **Shikan** — shikast, siniqlik.

[3] **Choshni** — bahra.

[4] **Mustajib (Mustajob)** — qabul bo‘lish.

O‘tinchim bor, nazar solsang,
Arzim bordir, so‘zim olsang,
Bir otadan yolg‘iz qolsang,
Hech yerda oyoq tepmassan.

Maxtumquli aytib o‘tar,
Zuryodsizlik jafo etar,
Falak quvib, har dam yetar,
Iziga durlar sepmassan.

TARK AYLAMA BU MAKONNI

Ey tug‘ishganim, Abdulla,
Tark aylama bu makonni.
Quvvat bersin senga Olloh,
Hijronga solmagil jonni.

Ketar bo‘lsang bu vatandan,
Nishon olgil shirin jondan,
O‘tar bo‘lsang bu ummondan,
Qo‘llar balki Nuhi nabi.

Men bunda yolg‘iz qolaram,
Kulfatga hamroh bo‘laram,
Har dam eslab, qon yig‘laram,
Qiblam — otam Ozodimni.

Bo‘z tumanli baland tog‘lar,
O‘tar bo‘ldi ajab chog‘lar,
Behisob mevali bog‘lar,
Pinhon qilibsan bog‘bonni.

Falak ne ish boshga soldi,
Jismimdan jonimni oldi.
Ulug‘ ellar dardga qoldi,
Xudoyo, yubor Luqmonni!

Uy ichi zoriga to‘zmay[1],
Bu jahonni yelday kezmay,
Ummon ichra kirib suzmay,
Beqaror qildim Jayhunni.

Og‘am, inim, ul qardoshim,
O‘tar bo‘ldi yolg‘iz boshim,
G‘aflat mening do‘st, sirdoshim,
Zindon qilding bu jahonni.

Qani, hamrohim yoronlar,
Hindiston sari yurganlar,
Tengsiz jamolni ko‘rganlar,
Ko‘rdingizmi Menglixonni?

O‘tinch aylab qolar bo‘ldim,
Jonga jafo solar bo‘ldim,
Ta’na ichra so‘lar bo‘ldim,
So‘ldim go‘yo kuz xazoni.

Yig‘lab, to‘kdim qonim nohaq,
Boshimdan ketmadi firoq,
Bu so‘zimga bir ishonch yo‘q,
Yodga olayin Xudoni.

Bosh o‘rniga chiqib oyoq,
Yog‘ bo‘libdi qum-u tuproq,
Kimga ko‘nglim yoray bu chog‘
Aytib bu dardi pinhonni.

Ko‘rmadim men pok bir dargoh,
Qildim garchi ko‘p xayr, oh,
Sehrgarga bo‘lib hamroh,
Kezib chiqdim Hindistonni.

---

[1] **To‘zmoq** — 1) ayamaslik, rahm etmaslik; 2) sabr, toqat, chidam.

Har luqmadan men berdim boj,
Tulki, shaqal, sher bo'lmish, qoch,
Mulla ahli ayiqqa esh,
Unutibdilar Qur'onni.

So'z aytaman kalom so'rsang,
O't tutashar yaqin tursang,
Joy so'rab bir oq uy borsang,
Olmas sira ham mehmonni.

Har qanchaki suzsang ummon,
Yoinki charx ursang jahon,
Bilmaydirsan ketgung qachon
To kelguncha Haq paymoni.

Kalom keltirdim tilimga,
Zunnor bog'labman belimga,
Maxtumquli der: elimga
Bag'ishlabman bir dostonni.

SIZNINGDIR

Sur, ey Fath sardor o'g'li, keldi vaqt,
Yangi bu davroni oliy sizningdir!
Ko'hna, xor davlatga yuz o'girar baxt,
Buyuklik, sardorlik yo'li sizningdir!

Ilyos kabi yomg'irlarda, sellarda,
Kovus kabi tuman tushgan tog'larda,
Boy shaharlar, Xizr kezgan cho'llarda,
Xudo bergan dunyo moli sizningdir!

Ehsoning band etar bilar-bilmasni,
Iqboling yo'q etar to'g'ri kelmasni,
Do'kon koni — Jahongirning olmosi,
Badaxshon ma'dani — la'li sizningdir!

Qahringga duch kelgan qumga qorishar,
Lutfingga erishgan Arshga yetishar,
Buyuklik maqomi sizga yarashar,
Faridunning baxt-iqboli sizningdir!

Samarqand taxtida turgan yoylarga,
Mahdiy kabi bosh urmagan poylarga,
Sulaymondek so'zing o'tar suvlarga,
Iskandardek daryo soli sizningdir!

Sharq sari yuz burib, chiqsang Xuroson,
Avval kurd sizningdir, so'ngra Yazirxon,
Otingiz ostida Iroq, Isfahon,
Dog'istonning sarkash eli sizningdir!

So'zim yerda qolmas, gapirgim kelar,
Nazarim kimyodir, mis oltin bo'lar,
Forsga tobe davlat sizga evrilar,
Endi bu dunyoning mayli sizningdir.

Eranlar jam bo'lib, boshing silarlar,
Xizr, Ilyos jilovingda yelarlar,
O'n bir imom qo'lingizdan olarlar,
Jilovizda imom Ali sizningdir.

Maxtumquli aytar, Rumdek uyg'onmas,
Iskandar qadamdir, egilmas, sinmas,
Tog' kabi tebranmas, daryodek do'nmas,
Bu yovmut-go'klanning eli sizningdir.

XONING QOLDI

Odam o'g'li, jon shahrida
Izla, ista, xoning qoldi.
Sen yalang'och-u jahonda,
Foniyda, boq, to'ning qoldi.

Gul shahriga tushdi talon,
Vayron bo'ldi ko'shk-u qal'ang,
Boshing ochiq, oyoq yalang,
Falak, qo'lda ko'ning qoldi.

Baland tog'lar, men sirdoshing,
Yolg'izman deb to'kma yoshing,
Ko'targil mo'ysafid boshing,
Boshingda tumaning qoldi.

O'yinchidir, ko'ring, falak,
O'yin bilan qilar halak,
Noz etadi ahli malak,
So'zlagil, zaboning qoldi.

Tuzoq qo'yar yakka jonga,
Ishonmagin hech jahonga,
O'ylarsan yodgor insonga
Beqiyos suxaning qoldi.

Naylay, bizdan uzoq ketding,
Qaysi joyda maskan tutding,
Miskinlarga jabr etding,
Kofirsan, iymoning qoldi.

Odam o'g'li, gapir so'zing,
Bog'liqdir, och ikki ko'zing,
Qora bo'ldi qizil yuzing,
Magar sening joning qoldi.

Falak aytar: dor ul-omon,
Qo'limdadir kelgan zamon,
Taxting vayron, ey Sulaymon,
Yuritgan farmoning qoldi.

G'aflat ichra yotar bo'lding,
G'am loyiga botar bo'lding,

Ko‘rgil, endi o‘tar bo‘lding,
Ne ajab, davroning qoldi.

Ketar bo‘lding oldin boshlab,
Qoldi yaqinlar ko‘z yoshlab,
Maxtumquli, bag‘rin toshlab,
Ortingda toboning qoldi.

MEHRIBONIM QAYDASAN?[1]

Vodarig‘o[2], naylaram men, mehribonim qaydasan?
Ikki dunyoda anis, nuri imonim qaydasan?
Ko‘zlarimning ravshani, nurli jahonim qaydasan?
Bog‘-chamanni naylayin, mohitobonim qaydasan?
Volidam[3], Makka-Madinam, mehribonim qaydasan?

Shum falakning zulmidan chiqmish jasaddan joni, hey,
Ketdi ul shahri bihishtga, ayrilib iymoni, hey,
Qolmadi tog‘lar boshida yomg‘ir-u tumoni, hey,
Turdi nolishdan bu kun ul quritib ummonni, hey,
Volidam, Makka-Madinam, mehribonim qaydasan?

Rostin aytsam, ko‘rmadim ul boqi(y)dan gulday yuzing,
Der: chirog‘im, ko‘rmadim, yosh etib ul ikki ko‘zing,
Deb Firog‘iy-u Firog‘iy, unutibon ul so‘zing,
Berdi ul tuproq aro beixtiyor go‘rga o‘zing,
Volidam, Makka-Madinam, mehribonim, qaydasan?

Ayro tushmas kaklik cho‘lda qo‘yibon bolasin,
Yig‘lagay bulbul mudom olamga yoyib nolasin,
Gar ulog‘i oq kiyikning chiqsa qo‘ldan naylasin,
Shum falakda yo‘q uyat, soldi-ku hijron hiylasin,
Volidam, Makka-Madinam, mehribonim qaydasan?

[1] Bu shoirning onasi O‘rozgulning vafoti munosabati bilan yozgan marsiyasi.

[2] **Vodarig‘o** — undov so‘z: eh afsus, hay attang.

[3] **Volida** — ona.

Bo‘lmasa el-yurt, shohlar taxtdan tushgay-ketar,
Solsang o‘t ichra daraxtni, kul bo‘lar, kuygay-ketar,
Kovlasang ari inini, to‘planib, qochgay-ketar,
Bo‘ri-da bolasi o‘lsa, na’ralar urgay-ketar,
Volidam, Makka-Madinam, mehribonim qaydasan?

To‘plagaylar mollarini birni aylab sarbon,
Ayrilar moldan kishi uyquda yotsa begumon,
Bo‘rining qo‘liga tushsa, bittasi qolmas omon,
Tushdi boshimga, azizlar, shundayin oxirzamon,
Volidam, Makka-Madinam, mehribonim qaydasan?

El-uluslar zor etib, qildi o‘zini xor-zor,
Aylanib qish fasliga ketdi butun fasli bahor,
Quydi yomg‘irni bulut holimga yig‘lab shashqator,
To‘ldirib yer yuzini ummon kabi sellar oqar,
Volidam, Makka-Madinam, mehribonim qaydasan?

Kirmisham boqqa ravon, ko‘rdimki, so‘lmish gullarim,
Tig‘ tegmay, oh chekib o‘lmishki ul bulbullarim,
Sohilidan toshdi daryo, oqdi dunyo sellarim,
Yig‘lagay oyim, kunim, motam tutibon ellarim,
Volidam, Makka-Madinam, mehribonim qaydasan?

Mard yigitning qo‘lidan tushdi bugun, boqqil, qilich,
Bas, uzaymas, yetmagay yerda, bunga yo‘qdir iloj,
To‘kdi bargin daf’atan motam tutib sarvi og‘och,
Yig‘lagay qavm-u qarindosh, tog‘a, singil — xam bosh,
Volidam, Makka-Madinam, mehribonim qaydasan?

Ayrilib Ka’bamdan, qo‘ydim Firog‘iy otimi,
Tushmagay el-yurt, xazina zarra bo‘lsin yodima,
Ko‘rdi o‘g‘ri ushbu kun, qo‘l urdi gavhar zotima,
Toqat etmay eridi tog‘larni toshi(ng) o‘tima,
Volidam, Makka-Madinam, mehribonim qaydasan?

ISTAMAM

Gul yuzingga parvonaman, o'zga rayhon istamam,
Boqibon mehringdan to'ydim, bog'-u bo'ston istamam,
Yuzing o'zi oy-u quyosh, mohitobon istamam,
Bir qiyo boqsang kifoya, zavqi davron istamam,
Zulfingga band aylading, yor, o'zga zindon istamam.

Qora zulfli yorim mudom savdo qilar jon bilan,
Chaqirdi jallodlarin — qo'rqar emish qon bilan,
Dedim: "Ey, qon naylasin, qilma hamroh hijron bilan,
Ayladim pinhonim oshkor, quvdi u farmon bilan,
Dedim: "Ey do'st, ko'rdim yuzing, o'zga armon istamam".

Jon beray deb ishqida Majnun bo'libon kezaman,
Tanim — daftar, qo'lim — qalam, yor vasfini yozaman,
Sohilini ko'rmayin ishq dengizida suzaman,
Sen uchun Simnor[1] bo'lib tilla qasrlar quraman,
Adolatli o'zga hokim, xon-u sulton istamam.

Zuhal[2] kelar xayolimga boqsam qora ko'zlarga,
Mirrix meni asir aylar boqsam go'zal yuzlarga,
Mushtariy[3] g'ofil o'tirmish hayron bo'lib so'zlarga,
Zuhra, Nozlari-yu Humoy hayratdadir sizlarga,
Shunday adolatli shohsan, Qizil Arslon[4] istamam.

Shoh bo'lib farmon beribsan, bildimki, "Haft paykar"da,
Bahrom Go'rga taxt unutib, arz etib Iskandarga,
Tug' ko'tarib qilding urush, qo'l uribsan shamshirga,
Shunchalik zolim bo'larmi, qora ko'zli dilbara,
Qo'rqarman men qomatingdan, jazo — kamon istamam.

---

[1] **Simnor** — Nizomiyning "Haft paykar" ("Yetti go'zal") dostoniga ko'ra, Bahromi Go'rning Xavarnaq qasrini qurgan mohir usta.

[2] **Zuhal** — Saturn.

[3] **Mushtariy** — Yupiter.

[4] **Qizil Arslon** — Ozarbayjondagi otabeklar davlatining hukmdori (1187–1191).

Chiqdi Zubayda oldimdan, oh, naylay, baxtim qora,
Qo'lim bog'lab zulfi bilan, topshirarlar ajdara,
Tortadirsan komingga, zolim bo'libsan, dilbar-a,
Zulm qilish yarashmaydi seningdek payg'ambara,
Solding-yey bedavo dardga, endi darmon istamam.

Ismim emish Firog'iy, motam tutarmish ellarim,
So'zlaringdan xush bo'lib, lol bo'ldi, ey do'st, tillarim,
Sen sayr etib kirding, bog'da qurbon bo'ldi gullarim,
Band bo'libdi ko'z yoshima, naylayki, oqmas sellarim,
Qo'yning ichra bitmish bo'ston, men lomakon istamam.

BOR MENING

Ey azizlar, ne qilay, kuygan jonim bor mening,
Bo'ldi bozori xarob, katta do'konim bor mening,
Do'zax o'tidan batar dardi nihonim bor mening,
Ishq aro parvonadek kuygan nishonim bor mening,
Ne qilay sarson kezib, Hindistonim bor mening.

Gul yuzini ko'rsa, oftob-u oy undan uyalur,
Bog' aro kirsa agar, yuzi nuridan gul so'lur,
Qahr ila solsa nazar, jumla jahon vayron bo'lur,
Jon kirib o'likka, badbaxt kishilar baxtga to'lur,
Ne qilaykim, ul arab til — chin zabonim bor mening.

Keldi bulut, qildi jang yomg'iri osmon soyida,
Bo'ldi paydo jannat-u Eram jahon saroyida,
Bo'ldi sayr aylab kelar ayni ramazon oyida,
Do'ndi do'zaxlar bihishtga tavba aylab joyida,
Shu zaminning ustida bir lomakonim bor mening.

Jumla olam ishqi birlan o'rtanib, o'tda pishar,
Yuziga mushtoq bo'lib, yulduzlar yerga tushar,
Sarvlar gulga kirib, ko'z quvnatib saf tutishar,

Yuzi uzra hind-u xolga shaydodir bani bashar,
Ahli olamdan go'zalroq jononim bor mening.

Termilib men bir qafasda, ishqiga parvonaman,
Yetmadim bulbul bo'lib, mavzun o'shal rayhona man,
Bosh solib, qildim nazar bu ishqi pinhona man,
O'rtanib ishqida kul bo'lgan notavona men,
Men bihishtni istamam, bihisht makonim bor mening.

Ko'rganning ko'zi to'ymas, ko'rmagan armon chekar,
Yuzingga moyil bo'libman, ohlarim osmon chiqar,
Bog'iga kirsam agar, oldimdan rayhon chiqar,
Qora zulfidan sanamning zar sochuvchi kon chiqar,
Ne Zarafshon menga, Nil otlig' ummonim bor mening.

Cho'lga chiqsa ov qilay deb, qolmagay bitta marol[1],
Zulfining tori bilan band aylamishdir bu ne hol,
Ziqnalar tanti bo'lib, sadqa etibmish mulk-u mol,
Bilmadim, jonimdami mening o'sha sohibjamol,
Yuzi hajrida mudom oh-u fig'onim bor mening.

Zorima tavba qilibdi qo'shni, qardosh ellarim,
To'ldirib yerni esar kelib Xazardan yellarim,
Bulbuliga intizordir bog' ichinda gullarim,
Aytadir Maxtumquli novvot emishdir tillarim,
Arsh uza tutgan makon zo'r dostonim bor mening.

ILOJSIZ

Ey azizlar qanday zamon bo'libdi,
Odamlar ko'paydi hunarsiz, ishsiz.
Bu dunyoga fasod ishlar to'libdi,
Molni bosib yotar oxirsiz-boshsiz.

[1] **Marol** — jayron, bug'u.

Miroblari ariq bo‘yin surarlar,
Dehqonlari quruq yerda turarlar,
Soqchilari ovchi itdek hurarlar,
Ot boqqan yonidan kechma tovushsiz.

Yigit o‘zin tog‘-u toshga teng etar,
Qoraqushdek axlat uzra jang etar,
Ko‘ylagi tor, ishtonini keng etar,
Eri chirik telpak, xotini boshsiz.

Boylar yashirinar past-u balandda,
Kulib boqmas uyga mehmon kelganda,
Ajal yetib, umring bitib o‘lganda,
Moli egasizdir, o‘ligi oshsiz.

Boylarida saxovat yo‘q, berim yo‘q,
Yigitlarda salobat yo‘q, ko‘rim yo‘q,
Ayollarda uyat, qizda sharm yo‘q,
Kelinlari yurmas sira o‘ynashsiz.

So‘zing yoqmas, mullasiga ber desang,
Ko‘zi ochilar, qozisiga sher desang,
Qo‘rqoqqa o‘ch olish uchun yur desang,
Nayzasi tig‘sizdir, qini qilichsiz.

So‘fiman deb, namozshomdan yotarlar,
Choshgoh turib, avliyolik sotarlar,
Kim ko‘rinsa, so‘fiman deb o‘tarlar,
Tahorati qum, joynamoz yuvishsiz.

Beklar o‘rtasida yo‘q ittifoqi,
Yomonning og‘zida bo‘lmadi bog‘i,
El elga dushman-u uy-uyga yog‘iy[1],
Olam molin bosib, kim bo‘lsa kuchsiz.

[1] **Yog‘iy** — yov, dushman.

Oqsoqoli xuddi shayton holida,
Ko‘zi yetim, bevalarning molida,
Uning izzat-hurmati yo‘q elida,
Oti yemsiz ketar, o‘zi so‘yishsiz.

Maxtumquli, hech qaysidan bo‘lmading,
Yaxshi qaysi, yomon qaysi bilmading,
Qarib-chirisang-da, sira o‘lmading,
O‘tiribsan bir bechora — ilojsiz.

NISHON QOLMADI

Bir so‘zim bor, aytsam shohga, sultonga,
El-yurtda hurmatdan nishon qolmadi.
Davlatli boylarning dasturxonidan,
Noz-ne’mat tortilib, mehmon qolmadi.

G‘iybatchilar hurmat-e’tibor tutdi,
Sudxo‘rlarning ishi taraqqiy etdi,
Xudodan bexabar qo‘shin uzatdi,
Xudo degan mardi maydon qolmadi.

Tuhmat hamma yerda bo‘ldi mo‘tabar,
Dunyoni boqiy deb, to‘pladi ko‘p zar,
Aytib o‘tib ketdi ul xayr ul-bashar,
Xudodan qo‘rquvchi jonon qolmadi.

Ot chiqardi faqat boy bilan baxil,
Fosiqlar bir umr fisq bilan mashg‘ul,
Dunyodan qutqardi o‘zin ahli dil,
Dardlilar dardiga darmon qolmadi.

Xaloyiq, barchasi haromxo‘r bo‘ldi,
Olimlar ilmdan kechdi, ko‘r bo‘ldi,
Sipohiy barisi poraxo‘r bo‘ldi,
Shoh oldida odil devon qolmadi.

Mufti o‘z so‘ziga qilmadi amal,
Shariat ishiga ayladi hayal,
Xalq ichiga tushdi hirs otli kasal,
Haqi halol biror inson qolmadi.

Qiz-u juvonlarda qolmadi hayo,
Yerdan ko‘karmadi barakat-giyoh,
Darveshlar toatin ayladi riyo,
Yurtda karomatli eshon qolmadi.

Maxtumquli aytar, mudom yo‘l tani,
Avvalgi hamsuhbat do‘stlaring qani?
Obro‘ bilan topshiraver bu jonni,
Bu dunyoga kelgan yoron qolmadi.

QULING BO‘LDIM

Yo‘qdan bor etding meni, men unda quling bo‘ldim,
“Alastu bi Rabbikum”[1] deganda quling bo‘ldim,
Iroda diyorida — adamda[2] quling bo‘ldim,
U dunyo-yu bu dunyo — har qayda quling bo‘ldim,
Bir siqim xokka berding jon, zinda[3] quling bo‘ldim,
Jonni tandan ayirsang, bir murda quling bo‘ldim,
Har hafta, har soatda har damda quling bo‘ldim,
Har yilda-yu har oyda, har kunda quling bo‘ldim,
Agar ishratda yurdim, gar g‘amda quling bo‘ldim,
Xudoyo, men ne osiy — sharmanda quling bo‘ldim?!

Bu o‘tkinchi dunyoda yo‘q men kabi bir badkor[4],
O‘zingga ayon bari — ne hojat qilish izhor,

---

[1] **Alastu bi Rabbikum** — Qur’oni karimning “A’rof” surasi 172-oyatiga ishora: Men sizlarning Parvardigoringiz emasmanmi? Ya’ni azalda — Olloh taolo olamni yaratishdan oldin insonlarning ruhlaridan va’da olingan kun.

[2] **Adam** — yo‘qlik.

[3] **Zinda** — tirik.

[4] **Badkor** — yomon ishlar qiluvchi, yovuz niyatli, buzuq.

Yaxshidan uzoq tushib, yomon bilan bo'ldim yor,
Bormi gunoh dardiga men kabi bir giriftor,
Dargohingga kelibman gunoh bilan, ey G'affor,
Holim bayon qilishga yuzim yo'q, men sharmisor,
Asramasang sen O'zing, kimdir menga madadkor,
Sening kabi G'affor bor, jahonda ne g'amim bor,
Na yuragimda orom, na ko'nglim ichra qaror,
Xudoyo, men ne osiy — sharmanda quling bo'ldim?!

Go'yoki bir sarbonman karvon izin yitirgan,
Yurish-to'xtashni bilmay yo'l ustida o'tirgan,
Yo Rab, bo'lgaymi meni bir manzilga yetirgan[1],
Boshim yo'lida ko'rsin bu ishlarni bitirgan,
Men emasman Xojamga qulluq bajo ketirgan,
O'zimasmi bandani uyg'otgani yotirgan[2],
Men suzishni bilmasman — chuqur daryo botirgan,
Tanob otarmi aslo bir sohilda o'tirgan,
Yo'q men kabi jahonda g'aflatda umr kechirgan,
Xudoyo, men ne osiy — sharmanda quling bo'ldim?!

Dunyo g'ami bilan, boq, bo'ldi jigar-bag'rim qon,
Oxiratni unutdim — yeldim, yugurdim har yon,
Bir dardga chalinibman, u ko'ksim ichra pinhon,
Topilgaymi qidirsam bu dardimga bir darmon,
Bilgan davosin aytdi har bandayi musulmon,
Bildim, topmas davosin yuz yil urinsa Luqmon,
Tilim bormas tilashga, ko'ngil yuz ming parishon,
Xudoyo, muruvvat qil — hasrat bilan bordi jon,
Barcha mushkul ishlarim Sen o'zing ayla oson,
Xudoyo, men ne osiy — sharmanda quling bo'ldim?!

Maxtumquli, xatodan o'zga qo'ldan ish kelmas,
Botdim gunoh chohiga — yurak yonib, jo'sh kelmas,
Savob yo'qdir xayolda, gunoh dildan tash kelmas,

[1] **Yetirgan** — yetkazgan.

[2] **Yotirgan** — yotqizgan.

Dunyoga mast bo'libman, aql ketar, hush kelmas,
Qo'rqarman ul dargohga nola qilsam, xush kelmas,
Bag'rim shunchalik qattiq — unga teng hech tosh kelmas,
Toshdan battar qotibman, ko'zlaridan yosh kelmas,
Ijobat nishoniga o'tinch o'qim duch kelmas,
Ixlos bilan tilangan dargohidan bo'sh kelmas,
Xudoyo, men ne osiy — sharmanda quling bo'ldim?!

YER UNDADIR

Barcha insonman degay, inson bo'lur yer undadir,
Miskin oti birla o't, sulton bo'lur yer undadir,
Toat-u ro'za, namoz qilgan bo'lur yer undadir,
Shod-u xurram bo'lmagil, hayron bo'lur yer undadir,
Kimga jannat, kimga nor farmon bo'lur yer undadir.

Qo'y bu dunyoni, u dunyo ishini ayla havas,
Qil tavakkul Tangriga, zikrida bo'lgil har nafas,
Bunda o'l, unda tiril, ushbu tiriklikdir abas,
Oqil odam oxirat dardidan o'zga g'am yemas,
G'am yeganlar ochilib, xandon bo'lur yer undadir.

Komil inson qo'lini tut, zikrida bo'l har zamon,
Bo'lmasa ranj-u mashaqqatlar chekar bu jism-u jon,
Kim uqubat ichra qolgay, kimlar bo'lgay omon,
Kimlari shod, kimlari ko'zida yosh, bag'rida qon,
Fazli bo'lsa, mushkul ish oson bo'lur yer undadir.

Oqibat bo'lgay fano olamda har ins-u pari,
Kim qolar dunyoda — o'tdi-ku Rasuldek sarvari,
Rustami doston qani, qayda Xudoning Haydari,
Mustafoga yig'lashib mahshar kuni ummatlari,
"Kel, shafoat qil!" — deya giryon bo'lur yer undadir.

Ko'p xato ish aylading, chekding jafolar shu qadar,
Mol-u mulking hech qachon qilmas vafo — sen bexabar,

Qil tahorat yangidan, so‘ng ayla Qur’onga nazar,
Iltijo aylab Xudoga, qil duolar har sahar,
Dardingga xizmat ila darmon bo‘lur yer undadir.

Zikr ila xilvatda bo‘l, eldan tamalik istama,
Adl etar shoh undadir, sen bunda shohlik istama,
Kam tut o‘zingni, biroq, ortiq baholik istama,
Bu jahon foniy erur, mangu panohlik istama,
Har nekim qimmatbaho, arzon bo‘lur yer undadir.

Bilmading insof, xayolingga uni keltirmading,
Ajdahodek ochib og‘iz, nafsingni o‘ldirmading,
Bir dam o‘ylab oxiratni, jimgina o‘ltirmading,
Xavfi ko‘p, qilding gunohni, kimsaga bildirmading,
Aybing ochib, el aro doston bo‘lur yer undadir.

Bir kun o‘lim ovchisining qoning ichmoqdir ishi,
Xonumoning kuydirib, tuproqqa sochmoqdir ishi,
Bir nafas manzil tutib, bir damda qochmoqdir ishi,
G‘aflatdan bu hayotda ko‘zing ochmoqdir ishi,
O‘tkazib, g‘aflatda umr, armon bo‘lur yer undadir.

Yurma shod, qutqar o‘zingni, dema har kundir bu kun,
Eng ulug‘ kun dedilar, qo‘rquvi ko‘p kundir bu kun,
Oziq ol yo‘ldosh bilan, mardlar yo‘lida bo‘l bu kun,
Sayr etib jannatda kim, do‘zax ichida kim zabun,
Dini botil kufr eli yakson bo‘lur yer undadir.

DOSTON AYLADIM

Bilmayin o‘tgan umrim zor-u giryon ayladim,
Shafqat istab hajringda lutfing armon ayladim.

Ust-boshimga qarasam, kafandan hech farqi yo‘q,
Yo‘qsa sovutday ko‘p vaqt uni qalqon ayladim.

Ko‘ring kezib jahonni: yo‘q men kabi ovora,
Ko‘zlarimning yoshini misli to‘fon ayladim.

Uyalsam-da el-yurtdan juldur ust-boshim uchun,
Telba ko‘nglimni dunyo uzra sulton ayladim.

Agar to‘ng‘iz otilib, ko‘rsatmasa o‘zini,
Tulki kabi bir ojiz hayvon gumon ayladim.

Qarisa-da og‘zi qon bo‘ri qavmin baribir,
Yotgan yerida ovlar — ko‘rib hayron ayladim.

Sher kelsa tulki, shaqal bilmas ne ish qilganin,
Dunyoda sher ko‘rmagan ko‘zni polvon ayladim.

Arg‘umoqdan o‘zini kam sanamas eshak ham,
Ot yo‘g‘ida eshakni ot deb shoyon ayladim.

Mardni ko‘rsa nomardlar tuproq sochar boshiga,
Nomard ahlin xotin deb, elga e’lon ayladim.

Mard ahlini ko‘rsa ko‘z, qolmas uning armoni,
Mard ahli sultonini men Chovdurxon ayladim.

Oshiq bo‘ldim Yusufdek, ishqingda etib parvoz,
Zulayxodek yorimni jon ichra jon ayladim.

Yusuf kabi yetmayin maqsadimga dunyoda,
Taxt o‘rnida yongan jon bilan armon ayladim.

Qurolmadim ko‘ko‘par oltin qasr agarchi,
Go‘klan yurtin o‘zimga, ammo, makon ayladim.

Firog‘iy, ochib og‘iz so‘zlarman ko‘p so‘zlarni,
Xalqqa tuhfa bo‘lsin deb, go‘zal doston ayladim.

TO‘LDI-KETDI

G‘aflat uyqusinda yig‘lab,
Ko‘zim qonga to‘ldi-ketdi.
Yurak-bag‘rim o‘tda dog‘lab,
Qizil gulim so‘ldi-ketdi.

Men falakka urush ochdim,
Mag‘lub bo‘ldim,
qonim sochdim,
Dod deb, zorlar urib qochdim,
Do‘stlar ortda qoldi-ketdi.

Gar to‘y qilib, kutdi olam,
To‘y libosim bo‘ldi motam,
Bo‘g‘zimgacha yetishdi g‘am,
To‘rim falak yuldi-ketdi.

To‘yda motamdir boshimda,
O‘lim aylanar qoshimda,
Falak doim taloshimda,
Umr hamroh bo‘ldi-ketdi.

Xudoyim zindonga solib,
Falakni qilmading g‘olib,
Bu shum dunyo hamroh bo‘lib,
Hijron kuyin choldi-ketdi.

Firog‘iy der: o‘lsam men ham,
Do‘stim,
hushyor tortgin sen ham,
Tug‘ishganlar, ota-onam,
Ko‘ring, do‘stlar, o‘ldi-ketdi.

BILAR DEYA

Dardim jondan so‘zlar bo‘ldim,
El-u xalqim bilar deya.
Ketgan baxtin ko‘zlar bo‘ldim,
Qaytib qo‘lga kelar deya.

Bir ahmog‘-u nodon manam,
G‘animat bir inson manam,
O‘tdi-ketdi ota-onam,
O‘ylab edim qolar deya.

Ko‘rdim g‘am-u kulfat yomon,
Bilmadim, ne istar zamon,
Qoldimi bir kimsa omon,
Falak hamroh bo‘lar deya?

Kambag‘alning bolasi,
Bilmas ota-onasi,
Ko‘kka yetmas nolasi,
Davlat qushi qo‘nar deya.

Maxtumquli, bu dardim,
Shifo topmayin yurdim,
Dilni dildorga berdim,
Dodimga yetar deya.

KO‘KDAN INMAGAY

Yana parvoz etdi ko‘ngil qushi, boq,
Qanotini yig‘ib, ko‘kdan inmagay.
Balki qismat chorlab qo‘ymagay mutloq,
Qayt deb nola qilsam harchand ko‘nmagay.

Ko‘ngil uchdi deya jonim yondiray,
Aldab uni, manziliga qo‘ndiray,

Oyoqlarin bog‘lab, shavqin so‘ndiray,
Bilmayman, u nima uchun qo‘nmagay?

Bor, o‘qigin Iso bilan Maryamdan,
Xabar olgin oriflardan, har kimdan,
Bir suv bordir — shirin bo‘lar Zamzamdan,
U ne suvki, ichgan kishi qonmagay?

Bir xat bordir Fotimaning sochinda,
O‘qitarlar uni Tangri qoshinda,
Bir o‘t bordir oshiqlarning ichinda,
Bir o‘tdirki, bu o‘tlardek yonmagay.

Maxtumquli aytar: jannat shahrindan,
Bir daraxt bor — hamma to‘yar ko‘rkindan,
Pora-pora bo‘lar kofir qahrindan,
Otashi lovullab, sira so‘nmagay.

USTODIM

Arzi-hol etay deb siz bilan kecha,
Tushdan so‘ng chiqqandim yo‘la, ustodim.
Qololmadim, ketma deyishdi necha,
Xon keldi so‘fi men bila, ustodim.

G‘amgin ko‘ngil ko‘rgan bo‘lsang — g‘aribdir,
Kimki buning sirin bilsa orifdir,
Tik so‘zlashim qiyin — rutbang sharifdir,
So‘zlashaylik maktub ila, ustodim.

Ustodim, sen xabar olgil holimdan,
Ra’yimni qaytarma, qo‘yma yo‘limdan,
Madad yetsa valiylardan, Egamdan,
Va’da bo‘lsin kelgan bila, ustodim.

Meni oldga boshlar ko‘nglim chirog‘i,
Tan olgisi kelmas yaqin-yiroqni,
Tavakkal qil, yodga olma firoqni,
Muruvvat et g‘arib qula, ustodim.

Maxtumquli aytar: Subhonim uldir,
Tayanchim Birubor, sultonim uldir,
Xuroso — Isfahon o‘n kunlik yo‘ldir,
Ruxsat ber ochiq yuz ila, ustodim.

JAHONA KELDIM

Ota belindan tushdim, ona rahmina keldim,
Qirq olam bilan chiqib, bir zarra qona keldim,
Bir jonsiz baliq kabi daryo — ummona keldim,
To‘rt oy, o‘n to‘rt soatda odamday jona keldim,
To‘qqiz oy tamom bo‘ldi, so‘ngra jahona keldim.

Ota-onam olishdi suyib issiq quchoqqa,
Kiyimlarim kiydirib, o‘radilar yo‘rgakka,
Gohida emaklardim, goh turardim oyoqqa,
Ona sutin emardim aylanib so‘l-u sog‘ga,
Ikki yoshga yetganda yemoqqa nona keldim.

Uch yoshimga yetganda o‘ynar edim, kulardim,
Besh yoshimda onamdan har xil narsa tilardim,
Yetti yoshimda esa do‘st-dushmanni bilardim,
To‘qqiz yoshdan har kuni besh vaqt namoz qilardim,
O‘n yoshda xulq-u adab ichra yagona keldim.

O‘n ikkida har kimga qahr ila so‘z qotardim,
O‘n uch yoshda ulug‘lar kabi suhbat qurardim,
O‘n beshda qo‘lga kamon olib o‘qlar otardim,
O‘n yettiga yetganda ishq yukini ko‘tardim,
Boshimda ishq savdosi bilan maydona keldim.

O‘n yettidan o‘tganda shuhrat uyiga kirdim,
Olib bir nozaninni hayot zavqini surdim,
Bu bo‘ston g‘unchasining turfa gulini terdim,
Yigirmaga yetganda falak jabrini ko‘rdim,
Falak oldi yorimni, ajal g‘amxona keldim.

O‘ttizga kirganimda yetdim o‘q-u kamona,
Ko‘ngil qaynadi — jo‘shdi, bo‘ldim dalli-devona,
Ot minib, yarog‘ tutib, uchib kirdim maydona,
Rustami Doston kabi kurashdim men mardona,
Qirqqa yetganda yoshim, o‘qib, Qur’ona keldim.

Qirqdan keyin ketdim men qarab ellik yoshimga,
Keldi o‘lim nishoni — raxna tushdi tishimga,
Hamma meni qari der, hayron qoldim ishimga,
Tushkunlikka tushdim men, g‘avg‘o keldi boshimga,
Qo‘limga hassa olib, to‘g‘ri makona keldim.

Oltmishga yetganimda ko‘rmas bo‘ldi ko‘zlarim,
Qarib, g‘am ichra qoldim, qish bo‘libdi yozlarim,
So‘zimga quloq solmas hatto o‘g‘il-qizlarim,
Dunyoga xush kelmadi mening ezgu so‘zlarim,
Dunyoga yolvormoqdan to‘ydim, omona keldim.

Yetmishga yetganimda yig‘lar edim zor-u zor,
Bahor buluti kabi ko‘zimda yosh shashqator,
Quloqlar og‘irlashib, ko‘z oldim tutdi g‘ubor,
Yig‘ildilar boshimda qavm-u qardoshlar qator,
Kiyimdan bo‘lib xalos, taxti ravona keldim.

Yotar edim to‘shakda nogoh Azroil keldi,
Bulbul tilim bog‘lanib, qizil yuzlarim so‘ldi,
Yuz ming jafo-jabr ila jismimdan jonim oldi,
Umrim behuda o‘tdi, barcha armonim qoldi,
Keldi o‘lim nishoni, ajal farmona keldim.

G‘assol yengin shimarib, jasadimni yuvdi pok,
Yog‘och otga mindirib, eltdilar ul so‘yi xok[1],
Azroilning jangidan ko‘nglim bo‘ldi chok-chok,
Munkar va Nakir keldi — gurzi tutib g‘azabnok,
Ruhim taslim etdilar, tirildim, jona keldim.

So‘radilar: “Ey odam, xo‘sh, endi holing nedir?
Xayr etmading, chop-chop-u jang-u janjaling nedir?
Yurding shayton ra’yiga, javob-savoling nedir?
Endi tuproq ostida ilmi kamoling nedir?
Gurzi soldi — sochilib men har tomona keldim.

“Yo, Ali!” — dedim dildan, yetishdi Shohimardon,
Mushkullarni yechuvchi amir al-mo‘min shu bilan,
Maxtumquli der: jonim o‘zingga bo‘lsin qurbon,
Munkar bilan Nakirdan qolmadi nom-u nishon,
Rabbim ko‘rib shu yerda, to‘g‘ri makona keldim.

YORNI YORDAN AYIRGAN

Shayxim, senga dushmandir
Yorni yordan ayirgan.
Sanggi, senga pushmondir,
Yorni yordan ayirgan.

Otang bag‘ri bo‘sh bo‘lsin,
Onang ko‘zi yosh bo‘lsin,
Ming baloga duch bo‘lsin,
Yorni yordan ayirgan.

Sevikli o‘g‘li o‘lsin,
Ko‘ziga yoshlar to‘lsin,
Majnun qarg‘ishin olsin,
Yorni yordan ayirgan.

[1] **So‘yi xok** — tuproq tomon, ya’ni qabrga.

Meni yondirgan yonsin,
Yongan chirog‘i so‘nsin,
Ahli avlodi o‘lsin,
Yorni yordan ayirgan.

O‘lmasa ham kulmasin,
Ko‘ksin yerdan olmasin,
Bir zuryodi qolmasin,
Yorni yordan ayirgan.

Maxtumquli der: ko‘rdim,
Haq ishiga tan berdim,
Yaratganga topshirdim,
Yorni yordan ayirgan.

TOPILMAS

Ey, seningdek gul pari jumla jahonda topilmas,
Qoshlaringga o‘xshagan yoy Isfahonda topilmas,
Lablaringning lazzati hech dahonda topilmas,
Yuzing xoli kabi xol mohitobonda topilmas,
Gul yuzingning jamoli hech bir jononda topilmas.

Gul yuzingga parda tortib, o‘rtading, zolim pari,
Har ikki olamda o‘zing go‘zallarning sarvari,
Naylayin, ketmas ko‘ngildan ishqing dog‘-u asari,
Ummon kabi to‘lqin urar ortda ikki ajdari,
Nil, Qulzumni axtarib, bir ummonda topilmas.

Bu falakning charxini sen urib, vayron aylading,
Zulfining torini dard ahliga darmon aylading,
Tirguzib o‘lgan kishilarni, ato jon aylading,
Jannatga aylan deya, do‘zaxga farmon aylading,
Bunday adolatli farmon shoh-u xonda topilmas.

Go‘zallarni atrofingga yig‘ib, qilding suhbatni,
Mashhuri olam bo‘libdir shohlarga yor shavkati,
Falak urib, qildi vayron ne hashamat, davlatni,
Xudovandning o‘zi siylab, mardlar qilsin himmatni,
Xush yashasin, bunday sulton bu jahonda topilmas.

Bu falakning qahri yomon — chiqar g‘azab taxtiga,
Toleyini sho‘r qilib u g‘am qo‘sharmish baxtiga,
Yo‘llar ajal ovchisini boqmay inson vaqtiga,
Naslin ko‘zlar bechoraning talon solib raxtiga,
Bunday tuban charxi falak hech zamonda topilmas.

Maxtumquli, endi har dam tani do‘st-u yoringni,
Nodon bo‘lib falakka ko‘p ko‘rsatma kuch — zo‘ringni,
Samo’ aylab mast bo‘l belga bog‘labon zunnoringni,
Mushtoq eldan darig‘ tutma hech shirin guftoringni,
Buning kabi qand-u asal hech zabonda topilmas.

VAHM ETAR

Jabr-u jafo tufayli ko‘z yosh o‘rniga qon to‘kar,
Dardim oshkor etar bo‘lsam, hatto Luqmon vahm etar,

Deydilar: “O‘shal Iskandar olmish foniy jahonni”,
Yolg‘iz yo‘lga chiqar bo‘lsa, qo‘lidan ne ish kelar?

Qancha nodon sultonlarni, ko‘ring, xalqni nayladi,
O‘zi bilmas, qo‘lidan ammo davlat qushi uchar.
Xoksor zamin so‘zlamaydi garchi gungu lol bo‘lib,
Paymonasi to‘lsa, qancha shirin jonni u quchar.

Bu dunyoda nomardlarning kuni tug‘ar hamisha,
Nazar soling, mard ahlining mudom oy-kuni botar.
Qanchalarning ko‘zi tushmas bir go‘zalga butun umr,

Qanchalar davr-davron surib, har kun bir go‘zal quchar.

Parvonaga nazar solsang: bir nodoni bechora,
Ixtiyorin berib ishqqa, otash ichida kuyar.

Qanchalarning bu zamindan qo‘l-oyog‘i uzilmas,
Boq, qanchalar qanot bog‘lab, yetti osmonga uchar.

Qanchalarning davlat qushi bugun uchar osmonda,
Erta tole ters aylanib, botqoqqa tushar — cho‘kar.

Boq, sohibi davlat qushin xalos etmoq istagay,
Uning o‘zini bu zamin lekin qa’riga tortar.

Moli, davlat qushi bilan kirar zamin qa’riga,
Hech kim bo‘lmas madadkor, na dunyoda oti chiqar.

Qanchalarning kuni o‘tmay, yil tuyular g‘am bilan,
Qanchalarning ishrat bilan yili bir damday kechar.

Qanchalar qo‘rqib falakdan, kirmoq bo‘lsa uyiga,
Kelganida uy oldiga bir baloga yo‘liqar.

Qancha gullar ochilar-u bugun, so‘lar ertaga,
Qancha gullar bulbul bilan topishib, davron surar.

Maxtum bu jahondan o‘tmoqdadir g‘am bilan,
Qaritadi g‘am-u qayg‘u, boshdan aql-u hush ketar.

QOLDIM BU KUN[1]

Bu zamin mungli boshim g‘am-qayg‘uga yor ayladi,
Qancha la’nat yog‘dirib, qonlar yutib qoldim bu kun.

[1] She’rning boshlanish qismi qo‘lyozmalarda yo‘q.

Ketdi sabr-u toqatim, yo‘qdir ilojim, naylayin,
Gul edim, hijron yelidan sarg‘ayib-so‘ldim bu kun.

Qanchalar davrin surar taxt-u shahar aylab bino,
Aylanib atrofidan, oshiq bo‘lib keldim bu kun.

Men dedim: “Meni o‘zingizga bilinglar mehribon”,
Tinglamaslar so‘zlarim, yig‘lab nazar soldim bu kun.

Istasa jonimni bersam Xoliqim dargohiga,
Chunki foyda-yu ziyon deb, rasvo bo‘ldim bu kun.

G‘am bilan, Maxtumquli, umringni o‘tkazding butun,
Bu jahon foniyligini fikr etib bildim bu kun.

ISHQ KITOBIN OCHAYLIK

Sahar vaqti, keling, do‘stlar,
Ishqning kitobin ochaylik.
Har bir so‘zda qancha ma’no,
O‘qib, ularni yechaylik.

Bu dunyoda qancha bog‘ bor,
Qancha bo‘ston, qancha tog‘ bor,
Qancha o‘lik, qancha sog‘ bor,
Unga loyiq to‘n bichaylik.

Ulug‘ qadrin bilmagandan,
Pirga xizmat qilmagandan,
So‘zdan ma’no olmagandan,
To tanda jon bor qochaylik.

Oshiq Firog‘iy der arzin,
Ro‘za, namoz degan farzin,
Bo‘ynimizdagi bu qarzin,
Jon chiqmay uzib kechaylik.

YELDAN KELAR

Oxirzamon yaqin kelsa,
Avval balo yeldan kelar.
Yaxshi o‘tib, yomon qolsa,
Bu nishona seldan kelar.

Yomonlik aylama minba’d,
Birovlarni qilma g‘iybat,
Bemahal yurma — falokat,
Jin balosi kuldan kelar.

Bir so‘zim bor — eshit uni,
Bu so‘zimning yo‘q yolg‘oni:
Saroyda bo‘lgan haromi,
Harom pulga quldan kelar.

Har yigit bo‘lsa bedavlat,
Ko‘rarmish noraso farzand,
Ota-yu onaga la’nat
Qiz bilan o‘g‘ildan kelar.

Tilsiz balo, derlar, o‘tdir,
Kechaning egasi itdir,
Yurtni yiqqan uchqur otdir,
Bir ko‘p balo eldan kelar.

Qasamxo‘r uyiga borma,
Yaramasning yuzin ko‘rma,
Dushmaningga siring berma,
Boshga balo tildan kelar.

O‘lmay qolmas hech bir inson,
Faqat Haq boqiy, begumon,
Emin har balodan cho‘pon,
Boyga balo moldan kelar.

Maxtumquli, o‘tmas yorlik,
Bir sho‘rlikka sitamkorlik,
Er boshiga xor-u zorlik
Bir buzuq ayoldan kelar.

TO‘LGAN EMAS

Yig‘ib dunyo molin butun,
Qorun ko‘zi to‘lgan emas.
Muso pand bersa-da har kun,
Qulog‘iga ilgan emas.

O‘tar-ketar foniy olam,
Ko‘char karvon qo‘nib bir dam,
Yer qo‘yniga urib qadam,
Ketgan qaytib kelgan emas.

Safar qilsang uzoq yo‘lga,
Boqolmaysan sog‘-u so‘lga,
Harchand yig‘lab, qilsang nola,
Zoring qabul qilgan emas.

Charx gardishi qaytar izga,
Bir kun navbat kelar sizga,
Yusuf-Zulayxodan o‘zga,
Chin oshiqlar bo‘lgan emas.

Gunohkorman — o‘rtar nomus,
Haq asrasa, omon Quddus,
Baliq ichra sira Yunus
Zulmat ichra qolgan emas.

O‘tga farmon qildi Jalil,
Sog‘-salomat chiqdi Xalil,
Qurbon bo‘lganda Ismoil,
Bo‘ynin pichoq tilgan emas.

Maxtumquli, bu ne farmon,
Qocharga yo‘q sira darmon,
Ajalga hattoki Luqmon
Biror chora topgan emas.

G‘OFIL YURDING

Odamzod, avval-boshda
So‘zimni tutmay bording.
Balo shunday ko‘z-qoshda,
Ishonmay g‘ofil yurding.

Ota pushtidan bo‘lib,
To‘qqiz oyda yetilib,
Foniy jahonga kelib,
Ko‘p jafolarni ko‘rding.

Ranj-u azoblar ko‘rib,
Boshga balolar dorib,
Iymon bilan jon berib,
Jonsiz zaminga kirding.

Ul jonni sen naylading?
Qayda pinhon aylading?
Omonat deb taylading,
Kimga sen jonni berding?

Bir kun davr surmayin,
Har yon kezib yurmayin,
Bir ehtirom ko‘rmayin,
G‘am-u g‘ussada hording.

Dardi borga yo‘q darmon,
Bechora ishi armon,
Maxtumquli, tan-u jon
Yerga peshkash keltirding.

JON KERAK

Inson dunyo kezar bo‘lsa,
Avvalo, tanda jon kerak.
Yurtga davlat kelar bo‘lsa,
Unga baxshi o‘g‘lon kerak.

Ot kerak uzoq ketmoqqa,
Noz kerak yor uyg‘otmoqqa,
Kelgan davlatni tutmoqqa,
Har yurtda bir mard xon kerak.

Aql kerak har insonga,
Rayhon yarashar bo‘stonga,
Manman degan mard o‘g‘longa
Ot, qilich-u qalqon kerak.

Til kerakdir so‘z demoqqa,
.....[1]
Ochlar talashar yemoqqa,
Yalang‘och degay: “To‘n kerak”.

Yalang‘och suv ko‘rsa qaytmas,
Mard nomardga sirin aytmas,
Ehson bilan balo ketmas,
Karomatli eshon kerak.

O‘gitim bor, olar bo‘lsang,
O‘tinchim bor, qolar bo‘lsang,
Azal, Tangri, yozar bo‘lsang,
Qora ko‘zli jonon kerak.

Ko‘z kerakdir ko‘zlashmoqqa,
Yuz kerakdir yuzlashmoqqa,
Til kerakdir so‘zlashmoqqa,
Taomga tish — dandon kerak.

[1] Bu satr qo‘lyozmada yo‘q.

Keksayib ketar quvvatim,
Tanimda qolmay g'ayratim,
Nomard, olsang nasihatim,
Er yigitdan omon kerak.

Mevaga liq to'lsa bog'lar,
Yaxshi-yomon o'tgan chog'lar,
Oppoq bo'lib qorli tog'lar,
Kamarlarga tuman kerak.

Maxtumquli, bo'lib shodon,
Jon bergali shay tur har on,
Tandan judo bo'lsa bu jon,
Odam o'g'li, iymon kerak.

QURAR BO'LDI

Boq, falakning gardishiga,
Har kun kengash qurar bo'ldi.
Hech kim tushunmas ishiga,
Ko'rganini urar bo'ldi.

Men yig'lasam omon istab,
U jabr ayladi qon istab,
Qancha omonat jon istab,
Bozorini qurar bo'ldi.

Aql yetmas so'zlarim ko'p,
Falak yutdi, men unga chap,
Nomardlardan tuzgancha saf,
Lashkarini surar bo'ldi.

O'zini bilmas ahmoqman,
Jonni dog'lab, o'rtadim tan,
Ko'rishgan bir-biri bilan
Qiyomatdan so'rar bo'ldi.

Yopirilib ishq otashi,
Qoldirmadi aql-u hushni,
Maxtumqulining qardoshi
Boqiy yurtda yurar bo'ldi.

KETIB BORMISH

Qo'lga kiritganim jahon
Qo'ldan chiqib, ketib bormish.
Bozorda qurganim do'kon
Kasodga yuz tutib bormish.

Chekkanimdir g'am-u hasrat,
Bu ne hadis, bu ne ummat?
Turkistonda Xoja Ahmad —
Uning oti yitib bormish.

Hech kim tutmas so'zga quloq,
Men behuda bo'ldim halak,
Ey azizlar, qarang, falak,
Bizni bir-bir sotib bormish.

Harom bo'lmish qo'lda molim,
Kech berdi Xudo iqbolim,
Ummon ichra kirgan solim,
Suza bilmay botib bormish.

Simobdek jonga charx hayron,
Dard ahlini qildi sarson,
Falakning qo'lida kamon —
Ko'zin bog'lab, otib bormish.

Kim tinglaydi oh-nolishim,
Qoraydi iqbol quyoshim,
Do'st-u yaqin, teng-u to'shim
Bu dunyodan o'tib bormish.

Bir xat Fotima sochinda,
Falak charx urar boshida,
Qiyomat kuni qoshida
U bu xatni chatib bormish.

Dunyoni bino qilganlar,
Ularga hamroh bo'lganlar,
Mard o'gitini olganlar,
Qaranglar, unutib bormish.

Kimlar, ko'ring, qarzga botib,
Kimlar g'aflat ichra yotib,
Kimlar Xudoni unutib,
Kim yuzini tutib bormish.

Dunyo tortar yuzga niqob,
Magar so'zim aylar hijob,
Bir qanchalar o'qib kitob,
Kimlar o'tga yoqib bormish.

Kim ochmas g'aflatdan ko'zin,
Kim anglatolmaydi so'zin,
Kimlar o'girgancha yuzin,
Kimlar qibla boqib bormish.

So'zim yetdi har qulog'a,
Nomard kelib tutar yoqa,
Kimlar yuzin tutib boqa,
Kim bu yoqdan yetib bormish.

Balo kelar bo'lsa boshga,
Yetmas doding qarindoshga,
Kimlar shakar qo'shsa oshga,
Kimlar zahar qotib bormish.

Boqar bo'ldi zamon zo'rga,
Bosh urar barcha sudxo'rga,

Mufti tama qilib pora,
Pinhonini ochib bormish.

Kim mol-dunyo izin izlab,
Kimlar ochiq dashtda yozlab,
Kimlar esa davlat ko‘zlab,
Ko‘zi bog‘liq uchib bormish.

Kimning darddan esi og‘ib,
Kimning boshiga sel yog‘ib,
Kimlarningdir oyi tug‘ib,
Kimning kuni botib bormish.

Kimlar omonat topshirib,
Kimlar molini oshirib,
Kimlar uysiz-joysiz yurib,
Kimlar qasr qurib bormish.

Kimlar o‘zini oldirmay,
Dardini elga bildirmay,
Kim o‘zini xor qildirmay,
Kimning qo‘li inib bormish.

Kimlar toqqa chiqar bo‘ldi,
Kimlar uni yiqar bo‘ldi,
Suvsiz ariq oqar bo‘ldi,
Oqar ariq qurib bormish.

Kim sira nasihat olmay,
Kim elga maslahat solmay,
Kimlar o‘rnidan turolmay,
Kimlar esa horib bormish.

Bu o‘tkir o‘qning ne oti?
Kimlarga taqar ziynatni,
Bu foniy dunyoning iti —
Ko‘plarni u yorib bormish.

Katta-kichik — ushog'i,
Belida ipdan belbog'i,
Kimlarning iqbol eshagi
Har qayerda yurib bormish.

Kimning yo'qdir osh-u tuzi,
Uyalmaydi o'g'il-qizi,
Kimning garchi bog'liq ko'zi,
Bu jahonni ko'rib bormish.

Bu falak mendan boj olib,
Kimlarning bag'ri tosh bo'lib,
Maxtumquli qarib qolib,
Kuch-quvvatdan qolib bormish.

NOMARDNI KO'ZLAR

Mard qadrini bilmas xon
Elda nomardni ko'zlar.
Og'zi kuygan har cho'pon
Tun-u kun qurtni ko'zlar.

Kimni hajr kuydirsa, u
Judolikdan qarir-ku,
Yurtidan tushgan ayru,
Mehribon yurtni ko'zlar.

Kelsa agar yomon dard,
Mard emas, qochar nomard,
Mol emas, Luqmon jo'mard,
Davoga dardni ko'zlar.

Oyoq qadrin olgan tan,
Uzoq-yaqinni ko'rgan,
Sarson-sargardon yurgan,
Eshakmas, otni ko'zlar.

Uchar doim osmona,
Tushmas sira ummona,
Ishq oshig‘i parvona,
Tunlar u o‘tni ko‘zlar.

Oxirzamona qachon?
Bormi bir ko‘rgan inson?
Jasadi qolgan bejon
Obi hayotni ko‘zlar.

Zinhor bo‘lmagin sirdosh,
Qaritar seni u yosh,
Nomardga bo‘lsang yo‘ldosh,
Elda fasodni ko‘zlar.

Men ko‘zi bog‘liq uchib,
Kuydim olovga tushib,
Muftilar Qur’on ochib,
Taqvo-toatni ko‘zlar.

Keksayar har bir inson,
Qizlar bo‘lishar juvon,
Bog‘da sarvi xiromon
Gul emas, bodni ko‘zlar.

Bir qanchalar or etib,
Oilasin zor etib,
Go‘zal elin xor etib,
Bir ulug‘ otni ko‘zlar.

Sahroda xordir gullar,
Yuzin o‘parmish yellar
Ovi behisob cho‘llar,
Mohir sayyodni ko‘zlar.

Arshga yetdi nolalar,
Harom boylik bolalar,

Bu zamonda mullalar
Yo'rtib zakotni ko'zlar.

Yuzda porlar nurlari,
Ko'zda olov — qo'rlari,
Bu zamonning erlari
Tulpor, sovutni ko'zlar.

O'tga aylanmish dini,
Magar yo'qdir iymoni?
Baxil yig'ib dunyoni,
Yana davlatni ko'zlar.

Pinhon sirim oshkora,
Naylay chiqib shikora[1],
Maxtumquli bechora
Faqat zuryodni ko'zlar.

O'TIM O'CHIBDIR

Naylayin, giryon bo'lmayin,
Ko'zimdan nurim uchibdir.
Naylayin, g'amga to'lmayin,
Yolqinli o'tim o'chibdir.

Istadim ul qarindoshni,
Boshi bog'liq bir sirdoshni.
Osmon uzra davlat qushi
Boshimga qo'nmay kechibdir.

Men qolibman bag'ri biryon,
Ko'zlarim yosh to'kar giryon,
Birga o'sgan do'st-qadrdon
Yomon kunlarga tushibdir.

[1] **Shikor** — ov.

Zor yig‘lab dunyoga kelgan,
Ko‘z yosh to‘kib o‘tar ekan,
Shum ayriliq falak bilan
O‘zaro til topishibdir.

Falak bilan o‘yin qilsam,
Gohi yig‘lab, gohi kulsam,
Imkon topib, qochar bo‘lsam,
Oyog‘imga yopishibdir.

Qancha mardlar o‘tdi dilxun,
Falak mudom qilar o‘yin,
G‘aflat ichra qo‘yib zamin,
Qancha jonlarni quchibdir.

Qilgan ishim xato beshak,
Jonim aylar bo‘ldim halak,
Mardga zulm etgan falak,
Nomard bilan yarashibdir.

Bo‘ldim bir iti Karbalo,
Jismimni aylab mubtalo,
Kirar bo‘lsam ko‘p dallola[1],
Falak izimga tushibdir.

Hammasini ayladim oq,
Ko‘rdim mudom jabr-u qiynoq,
Qo‘limdagi lochinim, boq,
Bir qushni ko‘rib qochibdir.

Ko‘zlarimdan oqizib qon,
Dard uzra dard qo‘shdi har on,
Boshim uzra g‘ash-u armon
Qasrini qura boshlabdir.

[1] **Dallola** — o‘rtaga tushuvchi makkor ayol, boshqa ayollarni yomon yo‘lga boshlovchi.

Urf-odatni yod aylayin,
Falakdan faryod aylayin,
Maxtumquli, ot aylayin,
Ko‘nglimga dog‘ tutashibdir.

PINHON AYLAR

Agar mehmon kelsa, baxil
Bor-budini pinhon aylar.
Qayda ravnaq topsa bozor,
Har kim unda do‘kon aylar.

Falakdan kutmayman omon,
Ko‘nglimda yo‘q dog‘dan nishon,
Bu vatanni mudom hijron
O‘zi uchun makon aylar.

Qochmas dunyodan uyalib,
Qanotini yoyib kelib,
Mard yigitning erkin olib,
Ko‘ring, falak nodon aylar.

Dunyoda o‘git beribman,
O‘git qadrini ko‘ribman,
Behuda yig‘lab yuriban,
Falak doim gumon aylar.

Oz emas kezgan yo‘llarim,
Ojizdir oyoq-qo‘llarim,
Ellikka yetdi yillarim,
Vaqt qadamin ravon aylar.

G‘aflatdan chiqmadi boshim,
Falakdir doim yo‘ldoshim,
Tinglab qo‘shni, qarindoshim
So‘zim o‘zin giryon aylar.

Chiqibman zunnor bog‘labon,
Jon-u yuragim dog‘labon,
Maxtumquli, qon yig‘labon,
Bir qayg‘uli doston aylar.

FARMON BERAR

Shohlar davlat g‘ururidan
G‘azab bilan farmon berar.
Tog‘lar boshi yetsa ko‘kka,
Xudo o‘zi tuman berar.

Osh berar bo‘ldim ochlarga,
Usti-bosh yalang‘ochlarga,
Bosh oluvchi mard yoshlarga
El uchqur saman berar.

Xoli bo‘lsa ishqingdan jon,
Dil o‘ti ham so‘nar shu on,
Yaxshi ko‘rsa foniy jahon,
Hamroh qilib yomon berar.

Falak qilmas hech pushaymon,
Dushman bilan do‘st-qadrdon,
Mard yigitga foniy jahon
Nomuvofiq jonon berar.

Bandi bo‘lib men hijronga,
Ishim qoldi oh-fig‘onga,
Ko‘ring, falak, yongan jonga
O‘tini ming chandon berar.

Tushunmayman ko‘p tillarga,
Muyassar bo‘ldim ellarga,
Bog‘ ichida bulbullarga
Hadya etib rayhon berar.

Maxtumquli, bu ko‘zlarim,
Qoraga o‘xshar yuzlarim,
Xuddi asaldir so‘zlarim,
Taqdirlab she’r, doston berar.

KULAR BO‘LDIM

Ko‘rmasin deya ko‘zlarim,
Yig‘lab turib kular bo‘ldim.
Eshitmasin deb so‘zlarim,
Lol-u hayron bo‘lar bo‘ldim.

Otash ichra jonim yonib,
Parvona otashdan qonib,
Men bu zamonadan tonib,
Eron sari ketar bo‘ldim.

Ko‘zlarim ko‘rdi yomonni,
Minmadim lekin samanni,
Charxning hukmron zamoni
Urib meni, yonar bo‘ldim.

Nomardga ketdi duldulim,
Qoldi yomonlarga kunim,
Men g‘amli dunyo bulbulim
Otash uzra qo‘nar bo‘ldim.

Yondi yurak-bag‘rim manim,
Hasrat bilan o‘tar kunim,
Otash ichra jon-u tanim,
Kuyib kabob bo‘lar bo‘ldim.

Maxtumquli der: ey qardosh,
Jigar-bag‘rim o‘tda talosh,
Parvonaga bo‘ldim yo‘ldosh,
Parim kuyib uchar bo‘ldim.

G‘AYRATIDAN MA’LUM

Mard yigitni sinar bo‘lsang,
Ishi, g‘ayratidan ma’lum.
Saylab bir ot olar bo‘lsang,
Arabiy zotidan ma’lum.

Bog‘ing olma-anorga kon,
Sehr aylar makkor ilon,
El ichida go‘zal jonon
Husn-u suratidan ma’lum.

O‘z o‘rni bor har bir itning,
O‘z lazzati har bir etning,
Jang kunida mard yigitning
Qadri qimmatidan ma’lum.

Boqar bo‘ldim har yon, har yon,
Tortar bo‘ldim jabr-u fig‘on,
Yurtda bo‘lsa odil sulton,
Tengsiz davlatidan ma’lum.

Xaridor yo‘q shirin jonga,
Qurbondir u bir paymonga,
So‘z eshitsang, u insonga
Ta’sir — qudratidan ma’lum.

Boshim fido mard insonga,
O‘xshar u Shohimardonga,
Foniy jahon shirin jonga
Solgan ofatidan ma’lum.

Har qorani bilsang dushman,
Ko‘ringanni deb mard ekan,
Til topishsang nomard bilan,
Rahm-shafqatidan ma’lum.

To‘lqin urib oqar Jayhun,
Ko‘ngli nozik mudom dilxun,
So‘rsang aytar Layli-Majnun,
Ishqi hasratidan ma’lum.

Haddi bordir har taloqning,
Uzri har ayb-u gunohning,
Ey odamzod, bu falakning
Hajr-u furqatidan ma’lum.

So‘z, sening tengsiz qudrating,
Ortar har lahza qudrating,
Maxtumquli, Muhammadning
Qadri ummatidan ma’lum.

SAVOB BO‘LGAY

Bir yaxshilik qilar bo‘lsang,
Iymoningga savob bo‘lgay.
Yomondan nasihat olsang,
Jahannamdan javob bo‘lgay.

Haq qoshida qora yuzim,
Tunday nursiz emish ko‘zim,
To‘g‘risini aytsam, so‘zim
Yor vasfiga hisob bo‘lgay.

Dunyoni kezmadim harchand,
Xato so‘zni o‘yladim chin,
Yor bo‘ynida la’lu marjon
Topilmayin noyob bo‘lgay.

Falak bizga ozor berar,
Ko‘z yoshimni daryo qilar,
Agar bir kun solsa nazar,
Yor jamoli mahtob bo‘lgay.

Holimga boqqay qay inson?
Dasht ichida yig‘lar cho‘pon.
Ishq o‘tiga o‘rtagan jon
O‘shal ko‘z, o‘shal lab bo‘lgay.

Adashdim o‘yining ichra,
Yo‘l solibman naying ichra,
Oq ko‘ksingda qo‘yning ichra,
Yetishgani siylov bo‘lgay.

Naylayin, qoldim nolishga,
El bari yurar argishga[1],
Ishqda kuygan men behushga
Nazar solsang gulob bo‘lgay.

Orzuyim ko‘p bu makonda,
Ishq bozorida, do‘konda,
Ey do‘stlarim, bu jahonda
Falak menga mahbub bo‘lgay.

O‘tdi Rustam Zoldek zo‘rlar,
Chekar bo‘ldim endi zorlar,
Bizlar bilan yurgan erlar,
Naylay, bu kun raqib bo‘lgay.

Ko‘rmaganman ummoningda,
Savolim bordir xoningda,
Nozli yorim, zaboningda
Kavsar suvi — sharob bo‘lgay.

Tashladi-ketdi karvonim,
O‘tda yoqib jism-u jonim,
Ko‘zlarimdan oqqan qonim
Jayhun uchun suv — ob bo‘lgay.

[1] **Argish** — savdo karvoni bilan bir yurtdan boshqasiga g‘alla keltirish.

Bor hech kim bilmas o'yinim,
Bu o'yindan larzon tanim,
Maxtumquli aytar: ko'nglim
Hajr suviga girdob bo'lgay.

NAZAR SOLMAS

Mening bu kuygan jonimga
Iso, Luqmon nazar solmas.
Bergan amr-u farmonimga
Ul Sulaymon nazar solmas.

Bir mard topmay ko'p yo'l yurdim,
Tulkilar sher bo'lmish — ko'rdim,
Bedavo dardga duch erdim,
Ulug' Subhon nazar solmas.

Ikki ko'zim to'ldi qonga,
Arz ayladim men Qorunga,
Mening kabi bir Majnunga
O't hech qachon nazar solmas.

Tushdim uzoq yo'llarimga,
Qur'on oldim qo'llarimga,
Sahrodagi mollarimga
Kelib Qorun nazar solmas.

Ne sababdir tushdim tila,
Jafo chekdim egri bila,
Menday qovjiragan cho'la
Jayhun ummon nazar solmas.

Ishq mayini ichdim qona,
Bo'ldim Majnunday devona,
Men kabi mard bir insona
Shohimardon nazar solmas.

O‘zim qolmisham hayrona,
Yo‘l olibman Dog‘istona,
Ishq o‘tida kuygan jona
Xusrav-Shirin nazar solmas.

Til sabab keldim bayonga,
Shod og‘iz bergan imkonga,
Mening kabi notavonga
Bir notavon nazar solmas.

Kuyib kul bo‘lgan bir jonman,
Kuyganlar ichra dostonman,
Jahon ichra bir jahonman,
Ammo jahon nazar solmas.

Zahar qo‘shildi bolima,
Nuh minib olmish solimga,
Maxtumquli, bu holimga
G‘oyib eran nazar solmas.

AYLAGIL O‘ZING

So‘z ma’nisin bilmasang,
Yiroq aylagil o‘zing.
Har kun toat qilmasang,
Bandidir ikki ko‘zing.

Arzim yetmas Xudoga,
Rahm etmas men gadoga,
Zoye qilma behuda,
O‘rni bor har bir so‘zning.

Doim yaxshi so‘ylagil,
May ich, dil shod aylagil,
Lekin o‘z haddingni bil,
O‘z yo‘li har bir bozning.

Dunyo bo'lmasa koshki,
Qo'lim yetmas bir ishga,
Majlisda qadri boshqa
Omuxta suhbat-sozning.

Odamlar birga yashar,
Umri o'tib qarishar,
Bog'-bo'stonga yarashar,
Bulbul, sening ovozing.

Bil, dunyo xaridordir,
Yig'labon beqarordir,
Cho'lda ne ishi bordir,
Makoni ko'ldir g'ozning.

Aql kerakdir boshda,
Ayol qarib ham yosh-da,
Farq bo'lar har bir oshda,
O'rni boshqacha tuzning.

Yig'lab qolibman darda,
Duch kelmadim bir marda,
Qadring bilmagan yerda
Ko'rsatma hech yuzingni.

Aqling har qancha yetuk,
Birovga hojating yo'q,
Qishga yetganingda lek,
Unutma issiq yozing.

Dunyo yaxshi bo'larmi?
Xudo nazar solarmi?
Falak, mangu qolarmi
Ko'k uzra bu parvozing?

Dunyoda omiy- xosdir,
Barcha ishim abasdir,
Maxtumquli, libosdir
Ziynati kelin-qizning.

SUHBAT BO‘LMASA

Davraning zavq, ko‘rki bo‘lmas
Unda xush suhbat bo‘lmasa.
Shohlar kelib taxtni olmas
Maqsadi shavkat bo‘lmasa.

Ishqning yoqqan o‘ti chiqmas,
Oshiq yonar, dudi chiqmas,
Sultonlarning oti chiqmas,
Bir ulug‘ davlat bo‘lmasa.

Chekkanim g‘am-u hasratdir,
Gullar makoni Mashhaddir,
Kishi shod benihoyatdir,
Ko‘nglida furqat[1] bo‘lmasa.

Qochsa quvib, quvsa yetar,
Bahslashgandan oldin o‘tar,
Bir nomarddan ne ish bitar
Qon jo‘shib, g‘ayrat bo‘lmasa.

Bu tog‘lar zaminga botmas,
Gar botsa, iziga qaytmas,
Qush-u hayvon zorin aytmas,
Tog‘-dashtda sayyod bo‘lmasa.

Falak etmas qanot paydo,
Bechora kun ko‘rmas aslo,
Go‘zal sira topmas oro
Belida kamand bo‘lmasa.

Deydilar ishq bir kun so‘nar,
Parvonalar qushga do‘nar,
Mardlar nomardga aylanar,
Arabiy saman bo‘lmasa.

[1] **Furqat** — ayriliq, hijron, firoq.

Shirin jonlar bo‘lsa juda,
Jisming qolar misli gado,
Arz eshitmas Qodir Xudo,
Ellarda toat bo‘lmasa.

Jisming yonib, nor bo‘lmaydi,
Gul kuysa ham xor bo‘lmaydi,
Davlatli el xor bo‘lmaydi
Ichida fasod bo‘lmasa.

Foniy jahon jonga ofat,
Solar boshingga qiyomat,
Go‘zal eldan ketar davlat
Elda saxovat bo‘lmasa.

Jonlarni tuproq aylarsan,
Jasadlarni yo‘q aylarsan,
Qora toshni, ayt, naylarsan,
Elingda hojat bo‘lmasa.

Yaxshi yerda bo‘lmas fasod,
Oriflardan so‘ralmas ot,
Baxil uyi mehmonga yot,
Naylasin hurmat bo‘lmasa.

Charx uchar, yo‘q u yurimas,
Atrofiga bir qaramas,
Mard yigitlar hech qarimas
Ko‘nglida hasrat bo‘lmasa.

Kunlar o‘tar, kechar oylar,
Har yil ortar oh-u voylar,
Qashshoq bo‘lib qolar boylar
Haqdan muruvvat bo‘lmasa.

Derlar: “Yaqindir oxirat”,
Ko‘rgan bormidir oqibat,
Firog‘iy, bir quruq daraxt —
Odamda zuryod bo‘lmasa.

BOG‘ BUTOG‘I

Falak bog‘bon, qayda qolding,
Sarg‘ayibdir bog‘ butog‘i.
Daryolarning selin olding,
Tuproq qilding qari tog‘ni.

Fosiqni hoji aylading,
Qullarni xoja aylading,
Tongimni kecha aylading,
O‘tib ketdi yoshlik chog‘i.

Qani, kel, Haqning amini,
Falak tutar bo‘ldi damni,
To‘ldirib sen bu zaminni,
Losh bilan-ey so‘l-u sog‘ni.

Yig‘lab tug‘ar falak oyi,
Falak do‘zax qilmish joyni,
Kimga bermay rizqni — payni,
Kimga bermish ot-ulog‘ni.

Yo‘liqdim falak qahriga,
Otar bo‘ldi do‘zaxiga,
Men sho‘rlikning atrofiga
Qurar bo‘ldi u do‘zaxni.

Jahonni yondirdi o‘ting,
Qochar bo‘ldi yaqin-yoting,
Maxtumquli, sening oting
Bo‘lsin endi, qo‘y, Firog‘iy.

YOR BILAN-EY

Nomard so‘zga quloq tutmas,
Desang ketmas yor bilan-ey.
Jon matosin falak sotmas,
Gavhar bilan, zar bilan-ey.

Dardim mening emas oson,
Chekmas uni har bir inson,
Qilar bo‘ldi falak yakson
Qancha jonni yer bilan-ey.

Jon jismim ichra zang qildi,
Falak bilan ko‘p jang qildi,
Bedov chamanni teng qildi
Iso mingan xar bilan-ey.

O‘tgan umring hisob aylar,
Teng o‘tsin deb shitob aylar,
Bu dunyoni ajab aylar,
Qarang, falak nur bilan-ey.

Mahtobni-da u yashirdi,
Tunda nurini qochirdi,
Behisob qushni uchirdi,
Yolg‘iz qanot-par bilan-ey.

Toleyim kulib yurmadim,
Yaxshi-yomonni ko‘rmadim,
Besh kun davr-davron surmadim
Bir nozanin yor bilan-ey.

Ko‘nglim oshiq bo‘lar bo‘ldi,
Za’farondek so‘lar bo‘ldi,
Yorsiz qolib, o‘lar bo‘ldi
Otash nafas, zor bilan-ey.

Endi navbat bizga yetdi,
Tutgan qushim falak yutdi,
Qanchalarni oshno etdi
Husnda tanho hur bilan-ey.

Benomus eldan uyalmas,
Badbaxtdan farzand tug'ilmas,
Arvananing yuki qolmas
Yo'lga chiqsang nor bilan-ey.

Har kimga bir boqar bo'ldi,
Kimning suvi oqar bo'ldi,
Parvonani yoqar bo'ldi,
Aldab olov — nor bilan-ey.

Odam tanirlar sin bilan,
Jon olinmas oltin bilan,
Maxtumquli, Majnun bilan
Bo'ldi hamroh zor bilan-ey.

BECHORA

El so'ziga ishondim
Men gunohkor bechora.
Mirishkor edim, sindim,
Bo'ldim endi ovora.

O'tgan umrimni o'ylab,
Qoldim, naylayin, yig'lab,
Ibrohim kabi bog'lab,
Otar bo'ldilar nora.

Dunyoda ne ish oson?
Bunday ish yo'q begumon.
Ishq o'tida aziz jon
Kul bo'libdi qop-qora.

Odam bo‘lar turfa xil,
Tog‘ boshidan kelar sel,
G‘ofil qolib go‘zal el,
O‘xshamish bir asira.

Boshga balo yog‘ilar,
Uchqur otlar qoqilar,
Qur’on ko‘rmay so‘filar
Aylanmish ulug‘ pira.

Foniy dunyo yo‘linda,
Mol, tilla xayolinda,
Qo‘rqoq xonning qo‘linda,
Qoldi el xavf-xatara.

Dunyo qo‘yar ozora,
Odam bo‘lar ovora,
Ilon o‘xshab ajdara,
Hukm etadi kishmira.

Deydilar bormish Sirot,
Erga shijoat qanot,
Mard nomard bo‘lib, hayhot,
Kamon otolmas, qara.

Falak kimga yo‘l bermish,
Ko‘p aziz jonni termish,
Ohular ozor ko‘rmish
Kelmas kechuv — guzara.

Har yon hayron boqmisham,
Ishq o‘tini yoqmisham,
Maxtumquli, chiqmisham
Tog‘ yonbag‘ri — kamara.

YOR BIZNI

Maskan tutmish xazinaning og‘zida,
Kiray desam qo‘ymas ajdahor bizni.
Ko‘zim qoldi yorning ketgan izida,
Nega bunday tark ayladi yor bizni.

So‘fi o‘zin nodon elga qo‘shmasin,
Yurishga har yerdan yo‘l deb shoshmasin,
Ravon qilsin ko‘z yoshining chashmasin,
O‘ldiribdir oh-voh bilan zor bizni.

Har kimga yetishmas ishqing kemasi,
Minay deya g‘arq bo‘libdir kimisi,
Bu yo‘lga kirganning bo‘lmas nomusi,
Nima uchun hamdam etmish or bizni?

Jigar-bag‘rim qon bo‘libdi gulgundek,
Yoqamni arqon kesibdi Zanundek[1],
Azal kundan yaratibdi Majnundek,
Osa bilmas Mansur kabi dor bizni.

Soqiy qadahini ichtira bilmas,
Mayxona eshigin ochtira bilmas,
Ishq o‘ti qaynatar — jo‘shtira bilmas,
Yoqa bilmas Ibrohimdek nor bizni.

Horun Rashid kabi yugurdim har yon,
Yarashtirdim necha yurtni chekib jon,
Do‘stni quvib, berdim dushmanimga yon,
Endi bu kun etar bo‘ldi xor bizni.

Men ko‘hna charx kabi charx ura bilsam,
Daryolar mavj urgandek jo‘shga kelsam,
Maxtumquli aytar: savdogar bo‘lsam,
Shu yerlarda kezdirsa bir er bizni.

---

[1] **Zanun** — Iso payg‘ambardan keyin to Muhammad payg‘ambar zamoniga qadar Shom (Suriya)da hukmronlik qilgan qadimgi Rum saltanatiga mansub podshohlardan biri.

O‘TIB TURIBDIR

G‘ofil odam, umring o‘tar dunyoda,
G‘animat bilganing o‘tib turibdir.
Nafsing — shayton, qo‘yar seni armonda,
Kimlar qonli yoshin yutib turibdir.

Bu dunyoda bormi o‘lmayin qolgan,
Xazon yeli urib, barglari so‘lgan,
Yer yuzin egallar bir ulkan ilon,
Quyrug‘i burnidan o‘tib turibdir.

Darveshlar hech tildan qo‘ymas sanosin,
Sudxo‘rlar befoyda bermas tillasin,
Baxillar chiqarib sotmas g‘allasin,
O‘z iymonin o‘zi sotib turibdir.

G‘ofil odam umri o‘tar dunyoni,
Nafsing — shayton, sendan olar iymonni,
Kim bozorga solar chirik somonni,
Gavharga barobar sotib turibdir.

Maxtumquli aytar Haqning sanosin,
G‘ofil odam, sen qayerning gumrosi?[1]
Yurgan yering mudom jarning yoqasi,
Ajal qo‘li yoqang tutib turibdir.

ELGA YARASHMAS

Beklar oqsoqoldir, elning ulug‘i,
Quldan oqsoqollik elga yarashmas.
Oqar suvdir ziroatning onasi,
El-u yurtsiz yerda qal’a yarashmas.

[1] **Gumrosi** — gumrohi. Qofiya talabi bilan shunday qo‘llandi.

Pok bo‘lsa yigitning nasli-nasabi,
Qachon teng bo‘libdi ot bilan yobi?
Qulni og‘a deyish, cho‘rini bibi,
Ipak-arqon yo‘g‘on qilga yarashmas.

Kun ko‘rmagan bir kun, kun ko‘rsa agar,
Bosar-tusarini bilmasdan qolar,
Eshak semirsa, o‘z egasin tepar,
Yaxshi ustod badaslga yarashmas.

Qarchig‘ay — qirg‘iydir qushlarning boshi,
Miri shikor[1] qo‘lga olmas har qushni,
Gula oshiq bo‘lish bulbulning ishi
Qarg‘a bulbul bo‘lib gulga yarashmas.

Yashilbosh o‘rdaklar ko‘llarda suzar,
Ko‘lning havosiga solsang bir nazar,
Hayvon kezgan yerda hayvonlar kezar,
Jayrondan o‘zgasi cho‘lga yarashmas.

Yigit bo‘lsang, mayda gapni so‘ylama,
Botir bo‘lsang, qilar ishing o‘ylama,
Uylansang qiz ol, hech tulga uylanma,
Yigitni yig‘latish qizga yarashmas.

Maxtumquli, besh kun mastona so‘yla,
Yolg‘onchida[2] seni qo‘ymaslar bo‘yla[3],
Har yerda o‘zingdan ulug‘ni siyla,
Ulug‘ni yig‘latish yoshga yarashmas.

---

[1] **Mirishikor** — ov amiri: saroyda ovchilik ishlari bilan shug‘ullanadigan kishilar boshlig‘i.

[2] **Yolg‘onchi** — Maxtumquli she’rlarida bu so‘z o‘tkinchi dunyoning sifati bo‘lib keladi.

[3] **Bo‘yla** — bunday, shunday, shu xil, shunaqa.

RANGIDAN MA'LUM

Bir qulga sen og'a, beksan desangiz,
To'fangdan[1] suv ichar, jangidan ma'lum.
Bir qul bilan birga taom yesangiz,
Joningga no'sh bo'lmas, so'ngidan ma'lum.

Tog'dan yuksak bo'lar qulning xayoli,
Bibisiga salom bermas ayoli,
Xojasi qahr etsa, o'zgarib holi,
Irg'ib tushar, fe'li to'ngidan ma'lum.

Asilzoda ko'rsang, ko'ngling yayraydi,
Olis yerdan zotdor otni saylaydi,
Qul bilan so'zlashsang, ko'ngling aynaydi,
Hazir bo'l, ko'zining rangidan ma'lum.

Quldan oshna chiqmas aslin so'rashib,
Yobi yurmas bedov bilan yarashib,
Halol ketsa harom bilan qorishib,
Egri qush burnining kengidan ma'lum.

Qulga qul deyilsa, o'lgisi kelar,
Bekka qul deyilsa, kulgisi kelar,
Qulning qizin olgan nomusdan o'lar,
Har kishining nomus-nangidan[2] ma'lum.

Quldan tug'ilsa bir botir Go'ro'g'li,
Baribir qul derlar uni — qul o'g'li,
Baxshi bo'lib, soz ham tutsa qul o'g'li,
Lalav-lalav der — ohangidan ma'lum.

Bobomiz qardoshi emreli, taka,
Suyunxon elida qoldik biz yakka,

[1] **To'fang** — o't ochuvchi uzun qurol, miltiq.

[2] **Nang** — or, nomus.

Tuyaga dud yoqmas, qulga ma'raka,
Birini qul desang, mingidan ma'lum.

Senga qo'shilmaydi begona qoni,
O'qiganga yetmas qozi unvoni,
Shohini o'ldirsang, sochilgan qoni,
Qizilbosh to'nining yengidan ma'lum.

Bir qulga bek desang, o'zindan ketar,
Bilmay o'zin, ma'rakada so'z qotar,
Ishing tushsa, yuzin osmonga tutar,
Qul yursa, ensasi — so'ngidan ma'lum.

Sen osh-u non bersang, hamma yeb-ichar,
Xotinga sir aytsang, siringni ochar,
Qulingni bo'sh qo'ysang, bir kuni qochar,
Badaslning asli tengidan ma'lum.

Firog'iy, yigitlik o'zi bir fasl,
Qul o'g'lidan harchand qolsa-da nasl,
Oqsoqol bo'lolmas sira badasl,
Kumushga mis qo'shsang, zangidan ma'lum.

BOG'LA BELING

Quloq sol, odamzod, senga pandim bor,
Haq yo'liga bog'la beling, odamzod.
Yaxshi nasihatdan bo'lmagil bezor,
Yomoni bo'lmagil elning, odamzod!

Yomon bo'lsang, osilarsan bo'yningdan,
El-yurt bezor bo'lar chin-u o'yningdan,
Kechmagil aslingdan, qaytma diningdan,
Sanodan ayirma tiling, odamzod.

Yaxshi odam bo‘lsang, doim tur sahar,
Sendan omon bo‘lsin qishlog‘-u shahar,
Tilingdan to‘kmagil hech qachon zahar,
Sochilsin hamisha boling, odamzod!

Bir so‘zda tur agar aylasang qaror,
Hech qachon birovga bermagin ozor,
Namoz-u ro‘zangdan bo‘lma hech bezor,
Oxirat farzingdir, biling, odamzod!

Iymonga quvvatdir — qil xayr-savobni,
Gunohkor bandalar chekar azobni,
Qiyomatda sendan so‘rar javobni,
Nima deyishni hal qiling, odamzod!

Maxtumquli, do‘stdan ayama joning,
Ko‘nglingni topganga baxsh ayla noning,
Do‘stlar, poyoni yo‘q ushbu dunyoning,
Yaxshidan nasihat oling, odamzod!

OTI YAXSHIDIR

Yemoq, ichmoq, minmoq, quchmoq murodi,
Yigitning murodi — oti yaxshidir.
Gohi yarog‘, gohi mahbubi bilan,
Mardning o‘g‘li — zurriyoti yaxshidir.

Xayrli el yaxshi xayrsiz eldan,
Xayrli qul yaxshi xayrsiz pirdan,
Na olar, na berar nokas baxildan
O‘z o‘rnida bo‘lsa qattiq yaxshidir.

Toshga tegsa qaytmas, o‘q chiqsa yoydan,
Shirin taom yaxshi tilla saroydan,
Ehsonsiz beklardan, xayrsiz boydan,
Bozordagi baqqol hatto yaxshidir.

Orif bo'lsang, ma'no angla har so'zdan,
Eshitganing aytma o'tkazmay ko'zdan,
Yengiltak kelindan, kulag'on qizdan,
Mo'ltillab o'tirgan lo'li yaxshidir.

Maxtumquli, tila Parvardigordan,
To O'zi qo'ymagay til bilan yordan,
Benamoz kimsadan, yo o'g'ri erdan,
Cho'ponning eshagi, iti yaxshidir.

YIGITNING

Beklar, bu dunyoda bo'lsa kifoyat
Ko'ksi uzra yoniq o'ti yigitning.
Ro'zg'ori but bo'lsa, davlati ziyod,
Yaqin bo'lar yetti yoti yigitning.

Mard yigit duch kelsa xazina — kona,
Bu ziynat yarashmas har bir makona,
Moli ziyod bo'lsa, oqil-u dono,
Ko'kka ko'tarar qanoti yigitning.

Yigit degan rostgo'y bo'lsin, to'g'ri so'z,
Barkamol farzandga lozim tiyrak ko'z,
Yoshi xohi ellik bo'lsin, xohi yuz,
Nokas bo'lsa, qolmas oti yigitning.

Mard yigitga madad bersa farishta,
To'rt tomoni bo'lar uning sarishta,
Obro'-hurmati ham bo'lsa har ishda,
Kerak ko'ksi ichra o'ti yigitning.

Gul tegrasi nechun bo'lmasin xorsiz,
Yigit hech bo'lmasin nomus-u orsiz,
Elsiz, qarindoshsiz qolsa, g'amxo'rsiz,
Hech yerga yetmaydi dodi yigitning.

Orzusi ko‘p, ammo, keltirmas tilga,
Arabiy ot, shamshir, olmos tig‘ qo‘lga,
O‘xshab jannat ichra qirmizi gulga,
Kerak go‘zal parizodi yigitning.

Maxtumquli, bo‘lsa u intiluvchi,
Adolati bilan devon so‘ruvchi,
Har yerda kerakdir ko‘p pul beruvchi,
O‘rnagi — komil ustodi yigitning.

O‘TGANDAN KEYIN

Quvonmagil bu dunyoning moliga,
Barchasi qolar sen o‘tgandan keyin.
O‘tib ketar vorislaring qo‘liga,
Ajal kelib yoqang tutgandan keyin.

Bari o‘tdi — endi teng-u to‘shing yo‘q,
Masjid bilan, mehrob bilan ishing yo‘q,
Ro‘za bilan, namoz bilan hushing yo‘q,
Ne dersan manzilga yetgandan keyin.

Tish to‘kilib, bukiladi tizlaring,
O‘g‘il-qizga yoqmas aytgan so‘zlaring,
Dunyo havasidan to‘ymas ko‘zlaring,
Ko‘z to‘yar oy-kuning botgandan keyin.

Ey odamzod, bir kun o‘tda yonarsan,
Bir shishasan — bugun tongda sinarsan,
Bir kun kelib yog‘och otga minarsan,
Yo‘qsan yer ostida yotgandan keyin.

Quvvat qochar, bel bukilar, hush ketar,
Sening bilan yurgan teng-u to‘sh ketar,
Maxtumquli, ikki qo‘ling bo‘sh ketar,
El kelib tobuting tutgandan keyin.

OZORI MA'LUM

Ey azizlar, bu yolg'onchi dunyoda
Har kimning o'ziga ozori ma'lum.
Na senda gunoh bor, jonim, na menda,
Har hayvonning qaydan suvlari ma'lum.

Bu keng dunyo mening uchun zindondir,
Kimlar bechora-yu kimga davrondir,
Sabr aylang, do'stlar, Haqdan farmondir,
Nomardlarning marddan bezori ma'lum.

Asli odam bu dunyoga kelmasa,
Kelgandan so'ng g'am-qayg'uni bilmasa,
Uzoq umr ko'rsa, sira o'lmasa,
Har zamon Azroil nazari ma'lum.

Foniy dunyo, nega yo'qdan bor bo'ldim,
Qismatim yomondir — senda xor bo'ldim,
Bir kunim xush bo'lsa, bir kun zor bo'ldim,
Falakning aylagan nisori ma'lum.

Falak aylanadi, o'tar bu kunlar,
Jondan quvvat ketib, titraydi tanlar,
Yot bo'ldi Qur'onlar, unutdir dinlar,
Dunyoni bir ofat bosari ma'lum.

Xato qildim, sabrim ko'pdir ishingga,
Sen ham o'z qulingni keltir hushingga,
Ali pirim, qurbon bo'lay boshingga,
Kofir qonin to'kkan shamshiri ma'lum.

Bu dunyoda yaxshi-yomon bir bo'ldi,
Mard yigit yot bo'ldi, nomard er bo'ldi,
Kuchiga kuch qo'shib, ko'plar zo'r bo'ldi,
Mulla-eshon yo'ldan urari ma'lum.

Qismat tortib, ul yerlara borilar,
Pulsirotdan o'tib, bihisht ko'rilar,
Gunohni o'lchashga mezon qurilar,
Jon olib, jon sotar bozori ma'lum.

OTDAN AYRILSA

Afg'on shohining hech so'zin tutmaslar,
Taxti ketib, u Hirotdan ayrilsa.
Parvonalar o'zin o'tga otmaslar,
Charx pand berib, yori — o'tdan ayrilsa.

Dunyoda kim faqir, kim moldan qonar,
Kimlar ko'chishar-u kimlardir qo'nar,
Mard yigitlar yig'lab, nomardga do'nar,
Keskir qilich, uchqur otdan ayrilsa.

Mard jang kuni o'zin maydonga urar,
Ko'k tomirdan qirmiz qonlar to'kilar,
Po'lat bel xam bo'lib, tizlar bukilar,
Er keksayib, kuch-quvvatdan ayrilsa.

Omad ketsa, bir ish qilish mushkildir,
Tishlaring qolmasa, holing kulgidir,
Qoplon tutgan mard yigitlar tulkidir,
Yolg'iz qolib, shijoatdan ayrilsa.

Yurtni vayron qilar kelsa yasovlar[1],
Parilar, qarilar, yo'q bo'ldi devlar,
Mard yigitga shon keltirgan bedovlar,
Eshak bo'lar yol, quyruqdan ayrilsa.

Ichdan tashga chiqar nojo'ya so'zlar,
Qoshlar to'kiladi, ko'r bo'lar ko'zlar,

[1] **Yasov** — 1) saf, qator; 2) xavf, xatar.

Oyni uyaltirgan navnihol qizlar,
Qadri qolmas latofatdan ayrilsa.

Falak oldi el qo'lidan qarorni,
Solar bo'ldi boshga ketmas ozorni,
Kulga aylanadi oshiqlar zori
Bulbul kabi oh-faryoddan ayrilsa.

Oh-u ayro tushsa, yurtin so'roqlar,
Yemrilar, yo'q bo'lar bu yuksak tog'lar,
Mo'minlar Ollohga yolvorib yig'lar,
Sohibqiron ul ummatdan ayrilsa.

Cho'kkan gavda qayta oyoqqa qalqmas,
Zamin odam yutib, xaltumi to'lmas,
Go'zal bo'lgan bilan qimmati bo'lmas,
Hur, parilar sharm-uyatdan ayrilsa.

Ko'ngil xohishlari ko'klardan oshar,
Kishi bilmay bir kun iymoni qochar,
Maxtumquli, ota-ona qarishar
Ko'z nuri bir zurriyotdan ayrilsa.

QUTULMADIM ZULMINGDAN

Toleyim ters aylab, ey foniy jahon,
Xor aylading, qutulmadim zulmingdan.
Bu bergan dardingga topilmas darmon,
Chekina bilmadim yurgan yo'lingdan.

Ko'zni shod, jismimni bejon aylading,
Yo'ldan urib, oldda mezon aylading,
Yeganim bol edi, sen qon aylading,
Ne nodonman — olib ichdim qo'lingdan.

Xayolim buzuqdir, shaytondir fe'lim,
Parvoz qilay desam, bog'liqdir qo'lim,

Molimni yer yutdi, tersdir iqbolim,
Qo'l yuvibman bu dunyoda molingdan.

Bu falak ostida hushim uchibdir,
O'tni, ko'rmay turib jonim pishibdir,
Solingdan davlatim suvga tushibdir,
Ummon ichra qolar bo'ldim solingdan.

Men beqaror edi, mard inson keldi,
U mardni izlab bir navqiron keldi,
Yarim tun yonimga bir mehmon keldi,
Meni sinash uchun o'tib so'lingdan.

Ul ne kishi — o'n besh otin tutibdir,
Doim otash ichra qo'ymay yotibdir,
Ipi yo'q kamondan o'qin otibdir.
Ne sababdir so'zlabdi u tilingdan.

Ul ne qushdir, uchib, qo'nmas zaminga,
Yo'l ko'rsatmish Iso bilan Aminga,
Arg'umoq yo fillar tushsa damiga,
Suzib chiqmas, g'arq bo'ladi selindan.

Sakkiz kun yig'labog' o'n kun ichmish qon,
Tili lol — bir so'z ham aytolmay hayron.
Dunyoda fasodni tanlab begumon,
Qochib kelgan emish Azozilingdan.

Ul to'rt qardosh mudom bir-biriga chap,
Har biri bir pirdir, har so'zi saboq,
Kuz vayron aylagan, qishi ham xarob,
Bir parchani tortib olmish yo'lingdan.

Maxtumquli, ne ajoyib ishlar bor,
Jon matosin sotar, topmas xaridor,
Yig'lab hatto Arsh uzra Parvardigor,
Beqaror bo'lmish ko'zdagi selingdan.

JON AYLADING

Yo Rabbim, Jalilim, Qodir Subhonim,
Tuproqdan yaratib, Sen jon aylading.
"Qisas ul-anbiyo", sohibqironim,
Baxsh etib, elni musulmon aylading.

Nodonlar, mard bo'lib tug'ilgan erlar,
Yetti qavat osmon, yetti qat yerlar,
Aqlsiz boshlar-u ma'noli tillar,
Har kimga bir ishni davron aylading.

Kimni g'arq aylading tubsiz ummonda,
Kimni tutar bo'lding bir nohaq qonda,
Sulaymon taxtini qurib osmonda,
Har kimga bir joyni makon aylading.

Kimning umri o'tar surmay davronni,
Kim to'ldirar tilla bilan do'konni,
Kimlar tark aylaydi go'zal makonni,
Har kimga bir boshqa vatan aylading.

Kim bechora yashar, kim Hotami Toy,
Kim jannatga tushar, kimga do'zax joy,
Kim yalang'och yurar, kim kiyar sarpo,
Kimni tuproq qilib, bejon aylading.

Kim tutar amringni, kim chiqar yo'ldan,
Kim judo ko'z-qoshdan, kim qolar qo'ldan,
Kim davlat topadi har harom moldan,
Kimga g'am-g'ussani sen non aylading.

Kim otga minadi yarog'in shaylab,
Kim toqqa chiqadi havaslar aylab,
Kim uyida yotar davlatin poylab,
Kimni g'ussa bilan nodon aylading.

Kimni yetim qilding, kimnidir elsiz,
Kimni qori qilding, qanchani tilsiz,
Daryoni jo'shtirib, sahroni selsiz,
Jazolab, ul joyni vayron aylading.

Qani u taxtini ko'kda soldirgan,
Dam urib, devlarni har yon yeldirgan,
Azm ayblab, tog'larning toshin jildirgan,
Sulaymonni rasvo jahon aylading.

Maxtumquli, so'zing qadrin bilmaslar,
Nasihat aylasang, yaqin kelmaslar,
Bunda kelgan yig'lar, uzoq kulmaslar,
Tuproqning ostidan vatan aylading.

KUNLAR, HEY

Bir siqim tuproqdan dunyoga inib,
"Yo Rab, jon ber!" — deya kezgan kunlar, hey.
Yaxshidan uyalib, yomondan qochib,
Kulfat bilan hamroh bo'lgan kunlar, hey!

Ortda qoldi yigitlikning bahori,
Foyda qilmas endi ko'ngil oh-zori,
Ishq o'tining tushib uchqun — sharori,
Shirin jonga otash solgan kunlar, hey!

Aqlim yetmas — ne balolar tashimda,
Charx uradi hijron o'ti boshimda,
Falak o'ynab kecha-kunduz qoshimda,
Baxtimga bu dunyo kulgan kunlar, hey!

Baxilning hech qaynamaydi qozoni,
Qoshimda quribsan yana mezonni,
Ummondan yuksalib falak xazoni,
Gul-g'unchaga hijron solgan kunlar, hey!

Ishq o'tiga tushib yondim, yoqildim,
Ba'zan yomonlarga borib qo'shildim,
Foniy dunyo yolg'on ekanin bildim,
Umrim zoye qilgan yolg'on kunlar, hey!

Shayton kelib mindi mening solimga,
Qush kabi mo'ltirab boqdi holimga,
Norasta deb, olar bo'ldim qo'limga,
Qarasam, qo'limda ilon kunlar, hey!

Maxtumquli, endi aribdi dardim,
Pashshaday holimga qush kabi erdim,
Nomard bo'libdi or-nomusli mardim,
Bermading ularga poyon kunlar, hey!

AQL-U HUSH BILAN

Kel, ko'nglim, baridan qo'ling yuv, hayhot,
Ne kunlarga qolding aql-u hush bilan.
Asiringman, bu zulmdan ber najot,
Men tiz cho'kib, yig'lar bo'ldim yosh bilan.

Umrim o'tganini ko'ra bilmadim,
Chaqirilgan joyga bora bilmadim,
G'arib, yolg'iz — qo'rqib yura bilmadim,
Uchrashtirmading ul qarindosh bilan.

Quyoshim botibdi, boshim egarman,
Qo'limdan tutishga odam tilarman,
Har kun tong-sahardan nola etarman,
Haq qoshida har kun erta-chosh bilan.

Har yurgan yo'limda hozir bo'larsan,
Men bilan kurashish balki tilarsan,
Ketma-ket may berib, behush qilarsan,
Doim yolg'iz qolar bo'ldim no'sh bilan.

Kim so‘zimni tinglar, kim dardim anglar,
Kim ichiga yutar, kim elga aytar,
Ovozim tog‘larga urilib qaytar,
Urar bo‘ldi falak ul gardish bilan.

Ko‘zlarim ko‘rmadi, aqlim o‘tmadi,
Oyog‘im yurmadi, qo‘lim tutmadi,
Zorimga hech kishi rahm etmadi,
Umrim uchib bordi, qarang, qush bilan.

Zulmingdan yig‘ladim, o‘tingda yondim,
Husningga aylading asir — quvondim,
Boshimni g‘am chulg‘ab, nega tayandim?
Atrofimga boqsam, qolmish losh bilan.

Ko‘zim bog‘liq, o‘tib ketdim Eronga,
Rizqim tortib, qaytar bo‘ldim Turonga,
Falak tegirmonin qurib xazonga,
Surar bo‘ldi, dushman bo‘ldim bosh bilan.

G‘am ko‘p ekan, sig‘mas tasavvurga ham,
Tilla deb tutganim qum chiqar har dam,
Dunyoda ko‘rganim faqat jabr-sitam,
O‘zim do‘st tutindim g‘am-tashvish bilan.

Bu ne qabohatdir, ne yomg‘ir yog‘ar,
Aylanib gardishi charxning oy tug‘ar,
Dunyoda to‘rt fasl — yilda bir kelar,
Sirdosh bo‘lib qoldim doim tush bilan.

G‘am chekib, yosh to‘kish ishim tun-u kun,
Qayg‘u libos bo‘ldi, taom qon butun,
Qaysni qarang, bo‘ldi ishqida Majnun,
Layli bandi etmish tola soch bilan.

Ko‘ngil istar — kezsam Chin-Mochin, Hirot,
Deydilar: “Do‘zaxda qurilmish sirot”,

Gul yuzida hind-u xolli parizod
Yaratibsan nargis ko‘zni qosh bilan.

Bu dunyoda nohaq men ixlos qildim,
Jazoni o‘ylamay ko‘p havas qildim,
Ko‘nglim ichra omiy bilan xos qildim,
Taqdir esh aylabdi shu tashvish bilan.

Oqadi dunyoda insonning soli,
Qimirlashga qolmas bir kun majoli,
Yonar Maxtumquli ichi o‘t olib,
Sirdosh bo‘lib borar bir darvesh bilan.

ANORI BORDIR

Odam o‘g‘li nelar so‘zlab o‘tmadi,
Dunyoning bog‘ida anori bordir.
Ko‘rganini so‘zlab aytib ketmadi,
Jon matosin sotgan bozori bordir.

Xazonga tutmish foniy[1] ayyomi,
Qo‘lida ko‘tarmish hijronning jomin,
Jayhun daryo bilan Nil-u Qulzumni,
Bir ulug‘ ummondir — Xazari bordir.

Qo‘l, oyog‘i bog‘liq — keta bilmagan,
Murod-maqsadiga yeta bilmagan,
Hech bir Luqmon davo eta bilmagan,
Jon shahrinda hijron ozori bordir.

Bog‘-bo‘stonning g‘unchasini o‘rtagan,
Turon, Bulg‘or, Chin-Mochinni o‘rtagan,
Inson, hayvon — barchasini o‘rtagan,
Otashdan ham o‘tkir nazari bordir.

[1] Foniy, yolg‘onchi so‘zlari Maxtumquli she’rlarida o‘tkinchi dunyoning sifati bo‘lib keladi.

Har dam yonib, bir lahza ham so'nmagan,
Bir pari bor — otash uzra yonmagan,
Inson, hayvon cho'chib, doim inmagan
Obi kavsar otlig' guzori[1] bordir.

Bir doston bitdim keksaygan chog'larda,
Bulbullar qaribdi Eram bog'larda,
Osmono'par yuksak toshli tog'larda
Behisob uzumi ham mori bordir.

Yolg'iz Haqni yodlab, erkin yotmassan,
Orzuning so'ngiga sira yetmassan,
O'yin qilib, bu falakni yutmassan,,
Yutganda ham uning o'tari bordir.

Birday jafo chekar sulton-u darvesh,
Yomg'irlar to'xtamas, tugamas tashvish,
Bilmaydi deb qilsang dunyoda bir ish,
Oldingda hozirdir — xabari bordir.

Aqli bo'lmas, derlar, qorni ochlarning,
O'rni yo'qdir, derlar, yalang'ochlarning,
Bizning elning — mard-u jasur yoshlarning,
Uchqur oti-yu zulfiqori bordir.

Qochib qutulmassan — quvib yetarlar,
Qasdi bordek chalib, yoqang tutarlar,
Qo'l-oyog'ing bog'lab, go'rga otarlar
Ahli ayolingning oh-zori bordir.

Maxtumquli, ko'p ishlarni ko'ribman,
Keksayibman, ixtiyorim beribman,
Tutib dodin beray deya yuribman,
Bilsam, makr dunyoning yori bordir.

[1] **Guzor** — o'tish, kechish.

CHIQOLMAYDI UYINDAN

Nomard mardni ko'rsa, g'ussaga botar,
Xasta bo'lib, chiqolmaydi uyindan
Xotiniga qarab qahr-g'azab etar,
G'azabini sochar yotgan joyindan.

Deydilar: — Chekibdi alam, hasratni,
Boshidan tushmasin dunyo ofati,
Eshitdim, kelarmish Iso-yu Mahdiy,
Haq siylab, chiqadi yerning tayindan.

Qancha mardlar o'tdi elga suyanmish,
Orzulari armonlarga ulanmish,
Qon bilan yo'g'rilgan jigarim yonmish,
Dunyoga kelib yashagan sayindan.

Hijron kelar bo'ldi o'qini otib,
Qancha jonni qora tuproqqa sotib,
Ahmoq pir, sen yuzing osmonga tutib,
Nelar olib bording elning boyindan.

Oqibatin bilmay bag'rim yondirdim,
O'zim ichmay ishq mayidan qondirdim,
Go'zal yorim, salom yuborib erdim,
Senga muborak ramazon oyindan.

Muftilar so'zimga tavba qilibdi,
Nafs qo'zg'ab, Qorunga hamroh bo'libdi,
Deydilar: "Zaminga odam kelibdi,
Jang qilib chiqibdi lahad loyindan".

Falak o'yin qilib, yiqqaning oldi,
Har kimga bir jonni jarima soldi,
Iskandar, Jamshiddan, ayting, ne qoldi,
Bir narsa qoldimi taxt-saroyindan?

Odam o‘g‘li o‘tsa hasrating kuni,
Nuh tark etib chiqar emish ummonni,
Siylab orzuyimga yetkazdi meni,
Har kun yuz o‘parman qo‘l-oyog‘indan.

Baxtimni bilay deb, ko‘nglim ochmish fol,
Oqibat bu ne hol deya qolmish lol,
Yorning gul yuzida ko‘rib go‘zal xol,
Quvsam-da ketmaydi uning ko‘yindan.

Deydilar: “Dunyoda bir daraxt bitmish,
Ul daraxtning boshi osmonga yetmish”.
Tilla, la’l-u marjon maqsadga yetmish,
Makon aylab olib yorning bo‘ynindan.

Falak aylanadi — ketdi do‘st, qardosh
Bir kezgan u joylar qolibdi bo‘m-bo‘sh,
Maxtumquli aytar: uchdi aql-hush,
Sarxush bo‘lib bu hijronning mayindan.

TOG‘LAR FE’LI

Men uzoq vaqt bo‘lib do‘st-u qadrdon,
Oxir bilib oldim fe’lin tog‘larning.
Yon-bag‘ridan terib anvoyi rayhon,
Bulbulga tutarman gulin tog‘larning.

Demang o‘zim topdim hikoyat o‘ylab,
Birma-bir chiqibman, axir, sayr aylab.
O‘tiribman kecha-kunduz hisoblab,
Nuhdan o‘tkazibman yilin tog‘larning.

Hasrat bilan doim yig‘lab-kuyarman,
Asaling o‘rniga zaqqum yeyarman,
Yaylovdagi shudringlarin suyarman,
Ovlar bo‘ldim go‘zal molin tog‘larning.

Chillada mast kezdim bahor, kuzinda,
Kulrang qo'ylar ovlar bo'ldim tuzinda,
Qora toshda — Haq siylagan yuzinda,
O'qir bo'ldim men xayolin tog'larning.

Dunyo rasvo bo'lib, cho'kib yotibdi,
Jahonning xirojin toshga sotibdi,
Falak ko'rib bu ganj — konni yutibdir,
Eliga baxsh etmay bolin tog'larning.

Ko'rganning mehrini ziyodat qildi,
Hatto nomardlarni ham pisand qildi,
Elini yozg'irib, dunyo band qildi,
Bahor chog'i jo'shgan selin tog'larning.

Qish-u bahor ketmas boshidan qorlar,
Toqqa boqib zorlar ma'shug'in yorlar,
Jang chog'i jon olib-jon berib erlar,
Losh bilan bog'ladi yo'lin tog'larning.

Iskandar boshidan yo'l solib kelmas,
Rustami Zolni ham ko'ziga ilmas,
Iso qo'llamaydi, Haq shafqat qilmas,
Charx xarob qildi ahvolin tog'larning.

Qora toshlar mardlar dardiga yonmas,
Marjonni yutadi, tilladan qonmas,
Yayrab ochilsa-da, bulbullar qo'nmas,
Ilonga rizq etmish gulin tog'larning.

Falak o'yin qilar — tushmas boshidan,
Hech xabar olmaydi g'am-tashvishidan,
El-u yurt ertalab ko'z ochishidan
Olqishlaydi baxt-iqbolin tog'larning.

Yonbag'rida mastdir ul chopqir otlar,
Yuzin ko'rsa yig'lar yovmut, avlodlar,

Dunyo deb sargardon mohir sayyodlar,
Kechuvda urar o‘g‘log‘in tog‘larning.

Ustinda ko‘rmisham tuman bozorin,
Yonbag‘rida ko‘rdim suvning guzorin,
Maxtumquli har dam solib nazarin,
Unutmas hech bu jamolin tog‘larning.

FALAK BERGAN DAVRONA

Odam o‘g‘li, o‘tinchim bor, olmassan,
Ko‘zing to‘ymay falak bergan davrona.
Tavba qilib, o‘z fe’lingdan qolmassan,
Bu qilmishing o‘xshar xuddi Qoruna.

G‘am uyida qolar bo‘ldib sarg‘ayib,
Gunoh qildim mo‘minlarga qarg‘anib,
Kecha-kunduz sarson-sargardon yurib,
Jafo qilar bo‘ldim bu shirin jona.

Izlar edim — oldda bir guzar ekan,
Sozmi deb borganim oh-u zor ekan,
Xazondan qurilgan bir bozor ekan,
O‘zim bilmay tushdim foniy jahona.

Bu dunyoning yetmish ikki tili bor,
Ummonida to‘lqin, tog‘da seli bor,
Turli fe’l-atvorli turfa eli bor.
Barcha yurtda davron bermish sultona.

Yomonni ko‘rmayin — ko‘zim ko‘r bo‘lsin,
Yig‘i eshitmayin — quloq kar bo‘lsin,
Men yemayin — dunyo to‘ysin, zo‘r bo‘lsin,
Ko‘zim yetar — bir kun bo‘lar vayrona.

Kim haqini yesa cho‘ri-yu qulning,
Bo‘g‘zidan osilar qiyomat kuni,
Hech kimni ayamas dunyo lochini,
Qon yig‘lab dastidan keldim omona.

Dard zo‘ridan ko‘zlarimda qon edim,
Bu dunyoda go‘yo quruq son edim,
Erta taxt ustida men ham xon edim,
Qarang, tushdan keyin bo‘ldim devona.

Mard yigitdan ham qilich, ot ketibdi,
Botirlardan kuch-u g‘ayrat ketibdi,
Ko‘zim xira, tizdan quvvat ketibdi,
Yoki qismat shundaymidir insona?

Tog‘larni qaritar chekkan fig‘onim,
Zindonga aylanmish go‘zal makonim,
Maxtumquli aytar: ey qadrdonim,
Tavba aylab, yuz tutaylik Subhona.

JONGA DUSHMANDIR

Odam o‘g‘li, davroningga quvonma,
Yiqqan barcha mo!ing jonga dushmandir.
Jonon olsang, jamoliga ko‘p boqma,
Sohibjamol ul jonona dushmandir.

Yomondan asragil doim tilingni,
Yaxshilikka uzataver qo‘lingni,
Buzma dunyo molini deb fe’lingni,
Shayton vosvos, bil, iymonga dushmandir.

Bu dunyoga kelib-ketdi ko‘p inson,
Birini ham omon qo‘ymadi davron,
Odam o‘g‘li bo‘lar o‘zi ham hayron,
Yiroq tushmak ul vatanga dushmandir.

Bizning ko‘zlar ko‘rar bo‘ldi yomonni,
Yoki kelganmikan shunday zamoni?
Tog‘ boshidan ketar bo‘ldi tumani,
Baland tog‘lar sel — to‘fonga dushmandir.

Qani bu jahonni so‘rgan Sulaymon?
Qani Misr shohi Yusufi Kan’on?
Qarang, barchasini ayladi pinhon,
Molin oldi, ul Qorunga dushmandir.

Qani din otasi, kechdi Muhammad,
O‘tdi turkistonlik ul Xoja Ahmad,
Bilmayman, falakda nimadir maqsad,
Qasosi bilan Qur’onga dushmandir.

Tishidan ayrilgan ul Vays ul-Qaran,
Falakning qo‘lida bo‘ldi ovora,
Shohimardon Ali kechmish bechora,
Zolim falak bu davronga dushmandir.

Uch yuz oltmish g‘oyib eran nayladi,
Barchasining jonin tuproq ayladi,
Kimlar boqiy qolib, doston so‘yladi,
Makkor falak ul dostonga dushmandir.

Ko‘rganim aytmasam, tortmayman yengil,
Nazar solsam, ko‘zim xira tortmish, bil,
Ne bo‘lishin bilmas bandayi g‘ofil,
Gado aylar, boq, sultonga dushmandir.

Tog‘lar yonbag‘rida g‘uncha gulim bor,
Yor yuzini tutgan bir kokilim bor,
Maxtumquli, aytma: “Asal tilim bor”,
Nodon falak ul zabonga dushmandir.

O‘XSHAR CHILIMKASH

Har zamon qo‘l solib, cho‘ntagin kovlar,
Ko‘p dunyosi borga o‘xshar chilimkash.
Bir-birini mudom uyiga chorlar,
Xayr-atosi borga o‘xshar chilimkash.

Qishloq kelsa, ko‘zi ortida turar,
Hamrohin to‘xtatib, yo‘lidan qo‘yar,
Ozu ko‘pga borib o‘zini urar,
Muddaosi borga o‘xshar chilimkash.

Ichdan ado bo‘lgan, zo‘r berar — tuflar,
Yerni chuqur qilib egilar — tuflar,
Har bir tirishganda suv deyar — tuflar,
Bir balosi borga o‘xshar chilimkash.

Bir achchiq tutunni ichiga solar,
Aqlini, hushini, kuchini olar,
Kayfi oshib, ko‘nglin bo‘shatib qolar,
Diydiyosi borga o‘xshar chilimkash.

Maxtumquli, aytsam chilim sha’nina,
Ulfatlari ko‘p yig‘ilsa yonina,
Ziyoni bor jismiga, iymonina,
Nafs gadosi — xorga o‘xshar chilimkash.

EMASMI?

Arzimni eshiting, ey ahli bashar,
Barchani yaratgan Rahmon emasmi?
Namoz-u ro‘zari tark etmang, do‘stlar,
Yo‘lin ajri jannat — rizvon emasmi?

Aytmoqlik vojibdir, eshitmoq savob,
Yaratgan barchaga berar haq javob,

Bu zamon so'fisi yolg'onchi, kazzob,
Va'dasi, iqrori yolg'on emasmi?

Birov bir kimsaga omonat bersa,
Tinglab ixlos bilan, to'g'risin desa,
Agar omonatdan bir zarra yesa,
Qiyomatda u ham shayton emasmi?

To'g'ri so'zni sirli qilib so'zlarlar,
O'z moliga to'ymay, xalqdan ko'zlarlar,
O'g'illar otadan avval so'zlarlar,
Bu shunday "ajoyib" zamon emasmi?

Nomard eshigi berk — yo'qdir ravosi,
Mehmon kelsa bo'lmas zavq-u safosi,
Xotinga kiydirib alvon libosni,
Husniga termilib, hayron emasmi?

Maxtumquli, so'yla aqling yetgancha,
Oxiratni o'yla, bekor yotguncha,
Do'zaxdasan to Sirotdan o'tguncha,
Pirimiz Bekturdi Eshon emasmi?

DUNYODAN

Dardimni qilsam bayon, dilda armondir dunyodan,
Kim nomard bo'lsa, biling, unga darmondir dunyodan.

Bechoralik dardidan men zor yig'lab o'tar bo'ldim,
Hech vafosi bo'lmadi, bu jigar qondir dunyodan.

Umrimning solini men soldim dunyo Jayhuniga,
Qasd etib, soldi talon, mulkim vayrondir dunyodan.

Yaxshi qardoshlar, ko'ring, molga qiziqib ketdilar,
Jismim ichra quruq qolgan quruq jondir dunyodan.

Bir umr motam tutib, qoldim, Firog'iy, yosh bilan,
Men qayerga bormayin, ishim ziyondir dunyodan.

FONIY DUNYO

Nechani gado aylading, foniy dunyo, foniy dunyo,
Oshiqni judo aylading, foniy dunyo, foniy dunyo,

Yaxshini berding yomonga, bedovni nomard insonga,
Mard yigit qoldi gumonga, foniy dunyo, foniy dunyo.

Odil shohni gum aylading, makonini qum aylading,
Qorunga ganj jam aylading, foniy dunyo, foniy dunyo.

Iskandarning oqdi soli, vaqt o'tdi, qoldi yo'li,
Majnunni sen qilding dali, foniy dunyo, foniy dunyo.

Isoga berding bir eshak, Qorunga qasr, tillo, bezak,
Oshiq yorga yetmay halak, foniy dunyo, foniy dunyo.

Yomonni elda xon etib, nomardni mard inson etib,
Binolarni maydon etib, foniy dunyo, foniy dunyo.

Gullarni aylab za'faron, ko'r ko'zni ochib begumon,
Jismimni aylab notavon, foniy dunyo, foniy dunyo.

Nasimiy terisin shilib, o'z elidan olding yulib,
Ulug' elga mirzo qilib, foniy dunyo, foniy dunyo.

Odamga yuz hiyla etding, halolga haromni qotding,
Omonat jonimiz yeding, foniy dunyo, foniy dunyo.

Shayton qilib Azozilni, uzaytding yaqin manzilni,
Yo'q senda davron hazili, foniy dunyo, foniy dunyo.

Sulton Hubbi g'oyib bo'ldi, so'yla, sendan nima oldi?
Bir kun xazon yeli keldi, foniy dunyo, foniy dunyo.

Jamshid yotar yer qa'rida, Qorunni bosding qasrida,
Kelding Mirali qasdida, foniy dunyo, foniy dunyo.

Yaxshilarga yomon duchor, mardga esa bevafo yor,
Barin yutding o'ynab qimor, foniy dunyo, foniy dunyo.

Kelganlar ketdi — turmadi, hech kim senga dil bermadi,
Gadolar safo ko'rmadi, foniy dunyo, foniy dunyo.

Yov ishiga berding rivoj, qozonda qaynab qaldirg'och,
Faqirlar qoldi yalang'och, foniy dunyo, foniy dunyo.

Yomonlarga qilding vafo, yaxshilarga berding jafo,
Hech kimsa surmadi safo, foniy dunyo, foniy dunyo.

Yomonlar yaxshiga kuldi, tuban fe'ling elga bildi,
G'arib Maxtumquli so'ldi, foniy dunyo, foniy dunyo.

YOLG'ON DUNYO

Kel, sendan bir olay xabar,
Sen azaldan yolg'on dunyo.
Boqiy umrim qilding badar,
Jonga talon solgan dunyo.

Kimga ko'rsatding poyonni,
Qo'ymading foyda-ziyonni.
Dovud o'g'li Sulaymonning
Toj-u taxtin olgan dunyo.

Nechaga bedov mindirib,
Nechaga zarbof kiydirib,
Nechaga farzand suydirib,
Aldab yo'lga solgan dunyo.

Qanchani notavon etding,
Jigar-bag'rini qon etding,
Ko'z yoshini ummon etding,
Ming bir dardga qo'ygan dunyo.

Kimlar belin bog‘lab ketar,
Ko‘ksin g‘amda dog‘lab ketar,
Senga kelgan yig‘lab ketar,
Bormi biror kulgan, dunyo?

Maxtumquli ma’ni sochar,
Har kim o‘z qismatin ochar,
Senga kelgan bir kun kechar,
Kim bor mangu qolgan, dunyo?!

BO‘LDI BU DUNYO

Qodir Olloh qudratidan, azizlar,
“Kof”u “nun”dan[1] barpo bo‘ldi bu dunyo.
Xalq ayladi u ikki mohliqoni,
Uning avlodidan to‘ldi bu dunyo.

Yo‘q edi, bir nurdan bor bo‘ldi oson,
Mazhar ul-zotida[2] bo‘ldi namoyon,
Osiy, zolim ummatlarga mehribon,
Ajab turfa, ajab g‘avg‘o bu dunyo.

Odam o‘g‘li, tashla hoy-u havoni,
Iqror bo‘l Rasulga, bir bil Xudoni,
Nuhning ummatiga berdi to‘fonni,
Kofir ahlini g‘arq etdi bu dunyo.

Kim tilasa, Haqdan topar murodin,
Daqyonus[3], Fir’avn, Namrud, Shaddodin,

---

[1] Arab alifbosidagi “kof” (k) va “nun” (n) harflari birikmasidan “kun” — “bo‘l” so‘zi hosil bo‘ladi. Bu olam Xudoning birgina “Bo‘l!” degan so‘zi bilan vujudga kelgan. Bu yerda shunga ishora qilinayapti.

[2] **Mazhar ul-zot** — ilohiy qudratning namoyon bo‘lishi.

[3] **Daqyonus** — Iso alayhissalom zamonidan keyin Rum davlatlaridan birida hukmronlik qilgan zolim shoh. U odamlarni butlarga sig‘inishga majbur qilar, o‘z amriga bo‘ysunmaganlarni o‘ldirar ekan.

Aflotun, Arastu o‘tdi dunyodin,
Iskandarni yerga tiqdi bu dunyo.

Biling, bunda kimki manmanlik etdi,
Falak oxir uning boshiga yetdi,
To‘rt kofir xudolik da’vosin etdi,
Jahannam qa’riga soldi bu dunyo.

G‘ofil, mag‘rur bo‘lma dunyo moliga,
Aldar ishva bilan solib oldiga,
Qo‘lin bo‘yar odamzodning qoniga,
Qon ichib to‘ymadi, biling, bu dunyo.

Toat qilmay g‘aflat bilan o‘tarsan,
Zakotsiz mollarni bunda yig‘arsan,
Qiyomatda hisob so‘rsa, ne dersan?
Ajib bir g‘avg‘oga soldi bu dunyo.

Payg‘ambarlar bundan vafo ko‘rmadi,
Ranj chekdi-yu, zavq-u safo surmadi,
Qorun mol yig‘di-yu, zakot bermadi,
Moli bilan yerga yutdi bu dunyo.

Alvon libos kiyib, o‘zin bezagan,
Ahd-u vafosi yo‘q misli Yosuman,
Bir xunuk bokira yurgan qiz ekan,
Odam o‘g‘lin xarob qildi bu dunyo.

Hiyla bilan xalqning ko‘nglin oladi,
Qoshin qoqib, g‘amza bilan kuladi,
Har kun bir o‘zga er xohlar bo‘ladi,
Vafosi yo‘q, o‘zi lo‘li bu dunyo.

Odam o‘g‘li, ko‘p ishonma molingga,
Fikr ayla o‘tgan oy-u yilingga,
Bilsang, qo‘ymas bu bandalik holingga,
Barcha ketib, o‘zi qoldi bu dunyo.

Mavj urib, daryoday jo‘shib boradi,
Nechaga yetdirmay qochib boradi,
Ajdardek zahrini sochib boradi,
Birodarlar, biling, dali bu dunyo.

Yoshman deya quvonmagil ko‘rkingga,
Kelsa jallod ajal qo‘ymas erkingga,
Tutdim deganingda kirmas qo‘lingga,
Go‘yo tutqich bermas baliq bu dunyo.

Olimlarning so‘zi pand-u nasihat,
Fisq-u fujurlarga ko‘p bo‘lma ulfat,
Tarozi qurilar kelsa qiyomat,
Ul kun sendan hisob so‘rar bu dunyo.

Bahosi yo‘q davlating bor boshingda,
Ota-onang, og‘a-ining qoshingda,
Sen yurasan g‘ofil ko‘ngil xushinda,
Aqling olib, hayron etdi bu dunyo.

Tushunmaysan bu makkorning tiliga,
G‘ofillar, quvonmang dunyo moliga,
Qo‘lin bo‘yar odamzodning qoniga,
Odam tuxmin yerga ko‘mdi bu dunyo.

Maxtumquli, o‘tdi davr-u davronim,
Nokaslar so‘zidan ko‘pdir gumonim,
Xirmon-xirmon ko‘nglimdagi armonim,
Obod borki, vayron etdi bu dunyo.

BU JAHON

Do‘stlarim, ko‘nglini bermish, oxiratdan bexabar,
Boq, necha ofat-gunoh, benomus-or bu jahon.
Qoldirar bir kun yelida, yig‘lagaysan xor-u zor,
Barchani aylar xarob — aldamchi-makkor bu jahon.

O‘tdilar qancha valiylar dardga darmon topmayin,
Andaliblar oh urarlar gul-u rayhon topmayin,
O‘tdi Iskandar bilan Jamshid davron topmayin,
Bir go‘zal surat bo‘lib, ko‘ngling etar yor bu jahon.

Yig‘di ziqna mollarini barcha daryo bo‘ylabon,
Telba Majnun Laylidan o‘zgaga boqmas o‘ylabon,
Ul Sulaymon taxtin oldi, qo‘ymadi toq saylabon,
Yig‘latar ahli gunohkorni xor-u zor bu jahon.

Zulmi sulton-u gadoga bir erur — teng yetishib,
O‘tdi yig‘lab barchasi — yurgan emas qo‘l otishib,
Dard bilan yurdi musulmonlar birovni tutishib,
Zahri qotil ichida-yu, sirti gavhar bu jahon.

Goh ayiqday bandayi nafs etdi mo‘minni chunon,
Elni qoplonday quvib, nokasga baxsh etdi jahon,
Mardni tulki, ziqnani yo‘lbars etib u begumon,
Filni pashsha, pashshani fil qildi bekor bu jahon.

Nur berib ko‘r ko‘zga, ochiq ko‘zni bo‘lsa ko‘r qilib,
Qosh qoqib, ko‘z o‘ynatib, baxtini kimning sho‘r etib,
Do‘stni dushman aylagay ne’matlarini to‘r etib,
Qo‘lida yoy, so‘zi o‘q, shaytonga hamkor bu jahon.

Men Firog‘iy nomini oldim bu kun motam tutib,
Kimga aytay dard-u so‘zimni yuragimni yutib,
Kimga berdi tasbehimni, kimga aqlimni sotib,
Asli bir qashqir, agarchi ko‘zida nur bu jahon.

FONIY DUNYONING

Keldi, kechdi nechalar, hech bir vafo ko‘rmadi,
Aldandilar oldida, dunyo hech ne bermadi,
Jondan muhtojmasman deb, va’dasida turmadi,
Sulaymondek shohlar ham uzoq davron surmadi,

Iskandarni chaqirib, chaqirganga bormadi,
Nechalarga mol berdi, lek moli buyurmadi,
Kelgan qolmay ketar — shu ishi foniy dunyoning.

Hech kim ko'rmadi sendek bir benomusni, dunyo,
Bir muddat hukm surib, o'tib ketdi Odilshoh,
Sen aynib ketayapsan har lahza, bu ne balo,
Payg'ambarlar o'tibdi bermasdan senga baho,
Senda davron suradir mard yigit ham bevafo,
Omon qolgan ko'rmadim, davr surib, qilib duo,
Tark aylamoq ishidir sog'lom jonni dunyoning.

Sen bilan suhbat qurib, shod bo'lgan jon yo'q ekan,
Jon o'rniga pul berib, qolgan inson yo'q ekan,
Omon qoldim deb bo'lgan shod-u xandon yo'q ekan,
Ajal kelsa to'xtashga bir dam imkon yo'q ekan,
Seni yengay deb chiqqan mardi maydon yo'q ekan,
Ming yil yashab barchani qilgan hayron yo'q ekan,
Firog'iy der qo'l siltab, oqmas qoni dunyoning.

YO'L ETDI

Ey azizlar, ko'zni quvnatib jahon,
Tog' boshina, qarang, ulug' yo'l etdi.
Nechalarga berib bozor-u do'kon,
Tuproq olib, gavhar, tilla — mol etdi.

Kimlar nola qilar g'am-u hijrondan,
Kimlar to'ymay o'tar foniy jahondan,
Kimlar totmas bir lazzatli taomdan,
Kimlarning haromin ul halol etdi.

Ajal tegirmonin yuritar falak,
Yaxshining joniga ko'z tutar halak,
Qabul qilmay kimning namozin beshak,
Barin bekor qilib, u uvol etdi.

Chekar bo‘ldik bu falakning dardini,
Umr bo‘yi ko‘rmay o‘tdik mehrini,
Odamlar asalin, falak zahrini,
Xandon qilib, zaqqumini bol etdi.

Maxtumquli to‘kar ko‘zin selini,
Topa bilmay nodon falak elini,
Kimlarningdir asal aylab tilini,
Kimlarnidir falak bu kun lol etdi.

MOHITOBONIM MENING

Ey Xudo, rahm aylamasmi sohibi jonim mening,
Elni oshiq aylagan ul mohitobonim mening,
Bir ko‘rish orzusida o‘tgusi har onim mening,
Eshigida chiqsa jonim, yo‘qdir armonim mening.

Ma’rifatning yo‘lida ko‘p oshiq ahli g‘ulg‘uli,
Ko‘rdim, unda har birisi, yor, jamoling bulbuli,
Ey sanam, orzu qilarman gul yuzingni ko‘rgali,
Dargohingda so‘zlamoqqa bormi darmonim mening.

Bir kishi oldimda yo‘q, yor, ilmi hol bildirgali,
Jahd etib, qo‘lim tutib sayr-u suluk qildirgali,
Ul sanam ishqi o‘yida bir nafas kuydirgali,
To‘g‘ri yo‘l qanday topay yo‘qsa nigahbonim mening.

Ranjima Haq yo‘llagan ofat-balo — farmon uchun,
Chekma nola, bu yarashmas mardi maydon uchun,
Xolisanlilloh qiling har ishni Rahmon uchun,
Yaxshi bo‘lsin desangiz hol ichra imkonim mening.

Bu jahon xalqi azaldan Haq taoloning quli,
Barchasini aylamish boq, ushbu dunyo bulbuli,
Joying ul firdavsi a’loda erur Maxtumquli,
Shafqat aylab ul Rasul, lutf etsa Rahmonim mening.

JAHON KO'RDIM

Men ota pushtidan indim, ona rahminda jon ko'rdim,
To'qqiz oy-u to'qqiz kunda kelib yorug' jahon ko'rdim,
Zamin-u o't-u suv, tuproq shamolni begumon ko'rdim,
Fasih til berdi Rahmonim — kalimayi imon ko'rdim,
Kezib olam, bo'lib olim, necha ming doston ko'rdim.

Halol elga harom-u shubhani ko'p bora farq etdim,
Muhabbat dengizi ichra yana o'zimni g'arq etdim,
O'zimni Arsh ustida beshak-ku begumon etdim,
Qayerda yaxshi joy bo'lsa, o'shal yerda makon etdim,
Bihishtda choriyori bosafoni shodumon ko'rdim.

Ma'rifat uzugining men asil navrastasin oldim,
Bihamdulloh, maqomi sharifulloh mujdasin oldim,
Sulaymondek uzuk bois jahonning uhdasin oldim,
Kirib jannatga Idris, men-da bir joy inchunin oldim,
Rasulullo yetaklab kirdi, jannatni ayon ko'rdim.

Xudoyo, ming shukur, yetdi ilohiy fayz bo'lib irfon,
Salom berdi kelib ta'zim bilan barcha hur-u g'ilmon,
Mening oldimga to'kib qo'ydilar ko'p ne'mati alvon,
Ulardan tutdilar qo'limga hazratning o'zi shul on,
Dedilar bu qiyomatda sening rizqing — nihon ko'rdim.

Ikki yuz yil kezib yurdim bihisht ichra bo'lib shaydo,
Nasib etsa, men o'z joyimni ko'rdim barchadan a'lo,
Dedim: "Bundan o'tar joy bormi?" Hazrat dedilar: "Aslo!"
Shuningdek chodiri har kimda bo'lsa yaxshi har asno,
Biroq do'zaxni kofirlarga bir mor-u chayon ko'rdim.

Bu dunyo chin mo'minlarga ajab mehnatsaro[1] ermish,
Uning ahli bugun boy, ertasi ko'rsam gado ermish,
Xudo lutf etsa, Hazrat suysa, piring rahnamo ermish,

[1] **Mehnatsaro** — g'am-kulfat uyi, majozan: bu dunyo.

So‘z indallosi, jannatni ko‘ribman — yaxshi joy ermish,
Gapim ko‘p bo‘lsa ham cho‘zmoqni befoyda — ziyon ko‘rdim.

Netay, Maxtumquli, o‘tdi jahondan ko‘p suxanvarlar[1],
Zamin qa’rini manzil tutdilar qancha payambarlar[2],
Qolibdir qo‘l-oyoqsiz, aqli noqis menga o‘xsharlar,
Karomat-u maqomot istamang mendan, birodarlar,
Chunonchi, men o‘zimni fitnayi oxirzamon ko‘rdim.

BOZOR AYLADI

Bu falak yaxshiga yomonni mudom yor ayladi,
Har kishi har ko‘y aro — olamni bozor ayladi.
Boyni bechora qilib, bir tangaga zor ayladi,
Pand berib, mardlarni nomardlarga duchor ayladi,
Ohu ingan chashmani yo‘lbars kelib xor ayladi.

Qoshida o‘yin qilib, olamni vayron qildi u,
Aylabon tog‘larni yakson, yerni larzon qildi u,
Mayparast nokasni elga shoh-u sulton qildi u,
Band etib mard ahlini, borini pinhon qildi u,
Charx urib, to‘rga solib, dunyoni u nor ayladi.

Qildi duch g‘aflatda mo‘minlarni girdob qahriga,
Topshirib mard ahlini doim falakning charxiga,
Ne go‘zal mahbubalarni oldi bormay farqiga,
Uch yuz oltmish g‘oyib eranlarni bosdi bag‘riga,
Qoldi deb yolg‘iz zamin, tikanni anor ayladi.

Barchasin vayron etar, bilmas u imtiyozni,
Manfaat istab jahonga oldi om-u xosni,
Kirdi odam shakliga shayton qilib vosvosni,
Siyladi bulbul qolib, u gul bilan shohbozni,
Bog‘ aro bog‘bonni o‘z ishiga hushyor ayladi.

[1] **Suxanvar** — so‘z ustasi, adib.

[2] **Payambar** — payg‘ambar. Vazn talabi bilan shunday yozildi.

Taxti osmon uzra uchgan ul Sulaymon qaydadir?
Barchaning dardida em bo'lguvchi Luqmon qaydadir?
Mahdiy, Iso, Ya'qub, Ayyub, Vays ul-Qaran qaydadir?
Ul Muhammad Mustafo-yu Shohimardon qaydadir?
Barchasin tutqun qilib, yer ichra pinhon ayladi.

Kim uchib, kim qo'ndi, kimlar bo'lsa oyoq ostida,
Qanchalar sharmandalik qildi shahidlar ustida,
Ko'p qarindoshlar yurishdi bir-birining qasdida,
Qancha jonlar noiloj tutqun bo'lishdi dastidan,
Kunda to'kdi qancha nohaq qon — qabih kor ayladi.

So'zlading, Maxtumquli, sen bu falakning korini,
Kelmadi qo'lingdan o'chirmoq uning o't — norini,
To qariguncha chekar bo'lding jahon ozorini,
Qilmayin birini pinhon, etding oshkor borini,
So'ylamay men naylayin gar u beqaror ayladi.

BO'LMASIN OXIRZAMON

Necha ish keldi, ayo g'ofil, qiyomatdan nishon,
Doimo zolim kishilar ichgani go'yoki qon,
Har faqir ahvolini so'rmas adolat birla xon,
Mol-u dunyo hirsini deb, yaxshilar bo'ldi yomon,
Ey azizlar, ne uchun, bas, bo'lmasin oxirzamon.

Fahm etding, bu xalq aro hech bir qanoat qolmadi,
Qizg'anib molin, saxiylarda saxovat qolmadi,
Fe'li yomondan faqirlarga kifoyat qolmadi,
Yer harom luqmani — darveshlarda toat qolmadi,
Ey azizlar, ne uchun, bas, bo'lmasin oxirzamon.

Keltirar olim so'ziga ushbu johillar badal,
Bir necha olimlar o'z ilmiga qilmaslar amal,

Nafs ishiga jahd etib, aylar namoziga hayal,
Keldi deb navbat kishilar o'ylamaslar hech mahal,
Ey azizlar, ne uchun, bas, bo'lmasin oxirzamon.

Kim haromni kasb etar xayr eshigin yopmoq bilan,
Ko'payar fe'li yomon behad balo topmoq bilan,
Yot bo'lib ikki musulmon bir-birin chopmoq bilan,
Keldi ming turli balo bad ishlara qo'pmoq bilan,
Ey azizlar, ne uchun, bas, bo'lmasin oxirzamon.

Nechalarning ishlari mast-u xumorlikdir mudom,
Nechalarning ishlari zavq-u zinodir tong-u shom,
Nechalarning kasb-u kori doimo kayfi harom,
Shu sababdar elda qolmay hurmati ilmi Kalom,
Ey azizlar, ne uchun, bas, bo'lmasin oxirzamon.

Zolim-u sudxo'rlar bo'lmish giriftori balo,
Nafs uchun ovvoradir, dunyo ko'yida mubtalo,
Ba'zilar o'z-o'ziga monandi bekdir go'iyo,
Qolmagandir ba'zi odamlarda hech sharm-u hayo,
Ey azizlar, ne uchun, bas, bo'lmasin oxirzamon.

Zolim-u sudxo'rlar bo'lmish Xudodan bexabar,
Mangu deb o'tkinchi dunyoni yig'arlar siym-u zar,
Fosiq-u gumrohlar masjiddan aylaydi hazar,
Aylamas olimni izzat ham shariatga nazar,
Ey azizlar, ne uchun, bas, bo'lmasin oxirzamon.

G'arq etar, Maxtumquli, bir kun gunohlar to'lqini,
Amri ma'ruf ishlarin qilsam degan jahdim qani?
Kimsa yaxshi, kimsa yomon, kimsa bilmas kimsani,
Oqsoqol o'g'il otadan, qiz onadan kayvoni,
Ey azizlar, ne uchun, bas, bo'lmasin oxirzamon.

QOLMAGAY

Oshiqlar sayr aylang, foniy jahon qolmagay,
Bulbullar, nag‘ma bog‘lang, bog‘da rayhon qolmagay.
G‘ofil bo‘lma, odamzod, besh kun davron qolmagay,
Yer, quvonma, bag‘ringda daryo, ummon qolmagay.
Sayrang, to‘ti, qumrilar, sizda zabon qolmagay,
Suhbat quring, yigitlar, bu ot, bu on qolmagay.
Ey qari, ulug‘ tog‘lar, sizda tuman qolmagay,
Hukm yuritgan shohlar, sizda farmon qolmagay.
O‘tar bari birma-bir, yaxshi-yomon qolmagay.
Ixlos yo‘qdir kitobga, elda Qur’on qolmagay,
Firog‘iy zor yig‘lab der: bizda iymon qolmagay.

ICHINDA

Iymonim erkin, ozod,
Bu go‘zal jon ichinda.
Nomardlar dunyoda shod,
Ahmoq sulton ichinda.

Tole otin surmadim,
Bir zamon xush yurmadim,
Layli aytar: ko‘rmadim
Sendek Majnun ichinda.

Yuragim o‘tda dog‘li,
Har qadamim so‘roqli,
Quyoshim qonga bog‘li,
Jigarim qon ichinda.

Kabob o‘tga dil yora,
Der: “Qo‘yding ko‘p ozora”.
Og‘iz ichra ovora
Yig‘lab dandon[1] ichinda.

[1] **Dandon** — tish.

Toshlar deydi: “Qashshoqman”,
Kamar deydi: “Men ochman”,
Tog‘lar der: “Noilojman
Boshim tuman ichinda”.

Maxluq ichra ummatman,
Ne ajoyib suratman,
Bedov aytar qimmatman
Bordir chaman ichinda.

Baliq aytar: “Suzarman,
Dashtdan qo‘lim uzarman,
Erkin, ozod kezarman
Ulug‘ ummon ichinda”.

Gul der: “Rangga to‘lmisham,
Bulbuldan uyalmisham,
Endi, naylay, so‘lmisham,
Qishda xazon ichinda”.

Bulbul deydi: “Jon-tanim,
Bog‘ ichinda har kunim,
Bazm ichra maskanim,
Sayrab, rayhon ichinda”.

Qoplon deydi: “Yo‘l oldim,
Men oyga hamroh bo‘ldim,
Mudom dom ichra qoldim
Mohitobon ichinda”.

May deydi: “Men ichildim”,
Gullar deydi: “Ochildim”,
Anbar aytar: “Sochildim
Bog‘-u bo‘ston ichinda”.

Kalom aytar: “So‘zlarim,
Yuzlashibdir yuzlarim”.

Ko'rdim deydi: "Ko'zlarim
Yori jonon ichindi".

Davlat aytar: "Iqbolman",
Tush aytar: "Chin ahvolman",
So'z aytadi: "Men bolman
Shirin zabon ichinda".

Nomard istaydi omon,
Mard der: "Yov ber beomon",
Aytadi shirin zabon:
"Joyim dahon ichinda".

Oshiq der: "Parvonaman",
Ishq aytadi: "Yonaman",
Firog'iy, hayronaman
Foniy jahon ichinda.

UCH QILDI

Abdulla ketdi deb, umid uzgandim,
Savdogarlar kelib, o'ndan uch qildi.
Majnun bo'lib, tog'dan-tog'ga kezgandim,
Yolg'on chiqdi, g'amli ko'nglim o'ch qildi.

Beg'am edi — g'amga botdi boshlarim,
Ko'z yumildi, chatildilar qoshlarim,
Qur'on o'qib yurgan teng-u to'shlarim
Mol deb chetga borib, dilin resh[1] qildi.

Egilib alifday tik qad bo'ldi nun[2],
Kiyganim kafan-u ichganimdir xun[3],

[1] **Resh** — chok, yara, jarohat.

[2] **Nun** — arab alifbosidagi "n" harfi: egik va qayrilmaligi jihatidan ma'shuqaning qayrilma qoshiga va oshiqning egilgan qaddi-bastiga tashbeh qilinadi.

[3] **Xun** — qon.

Qaysni, aniq biling, ayladi Majnun,
El-yurtdan ayirib, ajab ish qildi.

Falak menga o'tli libos kiydirib,
Yoqsam deydi gul yuzimni suydirib,
Bino qildim qo'lda borim kuydirib,
Shayton havo qilib, savdom puch bo'ldi.

Qafas ichra qolmish qushlar qarashib,
Otlar yotar, sakrayolmay turishib,
Ishqing ko'chasiga tushdim adashib,
Yasovullar kelib, sirim fosh qildi.

Maxtumquli, bunda kelgan ko'rishib,
O'tdilar yonimdan otin so'rishib,
Teng-u to'shim Madinada yurishib,
Yolg'iz qoldim, sirdoshlarim haj qildi.

MENI

Kibr etib, dunyoni ko'zga tang-u tor etding meni,
Nokas-u nojinslarga teng-u yor etding meni,
Tizzadan olib madorim, bemador etding meni,
To'kding-u porloq quyoshim, nurga zor etding meni,
Bevatan nomardlardek bediyor etding meni.

Xona ichra band etib, rizqimni Qorunga berib,
Xorazm, Rum, Chin-u Mochin kezdim iqbol axtarib,
Keldi qish, o'tib bahorim, qoldim endi sarg'arib,
Hosil etdim maqsadimni Ka'ba ichra ko'p yurib,
Zog' qo'nibdi gullaringga, muncha xor etding meni.

Ishq o'tini istagan bir giryon parvonaman,
Ishq chohiga tushar bo'lsam, o'tida yonaman,
Misli Majnun Layli yorning yuzi deb giryonaman,

Aqli qochgan, baxti yotgan bir faqir begonaman,
Urgan o'zni toqqa mavji beqaror etding meni.

Yelga berib xonumonni kirdim Jayhun bahriga,
Oh, duchor bo'ldim biroq to'lqinlarining qahriga,
Uchradim, chiqsam suzib g'avvosdek, ajdar zahriga,
Qildi xon kuygan bu bechorani Lutning shahriga,
Taxt emas, xor ustida Isfandiyor[1] etding meni.

Tog'-u toshga toqat etmay, kezdim darmon istabon,
Yuksalib, uchdim samolarga Sulaymon istabon,
Hamroh istab bu dali-devona, sarson istabon,
Etding Ibrohimga[2] hukm sen esa qurbon istabon,
Ibrohimning qo'lida pir bu zamon etding meni.

Ajratolmay qoldi ko'zim: sen kumushmi, zarmisan?
Yoki Qorun injusi, yoqutmisan, durmisan?
Gulmi, g'uncha, yoki baldoq, yoki yaproq, parmisan?
So'yla, ajdarmi, yo jallod, yoki tuproq, yermisan?
Mard edim, nomard etib, ko'p sharmisor etding meni.

Tinmadim men o'tib umrim bu falakning jabridan,
Jam qilibdir lashkarin, chiqdim qochib shahridan,
Berkitar Luqmon yuzini men faqirning zoridan,
Kechmisham, Maxtumquli, dunyoni har ne boridan,
Baxsh Isoga[3] aylamay, nomardga xor etding meni.

KECHMISHAM, BEKLAR

Baland tog' boshida yo'ldan
Tong-sahar kechmisham, beklar.
Eranlar yurgan manzilda
Sayr etib kezmisham, beklar.

[1] **Isfandiyor** — Eron podshohlaridan Gushtaspning o'g'li.
[2] **Ibrohim** — Ka'baga asos solgan Ibrohim payg'ambar.
[3] **Iso** — Iso alayhissalom.

Ko‘llarga qo‘nib g‘ozlari,
Mast etib xush ovozlari,
Navnihol kelin-qizlari,
Xush bo‘lib quchisham, beklar.

Ot surib ushbu makondan,
Tong chog‘i hidlab rayhondan,
Zar, kumush olib do‘kondan,
Miskinga sochmisham, beklar.

Kezdim go‘zal maqsad bilan,
Ko‘zlar bo‘ldim davlat bilan,
Kavsar suvin rohat bilan
Qirq jomin ichmisham, beklar.

G‘arib bo‘lib kezdim yig‘lab,
Yuragimni o‘tda dog‘lab,
Men bugun, boq, qanot bog‘lab,
Osmonga uchmisham, beklar!

Botgancha kavsar loyiga,
O‘q bo‘lib qoshing yoyiga,
Yetishib jannat poyiga
Yorimni quchmisham, beklar.

Xabar olar bunda kelgan,
Qadrim bilar saboq olgan,
Yigirma yoshda ishq bilan
Men qaynab pishmisham, beklar.

Firog‘iy der: men yoy kabi,
Dunyoda bir saroy kabi,
Ko‘ring, bu kun ul oy kabi
Sayr etib yurmisham, beklar.

QARIGAN KUNLAR

Qari tog‘lar, nazar qiling,
Siz kabi qarigan kunlar.
Ko‘taring, bosh uzra oling,
Bu jonim horigan kunlar.

Ota-onam o‘tdi — zorman,
Suvsiz hovuz kabi xorman,
Hech kim kutmagan bahorman,
Ixlosim arigan kunlar.

Abdulla-yu Mamatsafo,
Tashlab ketdi, chekdim jafo,
Bu dunyo aylamay vafo,
Ko‘zda yosh qurigan kunlar.

Quvonmadim o‘g‘il-qizga,
Qo‘limga olmadim nayza,
Orzum bo — ketsam Tabrizga,
Oyog‘im yurigan kunlar.

Maxtumquli, yo‘q ixtiyor,
Yuz tutarman, Parvardigor,
Go‘klang elimdir beqaror,
Yovlari dorigan kunlar.

TOPAR BO‘LDIM

Ey azizlar, ahli zamon,
Bir mard yigit topar bo‘ldim.
Baxtim sinab, bu dunyoda
Iqbolimni chopar bo‘ldim.

G‘aflat ichra o‘tdi kunim,
Ishq o‘tida yonib tanim,

El ko‘zindan jon-u tanim
Tuproq bilan yopar bo‘ldim.

Sinash uchun men baxtimni,
Vayron qilib bu taxtimni,
Sahro uzra G‘irotimni
Go‘ro‘g‘lidek surar bo‘ldim.

Tushibman dunyo iziga,
Naylayin, tortdi o‘ziga,
Do‘stlar, bu kun yor yuziga
Mushku anbar separ bo‘ldim.

Kezib bu dunyo ustinda,
Zolim falakning qasdinda,
Qolib oyoqlar ostinda,
Yomonga hamsafar bo‘ldim.

Bu dunyoda Namrud kabi,
U dunyoda Sirot kabi,
U Iskandar, Jamshid kabi
Ko‘zdan yoshim to‘kar bo‘ldim.

Ko‘p yurtlar bordir jahonda,
Oy kabi go‘zal inson-da,
Urush qilib bu zamonda,
Rustam Zoldek buzar bo‘ldim.

Bulbulman, ayro gulimdan,
Sarbonman, judo elimdan,
Naylay, endi bu tilimdan
Dard-u balo topar bo‘ldim.

Bu dunyoni ko‘zga ilmay,
Yaxshilarga hamroh bo‘lmay,
Ko‘p zamonlar o‘zni bilmay,
Har yerlarda yurar bo‘ldim.

Naylayin, qaydadir yorim,
Bog‘imda bitgan anorim,
Go‘klang ichra Menglixonim
El-ulusdan so‘rar bo‘ldim.

Kechibman do‘zax, sirotin,
Minibman bihishtning otin,
Maxtumquli, yor suratin
Kotib bo‘lib yozar bo‘ldim.

RASVO JAHONDAN

Ko‘ngillar ko‘shkida beg‘am o‘tirgan,
Umid uzgan kishi rasvo jahondan.
Orif bo‘lib, aqli dunyoga yetgan,
So‘zlar emish yetmish ikki zabondan.

Yalang‘och o‘tirar Haqqa zorlanib,
Falak sinar har tong umidvorlanib,
Kunduzi ucharmish ko‘kka parlanib,
Ko‘p la’nat yog‘ilar yerga osmondan.

Zabardast pirlarga emish xalifa,
Har kun besh vaqt uchib kelar Mag‘riba,
Yerda turib amr etar oftoba,
Aqling yetsa, buni so‘ra Qur’ondan.

To‘qqiz yillab yurar yemay-ichmay ham,
Yigirma besh yillab kezadi olam,
Ellik yil yosh to‘kar ko‘zdan damodam,
To‘kkan yoshin borib so‘rar ummondan.

Sakson to‘rt quli bor, yetmish ayoli,
Yana yuz beshinda qolmish xayoli,
Dunyoga sig‘magay to‘plagan moli,
O‘t yemas hayvondek to‘ymagay nondan.

O‘n besh oq uy qurib, taxt soldirmish,
Yetti minorini ko‘rgan loldirmish,
Olam ichra go‘yo zo‘r nom qoldirmish,
So‘rgan bilan ko‘zi to‘ymagay qondan.

Ko‘zida o‘t yonar, og‘zida tutun,
Tunlar yermish o‘zi o‘zin ich-etin,
Ali qo‘poribdir sog‘ ko‘zning chetin,
Hushiga kelganda kechar iymondan.

Maxtumquli, oqil kishi bo‘lar jim,
Tilini tiymaydi nodon bo‘lsa kim,
Dunyoni egallar ul narsa balkim,
Ko‘plar umid qilmas jasadda jondan.

O‘XSHAMAS

Ey, seningdek bir pari boshqa jononga o‘xshamas,
Kiprigi xanjarga-yu o‘q-u kamonga o‘xshamas.

Oy yuzi-yu nuqta xolin ko‘rsa kim bo‘lgay asir,
O‘t solar olamga u, mohitobonga o‘xshamas.

Cho‘g‘ labi kavsar suvidek jon bag‘ishlar murdaga,
Baxsh etar kavsarni u, fe’li Qorunga o‘xshamas.

Qildi elni beqaror sunbul kabi timqora soch,
Sen kirib-chiqqan do‘kon o‘zga do‘konga o‘xshamas.

Jumla olamni asir aylabdi o‘ziga yuzing,
Kuydirar ro‘mol o‘rab, hur-u g‘ilmonga o‘xshamas.

Sen tufayli aylanar o‘z erki birlan bu falak,
Qilding olamni bihisht, eski jahonga o‘xshamas.

Haq azal baxsh aylamish senga Yusufning husnini,
Ikki olam sohibisan, Sulaymonga o'xshamas.

Barcha jonon ham go'zal dunyoda, ey Maxtumquli,
Bir kanizdir barchasi lek, Menglixonga o'xshamas.

BANDI BO'LDIM

Menglixonim, zamoningdan qo'rqib, bora olmay qoldim,
Qora qosh-u ko'zingni deb, qo'lga tushib, bandi bo'ldim

Jallodlar men bandi qulni zanjir bilan band aylagay,
Agar sen ham qo'llamasang, noiloj bu jon naylagay.

Nasimiydek[1] so'yib, itlar uchun taom qilar endi,
Qoraqushlar loshim uzra jang-u talash solar endi.

Suyagimni yel sovurib, jahannamga vosil aylar,
Bandi qilib aziz jonni, ming bir azob hosil aylar.

Do'zax meni yoqa bilmay berar bir zulfi toriga,
To'r ichida asrab meni qovushtirar ul moriga.

Ul mor quvib jilg'alardan shayton bilan qilar hamroh,
Qilgil xalos, Menglixonim, men miskinni qilma gumroh.

Maxtumquli, isming sening bo'lsa kerakdir Firog'iy,
Mordan xalos bo'ldim desam, keldi hijronning yarog'i.

HAMROH AYLADI

Gul yuzing pinhon qilib, yoshimni daryo ayladi,
Dunyodan g'oyib bo'lib, dardini hamroh ayladi.

[1] **Nasimiy** — mashhur shoir va mutafakkir Imodiddin Nasimiy (1370–1417).

Har taraf boqdim ko‘rarmanmi deya yorimni bir,
Topmadim ammo, hayotimni u zoye ayladi.

Zorlanib Qaqnus kabi shom-u saharlar yonaman,
Yana g‘aflat ichra qolgan dilni balo ayladi.

Tinglamas zorimni hech — zolim bo‘libdi shunchalar,
Boqmayin mol-mulkima, barini ro‘yo ayladi.

Aytadir dardin Firog‘iy, ayla muyassar orom,
Qayta boshdan o‘t urib, u boqiy dunyo ayladi.

KUYGAN JONIMA

Uyushtirdi falak bosqin bu jon shahri — makonima,
Qilmadi bir zarra nazar o‘t ichra kuygan jonima.

Anqo qushiga duch kelib, bir dam birga qildim parvoz,
Falak qanotimdan tutib, itqitdi hijron loyina.

Ey azizlar, endi o‘zga bir chora yo‘q men faqirda,
Gado ahli jam bo‘lib boj solmishlar xonumonima.

Bir qush bo‘lib qochar bo‘lsam cho‘l-u biyobon ichinda,
Bu foniy jahon lochini qasd aylar doim jonima.

Dardim mening haddan o‘tdi,
kelmaydi Luqmon qoshima,
Yetkazibdi kimdir yolg‘on, xato xabar Luqmonima.

Maxtumquli, so‘zlagil sen,
umring sendan cho‘zmoqda qo‘l,
Duo aylab o‘tarman men ul Ozodiy — ustodima.

QONLAR TO‘KAR KO‘ZIDAN

Dard ahli dardimni ko‘rsa, uyalurlar o‘zidan,
Tabib ahli chora topmay qonlar to‘kar ko‘zidan.

Oshiqlar ko‘rsa bu o‘tni unutar o‘z o‘tini,
Chiqar tog‘-u tosh uzra, Majnunni topmas tuzidan.

Sochining bir tolasi ahli musulmon tuzog‘i,
Kofirlar istar adolat, zorlar yurar izidan.

Eshitsa zorim Firdavsiy, Nizomi-yu Navoiy,
Tarki dunyo aylabon barisi kechar so‘zidan.

Kechalar nola chekib, kunduz umidim yo‘q mening,
To‘ymagay bu och ko‘zlarim boqib yorning yuzidan.

Firog‘iy, sen sabr aylab, unut bu qish faslini,
Agar unutsa bu kunni foyda ko‘rmay kuzidan.

NE HOJATDIR

Olib bo‘y gul yuzingdan savsan-u anbar salomatdir,
Go‘zal yor xushlamas, bas, qo‘l uzatmoqlik na hojatdir?

Gunohga bog‘lanib qoldim, muruvvat yo‘q bu sho‘rlikka,
Urar g‘ofil yurak tug‘yon: bu dunyosi kasofatdir.

Go‘zal bo‘ynida dur-marjon, labida obi kavsardir,
Rahm etmas fido bo‘lgan bu bandaga, ne ofatdir?!

Go‘zal yor, aylanay doim kelishgan qaddi-bastingdan,
Tabassum-la qoqar qoshin so‘zimga, bu ne odatdir?

Tutib ishq o'tini qo'lda, meni parvonadek chorlar,
Kular pinhon alam ichra qo'yib meni, ne ishratdir?

Saodatga to'lib yursam agarda, qatl oldimda,
Falakdan yo'q sira vahmim, izimda chunki hasratdir.

Firog'iy, sen kabi qushga bu cho'lda kelsa sayyod duch,
Qo'yar qabr ichra yolg'iz, topshirish joningni rohatdir.

RAYHONGA O'XSHAGAY

Ey pari, yuzing sening mohitobonga o'xshagay,
Gul yuzingda mushku anbar rayhonga o'xshagay.

Bu kuyuk jonimga basdir tinglasa ul so'zlaring,
Ketma-ket qosh qoqishing Layliyi jonga o'xshagay.

Men qulingman, notavon jonim giriftor qo'lingga,
O'tkazur hukmini go'yo Sulaymonga o'xshagay.

O'rtasang o'tda, yarador aylasang yo tig' chekib,
Tig'i teng darmonga, o'zi Luqmonga o'xshagay.

Bir ko'ray deb yuzini kezdim jahonni axtarib,
Ko'zdan oqqan qonli yoshlar ummonga o'xshagay.

Qolmadi sabr-u qarorim bu falakning jabridan,
Bebaqo, yolg'onchi dunyo zindonga o'xshagay.

Kimga mol-dunyo berib, kimlarni qashshoq aylading,
So'nggi yo'q dard ichraman, ishi yolg'onga o'xshagay.

Ov qilar har kuni bu Maxtumquli — keksa palang,
O'tsa umri bu faqir tulki polvonga o'xshagay.

ISHQ DO‘ZAXINA

Har qancha nola aylasam ul Haqning dargohina,
So‘zimni tinglamay aslo, solar ishq do‘zaxina.

Ko‘nglimni tag‘yir qilib ishq, luqmadan och ayladi,
Solmay quloq ul zorima, soldi hijron charxina.

Tuyg‘un edim, yengdi qushlar — bir ilojim yo‘q mening,
Naylayin, sayyod bo‘lib, qushlarning qoldim qahrina.

Qancha men nolish qilib, el-yurt bilan qon yig‘lasam,
Zorima xandon kular u, bormas so‘zning farqina.

O‘tgan oshiq-ma’shuq sotgan bo‘lsa ishqing matosin,
Men qo‘lda borim bersam ham yetmas ishqim narxina.

Ayyub kabi tan-u jonimni yemirib qurtlari,
Qaladilar keltirib suyaklarim o‘chog‘ina.

Ko‘rishsa yuz, o‘sha lahza asir aylar dillarni,
Bog‘lab qo‘l-u oyog‘imni otar Jayhun bahrina.

Ey azizlar, foniy jahon sochini aylab asir,
Bechora Maxtumqulini tiqar yerning qa’rina.

QON BILAN

Go‘zal umrimda toqat qolmadi, naylay, jon bilan,
Quyoshim ham makon aylab, hamroh bo‘lmish qon bilan.

Ne yomon ishqing o‘ti, hech chorasi yo‘qdir uning,
Kuydiradi jism-u joning, yo‘q ishi darmon bilan.

Kimlarning tomi kulib, kim podshohdir, kim gado,
Kim mol yig‘ar bahs etib go‘yo foniy jahon bilan.

Ko‘nglimda yondi o‘tlar, bir parvona nazar qilmas,
Maxtumquli o‘tar bo‘ldi dunyodan armon bilan.

HAQNING FARMONIDIR

Do‘stlarim, ko‘nglimda do‘zax o‘tining so‘zonidir,
Istamasman, naylay, ammo, Haqning farmonidir.

Tushmisham foniy jahon qirg‘iysining qo‘liga men,
Qirg‘iy ahli ichra bu qirg‘iy eng yomonidir.

Qo‘lda o‘ynar bu falak rasvo qilib mard ahlini,
Bu jahonda aslida nomardlar davronidir.

Har kuni ranj-u azobda o‘tgusi umrimning,
Bu falakning har kishi sarson-u sargardonidir.

O‘ynagay maymun kabi har lahza odamni falak,
U Xudoning charx uchun qilgan bino hayvonidir.

Har kuni yuz bor o‘tarman men Xazar atrofidan,
Naylayin, bechora ko‘nglim charx notavonidir.

Qilmagay ne ishlar u Parvardigor dargohida,
Jumla olam bu falak qilmishlarin hayronidir.

So‘zlaganda oqibatni o‘ylagil, Maxtumquli,
Aylagan shayton Azozilni, bil, o‘z zabonidir.

IXTIYORIM OLIBDIR

Falak aylanishidan ichganim qon bo‘libdir,
Har kuni yuz jabr ila ixtiyorim olibdir.

G‘aflat ichra yotibman sayr etmay bo‘stonimni,
Bu kun u yon boqsam gul-chechaklarim so‘libdir.

Asir qilib bog‘bonim, olib ketibdi falak,
Topsam borib izidan, u daryoga solibdir.

Qo‘l-oyoqqa band urib, Majnun kabi bog‘langan,
U zindon eshigida zor-u giryon qolibdir.

Qutqarmoqqa bu banddan bir yaqinim yo‘q mening,
Umri o‘tib, qarigach, kuchi qolmay qolibdir.

Men zindon sohibiga dedim: “Xalos qil uni”.
Ko‘rib zor-u fig‘onim, ul sohib uyolibdir.

Dedi sulton: “Band eting oldimdagi bu qulni!”
Firog‘iyning o‘z tilidan bag‘ri qon bo‘libdir.

JON MATOSIN ISTAGAY[1]

Falakning bu foniy dunyo bozorinda ne ishi?
O‘zga mato ko‘zlamas u, jon matosin istagay.

Ko‘zi borning ko‘zin olar, oriflarning dilini,
Keksalarni yolg‘iz qo‘yib ul, asosin istagay.

Mardlarni nomard qilib, yiqitdi qancha erlarni,
Mo‘minlarni yolg‘izlatib ul libosin istagay.

Oshiqlarda so‘ndi otash, parvonada ne gunoh?
Judo qildi qon yig‘latib, ul hamrohin istagay.

Maxtumquli, dard ichradir bu qarigan aziz jon,
Qo‘rqaman, jon olar ekan, dil sanosin istagay.

[1] Qo‘lyozmalarda bu she’rning boshlanish qismi yo‘q.

ISHQ BOZORIMA

Falak ahdidan qaytib, quloq solmish zorima,
Bir ajoyib parivash kirmish ishq bozorima.

Ko'rgan borki xaridor, shoh-u gado ham asir,
Mard-u nomard-u nokas so'z otarlar yorima.

Ojiz dilda bardosh yo'q, pinhon tutolmas ishqin,
Gar oshkor qilsam yuzin, ko'rgan duchor qahrima.

Gul yuzidagi zulfi asli jannat sunbuli,
Bog'i Eram anori o'xshamas bu norima.

Bor dardini o'zimga olib chekarman faryod,
Luqmon ham kelib topmas bir chora ozorima.

Firog'iy der: men ham mard, elga oshkor mardligim,
Omon ketmas qoshimdan tekkan nomus-orima.

DARDGA DARMONDIR[1]

Qo'pdi go'yo qiyomat, qo'zg'oldi oy-u quyosh,
Uyquli ko'zim ochsam, yer yuzi qizil qondir.

Dedim: "Dil, qo'shil elga, chiq tig' olib kurashga",
Ishva aylab keldi yor, dedi: "Qoshim kamondir".

G'ofil bo'lma, odamzod, bir kun umring bor sening,
O'tib ketsa yoshliging, har kunda ming armondir.

Har kun ming arz etsang ham, qaytarolmaysan uni,
Boshdan o'tirma g'ofil, bu yel kabi davrondir.

[1] Qo'lyozmalarda she'rning boshlanish qismi yo'q.

Har bir ishga ilashib, qolma elning qahriga,
Toki umring o'tguncha har qadamda ziyondir.

Firog'iy der dardini pinhon sirin aylab fosh,
Bildim, elning olqishi bu dardimda darmondir.

OYA O'XSHAR

Ko'nglim ichra, ey gul pari,
Yuzing to'lgan oya o'xshar.
Hayron etib aql-u hushni,
Qo'yning jannat joya o'xshar.

Za'farondir bog'-u bo'ston,
Dasht bo'ldi daryo-yu ummon,
Qarang, do'stlar, foniy jahon
Bir vayron saroya o'xshar.

Mening yorim sohibjamol,
Hurlarda yo'q bunday kamol,
Kiprigi o'q, qoshi hilol,
Kim sin solsa, yoya o'xshar.

Ko'nglim tilar yuzing ko'rsam,
Tilim istar bir so'z so'rsam,
Kel desang, bosh bilan borsam,
Aql-u hushim poya o'xshar.

Husningdan keldim omona,
Nazar ayla notavona,
So'zla dilbar, men devona,
Yor, ovozing naya o'xshar.

Oppoq g'ozdir ko'l ichinda,
Davlat, qudrat el ichinda,

Bog‘da guldir, cho‘l ichinda
Arab tuya — moya o‘xshar.

Qilar bo‘ldik har bir ishni,
Aldadi falak gardishi,
Foniy dunyoning tashvishi
Tubi yo‘q, bir ro‘yo o‘xshar.

Nelar istar, ayt, do‘koning,
Beray iymon, shirin jonim,
Ey pari, sening makoning
Ka’bada Baytulloh o‘xshar.

To‘lin oy kabi jamoling,
Yuzingni tutmish ro‘moling,
Hushi uchgan Maxtumquli
El ichra shaydoya o‘xshar.

OZOR BO‘LDI

Ey azizlar, tug‘ishganim
Ishi menga ozor bo‘ldi.
Noilojman, Menglixonim
Ko‘zi yosh, ko‘ngli zor bo‘ldi.

Ibrohimni kofir tutdi,
Oxir niyatiga yetdi,
Qo‘lin bog‘lab, o‘tga otdi,
Lekin gulxan gulzor bo‘ldi.

Oz berdilar, ko‘p oldilar,
Muttaham sudxo‘r bo‘ldilar,
Hamma tomonga to‘ldilar,
Kimni ko‘rma, makkor bo‘ldi.

Baxillar bekor kezdilar,
Olimlar yo‘ldan ozdilar,
Qiyomatdan qo‘l uzdilar,
Chunki bari sudxo‘r bo‘ldi.

Zid etdi o‘g‘lin Ismoil,
Kelinlar ozdi yildan yil,
Har kim ishga bo‘lmay moyil,
Ulug‘ el beqaror bo‘ldi.

Tog‘ni surar chohga davron,
Go‘zal joylar bo‘ldi vayron,
Bir kun Haqdan kelsa farmon,
Isrofil sur chalar bo‘ldi.

Qozi, rais qonun tutmas,
Biror ish so‘ngiga yetmas,
Bir bandaga rahm etmas,
Osar bo‘ldi, otar bo‘ldi.

Yaxshi borki, yomon bo‘ldi,
Tog‘lar boshi tuman bo‘ldi,
Faqat nomard omon bo‘ldi.
Mard yigitlar abgor bo‘ldi.

Ellarda yo‘q zarra g‘ayrat,
Vayron bo‘ldi ko‘p imorat,
Nargis ko‘zli ul bedov ot
Nomard qo‘lida xor bo‘ldi.

Firog‘iy, gunohdan pok bo‘l,
Mard yigitlardan saboq ol,
Ko‘nglim, ketaylik, beri kel,
Go‘zal makonim zor bo‘ldi.

NOMUS BILAN OR

Falak, sening ishing judolik hardam,
Kerakmasmi senga nomus bilan or?!
Hattoki ko‘klarda uchgan qushni ham
Murodini bermay qilding xor-u zor.

Ne foyda bor oshna qilsang kuyovdan,
Tog‘lar etagini tutgan ul govdan,
Oshiqlarni ajratib bir-birovdan,
Bir-biriga qilib qo‘yding intizor.

Yod etarman bir yaratgan Xudoni,
So‘zim bilan olibman bu dunyoni,
O‘zi qo‘llab, daf etmasa baloni,
Falak meni qildi o‘tga giriftor.

Haq beribdi siylab bizga bu tilni,
Gul ustida band aylabdi bulbulni,
Menglixonning gul yuzida sunbulni
Xandon qilib, ziynat beribdi bir mor.

Yo Xudoyim, hech kim tutmas amringni,
Oz beribsan bandalarga umringni,
Ey falak, bas ayla endi jabringni,
Sitamingdan el-u yurtim beqaror.

Foniy jahon shirin jonni yondirgan,
Otash uzra otashini indirgan,
Rustam Zolni jahd otiga mindirgan,
Oshkor qilsam, biling, u Isfandiyor.

O‘tgandan, qaytgandan baxtimni so‘rdim,
El oyoq bosmagan joylarga bordim,
Aqlim yetmay, ko‘p ishlarga bosh urdim,
Bilmasdan bu dunyo o‘yinchi, makkor.

Sel kelganda orqasida tosh qolar,
Bedov o'lsa, quzg'unlarga osh qolar,
Haq baxsh etgan go'zal joylar bo'sh qolar,
Men naylayin, jondan o'zga zarnigor.

Xandon solib, atrofimni yo'l etding,
Quruq tikanni sarv qilib, sen etding,
Nechalarning zaharini bol etding,
Nechalarni qilding g'arib-u nochor.

Ishq mayidan ichib qoldim qo'sh tutib,
Bahor chog'ida uxlabmen no'sh tutib,
Foniy dunyo so'zlariga go'sh tutib,
Hayron qolib, unga ishonib oshkor.

Bu dunyoga kelib kechgan jononlar,
Nasib aylab, duch kelmadi ne jonlar,
Majnun bo'lgan Maxtumquli, yoronlar,
Menglixon hajri dog'iga sazovor.

NAYLAYIN, BECHORAMAN

Naylayin, men bu falakning zulmi ichra qolmisham,
Tegdi boshga, ketdi hushim, naylayin, bechoraman.
Tong yeliday keldi-yu, urdi bu jonim, o'lmisham,
Tegdi boshga, ketdi hushim, naylayin, bechoraman.

Menglixonim oldi-ketdi jismim ichra jonimi,
Bermadi baxtim falak, yopdi judolik to'nini,
Bir nokasga baxsh aylamish falak Menglixonimni,
Tegdi boshga, ketdi hushim, naylayin, bechoraman.

Qolmadi aql-u hushim yostiqdoshimdan ayrilib,
Go'iyo qolgan kabiman men boshimdan ayrilib,
Men g'arib qon yig'lagayman qardoshimdan ayrilib,
Tegdi boshga, ketdi hushim, naylayin, bechoraman.

Ul Nasimiyni tiriklay tovonidan so‘ydilar,
El aro rasvo qilib, ikki ko‘zimni o‘ydilar,
Yo‘q yuzim el ichra yurmoqqa, sirimni aytdilar,
Tegdi boshga, ketdi hushim, naylayin, bechoraman.

Ey Firog‘iy, yetti aqlim zor qilib, qon yig‘lagay,
Aylading g‘ofil O‘zing, doimo pinhon yig‘lagay,
Tark etib mol-mulkini kelgancha hijron yig‘lagay,
Tegdi boshga, ketdi hushim, naylayin, bechoraman.

QO‘YMISH ARMONA MENGLI[1]

Parilarning ichinda o‘xshar sultona Mengli,
Gar sayrasa bulbullar, banddir zabona Mengli,
Ishq o‘tiga dam berib, soldi so‘zona Mengli,
Sulton bo‘lmish, naylayin, ganji nihona Mengli,
Men bechora faqirni qo‘ymish armona Mengli.

Arzim bor dargohingda, aylasang menga nazar,
Men bir do‘kon qurayin — sensan ul ishqqa bozor,
Ishq bog‘ida adashib, o‘tga bo‘ldim sazovor,
Naql bordir: oshiqlar ko‘rsa bir-birin yonar,
Sensan ishqning otashi, men bir parvona, Mengli!

Nargis erur ko‘zlaring, qoshing esa kamondir,
Og‘iz ichinda asal — bu ne shirin zabondir,
Simob kabi beqaror tegrangda uchgan jondir,
Gul yuzingni ko‘rmasam, ko‘zda yoshim ravondir,
Ko‘z yoshlarim, naylayin, o‘xshar ummona, Mengli.

Dunyo Bog‘i Eramdir, sen bu bo‘stonning guli,
Men faqir qafas ichra bir giriftor bulbuli,
Gul yuzingda niqobdir ul Laylining sunbuli,
Ne sababdan qiynaysan bir g‘arib oshiq qulni,
Oy jamoling ishqida bo‘ldim devona, Mengli.

[1] She’rning davomi qo‘lyozmalarda yo‘q.

Surating oyga o‘xshar jumla surat ichinda,
Shoh bo‘libdi surating barcha surat ichinda,
Bebahodir jamoling barcha qimmat ichinda,
Bo‘stoning ta’rif etsam, cho‘klang, yovmut ichinda,
Nazar solsang, bu dashtim o‘xshar bo‘stona, Mengli!

Men ishqingda gadomang, kuydirding xasta jonni,
Sensiz endi naylayin men bu foniy jahonni,
Istamayman gul yuzing qoshida hur-g‘ilmonni,
Yoqdi jonim, naylayin, bu do‘zaxning so‘zoni,
Bu jonima jabr aylab, qo‘yding fig‘ona, Mengli.

KELGIL PINHON, GO‘ZALIM

Beray shirin jonimni, kelgil pinhon, go‘zalim,
Sensiz ko‘zga ko‘rinmas foniy jahon, go‘zalim,
Parilarning shohisan, go‘zal sulton, go‘zalim,
Kipriklaring jalloddir, yo‘qdir omon, go‘zalim,
Bu jahonda topilmas senday jonon, go‘zalim,
Gul yuzingga asirdir mohi tobon, go‘zalim,
Bir qarab qo‘y, ko‘zlarim misli ummon, go‘zalim.

Gul yuzingga berar zeb qop-qora nuqta xoling,
Kamonga qasd aylamish ko‘z ustida hiloling,
Sultonisan Laylining, Zulayxo qul misoling,
Qo‘yning ichra yetishmish jannatga teng niholing,
To‘lin oy asir bo‘ldi ko‘rib sohibjamoling,
Bir ko‘ray — gul yuzingdan asta ko‘tar ro‘moling,
Ishqingda men bo‘lmishman telba-hayron, go‘zalim.

Xazinani qo‘riqlab yotar qo‘sh ajdahoring,
Qo‘sh ajdahor ostida yotibdi qo‘sha noring,
Nohaq amr etsang agar, deyman: “Yomon ozoring”,
Jon shahrida ko‘rdim men sening ishqi bozoring,
Dod dastingdan, o‘rtadi meni ko‘zi xumoring,

Men Farhodman, termilib ishqingda xor-u zoring,
Shirin kabi yasansang, qolmas armon, go‘zalim.

So‘zla, dilbar, eshitib, ochilsin, g‘ofil ko‘zim,
Noz aylabon boqarsan, bilmayman aytgan so‘zim,
Bu foniy jahon ichra ishqingdan mastman o‘zim,
Umr bo‘yi tushmadi jamolingga bu yuzim,
Kotib bo‘lib olibman qo‘lga she’r-u bayozim,
O‘zingsan bu jahonda dil bergan dilnavozim,
Dardimni qilib doston men notavon, go‘zalim.

Dardim oshsa-da haddan, yetisharsan, Luqmonim,
O‘zingsan ganj-u konim, o‘zing din-u iymonim,
Sen bog‘ ichra barq urgan anbarim-u rayhonim,
Ko‘rar ko‘zimning nuri, so‘zlay desam zabonim,
Ko‘ngil bo‘stoni ichra qad yozgan arg‘uvonim,
Tong yelida to‘lg‘angan bir sarvi xiromonim,
Jon ichida jon bo‘lgan mangu jonon, go‘zalim.

Qabul qilsang men quling xizmatingda bo‘layin,
Xudoyim ne dard bersa, men o‘zimga olayin,
Azroilga shu xasta jonni sadqa qilayin,
Yorim, agar istasang, jonim o‘tga solayin,
O‘yinchingning o‘rnida o‘zim o‘ynab qolayin,
Sen Qur’onim, nazar sol bu yuzimga, siylayin,
Mening kabi bir qulga sohibqiron, go‘zalim.

Aytishsa sendek go‘zal kelmish foniy johona,
Bu — yolg‘on, bu xabarga bo‘larmi hech ishona?
Agarda sayl aylasang, bir nazar sol bu jona,
Ishqing shavqi bilan men kirdim dorilomona,
Yuzingdagi shu jo‘ra xolingga men parvona,
Umrimda bir tushmish ko‘z bog‘da sendek rayhona,
O‘t ichida to‘lg‘ansam, bilgil ehson, go‘zalim.

Bosh-oyoq ko‘z tashladim — belingdadir zunnoring,
Yongan jonimga battar o‘t urishdir shioring,

Fido qilsam jonimni men g'arib giriftoring,
Sen qaerga bosh qo'ysang, oldingda xaridoring,
Xasta joningga darmon bir nigohi xumoring,
Har kuni bir ko'rmasam, yo'qdir sabr-u qarorim,
Qo'yning ichinda ko'rdim men lomakon, go'zalim.

Maxtumquli parvona — ishqing bilan o't olar,
To kulga aylanguncha parvona o'tda qolar,
Yuzing ko'rib jannat ham faryod solar, uyolar,
Sening kabi bir go'zal qachon jannatda bo'lar?
Naylayin, baxtim qora — falak tuzog'in solar,
Bermayman yor jonini, mening jonimni olar,
Berar bo'ldim joningga kunda yuz jon, go'zalim!

OVOZIM

Ey falak, nodon falak,
Tingla mening ovozim!
Ey yuksak, vayron falak,
Eshitarmisan sozim?

Xayol bir ish bitirmas,
Qo'lga narsa ketirmas,
Hech bir oshiq ko'tarmas
Ishqimni — aytsam rozim.

Shunday zamon, qardoshlar,
Oqardi soqol-sochlar,
Osmonda uchar qushlar,
Ko'llarda nuqra g'ozim.

Bu dunyo bir bozordir,
Kimlar ko'rmoqqa zordir,
Sayyod qo'lida xordir,
Mening go'zal shohbozim.

Kezdim axtarib iqbol,
Dunyoda bo'lib uvol,
Bo'ldi o'qu yoy misol,
Tildan chiqqan har so'zim.

Dunyo sheri karkidon,
Shohlarga erkdir makon,
Tutgan binoyim qalqon,
Shu ishonch qo'llar har zum.

Dunyoni yoqar ishqim,
Daryo bo'ladi ashkim,
Tilladan taxt-u ko'shkim —
Shu baxti sarfarozim[1].

Olam husni quyoshda,
Dunyoning dardi boshda,
Bihisht osoyishta,
Kezar ul dilnavozim.

Dilga bir xayol kelmish,
Bu xayoldan uyalmish,
Jahonga fido bo'lmish,
Yerdan chiqib firdavsim.

Arzim faqat Subhonga,
Dardim ayon Luqmonga,
Bolarilar parvona -
Til ichra asalim.

Men kuygan baxtiqora,
Ishq yo'lida bechora,
Qovushsam go'zal yora,
Shu Haqdan iltimosim.

[1] **Sarfaroz** — baland, yuksak.

Boshdan qo'llasa Xudo,
Bu olam senga fido,
Men bir jigardan judo
Bilgaysan imtiyozim.

Shunday bo'ldi zamonlar,
Shahid bo'ldi ko'p jonlar,
Beka bo'lsin jononlar,
Shudir yorga niyozim.

Maxtumquli elinda,
Bulbul sayrar tilinda,
El-u yurtning dilinda
Mening miskin hadisim[1].

JONGA KELDING

Odam o'g'li, ko'zing bog'liq,
Ne uchun sen jonga kelding?
Ko'klarda sayr etar eding,
Tushgancha zaminga kelding.

Yaxshi-yomonga boqmading,
G'ussa selinda oqmading,
Bo'yningga zanjir taqmading,
O'z-o'zing zindonga kelding.

Bu dunyoda yo'qdir vafo,
Chekar bo'lding jabr-u jafo,
Qismat ekan bir bevafo,
Bevafo jahonga kelding.

Kular yuzingni so'ldirgan,
Toza gulingni yuldirgan,

[1] **Hadis** — bu yerda: so'z, gap.

Ko‘zingni qonga to‘ldirgan
Bu jallod makonga kelding.

Ko‘rish uchun jabr-u sitam,
El-yurt kezib, chekkali g‘am,
Yaxshi-yomon bilgali ham,
Bu foniy jahonga kelding.

Yaxshi kuning oz boshingda,
Jayhun selidir qoshingda,
Shu yigirma besh yoshingda,
Bir ajab davrona kelding.

Maxtumquli, bu ne aql,
So‘zingin ayt, bo‘lma baxil,
Azal-oxir bordir naql,
Endi pushaymona kelding.

FONIY JAHONGA YETMAS

Bir nechaning davroni
Foniy jahonga yetmas.
Ko‘plarning yangi soli
Daryo, ummonga yetmas.

Ko‘r qo‘lida tayog‘i,
Yo‘l ko‘rsatar yarog‘i,
Qanchalarning oyog‘i
Eshak, chamanga yetmas.

Tog‘lar boshi tumandir,
Yellar doim ravondir,
Qancha tog‘lar yaksondir,
Qadri tumanga yetmas.

Kimlarga bermish molni,
Kimning og'ir ahvoli,
Kimning baxt-u iqboli
Foniy jahonga yetmas.

Ko'rki bor marmarlarning,
Nazarkarda yerlaring,
Ko'ring, necha pirlarning
Qo'li Qur'onga yetmas.

Yo'q ko'nglim kabi o'tli,
Men unga sabr-toqatli,
Maxtumquli hasratli:
Qo'li dostonga yetmas.

BERMOQ HAQDIR

Ey azizlar, odam o'g'li
Bo'z tuproqdan bo'lmoq haqdir.
Asli tuproq bo'lgandan so'ng,
Tuproq ichra kirmoq haqdir.

Kimlar g'am-u hasrat bilan,
Kimlar ranj-u kulfat bilan,
Bayon bo'lmish oyat bilan,
O'lmoq haq, tirilmoq haqdir.

Osiy bo'lsang, qolding darda,
Qayg'uda, hasratda, zorda,
Qorong'i zulmatda — go'rda
So'roq-savol bo'lmoq haqdir.

Kelib yoqang tutsa ajal,
G'oyib bo'lar ko'zdan bu hol,
Xuruj aylab chiqsa Dajjol,
Oy-kun zohir qilmoq haqdir.

Shariat ojiz qolganda,
Zulmatdan olam to‘lganda,
Va’dasi yaqin kelganda
Oxirzamon qo‘pmoq haqdir.

Kofirlar ko‘p g‘ussa yutib,
Rasul dargohina yetib,
Isrofil tarozi tutib,
Xayr-shar(r) ajr qilmoq haqdir.

Ul kun bo‘lar dahshat, zulmat,
Ajab mezoni arosat,
Amr etib Qoziyul hojot,
Rasul shafqat qilmoq haqdir.

Kim sirotdan qushdek uchar,
Kimlardir ming yilda kechar,
Osiy qullar yonar-o‘char,
Do‘zax ichra qolmoq haqdir.

Chanqasa — ichgani zahar,
Ochqasa — osh zaqqum magar,
Ustlaridan chayon yog‘ar,
Ilon, mo‘ylar chaqmoq haqdir.

Do‘zax tushgan banda yig‘lar,
O‘tda jigar-bag‘rin dog‘lar,
Ojiz qolib, yongan chog‘lar
Doding ko‘kka chiqmoq haqdir.

Maxtumquli, oldim dersan,
Kimdan tortib olib yersan,
Bir kun qaytarib berarsan,
Olmoq haqdir, bermoq haqdir.

BIR DARDGA YO‘LIQDIM

Bir dardga yo‘liqdim —
Luqmon ham ojiz,
Bu dardimga topmas darmon, azizlar.
Falak faryod chekib, bulut to‘kar yosh,
Qishda bahor bo‘ldi har yon, azizlar.

Oldimda qabr turar, kafandir to‘nim,
Bosh egib borganim ajdaho zamin,
Mufti so‘zi riyo, nomarddir amin,
Makon tutmish bunda yomon, azizlar.

Ajal og‘zidasan oxir bemador,
Ishq o‘tida yondim hasrat bilan zor,
Falakning o‘yini qildi meni xor,
Ming usulda o‘ynar ravon, azizlar.

Dasturxon oldida men och qolibman,
Sinay deb Jayhunga kema solibman,
Go‘yoki majma’ ul-bahrayn bo‘libman,
Sichqon teshib, kemam vayron, azizlar.

Men sham shu’lasida qolgan parvona,
Daryoga g‘arq bo‘lgan,
cho‘kkan ummona,
Jigari yuz pora, ko‘zi giryona,
Bo‘ldim Majnun kabi sarson, azizlar.

Maxtumquli, davo topmas bu dardim,
Bo‘zaxo‘r pir bo‘ldi, nomarddir mardim,
Pashshaday lochinni ta’qib etardim,
Janubdan izlab nur — tobon, azizlar.

QISH QO‘YAR

Yoshman deb, umr bahoriga quvonma,
Bahoring olib, o‘rniga qish qo‘yar.
O‘lim haqdir, tiriklikka tayanma,
Joning olib, jasadingni bo‘sh qo‘yar.

Sulaymonning hukmi gar bo‘lsa senda,
Ins-u jins salomga kelsa har kunda,
Umring oxirida, yerning qa’rinda,
Inson ojiz, yolg‘iz, beyo‘ldosh qo‘yar.

Chin banda emassan ranging so‘lmasa,
O‘zing o‘lmasingdan nafsing o‘lmasa,
Haqqa qulluq qilsang, hech kim bilmasa,
Bexabardir, yo‘lda quloq — go‘sh qo‘yar.

Dunyo lazzatidan kech, ey birodar,
Sen undan o‘tmasang, u sendan o‘tar,
Baxil yemas, ichmas, nonin bekitar,
Mard farzandi osh ustiga osh qo‘yar.

Maxtumquli, harom ishga qo‘shsang bosh,
Bir kun to‘ysang, ming kun qoladirsan och,
Nafs ko‘yida bo‘lsang shaytonga yo‘ldosh,
Iymon bilan obro‘yingda tash qo‘yar.

DUSHMANIM FALAK

Meni ota-ona, qardosh, o‘g‘ildan
Ayro solding, zolim, dushmanim falak!
Elimdan, yurtimdan, erkim, molimdan,
Ayro solding meni, dushmanim falak.

Miskinlikdan qo‘lim uzatsam yetmas,
Dildagi armonim kamaymas, ketmas,

Haqqa har kun yolvorsam ham eshitmas,
Ayro solding meni, dushmanim falak!

Qarzga botdim — og'ir kunlar boshimda,
Balolar charx urar tinmay qoshimda,
Qolmadi bir zarra aql-u hushim-da,
Ayro solding meni, dushmanim falak!

Nima yomonligim o'tdi, ey falak,
Avvalgi holingga qayt — shudir tilak,
Firog'iyni qilma buncha jonhalak,
Ayro solding meni, dushmanim falak!

DEYDILAR

Ko'hi Qof ahlidan Dehiston uzra
Bir dunyo lashkarin soldi, deydilar.
Otini o'ynatib, inib guzara,
Bir tomchi suv qo'ymay ichdi, deydilar.

Bejon xarob bo'lmish oh-u zor bilan,
Turkiston kurashib ajdahor bilan,
Iso qochib ketmish eshak — xar bilan,
Ovozi olamga to'ldi, deydilar.

Bo'shab qoldi qancha obod maskanlar,
Jonlar chiqib, bo'shab qoldilar tanlar,
Oylar xira tortdi, tutildi kunlar,
Osmondan bir balo keldi, deydilar.

Boshi ochiq qoldi yosh-yosh juvonlar,
Taxtin unutib shoh, o'tibdi xonlar,
Titrashar bulanib qonga polvonlar,
Gul yuzi sarg'ayib, so'ldi deydilar.

Xiva g‘arq bo‘libdi qayg‘u seliga,
Tamg‘a bosibdilar turkman tiliga,
Eron zulm etibdi go‘zal eliga,
Barisi qochishib keldi, deydilar.

Qudratdan mosuvo bo‘lib ko‘p pirlar,
Tog‘lar yiqilibdi, qalqinib yerlar,
Aql-u hush uchibdi qolmay fikrlar,
Bir qudrat ko‘tarib urdi, deydilar.

Har yon to‘zg‘ib ketib qarovsiz mollar,
Ko‘milib ketibdi ko‘p ravon yo‘llar,
Ummonda g‘arq bo‘lib egasiz sollar,
Qo‘l cho‘zgancha yig‘lab qoldi, deydilar.

Shudir sening jabring, ey zolim falak,
Ne aziz jonlarni aylading halak,
Firog‘iy, bu ishlar nohaqdir beshak,
Olloh nazarini soldi, deydilar.

KARVON CHIQAR

Biz ham tushdik endi karvonsaroyga,
Yukin bog‘lab endi bu karvon chiqar.
Birov yig‘lab kelar qiling deb madad,
Yo‘qotganin izlab bir sarbon chiqar.

Hoy-u havas bilan kezsang dunyoni,
Do‘stlar bilan sursang aysh-u safoni,
Bir kun seni olib ajal to‘foni,
Salom berib olddan qabriston chiqar.

Motaming tutarlar yaqinlar unda,
Hech kimning umidi qolmaydi senda,
Oq to‘n kiyib kelar mulla har kunda,
Takror aylab senga ul Qur’on chiqar.

"Rabbing kim?" — deb so'rar so'roqchi kelib,
Sen ketarsan bu dunyodan ayrilib,
Qavm-u qarindoshing qolar zor bo'lib,
Ahli iyol ko'zlaridan qon chiqar[1].

Firog'iy, shukr etib, ko'p doston yozding,
Haq oldida qarzing og'ishmay uzding,
Azizim, sen besh kun mast bo'lib kezding,
Bir kun nafas to'xtab, tandan jon chiqar.

KO'ZDAN OQQAN YOSHIMA

Yer titroqqa tushib, ko'k ham larzondir,
Ey azizlar, ko'zdan oqqan yoshima.
Jannat guli, do'zax o'ti so'zondir,
Ey azizlar, ko'zdan oqqan yoshima.

Shayton qo'shinini soldi qasdimga,
O'tdan to'shak yozdi, naylay, ostimga,
Farishtalar urarlar charx ustimda,
Ey azizlar, ko'zdan oqqan yoshima.

Dajjol olov purkab, cho'zdi qo'lini,
Do'zax o'tin urib, tutdi yo'lini,
Nuh chiqarib ummon ichra solini,
Chayqalmasdan suzdi ko'zda yoshima.

Aminlar ne darmon, ne chora topar,
Rahm etib bo'lmas, kim ustin yopar,
Oyoqosti etib, qilarlar safar,
Savdogarlar suzib ko'zda yoshima.

[1] Bu yerda ko'zlaridan yosh o'rniga qon to'kiladi degan ma'noda.

Maxtumquli charx dastidan zor aylar,
Luqmonni ko‘rmadi ul ozor aylab,
Duchor bo‘ldi yuragimda nor aylab,
Ketar bo‘ldi turmay ko‘zda yoshima.

TERMILIB

Ey benomus falak, qardosh ayladim,
To‘rga tushib, zor ichinda termilib.
Bilmasdan nomardni sirdosh ayladim,
Yolg‘izlikda xor ichinda termilib.

Falakning charxinda qo‘lim sindirdim,
Qoch ichinda qolib, ko‘zim qondirdim,
Jonim, baxt-u iymonimni yondirdim,
Bu jahonda nor ichinda termilib.

Haddan oshmish urib yuragim tug‘yon,
Quyoshi tutilib, makoni zindon,
Muttahamning dardi to‘kin dasturxon,
Chorasiz ul zor ichinda termilib.

Ey dil, hayda o‘zdan uyquni nari,
Tegrangda charx urar ajal qushlari,
Maxtumquli, ketmish ko‘zingning nuri,
Ul bihishting nur ichinda termilib.

YO‘LLAR SAYRI-YEY!

Savdo-sotiq bilan kezganlar olam
Qarordan ayrilar yo‘llar sari-yey!
Dunyo boyligini topgan Qorun ham
Ko‘z yumar ekan, der: mollar sari-yey!

Falakning ustidan hukmin yuritgan,
Qudrat bilan ins-u jinsni yaratgan,
Dami bilan tog‘-u toshni eritgan
Og‘iz ochib bormish tillar sari-yey!

Yetti kun zor yig‘lab, ko‘rishdan qolgan,
Qirq tuyani qo‘shib, ravona bo‘lgan,
La’lni ko‘zlab, zar-u misdan uyalgan,
Usta Jabbor aytar ellar sari-yey!

Begunoh bandalar Haqning yonida,
Shayton duchor bo‘lar mahshar kunida,
Bir narsa qo‘ygandek odam jonida,
Azroil yo‘l olar ellar sari-yey!

Dunyo xarob bo‘lib yotar chor-nochor,
Do‘konini yopib, tarqatib bozor,
Arab tilli do‘stga olam intizor,
Har kim orzuda der: tillar sari-yey!

Xarob bo‘lib yotar ne go‘zal ellar,
Za’faronday so‘lib lom-alif bellar,
Gulistonda qolib bulbulsiz gullar,
Qo‘ynini ocharmish yellar sari-yey!

Tog‘larning qo‘ynida turgan tumanim,
Bukchayib, ko‘taring mening fig‘onim,
Maxtumquli aytar: do‘stim-yoronim,
Dalli dil intilar cho‘llar sari-yey!

NAYLASIN?[1]

Do‘zax o‘tida kuyib, bechora jon naylasin?
Qishda yalang‘och qolsa, u notavon naylasin?
Dasht ichra qolding yolg‘iz, tog‘-u ummon naylasin?
Sen kabi bechorani do‘zax — so‘zon naylasin?

[1] Qo‘lyozmada qo‘shiqning boshi yo‘q.

Kuch-g‘ayratdan ayrilib, o‘kinch bilan yig‘larsan,
O‘tdi umring, ey nodon, endi neni chog‘larsan?
Behuda oshiq bo‘lib, jigar bag‘ring dog‘larsan,
Sen kabi keksalarni Farhod, Majnun naylasin?

Vasf etib yor husnini saxovating borida,
Miskinlarni ko‘rdingmi oshiqlar qatorida?
Ichar kavsar suvini bihishtning gulzorida,
Foniy jahon qirg‘iydir, bechora jon naylasin?

Maxtumquli, bir qushsan, ovchidan xavf, zor qilib,
G‘am bilan go‘zal umring o‘tkazibsan xor qilib,
Bevafoga dil berib, bir bevafo yor qilib,
Aqling kirib yig‘larsan, so‘ng pushaymon naylasin?

FE’L QOLMAS

So‘zimga quloq tut, foniy mehmoni,
Ko‘ksing yelga tutma, senda fe’l qolmas.
Bihisht huri, jon shahrining g‘ilmoni,
Yashnagan yuz bilan go‘zal xol qolmas.

Uzun umr ta’naga nishon ko‘p vaqti,
Umid bilan yashash — tiriklik sharti,
Agar taqdir kulib, ochilsa baxti,
Hamma tengin topar, qul-u tul qolmas.

Istaganing sira qoshingga kelmas,
Haq qo‘llamas, hatto valiylar bilmas,
Zamin boring yutar, aslo uyalmas,
Tog‘da qor-u jilg‘asinda gul qolmas.

Falak qo‘lin cho‘zar dunyo boriga,
Tortib duch keladi odam zo‘riga
Iskandar, Jamshid ham tushdi to‘riga,
Sulaymon o‘ldi-yu, Rustam Zol qolmas.

Aqlim ojiz mening, holim zabundir,
G'am — taomim, qon — sharobim tayindir,
Jayhun go'yo ishqda yongan Majnundir,
Layli-yu Najd tog'i bilan sol qolmas.

Maxtumquli, yozding har ne bilganing,
.....[1]
So'ngin o'ylab, bas qilmading o'laning,
So'qmoq yitar, bu yurilgan yo'l qolmas.

XONI KERAKDIR

Nomus-orli, ham barqaror ellarning,
Bir davlatli-yu mard xoni kerakdir.
Bir zunnorga arzimagan bellarning
Orzu qilgan qirmiz to'ni kerakdir.

Teran tafakkurning, go'zal diydorning,
Tog'larning tumani, yeli Xazarning,
Nomusli, davlatli, dovyurak erning,
O'tkir qilich, zo'r chamani kerakdir.

Maxtumquli holin so'rma — shul g'aming,
Jafosi ko'p, safosi ko'p ayyomning,
Ikki dunyo birodari odamning
Ko'z quvonchi or-iymoni kerakdir.

G'AM UYIDA QOLIBMAN

Yigitlik quvvati ketib tizzamdan,
Yoshim qaytib, g'am uyida qolibman.
Ishqing o'ti shu'la urib ko'zimdan,
Kuli bilan to'la bo'lib qolibman.

[1] Bu satr qo'lyozmada yo'q.

Aql-u hushim uchib, ko‘nglim to‘la g‘am,
Najd tog‘ida chiqsam, yo‘qdir Majnun ham,
Tiriklar mol, o‘lik jon so‘rar har dam,
Boshimga zo‘r g‘avg‘o solib qolibman.

Sovurdim o‘ylamay sira topganim,
Ishq mayin limmo-lim ichdim — qonmadim,
G‘amim ketib, oh-fig‘ondan tinmadim,
Xazon urgan guldek so‘lib qolibman.

Maxtumquli, er yaxshisin el bilar,
Oshni og‘iz, so‘z yaxshisin til bilar
To‘nni gavda, belbog‘ni-chi, bel bilar,
Aqlim to‘lmay dono bo‘lib qolibman.

TOLE TERS AYLANIB...

Tom ters aylanib, davlat sovrilib,
Boylar faqir bo‘lib qolsa, naylasin?
Charx to‘riga tushib, dami bo‘g‘ilib,
Ajal umr ipini yulsa, naylasin?

Tuman qolmasa, yo‘q qadr tog‘larda,
Bir tashvish chiqadi xushvaqt chog‘larda,
Qishning izg‘irini esib bog‘larda,
Sho‘rlik bulbul guli so‘lsa, naylasin?

Nomard hasad qilar mardning yoshiga,
Mardni ko‘rsa shumlik kelar boshiga,
Er yigitning nodon kelib qoshiga,
Yana unga hamroh bo‘lsa, naylasin?

Cho‘lda ko‘rinadi mudom tog‘ oshgan,
Keksalar maqtanib, gap olib qochgan,
Mushtoq bo‘lib, sevganiga yetishgan,
Yor yuziga parda solsa, naylasin?

Maxtumquli, yiqding ko‘ngil shahrini,
Ul betoqat ilon soldi zahrini,
Tovoniga falak tutmas muhrini,
Bag‘ri g‘am alamdan to‘lsa, naylasin?

NOMARD FALAK

Ey falak, dunyoni charx urib kezibdim,
Hech yerda ko‘rmadim sendek nomardni.
Daryo-dengizlarga tushdim-u suzdim,
Suvlarda ko‘rmadim sendek nomardni.

Vafo qilib, xursand etib turmassan,
Ne’mating garchi ko‘p, birin bermassan,
Odam o‘g‘lin yo‘ldosh aylab yurmassan,
Bir yurtda ko‘rmadim sendek nomardni.

Umrim bojin olding bozor bermayin,
Kimdir o‘tib ketdi xiroj bermayin,
Umr kechdi bir qarorda turmayin,
Dunyoda ko‘rmadim sendek nomardni.

Boshga tushdi hijron, kelgaysan endi,
Motamimda xandon kulgaysan endi,
Maxtumquli der qon: bilgaysan endi,
Hech yerda ko‘rmadim sendek nomardni.

AYIRIB KETAR

Bu foniy dunyoda kim qasr qurib, zor
Qo‘lida borini sovurib ketar.
Bu falak kimlarni aylab gunohkor,
Jonin jismi bilan qovurib ketar.

Qanchalarning ishin oh-faryod aylab,
Qanchalarning esa umrin mot aylab,
Qanchalarni foniy jahon shod aylab,
Qanchani jonidan ayirib ketar.

Birov boyligidan minora soldi,
Minora ustida o‘t ichra qoldi,
Kimlarning ulushi bir eshak bo‘ldi,
Kimlarga bir bedov ot berib ketar.

Qanchalarning zahar aylab ovqatin,
Qanchalarning qora qilib qismatin,
Kim ko‘rib kelibdi ish oqibatin,
Ammo barchasini yer so‘rib ketar.

Birov kulsa, birov yoshlar ko‘zlarin,
Kim xor, kimlar xon sanaydi o‘zlarin,
Firog‘iyni baxil demang, so‘zlarin
Har kuni tarashlab, zeb berib ketar.

SULAYMON NAYLASIN?

Tushdi jon shahriga yag‘mo[1], bu g‘arib jon naylasin?
O‘tdi umri, ketdi hukmi, ul Sulaymon naylasin?
Dard agar Haqdan ekan, bechora Luqmon naylasin?
Qaytarolmas ortiga umring pushaymon, naylasin?
Kuymagay do‘zaxda kuysa ishq aro jon, naylasin?

Qilsa ov o‘zi falak, men qayga jon pinhon qilay?
Kimga dil dardini aytib, kim bilan hamroz bo‘lay?
Jang qilib kimlar bilan, kimlarga men shamshir solay?
Dardim oshkor aylay olmay el-ulusdan uyalay,
Bu falak ham men kabi gar bo‘lsa sarson naylasin?

[1] **Yag‘mo** — talon-toroj.

G‘oyibona bo‘ldim oshiq — ishq o‘tida yonaman,
Men humoqushman, faqat hijron boshiga qo‘naman,
Layli yorim yo‘g‘-u Majnundek biroq devonaman,
Nola aylab har kuni ishqi mayidan qonaman,
Men kabi sarmastini qudratli Subhon naylasin?

Sha’niga doston bitibman ishqining bo‘stonida,
Oshiq ahli kuygusidir otashi xirmonida,
Men kabi Majnunni ko‘rmas bu jahon ayvonida,
Bo‘lmagan mendek gado hattoki Nuh davronida,
Men gado ishq o‘tiga, davlatli ul kon naylasin?

Aytadir Maxtumquli: ayb aylamang, yurt-ellarim,
Boqmayin ko‘nglimga hech, behuda sayrar tillarim,
Keksalik hukm o‘tkazibdi, bukchayibdi bellarim,
Qildi bulbullarni tutqun bog‘ ichinda gullarim,
Men xalos etmas esam, bechora bog‘bon naylasin?

QOSHI YOY

Bir dilbara duch keldim: kiprigi — o‘q, qoshi — yoy,
Husnidan kun hayrondir, xijolatda to‘lin oy.

Joning bersang arziydi bunday go‘zal mahbubga,
Hech ko‘rmadim uningday sarvqadni, hoynahoy.

Chang chekdi nola, qo‘biz qildi o‘tli fig‘onlar,
Chang shavqidan, ko‘z tashla, ne nolaga tushdi nay.

Na ishratdir oshiqqa jannat ichra jamoli,
Ayriliqning otashi do‘zax ichra vayl-u voy[1].

Diydoridan dildorning bo‘lma yana bebahra,
Qolmagaysan meningdek aqli ozu ko‘rka boy.

[1] **Vayl-u voy** — dod-u faryod.

Istasa olimlarni shayton etar ul dilbar,
Xohlaganni Xalildek o‘g‘loniga berdi poy[1].

Maxtumquli hamisha nola qiladi Haqqa:
Qulingman, mahrum etma dargohingdan, yo Xudoy!

BECHORAMAN

Vatanimda xon edim,
Xonlarga farmon edim,
Dardlarga darmon edim,
Miskinga do‘kon edim,
Jonsizga men jon edim,
Naylay, endi bechoraman.

Ko‘zsizlarning ko‘zi edim,
Gung-u lolning so‘zi edim,
El-yurtimning yuzi edim,
Sevar yorning nozi edim,
Hotam Toyning[2] o‘zi edim,
Naylay, endi fuqaroman.

Eram ichra rayhon edim,
Vatanga zarafshon[3] edim,
Mard qo‘lida kamon edim,
Tog‘ boshida tuman edim,
Firog‘iy der: omon edim,
Endi vayron bir saroyman.

---

[1] **Poy** — bu yerda: martaba, daraja.

[2] **Hotam** — xayr-u saxovati bilan mashhur bo‘lgan arab qabila boshlig‘i. Najd viloyatining Tay qabilasidan bo‘lganligi uchun Hotami Tay nomi bilan shuhrat qozongan.

[3] **Zarafshon** — zar sochuvchi.

KO‘RARSAN

Foniydan boqiyga borar bo‘lsang gar,
Eshiksiz, tuynuksiz uylar ko‘rarsan.
Namoz qilmay, beg‘am yotar bo‘lsang gar,
Do‘zax deb atalgan joylar ko‘rarsan.

Do‘st bilma o‘zingga foniy dunyoni,
Yolg‘onchida ko‘paytirma gunohni,
Bosh irg‘ab, ko‘z qisib, qilma zinoni,
Qabr ichra ko‘p oh-u voylar ko‘rarsan.

Namoz bilan besh ishing et jobajo,
Ko‘ngling tuproq bilan teng tut har asno,
Muhammad kafildir: qilmasin taqvo,
Ajdarho, ilon-u biylar[1] ko‘rarsan.

Tark aylama sira besh vaqt namozing,
Qabr ichra o‘ksik bo‘lmas ovozing,
Mudom bahor bo‘lar, qolmas ayozing,
Obi Kavsar[2] degan suvlar ko‘rarsan.

Ul ikki chashmani ko‘zingdan oqtir,
Yo‘ldoshing iymondir, yaratgan Haqdir,
Manzillar yiroqdir, yo‘llar uzoqdir,
Sira botmas kun-u oylar ko‘rarsan.

Bir kun xarob bo‘lar zamin-u osmon,
Kemalar g‘arq bo‘lar suvda begumon,
Etsak xalqqa yetti do‘zaxni[3] bayon,
Ichida zakotsiz[4] boylar ko‘rarsan.

---

[1] **Biy** — o‘rgimchaksimon zaharli jonivor.

[2] **Obi Kavsar** — kavsar suvi.

[3] **Zakot** — islom dinida muhtojlar foydasi uchun har yili umumiy daromadning qirqdan bir ulushi miqdorida beriladigan soliq.

[4] **Yetti do‘zax** — 1. Hoviya. 2. Jahim. 3. Saqar. 4. Lazo. 5. Xutama. 6. Sair. 7. Jahannam.

Sahar turib, til och zikri Rahmonga,
Yalang'ochga to'n ber, non — och insonga,
Olloh yo'ldosh etsa seni iymonga,
Jannatning ichida to'ylar ko'rarsan.

Asli ishi qozoningda, oshingda,
Farishtalar aylanishar toshingda[1],
Hur-parilar kelib turar qoshingda,
La'l-u durdan bezak aylar, ko'rarsan.

Banda Maxtumquli, chorla Rahmonni,
Shaytonga boy berib qo'yma iymonni,
Nasib etsa jannat ichra davronni,
Minsang, Buroq otli toylar ko'rarsan.

VAFOT BOR

So'fiylar[2], sofiylar[3], hozir bo'linglar,
O'lim bor-u hayot bor-u vafot bor.
Yomon ishdan barcha hazar qilinglar[4],
Chunki savol, so'roq bor, qiyomat bor.

Munkar, Nakir[5] tor go'r ichra kelarlar,
"Rabbing[6], payg'ambaring kim?" — deb so'rarlar,
Bilmas bo'lsang, ko'p azoblar berarlar,
Gurzi bor-u qahr bor-u haybat[7] bor.

---

[1] **Toshingda** — bu yerda: atrofingda, tegrangda.

[2] **So'fiy** — tariqatga kirib, dunyodan ko'ngil uzgan, riyozat bosqichlarini bosib o'tib, Haqqa intilayotgan kishi.

[3] **Sofiy** — sof, pok.

[4] *Asliyatda:* "nosir bo'linglar". "Nosir" so'zining ma'nosi "yordam beruvchi, madadkor"(?). Shuning uchun matn talabiga ko'ra bu so'zni shunday tarjima qildik.

[5] **Munkar, Nakir** — islomiy tasavvurga ko'ra, o'lganlarni qabrda dastlabki so'roq qiluvchi, ulardan yerdagi qilmishlari to'g'risida hisobot oluvchi va qilgan gunohlariga qarab jazolovchi farishtalar.

[6] **Rab** — Xudo, Parvardigor.

[7] **Haybat** — xavf, qo'rquv.

Ul qorong'i go'r ichida yotarsan,
Bechorasan — Haq amrini tutarsan,
Isrofil sur chalsa, go'rdan chiqarsan,
Mahshar bor-u mezon[1] bor-u Sirot[2] bor.

Unda mezon tarozisin qurarlar,
Keyin bir-bir amallaring so'rarlar,
Osiylarni[3] do'zax sari surarlar,
Malik[4] bor-u do'zax bor-u ham o't bor.

Maxtumquli, qilsang ko'z yoshing giryon,
Qiyomat vahmini Haq etgay oson,
So'nggi nafasingda yor bo'lsa iymon,
Jannat bor-u rohat[5] bor-u, najot bor.

UNDADIR

Ey azizlar, g'ofil o'lmang, barcha jonlar undadir,
Zahr-u og'u, shahd-u shakkar, turfa bollar undadir,
Ul qiyomat ranji, g'am, janjal, zavollar undadir,
Og'ir afsus-u nadomat, so'z-savollar undadir,
Turfa beklar, turfa xonlar, turfa ellar undadir.

Kimki zulm etsa, Xudo unga do'zax o'tin sochar,
Kimki lutf etsa, Xudo ayb-u gunohini kechar,
Pulsirotdan bu gunohkor bandalar har xil kechar,

---

[1] **Mezon** — o'lchov, tarozi.

[2] **Sirot (Pulisirot)** — qiyomat kuni jahannam uzra tortilgan qilko'prik.

[3] **Osiy** — gunohkor, itoatsiz, isyon qiluvchi. U kufr yoki shirkka ketmagan bo'lsa, har qancha katta-kichik gunohlariga qaramay, mo'min-musulmon sanaladi va chin dildan tavba qilsa, gunohlari kechiriladi.

[4] **Malik** — ega, sohib, shoh, sulton.

[5] *Asliyatda:* mehnat. Bu so'z mumtoz adabiyotda 1) qiyinchilik, mashaqqat; 2) g'am, qayg'u; 3) ofat, balo, uqubat ma'nolarida keladi. Biz matn talabidan kelib chiqib, bu so'zni "rohat" bilan almashtirdik.

Kimi besh yil, kimi o'n yil, kimi yuz yilda kechar,
Bepoyon yo'l, katta tog', suvsiz cho'llar undadir.

Har kim o'z holiga yig'lar, na ota o'g'la boqar,
Titragay, qaqshar jahannam —
barcha qahrini to'kar,
Zahrini sochib ilonlar, tuyadek biylar chiqar,
Ro'za tutmas bandalarni Haq jahannamda yoqar,
Surati to'ng'iz sifat naqshi badanlar undadir.

Erta[1] ul tavfiqli qullar murshidiga[2] daldadir,
Har kishi ehson etar, ehsoni uning qo'ldadir,
Kim quvonch ichra, kim o'tda —
har kishi bir holdadir,
Mol-u dunyo behuda, ish unga makr-u oldadir[3],
Ul egarlangan Buroqlar, shohi to'nlar undadir.

Yuz-qora Maxtumquli, soqiy — ajal, ichsang kerak,
Uy-u joy-u mol-u mulking — baridan kechsang kerak,
Necha g'iybat, necha yolg'on so'zlaring ochsang kerak,
Toyib ul qil ko'prigidan chohiga uchsang kerak,
Tig'dan o'tkir, qildan ingichka u yo'llar undadir.

KO'RGAN KO'ZLARIM

Lutfi Haqdan behisob ehsonni ko'rgan ko'zlarim,
Yuz o'ttiz to'rt uyda bir mehmonni ko'rgan ko'zlarim,
Egnida to'rt rang-barang choponni ko'rgan ko'zlarim,
Oldida ham to'rt taom — alvonni ko'rgan ko'zlarim,
Ikki do'st-u behisob dushmanni ko'rgan ko'zlarim.

---

[1] **Erta** — bu yerda: qiyomat, oxirat ma'nosida.

[2] **Murshid** — pir, shayx. Tasavvuf tariqatida muridga rahnamolik qiladigan irfoniy ma'rifatda yuksak maqomga etgan kishi.

[3] **Ol** — makr, hiyla, firib.

Fazli Haqqa yetishib, vahdat sharobidan[1] ichib,
To'rt qanotni silkitib ham ul makonidan uchib,
Uch ming ikki yuz, yana ham ellik pardadan kechib,
Tangrining amri bilan bu ikki ko'zimni ochib,
Axtaribon ushbu sargardonni ko'rgan ko'zlarim.

Ming-da saksonning ichida topmisham shirin shakar,
Uch ming ikki yuz, yana qirq bog'ni kezdim sarbasar[2],
Eshitib bog'bonlaridan bir ajoyib xushxabar,
Biri — yetti, biri — besh daryodan istab duru zar,
Arsh ila daryoda qancha konni ko'rgan ko'zlarim.

Yuz-u o'n to'rt darvozadan ot chopib, kezdim ravon,
To'rt bozorni kezib, bir gavhar oldim begumon,
Uch guruh qamrab kelib, tegramni tutdi nogahon,
To'rt butoqli bir daraxtga qochibon chiqdim shu on,
Shu daraxt ustida ko'p nag'mani ko'rgan ko'zlarim.

Ey Firog'iy, o'tdi umring, qilmadim yaxshi amal,
Yo'l uzoq, og'ir yuking, tez ur qadam, qilma hayal,
Yondir yetti yuz chiroqni, qo'lga ol aylab jadal,
Uchgay ellik to'rt pari qush kamol yetmay mahal,
Oh, u qushning chin eshi — iymonni ko'rgan ko'zlarim.

YO RASUL

Haq seni sarvar[3] yaratdi, podshohim, yo Rasul!
Anbiyo sardaftari[4], nuri ilohim, yo Rasul!
Bu jahonni zulmat etdi dudi[5] ohim, yo Rasul!

---

[1] **Vahdat sharobi** — Ollohning yagonaligini his qilish ma'rifatiga erishtiradigan ilohiy may. Rivoyatga ko'ra, Muhammad alayhissalom me'roj kechasi Olloh taolo huzuridagi ilohiy maydan totgan ekanlar.

[2] **Sarbasar** — boshdan-oyoq, butunlay.

[3] **Sarvar** — yetakchi, rahbar, rahnamo.

[4] **Sardaftar** — daftarning boshida bo'lish, eng ulug', yetakchi, peshvo.

[5] **Dud** — tutun.

Bosh urarman eshigingga, qiblagohim, yo Rasul!
Sen etgil nola-yu faryod-u ohim, yo Rasul!

Barchadan a'lo yaratdi asli nuri pokni,
Qaddiga qildi munosib xilqati[1] lavlokni[2],
Ul muborak qo'llariga hassa-yu misvokni[3],
Ummatim der omi-yu osi-yu ham bebokni[4],
Ikki olam ichra sen pusht-u panohim, yo Rasul!

Bo'lding olam afzali lutfi ruhi mutlaq[5] bilan,
Mo'jizangning biri bog'liq oy sinishi — shaq[6] bilan,
Sirlasharsan Arsh ustiga chiqib sen Haq bilan,
Oy, bulutdankim, ishorat ayladik barmoq bilan,
Yetti osmon uzra chiqmishlar guvohim, yo Rasul!

"Vazzuho"dir[7] yuzlaring tun ichra oydek muttasil,
Senga "Iqro"[8] surasidan berdi mujda Jabroil,
Ul Xadicha tan olib, iymonga keltirdi mayl,
Faxri olam sensanu barcha nabilar bir zayl,
Xatm etib, pok ruhingga qildim duoyim, yo Rasul!

"Yo Rasulullohi" — debon undan ketar bo'ldi Buroq,
Laylat ul-me'roj[9] tunida Tangri keltirdi qiroq[10],

---

[1] **Xilqat** — libos, ust kiyim, yopinchiq, sarpo.

[2] **Lavlok** — agar sen bo'lmaganingda. "Lavloka lamo xalaqtul-afloka" — "Agar sen bo'lmasang, falaklarni yaratmagan bo'lar edim" mazmunidagi qudsiy hadisga ishora.

[3] **Misvok** — tish tozalagich.

[4] **Bebok** — bu yerda: zolim, uyatsiz.

[5] **Ruhi Mutlaq** — Xudo.

[6] **Shaq** — yorilish, bo'linish. Bu yerda mo'jiza ko'rsatishini so'rashganida Muhammad alayhissalomning barmog'ining bir ishorasi bilan oyni ikkiga bo'lgani voqeasiga ishora qilinmoqda.

[7] **Vazzuho** — Qur'oni karimning 93-surasi: "Choshgoh vaqtiga qasam".

[8] **Iqro** — "Iqra' bismi Robbikallazi xalaq" — "(Seni) yaratgan Parvardigoring ismi bilan o'qi" mazmunidagi oyatga ishora.

[9] **Laylat-ul-me'roj** — Me'roj kechasi: Muhammad alayhissalom yetti osmonga ko'tarilgan kecha.

[10] **Qiroq** — had, chegara.

Yetti osmon eshigin ochdi malaklar beso‘roq,
To‘rt to‘n keldi senga: qizil, yashil-u sariq oq,
Bittasin olding suyib, shu bo‘ldi rozing, yo Rasul!

Ayla yod Maxtumqulidek, bir faqir-u ochni,
Shafqatingdan noumid etma meni muhtojni,
Xizmatingda sayr etarlar Laylat ul-me’rojni,
Sevgani bois Xudo qo‘ydi boshingga tojni,
Xatm etib, pok ruhingga qildim duoyim, yo Rasul!

SONGA KELDING

Odam o‘g‘li, asli zoting,
Bir hovuchdan songa kelding,
Tuprog‘-u olov-u havo,
Qatra suvdan qonga kelding.

Yotarding qorong‘i joyda,
Na kun ko‘rinar, na oy-da,
O‘n to‘rt kun bilan to‘rt oyda,
Haq amr etdi — jonga kelding.

Boq: nechuk bo‘ldi qudratda,
Rizq berdi totli sharbatda,
To‘qqiz oy, to‘qqiz soatda
Enib, bu jahonga kelding.

Bevafoga[1] kelding ina,
Sut bera boshladi ona,
Badaningni qilib pana,
Ko‘ylak bilan to‘nga kelding.

Bir o‘tdi, ikkidir yoshing,
Yig‘lamoqdir sening ishing,

[1] Maxtumquli she’rlarida “bevafo” so‘zi o‘tkinchi, yolg‘onchi dunyoning sifati tarzida istiora bo‘lib keladi.

Uch yoshingda chiqdi tishing,
Sutdan o'tib, nonga kelding.

Turli til ochildi durdan,
Parvoying yo'q xayr- u shardan[1],
Besh-olti yoshingda zardan —
Kiyib, zavq-tug'yonga kelding.

Yetti yoshda tushib tishing,
Bilim, maktab bo'ldi ishing,
Sakkizda bahordir qishing
To'qqiz o'tib, o'nga kelding.

O'n ikkida gullar bilan,
Kezding shirin tillar bilan,
O'n uchda bulbullar bilan
Sayri gulistonga kelding.

Yetganingda o't to'rt yoshga,
Ishqing tushdi qalamqoshga,
Yosh qizni quchib o'n beshda,
Ishq ichra mastona[2] kelding.

Yigirmaga yetib jo'shding,
Chorak yoshda qaynab-toshding,
O'ttiz yoshingda urishding
Sher kabi maydonga kelding.

O'ttiz beshda sarmast bo'lib,
Qilichingdan yovlar o'lib,
Qirqingda to'rt kosang to'lib,
Kechib, go'ristonga kelding.

Qirq beshda yig'ding dostonni,
Ellikda bosding ostonni[3],

[1] **Xayrushar** *(r)* — savob va gunoh, yaxshilik va yomonlik.

[2] **Mastona** — mastlarcha, mastlardek.

[3] **Oston** — ostona, bo'sag'a.

Ellik beshda saratonni —
Qo‘yib, qahratonga kelding.

Oltmishda qish bo‘ldi uying,
Oltmish beshda jondan to‘yding,
Yetmishda gul-g‘uncha terding,
O‘zga zimistonga kelding.

Yetmish beshda oh chekilar,
Saksonda tishing to‘kilar
Sakson beshda bel bukilar,
Ipsiz bir kamonga kelding.

Sondan chiqding to‘qson yoshda,
Iymon tila to‘qson beshda,
Maxtumquli, sen yuz yoshda
Ul so‘nggi makonga kelding.

DINI BILAN-EY

Besh farzni[1] ado qil musulmon bo‘lsang,
Yurib Muhammadning dini bilan-ey!
Yuz yigirma to‘rt ming payg‘ambar o‘tdi,
Har biri bir ummat soni bilan-ey!

Jannat eshigini qo‘riqlar Rizvon[2],
Gavhardek charaqlar tunlar — charog‘on,
Ali[3] bilan Hotam boshlar u tomon,
Mardlar kechar uni noni bilan-ey!

Saf tortib turgan hur qizlarga boqib,
Hazil bilan tanlab oladi yoqib,

[1] **Besh farz** — iymon, namoz, ro‘za, zakot va haj.

[2] **Rizvon** — jannat eshik og‘asi.

[3] **Ali** — Hazrat Ali.

Buroq oti bilan har yoqqa chopib,
Shahidlar kecharlar qoni bilan-ey!

Ro'za — hamdamingdir, namozing — chiroq,
Zakot — hisobingdir, iymonimng — yarog',
Qiyomatda, bugun ot bersang, Buroq,
Xizmatda egar-yugani bilan-ey!

Maxtumquli sarxush ishq jomin ichar,
Kim hisob-kitobdan qutular, qochar,
Sirot ko'prigidag salomat kechar,
Haqqa banda bo'lgan joni bilan-ey!

BU RO'ZA

Qodir Olloh bizga inoyat etmish,
Qabr ichra yor-u hamkordir bu ro'za.
Barcha gunohlarga kaforat[1] etmish,
Sirot uzra madadkordir bu ro'za.

Tutsang ro'za qilib chin dildan ixlos,
Do'zax azobidan bo'lasan xalos,
Qabul etsa zakot, namozingni, boz[2]
Qabr zulmatida yordir bu ro'za.

Ko'rinadi bo'lib xushsurat, zebo,
Qabrda mo'minning joniga oro,
Oxiratdan berib nishon har asno,
Rohat ichra betakrordir bu ro'za.

Agar bersang ro'za — fitr[3] adosin,
Mahsharda ko'rasan rohat soyasin,

[1] **Kaforat** — qilingan gunoh evaziga beriladigan narsa.

[2] **Boz** — yana, tag'in.

[3] **Fitr** — islomda ramazon oyi tugashi munosabati bilan beriladigan sadaqa.

Tark aylasang, tutavergin qazosin,
Jannat ichra bir gulzordir bu ro‘za.

Fayz ayladi bizga qodiri Jabbor,
Kim tark etsa, o‘sha kofir, gunohkor,
Do‘zax otashiga bo‘lar giriftor,
Amali yaxshilarga yordir bu ro‘za.

Odam o‘g‘li, g‘ofil bo‘lma, tutaver,
Tavba aylab, to‘g‘ri yo‘lga o‘taver,
To o‘lguncha Haq qulligin etaver,
Tutganga ayshi bisyordir[1] bu ro‘za.

Maxtumquli, tark aylama adosin,
Tark aylasang, tutavergin qazosin,
Ma’nosiga yetib, bilsang mazasin,
Ajoyib bir kasb-u kordir bu ro‘za.

YORLAQAGIL GUNOHIMNI

Xudoyo, sen karam aylab,
Yorlaqagil gunohimni.
Ayblarimni afv et mening,
Yorlaqagil gunohimni.

Ranj-u azoblarga tutma,
Gunohkor ahliga qotma,
Jahannam o‘tiga otma,
Yorlaqagil gunohimni.

Ayb-u gunohim ko‘p behad,
Mening holimga sen rahm et,
Lutfingdan qilma noumid,
Yorlaqagil gunohimni.

[1] **Bisyor** — ko‘p, ortiq, ziyoda.

Agar foyda-ziyon kildim,
Bilmasmanki, yomon qildim,
Senga dardim ayon kildim,
Yorlaqagil gunohimni.

Marhamatlik podshohimsan,
Aniq bildim: Ollohimsan,
Mening pusht-u panohimsan,
Yorlaqagil gunohimni.

Sening zoring bo'libdirman,
Giriftoring bo'libdirman,
Gunohkoring bo'libdirman,
Yorlaqagil gunohimni.

Yuzin, Maxtumquli, yo Rab,
Senga tutdi bo'lib tolib,
Dardimga yo'q sendek tabib,
Yorlaqagil gunohimni.

OXIRZAMON KELAR

Ey azizlar, musulmonlar,
Bir kun oxirzamon kelar.
Ko'hi Qofni[1] oshib o'tib,
Dajjol[2] ul dam ravon kelar.

Ushbu dunyodan kechganlar,
Haq sharobini ichganlar,
Otasiga yosh o'g'lonlar
Suv ko'tarib, chaqqon kelar.

---

[1] **Ko'hi Qof** — Qof tog'i. Qof — butun dunyoni o'rab olgan tog' tarzida tasavvur qilinadi.

[2] **Dajjol** — islom diniga ko'ra, qiyomat oldidan paydo bo'ladigan va dindorlarni Xudo ko'rsatgan to'g'ri yo'ldan ozdiradigan bir ko'zli odamsimon maxluq.

Xudoyimning rahmati deb,
Haq amridan chiqmadi deb[1],
Sahar Haqqa yig'ladi deb,
Sakkiz jannat xandon kelar.

Ummatlarga shafqati deb,
Muhammadning ummati deb,
Jannat sizga himmati deb,
Xudoyimdan farmon kelar.

Jahondan o'tdi ne jonlar,
Bunda qilib xayr-ehsonlar,
Ey azizlar, musulmonlar,
Unda taxtiravon kelar.

Firog'iy, qil g'aribni shod,
Xayr-ehson yo'q bundan ziyod,
Ortda qolgach puli sirot,
Bunda bergan qurbon kelar.

SABR

Darvesh ahli, shuni bilgil,
Sabr jannat kalitidir.
Sabr bilan amal qilgil,
Sabr jannat kalitidir.

Sabrsiz kishi qon ichar,
Bo'lar balolarga duchor,
Berk eshikni sabr ochar,
Sabr jannat kalitidir.

Shoshilmoq doim shaytondan,
Sabr aylamoq Rahmondan,

[1] *Asliyatda:* "Haq buyrug'in qilmadi deb". Biz matn mazmunidan kelib chiqib, shunday tarjima qildik.

Ma'rifat yetar jonondan,
Sabr jannat kalitidir.

Zikr aylaganlar zavqlanar,
Shukr aylaganlar shavqlanar,
Sabrsiz odam farqlanar,
Sabr jannat kalitidir.

Sabrsizning ishi yitar,
Sabrlining ishi bitar,
Xudoyim qo'lidan tutar,
Sabr jannat kalitidir.

Kim sabrsiz — ko'rar ozor,
Tiriklikdan bo'lar bezor,
Shayton bilan yo'ldan ozar,
Sabr jannat kalitidir.

Haq zikrini ko'p aylagil,
Jahd aylagil, jahd aylagil,
Sabr aylagil, sabr aylagil,
Sabr jannat kalitidir.

Maxtumquli, bilgil ayon,
Panddir ushbu hadis hamon:
"As-sabr-u miftoh ul-jinon" —
Sabr jannat kalitidir.

SAVOL-JAVOB

Dedim: "Falak, savol bor". Dedi: "Adolat bizdan".
Dedim: "Dunyo keng bo'lar". Dedi: "Xabar yo'q sizdan".
Dedim: "U qanday to'ndir?" Dedi: "Kafandir bizdan".
Dedim: "Tanda yaram bor" Dedi: "Nihon tut ko'zdan".
Dedim: "Telbaman ishqda". Dedi: "Yuz tut farmonga",
Dedim: "Bu ne farmondir?" Dedi: "Keldi Tabrizdan".

Dedim: "Charx urgan nima?" Dedi: "Dunyo yelidir".
Dedim: "G'amda-ku odam?" Dedi: "Fano elidir".
Dedim: "Sobit nima u?" Dedi: "Islom yo'lidir".
Dedim: "Nima to'siqsiz?" Dedi: "Shayton fe'lidir".
Dedim: "Oldim farmonni". Dedi: "Yuz tut Qur'onga".
.....[1].

Dedim: "Bu ne shahardir?" Dedi: "Yolg'onchi jahon".
Dedim: "Kimlar shoh bo'lar?" Dedi: "Quruq jasad, jon".
Dedim: "Kim u yig'lagan?" Dedi: "Ulug' Sulaymon".
Dedim: "Haq nima istar?" Dedi: "Bog'da gul-rayhon".
Dedim: "Yig'lar-ku bog'bon?" Dedi: "Dog'laydi bag'rin".
Dedim: "Davosi kimdan?" Dedi: "Luqmon azizdan"

Dedim: "Bir go'zal ko'rdim". Dedi: "U Mohitobon"[2].
Dedim: "Boqiy zot bormi?" Dedi: "Yolg'iz Haq omon".
Dedim: "Kim so'rar jahon?" Dedi: "Shoh[3] hukmi ravon".
Dedim: "Bola o'lsa-chi?" Dedi: "Borar Haq tomon".
Dedim: "Bizga yetkirgil". Dedi: "Haq deb o'tirgil".
Dedim: "Kimda yo'q uyat?" Dedi: "Juvonda, qizda".

Dedim: "Ismim — Firog'iy". Dedi: "Firoq chekarsan".
Dedim: "Qo'l-oyoq ojiz". Dedi: "Toqqa chiqarsan".
Dedim: "Nomard-ku g'olib?" Der: "Ilonsan — chaqarsan".
Dedim: "Ketdi amalim". Dedi: "Qarib cho'karsan..."
Dedim: "Haqqa arzim bor". Dedi: "Haqdir senga yor".
Dedim: "Qishim kelmoqda". Dedi: "Ogoh bo'l kuzdan".

---

[1] Asliyatda bu satr yo'q.

[2] **Mohitobon** — porloq oy.

[3] Shoh deyilganda bu yerda jahon shohi, ya'ni Olloh taolo ko'zda tutilmoqda.

GUNOHIMNI AFV AYLA

Ey Xudo, qil nazzora[1],
Gunohimni afv ayla!
Dardimga etib chora,
Gunohimni afv ayla!

Bo'lmasa karam sendan,
Ketar ixtiyor mendan,
Ayblarim ko'pdir chindan,
Gunohimni afv ayla!

Yuz g'am bilan tanda jon,
Istaydi sendan omon,
Fazling bilan, yo Subhon,
Gunohimni afv ayla!

Bo'lsam hamki gunohkor,
Aybimni yashir, Sattor[2],
Karam ayla, yo G'affor,
Gunohimni afv ayla!

Lutfingni izhor aylay,
Ko'nglimni nisor aylay,
Tavfig'ingni yor aylay,
Gunohimni afv ayla!

Aql yetmas zotingga[3],
Fikr ojiz sifotingga[4],
Birliging hurmatiga
Gunohimni afv ayla!

---

[1] **Nazzora** — qarash, nazar solish, tomosha qilish.

[2] **Sattor** — Xudoning ismlaridan biri: ayblarni yashiruvchi.

[3] **Zot** deganda tasavvuf ahli Mutlaq ruhning o'zini, ilohiyot olamining javhari, ya'ni abadiy va azaliy Vahdatning mohiyatini tushunganlar.

[4] **Sifot** — sifatlar. Ilohiy zotning ayonlashuvi, uning qudrat va xususiyatlari. Barcha ruhiy va moddiy olamlar, jumladan inson ham shu sifatlardan iborat.

Sen bor mavjudot shohi,
Bormi siring ogohi?!
Isming uch ming, ilohi,
Gunohimni afv ayla!

Biz bechora ummatning,
Ummati Muhammadning,
Hurmatiga Ahmadning
Gunohimni afv ayla!

Qudrating qo'zg'ab shavqin,
Ahmadning oshdi zavqi,
Osmon-u zamin haqqi,
Gunohimni afv ayla!

Mardlar ehsoni haqqi,
Shahidlar qoni haqqi,
Mavjudot joni haqqi,
Gunohimni afv ayla!

Senga boqqan yuzlar deb,
Sen deb yig'lar ko'zlar deb,
Hamding aytgan so'zlar deb,
Gunohimni afv ayla!

Ko'kda yulduz hurmati,
Yerda Navro'z hurmati,
Kecha-kunduz hurmati,
Gunohimni afv ayla!

Baland tog'lar haqqiga,
Cho'l-u qirlar haqqiga,
Suvlar, yerlar haqqiga,
Gunohimni afv ayla!

Qo'llamasang bu gado,
G'am ichra bo'lar ado,
Firog'iy der: yo Xudo,
Gunohimni afv ayla!

MEHRIBONIM KELDI

G‘arb — kunbotar tarafdan
Shul mehribonim keldi.
Yuz ishvayi noz bilan
Joni-jononim keldi.

Men yorning sargardoni,
Yasanib husn sultoni,
To‘kdi bag‘rimning qonin,
Shohi sultonim keldi.

Olamga shohi parvar[1],
Bo‘ldi ummatga sarvar,
Jahon bo‘ldi munavvar,
Duri raxshonim keldi.

Qomati sarv-u to‘bo[2],
Yo‘q uning tengi aslo,
Yuzi vajhi “Vaz-zuho”[3],
Sarvi ravonim keldi.

Niqobin yuzga solgan,
Yuz ko‘rsatib, jon olgan,
Shuncha orzulab yongan
Oh-u fig‘onim keldi.

Malak amriga boqqan,
Yettinchi ko‘kka chiqqan,
Oh ursa, Arshni yoqqan,
Sohibqironim keldi.

---

[1] **Parvar** — parvarish qiluvchi, tarbiya qiluvchi.

[2] **To‘bo** — jannatdagi rang-barang mevali va xushbo‘y sersoya daraxt.

[3] “Vaz-zuho” bu yerda “Yorning yuzi choshgoh payti quyosh tikka tushgani kabi nurli, porloq, ravshan” degan ma’noda kelyapti.

Maxtumquli benavo,
Boshqaga boqmas aslo,
Ummatim deb doimo
Hazrat eshonim keldi.

JAHON SENDAN BEXABAR

Sen jon oroyishi-yu, bu jon Sendan bexabar,
To'ldirang-da jahonni, jahon Sendan bexabar.

Tafakkur daryosida sirlarim kemasini
Yuz tarafga suzdirdim, sayron[1] Sendan bexabar.

Kufr bo'ladi, desalar, ashyo[2] sendan xolidir,
Manzil senga g'arq, ammo makon Sendan bexabar.

Zamin, osmon, g'arb-u sharq parvonadir nuringga,
Zohirsan-u zamonda, zamon Sendan bexabar.

Istar Seni dengizlar to'lqinlanib shavqingdan,
Sen ular ichra ma'lum, ummon Sendan bexabar.

Zamin tilar osmonda, osmon tilar zaminda,
Bir-biridan gumonda, gumon Sendan bexabar.

Maxtumquli, ko'r endi, ashyolar ne ishdadir,
Yo'q emish bu ashyoda hamon Sendan bexabar.

BO'LMOQ HAQDIR

Ey azizlar, odam o'g'li
Bo'z tuproqdan bo'lmoq haqdir.
Asli tuproq bo'lgandan so'ng,
Tuproq ichra kirmoq haqdir.

---

[1] **Sayron** — 1) sayr, sayohat, yurish; 2) sayr joyi, sayrgoh.

[2] **Ashyo** — narsalar, buyumlar, jonsiz mavjudot.

Kalomda bor ish bayondir,
Barcha ish Haqqa ayondir,
Inonsang, senga iymondir,
O'lmoq haq, tirilmoq haqdir.

Ayyub bo'lmading sabrda,
Toqating yo'qdir jabrda,
Munkar, Nakir tor qabrda
Savol-javob qilmoq haqdir.

Qilgan ishlaring so'ralar,
Kun qizir, mezon qurilar,
Tug' chekib, alam[1] urilar,
Og'ir kunlar kelmoq haqdir.

Firog'iy yo'qotsang yo'ling,
Ul kun nima kechar holing?
Bu kun zo'rlab olgan moling
Erta qaytib bermoq haqdir.

OLAJAKDIR

Odam o'g'li, bu dunyoga
Qo'ymas seni, olajakdir.
Halol-harom yiqqan moling
So'ngra sendan qolajakdir.

Har qancha yashasang o'zing,
Qolar yaxshi-yomon so'zing,
Xumor ko'zing, guldek yuzing
Xazon urib so'lajakdir.

Tandan judo bo'lar qoning,
Etdan ayr-u ustuxoning,
Tan bilan payvasta joning
Yot, begona bo'lajakdir.

[1] **Alam** — bayroq.

O‘tdi bahor, keldi qishing,
Namoz, ro‘za bo‘lsin ishing,
Bu dunyoda sulton boshing
Ne savdolar ko‘rajakdir.

Bu dunyoga kelgan jonlar,
Biri-biriga mehmonlar,
Xo‘ja[1], sayid[2], beg-u xonlar
Oqibatda o‘lajakdir.

Xizmat qil Qodir Xudoya,
Umringni o‘tkazma zoye,
Eshiksiz, tuynuksiz joya
Bir kun eltib solajakdir.

Xarob bo‘lib qolar joying,
Buzilar ko‘shk-u saroying,
Yaratgan qodir Xudoying
Tanh o‘zi qolajakdir.

Maxtumquli osiy quling,
Kufr so‘zdan saqla tilin,
Qiyomatda to‘g‘ri yo‘ling
Puli sirot bo‘lajakdir.

AYRILMADIMI?

Nuridan yaratdi ikki azizni,
Bug‘doy yeb, bihishtdan ayrilmadimi?
Uch yuz yil axtarib, sargardon bo‘lib,
Odam Havosidan ayrilmadimi?

---

[1] **Xo‘ja** — 1. O‘zlarini choryorlarning avlodlari deb hisoblovchi musulmonlarning faxriy nomi. 2. O‘rta Osiyoda ilgari ma’lum imtiyozga ega bo‘lgan oqsuyaklar va ularning avlodlari.

[2] **Sayid** — Muhammad payg‘ambar avlodlariga mansub kishi.

Odam Ato haj ayladi bosh bilan,
Yuzin yuvdi ko'zdan oqqan yosh bilan,
Qobil urdi ul Hobilni[1] tosh bilan,
Uka akasidan ayrilmadimi?

Avvalo, yer yuzi kufrda bo'ldi,
Nuhning azob suvi jahonga to'ldi,
Musulmon bo'lganni kemaga soldi,
Nuh ham o'z o'g'lidan ayrilmadimi?[2]

Payg'ambar, podsho, xalifa bo'lib,
Qo'liga muhr olib, nasihat qilib,
Bir kuni ko'ngliga manmanlik kelib,
Dovud qirq o'g'lidan ayrilmadimi?

Dovud o'ldi, farzandiga taxt qoldi,
Xudoyim qo'liga bir uzuk soldi[3],
Nurdan bo'lgan bu uzukni dev oldi,
Sulaymon taxtidan ayrilmadimi?

Haqning o'zi bilan so'zlashgan Muso,
Ul vaqtda yo'q edi uningdek raso,
Bibi Maryam o'g'li — Hazrati Iso
Qochib, kofirlardan ayrilmadimi?

Ibrohim payg'ambar dunyoga keldi,
Orzu-armon bilan Hojarni oldi,
Namrud uni katta gulxanga soldi,
Namrud o'z qizidan ayrilmadimi?

---

[1] **Qobil va Hobil** — Odam Atoning farzandlari. Qobil hasad tufayli ukasi Hobilni tosh bilan urib o'ldirgan.

[2] Bu yerda Nuh alayhissalom davridagi buyuk to'fon voqeasiga ishora qilinmoqda.

[3] Sulaymon payg'ambar sehrli uzuk vositasida nafaqat odamlar, balki hayvonlar, qushlar, barcha ins-jinslarga hukmini o'tkaza olgan.

Ya'qub yig'lab, ketdi quvvat ko'zidan[1],
Hech foyda topmadi aytgan so'zidan,
Orzuli yoridan, guldek yuzidan,
Yusuf Zulayxodan ayrilmadimi?

Choryorlar yosh to'kib haq payg'ambardan,
Shayxlar murididan, shohlar navkardan,
To'ti hamrohi, bolari shakardan,
Bulbul gulistondan ayrilmadimi?

Maxtumquli ta'lim olgil ustoddan,
Bu dunyoda har kim kechar bir otdan,
Layli Majnunidan, Shirin Farhoddan,
Vomiq Uzrosidan ayrilmadimi?

ZAMONA OXIR BO'LGANDA

Ko'kdan yerga yog'ilmas rizq
Zamona oxir bo'lganda.
Yerga qadalmas bir urug'
Zamona oxir bo'lganda.

Olimlardan ketar izzat,
Shohlardan adl-u adolat,
Ortadi zulmi har soat
Zamona oxir bo'lganda.

Bug'doy doni ko'kka uchar,
Olimlardan ilm ko'char,
Jahondan barakat o'char
Zamona oxir bo'lganda.

[1] Sevimli jigarbandi Yusufdan ayrilgan Ya'qub alayhissalom yo'l bo'yida bir uy tiklab, o'g'lining yo'liga ko'z tikib, kecha-yu kunduz yig'lay-yig'lay ko'r bo'lib qoladi.

Odamning ko‘ngli g‘ash bo‘lar,
Biri biriga qasd bo‘lar,
Murid piriga ters bo‘lar
Zamona oxir bo‘lganda.

So‘zing boshga balo bo‘lar,
Dunyo haddi qal’a bo‘lar,
Elning og‘zi ola bo‘lar[1]
Zamona oxir bo‘lganda.

O‘g‘il ota o‘rnin ko‘zlar,
Qiz onadan avval so‘zlar,
Ellar vayron, xatar bo‘zlar
Zamona oxir bo‘lganda.

Sultondan adolat ketar,
Darveshdan qanoat ketar,
Qiz-juvondan uyat ketar
Zamona oxir bo‘lganda.

Yot farzand-u ota-ona,
Tuqqan tuqqanga begona,
Xoin peshvo[2] — shu nishona
Zamona oxir bo‘lganda.

Maxtumquli, kamtarin bo‘l,
Har o‘tgan damga shukur qil,
Ixlosin kam etmasin dil
Zamona oxir bo‘lganda.

[1] **Og‘zi ola** — noahil.

[2] **Peshvo** — sarvar, rahbar, yetakchi.

TUMOR KO‘RDIM

Haqiqat daftarini ochdim,
Bir yozilgan tumor ko‘rdim.
Bu yurtdan u yurtga ko‘chdim,
U yurtda e’tibor ko‘rdim.

Bir uyda bor o‘n ikki jon,
Xush kelibsiz, aziz mehmon,
Bir suprada to‘rt issiq non,
Yana yetti anor ko‘rdim.

Mustafoga indi varaq,
Munkir bo‘lgan — dindan yiroq,
Bir uyda o‘n ikki chiroq,
To‘rt mash’al, bir yonar ko‘rdim.

Bu dunyoning bir yog‘inda
Daraxtlar bitmish bog‘inda,
Besh olma bor butog‘inda
Osilmish, barqaror ko‘rdim.

Maxtumquli, ne fikring bor,
Sening uchun o‘tdi davr,
Yetmish ikki suruvni bir
Cho‘pon qo‘lida bor ko‘rdim.

DEVONA KELDI

Bir kecha yotardim, sahar vaqtida
Bahouddin[1] otlig‘ devona keldi.
Buxorodan kelmish hassasin sudrab,
Haq ishqida mast-u mastona keldi.

[1] **Bahouddin** — Bahouddin Naqshband.

Yonida bir necha do‘st-yor turdilar,
Majlis tashkil etib, halqa qurdilar,
Na’ralar chekdilar, samo’[1] urdilar,
Oh-u fig‘onlardan jon jona keldi.

G‘avg‘o qo‘pdi, to‘ldi rahmatga tuzlar,
Sochildi qon yoshlar, ochildi ko‘zlar,
Yig‘ildi darveshlar, indi fayzlar,
Dersan go‘yo oxirzamona keldi.

Laduniy ilmning eshigin ochgan,
Ham telba, ham banggi,
ham qahri toshgan,
Qo‘lida kosasi, boshidan kechgan,
Undan ko‘nglimga bir nishona keldi.

Maxtumquli aytar: Qur’onni suydim,
G‘iybatni tashladim, haromni qo‘ydim,
Sig‘dira olmadim sirimni — yoydim,
Saqlay olmadim hech — zabona keldi.

QUMLI CHIQADI

Haq-taolo, axir, bu nima ahvol,
Sof deb ichgan suvim, qumli chiqadi?!
Bu ne makkor-u shum, past-u ters iqbol,
Halol oshim achchiq ta’mli chiqadi?!

Birov sirini bilmas, o‘zin o‘ldirsa,
Faqir bandalarga Tangri bildirsa,
Elga shodlik ulashsa-yu kuldirsa,
Menga hamroh bo‘lgan g‘amli chiqadi!

[1] **Samo’** — eshitish, tinglash. So‘fiylarning vajd-u holga erishish maqsadida uyushtiradigan zikr majlislari, qo‘shiq va raqs bazmlari.

O‘rtanibman o‘rtanmoqqa, pishmoqqa,
Kishi yo‘q so‘zlashib, dard aytishmoqqa,
Uy so‘rasam kirib biror qishloqqa,
Yo gung, yoki og‘zi mumli chiqadi!

Mendan rozi emas qo‘llab yurganim,
Butun o‘tar g‘alvirdan sir berganim,
Oyog‘iga faqir deb bosh urganim,
Qo‘zg‘olganda devdan damli chiqadi!

Maxtumquli, hisobi yo‘q ko‘rganim,
Tama tutib, umid etib yurganim,
Ovuliga erkak-ku deb borganim,
Etagiga qo‘l ursam, ...li chiqadi!

INSON YARATDI

Bir Ollohga aytay hamd-u sanolar,
Bir siqim tuproqdan inson yaratdi.
Tan qafasin qilmoq uchun munavvar
Jon nuridan sham’i tobon[1] yaratdi.

Ko‘rishga ko‘z berdi, tilga so‘z, hikmat,
Jonni qo‘ydi tanda besh kun omonat,
Azalda har kimga qilsa inoyat,
Ko‘ksi ichra nuri iymon yaratdi.

Eng avval yaratdi Odam Atoni,
Unga juft ayladi Momo havoni,
Firdavsi a’loda[2] edi makoni,
Unga dushman qilib shayton yaratdi.

Haqdan nozil bo‘ldi Musoga Tavrot,
Dovud Zabur o‘qib, qildi munojot,

[1] **Sham’i tobon** — porloq, yorug‘ sham.

[2] **Firdavsi a’lo** — eng yuqori jannat.

Injil vasfin Iso ayladi isbot,
Muhammad sha'niga "Qur'on" yaratdi.

Muhammadni sarvar aylab jahona,
Dedi: "Payg'ambari oxirzamona",
Jabroildan vahiy qilib ravona,
Kofirlarga Shohimardon yaratdi.

Birovni past qildi, birovni baland,
Birni faqir etdi, birni davlatmand,
Birni xor ayladi, birni arjumand[1],
Birni gado, birni sulton yaratdi.

Ovozasi yetib Rum-u Yamanga,
Misr-u Hindiston-u Shom-u Dakanga[2],
Dong'i ketib Xitoy bilan Xo'tanga[3],
Bir amiri sohibqiron yaratdi.

Qarqarasi beklar ichra shohona,
Shijoat bahrida durri yagona,
Eshmuhammad xondan qoldi nishona,
Tangrim uni mardi maydon yaratdi.

Qora yerdan yashil giyoh ko'kartib,
Har daraxtdan turli meva chiqartib,
Kundan-kun bog'larning mevasi ortib,
Gul ochilib, bog'-u bo'ston yaratdi.

Maxtumquli, Haqqa sano aytsang xush,
Chunki rivoj topar undan har bir ish,
Kecha-yu kunduzga berib namoyish,
Oftob bilan mohitobon yaratdi.

---

[1] **Arjumand** — aziz, muhtaram, mashhur.

[2] **Dakan** — Hindistondagi shahar.

[3] **Xo'tan** — Xitoyning shimoli-g'arbiy qismidagi shahar. Taklamakon cho'lidagi vohaning markazi. Qadimgi karvon yo'llarining kesishgan joyi bo'lgan. XV asrgacha Xo'tan orqali Xitoydan Yevropaga ipak olib borilgan.

YOYLARI BORDIR

Anglamaslar — bunga qo'ngan ko'charlar,
Ipi tortilmagan yoylari bordir.
Yoqasiz-u yengsiz ko'ylak bicharlar,
Eshik-derazasiz uylari bordir.

Oxirat uyiga eltib solarlar,
"Haq rahmat etsin!" — deb duo qilarlar,
"Rabbing kim?" — deb Munkar, Nakir kelarlar,
Javobin bermasang, voylari bordir.

Qilmishing ko'p bo'lsa, yer qisadi, bil,
Suyaklarning qaqshab, o'rtanadi dil,
O'ngingdan, chapingdan olov cho'zar til,
Benamozning shunday uylari bordir.

Asfalosofilin[1] unga darkordir[2],
Shayton unga doim yor — madadkordir,
Jahannam[3] degan bir do'zaxi bordir,
G'iybatchining unda joylari bordir.

Umr bo'yi harom-xarish izlaydi,
Agar topsa, yashirishni ko'zlaydi,
O'g'ri gungdir, mol egasi so'zlaydi,
Sijjin, Vayl[4] degan joylari bordir.

Ko'ra olmas qarindoshi, elini,
Kecha olmas unda sirot yo'lini,
Tamshana-tamshana chaynar tilini,
Erta — qiyomatda voylari bordir.

---

[1] **Asfalasofilin** — do'zaxning tubi, eng chuqur yeri.

[2] **Darkor** — kerak, lozim, zarur.

[3] **Jahannam** — yettinchi do'zax.

[4] **Sijjin, Vayl** — do'zaxdagi vodiylar nomi.

Bismillo deb o'qib Qur'onni — Yosin[1],
Ko'nglingdan chiqarma Haqning sanosin,
Maxtumquli, Haq kechirgay gunosin,
Jannat ul-ma'vodek joylari bordir.

FARMON KELAR

Solih[2] bo'lib, doim yaxshi amal qil,
Bir kun senga Haqdan amr — farmon kelar.
Kelib oyog'ingni siqar Azroil,
Og'zing tarafidan aziz jon kelar.

Umring oxir bo'lsa, tandan jon ketar,
Jon omonat, seni tark etmay netar?
O'g'il-qizing yig'lab, oh-u voy etar,
Jasad yotar, quloqqa na un kelar.

Joningni qush qo'ltig'iga solarlar,
Jasadingni tuproq uyga qo'yarlar,
"Rabbing kim?" deb Munkar, Nakir kelarlar,
Savoliga javob ko'p qiyin kelar.

Xiyonat — uzmasang qiyomat qarzni,
Ado aylamasang sunnatni, farzni,
Boshingga tushganda olovli gurzi,
Og'izdan, burundan qora qon kelar.

Tut Haq amrin ustun, ey Maxtumquli,
Jahd ayla kundan-kun, ey Maxtumquli,
Bir lahza olma tin, ey Maxtumquli,
Qabrda ko'p tashvish, begumon, kelar.

---

[1] **Yosin** — Qur'oni karimning 36-surasi. Muhammad alayhissalom: "Qur'onning qalbi "Yosin"dir", — deb marhamat etganlar.

[2] **Solih** — pokdil, pokdomon, taqvodor, to'g'ri va yaxshi ish qiluvchi kishi.

OLDINGDA

Ne kuningga shod bo'larsan, odamzod,
Sonsiz xatar, oh-u zorlar oldingda.
Qanday toqat qilar bir hovuch tuproq,
Yetti do'zax o'ti — norlar[1] oldingda.

Bu dunyoda agar besh kun bo'lsang shod,
Aldanma-yu qiyomatni ayla yod,
Hech kim madad bermas unda qilsang dod,
Tor qabr-u lahad, mozorlar oldingda.

Bilib turib, sira e'tiboring yo'q,
Yomon ish qilishdan o'zga koring[2] yo'q,
G'ofil banda, nomusing yo'q, oring yo'q,
Xavf-u xatar, ranj-ozorlar oldingda.

Agar bitta-bitta so'rsalar hisob,
Yuzi qora bo'lib, berarsan javob,
Istar senga berish uchun zulm, azob,
Yuz ming, sonsiz xaridorlar oldingda.

Eshit bu dam, agar bo'lsang g'ayratli,
Holing bo'lar kundan-kunga dahshatli,
Chaqayin deb o'tiribdi haybatli,
Bug'ro[3] kabi ajdahorlar oldingda.

Olim bo'lib, amri ma'ruf[4] etmasang,
Bilib turib, haq yo'lidan ketmasang,
Oxirat yarog'in hozir tutmasang,
Behuda o'kinchlar, zorlar oldingda.

---

[1] **Nor** — o't, olov.

[2] **Kor** — ish, amal.

[3] **Bug'ro** — ikki o'rkachli tuya.

[4] **Amri ma'ruf** — 1) yaxshilikka da'vat etish; 2) islom dinidagi marosim.

Maxtumquli, nega g'ofil yurarsan,
Bebaho dunyoda toki turarsan,
Qancha savdo boshingda bor, bilarsan,
Sirot uzra intizorlar oldinda.

CHIQAR

Ey azizlar, oxirzamon bo'lganda,
Besh kishi deb, Xarish otli mor chiqar.
Bunda yomon yo'ldan yurgan kishining
Qiyomatda yotgan yeri tor chiqar.

Boldandir, sutdandir oqqan bulog'i,
Mo'minlarning Buroq bo'lar ulog'i,
Yerga tegar Ya'juj-Ma'juj[1] qulog'i,
Shunday turqli hayvon chin, oshkor chiqar.

Dunyo bilan dinlarini buzganlar,
G'iybat so'zlab, yolg'on guvoh tuzganlar,
Nomahramga nazar solib kezganlar,
Bunda ko'zli bo'lsa, unda ko'r chiqar.

Kofirlarga tosh yog'adi sho'ridan,
Ali, Hotam chiqmas jannat to'ridan,
"Voy, ummatim!" — deydi turgan yeridan,
Qiyomatda Rasul degan er chiqar.

Maxtumquli bu yo'llardan chiqmagin,
Dunyo bir rabotdir[2], dining yiqmagin,
Bo'yningga hech ketmas tuhmat taqmagin,
Haqqa to'g'ri kelgan, balki sher chiqar.

---

[1] **Ya'juj-Ma'juj** — Qur'onda zikr etilgan buzg'unchi qavm. Bu ko'p sonli qavmning yer yuziga chiqishi qiyomatning alomatlaridan biri bo'lib, ular yer yuzini fasod va xarobaga to'ldiradi.

[2] **Rabot** — karvonsaroy, musofirxona; majozan: dunyo.

OXIRZAMON BO‘LAR

Ey azizlar, musulmonlar,
Bir kun oxirzamon bo‘lar.
O‘limdan oldin ko‘p hollar
Yerda bunga nishon bo‘lar.

Adolatsiz bo‘lar xonlar,
Behayo qiz-u juvonlar,
Ko‘p to‘kilar nohaq qonlar,
Elning fe’li yomon bo‘lar.

Fasod ish oshar, oz bo‘lmas,
Bu uy u uydan soz bo‘lmas,
Yomg‘irlar yog‘ar, yoz[1] bo‘lmas,
Bir kun bodi xazon bo‘lar.

Hiyla aylar, topar yo‘llar,
Sudxo‘rlikdan yig‘ar mollar,
Din yo‘lini tashlab ellar,
Na machit, na azon bo‘lar.

Namoz qo‘yib, so‘zlar yolg‘on,
Ota-ona osiy bo‘lgan,
Sharob ichib, zino qilgan,
Azobi ming alvon[2] bo‘lar.

Qo‘lini tut Haq do‘stining,
Osiy bo‘lma, saqla dining,
Inshoolloh, Maxtumqulining
Din yo‘ldoshi iymon bo‘lar.

---

[1] **Yoz** — turkman tilida bahorni bildiradi.

[2] **Alvon** — bu yerda: turli, har xil.

XABARDOR BO‘LING

Dunyoga kelganning ketmog‘i bordir,
Xatar ko‘p, mo‘minlar, xabardor bo‘ling.
Bahouddin sotib olgan do‘zaxni,
Lek o‘zga do‘zax bor, xabardor bo‘ling.

Jang-u jadal joyi asli bu jahon,
Kunda ming tug‘ilib, o‘lar ming bir jon,
Avval ro‘za so‘rab, qildi dilni qon,
Undan ham o‘tguncha xabardor bo‘ling.

Bomdod namoz kelib yoqangdan tutar,
Peshin namoz aytar: “Meni unutar”,
Asr namozini qo‘ygan qon yutar,
Bundan ham o‘tguncha xabardor bo‘ling.

Shom namozi mungli yuzinga boqar,
Xuftonni tark etsang, do‘zaxda yoqar,
Vitir namoz o‘tday orqangdan qoqar,
Undan ham o‘tguncha xabardor bo‘ling.

Choryorlar yuzingga aytadi nafsni,
Eshitgan zolimlar bilsin insofni,
Izlab yuring hayo bilan hijobni,
Xudoning amridan xabardor bo‘ling.

Ollohning oldida saf tortar banda,
Agar qilsa mahshargohda[1] sharmanda,
Qiyomat azobi behisob sanda,
Javobin berguncha xabardor bo‘ling.

Maxtumquli aytar: ajoyib ishlar,
Namozxonga nasib bo‘lib bihishtlar,
Benamozlar undan mahrum emishlar,
Bandalar, bihishtdan umidvor bo‘ling.

[1] **Mahshargoh** — mahshar maydoni: qiyomat kuni barcha o‘lganlar to‘planadigan joy.

FE'L BILAN

Ey azizlar, bu bir qiziq zamondir,
Odamlari kezar yomon fe'l bilan.
Davlat ketib, bedavlatlik kelgandir,
Uy uyga dushmandir, ellar el bilan.

Qozilari shariatga boqmaslar,
Darveshlari "Huv!"[1] deb ko'ngil yoqmaslar,
Mullalari Qur'on o'qib uqmaslar,
So'fiylari kezar bahs, janjal bilan[2].

BIR ISHNI TUTISHDI

Teng-u to'shim, mard yigitlar
Har kim bir ishni tutishdi.
Haq har kimga bir yo'l berdi,
Har kishi bir burchga tushdi.

Kimlar kirdi Haq yo'liga,
Yaxshilik tushdi fe'liga,
Kim qilich oldi qo'liga,
Urdi — islomga yo'l ochdi.

Nor, bedovli beklar, xonlar,
Otlansa, to'lar maydonlar,
Zirih kiydi, to'kdi qonlar,
Mardlar o'z boshidan kechdi.

Ulug'-do'st istadik har on,
Qismat etdi bizni hayron,
Kimlar ketdi Eron, Turon,

---

[1] **Hu** — Olloh taoloning ismlaridan biri bo'lib, uchinchi shaxs birlikdagi u ma'nosini bildiradi. So'fiylar ko'proq Hu deb zikr qiladilar.

[2] Qo'lyozmalarda she'rning davomi topilmadi.

Kim Isfahon, Tabriz oshdi.
Haqqa ayon bo'ldi holim,
Xalqda bilgan bo'lmas ma'lum,
Maxtumquli, mening yo'lim
Ul do'stlardan ayro tushdi.

QIZDIR BU DUNYO

Nasihatim budir, bayon aylasam,
Ishvali, pokiza qizdir bu dunyo.
Agar shikoyatim ayon aylasam,
Olamga oshkora so'zdir bu dunyo.

Dajjol bosh ko'tarib, chiqar shikorga[1],
Namozxonlar tez yetishar diydorga,
Benamoz yuziga surtilar qora,
O'ttizda, qirq beshda oldi bu dunyo.

Nechalar qon yig'lab o'tar zulmatdan,
Farishta Muvakkil[2] haydar Sirotdan,
Biror foyda bo'lmas pir-u ustoddan,
Rost-u yolg'oningni bildi bu dunyo.

Xudoning erkasi hazrati Muso,
O't yutdi, suv ichdi, qo'lida aso,
Bibi Maryam o'g'li hazrati Iso,
Uni qirq yil podsho qildi bu dunyo.

Bu dunyoda besh kun sog'-u bor bo'lsang,
Orzuying ushalmay, fe'li tor bo'lsang,
Yo'qchilikdan qashshoq bo'lib, zor bo'lsang,
Mardni nomardga zor qildi bu dunyo.

Bir nechalar jafo bilan kulfatda,
Bir nechalar qayg'u bilan hasratda,

[1] **Shikor** — ov.

[2] **Muvakkil** — vakolat beruvchi, bir ishga tayin qiluvchi.

Namozxonga qirq farishta xizmatda,
Ishratga sazovor etdi bu dunyo.

Sirot uzra qanotlaring qayrilar,
Ba'zilar o'tolmay, bo'yni ayrilar,
Bunda rost yurganlar jannatga kirar,
Ko'ngillardan g'amni oldi bu dunyo.

Bir nechalar yig'lar — yurak-bag'ri qon,
O'tolmay sarg'ayib turarlar hayron,
Bunda qilgan barcha ishlaring pinhon,
Pinhoningni oshkor qildi bu dunyo.

Maxtumquli so'zi bo'lmamydi ado,
Ajaldan qutulmas shohmu u, gado,
Oltmish uchda o'tdi Rasuli Xudo,
U zotni o'g'ilsiz qildi bu dunyo.

OMON, HEY!

Hadisdan, roviydan bir so'z deyayin,
Qiyomatdan — zulmat kundan omon, hey!
Haq bandalariga oshkor etayin,
Qiyomatdan — zulmat kundan omon, hey!

O'ttiz ming yilda bir maxluq kelarmish,
Oti Dajjol, o'zi kofir bo'larmish,
O'ngi-yu so'lidan to'rt tog' yurarmish,
Qiyomatdan — zulmat kundan omon, hey!

"Men — Tangriman!" — deya etarmish da'vo,
Mahdiy uning bilan qilar jang, g'avg'o,
To'rt tomon qocharmish qardoshi ammo,
Qiyomatdan — zulmat kundan omon, hey!

Qo‘ng‘iroq osar otining bo‘yniga,
Mo‘minlar aldanmas uning o‘yniga,
Kofirlar haq bilib, kirar diniga,
Qiyomatdan — zulmat kundan omon, hey!

Dajjol qamal qilar Ka’bani, ishon,
Chaqmoqlar chaqilar, boshlanar to‘fon,
Haq qushlari[1] bermas kofirga omon,
Qiyomatdan — zulmat kundan omon, hey!

Iso ko‘kdan inar xuddi shu damda,
Adolat o‘rnatar butun olamda,
Dajjolni o‘ldirar ming bir sitamda,
Qiyomatdan — zulmat kundan omon, hey!

Eshak Dajjol hangrar uch marta qattiq,
Quvib yetolmaydi Mahdiyning oti,
Shunda ko‘tarilar Qur’onning xati,
Qiyomatdan — zulmat kundan omon, hey!

Ya’juj qirq yilda bu unni eshitar,
Qof tog‘ini teshib, bir yerdan kelar,
Dunyoda qoldirmay hech narsa yutar,
Qiyomatdan — zulmat kundan omon, hey!

Maxtumquli aytar so‘zning porasin[2],
Haqdan o‘zga hech kim bilmas chorasin,
Ya’juj so‘ngra ko‘rar mahshar g‘avg‘osin,
Qiyomatdan — zulmat kundan omon, hey!

---

[1] Haq qushlari deganda tayron abobillar ko‘zda tutilmoqda.

[2] **Pora** — bu yerda: bir qism.

XATIN NA BILSIN

Turkiyni bilmagan necha mullalar,
Arab tilin, devon xatin na bilsin!
Alifdan sharmanda quruq sallalar
Har so‘z-u har harf holatin na bilsin!

Eksak hosil bermas hech quruq sambit,
Ablah-u nodon kim olmasa o‘git,
Asli qo‘rqon bo‘lgan benomus yigit
Yaxshi yor qadr-u qimmatin na bilsin!

Boraverar har kim solsa to‘shaklar,
Bog‘da turmas izzat ko‘rsa eshaklar,
Ovul ichra sanqib yurgan mushuklar
Qo‘ni-qo‘shni, yaqin-yotni na bilsin!

Firog‘iy, gar yigit tug‘ma la’nati
Ish bitirmaydi-yu, bo‘lar minnati,
Harfni buzar, ketar so‘zning lazzati,
Zer-u zabar, tashdid, maddni[1] na bilsin!

GO‘ZAL YORIM KO‘RINMAS

To‘xta, Jabroildan xabar so‘rayin,
Nima uchun go‘zal yorim ko‘rinmas?
Har kun eshigiga yig‘lab borayin,
O‘z ahdida ustuvorim ko‘rinmas.

Beqaror bo‘libdi charx tegirmoni,
Haqdan uyalarmish qilib jafoni,

[1] Arab tilida harflarning osti va ustiga qo‘yiladigan diakritik belgilar: zer — harf ostiga qo‘yilib, “i” unlisini, zabar — harf ustiga qo‘yilib, “a” unlisini, tashdid — undosh ustiga qo‘yilib, qo‘sh talaffuz qilinishini, madd — “o” ustiga qo‘yilib, cho‘zib talaffuz qilishni bildiradi.

Yoshlar qarib, chollar yoshargan oni
Chirog‘im o‘chibdi, nurim ko‘rinmas.

Xasislar saxiy-u gado shoh bo‘lib,
Mardlar nomard bo‘lib, pir dindan qolib,
Azon unutilib, masjid yopilib,
Haqdan o‘zga madadkorim ko‘rinmas.

Maxtumquli aytar: bu ne hikoyat,
Hamma aqllidir — olmas nasihat,
Osmondan yog‘ilib zaminga ofat,
Iso, Mahdiy, Molik Ajdar ko‘rinmas.

NOSKASH

Avvalo, Haq amridan ovora bo‘lgan noskash,
Manglayi qora, dili yuzpora bo‘lgan noskash,
Fe’li shayton vofiqi — asrora bo‘lgan noskash,
Chun azalda Vohid ul-Qahhora[1] bo‘lgan noskash,
Nafs uchun jondan kechib, bemora bo‘lgan noskash.

Noskash ikki jahonda bo‘lmas aslo shodmon,
Burnidan zardob ila sassiq suv oqqay har zamon,
Ranj-azob tortar, bilinglar, bang, chilimdan nos yomon,
Nos chekish yomon zino, yolg‘on-u g‘iybatdan har on,
Yuz dalil, makr ila riyokora bo‘lgan noskash.

Ko‘p hadis aytdi Muhammad: nos haromdir, nos harom,
Kim haromni istasa, nosni yaqin tutsin mudom,
Chiqibon bu xonadan u xonani etsa maqom,
To‘g‘ri yurmas bo‘lsa ixlos aylabon gar subhu shom,
Xonayi islom-u din kuffora[2] bo‘lgan noskash.

---

[1] **Vohidul-Qahhor** — barchani bo‘ysundiruvchi, yagona zot, ya’ni Xudo.
[2] **Kuffor** — kofirlar.

Oxiratda eltadi noskashni bir yerga Xudo,
Aylagay ul yerda yuz dard-u baloga mubtalo,
Bandasidan qilgusi bir-bir savolini Xudo,
Termilib turmoqdan o'zga chora topmas bedavo,
Yuzlari xuddi qozondek qora bo'lgan noskash.

Burnini tilgay farishta misli eshshak burnidek,
Aytar: "Ey farzandi odam, endi bu hasratni chek,
Bormi senda oxiratga ko'tarib bormoqqa yuk,
Ko'zlaring tortib xira, bo'lgay mudom boshing egik", —
Degach ul dam, oh urib, afgora[1] bo'lgan noskash.

Nos halol deb, shundayin noskash xayolni xom etar,
Qancha pulni sarf etib u ko'ngliga orom etar,
Burnidan oqqan najosatni o'ziga kom etar,
Bu jahonda o'zi bilmay o'zini badnom etar,
O'zni bilganlar kabi raftora bo'lgan noskash.

Har puli bir ajdaho bo'lgay qiyomatning kuni,
Aytishar: "Kayf yo'liga sen nega sarf etding uni?"
Hech ilojin topmayin og'ziga tutgay qo'lini,
Qichqirib, faryod etar yov zahrini solsa, chini,
Eski do'zaxga, netay, nazzora bo'lgan noskash.

Ajdahoning zahridan noskash dilida g'am bo'lur,
Kayfga o'rgangan kishining diydasida nam bo'lur,
O'tdan o't ichra uning ustida ko'ylak ham bo'lur,
Har alomatda halokatning nishoni jam bo'lar,
Topmayin aslo iloj, bechora bo'lgan noskash.

Mujtahid[2] so'zi, rasullarning hadisi: noskash,
Har qachon boshiga kelsa misli nayza ul quyosh,
Tashnalikdan itdek og'zin ocha bo'lmish otash,

---

[1] **Afgor (Figor)** — 1) yaralangan, majruh; 2) ezilgan o'rtangan; 3) g'amgin, qayg'uli.

[2] **Mujtahid** — 1) jiddu jahd qiluvchi, say'-harakat ko'rsatuvchi; 2) din olimi.

Nos bilan har damda nafsi undan olgay aql-u hush,
Aytadir Maxtumquli: "Xunxora[1] bo'lgan noskash!"

JON ICHINDA

Fikr qildim yer-ko'kni
Beaql jon ichinda.
Ko'rdim — jon ham Olloh der
Et, tomir, qon ichinda.

Yurar yo'ling bilmasang,
To'g'ri yo'lga kelmasang,
Haqni yodga solmasang,
Qolding armon ichinda.

Yerdan ungan har ko'klam,
Qizil gul ham, ko'k o't ham,
Barchasi, g'ofil odam,
Ulug' farmon ichinda.

Nafsing aytar: "Jo'sh bo'lsam,
Go'zallarga duch bo'lsam,
Yesam-ichsam, xush bo'lsam,
Yotsam alvon ichinda".

Ko'ngil, sen bir bozorsan,
Har ishga qiziqarsan,
Erishay deb kezarsan
Gunoh, isyon ichinda.

Yoyilar qanot-parlar,
Ochiladi daftarlar,
Gala-gala kaptarlar
"Huv!" — der xirmon ichinda.

[1] **Xunxor** — qon to'kuvchi.

Bulbul aytar: "G'amim bor,
Intilganim gulbahor,
Men gullarga intizor,
Bog'-u bo'ston ichinda".

Oshiq aytar: "Illalloh!"[1]
Qaldirg'och: "Alhamdulilloh!"
Laylak der: "Qul huvalloh!"[2]
Hannon[3], Mannon[4] ichinda.

Yorqanot der: "Yo Olloh,
Solding meni bu yo'lga,
Berma oy-u kun, yelga,
Saqla pinhon ichinda".

Anqo[5] aytar: "Yo'lchiman",
Hudhud[6] aytar: "Elchiman,
Sulaymonga sovchiman
Yolg'on jahon ichinda".

Bezgaldak[7] qolib hayron,
Hayron boqadi har yon,
Ari chiqib bearmon
Kezar davron ichinda.

Turna aytar: "Ucharman,
Bag'dod suvin icharman,

---

[1] **Illalloh** — Ollohdan boshqa (iloh yo'q).

[2] **Qulhu va lloh** — Olloh birdir.

[3] **Hannon** — eng marhamatli, eng shafoatli: Xudoning sifati.

[4] **Mannon** — ne'mat beruvchi, baxsh etuvchi, yaxshilik qiluvchi: Xudoning sifati.

[5] **Anqo** — Qof tog'ida yashaydigan afsonaviy qushning nomi; majozan: topilmas, nodir, yagona.

[6] **Hudhud** — sassiqpopishak.

[7] **Bazgaldak** — tuvaloqlar turkumiga mansub cho'l qushi.

Qishda Hindga ko‘charman,
Lola-rayhon ichinda”

Boyqush aytar: “Dardim bor,
Tasbehim bor, virdim[1] bor,
Vayronada yurtim bor,
Zor-u giryon ichinda”.

Haqqush aytar: “Faqirman,
Bandalikda haqirman,
Haq yodini o‘qirman
Shom shabiston[2] ichinda”.

Musicha der: “Ketarman,
Keldim, bildim — o‘tarman,
Uch cho‘pdan in etarman
Tug‘ib vayron ichinda”.

Lochin aytar: “Xushimdan,
Mast bo‘ldim o‘z jo‘shimdan,
Qoldim Tangri ishimdan
Bandi zindon ichinda”.

Bulduruq[3] hamd-sanoda,
O‘rdak tili duoda,
G‘oz g‘ag‘illab havoda,
Ko‘zi ummon ichinda.

Qumrilar ovoz bilan,
Tovus ishi noz bilan,
Qaqnus[4] qushi soz bilan
Ul Hindiston ichinda.

---

[1] **Vird** — o‘qib yuriladigan, ko‘p takrorlanadigan oyat va duolar.

[2] **Shabiston** — 1) tun; 2) tungi yotoqxona.

[3] **Bulduruq** — cho‘l qushi, qorabovur.

[4] **Qaqnus** — afsonaviy xushovoz qush: bir umr xas-xashak yig‘ib, keyin uning ustiga chiqib, shunaqangi o‘tli navo chekarkanki, nafasidan to‘plagan xirmoni alanga olib, o‘zi ham yonib ketarkan — uning kulidan yangi qaqnusbachcha paydo bo‘lar ekan.

To‘tiqushlar rozlashib,
Haq amrini ko‘zlashib,
Odam bilan so‘zlashib,
Kezar inson ichinda.

To‘rg‘ay bor ming uyam der,
Ajoyib xush ayyom der,
Do‘zax oti harom der,
Oxirzamon ichinda.

Bilmas falak avjin gar,
Yeldir, ko‘k burjin[1] tutar,
Naq bir to‘da kabutar
“Huv!” — der xirmon ichinda.

Kiyik aytar: “Yig‘larman,
Haqqa ixlos bog‘larman,
Bolam deb dil dog‘larman,
Yuragim qon ichinda”.

Bo‘ri aytar: “Uzarman,
Qaydan qilsam guzar[2] man,
Rizqim izlab kezarman
Cho‘l-biyobon ichinda”.

Ot aytar: “Aslim zo‘rdir,
Shuncha qimmatim bordir,
Ustimga mingan erdir,
Tog‘larda tosh ichinda”.

Yobi der: “Yomonman-da,
Ustimga mingan banda,
Azobim ko‘pdir kunda,
O‘zim xizmat ichinda”

[1] **Burj** — quyoshning yillik harakat doirasidagi o‘n ikki nuqtaning har biri.
[2] **Guzar** — o‘tish, kechish.

Eshak der: "Aslim uzoq,
Xizmat qilib bag'rim dog',
Somon topsam shod, quvnoq,
Mudom ayoz ichinda".

Sigir aytar: "Bosh edim,
Ammo iloj topmadim,
Dumimni tovlab qochdim
Pashsha-chivin ichinda".

Tuya aytar: "O'tlarman,
O'tlar yerni yodlarman,
Tug'ib ko'ngil shodlarman
Saksovullar ichinda".

Yetti yer bo'lmish bino,
Har narsa o'qirsano,
O'tlar ham der: "Rabbano!"[1]
Navro'z — yomg'ir ichinda.

Ko'ngil aytar gadoga,
Sahar tursam sadoga,
Nola qilsam Xudoga,
Bo'lsam iymon ichinda.

Qiyomatda qo'lingdan —
Tutib so'rar holingdan,
Qaytgil yomon fe'lingdan,
Ko'rding Qur'on ichinda.

Umidli bo'l Yusufdek,
Sabrli bo'l Ayyubdek,
Gar yo'liqsang Ya'qubdek —
Dardga Kan'on ichinda.

[1] **Rabbano** — ey bizning Tangri.

Nafsim aytar: "Xush ayla,
Qatra mayga jo'sh ayla,
Karamingni duch ayla
Ul ulug' Kun[1] ichinda.

Maxtumquli, o'zingga —
Boqib, yosh ol ko'zingga,
Ayb taqmang so'zimga
Do'st-u yoron ichinda.

BO'LMAS

Ollohni yod etib, Haqni ko'zlasang,
Agar savdolashsang, mazmuni bo'lmas.
Da'vo qilib, yana yolg'on so'zlasang,
Shubhasiz yonarsan, tutuni bo'lmas.

Besh vaqt namoz o'qib, bo'laver mufti,
Bo'lishni istasang Rasul ummati,
Zo'r bilan yuborsang qo'yga bir itni,
Bo'ri kelsa, qo'yning ustuni bo'lmas.

Bu so'zni aytmasam, tillarim qichir,
Mehr ko'rsatmasang, do'st ko'ngli ranjir,
Bag'dodda nor pishsa, Turshizda[2] anjir,
Hirot pistasidan afzuni[3] bo'lmas.

Bu so'zni aytmoqlik bizlarga nomus,
Hayronlar qoldim bir mo'jiza bois,
Bag'dodda qish bo'lmas, Qirg'izda-chi yoz,
Bulg'or[4] mamlakatin hech tuni bo'lmas.

---

[1] **Ulug' Kun** — qiyomat ma'nosida.

[2] **Turshiz** — Xurosondagi qadimiy shahar.

[3] **Afzun** — afzal, yaxshi, ortiq.

[4] **Bulg'or** — Bolgariya.

Maxtumquli, kel, qo‘y bu baland yo‘lni,
Ishonishmas — qilma ko‘p arzi holni,
Olsang tishi tushgan qari ayolni,
Birga bo‘lgan bilan yolqini bo‘lmas.

CHILIM CHEKMAGIL

Joningga qasd etma, kashanda, o‘zing,
Joningga balodir, chilim chekmagil!
Pandim shu: ro‘za tut, o‘qi namozing,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Ilonlar o‘ralar, cheksang, bo‘yningga,
Vishillab kiradi ular qo‘yningga,
Tinmay zaharini solar taningga,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Badaning seskanib, undan qocharsan,
Tashnalikdan zahar-zaqqum icharsan,
“Ichim yondi!” — deya og‘zing ocharsan,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Ilon aytar: “Bu kun qocharsan mendan,
Ayrilmayman, Haqning amri bu, sendan!”
O‘sha vaqtda bezor bo‘larsan undan,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Bevafo dunyoda istama vafo,
O‘t yemoq bo‘larmish bezavq-u safo,
“Chekuvchi ummatimmas!” — der Mustafo,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Bu dunyo foniydir, to‘xtamas, kechar,
Kimning aqli bo‘lsa, bil, undan qochar,
Shaytonga yo‘l berma, iymoning o‘char,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Omonat joningga berma ko'p zahmat,
O'ylab ko'r — undan hech bormi manfaat?
Ne javob qilasan kelsa qiyomat?
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Iblisga yo'l berib, o't yutma zinhor,
Gul deb, o'zni etma tikanga duchor,
Irodangni ko'rsat, saqla nomus-or,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Tark ayla chilimni, yuz o'gir Haqqa,
Tavba deb, har nafas tutib yur yoqa,
Derlar kashandaga suv bermas saqqo[1],
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Ichganing zahar-u yeb-yutganing o't,
Bilmaysan — shaytonlar bu kasbingdan shod,
Bugun shodsan, erta ishing oh-faryod,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Bir marta yanglishib qolibdi Ali,
Sayr uchun sahroga chiqqan mahali,
Bir masjidni ko'rib zarli-safoli,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Hayratda qolibdi masjidni ko'rib,
Tomosha qilibdi piyoda kirib,
Ustuni qoraymish olov kuydirib,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

O'shal zahot qaytib kelmish Rasulga,
Ko'rganin so'ylamish sohib usulga:
"Ustuni qoraymish — ne sabab bulga?"
Joningga balodir, chilim chekmagil!

[1] **Saqqo** — suv tashuvchi, meshkobchi, suv ulashadigan.

Rasul aytdi: "Ali, eshitdim so'zing,
Sifatin, suratin ko'ribdir ko'zing,
Chekish koni ziyon, eshitgil o'zing,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Ko'ribsan masjidda har turli inson,
Bugun senga kayfni beribdi shayton,
Ustun qoraygani shundan begumon,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Insonning ustuni anglagil, iymon,
Asra uni shayton makridan omon,
G'ofil bo'lsang, seni yoqar begumon,
Joningga balodir, chilim chekmagil!"

Shu zahoti Haydar[1] chiqdi maydonga,
Qahr bilan qasd etdi ma'lun shaytonga,
Shundan buyon shayton yurar pinhona,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Undan oldin shayton oshkor kezarmish,
Odamlarni aldab, dinin buzarmish,
"Bismilloh!"[2] —
degandan umid uzarmish,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

Maxtumquli, elga nasihat so'yla,
O'z ahvoling qanday — bir fikr ayla,
Tayyorlashni safar yukini o'yla,
Joningga balodir, chilim chekmagil!

[1] **Haydar** — sher: Hazrat Alining laqabi.
[2] **Bismilloh** — Olloh nomi bilan.

CHILIM

Do‘stlarim, dushman biling, olamda to bordir chilim,
O‘ylamang do‘st deb sira, bir g‘orati jondir chilim,
Ta’rifini aylasam, bir zahri ko‘p mordir chilim,
Domiga tortar o‘zining, misli zang‘ardir chilim,
Qayda bo‘lsa do‘zaxiylar, bazmida bordir chilim.

Tushgach ul majlis aro, har kim chekar, bemor etar,
Makr ila aldab seni, har dam o‘ziga zor etar,
Sog‘-salomat qo‘ymayin endi o‘ziga or etar,
Qo‘l-oyog‘in shol qilib, xalq ichra uni xor etar,
Shu sifatlar unda bor, chekmangki, badkordir[1] chilim.

Qah-qah aylab har zamon u ko‘rsatar bad[2] xo‘yini[3],
Burninggizga isqatib, olmang uning bad bo‘yini,
Ey musulmonlar, halol deb qilmangiz hech o‘yini,
Oxiratni o‘ylasangiz, qo‘yingiz bu o‘yinni,
Oxirat fikr-u o‘yi yo‘qlarga darkordir[4] chilim.

Har kishi xushhol bo‘libdir chimu lom, mim otiga[5],
Nega fikr etmas o‘shalkim, bu palidning zotiga,
Mindirar go‘yo uni har damda shayton otiga,
Sehr etib, har dom uni tortar o‘zining qatiga,
Chunki badkorlar ko‘ziga doimo bordir chilim.

Qur-qur aylab har sahar u og‘zidan o‘tlar sochar,
Har kishining aqli bo‘lsa, bu yomon hiddan qochar,
Kim uni qo‘lga olar ham ko‘ksini unga ochar,
E’tiqod etsa halol deb, dini islomdan chiqar,
Dini islomdan kecharga bir sababkordir chilim.

---

[1] **Badkor** — yomon niyatli, axloqsiz, buzuq, yaramas.

[2] **Bad** — yomon, yovuz.

[3] **Xo‘y** — tabiat, qiliq, xarakter.

[4] **Darkor** — kerak, lozim, zarur.

[5] Bu arab harflarining qo‘shilishidan “chilim” so‘zi hosil bo‘ladi.

Shuncha dushmanki, qiyomatda siringni fosh etar,
Vaqti yetmay so'ldirib, bu jismingizni losh etar,
Qayg'u-hasrat bo'lmasa ham ko'zingizni yosh etar,
Yutdirib har dam tutunlar, o'pkangizni tosh etar,
G'ofil ahli anglamaslar shuncha badkordir chilim.

Ey azizlar, bizga uni aylamish ta'qiq Ahad[1],
Fikr etib, zikr ayladi kim, xalq aro abdussamad[2],
Tabdil etmakka man etgan ishini bizga ne had,
Kimki munkir bo'lsa, uning oldida bordir lahad,
Aytadir Maxtumquli bu bandaga nordir chilim.

QOLAR, AZIZLAR

Kel, ko'nglim, azm ayla boqiy dunyoga,
Kim foniy dunyoda qolar, azizlar?
Bu dunyo, u dunyo — mulki Mavloga[3],
Faqat kofir munkir bo'lar, azizlar!

Kim o'lmasdan qolar ajali yetgach,
Erkingga qo'ymaydi yoqangdan tutgach,
Iso bilan Mahdiy kelgach-u o'tgach,
Isrofil bir na'ra qilar, azizlar!

Haqning qudratini ko'rsin ko'zlarning,
Cho'ldan farqi qolmas tog'-u tuzlarning,
Ucharning, yurarning, tili so'zlarning
Azroil jonini olar, azizlar!

Azroil qahr bilan kelar shaytonga,
Shayton ojiz bo'lib, qochar har yonga,
Qutulmaydi qochib biror tomonga,
Sarandibga[4] borib o'lar, azizlar!

---

[1] **Ahad** — yakka, yagona: Xudoning sifatlaridan biri.

[2] **Abdussamad** — doimiy, barhayot zotning, ya'ni Xudoning quli.

[3] **Mavlo** — xoja, sohib, homiy, rahbar; majozan: Parvardigor, Olloh taolo.

[4] **Sarandib** — Tseylon.

Qiyomatda bo‘lar bu kun hisobi,
Ko‘kni past, yerni gard aylar itobi,
Daryolarga yetsa qahrli xitobi,
Daryolar qo‘rquvdan qurir, azizlar!

Yiqilar, yo‘q bo‘lar tog‘lar, saroylar,
Yulduzlar to‘kilar, to‘lar bu joylar,
Quyosh nuri tugar, tutilar oylar,
Tog‘lar qo‘rg‘oshinday erir, azizlar!

Odamning nafsidek yomg‘iri yog‘ar,
O‘tdek unib barcha insonlar chiqar,
Azroil jonlarni omonat berar
To‘rt malak tirilib kelar, azizlar!

Isrofil sur chalak chinqirib har yon,
Yo‘q bo‘lgan jasadlar, ayrilishgan jon,
Kesilgan tomirlar, quruq ustuxon,
Aksirib-aksirib turar, azizlar!

Bir yondan so‘roq bor, bir yondan javob,
Bir yondan otash bor, bir yondan azob,
Bir yondan mezon bor, bir yondan hisob,
Amaling birma-bir so‘rar, azizlar!

Dinga guvoh derlar farzi, sunnati,
Yetmish firqa emish, ko‘ring, millati,
O‘n ikki guruhdir Rasul ummati,
Har biri bir jinsda turar, azizlar!

Qo‘lsiz bo‘lar qo‘shnim yomon deganlar,
To‘ng‘izga aylanar namoz qo‘yganlar,
Zakotsiz qorniga ilon, chayonlar –
To‘libon tog‘ kabi bo‘lar, azizlar!

Erta oshkor bugun yashirin sirlar,
Yolg‘ondan guvohlik bergan olg‘irlar,

Ensasidan bo‘g‘zigacha kesarlar,
O‘tli gurzi bilan urar, azizlar!

Zolimlar ko‘r bo‘lar — berilmaydi ko‘z,
Ko‘rib aytmaganlar qoladi tilsiz,
Zinokorning boshi qornida, qo‘lsiz,
Oyog‘i boshida bo‘lar, azizlar!

Mahshar xalqi bad bo‘ynidan jirkanar,
Gunohlari yerdan ko‘kka sirg‘anar,
Sudxo‘r ichaklari yerda sudralar,
Qorni tog‘dek o‘tdan to‘lar, azizlar!

Bu dunyoda “manim-manim” deganlar,
Zulm qo‘lin xalq ustiga qo‘yganlar,
Bir o‘t bo‘lur yetim molin yeganlar
Yuz qori, sharmanda bo‘lar, azizlar!

Ichuvchining ko‘zi bo‘lmas o‘rnida,
Tishi sigir shoxi kabi burnida,
Labi ko‘kragida, tili qornida,
Yegani og‘zidan chiqar, azizlar!

Ota-onani ranjitgan kunlari,
Ich-u tashi o‘tdan bo‘lar to‘nlari,
Xalqqa rasvo, ola bo‘lar tanlari,
Suv o‘rniga zahar berar, azizlar!

O‘n ikkinchi guruh, ko‘ringlar, netar:
Masjid tuya bo‘lar, mingashib ketar,
Imom bosh, muazzin qo‘lidan tutar,
Yuzlari oy kabi porlar, azizlar!

Ular yashin kabi yarq etib kechar,
Chopqir otdek qanot bog‘lab yo uchar,
Yetmish qat to‘n kiygan hur qizni quchar,
Hasrat ketib, ishrat kelar, azizlar!

Kalomda ko‘rganin so‘zlar tilimiz,
Axir, ajal ustidadir yo‘limiz,
Maxtumquli aytar: bizning holimiz,
Yo Rab, ul kun nechuk bo‘lar, azizlar!

JILO AYLADI[1]

Ta’rifin keltiray Xo‘tan[2] shohining,
Yuzini olamga jilo ayladi.
Haydashga jahd etib barcha malaklar,
Birdan tasbeh aytib, sado ayladi.

Xudoning amrini shayton tutmadi,
Tuproq deb, odamni qabul etmadi,
Barcha bo‘yin egdi, shayton egmadi,
Sajda qilmoqlikdan ibo ayladi.

Xazina o‘rniga to‘ldirib toat,
Umri bo‘yi bilmay nima farog‘at,
Oqibat tushdi unga tavqi la’nat,
Xudo zahmatlarin riyo ayladi...

Azizlar, aytayin yangi hikoyat,
Kitoblarda ko‘rdim shunday rivoyat,
O‘zi eshon edi — ishi hidoyat,
Zamonida bir ish “bino” ayladi.

Qirq ming muridi ham bor edi komil
O‘zi ular ichra piri mukammil[3],
Oxirida bir ish qildi u johil,
Xudo uning yuzin qaro ayladi.

---

[1] Bu she’r Ovshar Qosimga ham nisbat beriladi.

[2] **Xo‘tan** — Xitoyning shimoli-g‘arbiy qismidagi shahar. Taklamakon cho‘lidagi vohaning markazi. Qadimgi karvon yo‘llarining kesishgan joyi bo‘lgan. XV asrgacha Xo‘tan orqali Xitoydan Yevropaga ipak olib borilgan.

[3] **Mukammil** — komil, yetuk.

O‘zi bo‘lib edi vosili dargoh[1],
Nomi edi uning Shayxi Barsiso[2],
Oxirida bir ish qildi u gumroh,
O‘zi o‘zin yuzi qaro ayladi.

Madina shahriga shuhrati ketib,
Ovozasi butun olamni tutib,
Navbat Hasan degan yigitga yetib,
Dushmanni qo‘ymayin rizo ayladi.

Hasanda bokira singil bor edi,
Husni to‘lin oyday, betakror edi,
Kimga qoldiray deb beqaror edi,
Shayx ishonchini dilga jo ayladi.

Tutib singlisining qo‘lidan ketdi,
Yugurib u shayxning yoniga yetdi,
Singlisi holini shayxga arz etdi,
Shayx o‘zini unga panoh ayladi.

Shayx u nozaninning jamolin ko‘rib,
Shayx unga oshiqi nigoron[3] bo‘lib,
Oshiqlik sharobi uni mast qilib,
Shayx Tangridan qo‘rqib, ibo ayladi.

Bir kuni u shayxga yo‘liqdi shayton,
O‘zini ko‘rsatib zabardast eshon,
Shaytonga ishonda u shayxi nodon,
Shaytonga ixlosin bajo ayladi.

Shayx dedi: “G‘am bilan oqar ko‘z yoshim,
Shuning uchun doim yig‘lashdir ishim,
Bir gunoh qilibman, chidamas boshim”,
Shayx oxir shaytonni rizo ayladi.

---

[1] **Vosili dargoh** — Haq rizosiga erishib, ilohiy dargohga muyassar bo‘lgan.

[2] **Shayxi Barsiso** — shayton vasasiga uchib, kofir bo‘lgan mashhur avliyo.

[3] **Nigoron** — intizor, mushtoq.

Dedi: "Ishq dardining davosi uchun,
Xudo tutmas uning gunosi uchun,
Haqqa ibodat qil rizosi uchun",
Mal'un shayton so'zin ado ayladi.

Barsiso shaytonning so'ziga kirib,
Ham sharob ichib, ham zinoga yurib,
Mast bo'lib, u qizning yoniga borib,
Nolishiga boqmay zino ayladi.

Ul qizning bo'ynida homila qoldi,
Shayx qizni o'ldirib, tashnavga soldi,
Singlisini istab, og'asi keldi,
Shayx aytdi: "Jigaring qazo ayladi".

Hasan ketdi yiqila-tura giryon,
Daf'atan yo'lida uchradi shayton;
"Singlingni o'ldirdi u shayxi nodon", —
Deb Hasan ko'nglini vayron ayladi.

Hasan qaytib shayxning uyiga yurdi,
Tashnovda singlisin o'ligin ko'rdi,
Shayxni olib, shohning oldiga bordi,
Hasan arzin shohga bayon ayladi.

Shoh buyurdi: "Shayxni osinglar dorga!"
Shayx suvsab, tilini qildi ming pora,
Suv uchun imonin ul yuzi qora,
Shayton uni suvga yakson ayladi.

Maxtumquli, besh kun sog' bo'lsin joning,
O'lguncha tilingdan qo'yma ehsoning,
Qanchasini ko'rdim foniy dunyoning,
Bu qurumsoq kimga vafo ayladi?!

JO‘SHGAN KUNLAR, HEY!

Bilmadim, yiqildim, turdim o‘rnimdan,
Boshda fikr qaynab-jo‘shgan kunlar, hey!
Har tomondan urib o‘ylarim tug‘yon,
To‘lqini boshimdan oshgan kunlar, hey!

Qulluq aylab, doim xizmatda turdi,
Malaklar sayrinda unga joy berdi,
Odamga bosh egmay takabbur urdi,
Azozilga[1] tavqi tushgan kunlar, hey!

Payg‘ambar ummati sodiq Qur’onga,
Muhammad nur sochdi jumla jahonga,
Minib Buroq otin, chiqdi osmonga,
Rafraf minib, me’roj oshgan kunlar, hey.

G‘aribman, oshiqman, qayg‘uga hamdam,
O‘tganni yod etib, yig‘larman har dam,
Jannat orzusida otamiz Odam,
Havvo der:
“Shayton uchrashgan kunlar, hey!”

Yetti kunda Haqdan ulush oldilar,
Ibrohim payg‘ambar bo‘lib keldilar,
To‘pga bog‘lab turib, o‘tga soldilar,
Ibrohim der: “O‘tga tushgan kunlar, hey!”

Nohaq jafosi ko‘p ko‘hna jahonning,
Haq ishqiga sarf et bor qancha joning,
Uhud urushida[2] ul Mustafoning,
Ikki tishi shahid bo‘lgan kunlar, hey!

---

[1] **Azozil** — shayton.

[2] **Uhud urushi** — Madinadan taxminan 4 km. shimoldagi Uhud tog‘i etagida 624-yili mushriklarga qarshi bo‘lib o‘tgan jang. Bu jangda Muhammad alayhissalom yarador bo‘lib, ikki tishlaridan ajralganlar.

Kofirlar qasd etdi Rasul joniga,
Rasul duo qildi dunyo moliga,
Tog'lardan ikki tog' Rasul yoniga,
Oltish-kumush bo'lib kelgan kunlar, hey!

Yusuf — sohibjamol Ya'qub o'g'li-da,
Ojiz qoldi og'alari qo'lida,
Tug'ishganlar kirib shayton yo'liga,
Yusuf der: "Zindonga tushgan kunlar, hey!"

Firog'iy, baloga qoldim tilimdan,
Yozdim nima o'tgan bo'lsa dilimdan,
Hazrati Payg'ambar turib qo'limdan,
Sahobalar[1] bilan qo'shgan kunlar, hey!

AYYOMNI KO'RDIM

Haqqa shukr, biz ham bu yo'lga tushdik,
Holbuki, bir necha ayyomni ko'rdim.
Ma'rifatning daryosiga yetishdik,
Oriflar surgan yuz kemani ko'rdim.

Xizr sayr etadi qudrat olamin,
Muso o'qir haqiqatning kamolin,
Yetti kun olmabdi Tangri salomin,
Qutob ul-aqtob[2] otli badnomni ko'rdim.

Endi yorug' bo'ldi umrim chirog'i,
Qish ayozi ursa, ko'karmas bog'i,

---

[1] **Sahob a** — Muhammad alayhissalomning yaqin yordamchilari, safdoshlari.

[2] **Qutb ul-aqtob** — qutblar qutbi. **Qutb** — tasavvufdagi eng yuqori daraja. Tasavvuf falsafasiga binoan, **Qutb** — komil inson, Ollohning yer yuzidagi "xalifasi", uning insoniyat bilan aloqasida vositachi. So'fiylar fikricha, Qutb dunyoda Ollohga ma'qul keladigan tartibotni saqlab turishga da'vat etilgan.

Ro‘paramda turib bir necha soqiy,
Har biri o‘ynatar yuz jomni — ko‘rdim.

Yig‘ladim, yiqildim, tutdim qo‘lini,
To‘rt rahbari bilan Hazrat Alini,
Sanjarxon[1], Salim shoh, yetti valini,
Bir Zuhra, o‘n ikki imomni ko‘rdim.

Sulaymonni ko‘rdim — yotar ayvonda,
Bir necha g‘oyiblar jam bo‘lmish unda,
Qulzum daryosida, tubsiz ummonda,
Ali, Hotam[2] solgan lijomni[3] ko‘rdim.

Qorun bu dunyoni oldi mol bilan,
Iblis osiy bo‘ldi — kelmas yo‘l bilan,
Samangon[4] shahrida botir Zol bilan,
Dev bilan jang qilgan Rustamni ko‘rdim.

Maxtumquli, farmon bo‘ldi Ollohdan,
Yerga inib keldi Arshi a’lodan,
Jabroil ketirmish ulug‘ dargohdan —
Muhammadga ingan kalomni ko‘rdim.

KELDI AZIZLAR

Zamon oxir bo‘ldi, alhazar denglar,
Rasul so‘zi bir-bir keldi, azizlar!
Adolat qolmadi xon-u beklarda,
Yurt zulm-u sitamga to‘ldi, azizlar!

---

[1] **Sanjarxon** — saljuqiylar sulosasiga mansub yettinchi hukmdor Sulton Sanjar (1086–1157).

[2] **Hotam** — ulug‘ avliyolardan biri.

[3] **Lijom** — yugan, jilov.

[4] **Asliyatda:** Namangan.

Olimlar ilmiga amal etmadi,
Qur'on o'qib, ma'nosiga yetmadi,
Elga aytib, o'zi birin tutmadi,
Eldan pinhon gunoh qildi, azizlar!

Qozilar hukmini riyo ayladi,
Pora olib, yuzin qaro ayladi,
O'zining joniga balo ayladi,
Go'r ilon-chayondan to'ldi, azizlar!

Da'vo qilib necha gumrohlar iymon,
Qo'y-qo'ziga uni almashdi oson,
Murid tutdi bo'lsa kim bo'yni yo'g'on,
Yolg'on so'z iymonin oldi, azizlar!

Bir necha kofirlar tarozi tortar,
Nafsining izidan it kabi yo'rtar,
Ortiq yeb, gulxanga jonini otar,
Vayl degan chohda qoldi, azizlar!

Vayl degan bu choh do'zax ostida,
Tarozibon na'ra tortar qasdida,
Eshigi ochilar do'zax ustida,
Tarozibon holin bildi, azizlar!

Bechoradir sudxo'r — bir necha ahmoq,
Bu ish bilan bo'lar kofiri mutloq,
Go'ridan o't chiqib yotadi har choq,
Sudxo'rning zamoni keldi, azizlar!

Tavba qil, Firog'iy, oxirzamondir,
Bu ishlar har kimda bo'lsa yomondir,
Imonli qul ikki dunyo omondir,
Gul ochilib, chaman so'ldi, azizlar!

YOR CHEKAR

Tangri suygan Muhammadning ummati:
"Bismilloh!" — deb, avval Haqni yor chekar[1].
Iymonsizlar sira ko'rmas jannatni,
Do'zax ichra ko'p azoblar bor, chekar.

G'am chekib, oxirat uyin tuzganlar,
Haqiqat deb, shariat deb to'zganlar,
Azob ichra Haq yo'lida kezganlar,
Sahar turib toat qilar, zor chekar.

Odam o'g'li, qiyomat kun bo'lganda,
Mo'minning gunohi qolmaydi tanda,
Pulsirot ustida — qiyomat kunda,
So'fiylarni karomatli pir chekar.

Yashnab turgan go'zal gullar so'lganda,
Azroil odamning jonin olganda,
Qiyomat oxiri — mahshar bo'lganda,
Sudxo'rlarni, g'iybatchini nor chekar.

Musofirlar uzoq yo'ldan qaytganda,
Yukli tuyalarni tez haydaganda,
Oriq cho'kib, yuki qolsa maydonda,
Uning yukin qatordagi nor chekar.

Agar maydon ichra bir jang qurilsa,
Sakrab-sakrab arab otlar surilsa,
Bir mard yigit qolib, bo'yni burilsa,
Uning orin ot yurakli sher chekar.

---

[1] **Chekmoq** — bu yerda: hisoblamoq, bilmoq. Mumtoz she'riyatda chekmoq so'zining 30 ga yaqin ma'nosi bo'lib, bu she'rda u quyidagi ma'nolarda kelgan: 1) tortmoq, boshidan kechirmoq; 2) bardosh bermoq, chidamoq; 3) yetmoq, olib bormoq; 4) oh urmoq, dod-faryod qilmoq; 5) ko'tarmoq; 6) bilmoq, hisoblamoq; 7) o'ziga tortmoq, yaqinlashtirmoq; 8) o'tqizmoq, yo'naltirmoq va hokazo.

Kimlar kezar Biruborga yolvorib,
Kimlar kezar haqiqatda yo'l yurib,
Bir bechora ko'rsa — turgan termulib,
Uning ishin bir chinakam er chekar.

Maxtumquli, ishing tushsa mard bilan,
Nomard botir bo'lmas jadal — shart bilan,
Duch kelganda hamroh bo'lsang qurt bilan,
Harchand bo'lsa ot ustida or chekar.

ILTIJO

Jalil-yey[1], Jabbor-yey, O'zing bilarsan,
Bu dunyoda gunoh ayladim chandon[2].
Bandaman, ne qilsang, O'zing qilarsan,
Gunohlar zil yuki bosdi kun-kundan.

Dargohingdan darmon tilanay necha
Uzun umrimni men sarf etdim hecha,
Yuk og'ir, yo'l yiroq, qorong'i kecha,
Jon ham javlon urar chiqmoqqa tandan.

Bir yo'lovchi edim, charchab o'tirdim,
Lutfingga sig'inib, panoh ketirdim,
Yo'ldoshim yo'qotdim, yo'lni yitirdim,
Ayirdi nafs insofdan, shayton dindan.

Yomonligim sabab hosilim isyon,
Bunday tiriklikdan o'limdir oson,
Sharmandaman bandaligimdan har on,
Senga loyiq amal kelmadi mendan.

---

[1] **Jalil** — Ollohning go'zal ismlaridan biri: barcha sifatlari mukammal, ulug' zot.

[2] **Chandon** — ko'p, ortiq, ziyoda.

Hasrat bilan o‘tdim, hayrona qoldim,
Dargohing panohim — sig‘inib keldim,
Nafs bilan shaytonning poymoli bo‘ldim,
Egam, sen lutf etib, qutqargil undan!

Ixlosimni oshir, yolg‘onim yo‘q et,
Tilimni uzun qil, yuzimni oq et,
Xatardan asra-yu haromdan pok et,
O‘zing madad aylab, tavba ber chindan.

Maxtumquli, oshnolik ber ishq ila,
Ko‘nglimni — sir bilan, ko‘zim — ashk ila,
Amalim o‘ylasam, qoldim mushkila,
Borarga joyim yo‘q ayrilib sendan.

BARQAROR ETGAN KARIM[1]

O‘n sakkiz ming olamni bir damda bor etgan Karim,
Yetti qat osmon-falakni barqaror etgan Karim,
Bandalarga rahmatin har dam nisor etgan Karim,
Ul maloyiklarni[2] ko‘kda beshumor[3] etgan Karim,
Qudratin ikki jahonda oshkor etgan Karim.

Nechani gumroh qilib, ozdirdi yo‘ldan — ibrat ol,
Nechani mo‘min qilib, o‘zni tanitdi bemisol,
Har kimni bir ko‘yga soldi ul Karimi loyazol[4],
Nechalar toat bilan o‘tkazdi umrin moh-u sol[5],
Nechalarni ma’siyatda[6] sharmisor etgan Karim.

---

[1] **Karim** — Olloh taoloning go‘zal ismlaridan biri: karamli, saxovatli, kechirimli.

[2] **Maloyik** — malaklar, farishtalar.

[3] **Beshumor** — son-sanoqsiz, behisob.

[4] **Loyazol** — abadiy, yo‘q bo‘lmaydigan.

[5] **Moh-u sol** — oy-u yil.

[6] **Ma’siyat** — shariatga xilof ish tutish, gunoh.

Anbiyolar afzali ul Mustafo — xayr ul-bashar,
Ham maloyiklar ko'rib, boshga ko'tardi shu qadar,
"Yo shafe' ul-muznibin!"[1] deb yod etarman har sahar,
"Qudratidan ul Masihoni[2] yaratdi bepadar[3],
O'tni Ibrohim Xalilga lolazor etgan Karim.

Nechaga berdi Xudoyim aysh-u ishrat behisob,
Nechalar hasrat bilan non topmadi bag'ri kabob,
Nechaga rohat bag'ishlab, nechaga berdi azob,
Ko'hna bu karvonsaroyda kun-u tun o'tdi shitob,
Barchaga qismatni O'zi ixtiyor etgan Karim.

Nechalarni shoh etib, baxsh etdi taxt-u toj unga,
Nechani faqr-u fanoda ayladi muhtoj unga,
Nechalarga berdi davlat, nechalar-chi, och unga,
Sen mening do'stim deya lutf ayladi me'roj unga,
Mustafoning do'stlarini choryor etgan Karim.

Avvalo ikki jahonni bor etib qodir Xudo,
Necha qullar Haq yo'lida ayladi jonni fido,
Nechalar fisq-u fasodda qildilar umrin ado,
Ketgusi dunyoga kelgan — boy-faqir, shoh-u gado,
Bandalarni shum o'lim qo'lida zor etgan Karim.

Maqsading, Maxtumquli, sen Haq taolodan tila,
Bo'lma g'ofil, kecha-kunduz bo'l Xudo zikri bila,
Bizday osiylarga shoyadki, Xudo rahmat qila,
Zoye o'tkazma hayoting, hosiling berma yela,
Barchalarning joyini oxir mazor etgan Karim.

---

[1] **Yo shafe'ul-muznibin** — Ey gunohkorlarni shafoat etuvchi!

[2] **Masiho** — Iso alayhissalom.

[3] **Bepadar** — atosiz.

XAROB AYLAR

Mo‘min bo‘lgan munkir bo‘lmas so‘zimga:
Jabbor bu jahonni, ko‘r, xarob aylar.
Ko‘p narsalar kelar-ketar ko‘zimga,
Dunyoni yomon ish xor, xarob aylar.

Omadi bor yomon ishlar etganning,
Toleyi ters Haq yo‘lidan ketganning,
Bu dunyo mulkidir kuchi yetganning,
Jahonni zulm bilan zo‘r xarob aylar.

Ilm qilmas olimlari hech qachon,
Yo‘q ishlar bor bo‘lar, bor ishlar yomon,
Shariat yo‘q bo‘lar, buzuqlik chandon,
Yurtni turli-tuman kor xarob aylar.

Balxni — bo‘g‘iz g‘ami, Nishopurni — tosh,
Ummon shahrin — daryo, Basrani — otash,
Madinani — ochlik, Makkani — habash[1],
Hirot, Qandahorni mor xarob aylar.

Rum shahrini aylar darveshlar xarob,
Yamanni — suv yiqar, Mosulni[2] — arab,
Ko‘fani[3] — sel, Bag‘dod shahrini — girdob,
Ray[4] elin yorilgan yer xarob aylar.

So‘zimni eshitar oqil hamisha,
Termizga keladi o‘lat, ranj — Keshga,
Boq Sufyon[5] avlodi bo‘lgan Kumushga,
Isfahonni shu makkor xarob aylar.

---

[1] **Habash** — qora tanli, negr.

[2] **Mosul** — Iroqdagi shahar.

[3] **Ko‘fa** — Iroqdagi shahar.

[4] **Ray** — Tehron yaqinidagi qadimiy shahar.

[5] **Sufyon** — yirik savdogar, qurayshiylar zodagoni Abu Sufyon (567–652). Uning o‘g‘li Muoviya umaviylar sulolasiga asos solgan.

Samarqandni Misrdan kelgan bek bosar,
Buxoroni ochlik sabab turk bosar,
Saraxsni o'lim-u Marvni qum bosar,
Sherozni turk misli mo'r xarob aylar.

Koshg'ar-u Xo'tanni kofir hind egar,
Xitoyga osmondan chayonlar yog'ar,
Har chayon tuyadek-tuyadek bo'lar,
Hindistonni oh-u zor xarob aylar.

Adan shohi etgach Lohurning azmin,
Qaytib yurtin topmas — tog'mi yo tuzmi?
Jayhun bosar bir kun Xorazmni,
Atrofda har mulkkim bor, xarob aylar.

Darg'omning shahriga ko'kdan sas kelar,
U bir yovuz sasdir, eshitgan o'lar,
Bulg'orning shahrini ul o'ris olar,
Uni Dajjol bilan nor xarob aylar.

Maxtumquli, har kim tinglasa jondan,
Bular avval kelar oxirzamondan,
Mahdiy yerdan chiqar, Iso osmondan,
Dajjolni shu ikki er xarob aylar.

MAHSHARNOMA

Azizlar, bo'libdi kun-kundan battar,
Yil-yildan bid'atlar kelsa kerakdir.
Dunyoda may ichib, zino qilganlar,
Haqqa ma'lum bo'lib tursa kerakdir.

Mo'min birodarlar, qaytmang bu yo'ldan,
Sirotdan o'tasiz — ingichka qildan,
Dajjol kelar derlar bir necha yilda,
Olamga bir g'avg'o solsa kerakdir.

Ko‘zi bitta, qora kiymish ustina,
G‘arib yonar haromining o‘tina,
Shomi sharif, Rum-u Makka, Madina
Qochoq mo‘minlarga to‘lsa kerakdir.

Iso, Mahdiy kelsa, adolat bunyod,
Ya’juj-Ma’juj kelsa, zulm, oh-u faryod,
Qulog‘i yer sudrar maxluq bo‘lib shod,
Qof tog‘ini teshib kelsa kerakdir.

Qalam titrar yetimlarning zorindan,
To‘lqin oshar ishq ahli boshlarindan,
Ko‘k o‘prilib, tog‘lar siljir yerindan,
Isrofil surini chalsa kerakdir.

Daryolar quriydi, suvlar chekinar,
Oy-u kun tutilar, yulduz to‘kilar,
Baland tog‘lar erib, yer, ko‘k yiqilar,
Yolg‘iz Xudo o‘zi qolsa kerakdir.

Ajal kelsa, banda xonumonidan,
Qo‘l uzar el-yurtdan, shirin jonidan,
Olloning amridan, Haq farmonidan
Azroil o‘z jonin olsa kerakdir.

Haqdin o‘zga jonli ko‘zga ilinmas,
Ichrofil jon berib, sur ham chalinmas,
Qirq kun yomg‘ir yog‘ar,
yer-ko‘k bilinmas,
Qaytadan ko‘karib qolsa kerakdir.

Bir Buroqni ziynat berib bezarlar,
Oltin-kumush taqinchoqlar tizarlar,
To‘rt farishta tirilibon kezarlar,
Muhammad qabriga kelsa kerakdir.

Sado chiqar farishtaning paridan,
"Labbayk!" — deya turib kelar go'ridan,
Qabr yorilib, qum to'kilar zo'ridan,
"Voy, ummatim!" — deya kelsa kerakdir.

Ko'ngil qo'rquvdadir mahshar g'amindan,
"Qani ummatim?" —
deb so'rar Amindan,
Sajdaga bosh qo'yib, olmas zamindan,
"Tur!" —
deb Haqdan ilhom bo'lsa kerakdir.

Isrofil surini olar qo'liga,
Ko'zin tikar qodir Haqning yo'liga,
Chiqar, sado berar o'ng-u so'liga,
Jonlilar yana jon topsa kerakdir.

Aksirib-aksirib go'rdan chiqarlar,
Turarlar, osmonga ko'zin tikarlar,
Yig'lagancha har tarafga boqarlar,
Qirq kun hayron bo'lib tursa kerakdir.

Ko'rarlar — qurt-qushlar qochmas yonidan,
Daryolar qizdirar har tomonidan,
Hech kim uzoq tushmay o'z jonidan,
Birga hamdam bo'lib tursa kerakdir.

Do'zax malaklari gurzini tutmish,
Tarozi qurilmish, kun nuri ketmish,
Ot berganga — Buroq, to'n ehson etmish
Eng nafis to'n kiyib kelsa kerakdir.

Ish boshlar qurilib ulug' bir devon,
Quyosh yuz o'girar, qiziydi jahon,
Miyang vijir-vijir qaynab oqqan on,
Bergan noning soya bo'lsa kerakdir.

Fir'avn, Homon, Shaddod kabi kofirlar,
"O'lgandik!" — deb hayron bo'lib turarlar,
"Bizni tiriltirdi kim?" — deb so'rarlar,
Mo'min qullar javob bersa kerakdir.

Shodliklari qayg'u bilan daf bo'lar,
O'tlar yonib, g'avg'olari ko'p bo'lar,
Oxiratda yuz yigirma saf bo'lar,
O'n ikki guruhga bo'lsa kerakdir.

Bir guruhi to'ng'iz bo'lib yurarlar,
Bir guruhi maymun bo'lib kularlar,
Bir guruhi ko'r-u kar, gung bo'larlar,
Qilmishi oldiga kelsa kerakdir.

Birovning tanida o't-olov o'ynar,
Birovning og'zida qon-yiring qaynar,
Amalsiz mullalar tilini chaynar,
O'zi uni shunday qilsa kerakdir.

Birov o't ishtonda qiynalib o'tar,
Birovi mast bo'lib, yiqilib yotar,
Birovning oyog'i oldiga bitar,
Bosh bilan yugurib kelsa kerakdir.

O'n qavat o't to'shak to'shar o'rniga,
Nolakashning boshi tushar burniga,
Tillari cho'zilib, yetar qorniga,
Qilmishiga loyiq bo'lsa kerakdir.

Mo'minlar xurram-u kofir qon yutar,
Tuyadek ilonlar tegrasin tutar,
Xaloyiq yig'lashar amrida aksar,
Muhammad tug'ini qursa kerakdir.

Qo'rquv tushar payg'ambar joniga,
O'g'il kelmas otasining yoniga,

Muhammad boshlabon mezon tubiga,
Yashil bayroq qurib tursa kerakdir.

Quchoqlar "O'g'lim!" — deb Odam payg'ambar,
Ibrohim Xalil deydi: "Ey Birubor!"
Muso, Iso aytar: "Yaratgan Jabbor!"
Har kim o'zin tilab olsa kerakdir.

Necha payg'ambarlar duosi maqbul,
Na o'ngini tanir, na so'lini ul,
Yosh to'kib yoig'laydi Muhammad Rasul,
"Voy, ummatim!" — deya tursa kerakdir.

Xaloyiq artmaydi ko'zda yoshini,
Tanib, so'ramaydi qavm-qardoshini,
Maydonda qurilgan mezon boshini
Isrofil tutibon tursa kerakdir.

Olovdan zeb berib kofir to'niga,
Haydab boradirlar do'zax yoniga,
To'qimli xachirdek minib bo'yniga,
Tuyabo'yin biylar chaqsa kerakdir.

Dodiga yetar yo'q dod solsa agar,
Saroyni to'ldirib, eshakdek hangrar,
Yegani zaqqumdir, ichgani zahar,
Abadiy zindonda qolsa kerakdir.

Endi keldik, mo'min qullar ne dermish,
Qaysi ishga, qaysi yo'lga ketarmish,
Muhammad hurmati deb afv etarmish,
Bilmaganlar buni bilsa kerakdir.

Mo'minlar Mirotdan o'tarlar yo'ldek,
Kimisi yashindek, kimisi yeldek,
Kimi chopqir otdek, kimisi seldek,
Kimi uchar qushdek kechsa kerakdir.

Uch ming yillik yo‘ldir, mingi chiqishdan,
Bir mingi tekisdir, mingi enishdan,
Qoradir kechadan, o‘tkir qilichdan,
Kim kecha-kunduzda kechsa kerakdir.

Kim o‘n kunda kechar, kimi bir oyda,
Eshakday hangraydi kimi saroyda,
Kim bir yilda kechar, kimi qirq oyda,
So‘nggi besh ming yilda o‘tsa kerakdir.

Minglab yillar qonlar yig‘lab o‘tilgach,
Sirot ko‘prigidan uzoq ketilgach,
Kavsar chashmasidan may no‘sh etilgach,
Yosh-qari bir yoshga kelsa kerakdir.

Yigitlarning yashil tojdir boshida,
Yusuf kabi go‘zal, Iso yoshida,
Dovud maqomida, o‘ttiz beshida
Har kim sevganini olsa kerakdir.

Yetmish qat libosda taxtga chiqarlar,
Zabarjad yuganli Buroq minarlar,
Yeyarlar, icharlar, sayr qilarlar,
O‘lmas, yitmas, mangu qolsa kerakdir.

Yetmish hur qiz to‘shak to‘shar ostiga,
Yetmish hur xizmatda mo‘min do‘stiga,
To‘biy[1] soya solib turar ustiga,
Haqning jamolini ko‘rsa kerakdir.

“Dunyo bu dunyo”, — deb yotgan sarxushlar,
Ishonmagan kofir bo‘lar, qardoshlar,
Maxtumquli aytar: kelar bu ishlar,
Qiyomatda banda ko‘rsa kerakdir.

[1] **To‘bi** *(y)* — jannatdagi rang-barang mevali va xushbo‘y sersoya daraxt.

NELAR BO‘LDI?

Ey azizlar, hali olam
Yaratilmay nelar bo‘ldi?
Haq o‘zi o‘ziga tutmish
Yetmish ming pardalar bo‘ldi.

Nom-nishon yo‘q edi yerdan,
Osmondan, jannatdan, hurdan,
Uning ich pardasi nurdan,
Rasulullo shohlar bo‘ldi.

Nurni qushga aylantirdi,
Bir daraxt uzra qo‘ndirdi,
Izidan salom indirdi,
Duridan daryolar bo‘ldi.

Qudratdan bir daryo qildi,
Haybat bilan nazar soldi,
Ko‘k suvidan osmon qoldi,
Ko‘pligidan yerlar bo‘ldi.

So‘ng qushni u yerdan oldi,
Eltib bir sham uzra soldi,
Qachon nur tebrana qoldi,
Jumla maloyiklar bo‘ldi.

O‘tdan Azozil yaraldi,
Yetti qat yerda joy oldi,
Xizmat aylay, ko‘kda qoldi,
Ustodi malaklar bo‘ldi.

Qodirning qudratdir ishi,
Yer mixidir tog‘-u toshi,
O‘ngi er, so‘l xotin kishi,
Shunday qudrat dovlar bo‘ldi.

Haq yaratdi nokaslarni,
Sakson gaz bo'ldi pastlari,
Osmonga chiqdi saslari,
Ellik ming yil shovlar bo'ldi.

Firog'iy, oshding haddan san,
Hech kim voqifmas bu sirdan,
Tuproq olib yetti yerdan,
Odam Safiyulloh bo'ldi.

BORSA KERAKDIR

Moyil bo'lmang bu dunyoga, do'stlarim,
Barcha bundan unga borsa keradkir.
Avval omon, oxir iymon istarman,
Haq qulning murodin bersa kerakdir.

Bir kuni Qof tog'idan Dajjol chiqar,
Eshagini bezab, zumradlar taqar,
Qarshisiga Mahdiy tug'ini tikar,
Jang qilib, Dajjolni qirsa kerakdir.

Shundan keyin Dajjol hayoti so'nar,
Qayta boshdan dinning chirog'i yonar,
Madinada Iso osmondan inar,
Saf qurib, maydonda tursa kerakdir.

Osmondan Jabroil ularga kelar,
Mahdiy bilan Iso jahonni olar,
Madina shahrida hukmdor bo'lar,
Qirq yillab davronni sursa kerakdir.

Qirq yildan so'ng ular qilarlar safar,
Daryolar quriydi, giyohlar so'lar,
Ya'juj-Ma'juj derlar, mo'jiza qo'par,
G'arbdan Sharqqa qarab yursa kerakdir.

Fosh aylarman, bir so‘zim bor demoqqa,
Tillarim aylanmas bayon qilmoqqa,
Dunyo tugab, narsa qolmas yemoqqa,
Bir-birining qonin so‘rsa kerakdir.

Yomg‘ir yog‘ar, yer yuzini suv olar,
Yakson bo‘lib, baland tog‘lar evrilar,
Hayvon, inson qolmas, barchasi o‘lar,
Zamonning oxiri bo‘lsa kerakdir.

Azroil o‘z jonin o‘zi olarmish,
Barcha ketib, Haqning o‘zi qolarmish,
Bu dunyoga to‘rt farishta kelarmish,
Isrofil surini chalsa kerakdir.

Tirilib, yer uzra yana chiqarlar,
Munofiq, zolimni shul kun yoqarlar,
Savob-gunohini hisob qilarlar,
Yo malik mezonin qursa kerakdir.

Bu fasodlar yer yuziga kelganda,
Kofir yig‘lab, musulmonlar kulganda,
Qabrlar yorilib, mahshar bo‘lganda,
Rasul “Ummatim” deb tursa kerakdir.

Barchani yaratgan shu go‘zal Olloh,
Deyavering: “Lo iloha-illalloh”,
Gunohkor ummatim haq Rasulullo
Sirot uzra boshlab yursa kerakdir.

Ummat bo‘lgan, bilgil, suratdan kechar,
Jannat ichra kavsar sharobin ichar,
Aldanmang, so‘filar, piringiz qochar,
“Dod!” — deb Muhammadga borsa kerakdir.

Maxtumquli, boshdan ketmas tumanim,
Men Haqqa oshiqman, yo‘qdir gumonim,

Avval damda omon, oxir iymonim,
Taqdir qilib, bizga bersa kerakdir.

ANBAR SOCHDILAR

Muhammad kelar deb ko'k eshigiga
Malaklar mushk bilan anbar sochdilar.
Bog'liq edi, avval ochilmasdi hech,
Qirq kun ilgaridan eshik ochdilar.

Muhammad yengildi Badr jangida[1],
Musulmonlar holi juda tang edi,
Shohimardon chiqib keldi so'ngida,
Ot ko'ksidan qizil qonlar sochdilar.

Qirildi, yo'q bo'ldi bir necha tarso[2],
Malak parin otar osmonda ko'rsa,
Daqyonus[3] davrida necha kimarsa[4],
Bir it bilan hamroh bo'lib qochdilar.

---

[1] **Badr jangi** — Muhammad alayhissalom rahbarligida musulmonlarning 624 yili Madinadan 150 km janubi-g'arbdagi Badr qudug'i yaqinida Makka qo'shinlari bilan qilgan birinchi yirik jangi. Bunda qozonilgan g'alaba payg'ambarning siyosiy va diniy obro'yini oshirib yubordi, Madina va butun Arabiston yarim orolida faol harakat boshlab yuborishiga asos soldi.

[2] **Tarso** — nasroniy, xristian.

[3] *Bu yerda Ashobi Kahf* — G'or a'zolari ko'zda tutilmoqda. Iso alayhissalom zamonidan keyin Rum davlatlaridan birida Daqyonus nomli zolim podshoh chiqib, odamlarni butlarga sig'inishga majbur qilar, o'z amriga bo'ysunmaganlarni o'ldirar ekan. Bir necha yigit: "Ollohdan o'zgaga bo'ysungandan ko'ra bu yurtni tark etgan afzal" deb tun qorong'isida shahardan chiqib ketishadi. Yo'lda ularga bir cho'ponning iti ham hamroh bo'ladi. Hammalari tongga yaqin bir toqqa yetib, katta g'orga kirib yashirinadilar. Ularni quvib kelgan shoh askarlari g'orga kirishga qo'rqqach, Daqyonus yigitlarning ochlik va tashnalikdan o'lib ketishlari uchun g'or og'zini bekitib tashlashni buyuradi. Lekin Olloh o'z sadoqatli bandalarni halok bo'lishdan saqlab qoladi — ularni 300 yillik uzoq uyquga cho'mdiradi. Ollohga sadoqati tufayli it ham Ashobi Kahf safidan joy olgan.

[4] **Kimarsa** — kishi, odam.

Rustam olishardi ajdarho bilan,
Titratdi barini gurz xavfi bilan,
Xoja Ahmad Yassaviy yuz so'fi bilan
Daryoni kemasiz shunday kechdilar.

Maxtumquli g'ayrat etdi har ishda,
Yer yuzini qilmoq uchun sarishta,
Horut, Morut[1] otli ikki farishta
Bobil qudug'ida chohga tushdilar.

RASUL

Tushdi bir xushlik jahonga nusrating[2] ko'rgach, Rasul,
Yerga yakson bo'ldi butlar lam'ating ko'rgach, Rasul,
Jumla olam bo'ldi iqror sunnating ko'rgach, Rasul,
Bo'ldi zulmat yo'li ravshan oyating ko'rgach, Rasul,
Topdilar omon do'zaxdan suhbating ko'rgach, Rasul.

Kelding-u dunyoga yakson aylading butni butun,
Ortib islom shuhrati, kofirlar bo'ldi zabun,
Ham Abu Bakr-u Umar, Usmon bo'lgach rahnamun[3],
Bo'ldi zid kofir senga, ey ismi mukrim mo'minin[4],
Ikki dunyo bo'ldi xushnud rahmating ko'rgach, Rasul.

Haq etib hurmat, salom bergan Safiyulloh kabi,
Aylagan olamni g'arq Nuhi nabiyulloh[5] kabi,
Ko'kda kunning yori bo'lgan Iso Ruhulloh[6] kabi,

---

[1] **Horut va Morut** — Yer yuziga tushganida go'zal ayolga ilakishib gunohga botgani uchun Bobildagi zindonga tashlangan ikki farishta. Kimki sehr-u joduni o'rganmoqchi bo'lsa, ularning yoniga keladi.

[2] **Nusrat** — zafar, g'alaba.

[3] **Rahnamun** — rahnamo, rahbar, yetakchi.

[4] **Mukrim mo'minin** — mo'minlarni shafoat qiluvchi.

[5] **Nabiyulloh** — Ollohning payg'ambari.

[6] Iso alayhissalom va quyosh o'rtasidagi yaqinlik va bog'liqlik shundaki, tiriklay osmonga ko'tarilgan va payg'ambar to'rtinchi osmonda maqom tutgan. Bu quyosh burji hisoblanadi.

Necha ming payg'ambar-u Muso Kalimulloh kabi,
Qoldilar hayratda lavlok xil'ating ko'rgach, Rasul.

Senga me'roj tunida yetgach xabar ma'shuqdan,
Qildi yer-u ko'k tajalliy[1] ushmuningdek[2] shavqdan,
Behisob bahra topib senga yaqinlar zavqdan,
Sen yaqinlikning maqomida topib fayz Haqdan,
Tishladi barmoqni minglar qurbating[3] ko'rgach, Rasul.

Chin saodat davri erdi seni ko'rganlar uchun,
E'tirofingga erishgan mo'taqidlardan[4] yaqin,
Qulligingda ko'k, xijolat ichra qolmish ham zamin,
Ham falak uzra malaklar dedilar: "Yuz ofarin!"
Ushbu oliy martaba ham hurmating ko'rgach, Rasul.

Ey Habib, ishqing bilan jismimda otash — so'z[5] edi,
Haq o'girmog'iga yuzin bir ayri mayl ro'z[6] edi,
Ul kun olam ahli yuz yigirma qavmga maxsus edi,
Istasa ummatlaring do'zaxni, u mahfuz edi[7],
Daf bo'lar otash, jahannam haybating ko'rgach, Rasul.

Hamding aytib yer-u ko'k to'kdiga yoshlar yig'ladi,
Na tish, na og'zi bir o'tlar, og'ochlar[8] yig'ladi,
Ko'zdan ashkin oqizib, bu tog'-u toshlar yig'ladi,
Yetti kun Ka'ba qoshida qurt-u qushlar yig'ladi,
Aytadir Maxtumquli bu furqating ko'rgach, Rasul.

---

[1] **Tajalli** *(y)* — ko'rinish, jilvalanish. G'aybdan keladigan va qalbda namoyon bo'ladigan ilohiy nur va sirlar. Haq taolo hamisha hamma yerda turli darajada tajalliy etadi.

[2] **Ushmuningdek** — shunday, bunday.

[3] **Qurbat** — yaqinlik, etishish.

[4] **Mo'taqid** — e'tiqod qiluvchi, ixlosli, ishonuvchi.

[5] **So'z** — o't, olov.

[6] **Ro'z** — 1) kun, kunduz; 2) nasiba, qismat.

[7] **Mahfuz** — saqlangan, yashirilgan, muhofaza qilingan.

[8] **Og'och** — nihol, daraxt.

BIHISHT TA'RIFI

Arshning ostida-yu ko'kning ustida,
Ey azizlar, o'rni — o'zi bihishtning.
Ming mingdir nag'masi, yuz ming maqomi,
Qurilgandir doim sozi bihishtning.

Xizr yoshin taqdir qilsa kezmoqqa,
Dovud kotibligin bersa tuzmoqqa,
Tun-kun mashg'ul bo'lsam sharhin yozmoqqa,
Aytilmas mingdan bir so'zi bihishtning.

Darvesh tushda ko'rib, bo'lmish oshig'i,
Qizil oltindandir sahni, eshigi,
Olamni g'arq aylar nurdan chirog'i,
Agar bir ochilsa yuzi bihishtning.

Kalom ichra o'qib, aytar mullalar,
Xizmatda Rizvonlar, inju shillalar[1],
Ziynatli halqalar, nozik hullalar[2],
Tuganmas ne'mati — nozi bihishtning.

Ta'rifin aytishga og'zim, tilim yo'q,
Haq o'zi hokimdir — jabr, zulm yo'q,
Qayg'u-g'am yo'q, qarilik yo'q, o'lim yo'q,
Tuganmas bahor-u yozi bihishtning.

Yuz sharbatdan ma'jun[3] bo'lib qotilgan,
Qora sochlar oq to'piqda chatilgan,
Yoshlikda, sog'likda rosa yetilgan,
Bezanar, sollanar[4] qizi bihishtning.

---

[1] **Shilla** — paxtadan to'qilgan yupqa va qizil rangli mato.

[2] **Hulla** — nafis matodan tikilgan bezakli kiyim.

[3] **Ma'jun** — turli ziravorlarga afyun qo'shib tayyorlangan darmondori.

[4] **Sollanmoq** — noz bilan o'zini ikki yoqqa tashlab yurish.

Minib kezish uchun Buroq otlari,
Kundan-kunga ortar ko'ngil shodlari,
La'lu yoqutdandir bor bunyodlari,
Hech bo'lmagay gard-u to'zi bihishtning.

Pishar turli qo'l tegmayin oshlari,
Qovurilar qudrat bilan go'shtlari,
Dunyoga teng tanga kabi toshlari,
Ortiq har narsasi — chizi[1] bihishtning.

Har navbat ming turli sharob ichilgan,
Olmos, inju, yoqut, durlar sochilgan,
Rang-barang behisob gullar ochilgan,
Mushk-u anbar sochar isi bihishtning.

Haq qabul aylabon xos do'st-u yorin,
Hosil etib barcha maqsadin borin,
Ko'rsatib ul kuni Haqqa diydorin,
Shudir mo'minlarga rozi bihishtning.

Maxtumquli, vasfi kelmas tillarga,
Tilga kelsa, bayon etsam ellarga,
Ojiz bandalarga, osiy qullarga,
Yo Rab, o'zing ayla ro'zi bihishtni!

BORGAYMAN-O

Xoliqo, behuda umrim yelga sochdim, bilmadim,
Tavbaga bosh urmay, oxirat yarog'in qilmadim,
Bevafo dunyoda hech yuzimni o'tdan olmadim,
Men qiyomatda ne yuz birlan Senga borgayman-o?!

Xayr-u ehson menda yo'qdir, ayb-u isyondir ishim,
Botmisham g'am loyiga, vayronadir mungli boshim,

[1] **Chiz** — narsa.

Qilmadim avval yarog'in, charx urib uchdi hushim,
Men qiyomatda ne yuz birlan Senga borgayman-o?!

Qaqshatib a'zolarim, haybatda olsa jonimi,
So'rsa "Rabbing kim?" —
deya Munkar, Nakir a'molimi[1],
Bunda hosil qilmasam hamroh nuri iymonimi,
Men qiyomatda ne yuz birlan Senga borgayman-o?!

Men bir osiy bandaman — ko'pdir gunohim beadad,
Qil karam fazling bilan qul huvallohu Ahad,
Aylasam mahsharda dod, bir kimsadan bo'lmas madad,
Men qiyomatda ne yuz birlan Senga borgayman-o?!

Kel, bukun, Maxtumquli,
ham so'zlagil afg'on bilan,
Bu falakning gardishidan to'ldi bag'rim qon bilan,
Ozig'imni olmayin borsam agar isyon bilan,
Men qiyomatda ne yuz birlan Senga borgayman-o?!

FIG'ONIM BOR[2]

Opam, senga arzim aytsam,
Mening o'tli fig'onim bor.
Hech tuganmas qish, bahorda
Arsh atalgan bo'stonim bor.

Judo tushdim men otamdan,
Ibni Yamin bani[3] jondan,
Nima qilay, bir fig'ondan
Ochilmagan xazonim bor.

---

[1] **A'mol** — amallar, ishlar, qilmishlar.

[2] Bu she'r Andalibning "Yusuf va Zulayxo" dostonida ham uchraydi.

[3] **Bani** — odam, avlod, bolalar, urug', qavm.

Nima qilay, qo‘lim bog‘liq,
Yuragim yuz pora, dog‘liq,
Bo‘ynimda kunda sirtmog‘liq,
Ko‘nglimda ming armonim bor.

Armon ko‘p dog‘i-hijrondan,
Meningdek bir notavondan,
Firoq o‘tga qo‘ygan jondan
Arshga aytar dostonim bor.

Ajoyib bir pari ko‘rdim,
Taqdir qilsa qani derdim,
Oshiq bo‘ldim, dilda dardim,
Yana oh ila zorim bor.

Bilmayman, jannat hurimi?
Yana bilmayman parimi?
Yo‘qsa sadafning durimi?
Shunday gul yuzli yorim bor!

Yuzin ko‘rganlar mastondir,
Ta’rifi necha dostondir,
Go‘yo bog‘larda bo‘stondir,
Ko‘nglimda ming armonim bor.

Chekarman oh-u fig‘onlar,
Tushib jafoga bu jonlar,
Ayb etmang, ey qadrdonlar,
Ko‘nglimda ming armonim bor.

Yana ko‘rib, qo‘lin tutsam,
Haq deya yo jur’at etsam,
Maxtumquli, birga yotsam,
Ko‘nglimda ming armonim bor.

NAMOZ HAQIDA

Erta tong o‘qisang namozi bomdod,
Tun-kun gunohni begumon yondirar.
Jannatga yuzlansang, yo‘llari obod,
Kavsarda to‘rt ariq suvga qondirar.

Peshinni o‘qisang, uzarsan farzni,
Qabuldir Ollohdan tilagan arzing,
Jannat eshigini ochar to‘rt farzi,
Qo‘lin ochib, nurli taxtga mindirar.

Ollohni yod etib, tursang saharda,
Haq bilan orada qolmagay parda,
To‘rt farzni o‘qisang namozdigarda[1],
Olimlar namozing so‘zin indirar.

Shomni o‘qiganda, shaytonlar yig‘lar,
Ko‘ksiga tosh urib, bag‘rini dog‘lar,
Uch farz jahannamning eshigin bog‘lar,
Sabr etsang, do‘zax o‘tini so‘ndirar.

Xuftonda vitr[2] o‘qib, yotsang sarishta,
Rozi bo‘lar, umid uzma, farishta,
Agar ado etsang ushbu ravishda,
Savobing oshirib, aybing so‘ndirar.

Maxtumquli, bunda turmassan boqiy,
Hamisha — tun-u kun yod ayla Haqni,
Besh vaqt namozingni sen yaxshi o‘qi,
Do‘zax o‘tining barini so‘ndirar.

---

[1] **Namozdigar** — namozshom, kun botish oldidagi payt.

[2] **Vitr** — xufton namozining oxiridagi uch rakatning oti.

KELSA KERAKDIR

Omanno, saddoqno[1], mahshar kunlari,
Bir kun oldimizga kelsa kerakdir.
G'ofil qolma, esar ajal yellari,
Jasaddan jonlarni olsa kerakdir.

Ajal to'g'ri kelsa, qarshi turarsan,
Qochish imkoni yo'q, ko'krak kerarsan,
Yoqasiz, etaksiz ko'ylak kiyarsan,
Tuynuksiz uylarga solsa kerakdir.

Munkar, Nakir so'rar, qo'ymas xushingga,
Hech madading yetmas tegra-tashingga,
Qilgan yaxshi-yomon ishing boshingga
Birma-bir qaytadan tegsa kerakdir.

Dabbat ul-Arz solar boshga qironni,
Sayr etib kezarmish olam-jahonni,
Nildek[2] suv yig'ilib tutar dunyoni,
Ko'rinmas botqoqlik kelsa kerakdir.

Yuragim yondirar ishqing havasi,
Yiqilar, yo'q bo'lar dunyo binosi,
Sekin-asta qo'par mahshar g'avg'osi,
Arasot[3] maydonga kelsa kerakdir.

Ishonmasang, so'rab ko'rgin orifdan,
Undan so'ng tinglagin ushbu g'aribdan,
Sahro-yu dashtiga mashriq[4], mag'ribdan[5]
Malaklar zarb urib sursa kerakdir.

---

[1] **Omanno va Saddaqno** — iymon keltirgan va tasdiqlagan kunimiz.

[2] **Nil** — Misrdagi katta daryo.

[3] **Arasot** — jannat bilan do'zax o'rtasidagi balandlik joy — devor to'siq. Qiyomatda jannatga ham, do'zaxga ham tushmay o'rtada qoladigan odamlar arasotda turadilar.

[4] **Mashriq** — sharq, kunchiqar.

[5] **Mag'rib** — g'arb, kunbotar.

Shafoat qiladi ul kun eranlar,
Bir-biridan tonar, qochar ko‘rganlar,
Ishonmasang kofir bo‘lar, yoronlar,
Har kim bir suratda qo‘nsa kerakdir.

A’maling so‘ralar, dema iqboldir,
G‘avg‘olar ko‘payar, ne ajab holdir,
Nechalar gung bo‘lar, nechalar loldir,
Nechalar til chaynab tursa kerakdir.

Nechalar qalqinib tura bilmaslar,
Malaklar zarbidan yura bilmaslar,
Nechalar ko‘zsizdir, ko‘ra bilmaslar,
Nechalar it kabi hursa kerakdir.

Kimningdir og‘zidan oqar yiring, qon,
Kim yerda sudralar berolmasdan jon,
Kim yuztuban, kimning yuzidir osmon,
Sudxo‘r boshi bilan yursa kerakdir.

Nechalarning ko‘rar ko‘zin o‘ydirar,
Nechalarni zahar-zaqqum yedirar,
Nechalarga o‘tli to‘nlar kiydirar,
Nechalar maymundek tursa kerakdir.

Bir tarafdan kelar, mezon qurilar,
Bir tarafdan o‘tli gurzi urilar,
Bir tarafdan zarra-zarra so‘ralar,
Har kim o‘z hisobin bersa kerakdir.

Ilon chiqar fildek, tishlari ardek[1],
Nechasi xachirdek, nechasi xardek[2],
Nechasi bug‘rodek, nechasi nordek,
Tashlanib-tashlanib tursa kerakdir.

[1] **Ardek** — bu yerda: maydondek, ya’ni ulkan.
[2] **Xar** — eshak.

G‘iybatchi surati to‘ng‘izdir — xukdir[1],
Qorni yerga tegar, ko‘zlari ko‘kdir,
Zinokorlar zulmat choh ichra berkdir,
Ezmani tilidan ossa kerakdir.

O‘g‘ri, qaroqchining tutib qo‘llarin —
Dog‘larlar, tuzlarlar tutib etlarin,
Afsus chekib yig‘lar o‘tgan kunlarin,
Abadiy zindonda qolsa kerakdir.

Rasulullоh Arshda soya bo‘larlar,
Ummatlar ingrashib, zori qilarlar,
Shariatsiz pirlar sigir bo‘larlar,
So‘fisi buqadek chopsa kerakdir.

Maxtumquli, odam yo‘qdir o‘lmagan,
Haqni yodga olib, qullik qilmagan,
Bu dunyoda mastlik bilan bilmagan,
Qiyomatda anglab-bilsa kerakdir.

ORTSA KERAKDIR

Qachon yaqin bo‘lsa oxirzamona,
Fasod ish kun-kundan ortsa kerakdir.
Xalq aylanib butkul fe’li yomona,
Yaxshilikdan qo‘lin tortsa kerakdir.

Olimlar, darveshlar haqni der faqat,
Dushman bo‘lar podshohiga el-elat,
Mo‘minlar o‘zaro qilib adovat,
Bola-chaqasini sotsa kerakdir.

Turli-tuman balo olamga to‘lgay,
Madrasada ilm o‘qimoq qolgay,

[1] **Xuk** — to‘ng‘iz, cho‘chqa.

Olimlar may ichib, zinolar qilgay,
Gunoh daryosiga botsa kerakdir.

Dajjol degan yovuz kofir bo'larmish,
Isfahon shahridan xuruj qilarmish,
Uzoqdan yer yuzin tamom olarmish,
Iso, Mahdiy halok etsa kerakdir.

Nuhning o'g'li Yofas — ul ham avloddir,
Musulmonlar ishi oh-u faryoddir,
Ya'juj-Ma'juj ishi zulm-u bedoddir,
Qof tog'ini teshib kelsa kerakdir.

Yer yorilar derlar yana uch joyda,
Dabbat ul-Arz chiqar necha yil, oydan,
Shariat yo'qolib faqirdan, boydan,
Yuz yillik jahonni tutsa kerakdir.

Olam titrar zolimlarning zulmidan,
Hech kim so'ramaydi mazlum holidan,
Bir ulug' o't chiqar Yaman shahridan,
Barchani yondirib-yoqsa kerakdir.

Xudo Isrofilga aylagay farmon,
Isrofil surini chalgaydir shu on,
Bor jondor eshitib, birdan bergay jon,
Yolg'iz Haqning o'zi qolsa kerakdir.

Qirq kun yomg'ir yog'ar — oy, kun bilinmas,
Havoning yuzidan tuman ayrilmas,
Suv chekinar, jahon qurir, nam bo'lmas,
Qirq kun shunday bo'lib tursa kerakdir.

Isrofil ham qolmas, yana Jabroil,
Mikoyil-u G'arqoyil-u Raboyil,
Barchasining jonin olib Azroil,
Yana o'z jonini olsa kerakdir.

Qirq yildan so‘ng yana Xoliq ul-ashyo[1],
Isrofilga yana jon etib ato,
“Suringni chal!” — deya aylagay nido,
Isrofil surini chalsa kerakdir.

Qurt-qush bilan barcha odam tirilar,
Malaklarga amr-u farmon berilar,
Bir Buroqqa tilla egar urilar,
Muhammadga tuhfa bo‘lsa kerakdir.

Haqqa yaqin maloyiklar kezarlar,
Bir Burokni go‘zal qilib bezarlar,
Tilla egar, la’l-u gavhar osarlar,
Muhammad qabriga kelsa kerakdir.

Sado chiqar farishtaning biridan:
“Tur, ey Muhammad, — deb, —
yotgan yeringdan!”
“Labbayk!” — deb turadi darhol go‘ridan,
“Voy, ummatim!” — deya tursa kerakdir.

Rasul Jabroildan ul dam so‘ragay,
“Ummatimning holi ne bo‘ldi?” — degay,
Yer uzra boshini sajdaga qo‘ygay,
Shunda Haqdan in’om bo‘lsa kerakdir.

“Habibim, maqsading gar bo‘lsa ummat,
Berdim ma’qul bo‘lsa senga qay jannat,
Jannat ichra kirib, yashang farog‘at”, —
Tangri shunday ehson etsa kerakdir.

Yusufdek husnda, zar toji boshinda,
Keksa ham, yosh ham o‘ttiz besh yoshinda,
Zavq-u tomoshalar qilarlar unda,
Qayg‘u, g‘am-g‘ussalar qochsa kerakdir.

[1] **Xoliq ul-ashyo** — barcha narsalarning yaratuvchisi.

Yana ko‘z ko‘rmagan nozi-ne’matlar,
Ko‘ngliga kelmagan aysh-u ishratlar,
Balandligi besh yuz yillik ul taxtlar,
Mo‘min qullar unga chiqsa kerakdir.

O‘shal qayg‘u-g‘amli, hasratli kunda,
Tangri qozi, Rasul shafqat qilganda,
Maxtumquli osiy, bechora banda,
Shafoatdan umid etsa kerakdir.

TEKIS BO‘LAR, AZIZLAR

Bayon etsam qiyomatning vasfini,
Tog‘-u toshlar tekis bo‘lar, azizlar.
U bosh-u bu boshi ming yillik dunyo,
Xuddi uy kabi tor bo‘lar, azizlar.

Ey dil, g‘am-g‘ussada ko‘p qonlar yutma,
Xudoni kecha-yu kunduz unutma,
O‘tkinchi dunyoga hech ixlos etma,
Uning asli bevafodir, azizlar.

Olim emish osiylarning sultoni,
Kim bunda ehtirom etsa mulloni,
Ish oldidan aytsa kim bismilloni,
Qiyomatda qo‘lin tutar, azizlar.

Chin bandasi sahar turib haqlagan,
Kun chiqquncha yotib, Xudo yo‘qlagan,
Tangrining dushmani tovuq saqlagan,
Uning joyi jahannamdir, azizlar.

O‘ndan-o‘n ikkidan qo‘ygan sudxo‘rlar,
Qo‘liga o‘t solib, qo‘lin to‘rlarlar,

Arasot joyida uni xo‘rlarlar,
Sudxo‘r boshi bilan yurar, azizlar.

Sudxo‘rlarning ikki ko‘zin o‘yarlar,
Og‘zin ochib, qo‘rg‘oshinlar quyarlar,
Haloldir o‘nga o‘n birdan qo‘yganlar,
Undan yuqorisi harom, azizlar.

Bir siqim tuproqdan odam yaratar,
Qayg‘uni ko‘p chekmang, azobing ortar,
Barcha tovon kabi bir yerda yotar,
Ko‘rmasdan g‘iybat so‘z aytmang, azizlar.

Haq saqlagay tuxum bosgan oyoqdan,
Chorshanba kun tig‘ tekizgan tirnoqdan,
Chaqimchi bilan doim ding quloqdan,
Ular bilan zinhor yurmang, azizlar.

Nechalar qon yig‘lab, bo‘larlar shaydo,
Ota, ona, og‘a, ini beparvo,
Qiyomatni degan topadi foyda,
Joniga dalolat bo‘lar, azizlar.

Aytaversam, ado bo‘lmas bu dardlar,
Sulaymonning elchisidir kabutar,
Ota-onasini kim ranjitga gar,
Qiyomatda diydor ko‘rmas, azizlar.

Mening bu so‘zimni eshitgan hayron,
Zuryodsiz kishining oxiri vayron,
G‘iybatchi bandaga azob bor chandon,
Ko‘rajak ishlari zulm, azizlar.

Bandalar chin dildan bo‘lar pushaymon,
Benamozlar qolmas do‘zaxdan omon,
Kimning naslida bor bo‘lsa Qur’onxon,
Barcha mushkul oson bo‘lar, azizlar.

Maxtumquli, nechuk kechgay bu hollar,
Benamoz yo'ldoshi ilon, chayonlar,
Uch ming yil sirotdir, uzoqdir yo'llar,
O'n besh ming yilda bu tugar, azizlar.

HASAN BIRLA HUSAYN

Bir Xudoyimning qulidir ul Hasan birla Husayn,
Mustafoning bulbulidir ul Hasan birla Husayn,
Jannat bog'i gulidir ul Hasan birla Husayn,
Ikki farzandi Alidir ul Hasan birla Husayn,
Ikki dunyoning gulidir ul Hasan birla Husayn.

Dovud o'g'li ul Sulaymonni qilibsan dodxoh[1],
Ya'qub o'g'lini[2] qilibsan Misr elida podshoh,
Hazrati Ayyubni qilding yuz baloga mubtalo,
Men ularni izlabon har dam qilurman oh-voh,
Ikki dunyoning gulidir ul Hasan birla Husayn.

Senga dod aylayman, ey Olloh, qani shahzodalar?
Senga dod aylay Valiyulloh, qani shahzodalar?
Senga dod aylay Xalilulloh, qani shahzodalar?
Senga dod aylay Kalimulloh, qani shahzodalar?
Ikki dunyoning gulidir ul Hasan birla Husayn.

Ne gunoh qildi Alining o'g'li, ey Parvardigor,
Karbalo dashtida qilding sen ularni xor-u zor,
Ul Hasan birla Husayn, bilsang, edilar shahsuvor[3],
Egniga qalqon solib, qo'liga oldi zulfiqor,
Ikki dunyoning gulidir ul Hasan birla Husayn.

---

[1] **Dodxoh** — 1) da'vogar; 2) arz tinglovchi.

[2] **Ya'qub o'g'li** — Yusuf alayhissalom.

[3] **Shahsuvor** — 1) chavandoz; 2) sevikli.

Shamri[1] mal'un-u palid kesdi Husaynning boshini,
Ul qiyomatda ko'rarsiz Fotima ko'z yoshini,
Ham yetim qildi o'g'il-qiz, ham yana qardoshini,
Ham qarindosh-u urug', ham yana yo'ldoshini,
Ikki dunyoning gulidir ul Hasan birla Husayn.

Ul Husayn kirdi urushga bir Xudoni yod etib,
Shamri man'un kesdi boshin zulm ila bedod etib,
Ahli olam solishar dod bir Xudoni yod etib,
Eshitib buni Ali, ming nola-yu faryod etib,
Ikki dunyoning gulidir ul Hasan birla Husayn.

Gar Ali bo'lsa edi unda, berardi dodini,
Ul palidlar tutmagay erdi urushning otini,
Sherday o'kirgay — eshitgil bandaning faryodini,
Aytingiz dunyoda bu sirlarning bunyodini,
Ikki dunyoning gulidir ul Hasan birla Husayn.

Mustafoni kuydirib ham bag'rini biryon etib,
Ham Abu Bakr-u Umarning ko'zlarin giryon etib,
Ham yana Usmon, Alining aqlini hayron etib,
Bo'zlatib Maxtumqulini, bulbuli nolon etib,
Ikki dunyoning gulidir ul Hasan birla Husayn.

[1] **Shamr** — shahzoda Husaynni o'ldirgan qonxo'r.

MUHAMMAD MUSTAFO

(Va yana Maxtumquli alayhirrahmaning hazratimiz Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vassalam haqida ushbu muxammasni o'qiganlari)

Ey sifotingdan ochay so'z — har til uzra ming sano,
Anbiyolar shohi, toji farqi avliyo,
Din uning dini erur, gumrohlarga rahnamo,
Barchaning sendan umidi kelsa ul dor ul-qazo,
Osiy ummatga shafoat, ey Muhammad Mustafo!
Haq taolo zoti pokingni yaratmish toq etib,
Ma'siyat dardiga darmon qilguchi hoziq[1] tabib,
Chunki mazog'ul-basar[2] gulzorida sen andalib[3],
Mehr-u shafqat-la qiyomat kunida bo'lgay nasib,
Osiy ummatga shafoat, ey Muhammad Mustafo!

Ey rasul olamin, ey sayyidi xayrul-bashar[4],
Kim sening sha'ningga nozil bo'ldi ul shaqqul-qamar[5],
Kim seni inkor etar qasdan u kofirdir magar,
Bu g'aribi benavolar holiga ayla nazar,
Osiy ummatga shafoat, ey Muhammad Mustafo!

Hazrati Bu Bakri Siddiq erdi yori avvali,
Umari Xattob u odil muhtasiblar afzali,

---

[1] **Hoziq** — dono, bilimdon, mohir.

[2] **Mazog'ul-basar** — Qur'oni karim "Va-n-najm" surasi 17-18-oyatlariga ishora: "Me'roj kechasida (Payg'ambarning) ko'zi (o'ng-u so'lga) og'gani ham yo'q..."

[3] **Andalib** — bulbul.

[4] **Sayyidi xayrul-bashar** — yaxshi insonlarning ulug'i, rahnamosi.

[5] **Shaqqul-qamar** — oyning ikkiga bo'linishi. Ma'lumki, Muhammad alayhissalomning mo'jizalaridan biri barmoqlarining ishorasi bilan oyning ikkiga bo'linishidir.

So‘ngra Usmon — iikki nur sohibi-yu, so‘ngra Ali,
Hurmati haqqi senga sodiq o‘shal to‘rt kimsani,
Osiy ummatga shafoat, ey Muhammad Mustafo!

Shohin payg‘ambar ahlin, manbai lutfi karam,
Anbiyo-yu avliyoning barchasidan muhtaram,
Barcha olamga ilm — qoidayi din muntazam,
Xoki poying to‘tiyoyi diydayi Lavh-u Qalam,
Osiy ummatga shafoat, ey Muhammad Mustafo!

Ey Muhammad Mustafo, siz barchaga pusht-u panoh,
Nafsi sarkash dastidan qildim mudom ayb-u gunoh,
Oh, qiyomatda xarob hol bo‘lmasang sen xayrixoh,
Qayga borgayman meni sharmandayi namosiyoh[1],
Osiy ummatga shafoat, ey Muhammad Mustafo!

Sendan ortiq mehribonim yo‘q mening — bechoraman,
Egasiz itlar kabi nafsim uchun ovvoraman,
Bilmay olamda qilar ishimni bag‘ri poraman,
Ey Nabiyulloh, muruvvat ayla, yuzi qoraman,
Osiy ummatga shafoat, ey Muhammad Mustafo!

Yetti qat yer tegrasini ko‘rding o‘shal Me’roj shomi,
Qoba qavsayni av-adnoga[2] yetishdi maqdaming[3],
Ul kecha Ruh ul-amin[4] erdi-ku yor-u hamdaming,
Xoki poying ko‘zining nuridir Arshi a’zaming,
Osiy ummatga shafoat, ey Muhammad Mustafo!

Chorasiz Maxtumquli bo‘lmish gunoh domiga qul,
Qil o‘zing unga madad, ey sayyidi xatmi Rasul[5],

---

[1] **Nomasiyoh** — nomasi qora, ya’ni badnom, gunohkor.

[2] **Qoba qavsayni av-adno** — ikki yoy oralig‘i. Me’roj kechasida Olloh taolo va Muhammad alayhissalom oralaridagi yaqin masofani bildiradi.

[3] **Maqdam** — tashrif, buyurish, qadam qo‘yish.

[4] **Ruhul-amin** — Jabroil alayhissalom.

[5] **Xatmi Rasul** — payg‘ambarlarning oxirgisi, so‘nggisi.

Benavolarning duosini Xudo qilgay qabul,
Barcha ummat maqsadi bir siz tufayli hosil,
Osiy ummatga shafoat, ey Muhammad Mustafo!

DIYDOR BOR

Banda bo‘lsang, tut Haq amrin, tutmasang Jabbor bor,
To‘g‘ri yurgan bandalarga yaxshilik — diydor bor,
Kim yomonlik aylasa ham, bilguchi G‘affor bor,
Qilni qirqqa bo‘lgali Munkar, Nakir tayyor bor,
Bunda bir ozor bersang, unda ming ozor bor.

Ikki olamni yaratgan qodiri G‘affor Ahad,
Bir otingdir qulhuvalloh, biri Ollohul-samad,
Tur sahar, yod et Xudoni, erta turmoq qil odat,
Osiy ummatlarga bergil, ey Muhammad, sen madad,
Azroildir, Jabroildir, Jallod-u Sattor bor.

Bir kuni Dajjol chiqar — udir qiyomatdan nishon,
Kimsalar yeldi-yugurdi, bo‘ldi kimning bag‘ri qon,
Bexabar Haq amridan ham bandasi ko‘p begumon,
Benamozning hamdamidir ul ilon birlan chayon,
Unda olis yo‘l, ulug‘ tog‘lar, yana cho‘llar bor.

Yetti do‘zaxdan u payg‘ambar otasin olmadi,
Shohlarda adl-u insof, elda rostlik qolmadi,
Haq namozxon olimini do‘zax ichra solmadi,
Benamoz qullar esa jannatga noil bo‘lmadi,
Qildan ingichka, qilichdan tez necha yo‘llar bor.

Nechalar andisha, o‘yda, nechalar iymontalab,
Nechalar kibr-u havoda mol-u dunyo to‘plab,
Benamozni o‘tkazarlar mingta yo‘ldan qiynab,
Sovurarlar har tomonga jismini kul aylab,
Benamoz qullar uchun zaqqum kabi suvlar bor.

Benamozning og‘zidan har dam yiring-u qon oqar,
Ham ilonlar tashlanib, qurt-u chumolilar chaqar,
Orqadan kelsa muvakkil[1], joyidir do‘zax saqar,
Benamozlar har tomonga termulib, hayron boqar,
Benamoz bandaga otashdan libos — to‘nlar bor.

Benamoz chekkan azobga tog‘ bilan toshlar erir,
Benamoz suv so‘rasa, suv o‘rniga zaqqum berar,
Orqadan kelsa muvakkil, do‘zaxga sudrab kelar,
Benamoz bero‘zalarning holi unda bilinar,
Benamoz qulga yiring omuxta zaqqumlar bor.

Bog‘lab oyoq-qo‘lini, unga kafan muzdan bichar,
Benamoz qullar uyoqda zahr-u zaqqumlar ichar,
Kimda farzand bo‘lmasa, o‘lgan bilan oti o‘char,
Ming azobdir boshlarida nechalar har yon kechar,
Benamoz qulga g‘azab etguvchi ul Qahhor bor.

Sen Xudoning qudratin ko‘r — yetti do‘zax bor emish,
Benamozlar aylagay faryod: “Xudoyim, bu ne ish?!”
Kim namozxon bo‘lsa, muyassar unga sakkiz bihisht,
Qoshida g‘ilmon-u hurlarning mudom nurdan yemish,
Bil, namozxon bandaga sakkiz bihisht tayyor bor.

So‘zlasam, Maxtumquli, so‘zim ajoyib dur bo‘lar,
Banda topsa Haq rizosini, bihishtda gul bo‘lar,
Rost yurgan bandalar Arsh ustida bulbul bo‘lar,
Benamoz fosiq Xudoning oldida munkir bo‘lar,
O‘tli gurzi-yu kosov tutgan ikki ayyor bor.

[1] **Muvakkil** — vakolat beruvchi, bir ishga tayin qiluvchi.

O‘ZI BILAR

Ul sirotga eltadirlar, sen unga bergil xabar,
Avvalo ro‘za tutib o‘ltirmagan savol so‘rar,
Tong namoz tayyordir avval, bu kalit qo‘lda turar,
Unda peshin yig‘lab aytar: “Ne gunohim bor erur?”
Bandaning holi xarobdir, ne qilar, o‘zi bilar.

Ul namoz ko‘nglingda tursin, ham senga darkordir,
Benamozlar ul Xudo diydoriga ko‘p zordir,
Benamoz banda esang, bandaliging bekordir,
Ul namozxon bandaga sakkiz bihisht tayyordir,
Bandani qodir Xudoyim ne qilar, o‘zi bilar.

Ul namozxon bandani o‘ziga do‘st tutdi Rasul,
Har savob etsa, uni qildi Xudoyim ham qabul,
Ul sirotdan o‘tganida tortadi ko‘ngli yengil,
Saf bo‘lib ummat tuzilsa, noma chapdan kelsa ul,
Bandaning qilmish-u holin ul Xudo o‘zi bilar.

Ul namozxon bandalarga kiydirarlar tojni,
Bihisht ichra kirgizib, qo‘lga berar me’rojni,
Benamoz bandani ko‘r — do‘zaxda noilojni,
Dargohida qora yuzli, benamoz muhtojni,
Bandaning holi xarob, ul Xudo o‘zi bilar.

Ber namozga dilnikim, har kimsa beixlosdir,
O‘g‘lin o‘n to‘rt yoshida bergan Sa’di Vaqqosdir[1],
Kim namozxon bo‘lsa, barcha aybidan xalosdir,
Benamoz qullarga Haq diydori bir havasdir,
Bandaning ne yozig‘i bo‘lsa, Xudo o‘zi bilar.

So‘zlagay Maxtumquli, so‘zin bayon der erdi-ya,
Benamoz qullarni, Tangrim, yuzini qonga bo‘ya,

[1] **Sa’d Vaqqos** — Muhammad payg‘ambarning sahobalaridan, lashkarboshi Sa’d ibn Abu Vaqqos (vafoti — 670).

Aytadi Haq zikrini sulton Uvays — er avliyo,
Kim sitam, zulm etsa, bo'lgaydir o'shal yuzi qaro,
Bandaning holi xarobdir, qilmishin o'zi bilar.

BESH NAMOZ

(Bu Maxtumquli alayhirahmaning
Haq taolo buyrug'i besh vaqt namoz
deb aytgani)

Haq taolo buyurgan bandasiga besh namoz,
Bandaning ehtiyoti bir kundagi besh namoz.

Haq taolo aytgani, bandasining tutgani,
Har kundagi etgani bir kundagi besh namoz.

Haq Rasulning ummati, ummati qilgan sunnati,
Eranlarning izzati bir kundagi besh namoz.

Haq Rasulning so'zlari, lomakonda yuzlari,
Har kundagi so'zlari bir kundagi besh namoz.

Namoz qilgan bandalar qachon sirotga yetar,
Xuddi yashinday o'tar, bir kundagi besh namoz.

Namoz qilsang atodir, gunoh qilsang xatodir,
Tilda mudom sanodir bir kundagi besh namoz.

Valiylarning madadi, ko'ngillarning quvvati,
Ikki jahon davlati bir kundagi besh namoz.

Olimlarning sirdoshi, oqillarning qo'ldoshi,
Aziz jonning qo'ldoshi bir kundagi besh namoz.

Turkistonning Ahmadi, to'qson yerda suhbati,
Haqning unga sunnati bir kundagi besh namoz.

Qilsin manga ulug'lik Sulton Bobo Ayn ul-mulk,
Haq qoshida sevinsin bir kundagi besh namoz.

Namozni ustun qilsa, iymon bo'lar mustahkam,
Namoz — Sirot ko'prigi, bir kundagi besh namoz.

Namoz — Haqning farmoni, qilsa ortar iymoni,
Qur'on ismi bayoni bir kundagi besh namoz.

Maxtum, bayon qil namoz, gunohlaring bo'lgay oz,
Haq qoshida ming niyoz bir kundagi besh namoz.

MA'RUFIY[1] VA MAXTUMQULI AYTISHUVI

Ma'rufiy:
— Komil bo'lsang, seni ko'rayin sinab,
Bizga yetti bilan beshdan ber xabar.
Uch boshli, bir ko'zli, ellik oyoqli,
Haq o'zi yaratgan qushdan ber xabar.

Maxtumquli:
— Ma'rufiy, sen bizdan so'rasang javob,
Yetti — iymon, islom beshidir, bilsang.
Uch boshli, bir ko'zli, ellik oyoqli
Jismimiz ichra jon qushidir, bilsang.

Ma'rufiy:
— Bilasanmi, jannat qandayin yerda?
Qaysi kun oy tutar yuziga parda?
Olti ming olti yuz yigirma to'rtda,
Hisob aylab, avval-boshdan ber xabar.

[1] **Ma'rufiy** — turkman mumtoz shoiri (1735–1805). Asosan Xiva va Urganchda yashagan. Lirik she'rlar bilan birga "Sayfulmulk — Madhaljamol", "Davlatyor", "Yusuf-Ahmad", "Alibek-Bolibek" nomli dostonlar ham yozgan.

Maxtumquli:
— Jannat Arsh ustida — oliy bir yerda,
Qiyomatda tutar oy yuzga parda,
Olti ming olti yuz yigirma to'rtda
Vaqt bo'ladi avval-boshidir, bilsang.

Ma'rufiy:
Bir harfimda to'rt yuz hisobim qaysi?
So'yla, oltmish ikki javobim qaysi?
Gunohim qancha-yu savobim qaysi?
Yaqindan so'rama, tashdan ber xabar.

Maxtumquli:
— Bir harfda to'rt yuz — ko'p nozik hisobi,
Marhumningdir oltmish ikki javobi,
Gunohi ko'p, Haq farmoni savobi,
Jahannamiy bo'lgan tashidir, bilsang.

Ma'rufiy:
— O'n sakkiz ming olam xoni nechadir?
Bir yillik sajdaning soni nechadir?
Yarog'i to'qqizdir, to'ni nechadir?
Bir qirqdan, bir to'rtdan, uchdan ber xabar.

Maxtumquli:
— Olloh o'n sakkiz ming olamning xoni,
Yillik sajda qirq ming sakkiz yuz soni,
To'qqiz falak mavjud, yer yuz ming to'ni,
Chiltan, choryor, vitr uchidir, bilsang.

Ma'rufiy:
— U kimdirki, voz kechmadi gunohdan?
U kimdirki, yuz o'girdi sanodan?
Necha qo'yib yuborildi samodan –
Kofir uchun yoqqan toshi — ber xabar?

Maxtumquli:
— Shayton lain voz kechmadi gunohdan,
Yo'ldan ozgan yuz o'girdi sanodan,
Tayron abobillar indi samodan,
Kofir uchun yoqqan toshidir bilsang.

Ma'rufiy:
— Osmon bundan necha yillik manzildir?
Bizdan tuban ne maxluqdir, ne eldir?
Dunyoning kengligi necha yil yo'ldir?
Hamisha barhayot loshdan ber xabar.
Maxtumquli:
— Osmon bundan besh yuz yillik manzildir,
Bizdan tuban shayton, jin, pari eldir,
Dunyoning kengligi besh yuz yil yo'ldir,
Luqmonning barhayot loshidir, bilsang.

Ma'rufiy:
— U kimdirki, daryo yog'ar boshiga,
Nam tegmaydi lekin tegra-tashiga
Kim ishorat etdi Noqa[1] toshiga,
Otadan, onadan, beshdan ber xabar.

Maxtumquli:
— Jabroilning daryo inar boshiga,
Nam tegmaydi lekin tegra-tashiga,
Solih ishorat etdi Noqa toshiga,
Ota-ona, qo'chqor, tayoq beshidir bilsang.

Ma'rufiy:
— Qaysi daraxtning to'rt ming bo'lar soyasi?
Tog'i o'n besh, yigirma bir qoyasi?
U ne taxtki, yetmish mingdir poyasi?
Yana to'rt ko'zli bir boshdan ber xabar.

---

[1] **Noqa** — moya, ona tuya. Bu yerda Solih payg'ambarning mo'jiza bilan tog'ning toshidan tuya chiqarishi haqidagi rivoyat ko'zda tutilmoqda.

Maxtumquli:
— Shajarat ul-aynning to‘rt ming soyasi,
Farz — o‘n besh, yigirma bir vojib — qoyasi,
Sulaymon taxtin yetmish ming poyasi,
To‘rt ko‘zli Azroil boshidir, bilsang.

Ma’rufiy:
— Qay hayvon to‘rt ming bosh,
sakkiz ming shoxli?
Qanday saroy mo‘min uchun yasog‘li?
Ma’rufiy der: o‘yla, ishlat aqlni,
Ta’qib etib qo‘ymas kuchdan ber xabar.

Maxtumquli:
— Yer ko‘targan ho‘kiz[1] ming-ming,
bosh, shoxli,
Jannat uyi mo‘min uchun yasog‘li,
Maxtumquli der: ko‘rsaydim aqlni,
Ta’qib etish ajal ishidir, bilsang.

[1] Bu yerda olamning yaratilishi haqidagi qadimiy tasavvurlarga ishora qilinmoqda. Unga ko‘ra, yer osti suvdan iborat bo‘lib, uni ulkan baliqning ustidagi ho‘kiz ko‘tarib turadi.

MUHAMMAD MUSTAFO

Ul chirog'i purziyo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Barchaga pushti-panoh bo'lgan Muhammad Mustafo,
Gavhari qimmatbaho bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatiga rahnamo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Doimo sohibazo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

"Ummatim, — deydi, —
tanimdan ketdi barcha quvvatim,
Sen ravo qilgil, Ilohi, ummatimga shafqatim,
Ummatimga baxshida har qancha taqvo-toatim,
Ummatim qayg'usi tilda bo'ldi zikr-u hasratim", —
Derdi ummatga davo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Ummatimning yo'liga bo'lsin mening jonim fido,
Ruhi pokimga bari ummatni qildim oshno,
Ummatimni yorlaqab, afv et qiyomatda Xudo,
Nuri pokimni bari ummatga qilgaysan ravo", —
Derdi ummatga shifo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

"Sen ketarda bandalarni avliyo qilgil, Xudo!
Barcha ummatni gunohdan begunoh qilgil, Xudo!
Barchani iymon nuriga oshno qilgil, Xudo!
Ummatimni sakkiz jannatda jo qilgil, Xudo!", —
Qo'l ochib, sohibduo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Men duo qildim bu ummat haqqiga — ayla qabul,
Hech birini Sen qiyomat tongida qilma malul,
Ummatimning barchasini jannat ichra jo qil", —
Barcha ummat haqqiga tinmay duo qildi Rasul,
Ummatiga jonfido bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

"Ummatimning barchasini qil O'zingdan bahravar", —
Ko'zlaridan doimo ummat uchun yoshlar oqar, —
Etma do'zaxga giriftor ummatimni, qil nazar,
Ummatimni qil yana shod, baxtiyor vaqti safar", —
Ummatim deya fano bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

"Sen ketarda ummatim qo'liga bergin kimyo,
Ummatimni asra shayton makridan Sen doimo,
Barcha ummatga qiyomatda O'zingsan peshvo", —
Qo'l ochib, yig'lab duo aylar edi ul Mustafo,
Ummatiga rahnamo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

"Ummatimning qayg'usidan jo'sh urar tomirda qon,
Et safar chog'ida rahm —
ummatlarimni tut omon,
Sen bag'ishla barcha ummatga karam aylab imon,
Qil ziyoda ummatim xayr-u savobin begumon", —
Oxiratdan bir sado bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

"Ummatimning boshini mahshar kuni xam qilma Sen,
Barcha ummat haqqiga tinmay duo qildim-ku men,
Boq, alifdek qomatim ummat g'amida bo'ldi nun,
Ayla oson ummatimning ishlarini Sen u kun,
Dard-u g'amga mubtalo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

"Ey Xudo, ayla karam mahsharda Jabroil haqi,
Senga dargohda yaqin bo'lgan u Mikoil haqi,
Men duolar ayladim Azroil, Isrofil haqi,
Boshini tig' ostiga qo'ygan u Ismoil haqi", —
Koni sir birla hayo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Sen qiyomat kuni qilma ummatimni sharmisor,
Hech birini aylama kuydirguchi o'tga duchor,
Ummatimga sen muruvvat ayla,
ey Parvardigor,
Rahmating nurini ayla barcha ummatga nisor", —
Bandaga nurdan ato bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatni deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Ey Isoning nuri haqqi, rahmat etgil bandani,
Yo'lda qolgan ahli isyon, osiy-u sharmandani,
Men duo qildim jami badfe'l-u yomon — gandani,
Joyini jannatda qil mahshar kuni har bandani", —
Doimo koni saxo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Tanlagan haq yo'lni barcha anbiyonnig hurmati,
Haqqa Tur tog'ida arz etgan Musoning hurmati,
Nuq bilan ul dam Xalili bosafoning hurmati,
Arrani boshiga qo'ygan Zikriyoning hurmati", —
Ummatiga mehribon bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Chiqmagan boshi azobdan Ayyubi dono qani?
Jon ato etgan o'likka hazrati Iso qani?
So'ylagan Tur tog'ida rozini ul Muso qani?
Ummati qayg'usini chekkan Rasulullo qani?
Gavhari qimmatbaho bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Ummatim deya Mustafo aylar edi oh-u fig‘on,
O‘z tabarruk bag‘rini ummatlar uchun qildi qon,
Ummatim deb jismidan oxir damida chiqdi jon,
Bo‘lma g‘ofil ummat-o, bo‘lg‘ay nasib jannat makon,
Oqibat yer ichra jo bo‘lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo‘lgan Muhammad Mustafo.

Dardi bedarmona uchrabman — O‘zing bo‘lgil tabib,
Barcha mo‘minlarga rahmat nuridan ayla nasib,
Yurma g‘aflatda — ajal ta’qib etar misli raqib,
Sen muruvvat aylagil ummatga erta, yo Habib,
Haq nuridan kimyo bo‘lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo‘lgan Muhammad Mustafo.

Yaxshi bo‘lsang, qildi yo‘l ozig‘ini kimyo o‘lim,
Qildi oxir kim yomon bo‘lsa, uni rasvo o‘lim,
Qancha mard erlarni yer ostiga qildi jo o‘lim,
Mustafo umrini qildi qisqa bedavo o‘lim,
Oxiratda rahnamo bo‘lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo‘lgan Muhammad Mustafo.

“Bebaho gavharni Sen yuzi qaro ummatga ber,
Rahmatingni, ey Xudo, koni gunoh ummatga ber,
Sakkiz jannatni giriftori balo ummatga ber,
Soyayi Arshing ishi ayb-u xato ummatga ber”, —
Osiy ummatga davo bo‘lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo‘lgan Muhammad Mustafo.

“Yetti do‘zaxni o‘shal kun ummatimdan qil uzoq,
Ummatimni rahmating nuriga g‘arq ayla u chog‘,
Qil g‘ururni banda bo‘lsang tark —
etar ko‘nglingni dog‘,
To‘ldir ummat ko‘nglin ishqing o‘tidan boshdan-oyoq”,
Bandayi xosi Xudo bo‘lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo‘lgan Muhammad Mustafo.

Tong-saharlar uyg'onib, ummatni u qildi duo:
"Ummatimning qabrini ko'mgin nuringga, ey Xudo!
Ruhi Bubakru Umar,
Usmon Aliyi Murtazo,
Ey bahaqki ruhi poki ul Husayni Karbalo!" —
Dard-u g'amga oshno bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Ummatim deb har saharlar tortar erdi oh-u voh,
Ummatimni rahmat ayla oxirat kunida to,
Dardiga xos ummmatining sen O'zing ayla davo,
Rahmatingni ummatimga qil qiyomatda ravo", —
Bandalarga bebaho bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Ey ruhi poking haqi, bor ummatimni rahmat et,
Xasta-yu hasratzada ummatni ahli jannat et,
Ey Muhammad, barcha ummatingga erta shafqat et,
Yaxshilar birla mudom ummatni sen hamsuhbat et", —
Ruhi poki Arsh aro bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Misli Yahyo tinmayin sen yig'lagil shom-u sahar,
Qil gunohlarni, Xudoyo, Sen vujudimdan badar,
Ummatim deb Mustafo yosh to'kdi qon aylab jigar:
Asrasang ummatni do'zaxdan qiyomatda — yetar,
Bu zamin ustida shoh bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Banda, har shom-u sahar turgil, Xudoni yod et,
Chok etib yoqangni yig'la — nola-yu faryod et,
Ey Xudoyo, xasta-yu g'amgin ko'ngilni shod et,
Ul qiyomat qo'rquvidan bandani ozod et,
Xoki poyi to'tiyo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatin deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

Bo'lma qul nafs-u havoga — u kishining dushmani,
Qilma ko'p kibr-u havo, asling erur obi mani(y)[1],
"Ummatim ko'nglini qil, —
der Mustafo, — nur maskani",
Mustafo yo'qlar qiyomat kuni, ey Maxtum, sani,
Oxiratda rahnamo bo'lgan Muhammad Mustafo,
Ummatim deya ado bo'lgan Muhammad Mustafo.

TILLARDA GO'YO

Olam sun'ingdan[2] mavjud, vujudga kelgan ashyo,
Ashyo hamdingga zokir, zikring tillarda go'yo[3].

Avvalingga yo'q g'oyat, oxiring benihoyat,
Bu olamga kifoyat amring bilandir barpo.

Shar'ing olamga oshkor, hukming jahonga joriy,
Amringga shay zamin-u osmonda ne muhayyo.

Kas-u nokas, zeb-bezak, shohidi olami Haq,
Sun'ing-la bo'ldi beshak, tubanlik qilding a'lo.

Falak aylangan ko'yi, kezar doim bosh quyi,
Ashyo Majnundir go'yo, visoling shavqi Laylo.

Men ojiz-u bad nafs-la, bulg'anganman yuz qatla,
Har isming bir sifat-la, har toliba tajallo.

Maxtumquli, ko'p g'amim, havo qilar nasim — shum,
Xastaman, bo'lib mahrum, qoldim-da men vovaylo.

---

[1] **Obi maniy** — sperma, ma'niy.

[2] **Sun'** — yaratish; yaratilish.

[3] **Go'yo** — so'zlovchi, izhor qiluvchi.

QISMAT

Asli bor fitna-fasod qismatda yozig'liq bo'lur,
Kim bu suratdan qutulmas, qalb ko'zi qolgusi ko'r.

Hech birov ogoh emasdir hech birovning holidan,
Qandayin olgum xabar xokimni gar qilsa xamir.

Ey ko'zimning nuri, xavf ayla qiyomat kunidan,
Bir umrlik toating Haq oldida bo'lgay haqir.

Mo'min-u kofir sening dargohingga bosh urar,
Pardalarni bunda yirtma, yo Latif-u[1] yo Xabir![2]

Qo'lini tut, Ahmado, Maxtumquli yo'l ustida,
Yo Abulqosim[3], jami ummatlariga dastgir![4]

BO'LAR EMISH

(Bu Maxtumquli alayhirrahmaning kashandalikning yomonligini namuna qilib ko'rsatgani)

Qur'on ichra xabar berdi, biling, do'stlar,
"Kashandaning joyi do'zax bo'lar emish".

Bu dunyoda odat qilsa har kim buni,
O'lgandan so'ng joyi do'zax bo'lar emish.
Qur'on ichra xabar berdi Parvardigor,
Munkir kelgan bunga gumroh bo'lar emish.

---

[1] **Latif** — Olloh taoloning go'zal ismlaridan biri: bandalariga sezdirmay o'z lutf-u ehsonini yetkazib beruvchi.

[2] **Xabir** — hamma maxfiy va oshkora ishlardan xabardor.

[3] **Abulqosim** — Muhammad alayhissalom.

[4] **Dastgir** — madadkor.

Bir kun tutun odamlarni o‘rab olar,
Bani bashar chang-u to‘zon ichra qolar,
“Duxon” surasida shunday so‘zlar bo‘lar:
“Kashandaning joyi do‘zax bo‘lar emish”.

Bu so‘zlarga munkir kelar johil — ahmoq,
Ishonmasa, ul surayi “Duxon”ga boq,
Ul surada nima degan nodon, ahmoq,
Kashandaning joyi do‘zax bo‘lar emish.

Rasul der: “Kashanda menga ummat emas,
Xudo bezor, men ham bezor, u bir nokas,
Xudoga qul, Muhammadga ummat emas,
Kashandaning joyi do‘zax bo‘lar emish.

Kim chekishni agar halol desa, kofir,
Xotin-taloq, halol fatvo bersa kofir,
Bu so‘zlarga oyat-hadis guvoh erur:
“Kashandaning joyi do‘zax bo‘lar emish”.

Rasul dedi: “Qiyomatdan bu alomat,
Nos-u chilim odat qilar barcha ummat,
Barchalari shunday gunoh etgay odat,
Shuning uchun joyi do‘zax bo‘lar emish.

Birov aytsa:
“Nos, chilimning gunohi yo‘q”,
Ummat emas, bunday odam bo‘lar maxluq,
Ey azizlar, bundaylardan bo‘ling, uzoq,
Kashandaning joyi do‘zax bo‘lar emish.

Rasul dedi: “Hazar aylang kashandadan,
Yaqinlashmang, balo yuqar u bandadan,
O‘zi tortar jazosin bu zormandadan,
Yuzin ko‘rmang, joyi do‘zax bo‘lar emish.

Maxtumquli, yomondan qoch bo‘lsa imkon,
Yomonlardan yetar chunki doim ziyon,
Yomonga qo‘shni ham bo‘lmang siz hech qachon,
Yomonlarning joyi do‘zax bo‘lar emish.

NAMOZ

Kishi bomdodni tark etsa biror bor,
Kalomi Haq bo‘lur albatta bezor.

Agar peshin namozini unutgay,
Malaklar unga ko‘p ta’nalar etgay.

Qazo qilsa namozi asr, ey dil,
Muhammad ham bo‘lur undan xafa, bil.

Namozi shomni tark etsa bir bor,
Bo‘lar hattoki iymoni-da bezor.

Qazo qilsa atay xuftonni kim gar,
Xudo bezor bu bandadan muqarrar.

Namozi vitrni kim qilmasa, bas,
Muhammad ummati, Haqning qulimas.

Yana bo‘lgay choryor ko‘ngli malul,
Xudo dargohiga yo‘l topmagay ul.

Zamin-u osmon aytur: “Xudoyo,
Bu mal’un jonini olgin, iloyo!”

Va yo amr aylagilkim, biz yutaylik,
Uning jismini ham nobud etaylik.

Ki Arsh-u Kursi ham bezor bo‘lgay,
Odamlarning ichinda xor bo‘lgay.

Jami yaxshi musulmonlar to‘kar yosh,
Namozsizning ko‘zi nam bo‘lmagay hech.

Yig‘ilgay barcha mo‘minlar machitda,
Namozsizlar topilmas unda bitta.

Namozi yo‘qni ta’rif qilsa bo‘lmas,
Salomiga alik ham olsa bo‘lmas.

Hazar qilmoq kerak shum benamozdan,
Xatar kelgusi har zum benamozdan.

Namozsizdan lahad ham dod aylar,
Jahannam nola-yu faryod aylar.

Nesin aytay, azizlar, benamozni(ng),
Olib bo‘lmas agarchi bersa qizni.

Ularga qiz berilmas ham olinmas,
Birov unga taomin ham ilinmas.

Namozxonga birov bersa agar qiz,
Topar Haq rahmatidan fayz u har kez.

Vafo yo‘q benamozlarda, hayo yo‘q,
Saxo yo‘q benamozlarda, safo yo‘q.

Namozi yo‘q kishining dini bo‘lmas,
Uning so‘zlarining hech chini bo‘lmas.

Qochinglar benamozlar suhbatindan,
Hazar aylang umrning ofatindan.

Bo‘lishgay benamozlar shum, murdor,
Janoza o‘qimang o‘lishsa zinhor.

Borib hol so‘ramang bemor bo‘lsa,
Va yo yotib to‘shakka zor bo‘lsa.

Ularning qoshidan qoching hamisha,
Xazonni boshidan soching hamisha.

Xudoyo, benamozdan asra bizni,
Shariatga tutashtir yo‘limizni.

Kamina Maxtumqulingni aylagil shod,
Qilib ikki jahonda g‘amdan ozod.

Uning har so‘zlaridir shahd-u shakkar,
Qiyomat kunda, yo Rab, qilma muztar.

MUNDARIJA

Turkiy xalqlarning sevimli shoiri.
(Ergash Ochilov).....3

SHE'RLAR

Elingga baxsh ayla.....27
Bo'ylaringga.....29
Yoqqancha bo'lmas.....30
Ayrilma.....31
Yor aylar.....32
Fosh etar seni.....32
Muhtoj aylama.....33
Ko'ring.....34
Judo etmasin.....36
Mol yaxshi.....37
Yot bo'lar.....38
Maxtumquli va
Durdi shoir aytishuvi.....39
Turkmanning.....41
Bog'lar, hey!.....42
Bu dardni.....43
Fig'on qolmagay.....44
Toshni sindirar.....45
Qarilikdir, azizlar.....46
Yurging keladi!.....47
Guli bo'lmasa.....48
Molga qaramas.....49
Tuz ham bo'lmasa.....51
Moliga yetmas.....52
Pora-poradir.....52
Bo'larsan.....53
Dardli dilbar.....55
Dard bo'ldi.....55
Dilbarning.....56
Tepa nima, tuz nima?.....58
Izlamayin bo'larmi?.....59
Darig' tutmas oshini.....59
Maydon uchrasa.....60
Joniga yetmas.....61
Uzoq tutgil o'zingni.....61
Ayrildim.....62
Oshiq bo'lmisham.....63
Ko'zim tushdi.....65
Bo'ldim endi.....66
Hayrondadir, hayronda.....67
Ko'ngil.....68
Jon chiqar.....69
Navro'zdan seni.....70
Uyaladi-ya.....71
Karam istarman.....72
Elni ko'zlar.....73
Otcha bo'lmas.....74
O'yinchi dunyo.....75
Har yona.....76
Yor kerakdir.....77
Ichmayin jomim.....78
Oldi-orti bilinmas.....79
To'kar bo'ldik yoshimiz.....80
Bosh ustiga.....81
Bevafo dunyo.....82
Gul bo'lgil.....83

Uchdim, azizlar 84
Holimga mening 85
Zamonidir 86
Qoldi 86
Mubtalo qildi 88
Ketib boradir 89
O'tib boradir 90
Bir kun 91
Hisor tog'indadir 92
Bir non keltirdi 93
Qolibman 93
Aylading meni 94
Kulohli keldi 95
Olgan yaxshidir 96
Yoshim mening 96
Holim mening 97
Do'stlarim 98
Larzonadir 99
Xor qildi 100
Bu kun 101
Dunyo, dastingdan 102
Qora ko'zlaring 102
Ayt 103
Bilmadim 104
Majnuni bordir 105
Izlarman 106
Bo'lmas, azizlar 107
Yeldim de 108
Joni bo'lmasa 109
Bilinar 110
Gurgonning 111
So'zi o'tar joningdan 111
Hijron 112
Go'zal "Sherg'ozi" 113
Sel bilan-ey 114
Ish bo'lmas 115
Obod qolsin 116
Ayrilsa 116
O'tar dunyo bu 118
Nori dilbarning 119
Belga mehmondir 120
O'zingdan 120
So'lgan kabidir 121
Suymoq bilan-ey 122
Kechib borar 123
Sin bilan 124
Anori bo'lmasa 126
Mardcha bo'lmas 126
Savob uchun kuymanaver 127
Qiymas ko'zim 128
Qish bo'lar 129
Gul yuzli yor o'ynashar 129
Mengli yorimdan 130
Loshdan ayrilsa 131
Gulga o'xshar 132
Falakning 133
Bahosida bilinar 135
O'tar-ketar 135
Kulgan bormi? 136
Berma falakka 137
Bormi, azizlar? 138
Yig'larman 139
Davlati — moli bo'lmasa 140
Yolg'izning 140

Bevafolarga.. 141
Er yonida bilinar 142
Jonon bo'larmi? 143
Nomus-ori kerakdir 144
Fosh bo'lmasa 144
Poyoni bo'lmas 145
Bo'la-bo'la ketarsan 147
Nega yotibsan? 148
Yetarsan 148
Shohlar qolmaslar.....149
O'lmasdan burun.....151
Yetmayin qolmas 152
O'tajaksan 152
Tish ketsa 153
Hijron qaysi, bilmadim 154
Fe'li bandaning 155
Toshlar bilan 156
Ucholmayman, naylayin.....157
Jo'shga yetding 158
Bir-biriga bezanib 160
Ketar 161
Haq manzil etdi jonga 162
Bir soat bilan 163
El bo'lmas 164
Yo'ldoshing qolar 164
Ketmading, dunyo 165
Chiqa bilmassan 166
Etar 167
Kechar, azizlar 168
Jon qolmagay 169
Alif qadding dol bo'lar 170
Dunyodir bu 171
G'am bilan 172
Chog'dir bu chog'lar 173
Havasidir 174
Nimasan? 175
Ko'rdingmi? 176
Beklar 178
Yelmish bu dunyo 178
Ne foyda? 179
Dard yig'lar 180
Yo'li yaxshidir 180
Amal yor bo'lur 181
Dardi dilim so'rmagan 182
Eldan uyalmoq 183
Ne qilay?.....183
Qarorsiz erdan.....184
Suhbat yaxshidir.....185
Ne bilsin? 186
Qo'lda bori bo'lmasa 187
Ehson qaysi, bilinmas 188
To'ka boshladi 189
Muruvvat yaxshi.....190
Ikki bo'lsa ayoli 190
Oy-kuningiz botmoqqa 191
Qocha boshladi 192
Solar qushin anglamas.....194
Ot yonida bilinar.....195
Yurgulik bo'ldi.....196
Nuqsonga kelgay.....196
Yaxshidir.....198
Oti kerak.....199
Raftoridir 199
Zo'r bo'lar.....200

Bosh bo'lmang.....202
Sevaman seni.....203
Yorning yaxshisin 205
Foniy jahon kerakmas..... 206
Kelgan-da bordir 207
Kor bilan 208
Badnom bo'lur 209
Olama belgilidir 210
Yuz jon, ey do'st 210
Ketdi yo'q joyga 211
Otamning 212
Yuraging qon ichinda 213
To'lib o'tdi 214
Bir necha misol 215
Dushmandir-dushman 217
Ko'ngil jo'shindadir 218
Biz sari 219
Kajdir, azizlar 220
To'kib boradir 221
Ot istarman 222
Giryon ayladi.....223
Yomg'ir yog'dir, Sultonim! 224
Amir bo'ladi 225
Yuz tutsang 226
Bosh tikar 227
So'ziga yetmas 227
Ko'rilmagan joyda 228
Xabar, ey do'st 229
Gumon ko'rinar 230
Ko'charsan 231
Qalandar bilan 232
Ko'zga mehmondir 233
Iqbol bo'lmadi 234
Davron topilmas 234
Ko'ngil yotmas hech 235
Boqa-boqa ketarsan 236
Kelmasmi? 237
Yig'larlar 238
Yot yaxshi 239
Or bilan 240
Ne ish kelar boshimizga? 241
Kechib boradir 242
Odamzod 243
Qora rang bo'lar 244
Barbod ko'rinar 245
To'n kerak 246
Oyning yaxshisi 247
Jo'sh kelsa 249
Ko'z bilan 250
Mehrob qaysi, bilmadim 251
Kezmoqchi bo'ldim 252
Yig'lab kechar holimga 253
Bular kelmadi 254
Bo'ldim giryona 255
Qadrin na bilsin 256
Topmassan 258
Ketuvchi bo'lma 258
Sel qolmas 263
Shaylamayinmi?.....264
So'zlarim 264
Vayron ayladi 265
Tushibsan 265
Oy bo'ldi 266
Yuzingdan 268

To‘g‘risi 268
Ko‘kdan inmas, azizlar 270
Yo Olloh 271
Yondirar 272
G‘iybatchi 272
Kashanda 274
Ey noskash 275
Nelar ko‘rinar? 276
Tushiga yetmas 277
To‘nli ko‘rinar 278
To‘n topilmasa 279
Go‘klang 280
Ko‘rilsin endi 281
O‘g‘lim — Ozodim 282
Qolmas-o 284
Baxtim qoradir 285
Uyg‘onmas 287
So‘libdi fig‘on bilan 288
Armonim qoldi 288
Bilmagan erdan 289
Fattoh 290
Davron kelmadi 291
Yutib boradir 293
Jafodan o‘zga 293
Tong otmasdan burun 294
Tuzatmak bilan 296
Ketmasmish 296
O‘tib boradir 297
Ot qolmadi 299
Oz aylading 300
To‘zidi 301
Balo bo‘ldi 302
Surdi-da bordi 302
Boradir 303
Olar bo‘lding 303
Tuman qolmagay 304
Kelib tushdi 305
Yetishsa 306
Kelar 306
Do‘kon ko‘rinar 308
Elingni 309
Mard yigitlar 310
Naylayin 310
Yoshlar ichinda 311
Zamon bo‘lmadi 312
El kechar 313
So‘z ma’nisin bilmaguncha 314
Takabburlik aylar 315
Yo‘lini bilmas 317
Dard nadir 318
Jahon o‘rtanar 318
Kerakdir 319
Tuman ketmas 321
Yongan bormi? 322
Bu zamonda 324
Tuysa.... 325
Keza boshladi 327
Ketib boradir 328
Bosh yaxshi 329
To olguncha ko‘zini 330
Inson duch kelsa 332
Yor bo‘lmagil 332
Bunyod bilan 333
Yo‘ldosh bo‘lgan 334

Lola keltirmish 335
Fosh bo'lmasin 335
Ma'ni bilmas yoshinda 337
Jon istar 338
Mard bo'lmas 339
Bizga ravona..... 340
Hindistonda xayolim 341
Nogahon firoq 342
Tavba ayladi..... 343
Boshimdan..... 344
Go'zalsan..... 345
Bu ishni 346
Ellardan aylandi 347
Bollar maskani 348
Yig'lar holimga..... 349
Yil bilan 350
Ko'ngildir vayron 351
Ozodim qani? 352
Omonga kelar 353
El ko'zlar 355
Qulog'in tutmas 356
Hushdan ayrildi 357
Boshimizga 358
Abdulla 359
Oxirzamona 360
To'n bo'lsa 363
Shol topsa 363
Ketar 365
Bunda, chilimkash 366
Dur sochgandek 367
Otga o'xshar 368
Tog' sanar 369
Yarashmas 370
Boshidan ma'lum 371
Paydo qilar 372
Kel, ko'nglim 372
Mard bilan-ey 374
Yor bo'ldi 375
El bilan-ey! 377
Unutar yo'lini 378
Tuta boshladi 379
Kumush bilan 380
Yuz bo'lar 381
Yondirdi dardi meni 383
Hukmli 384
Qariganim sari 386
Tuman paydo 387
Boshi kerakdir 388
Chovdurxon uchun 389
Chovdurxon 390
Zorlar ichinda 392
Kechdi, deydilar 392
Davlatalining 393
Bo'lmaydi 395
Dog'-u hasratdan nishon 396
Fe'ling sening 398
Ko'nglim 399
Nihona kelding 400
Dunyo, hey! 401
Yel bilan 402
Zamona 403
Yigit 404
Bizni 406
Nazar ayla 407

Ters chiqar 408
Jam bo'lib 409
Erinib turar 410
Yod ayla Haqni 411
Mehmonidir 412
Ziyon ko'rsa 413
Yutib turibdir 413
Xizmat qilgan ustodga 414
Duch keldim 416
Sado bo'ldim 417
Ko'p jon o'tibdir 418
Qurilmasdan burun 420
Omad 422
Sarf qiladi oshini 423
Kunlarim 423
Omon-omon 425
Nodon falakdan 426
Fasod dunyodir 427
Botar 428
Xor-u zor bo'lding 430
Ko'rmisham 432
Ayrilib....433
Joy ayladi 434
Mol istar 435
Turkman binosi....436
Ko'p bo'lsa 437
Safo bo'lar.... 438
Dali dunyo, hey! 439
Zar bo'lmas 440
G'ariblik 441
Dard bilan 442
Mard qilding 443
Oy-u yillarga 444
Yig'lashmoq bordir 445
Bo'lmasdan burun 446
Osh topmassan 449
Tark aylama bu makonni 450
Sizningdir 452
Xoning qoldi 453
Mehribonim qaydasan? 455
Istamam 457
Bor mening 458
Ilojsiz 459
Nishon qolmadi 461
Quling bo'ldim 462
Yer undadir 464
Doston ayladim 465
To'ldi-ketdi 467
Bilar deya....468
Ko'kdan inmagay 468
Ustodim.... 469
Jahona keldim 470
Yorni yordan ayirgan 472
Topilmas 473
Vahm etar 474
Qoldim bu kun 475
Ishq kitobin ochaylik 476
Yeldan kelar 477
To'lgan emas 478
G'ofil yurding 479
Jon kerak 480
Qurar bo'ldi 481
Ketib bormish 482
Nomardni ko'zlar 485

O‘tim o‘chibdir 487
Pinhon aylar 489
Farmon berar 490
Kular bo‘ldim 491
G‘ayratidan ma’lum 492
Savob bo‘lgay..... 493
Nazar solmas 495
Aylagil o‘zing 496
Suhbat bo‘lmasa 498
Bog‘ butog‘i 500
Yor bilan-ey 501
Bechora.....502
Yor bizni.....504
O‘tib turibdir.....505
Elga yarashmas.....505
Rangidan ma’lum.....507
Bog‘la beling.....508
Oti yaxshidir.....509
Yigitning.....510
O‘tgandan keyin.....511
Ozori ma’lum.....512
Otdan ayrilsa.....513
Qutulmadim zulmingdan.....514
Jon aylading.....516
Kunlar, hey!..... 517
Aql-u hush bilan.....518
Anori bordir.....520
Chiqolmaydi uyindan.....522
Tog‘lar fe’li.....523
Falak bergan davrona.....525
Jonga dushmandir.....526
O‘xshar chilimkash.....528
Emasmi?.....528
Dunyodan.....529
Foniy dunyo.....530
Yolg‘on dunyo.....531
Bo‘ldi bu dunyo.....532
Bu jahon.....534
Foniy dunyoning.....535
Yo‘l etdi.....536
Mohitobonim mening.....537
Jahon ko‘rdim.....538
Bozor ayladi.....539
Bo‘lmasin oxirzamon.....540
Qolmagay.....542
Ichinda.....542
Uch qildi.....544
Meni.....545
Kechmisham, beklar.....546
Qarigan kunlar.....548
Topar bo‘ldim.....548
Rasvo jahondan.....550
O‘xshamas.....551
Bandi bo‘ldim.....552
Hamroh ayladi.....552
Kuygan jonima.....553
Qonlar to‘kar ko‘zidan.....554
Ne hojatdir.....554
Rayhonga o‘xshagay.....555
Ishq do‘zaxina.....556
Qon bilan.....556
Haqning farmonidir.....557
Ixtiyorim olibdir.....557
Jon matosin istagay.....558

Ishq bozorima.....559
Dardga darmondir.....559
Oya o'xshar.....560
Ozor bo'ldi.....561
Nomus bilan or.....563
Naylayin, bechoraman.....564
Qo'ymish armona Mengli.....565
Kelgil pinhon, go'zalim.....566
Ovozim.....568
Jonga kelding.....570
Foniy jahonga yetmas.....571
Bermoq haqdir.....572
Bir dardga yo'liqdim.....574
Qish qo'yar.....575
Dushmanim falak.....575
Deydilar.....576
Karvon chiqar.....577
Ko'zdan oqqan yoshima.....578
Termilib.....579
Yo'llar sari-yey!.....579
Naylasin.....580
Fe'l qolmas.....581
Xoni kerakdir.....582
G'am uyida qolibman.....582
Tole ters aylanib.....583
Nomard falak.....584
Ayirib ketar.....584
Sulaymon naylasin.....585
Qoshi yoy.....586
Bechoraman.....587
Ko'rarsan.....588
Vafot bor.....589
Undadir.....590
Ko'rgan ko'zlarim.....591
Yo Rasul.....592
Songa kelding.....594
Dini bilan-ey.....596
Bu ro'za.....597
Yorlaqagil gunohimni.....598
Oxirzamon kelar.....599
Sabr.....600
Savol-javob.....601
Gunohimni afv ayla.....603
Mehribonim keldi.....605
Jahon Sendan bexabar.....606
Bo'lmoq haqdir.....606
Olajakdir.....607
Ayrilmadimi?.....608
Zamona oxir bo'lganda.....610
Tumor ko'rdim.....612
Devona keldi.....612
Qumli chiqadi.....613
Inson yaratdi.....614
Yoylari bordir.....616
Farmon kelar.....617
Oldingda.....618
Chiqar.....619
Oxirzamon bo'lar.....620
Xabardor bo'ling.....621
Fe'l bilan.....622
Bir ishni tutishdi.....622
Qizdir bu dunyo.....623
Omon, hey!.....624
Xatin na bilsin.....626

Go‘zal yorim ko‘rinmas.....626
Noskash.....627
Jon ichinda.....629
Bo‘lmas.....634
Chilim chekmagil.....635
Chilim.....638
Qolar, azizlar.....639
Jilo ayladi.....642
Jo‘shgan kunlar, hey!.....645
Ayyomni ko‘rdim.....646
Keldi, azizlar.....647
Yor chekar.....649
Iltijo.....650
Barqaror etgan Karim..... 651
Xarob aylar.....653
Mahsharnoma.....654
Nelar bo‘ldi?.....660
Borsa kerakdir.....661
Anbar sochdilar.....663
Rasul.....664
Bihisht ta’rifi.....666
Borgayman-o.....667
Fig‘onim bor.....668
Namoz haqida.....670
Kelsa kerakdir.....671
Ortsa kerakdir.....673
Tekis bo‘lar, azizlar.....676
Hasan birla Husayn.....678
Muhammad Mustafo.....680
Diydor bor.....682
O‘zi bilar.....684
Besh namoz.....685
Ma’rufiy va Maxtumquli
aytishuvi.....686
Muhammad Mustafo.....690
Tillarda go‘yo.....695
Qismat 696
Bo‘lar emish.....696
Namoz.....698

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

MAXTUMQULI

92-jild

Adabiy-badiiy nashr

Tarjimon
Ergash Ochilov

Muharrir *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 44,5. Nashriyot-hisob tabog'i 31,31.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 158-1/22. Buyurtma raqami № 22-375

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

M 32 Maxtumquli [Matn]: nasr va nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Bahodir Karim. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 712 b.
ISBN 978-9943-8571-9-3

UO'K 821.512.164-1
KBK 84(5Tur)-5

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MAXTUMQULI